



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRUGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“MAKTABGACHA TA’LIMNING RIVOJLANISH  
STRATEGIYALARI”  
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**“DEVELOPMENT STRATEGIES OF PRESCHOOL  
EDUCATION” MATERIALS OF THE INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC AND  
PRACTICAL CONFERENCE**

**«СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ»  
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**II Tom**



**04.04.2024,  
Navoiy shahri**

**“Maktabgacha ta’limning rivojlanish strategiyalari”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2024. – 378 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasidan 2024-yil 4-aprel kuni o‘tkazilgan **“Maktabgacha ta’limning rivojlanish strategiyalari”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

### **Mas’ul muharrirlar:**

B.Sobirov – Texnika fanlari doktori, professor.  
R.Davlatova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

### **Taqrizchilar:**

D.Lutfullayeva – O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.  
S.Sayitov – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

### **Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

G.Ermatova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
D.Jabborova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Sh.O‘tamurodova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi

### **Texnik muharrir:**

M.Norqobilov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida dotsenti v/b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2024-yil 6-apreldagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi. Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar ma’suldirlar.

**BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH - MAKTABGACHA TA'LIMGA  
INNOVATSION YONDOSHUV**

*O'zbekiston, Nizomiy nomidagi TDPU  
Maktabgacha ta'lim kafedrası professori  
Djamilova Nargiza Nuritdinovna*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kasb tanlash, uning o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, kasb tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish, maktabgacha yoshdagi bolalar, bilimlar, ko'nikma, malaka, psixofiziologik imkoniyatlar, psixologik xususiyatlar.

**Аннотация:** в данной статье содержится информация о профессии, выборе профессии, ее особенностях, формировании интереса к профессии у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** профессия, выбор профессии, профориентация, дошкольники, знания, умения, психофизиологические возможности, психологические особенности.

**Abstract:** this article contains information about the profession, the choice of profession, its characteristics, and the formation of interest in the profession in preschool children.

**Key words:** profession, choice of profession, career guidance, preschool children, knowledge, skills, psychophysiological capabilities, psychological characteristics.

Mamlakatimizda yosh avlodni intellektual, ma'naviy, axloqiy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalash bilan birga ularni ilk yosh davridan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish ham bugungi kunda dolzarb masalalardan sanaladi. Bizga ma'lumki rivojlangan mamlakatlarda bolalarni erta yoshlik davridan boshlab kasbga bo'lgan qiziqishlari shakllantirib boriladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, kasb - hunarli bolish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida yoritib berganlar. Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday yozadi: "Bas, agar aqling boisa hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql-boshsiz, tan-suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' ep ko'rmas"[8].

Darhaqiqat, kasb tashlash uchun birinchi navbatda tanlaydigan kasb haqida bilimlar, ko'nikma malaka va psixofiziologik imkoniyatlar hamda psixologik xususiyatlari, individual - psixologik jihatdan shu kasbga xos xarakter xususiyat shakllangan bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasbga bo'ldan qiziqishlarini shakllantirish uchun tarbiya bolalarni imkoniyatlarini to'g'ri baholay olgan holda ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishi lozim. Bolalardagi tirishqoqlik, uddaburonlik, chaqqonlik, ziyraklik harakat qilishi, intilishlari jarayonida ularni qaysi kasbni egallashlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun ularga kasblar haqida ma'lumotlar berilishi zarur. Ularga bu kasblarni tanlashlarida ular bilan suhbatlar tashkil etilishi va Kelajakda kim bo'lmoqchisan?", "Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlash kerak?", "Sen shu kasbni bajara olasanmi?", "Qaysi kasb senga yoqadi?" degan ko'plab savollar bilan ularni qiziqishlarini aniqlanadi. Bu savollarga javob olish uchun suhbatdan tashqari faoliyatlarda ularni kuzatish, o'yin, mehnat va ular yasaydigan, chizadigan rasmlardan ham ma'lum bir kasbga qiziqishlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Bolalarda o'ziga xos ravishda ayrim kasblarga qiziqishlar shu kasb bilan bog'liq ayrim psixologik xususiyatlarda ko'zga tashlanadi. Masalan, hozirda qaysi boladan so'rasang ko'proq men tadbirkor bo'laman, o'zimni ishimni yo'lga qo'yaman deb javob beradi. Tadbirkor bu savdo sotiq, ishni tashkil etish, o'zini mehnati bilan kapital ishlash hisoblanadi. Lekin bolalarda ko'proq mashinaga ega bo'lish, puldor bo'lish, hamma narsani bemalol sotib olish kabi tomonlar ko'zga

tashlanadi. Buning ko'zga tashlanmas qiyinchiliklarini ular ko'ra olmaydilar. Shunday o'ziga xos boigan tomonlar esa ularni qiziqtirib boradi. Ularni shunday tomonlarga qiziqib borishi ular orasida tadbirkor bo'lishga havas uyg'otadi. Xuddi shuningdek, tikuvchilik kasbi yoki paxtani qayta ishlash, dizayner bo'lish kabi tomonlar ham bolalarni qiziqishlaridan kelib chiqadi. Har bir kasbni o'ziga xos bo'lgan psixologik tomonlari borki, bu yoshlarni doim o'ziga tortib turadi. Qiziqishini ang'lay olgan bolagina o'zi uchun kasbni to'g'ri tanlay oladi[6].

Bolalardagi havas, qiziqish ularni shu kasbni egallashga intiltirib turadi. Zukko bolalar shu kasbga tegishli bo'lgan bilimlarni eng avvalo kuzatishlar, so'rab bilishlar, multafilmlar orqali, hozirda esa internet orqali bilishga harakat qiladilar. O'zlari qiziqqan kasblari haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdilar. Har bir sohaning o'ziga xos bo'lgan qiziqarli tomonlari mavjuddir.

Tarbiyachi ham bolalarga yetkazib berishi kerak bo'lgan bilimlarni sifatli, qiziqarli, yetib boradigan qilib mashg'ulotlarni o'tkazishga va o'sib kelayotgan yoshlar o'rtasidan yaxshi mutaxassislar yaratishni orzu qiladi. Pedagog tarbiyalagan bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jamiyatga ko'plab yangiliklar kiritishi mumkin bo'ladir. Bolalar o'sib borgan sari ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tadilar. Pedagogik sohada atilganidek bola tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan omillar uni o'ylashga, o'z manfaatlarini yo'qotishda mehnat qilishga majburlaydi. Yetilib kelayotgan yoshlardagi o'zgarish ularni ijtimoiy jarayonlarga va bu jarayonlardagi o'z o'rnini bilishga chorlaydi. Katta bo'layotgan, aql - farosatga ega farzand kelajagi haqida bosh qotiradi, xayol suradi, kelajagini rejalashtiradi. Bular esa unda ko'plab ehtiyojlarni paydo qiladi. Bolalik davridan o'smirlilik va o'spirinlik davrlariga o'tib borayotgan farzandda psixologik va eng asosiysi anatomik - fiziologik o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Endi yoshlar o'zidagi tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy ehtiyojlarni tizimini seza boradi. Bu qator ehtiyojlardan biri yoshlarni kasb orqali o'zini ta'minlash ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyoj yoshlarni kasb tanlashga, o'z hayotini go'zal qilib yashashga majburlaydi. Aks holda ularni jamiyatga zid bo'lgan jarayonlar paydo bo'ladi[7].

Yoshlarni kasb egallashi nafaqat ularning ehtiyoji balki jamiyatning ham ehtiyoji hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat o'z ishlab chiqaruvchilarini yaratishi zarur jarayonga aylanadi. Jamiyat ishlab chiqarish orqali yashaydi va hayot kechiradi. Jamiyat ehtiyojlari har doim o'sib boradi. Uni qondirishning yagona yo'li kasb egalarini tarbiyalash, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda yangidan yangi kasblarni yaratish hisoblanadi. Shuning uchun ham boshqa rivojlangan davlatlarda ko'plab yangi kasblar paydo bo'ladi va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga intiladi.

Jamiyatdagi ko'plab ehtiyojlarni shu kasbga kerak bo'lgan kadrlarni yaratishni talab qiladi. Bu esa yoshlarda, ularning qiziqishlarida va maqsadlarida o'z aksini topadi. Jamiyatda yaratuvchanlikka xos bo'lgan mehnat qadrlanadi. Jamiyat uchun yaratilayotgan mahsulotlar va ularni tashkil etish ko'plab kasblarni paydo qiladi. Demak, ko'rinib turibdiki, inson va jamiyat ehtiyojlari uzviy ravishda bog'liq jarayonlar ekan.

Kasb psixologiyasida kasblarga xos psixologik xususiyatlar va shaxsning psixologik xususiyatlari o'rtasida munosabatlarni o'rganuvchi yo'nalish ham mavjuddir. Psixologik xususiyatlar mavjudki, insonda bu xususiyatlar bo'lmasa u bu kasbda o'z yutuqiga ega bo'la olmaydi. Tadqiqotchilar bu xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus testlar o'tkazib insonni shu kasbga layoqatini tahlil qiladilar. Kasblar o'zidagi faoliyatlarini bajarish uchun insondan ma'lum bir psixologik xususiyatlarni egasi bo'lishlarini talab qiladilar. Deylik xotirani yaxshi bo'lishini, diqqatni yaxshi bo'lishini, hayol jarayonlardagi Qonunlarni o'zlashtirgan bo'lishini, sezgirlikni yaxshi rivojlanganligi, ayrim faoliyatlarda sabr - toqat, tartibliylik, intizom, ijodiy yondosh olish, har xil holatlardan chiqib keta olish, halollik, mehnatsevarlik, boshqalarni hurmat qilish va ularni haq - huquqlarini yaxshi bilish, bilimlilik darajasini yuksakligi, rahbarlik qilish uchun kerak bo'lgan xususiyatlarni bilish, tijorat uchun kerak bo'lgan psixologik xususiyatlarga ega bo'lish kabi ko'plab tomonlar bu jarayonlar uchun kerak bo'ladir[9].

Jamiyatda insonni qiziqtirgan ko'plab kasblar borki ular bir- biridan juda farqlanib turadi va insondan kasbga loyiq bo'lgan psixologik xususiyatlarni talab qiladi. Deylik pedagog uchun didaktik usul juda mos tushsa, axtiyor uchun xotiraning, hayolning va boshqa psixik jarayonlarning o'rnini boshqacha hisoblanadi. To'qimachilik va yengil sanoatda ishlayotgan ishchi, injener, dizayner

uchun o'ziga xos psixologik xususiyatlar kerak boiadi. Ya'ni dizayner uchun estetik did, hayol, tafakkumi egiluvchanligi, diqqat va juda nozik holdagi ranglami ajrata olish kabi ko'plab xususiyatlar zarur boiadi. To'qimachilik va yengil sanoat uchun ko'plab xilma xil kasb egalari kerak boiadi. Bular uchun ham kasb psixologiyasi o'zigaxosbo'lgan inson psixikasini qirralarini shu kasbga xos tomonlarini va shaxsda ulami rivojlantirish masalalarini ham o'rganib boradi.

Yoshlaming qiziqishi, maqsad va manfaatleri o'z dunyoqarashlariga kerak boigan kasbni tanlashga, bu kasbga xos boigan psixologik tomonlami bilishga intiltirib turadi. Kasb psixologiyasi har bir kasbga xos boigan psixologik jarayonlami o'rganib ulami tahlil qilib boradi.

Psixologiyada kasb tanlashdagi asosiy omillar sifatida quyida- gilami ko'rsatiladi: qiziqishlar (bilish bilan bog'liq qiziqishlar, kasbga bo'lgan kasbiy qiziqishlar, havas); qobiliyatlari (ma'lum bir faoliyatdagi psixologik mexanizm sifatida); temperament va xarakter. Bu omillami ko'p hollarda subyektiv omillarga kiriti- shadi. Keyingi omillar guruhiga (bulami odatda obyektiv omillar deb yuritiladi) o'ziga quyidagilami qamrab oladi: tayyorgarlik darajasi (ulgura olishi), sog'lig'ining holati, kasb haqidagi ma'lumotlari va ularni bilish darajasi. Bundan tashqari ijtimoiy muhitni ham ajratib ko'rsatiladi. Bularga ijtimoiy muhit, oilaviy muhit, ota - onaning ma'lumotlilik darajasi. Bu jarayonlarda ayniqsa qobiliyatlarga katta e'tibor beriladi. Insonning qobiliyati kasb tanlashdagi eng muhim tomonlardan hisoblanadi[9].

Bolalar kasbga qiziqqanlarida shu kasbga tegishli bo'lgan psixologik talablar hali bilmaydilar. Har bir kasbga kerak bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lib ular shu kasbni yaxshi bajarilishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Kasb tanlashda yana insonni jinsiga ham e'tibor berish talab qilinadi.

Tarbiyachi bolalarga har bir kasb o'ziga yarasha insondan ma'lum bir xususiyatlami bo'lishini talab qilishi, shunday kasblar borki ular insondan iroda kuchini ko'proq sarf qilishni talab qilsa, ayrim kasb egalari uchun ishni tez va sifatli bajarilishi talab qilinishi, ba'zilar insondan diqqatni, tafakkumi, chidamni, ozodalikni, mehmi va shu kabilami talab qilishini tushuntirib borishlari zarurdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kasb tanlashni maktabgacha ta'limdan boshlash ularda o'zida ma'lum bir xislatlami borligini namoyon qiladi. Ota - onalar va tarbiyachilar bolalardagi bu xislatlar ulami kelajagi bilan bog'liqligini his etgan holda ulami tarbiyalab borishlari zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun T.:2019- yil, 16-dekabr, O'RB – 595-son.
3. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.
4. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri.- T., 1993.
5. AbdullaAvloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq.-Toshkent: O'zbekiston, 1992.
6. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi (o'quv qo'llanma).-T.:P TTESI., 2017.
7. Jalolov.A Kasb qanday tanlanadi.- T., 2010.
8. Kaykovus "Qobusnoma" ,-T., 1994. 26b.
9. Karimova V.M. Kasb psixologiyasi.- T., TTYI, 2013.

## **ПРОСТРАНСТВО СОВРЕМЕННОЙ ДОШКОЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ИНФРАСТРУКТУРЫ ДЕТСТВА**

*Узбекистан, филиала РГПУ имени А.И.Герцена в г.Ташкенте  
Джаннеисова Г.Э., зав.кафедрой Дошкольное образование*

**Аннотация:** данная тема исследования посвящена изучению роли пространства современной дошкольной организации в формировании инфраструктуры детства. В работе анализируются основные аспекты организации пространства дошкольного учреждения, его влияние на развитие детей и создание благоприятной среды для обучения и игры.

Рассматриваются современные подходы к проектированию и обустройству дошкольных учреждений, а также вопросы организации игровых и образовательных зон.

**Ключевые слова:** Инфраструктура, детство, ДО, пространство, физическое, психологическое, интеллектуальное, социальное, комфорт, безопасность, среда, дети.

**Abstract:** this research topic is devoted to studying the role of the space of a modern preschool organization in the formation of childhood infrastructure. The work analyzes the main aspects of organizing the space of a preschool institution, its impact on the development of children and the creation of a favorable environment for learning and play. Modern approaches to the design and arrangement of preschool institutions, as well as issues of organizing play and educational areas are considered.

**Key words:** Infrastructure, childhood, preschool education, space, physical, psychological, intellectual, social, comfort, safety, environment, children.

Под понятием «**Инфраструктура детства**» подразумевается что это совокупность условий, средств, ресурсов и возможностей, которые создаются для обеспечения полноценного развития и воспитания детей. Она включает в себя все аспекты окружающей среды, которые оказывают влияние на жизнь и развитие детей: от дошкольных учреждений и образовательных программ до игровых площадок, спортивных объектов, медицинских услуг и культурных мероприятий.

Инфраструктура детства направлена на создание благоприятных условий для физического, интеллектуального, эмоционального и социального развития детей. Она включает в себя такие элементы, как детские сады, школы, спортивные клубы, библиотеки, медицинские учреждения, культурные центры и другие учреждения и объекты, которые способствуют полноценному развитию детей.

Инфраструктура детства играет важную роль в формировании здоровья, образования, навыков и навыков детей, а также в подготовке их к полноценной жизни в обществе. Создание качественной инфраструктуры детства требует комплексного подхода, включающего в себя не только материальные ресурсы, но и профессиональных специалистов, педагогические программы, инновационные методики и технологии. Таким образом, инфраструктура детства является основой для успешного развития и воспитания детей, обеспечивая им доступ к необходимым ресурсам и услугам для реализации своего потенциала и достижения личностных целей.

Пространство современной дошкольной организации – это учреждение, где предоставляются услуги по воспитанию, обучению и развитию детей в возрасте до школьного. Оно предлагает комфортные и безопасные условия для развития детей, а также обеспечивает их потребности в игре, общении, питании, снабжении и охране здоровья. Современное пространство дошкольной организации представляет собой специально оборудованное здание или комплекс, состоящий из различных зон и помещений, созданных с учетом потребностей детей и принципов их педагогической работы.

Пространство современной дошкольной организации играет важную роль в формировании инфраструктуры детства. Развитие ребенка в младшем возрасте в значительной степени зависит от условий, в которых он находится, и организации пространства, которое ему предоставляется. В настоящее время дошкольные учреждения стремятся создать комфортную и безопасную среду для развития детей. Пространство в дошкольных организациях должно быть организовано таким образом, чтобы обеспечить развитие всех аспектов детской жизни - физического, психологического, интеллектуального и социального.



Физическое пространство дошкольной организации должно быть специально адаптировано для детей. Это означает, что помещения должны быть безопасными, просторными и удобными для движения детей. Важно предоставить разнообразные возможности для физической активности, включая спортивные игры, занятия физкультурой и прогулки на свежем воздухе.

Психологическое пространство дошкольной организации должно создавать условия для развития эмоциональной стабильности и самостоятельности детей. Это может включать специальные зоны для отдыха, релаксации и игры. Например, можно предоставить мягкие уголки, где дети могут почитать книги или отдохнуть от активных игр. Также важно создать возможности для самостоятельного выбора и принятия решений, чтобы дети могли развивать свои навыки и уверенность в себе.

Интеллектуальное пространство дошкольной организации должно стимулировать развитие интеллектуальных способностей детей. Это может быть осуществлено через организацию различных образовательных зон, включающих игрушки, книги и учебные материалы. Важно предоставить детям возможность самостоятельного исследования и экспериментирования, чтобы они могли развивать свою фантазию и творческие навыки.

Социальное пространство дошкольной организации должно способствовать развитию коммуникации и социальных навыков детей. Важно предоставлять возможности для совместных игр и деятельности, где дети могут учиться взаимодействовать друг с другом, делиться, сотрудничать и решать конфликтные ситуации. Это может быть осуществлено через организацию групповых игр, дискуссий и проектных занятий.

Кроме того, пространство дошкольной организации должно быть спроектировано с учетом потребностей различных возрастных групп детей, их интересов и способностей.

Например, для младших детей важно предусмотреть безопасные игровые элементы и места для отдыха, а для старших – зоны для творчества и самостоятельной работы.

Современные подходы к проектированию и обустройству дошкольных учреждений уделяют особое внимание созданию комфортной, безопасной и стимулирующей среды для детей. Они учитывают психологические, педагогические и архитектурные аспекты, чтобы обеспечить оптимальные условия для развития детей.

Организация игровых и образовательных зон также играет важную роль в формировании пространства дошкольного учреждения. Современные концепции предполагают создание разнообразных зон для игр и обучения, которые стимулируют физическое, когнитивное и эмоциональное развитие детей. Это могут быть игровые комнаты, специализированные уголки для творчества, зоны для физической активности, места для чтения и общения.

Важно также учитывать индивидуальные потребности и интересы детей при организации игровых и образовательных зон. Дифференцированный подход позволяет создать среду, которая будет способствовать разностороннему развитию каждого ребенка, учитывая его возраст, способности и предпочтения.

Таким образом, современные подходы к проектированию и обустройству дошкольных учреждений направлены на создание инновационных, функциональных и удобных пространств, которые поддерживают развитие детей и способствуют формированию положительного опыта обучения и игры. Также пространство современной дошкольной организации играет важную роль в формировании инфраструктуры детства. Оно должно быть организовано таким образом, чтобы обеспечить развитие всех аспектов детской жизни - физического, психологического, интеллектуального и социального. Создание комфортной и безопасной среды для развития детей является одной из ключевых задач дошкольных учреждений.

#### **Список использованных источников:**

1. Аболонина А.Л. Некоторые вопросы проектирования дошкольных и школьных зданий в районах севера Тюмени.- Архитектура СССР, 1981, № 12, с.39-40.'
2. Блохина Н.Б. Проектирование и строительство детских учреждений.- В сб.: Прогнозы развития системы обслуживания и типов зданий.- М.: 1969.
3. Блохина Н.Б., Вихрова Л.Т., Давыцова Г.М. Детские дошкольные учреждения.- М.: Стройиздат, 1974.- 192 с.
4. Гайзакова Р.Т., Кострикина Т.Д. Оформление детских дошкольных учреждений. Значение архитектурно-пространственной сферы и воспитания дошкольников.- М.: Просвещение, 1974, 1974.64 с.
5. Детские сады-ясли /ЦНИИЭП учебных зданий.- М.: Стройиздат, 1966. 16.Здания детских яслей-садов: Рекомендации по проектированию.- М.: Стройиздат, 1975.- 66 с.

## **МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАР ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

*Ўзбекистон. НИУ Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси  
доценти, PhD. Хайдарова Шахло Нарзуллаевна*

**Аннотация:** Ушбу мақолада болалар туризмнинг ижтимоий жиҳатдан жуда муҳим эканлиги, шунингдек, ёш авлодда жамиятда ўзини тута билиши, ўзини ўзи тарбиялаши, замонавий ҳаёт шароитларига тез мослашиши, саломатлик заҳираларини кўпайтиришга, кучини тиклашга, боланинг танасида функционал имкониятларини кенгайтиришга катта имкон бериши эътироф этилган.

**Калит сўзлар:** туризм, музей, миллий қадрият, қадимий обида, тарихий қадамжо, чидамлилиқ, инновацион ёндашув, жамоавийлик, матонат, саломатлик заҳиралари, функционал имкониятлар.



**Аннотация:** В данной статье признается, что детский туризм очень важен с социальной точки зрения, а также дает прекрасную возможность молодому поколению научиться самоконтролю в обществе, самообразованию, быстрой адаптации к современной жизни. состояния, повышают резервы здоровья, восстанавливают силы, расширяют функциональные возможности детского организма.

**Ключевые слова:** туризм, музей, национальная ценность, древнее место, историческое место, устойчивость, инновационный подход, коллективность, устойчивость, резервы здоровья, функциональные возможности.

**Abstract:** In this article, it is recognized that children's tourism is very important from a social point of view, and it also gives a great opportunity for the young generation to learn self-control in society, self-educate, quickly adapt to modern life conditions, increase health reserves, restore strength, and expand the functional capabilities of the child's body.

**Key words:** tourism, museum, national value, ancient site, historical site, resilience, innovative approach, collectiveness, resilience, health reserves, functional capabilities.

Мактабгача таълим ташкилотида болаларни соғломлаштиришнинг назарий ва амалий вазифаларидан бири улар соғлигини сақлаш ва мустақкамлашнинг инновацион ёндашувларни жорий этиш ҳисобланади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда таълимий (болалар ва ёшлар) туризмнинг ривожланиши туризм соҳасидаги давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланиб бормоқда.

Республикамизда ёшлар туризми соҳасига жуда катта эътибор қаратилмоқда. Жумладан, мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони [1], 2019 йил 5 январдаги ПҚ-4095-сон “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори [2], 2020 йил 13-августдаги ПФ-5781-сон “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони [3] имзоланди.

Ушбу қарор ва фармонларнинг ижросини таъминлаш мақсадида мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган ёш авлодни миллий қадриятларимиз саналган қадимий обида, тарихий қадамжоларни ўргатиш долзарблик касб этади.

Бугунги кунда яратилган шарт-шароитлар ҳамда имтиёзлар доирасида, мухтарам президентимиз томонидан қабул қилинган туризмга оид қарор ва фармонлардан мақсадли фойдаланиш лозим ҳисобланади.

Болалар туризми ижтимоий жиҳатдан жуда муҳим. Туризм болаларга ўз юртимиз ва бошқа давлатларнинг тарихий ҳамда маданий мероси билан танишиш, чуқурроқ билиш, болаларда миллий ўзига хослик туйғусини уйғотиш, бошқа миллат ва элатларнинг кундалик ҳаёти, урф-одатларига ҳурмат ва бағрикенгликни тарбиялаш имконини беради [2]. Бола шахсининг ҳар томонлама ривожланишида ҳам туристик саёҳатларнинг роли катта.

Туристтик саёҳатлар, сайрлар ва экскурсиялар ёш авлодга уларнинг интеллектуал даражасини ошириш, кузатувчанликларини ривожлантириш ва дунёнинг гўзалликларини идрок этиш имкониятини яратади [7]. Туризм жисмоний чарчок, руҳий стрессни енгиллаштирадиган восита сифатида ҳам муҳимдир. Шунингдек, болалар туризмнинг ёш авлодда жамиятда ўзини тута билиш, ўзини ўзи тарбиялаш, замонавий ҳаёт шароитларига мослашишига таъсир кўрсатишини таъкидлаш лозим. Бундан ташқари, болаларнинг соғломлаштирувчи туризми – бу ёш авлодни тарбиялашда катта аҳамиятга эга бўлган инсон ва умуман жамиятнинг соғлом турмуш тарзини шакллантиришга ёрдам берадиган энг самарали соғлиқни сақлаш технологияларидан бири ҳисобланади [4]. Шунинг учун ишонч билан айтиш мумкинки, болалар туризми – янги авлодга инсоният томонидан тўпланган ҳаётини тажриба ва моддий-маънавий меросни топшириш, қадриятларни

кадрлаш, миллатнинг маънавий тикланиш ва маданий ривожланиш, шахсни ижтимоийлаштириш йўли ҳисобланади.

Мактабгача таълим туризми мактабгача ёшдаги болаларни соғломлаштиришнинг кучли омилидир, чунки у барча учун бирдай фойдаланиш имконияти билан ажралиб туради ва жиддий паталогиялар бўлмаган тақдирда деярли ҳар бир болага тавсия этилади.

Туризмнинг ўзига хослиги шундаки, уни ҳар қандай фаслда ташкил қилиш мумкин. Шунга кўра, болаларнинг ҳар хил касалланиш динамикасини камайтиришга, уларнинг жисмоний ва ҳаракат фаоллигини оширишга эришиш мумкин, шунингдек болаларнинг бир қатор рухий саломатликлари бўйича муаммоларини ҳам ҳал қилиш мумкин.

Сўнгги пайтларда болаларнинг касалланиши мактабгача таълим ташкилотларида соғломлаштириш ишларини қайта кўриб чиқишни тақозо қилади, шунингдек бу муаммони бартараф қилишнинг оптимал вариантларини топишга, болалар саломатлигининг кўсаткичлари, уларнинг саломатлигини мустаҳкамлашнинг янада самаралироқ чораларни кўриш талаб этилади. Кўпгина болалар жисмоний ривожланишнинг соматик, жисмоний ва психологик ривожланиш муаммоларини ўзида мужассамлаштирган махсус технологиялар ва текширишларга мухтождир [9].

Мактабгача таълим ташкилотларида бундай ишларни ташкил этиш “Жисмоний ривожланиш ва соғлом турмуш тарзи” соҳасининг вазифаларини чуқурроқ ҳал қилишга имкон беради.

Мактабгача таълим ташкилотларида туризмни ташкил қилиш осон, арзон, шу билан бирга табиий ва амалга оширилиши мумкин бўлган ҳамда тарбияланувчиларнинг жисмоний имкониятлари билан боғлиқ бўлган спорт тури саналади.

Туризм инсон характерининг жамоавийлик, тартиб-интизом, матонат каби ажойиб фазилатларини ривожлантиради, болаларда иродани мустаҳкамлайди, мардлик, мустақиллик, ўзаро тушунишни ривожлантиради. Шунингдек, туризм орқали мактабгача ёшдаги болада экологик маданият кўникмалари шаклланади, бу болаларда табиат ва об-ҳаво ҳодисалари ҳақидаги билимларини кенгайтиришга ёрдам беради. Боланинг жисмоний тайёргарлигининг асоси сифатида мувофиқлаштириш қобилиятлари ва чидамлилиги мустаҳкамланади [5].

Болалар туризми тоғларга, қир-адирларга сайр қилишни, музейларга, турли вилоят, шаҳар ва ташкилотларга боришни ҳамда ўйин-кулгиларни ўз ичига олади.

Мактабгача таълим ташкилотларида туризмни ривожлантиришнинг асосий омили сифатида болалар билан хавфсизлик чоралари, паркда ёки кўчаларда ўзини тутиш қоидалари бўйича дастлабки ишларни ташкил этиш лозимдир.

Болалар туризм ҳақидаги таассуротларни турли расмларда ифодалайдилар, ота-оналарнинг фарзандлари билан биргаликда кўргазмалари ташкил қилинади ва фотоальбомлар тайёрланади.

Жисмоний тарбия ва соғломлаштириш ишлари тизимида болалар туризми фаол дам олишнинг самарали шакли сифатида ўзини намоён қилади, бу минимал вақт билан саломатлик заҳираларини кўпайтиришга, кучини тиклашга, иш фаолиятини тиклашга, боланинг танасининг функционал имкониятларини кенгайтиришга имкон беради [6].

Мактабгача таълим ташкилотларида ташкил этиладиган туризм кўп жиҳатдан болалар психик ривожланиши (хотира, диққат, нутқ, тафаккур) умумий мантиқий фикрлаш даражаси, қизиқишлари билан чамбарчас боғлиқ бўлиши керак.

Хулоса қилиб шунини айтиш жоизки, мактабгача таълим ташкилотларида ташкил этиладиган туристик сайёҳатларни режалаштиришда болаларни олдиндан ҳар томонлама чиниқтириш, уларнинг соғлигини, ёш хусусиятларини инобатга олиш ҳамда тадбирларни шу асосда ташкил этиш лозим бўлади. Бунда тарбиячи ўзининг ишини тўғри ташкил эта олиши ҳамда ота-оналар билан ҳамкорлик ишларни ташкил эта билиш лаёқатларини кўрсата билиши жуда муҳим ҳисобланади. Бу эса тарбиячининг касбий маҳоратига боғлиқдир. Шундан келиб чиқиб, тарбиячиларнинг туризмга оид билим, кўникма ва

малакаларини янада кўпроқ бойитиш мақсадида уларга зарур илмий-амалий ёрдам кўрсатиш муҳимдир.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПҚ-4095-сон “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13-августдаги ПФ-5781-сон “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
4. Фролов В.Г. “Сайрларда жисмоний тарбия машғулоти, ўйинлари ва машқлари” Тошкент. Ўқит. 1998 йил
5. Мирзаев М.А., Алиева М.Т. “Туризм асослари”.Т.,“Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти” 2011 йил.
6. Шарипова Д., Тоирова М., Мухамедова С. “Агар болам соғлом бўлсин десангиз” Тошкент “Илм Зиё” -2006 йил
7. Усмонхўжаев Т.С., Тоирова М.Т. “Болалар боғчасида сайрларни ўтказиш”. Т.: Чўлпон. 2008 йил
8. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system. science and innovation international scientific journal volume 2 issue 11 november 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278>
9. S.B.Sanayeva, Sh.N.Xaydarova “Maktabgacha ta’lim va tarbiyasi tashkil etish”. Darslik. T-2023 yil.

### МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi  
Umurzaqova Umida Nosirjonovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni ta’lim tizimida faol rivojlantirishning maktabgacha ta’limdagi ahamiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, ekologik ma’lumotlarni elektiron topish, va bu borada malakaviy loyihalar va ilmiy tadqiqotlar olib borish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli ekologik ta’lim, “Ekologik yo‘lakcha”, ekologik ta’lim va tarbiya

**Abstract:** This article is devoted to the importance of active development of the digital economy in the educational system in preschool education, provides recommendations on finding ecological data, and on qualification projects and scientific research in this regard.

**Keywords:** digital economy, digital environmental education, "ecological corridor", environmental education and education

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarada, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish buyicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 18 maydagi «Raqamli iqtisodiyot» va «elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4321-sonli qarorining 3.b–bandida «davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish, ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish

va amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish» vazifalari qo'yilgan.

**Raqamli iqtisodiyot** – raqamli texnologiyalarga tayangan iqtisodiy faoliyat, ya'ni elektron biznes va kommersiya bilan bog'liq bo'lgan raqamli tovar ishlab chiqish va xizmatlarni ko'rsatishdir [1]. Ushbu g'oyani ilk bor fanga 1995 yil AQShning Massachussets texnologik universiteti professori Nikolas Negroponte fanga olib kirdi. U tovarlarning fizik holat va harakat o'Ichamlari bo'yicha emas, balki raqamlar orqali ifoda etishni ma'qul deb bildi.

N.Negroponte iqtisodiy munosabatlarda qatnashuvchi barcha narsalarni (obyektlarni) va kishilarni (subyektlarni) raqamli texnologiyalar ko'rinishida aks ettirish va uni elektron tarzda boshqarish mumkinligini isbotladi [2]. Bu iqtisodiyotning katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini yaratish, almashish va hoxlagan masofaga juda katta tezlikda uzatish imkoniyatini beradi.

Quyida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologik yo'lakchalar" yaratish bo'yicha ma'lumotlarni elektron topish va algoritmlarni bajarish orqali raqamli texnologiyalardan foydalanish keltirilgan.

1-ish, «Ta'lim xizmati» portaliga kiramiz va unda "Ekologik yo'lakchalar"ni yaratishning turli xil variantlari bilan «Ma'lumotlar bazasi» orqali tanishib chiqamiz;

2-ish, o'zimizning MTTda "Ekologik yo'lakchalar"ni joylashtirish joyimizga qarab aniq bir variantni tanlab olamiz va uning barcha parametrlarini tahlil qilamiz va buyurtma loyihasini ishlab chiqamiz [4];

3-ish, "Ekologik yo'lakchalar"ni tayyorlab beradigan korxonaning barcha rekvizitlari bilan tanishib chiqamiz, imkoniyatlarini baholaymiz, shartlarini o'rganamiz va kafillik darajasini aniqlaymiz;

4-ish, buyurtmani tegishli korxonaga saytiga jo'natamiz va operativ ravishda undan javobini olamiz;

5-ish, elektron ravishdagi shartnomani tuzamiz va bizning hisobimiz turgan bank orqali tegishli moliya mablag'ni o'tkazib beramiz yoki depozit hisobidan bank kafilligi orqali buyurtmani bajarishga kirishiladi;

6-ish, burtmaning bajarish jarayonini, ya'ni "Ekologik yo'lakchalar" loyihasi, bajarish yo'llari, ishlatiladigan materiallar va jihozlar, xavfsizlik darjasi, kafillik muddatlari haqida Internet orqali nazorat va monitoringini olib boramiz;

7-ish, nazorat esa burtma tayyor bo'ladigan kunni aniq qilib olish imkoniyatini yaratadi va transoport korxonalari bilan elektron shartnoma orqali uni o'z muddatida MTTga yetkazishni ta'minlaydi.

Buday masofadan turib barcha amallarni raqamli iqtisodiyot orqali operativ ravishda amalga oshirish uchun, albatta, milliy, mintaqaviy, mahalliy va lokal miqyosda tez ishlaydigan Internet tarmog'i va axborot texnologiyalariga ega bo'lshimiz, raqamli ma'lumot va xizmatlar bankini yaratishimizga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham «Raqamli iqtisodiyot»ni ko'pincha «Internet iqtisodiyot» ham deb atashadi.

Maktabgacha ta'limda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish – «Telebog'cha» shaklidagi ta'lim va tarbiya sifatini ko'taruvchi resurs bo'lib hisoblaniladi. U o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-pedagogik, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, kadrlar, moddiy-texnik ta'minotni raqamlashtirish orqali ta'lim-tarbiyani yuqori pog'onaga jadal suratlarda olib chiqish imkoniyatini beruvchi kishilik jamiyati faoliyatidir [3]. MTTda raqamli ekologik ta'lim va tarbiyaga o'tish uchun quyidagi mavzular bo'yicha malakaviy loyiha ishlar va ilmiy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi:

1. MTTda ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha raqamli elektron katalog yaratish.
2. «Jajji ekolog» mavzusida infografik multimedia vositasini ishlab chiqish.
3. MTTning 5 ta rivojlantirish markazlarida ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha infografik multimedia vositasini tayyorlash.
4. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonat olami bo'yicha infografik multimedia vositasini tayyorlash.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o‘simlik olami bo‘yicha infografik multimedia vositasini tayyorlash.

6. MTTda «Ekologik burchak»ni tashkil etish bo‘yicha infografik namunaviy stend loyihasini yaratish.

7. Ekologik sanalarga bag‘ishlangan mahalliy sharoitni inobatga oluvchi infografik taqvim plakatlarini tuzish.

8. «Ona tabiat» mavzusida infografik multimedia vositasini ishlab chiqish.

9. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun «Ekologiya va atrof-muhit muhafazasi» mavzusida infografik stent loyihasini yaratish va h.k.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim va tarbiyani yangi bosqichga olib chiquvchi ilmni, bolajon va pedagoglarning ekologik ma’rifatini shakllantiruvchi ta’limni, zamonaviy axborot texnologiyalarini ekologik boshqaruvga tatbiq etuvchi raqamli iqtisodiyot amalga joriy etish zamon talabidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Нигматов А. Компетентный подход в образовании// Ж. Мактабгача таълим (методика ва назария). №10.2019.–15–17-б.

2. N.Negroponte . Bits&Atoms. University of Phoenix (<https://ru.wikipedia.org/wiki>).

3. В.Чумаков. Стратегии цифрового лидерства // В мире науки. № 10. 2019.– С. 70-77

4. У.Н.Умурзакова. Рақамли таълим ва экологик технологиялар //Муаллим ҳам узлуксиз билимлендирий. №2. 2024.-С. 317-321.

### **O‘ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI VA TURLARINING QIYOSIY TAHLILI**

*O‘zbekiston, Finlandiya pedagogika instituti  
Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti, p.f.n  
Fayzullayev Sharifboy Nurullayevich  
O‘zbekiston, Finlandiya pedagogika instituti  
maktabgacha ta’lim kafedrası 1-bosqich magistranti  
Toshquvatova Gulchehra Mirpulat qizi*

**Аннотация:** Ushbu maqolada, O‘zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta’lim turlarining o‘xshashlik va farqlar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Maktabgacha ta’lim bolaning ta’lim va rivojlanishining asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Aynan shu dastlabki yillarda bolalar kelajagidagi akademik muvaffaqiyatlari va umumiy farovonligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan muhim ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘ladilar. Finlandiya va O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida bolaga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’kidlaydi.

**Калит so‘zlar:** O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi va turlari, Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimi, bolaning rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikma, o‘quv dasturi, o‘qitish metodlari.

**Аннотация:** В этой статье будут рассмотрены и рассмотрены сходства и различия между видами дошкольного образования в Узбекистане и Финляндии. Дошкольное образование играет решающую роль в формировании основ воспитания и развития ребенка. Именно в эти ранние годы дети приобретают важные навыки и знания, которые станут основой их будущих успехов в учебе и общего благополучия. Подчеркивает ориентированный на ребенка подход в системе дошкольного образования в Финляндии и Узбекистане.

**Ключевые слова:** система и виды дошкольного образования в Узбекистане, финская система дошкольного образования, развитие ребенка, социальные навыки, учебная программа, методы обучения.

**Abstract:** This article will examine and examine the similarities and differences between the types of preschool education in Uzbekistan and Finland. Preschool education plays a crucial role in

shaping the foundations of a child's upbringing and development. It is during these early years that children acquire important skills and knowledge that will form the basis of their future academic success and overall well-being. Emphasizes the child-centered approach in the pre-school education system in Finland and Uzbekistan.

**Keywords:** system and types of preschool education in Uzbekistan, Finnish preschool education system, child development, social skills, curriculum, teaching methods.

Finlandiya va O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tizimi har bir mamlakatning turli madaniy, ijtimoiy va ta'lim sharoitlarini aks ettiradi. Ikkala xalq ham maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining farovonligi va rivojlanishini birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsa-da, o'quv dasturlari, infratuzilma va madaniy ta'sirlardagi farqlar maktabgacha yoshdagi tajribalarni keltirib chiqaradi. Ushbu o'xshashlik va farqlarni tushunish siyosatchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun juda muhimdir, chunki bu fikr va amaliyot almashish imkonini beradi, global miqyosda erta bolalik ta'limini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

**Finlandiyada birinchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari 1850** -yillarning oxirida tashkil etilgan. Ularning oldiga vazifa qo'yilgan - ota -onasi ishlayotgan paytda ishchilar oilasidagi bolalarni qo'llab -quvvatlash. Keyinchalik bolalar bog'chasi siyosati bolalarni maktabga tayyorlashga yo'naltirildi. **70** -yillarning boshlarida bolalar bog'chalari ijtimoiy ta'minot tizimining bir qismi bo'lishiga qaramay, ular tarbiyaviy funktsiyalarni bajarishni boshladilar. Fin bolalar bog'chalari har xil rivojlanish muhitini va do'stona, ishonchli munosabatlarni yaratishga asoslangan. Finlandiya davlati samarali ta'lim tizimi bilan Yevropa davlatlari ro'yxatida birinchilikda turadi.

Finlandiya MTTlarida yosh guruhlari:

- . 9 oy- 3yosh yasli guruh;
- . 4-5 yosh maktabgacha yosh guruhi;
- . 6 yosh maktabga tayyorlov guruhi.

Finlyandiyada bolalar bog'chalari ishining tamoyillari:

- rivojlanish uchun qulay muhit yaratish;
- namuna bo'yicha ta'lim;
- faoliyatning o'yin shakllari orqali ta'lim va tarbiya;
- o'yin orqali o'rganishni rag'batlantiradigan rivojlanayotgan predmetli-fazoviy muhitni yaratish;
- bolalar uchun sog'lom hayot ritmini tashkil etish;
- tayyorgarlik maktab yoshidagi bolalarning mehnat faoliyatini ("qo'l pedagogikasi" deb ataladi) va badiiy va estetik rivojlanishini tashkil etish.

Finlyandiyada maktabgacha ta'lim tizimi MTTmlarning quyidagi turlarini nazarda tutadi:

**1. Shahar (davlat) MTTmlari** - bir guruhda 10 dan 25 gacha bolalar bor, ta'lim va tarbiya 4-5 tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi.

**2. Xususiy MTTM** - ta'lim va tarbiyaning turli yo'nalishlarini ifodalaydi:

- chet tillarini o'rgatish,
- sport,
- san'at va boshqalar.

**3. Oilaviy MTT** - o'qituvchi yoki bolaning shaxsiy uyida yoki kvartirasida joylashgan. Bunday bolalar bog'chasida bir nechta bolalar, asosan, bitta tarbiyachi shug'ullanadigan to'rtta bola, to'liq kun bo'lishi mumkin. Oilaviy bolalar bog'chasini tashkil etishga qo'yiladigan talablar o'yin uchun jihozlangan joy, yurish uchun uxlash joyi mavjudligini o'z ichiga oladi[1].

Shuningdek, Finlyandiyada "tungi turdagi" MTTlar mavjud. Inklyuziv ta'lim Finlandiyada keng tarqalgan bo'lib, kasal va sog'lom bolalar, turli millat va ijtimoiy kelib chiqishi har xil bo'lgan bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Shu bilan birga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari ham bor. Ulardan ba'zilari jismoniy, aqliy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishda nogironligi bo'lgan bolalarga xizmat ko'rsatadi ( bunday bolalar bog'chasining bir guruhida 8 ta bola va 4 ta tarbiyachi bo'lishi mumkin). Finlandiya maktabgacha ta'lim muassasalari **6:30** yoki **7:00** dan **17:00** yoki **18:00** gacha faoliyat ko'rsatadi. Har bir guruhda yoshiga qarab 12 tadan 21 tagacha bola bo'lishi mumkin.

**O‘zbekistonda** ilk maktabgacha ta’lim muassasalari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ochilgan. Bunday muassasalar Toshkent, Samarqand, Buxoro va Andijon kabi yirik shaharlarda ochilgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so‘ng barcha viloyat va shaharlarda rivojlana boshlagan. MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish[2].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim va tarbiya jarayonini o‘quv yili bo‘yicha tashkil qiladi. O‘quv yili 2-sentabrda boshlanadi va 31-maygacha davom etadi. 1-iyundan 31-avgustgacha MTTda yozgi sog‘lomlashtirish davri tashkil etiladi. Bolalarni qabul qilish, erkin o‘yin faoliyati, ertalabki badantarbiya 7:30 – 8:20 gacha. Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi 17:30 – 18:00 gacha davom etadi. Davlat va nodavlat shaklida, shu jumladan DXSh shartlarida tashkil etilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin:

- umumiy turdagi guruhlar – ularda umumiy rivojlanish yo‘nalishidagi guruhlarda davlat ta’lim dasturlari amalga oshiriladi;
- ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan guruhlar – rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun;
- inklyuziv guruhlar, ularda sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali bolalarning ta’limga bo‘lgan alohida ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda teng darajadagi ta’lim va tarbiya ta’minlanadi;
- qo‘shma turdagi guruhlar – bitta tashkilotda rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan va bunday nuqsoni bo‘lmagan bolalarni alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda qo‘shma turda ta’lim olib boriladi.
- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
- oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari
- xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari.

Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, respublikamizda **2021- yil boshida** jami **7753** ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari inobatga olinmagan) faoliyat yuritmoqda.

- Guruhlar yoshga doir toifalar bo‘yicha ilk rivojlanish (1 yoshdan 3 yoshgacha), kichik (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- o‘rta (4 yoshdan 5 yoshgacha);
- katta (5 yoshdan 6 yoshgacha) guruhlariga;
- maktabga tayyorlov guruhiga (6 yoshdan 7 yoshgacha) bo‘linadi.

Guruhlarni to‘ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish har yili o‘quv yili boshlanguniga qadar amalga oshiriladi[3].

Qonunda ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari: bolalar, ularning qonuniy vakillari va pedagog xodimlarning huquq va majburiyatlari qayd etilgan. Davlat bolalar bog‘chalarining boshqaruv organlari: pedagoglar kengashi, kuzatuv kengashi va rahbarlarning vakolatlari tartibga solindi[4].

Xulosa qilib aytganda, ikkala davlat ham maktabgacha ta’lim tashkilot (MTT)lari o‘qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishga ustuvor ahamiyat beradi. Finlandiya va O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari uchun qulay ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlaydigan qat’iy standartlar mavjud. Ikkala mamlakatdagi o‘qituvchilar bolalarning rivojlanish bosqichlarini tushunish va tegishli o‘qitish metodikasini qo‘llash uchun o‘qitiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.2020 “ Yangi O‘zbekiston” va “ Pravda Vostoka ” gazetalari tahririyati

2. "Takomillashgan ilk qadam" O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr uchun tavsiya etilgandasturi

3. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/bolalar\\_bogchalari\\_turlari\\_guruhlar\\_tuldirilishi\\_is\\_h\\_rejimi\\_va\\_davlat\\_boshqaruvi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_bogchalari_turlari_guruhlar_tuldirilishi_is_h_rejimi_va_davlat_boshqaruvi)

4. Fayzullayev Sh.N. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi". Samarqand-2022, Darslik; "SamDu" nashriyoti, 196-bet.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH UCHUN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi Shamiyeva Manzura Fayzullayevna,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Amonov Aziz G'aybullá o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash orqali rivojlantiruvchi markazlar va frontal faoliyatlarda olib borilayotgan ta'limiy faoliyatlarni yanada takomillashtirish mumkunligi haqida bayon qilingan. Zamonaviy innovatsiyalarni qo'llash bolalar uchun zamonaviy bilimlarni o'rganishga zamin yaratadi.

**Abstract:** This article describes the possibility of further improvement of educational activities carried out in frontal activities and development centers by using digital technologies and innovations in preschool educational organizations. The use of modern innovations creates a basis for learning modern knowledge for children.

**Аннотация:** В данной статье описаны возможности дальнейшего совершенствования образовательной деятельности, осуществляемой в центрах фронтальной деятельности и развития, путем использования цифровых технологий и инноваций в дошкольных образовательных организациях. Использование современных инноваций создает основу для усвоения детьми современных знаний.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, rivojlantiruvchi markazlar, ta'limiy faoliyatlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, „instrumental bilimlar“, „yo'l xaritasi“, kommunikatsiya, komponentlari.

**Key words:** Innovation, development centers, educational activities, advanced pedagogical technologies, "instrumental knowledge", "roadmap", communication, components.

**Ключевые слова:** Инновации, центры развития, образовательная деятельность, передовые педагогические технологии, «инструментальные знания», «дорожная карта», коммуникация, компоненты.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rin tutadigan maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bu tizim jamiyatning birlamchi va eng muhim bo'g'inidir. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" sifatida:

1. 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2. 2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan.

Bu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli ishlar olib borilmoqda.



Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar hamda vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan tarbiya va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasida ham o'z ahamiyatini topgan. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari ham o'z navbatida zamonaviy bilimlarga ega bo'lish kerakligini bildiradi. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Avvallari bu tizim xalq xo'jaligining turli sohalarida mexnat qilayotgan otaonalarning ijtimoiy faoliyati uchun shartsharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo'lsa, endilikda bolalar bog'chalari ish mazmuniga qo'yilgan talablar xam o'zgartirildi. Asosiy vazifalardan biri kichkintoylarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak. Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyachilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yanada serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.:(4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).
4. M. Atayev (2017). Islomda bolalar huquqlari.
5. Гармонично поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан. Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н Кари-Ниязи. (2019). Сборник научно-методических статей. Ташкент. 3 том. С (325-327)
6. R.G.Qodirov(2005).Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUZEY PEDAGOGIKASI TEKNOLOGIYASI

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
Islomova Shahlo Madat qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida muzey pedagogikasi, muzey pedagogikasi texnologiyasining bola rivojlanishidagi ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muzey pedagogikasining vazifalari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Muzey, muzey pedagogikasi, milliy meros, kognitiv qobiliyat, xalq tarixi, madaniy meros.

**Аннотация:** В статье описывается музейная педагогика в дошкольных образовательных организациях, значение музейно-педагогической технологии в развитии ребенка, а также задачи музейной педагогики в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** музей, музейная педагогика, национальное наследие, познавательная способность, история человечества, культурное наследие.

**Abstract:** This article describes museum pedagogy in preschool educational organizations, the importance of museum pedagogic technology in child development, and the tasks of museum pedagogy in preschool educational organizations.

**Key words:** Museum, museum pedagogy, national heritage, cognitive ability, human history, cultural heritage.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash hamda uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi "Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasa, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida jami 1200dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birgalikda o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarning uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Muzey pedagogikasi - pedagogika va muzeyshunoslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Muzey pedagogikasi oldida turgan vazifalar ko'p qirrali bo'lib, tashrifchilarni muzeyda namoyish qilayotgan voqea-hodisalarni his etish, eshitish, mulohaza yuritish va saboq olishga o'rgatadi. Muzeyda turli toifadagi avlodlar uchrashuvi va muloqot uchun shart-sharoit yaratish yaxshilik va yovuzlik, donolik va nodonlik, haqiqat va yolg'on kabi jihatlarining mazmun-mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'n yilliklarda maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida muzey pedagogikasi juda mashhur bo'ldi - muzey dasturlari yaratilmoqda, kitoblar nashr etilmoqda, ko'rsatmalar tayyorlanmoqda. Albatta, bolalar bog'chasida muzey ishi talablariga javob beradigan ko'rgazmalar tashkil etib bo'lmaydi. Shuning uchun bu ko'rgazmalar "mini-muzeylar" deb ataladi. So'zning "mini" qismi ular uchun mo'ljallangan bolalarning yoshini, ko'rgazma hajmini va bunday muzeyning aniq belgilangan mavzusini aks ettiradi. Yaratilayotgan minimuzeylarning maqsadi bolalarni faoliyat va muloqotga jalb qilish, ularning hissiy sohasiga ta'sir o'tkazishdan iborat.

Yoshlarga o'lkamizning o'tmishini o'rgatish natijasida ularda kelajakka ishonch hosil qilinadi. Yosh avlodning yetuk, insonparvar, chin e'tiqodli qilib tarbiyalashda maktab jamoatchilik

muzeylari va davlat muzeylari muhim o‘rin egallaydi. Yosh avlodga o‘tmishdagi otabobolarimizning mehnati bilan yaratilgan milliy kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, mehnat qurollari, eski uy-ro‘zg‘or buyumlarini ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrash va ularga hurmat bilan qarash tuyg‘usini singdira olsak, ular chinakam milliy e‘tiqodli, qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan insonparvar shaxs bo‘lib shakllanishlariga erishish mumkin. Muzeylar tarixiy, moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, tashkil qilish va o‘rganish ishlarini bajaruvchi, ilmiy-ma‘rifiy muassasa sifatida juda katta pedagogik vazifani bajaradi. O‘zbekistonda ham ilk bor O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida 2011-yili “Mo‘jizalar olamida” bolalar muzeyi tashkil etildi. Mazkur muzey 4 yoshdan 14 yoshgacha bolalarga mo‘ljallangan. Muzey bolalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirib, ularning tarixiy davr bilan erkin muloqotga kirishlari, o‘sha davr “jonli” muhitida “yashash”lari uchun katta imkoniyat yaratadi.

*Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida muzey pedagogikasining vazifalari:*

✓ Muzey pedagogikasining ta‘lim natijalarini baholash mezonlari va mexanizmlari tizimini shakllantirish;

- ✓ Maktabgacha ta‘lim muassasalarining fan-rivojlantiruvchi muhitini boyitish;
- ✓ Maktabgacha yoshdagi bolalarda muzey haqidagi tasavvurni shakllantirish;
- ✓ Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish tadbirlari;
- ✓ Dizayn va tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalarning muzey merosini o‘zlashtirishdagi faolligi, qaysi amaliy faoliyat darajasida, olingan bilim va tassurotlarning o‘z ijod mahsullarida, ishlab chiqarish faoliyatida (rasm chizish, modellashtirish, hikoyalar yozish) aks etishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bolalarda bolalikdan madaniyat va uning ajoyib ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan aqlli shaxs bo‘lish imkoniyati mavjud. Muzey makonini yaxshi ko‘rgan va uni o‘zlashtirgan bolalar katta yoshda muzey ko‘rgazmalari va madaniy tadbirlarning eng minnatdor va qabul qiluvchi mehmonlariga aylanadilar va “haqiqiy” muzeyga kognitiv qiziqish uyg‘otadilar. Muzey va ko‘rgazmalarga hissiy munosabat rivojlanadi. Bolalarda tarixga, qadriyatlarga asoslangan munosabat shakllanadi va qiziqish rivojlanadi.

“Muzey pedagogikasi texnologiyasi bolalar uchun nima uchun zarur?” degan savolga. biz quyidagilarga javob berishimiz mumkin: xodimlar, bolalar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati nafaqat ularni, balki bolalarni ham oldingi avlodlar merosini qadrlashga, ulardan mohirona foydalanishga o‘rgatadi. Bu asoslilik tuyg‘usini beradi va dunyo va tarixiy jarayon tasvirining yaxlitligini shakllantirishga yordam beradi. Muzey pedagogikasi texnologiyasi atrofdagi dunyo bilan tanishish, umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan tanishish, estetik g‘oyalarni boyitish va badiiy didni shakllantirishga qaratilgan. Muzey pedagogikasi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, vatanparvarlik, fuqarolik va ma‘naviyatini tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Muzeylarning ta‘lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan muzey pedagogikasiga maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarash hozirgi davrda tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari o‘quv-tarbiya jarayonlarini muzey xodimlari bilan birgalikda rejalashtirishda quyidagilarni hisobga olishlari zarur:

- tarbiyalanuvchilarda ma‘naviy merosga hurmatni tarbiyalashda muzeylardagi tarixiy, adabiy, san‘at namunalarini izchil o‘rganishni ular ongiga singdirish;
- ma‘naviy merosning tarixiy ildizlarini bilishga doir ko‘nikma va malakalarni paydo qilish;
- har bir tarixiy, adabiy, san‘at asarlarining ijodkori, uning o‘ziga xos xususiyatini anglab yetishni shakllantirish;
- tarixiy, adabiy, san‘at namunalarini bir butun, yaxlit ma‘naviy meros sifatida tushunishlariga erishish.

Yuqoridagilarning barchasini umumlashtirib, shuni ta‘kidlash joizki, muzey pedagogikasi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga yordam beradi. Milliy madaniyat, avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasidan - maktabgacha yoshdagi bolalarning oilalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida bola jamiyatni, oila an‘analarini, ona yurtini, Vatanni hurmat qiladi, ya‘ni

zamonamizning jiddiy muammolaridan biri. Bolalarning tushunchalarini rivojlantirish madaniy merosga hurmatni tarbiyalash o'z xalqining tarixi va madaniyatiga qiziqish, uning an'alarini hurmat qilishga o'rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.A.Mavrulov, Z.A.Saidboboyev "Muzeyshunoslik" O'quv qo'llanma 2018-y
2. B.Xodjeyev "Muzei pedagogikasi: taraqqiyot tarixi va istiqboli" Pedagogika jurnali 2016/4
3. Ismailova J.X., Nishanova K.S., Muxamedova M.S. Muzei va jamiyat. Darslik. - T.: Chinor ENK, 2015.
4. Колесникова И.А. О феномене музейной педагогики // Художественный музей в образовательном процессе. СПб., 1998. (Kolesnikova I. A. on the phenomenon of Museum pedagogy // Art Museum in the educational process. Saint Petersburg, 1998.)
5. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi "Davlat muzeylarining bolalar va ularning ot-onalariga ochiqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASH USULLARI**

*O'zbekiston, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*"Maktabgacha ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi*  
**Niyozova Maftuna Normaxmat qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning bola rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati, innovatsion texnologiyalarning bola hayotidagi o'rni, hozirgi kunda dunyo va Respublikamizda olib borilayotgan innovatsion texnologiyalarning nazariy ahamiyati to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, texnologiya, pedagogik faoliyat, texnologik nazariya, interfaol usullar, individual xususiyatlar.

**Abstract:** This article describes the importance of innovative pedagogical technologies in child development and education in preschool educational organizations, the role of innovative technologies in the life of children, the theoretical importance of innovative technologies currently being implemented in the world and in our Republic.

**Keywords:** Innovation, technology, pedagogical activity, technological theory, interactive methods, individual characteristics.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение инновационных педагогических технологий в развитии и обучении детей в дошкольных образовательных организациях, роль инновационных технологий в жизни детей, теоретическое значение инновационных технологий, внедряемых в настоящее время и нашей Республике.

**Ключевые слова:** Инновации, технологии, педагогическая деятельность, технологическая теория, интерактивные методы, индивидуальные особенности.

Dunyo va respublikamiz miqyosida yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendensiyalari kuzatilmogda. Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo'lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyani egallashlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Ko'zmina hamda V.A.Slastenin

kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor qilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Ta'lim innovatsiyasi deyilganda avvalo mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutiladi. Texnologik yondashuv asta-sekin takomillashib innovatsion xarakterga ega bo'ldi. Masalan, maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviy yo'nalishdagi mashg'ulotlar sistemasiga e'tibor berilganda, bu faoliyatda tarbiyachi obyekt bola subyekt rolini o'ynagan edi. Ya'ni, bola faqatgina tinglovchi, tarbiyachi notiq sifatida gavdalanandi. Ammo barcha tajribalar ta'lim berishdagi bunday harakatlar samarali bo'la ololmasligini tasdiqladi. Natijada ta'limni samaraliligini belgilay oladigan yondashishlarni yuzaga keltirish zarurati tug'ildi. Shuning uchun texnologik nazariyaning vujudga kelishi uchun turtki bo'ldi. Ta'lim innovatsiyalari deyilganda, ko'z oldimizda albatta yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi. Innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalardan foydalana olish uchun tarbiyachi-pedagog quyidagi bilimlarni o'zida mujassamlantirishi lozim:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;
- Yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lishi;
- Ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos keladigan didaktik o'yinlar, interfaol usullarni tanlay bilish qobiliyati;
- Ilg'or pedagogik yangilanayotgan g'oyalar bilan tanishib borish;
- Bilimlarning ko'nikma va malakaga aylantirish asosida o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantirib borish;

Ta'lim jarayonida tobora faol qo'llanilayotgan zamonaviy vositalard an biri – axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo'l keladi. Bugungi kunda ta'limda radio eshittirish, teleko'rsatuvlar, filmlarni namoyish imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o'qitish sifatini yaxshilaydi, shaxsning kreativ sifatleri, kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatiga egaligi talaba (o'quvchi )bolalarning o'zlashtirish darajasiga bog'liq holda o'tilgan mavzuni qaytarish, mavzu ustida ishlashlarni individual tempda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya'ni, elektron darslik matni bilan talaba (o'quvchi )bola o'rtasida muloqot o'rnatib, so'rovnoma, verbal, noverbal, ovoz yordamida tarbiyachi mavjudligini his etish imkoniyatini yaratadi. Bu turdagi texnologiyalar yordamida multimedia mahsulotlari, elektron albom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, virtual stendlar, audio va video vizual materiallar, shuningdek, prezentatsiyalar tayyorlash imkoniyati mavjudki, ular ta'lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Shunday ekan, innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida do'stona muhitni yaratish, bolalarni yangiliklarga qiziqtirish; o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtira olish, ta'limiy faoliyatga nisbatan munosabatni o'zgartira olish kabilarni aytish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.S.Shodmonova va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalar".-T: "Fan va texnologiya", Toshkent 2011
2. Niyozova M.N. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikani amalga oshirishda tarbiyachining roli", "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" jurnali 2023-yil Aprel.

3. Niyozova M.N. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanishning mavjud imkoniyatlari va shart-sharoitlari”, “International journal of economy and innovation” jurnali 2023-yil May.

4. Durdikulovich K. A. “ The role of teacher-student traditions in the development of national singing” ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 112-114

## ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI: BOLALAR, ZAMONAVIY TA’LIM VA IQTISODIY MUNOSABATLAR

*O‘zbekiston R. Navoiy sh. “Ahil Oila” bolalar  
bog‘chasi direktori Azizov A‘zam Aziz o‘g‘li  
“Ahil Oila” bolalar bog‘chasi tarbiyachisi  
Qahhorova Gulhayo Baxtiyor qizi*

**Annotatsiya:** Zamonaviy bolalar bog‘chalari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat akademik tayyorgarlikka, balki kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, hissiy va amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratadi, shu bilan birga zamon talabi bo‘lgan dastlabki iqtisodiy bilimlar, tushunchalar berish ta’lim tajribasini taqdim etishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, bolalar, iqtisod, pul, ta’lim, ayirboshlash, bo‘lishish, tejash, byudjet.

**Аннотация:** Современные детские сады ориентированы не только на академическую подготовку детей дошкольного возраста, но и на социальные, эмоциональные и практические навыки, необходимые для будущего успеха в обществе, обеспечивая при этом необходимые начальные экономические знания, понимание, направленное на предоставление образовательного опыта.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, дети, экономика, деньги, образование, обмен, сбережение, бюджет.

**Annotation:** Modern kindergartens focus not only on academic preparation for preschool children, but also on the social, emotional and practical skills necessary for future success in society, while providing the necessary initial economic knowledge, understanding aimed at providing an educational experience.

**Key words:** Pre-school education, children, economy, money, education, exchange, sharing, saving, budget.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim odatda uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun keng qamrovli ta’lim va rivojlanish tajribasini taqdim etish uchun mo‘ljallangan muassasadir. Zamonaviy bolalar bog‘chasi kontsepsiyasi vaqt o‘tishi bilan ta’limning innovatsion usullarini, bolaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni va har tomonlama rivojlanishga e’tiborni o‘z ichiga olgan holda rivojlandi.

Zamonaviy bolalar bog‘chalari ko‘pincha Montessori, Reggio Emilia yoki Waldorf kabi ilg‘or ta’lim falsafalarini o‘z ichiga oladi, ular eslab qolish va standartlashtirilgan testdan ko‘ra amaliy o‘rganish, individuallashtirilgan ta’lim va yaxlit rivojlanishni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

An’anaviy bolalar bog‘chalari asosan o‘qish, yozish va matematika kabi akademik fanlarga e’tibor qaratishi mumkin bo‘lsa, zamonaviy bolalar bog‘chalari odatda san’at, musiqa, jismoniy tarbiya, ijtimoiy-emotsional o‘rganish va STEM (fan, texnologiya, muhandislik, va matematika) faoliyati bilan shug‘ullanib kelmoqdalar. Bundan tashqari zamonaviy bolalar bog‘chalari kashfiyot, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan rag‘batlantiruvchi va interaktiv o‘quv muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat beradi. Sinf xonalari ko‘pincha o‘quv markazlari yoki bolalarning qiziqishlari va rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli xil faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan zonalarga ajratiladi.

Zamonaviy mttlarda o‘qituvchilar ko‘pincha ma’ruzachi emas, balki yordamchi sifatida xizmat qiladi. Ular bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini kuzatib boradilar, ularning ta’lim

tajribasini rivojlantiradilar va har bir bolaning o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga yordam berish uchun individual yordam ko'rsatadilar.

Hozirda mtltlar ota-onalarni farzandining ta'limiga jalb qilish muhimligini tan oladilar. Ular ko'pincha oilalar bilan ochiq muloqot yo'nalishlarini o'rnatadilar, ota-onalarning sinfdagi mashg'ulotlarda ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratadilar va ota-onalarga uyda bolalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun resurslar va seminarlar taklif qiladilar. Va bolalarni yoshligidan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali zamonaviy bog'chalar bolalarni maktabda va undan keyingi davrda muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi.

Zamonaviy bolalar bog'chasi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

Bolaga yo'naltirilgan yondashuv: ta'lim tajribasi markazida bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini joylashtirish.

Xavfsiz va tarbiyali muhit: bolalar o'zlarini qulay his qiladigan jismoniy va hissiy jihatdan xavfsiz muhitni ta'minlash va tavakkal qilish. Malakali va qo'llab-quvvatlovchi xodimlar: yosh bolalar bilan ishlashni yaxshi ko'radigan va doimiy kasbiy rivojlanish va qo'llab-quvvatlanadigan malakali o'qituvchilarni ishga olish.

Texnologiyani integratsiyalashuvi: amaliy tajriba va ijtimoiy o'zaro ta'sirni birinchi o'ringa qo'yadigan muvozanatli yondashuvni ta'minlagan holda o'rganish imkoniyatlarini oshirish uchun texnologiyani o'ylangan holda o'quv dasturiga integratsiya qilish. Umuman olganda, zamonaviy bolalar bog'chasi o'rganishga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga, muhim ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga, umrbod muvaffaqiyat va farovonlik uchun mustahkam poydevor yaratishga intilishi kerak.

Bu jihatlarga e'tibor qaratgan holda, zamonaviy bog'chalar doimo o'zgarib borayotgan jamiyatda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, munosabat va qadriyatlarga ega bo'lgan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilgan bo'lishi lozim. Shunday zamonaviy ehtiyojlardan biri bu albatta iqtisodiy bilim berishning hisoblanadi. Iqtisodiy bilimlar, maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakdagi moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bolalar bu yoshda iqtisodiy tushunchalarni o'rganish orqali, katta hayotga tayyorgarlik ko'rishadi va moliyaviy qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishni boshlaydilar.

Bolalar ko'pincha uyda, maktabgacha ta'lim muassasasida va o'yin maydonchasida kundalik faoliyatida turli xil iqtisodiy operatsiyalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadilar. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy masalalar bilan bog'liq bilimlari va xatti-harakatlari bo'yicha tadqiqotlar cheklangan. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning puldan foydalanish, resurslarni baham ko'rishga tayyorligi va iqtisodiy masalalar nuqtai nazaridan bilim manbalariga kelganda o'z-o'zidan hisobot berish haqidagi bilimlarini o'rganadi. "Iqtisodiyot" atamasi ko'pincha "aktivlarni sotib olish, boshqarish va taqsimlash" bilan bog'liq, ammo bolalarning iqtisod haqidagi tushunchasi har doim ham pul iqtisodiga taalluqli emas; Balki, bu "almashtirish, uy yumushlarini bajarish va sovg'alar berish haqidagi tushunchalari" bo'lishi mumkin. Bolalar tez o'zgarib borayotgan dunyoda o'sib ulg'aymoqdalar, bunda iqtisodiy masalalarni tushunish ham individual, ham milliy darajada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtisodiy jihatdan murakkablashib borayotgan dunyoda daromad olish, iste'mol qilish, qarz olish va jamg'arishning kundalik iqtisodiyoti bilan". Maktabgacha tarbiya bunday masalalarni o'rganish imkoniyati mavjud bo'lgan kontekst bo'lishi mumkin, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar bu muammolar tabiiy tarkibiy qismi bo'lgan turli xil narsalarni o'ynaydi va gaplashadi. Uzunlamasına tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli maktabgacha ta'lim bolalarning farovonligi, sog'lig'i, intellektual va ijtimoiy xulq-atvor rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

O'yin Orqali O'rgatish: Bolalar o'yinlar orqali iqtisodiy tushunchalarni osonroq o'zlashtiradilar. Masalan, do'kon rolini o'ynash: Bolalar mijozlar va do'konchi bo'lib o'ynashlari mumkin. Ular tovarlar uchun pul almashishni, pulni hisoblashni va sotib oluvchi va sotuvchi konsepsiyalarini tushunishlarini o'rganishlari mumkin[3].

Tanga pullarni tartiblash: Har xil tangalarni bolalarga taqdim eting va bolalarni ularni hajmi bo'yicha, ranglariga yoki qiymatiga ko'ra tartiblashlariga yordamlashing. Ushbu faoliyat ularni farqli tangalarni tanish va ularning o'zaro qiymatini tushunishlariga yordam beradi.

Jamiyat yordamchilari: Jamiyatda turli xil ishlar haqida muloqot qiling, masalan, dehqonlar, o'qituvchilar va shifokorlar. Har bir ishning bozorga nima tovar yoki xizmat taqdim etishi haqida muloqot qiling va odamlar nima uchun pul ishlab topishlari haqida gaplashing.

Bo'lishish va almashish: Bolalarni do'stlari bilan o'z o'yinchoqlarini almashishlariga rag'batlantiring. Bo'lishishning nima uchun kerakligini va o'zaro almashtirishni qanday foydalari borligi haqida muloqot qilish.

Oddiy byudjetlash: Bolalarga kichik bir mablag' (masalan, soxta puli) berib, ularga xohlaydigan narsalarni sotib olish uchun oddiy byudjet tuzishlariga yordam bering. Bu ularni cheklangan resurslarga asoslanib tanlov qilishni o'rganishlariga yordam beradi.

Rolli O'yinlar: Bolalar turli kasblar yoki iqtisodiy vaziyatlarni rolli o'ynash orqali o'rganishlari mumkin. Bu ularning ijtimoiy va moliyaviy tushunchalarini rivojlantiradi[4].

Keraklar va xohishlar: Bolalar zarur narsalar (masalan, ovqat, yashash) va xohishlarni (masalan, o'yinchoqlar, taomlar) farqlashga o'rgatishingiz mumkin bo'lgan o'yinlar o'ynashingiz lozim. Bu ularning xarajatlarni tartibga solish tushunchasini tushunishlariga yordam beradi.

Hikoya Aytish: Bolalarga iqtisodiy tushunchalarni o'z ichiga olgan hikoyalar aytib berish ularning diqqatini jalb qiladi va tushunchalarni yodda saqlashlariga yordam beradi[6].

Amaliy Qo'llanmalar: Bolalarga pulni qanday tejash va sarflash haqida amaliy maslahatlar berish, ularning moliyaviy ongini shakllantiradi[5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning kelajakdagi hayotlarida muhim ahamiyatga ega. Bolalarni moliyaviy savodxon qilib tarbiyalash, ularning kelajakdagi moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi. Shuning uchun, iqtisodiy bilimlarni o'qitishda yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ubaydullayeva. Z. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish. Toshkent.2022.
2. To'qmirzayeva. I. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishning o'rni va ahamiyati. Toshkent.2006.
3. Saipova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati. Shahrisabz. 2022
4. Raximova, m. A. Qizi. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy tafakkurni shakllantirish. *International conference on learning and teaching, 1(4)*,76–79.
5. (<https://maktabgacha-va-maktab-talimi-urnal.uz/index.php/jurnal/article/view/>).
6. <https://bing.com/search?q=maktabgacha+yoshdagi+bolalar+uchun+iqtisodiy+bilimlarning>.
7. (<https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-iqtisodiy-bilim-berishning-o-rni-va-ahamiyati>).

## **MAKTABGACHA TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV, QARASHLAR, IMKONIYATLAR**

*Navoiy viloyati Konimex tumani  
13-son DMTT uslubchisi  
Safarova Dilso'z Pardaboyevna*

*“Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q”*

*Shavkat Mirziyoyev.*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so‘ngi yillarda maktabgacha ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor va imkoniyatlar haqida batafsil yoritilib berilgan. Sohaga oid yangiliklar, chiqarilgan qaror, farmonlar keltirib o‘tilgan. Ta‘lim tizimi va pedagogik jarayon samaradorligi haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zi:** ta‘lim, yangilik, bola taraqqiyoti, o‘quv dasturi, konsepsiya.

**Аннотация:** В данной статье подробно описано внимание и возможности, которые стали уделяться дошкольному образованию в последние годы. Приводятся новости отрасли, принятые решения, указы. Описана эффективность образовательной системы и педагогического процесса.

**Ключевые слова:** образование, инновации, развитие ребенка, учебная программа, концепция.

**Abstract:** This article describes in detail the attention and opportunities that have been paid to preschool education in recent years. Industry news, issued decisions, decrees are cited. The effectiveness of the educational system and pedagogical process is described.

**Key words:** education, innovation, child development, curriculum, concept.

Maktabgacha ta‘lim ta‘lim tizimi turlari ichida muhim bir o‘rinda ekanligi hech kimga sir emas. Bola shaxsini yetuk barkamol bo‘lib shaxllanishida maktabgacha ta‘limning ahamiyati katta desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Gap bola taraqqiyoti haqida ketganda qilinadigan har bir ishga teran fikr, mustahkam, samarali natija ega g‘oyalar bilan yondashishni talab qiladi. Maktabga tayyorgarlik muhim ahamiyatga egadir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta‘limni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib xisoblanadi. Shu munosabat bilan o‘tgan yillar davomida maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish ustida ko‘plab ijobiy natijalarga erishilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan 2016-yildan buyon maktabgacha ta‘limga qaratilgan e‘tibor sezilarli darajada oshganini kurishimiz mumkin. Zero bu borada yurtimizda salmoqli ishlar olib borilayotganligini takidlab o‘tish lozim. 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida”gi PQ-2707-sonli, 09.09.2017 y. PQ-3261-son "Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi, 30.09.2017 y. PQ-3305-son "O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarorlari hamda 30.09.2017 y. PF-5198-son "Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Birgina 2019 yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi” 595-sonli qonunning qabul qilishi sohadagi eng quvonarli yangilik bo‘ldi. Qonunning 5-moddasi: Maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarida sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim yo‘nalishlar o‘rin olganx[1]. Muhtaram prezidentimizning 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori esa maktabgacha ta‘lim tizimining hozirgi holati, muammolari va ularning yechimini atroflicha hal qilishga qaratilgan muhim strategik masalalar o‘rin olgan. Konsepsiyasi quyidagilarni:

maktabgacha ta‘lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sifatli maktabgacha ta‘lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

maktabgacha ta‘lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta‘minlash;

maktabgacha ta‘lim tizimiga maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlashni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi[2].

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining ham asosiy maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir[3]. Davlat talablarini bajarish uchun esa pedagogik mahorat va ta'lim berishning ustuvor yo'nalishlaridan foydalanish talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolalarga ta'lim beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Dasturning etiborli tomoni shundaki ta'lim berishda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda 5ta markazga yo'naltirish hamda erkin faoliyatlarga jalb qilishdan iborat. Sohaga oid bunday yangicha qarashlar, imkoniyatlar kishini yanada harakat qilishga undaydi va ruhlantiradi. Bundan ko'rinadiki maktabgacha ta'lim keyingi yillar davomida bundanda gullab yashnaydi. Bu borada shu soha bo'yicha har bir shaxs o'z vazifasiga sitqi dildan yondashishini hamda bola taraqqiyotiga masul va befarq bo'lmagan ijtimoiy muhit vakillaridan ham katta masuliyat talab qilinadi. Zero bola kelajagi yurt kelajagini belgilab beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi"
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son
- 3.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Toshkent sh 2018-yil 18-iyun.
- 4.Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uchun qo'llanma. - M.: Ventana-Graf, 2007
- 5.Abdulloh Xolmuradov "Maktabda ta'lim tizimini rivojlantirish: yangi usullar va innovatsiyalar" – T.: 2021y

## **ЭКОЛОГИЯ И ПРАВА РЕБЕНКА. ГЛОБАЛЬНАЯ ТЕМА ВО ВСЁМ МИРЕ**

*Узбекистан, Навоийской области г.Зарафшан,  
методист ДОУ «Забава» №10  
Сапарова Насиба Кенжаевна*

**Аннотация.** Основы экологии» является формирование базовых понятий и принципов современной системы экологических дисциплин, знакомство с основными экологическими правилами и законами, разделами экологии, разнообразии видов деятельности в сфере экологии и природопользования и формами охраны природы.

**Ключевые слова:** экология, глобальная катастрофа, окружающей среда, ребенок, «зеленая» экономика, климат, природа.

**Abstract.** Fundamentals of Ecology is the formation of basic concepts and principles of the modern system of environmental disciplines, familiarity with the basic environmental rules and laws, sections of ecology, a variety of activities in the field of ecology and environmental management and forms of nature conservation.

**Key words:** ecology, global catastrophe, ecological environment, child, green economy, climate, nature.

**Введение.** На сегодняшний день экологическая угроза рассматривается как глобальная и специфичная с одной стороны и бросающая вызов соблюдению прав человека – с другой. Теми же факторами объясняется тот факт, что Совет ООН по правам человека впервые в истории признал чистой, здоровую и стабильную окружающую среду неотъемлемой частью прав человека и два года назад учредил статус специального докладчика именно в этом направлении.

Вместе с тем стало очевидным, что республики Центральной Азии уязвимы перед изменением климата и неблагоприятными погодными явлениями. Из-за нехватки воды возможности полива посевов ограничены и велика вероятность потери урожая. Это, в свою очередь, угрожает продовольственной безопасности.

Заслуживает внимания тот факт, что Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своем выступлении на 76-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН выдвинул ряд инициатив, направленных на поддержку новой экологической политики ООН. Национальный центр по правам человека принял решение расширить ряды активистов, награждаемых нагрудным знаком «За защиту прав человека», за счет номинации «Защитник экологических прав».

**Каждый ребенок и подросток** на нашей планете имеет право жить в чистой, здоровой и стабильной окружающей среде. Следовательно, как с беспокойством и обоснованно отмечается на форумах, организованных такими организациями, как Zamin и ЮНИСЕФ, существует большой разрыв между вдохновляющими словами о таком праве и реальностью, с которой во всем мире в своей повседневной жизни сталкиваются миллионы детей.

Сегодня загрязнение воздуха ежегодно убивает более 600 тысяч и лишает доступа к безопасной питьевой воде и полезной пище сотни миллионов детей. Они явно ощущают на себе воздействие токсичных химических веществ, таких как свинец и ртуть, которые могут нанести вред их развитию и негативно повлиять на жизнь.

Согласно исследованиям, дети, рожденные в 2021 году, чаще, чем их бабушки и дедушки, родившиеся 60 лет назад, переживают аномальную жару (в 7 раз), лесные пожары (в два раза) и засуху (почти в три раза). Эта суровая и горькая правда еще раз подтверждает, что дети уязвимы перед далеко идущими последствиями изменения климата.

Не зря ООН призвала все страны защитить детей от последствий изменения климата. Комитет по правам ребенка недавно опубликовал рекомендации для государств-членов о том, что делать, чтобы обеспечить право детей на окружающую среду.

Это замечание общего порядка № 26 «**О правах ребенка и окружающей среде с особым вниманием к проблеме изменения климата**» посвящено чрезвычайной ситуации, связанной с изменением климата, утратой биоразнообразия и загрязнением окружающей среды. В этом документе определяются меры по защите жизни и перспектив детей, а государства обязаны периодически отчитываться перед Комитетом ООН о прогрессе в защите экологических прав детей.

То есть Комитет ООН по правам ребенка впервые прямо подтвердил право детей на чистую, здоровую и стабильную окружающую среду, всесторонне выразив обязательства государств-членов согласно Конвенции о правах ребенка.

С этой точки зрения в последние годы в нашей стране уделяется серьезное внимание снижению воздействия изменений климата и адаптации, ускорению перехода и продвижению «зеленой» экономики, а также инклюзивной модели экономического роста.

В частности, постановлением Президента от 4 октября 2019 года утверждена Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019–2030 годов. Целью этого документа является стимулирование «зеленого» экономического роста в нашей стране, рациональное использование природных ресурсов, привлечение «зеленых» инвестиций, смягчение негативных последствий экологического кризиса.

На 26-й сессии Рамочной конвенции ООН об изменении климата (COP26), состоявшейся в ноябре 2021 года, было сделано заявление о том, что в рамках Парижского соглашения Узбекистан возьмет на себя дополнительные обязательства по сокращению к

2030 году выбросов парниковых газов на 35 процентов на единицу валового внутреннего продукта по сравнению с уровнем 2010 года.

Кроме того, наша республика присоединилась к Глобальной инициативе по метану (Global Methane Pledge) для достижения коллективной цели по сокращению к 2030 году выбросов метана как минимум на 30 процентов по сравнению с уровнем 2020 года.

Еще один важный шаг: 2 декабря 2022 года Президент подписал постановление «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года». Целью является реализация задач, определенных в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы.

В частности, в этом процессе предусматривается повышение эффективности мер, реализуемых по обеспечению «зеленого» и инклюзивного экономического роста в рамках стратегии перехода к «зеленой» экономике. При этом уделяется внимание использованию возобновляемых источников энергии и дальнейшему расширению масштабов усилий по ресурсосбережению во всех отраслях экономики.

Вполне естественно, что возникнет вопрос о том, в какой степени в этих документах отражен вопрос обеспечения экологических прав ребенка. В ответ на это приведем в пример единственный документ – Программу по переходу на «зеленую» экономику и обеспечению «зеленого» роста в Республике Узбекистан до 2030 года.

В частности, эта программа, в которой предусмотрены приоритетные направления, связанные с поддержкой населения, могущего серьезно пострадать при переходе к «зеленой» экономике, и места проживания этих людей включает в себя улучшение качества и эффективности образования по указанным направлениям. Здесь речь идет об обеспечении инклюзивного образования для детей, молодежи и женщин, повышении качества и охвата. Планируется включить тему «зеленой» экономики в соответствующие учебные программы образовательных организаций.

Недавно был подписан документ о вовлечении детей и молодежи Узбекистана в климатическую повестку. Этим документом, подписанным министерствами экологии, охраны окружающей среды и изменения климата, дошкольного и школьного образования, молодежной политики и спорта, является «Национальная стратегия по продвижению культуры устойчивого развития и вовлечению детей и молодежи Узбекистана в климатическую повестку дня».

Инициативу Национальной стратегии поддержали экологические активисты, в том числе участники проекта Eco-schools Uzbekistan. Глава представительства ЮНИСЕФ в нашей стране Мунир Мамедзаде отметил: «Хотя его подписали министры, в разработке этого важного документа участвовали сами дети. Поэтому мы убеждены, что эта стратегия послужит основой перспективного развития, а каждый ребенок и молодой человек внесет свой вклад в благополучие и стабильность нашего общества».

Данная стратегия предусматривает признание роли детей и молодежи в борьбе с изменением климата, обеспечение их активного участия в этой деятельности. Основными задачами Национальной стратегии по продвижению культуры устойчивого развития и вовлечению детей и молодежи Узбекистана в климатическую повестку дня являются:

➤ разработка национальной политики и плана действий по продвижению «зеленого» образования, а также создание необходимых учебных ресурсов;

➤ развитие партнерских отношений и сотрудничества между различными заинтересованными сторонами для поддержки и активизации усилий детей и молодежи в борьбе с изменением климата и признание важной роли сотрудничества между поколениями; создание «зеленого» сообщества в учреждениях дошкольного и школьного образования.

➤ Самое главное, данная стратегия должна служить базовым документом для последовательного формирования системы «зеленого» образования и устойчивого развития. При этом особенно важно упомянуть основные принципы качественного экологического образования – это преемственность, межпредметная взаимосвязанность, фундаментальность и комплексность.

**Заключение.** Словом, следует отметить, что соотечественники согласны с тем, что изменение климата представляет собой серьезную угрозу и оказывает прямое негативное влияние на качество жизни людей, особенно молодежи и детей. Что еще немаловажно, наша страна и общество уверенно и смело движутся к принятию необходимых мер для безотлагательного решения этой проблемы.

#### Список литературы

1. Акимова Т.А., Хаскин В.В. Экономика Природы и Человека. – М. Юнити-Дана, 2015.
2. Экологические проблемы Узбекистана и их мониторинг / Н. И. Муминова, Э. Б. Каршиев, Х. Г. Сидикова, Х. Т. Сайдуллаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 4 (108). — С. 192-194
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekoanaliticheskiy-monitoring-ftoristogo-vodoroda-v-gazovoy-srede>
4. [http://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=118249&sr=1](http://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=118249&sr=1)

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI BOSQICHMA-BOSQICH RIVOJLANIB BORISHI

*O'zbekiston, Samarqand viloyati  
"Baxtli bolajonlarim kelajagi" NMTT tarbiyachisi  
Qurbonova Baxtiniso Tolibjon qizi  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Qurbonova Sarvinoz Tolibjon qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi o'zgarishlar. maktabgacha ta'lim tizimining ahamiyati, rivojlanib borishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim muassasasi qarorlar, farmon, ma'naviyat, shaxs.

**Аннотация.** Образование в этой статье изменения в системе. Дошколы важность системы образования.

**Ключевые слова:** Развитие, дошкольные решения, учение, духовность, личность.

**Abstract.** Education in this article changes in the system. Before school importance of education system.

**Key words:** Develoment, pre-school dicision decree, spirituality, personality.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rnini topolmasligi mumkin. Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasini isloh qilish hukumatimiz diqqat e'tiboridagi muhim masalalardan biri. Maktabgacha ta'lim shaxsni tarbiya qiluvchi, bolani butun bir kelajagini belgilab beruvchi poydevordir. Vatanga muhabbatni qolaversa qadriyatlarimizni bola ongiga singdirib beruvchi maskan. Maktabgacha ta'lim tizimi bu – ota-ona ishda bo'lganda shunchaki bolani olib o'tiradigan tizim bo'lmasligi kerak. Bu tizim bolani har taraflama barkamol qiluvchi zamin bo'lishi lozim.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha Ta’lim Tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan Maktabgacha Ta’lim Vazirligi tashkil etildi. Bugungi kunda 14 mingdan ortiq Maktabgacha Ta’lim Tizimi faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, 2018-yil 30-sentabrda “MTT ni boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining MTT ni yaxlit uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish MTT muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish institutini MTT buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq investitsiya loyihalari bo‘yicha loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda bosh loyiha tashkiloti sifatida belgilanishi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi MTT ni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bunga ko‘ra 2030-yilgacha 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8%-ini maktabgacha ta’lim tizimi qamrab olishi ko‘zda tutilgan. Qolaversa MTT ni rivojlantirish maktabga sifatli tayyorlash zamonga mos yosh-avlodni tarbiyalash va chet tillarini bilishga o‘rganishga qiziqtirish kabi bir qator maqsad vazifalar o‘rin olgan.

Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri har tomonlama intellektual, axloqiy-estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda davlat, nodavlat, davlat-sherikchilikdagi bog‘chalar faoliyat olib bormoqda. Davlatimiz pedagog kadrlar ya’ni MTT da faoliyat yuritayotgan pedagog tarbiyachilar uchun ham bir qator farmon va qonunlar belgilab chiqdi. Maqsad esa, pedagogik kasbiy faoliyatini oshirish bolalarga sifatli ta’lim berishdir. Bu islohotlar hammasi bolajonlarimiz manfaatlari uchun desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda MTTlar “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat dasturi asosida ish yuritadi. Bu dastur rivojlangan davlatlar ta’lim standartlariga to‘liq javob beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki yuz berayotgan bu kabi o‘zgarishlar kelajagimiz bo‘lgan bolalarni barkamol, yetuk, o‘zligini anglab ulug‘lovchi sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlaydi. Vatanga posbon bo‘luvchi mardlarni ulg‘aytirishdek, Uvaysiy, Nodiradek zukko qizaloqlarni ulg‘aytirib tarbiya berishdek ulug‘ va xayrli ishlarimiz bardavom bo‘lsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.” - T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdullayeva N.Maktabgacha ta’limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2020. – 164 b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 30-sentabr.
- 4.www.lex.uz

### **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING KASBIY MADANIYATI**

*O‘zbekiston, Navoiy shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi metodisti Mamayusupova Habiba*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kasbiy madaniyati, tashkilotni boshqarishda faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Kasbiy madaniyat, rahbarlik faoliyati, boshqaruv, jamoa a’zolari, ishbilarmonlik konsepsiyasi, kasbiy faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается профессиональная культура руководителя дошкольной образовательной организации, правильная организация деятельности по управлению организацией.

**Ключевые слова:** Профессиональная культура, лидерство, менеджмент, члены команды, бизнес-концепция, профессиональная деятельность.

**Abstract:** This article discusses the professional culture of the head of a preschool educational organization, the proper organization of activities in managing the organization.

**Keywords:** Professional culture, leadership, management, team members, business concept, professional activity.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi tobora yangilanib borar ekan, tez o'zgarayotgan, murakkablashib borayotgan bu olamda qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida bu tizimda faoliyat ko'rsatishga to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlikning ish uslublari, boshqaruv madaniyati va buning natijasida sifat o'zgarishlari uchun imkoniyatlar yaratuvchi pedagogik, boshqaruv yangiliklari paydo bo'lmoqda. Bularning barchasi ta'lim va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sifatini boshqarish masalalarining yechilishi murakkablashuviga olib keladi va bu esa muammoni hal qilishning zamonaviy asoslangan usullariga ehtiyoj tug'diradi. Albatta, bu o'zgarishlar maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlaridan juda keng ko'lamda tashkilotchilik, yaratuvchanlik boshqaruv menejmentini egallaganlikni talab etadi. Shu ma'noda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining o'rni va mas'uliyati juda kattadir. Rahbarlikning lug'aviy ma'nosi – zaruriy xislatlarni, avvalo, o'zida shakllantirib, so'ngra o'z faoliyatida shu xislatlarni namoyon qilish orqali jamoaga o'rnak ko'rsatib, belgilangan maqsadni amalga oshirishga jamoani jalb etishni bildiradi.

Rahbarlik – turli xil vazifalarning to'plami yoki amal kursidan iborat emas, balki kasbdir. Rahbarlik qilish uchun insondan zarur bilim, ko'nikma va malaka, mahorat, kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o'ziga xos xususiyat talab etadi.

Rahbarlik:

-katta san'at;

-maxsus mazmunga ega bo'lgan kasbiy faoliyat;

-faoliyatnitakomiillashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyat;

-pedagogik boshqaruvdir.

• катта санъат;

• махсус мазмунга эга бўлган касбий фаолият;

• фаолиятни такомиллаштиришга қаратилган ижодий фаолият;

• педагогик бошқарувдир.

• махсус мазмунга эга бўлган касбий фаолият;

• фаолиятни такомиллаштиришга қаратилган ижодий фаолият;

• педагогик бошқарувдир

Maktabgacha ta'lim tashkilotining bugungi kundagi rahbari – boshqaruv madaniyatini yuqori darajada egallagan rahbardir. Mutaxassislarining aksariyati boshqaruvni ob'ekt va sub'ektlarga ta'sir o'tkazish orqali ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taruvchi faoliyat turi sifatida belgilaydilar.

Boshqaruv faoliyati madaniyati ko'rsatkichlari:

Birinchidan, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini amalga oshirishda maqsadni belgilash;

Ikkinchidan, tizimlilik, loyihalashtirilgan modellarda(rejalarda, dasturlarda, konsepsiyalarda) keltirilgan pedagogik jarayonning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarini tizimli "ko'ra olish";

Uchinchidan, boshqaruvda statistik yondashuv (masalan, diagnostika metodlari va statistik nazorat);

To'rtinchidan, boshqaruv predmetini "zarur xilma-xillik" bilan ta'minlaydigan dasturlarning variativligi;

Beshinchidan, qabul qilingan qarorlarning optimalligini kafolatlaydigan, sifati va samaradorligini ta'minlaydigan texnologiyalar muqobilligi.

O'zining boshqaruv faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari ish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni bilishi va hisobga olishi zarur. Shunday omillardan biri rahbar va uning qo'l ostidagilari o'rtasida o'rnatilgan munosabatlar tizimidir.

Jamoda ishbilarmonlik konsepsiyasini yaratish – uzoq va murakkab jarayondir. Bu, avvalamdor, ushbu tashkilot rahbariga, uning barcha xodimlarining hamjihatlikdagi faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga, bolalar va ota-onalar bilan ishlashda, ularning ijtimoiy faoliyatida tarbiyachilarga ko'maklashishga, har bir xodimga alohida yondashishga bog'liqdir.

Rahbarning axloqiy sifati, uning hatti-harakatlari butun jamoadagi munosabatlarning holatini belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati murakkab va ko'pqirralidir. Umumiy maqsadlar, vazifalar hamda tashkilotning ish mazmuni yo'lida jamoaning birlashishi – uning asosiy maqsadidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti yuzini uning pedagoglar tarkibi belgilaydi. Ushbu pedagogik jamoani tashkil qiluvchi, birlashtiruvchi, samarali ijodiy kuchga aylantiruvchilar tashkilot rahbari va metodistdir.

Tashkilot rahbari va metodist tashkilotdagi butun pedagogik jarayonni tashkil etish uchun javobgardirlar. Aynan shuning uchun ham rahbarning o'zini tutish madaniyati, qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik va izchillik – kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan muhim fazilatlaridir.

Odatda, rahbar qanday bo'lsa, uning jamoasi ham shundaydir deyishadi. Ma'lum daradjada bu to'g'ri, mehnat jamoasini boshqaradigan odam, undagi ish muhitini yaratadi. Rahbar jamoa a'zolarining undagi qaysi sifat va xususiyatlarini qadrlashlari va aksincha, qaysilarini kamroq qadrlashlari haqida bilishi juda muhimdir. Rahbar faoliyatining muvaffaqiyati faqatgina uning kasbiy bilimlari bilangina emas, balki shaxsiy sifatlari, qo'l ostidagilari bilan munosabat o'rnatilishi va o'zaro tushunish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kasbiy madaniyati, yetakchilik qobiliyati yillar davomida paydo bo'ladi. Biroq vaqtga tayanish, sinab ko'rish va xatolarga yo'l qo'yish oqibatida yaxshi rahbarga aylanish mumkin, degan tushunchaning borligi bu - kechirilmas xatodir. Biz tarbiyaning eng yaxshi an'alariga asoslangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish "texnologiyasi"ni tezda o'rganishga intilishimiz kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi "Yangi asr avlodi", T-2007, 70-71-b.
2. Belaya K.Yu. 200 otvetov na voprosy zaveduyushchey detskim sadom AST, 1996, str. 82-84.
3. Dik N.F., Ivanova N.B. Nastolnaya kniga rukovoditelya doshkolnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya «Feniks», 2005.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARINI TAHLIL QILISH

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi  
Ikromova Shaxinabonu Usmonjon qizi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimda rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilk qadam, moddiy texnika bazasi, davlat dasturi, tarbiya, rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, ta'lim sifati, ijtimoiy rivojlantirish malakali kadrlar, rejalashtirish dasturi.

**Аннотация:** Развитие дошкольного образования важно для будущего поколения. Одним из основных этапов развития этой системы является правовая база. В данной статье анализируются правовые основы развития дошкольного образования в Узбекистане.



**Ключевые слова:** первый шаг, материально-техническая база, государственная программа, образование, развитие, непрерывное образование, концепция, качество образования, социальное развитие, квалифицированные кадры, программа планирования.

**Annotation:** Razvitie doshkolnogo obrazovaniya vajno dlya budushchego pokolenia. Odnim iz osnovnykh etapov razvitiya etoy sistemy yavlyaetsya pravovaya baza. V dannoy state analiziruyutsya pravovye osnovy razvitiya doshkolnogo obrazovaniya v Uzbekistane.

**Key words:** pervyy shag, material-technical base, state program, obrazovanie, razvitie, continuous obrazovanie, concept, kachestvo obrazovanie, sotsialnoe razvitie, qualified staff, program planning.

Maktabgacha ta'lim tizimini to'liq uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taminlash, bolalarni har tomonlama axloqiy, intellektual, manaviy, estetik, ma'rifiy va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish, bolalarlarning maktabga tayyorgarlik darajasini belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar tadbiiq etilmoqda, ularning hammasi bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilaydi. Shuni alohida aytib o'tish joizki- 2018-yilning sentabr oyidan tadbiiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilganligi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik jihati desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari sanalib, bu dastur asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari yanada mukammallashdi. "Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi", - degan edi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin. Ushbu dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlana bordi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar sifatli holatga keldi, zamonaviy ta'lim berish jarayoni barqarorlashdi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi belgilangani ham sohani istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan omillardan asosiysi hisoblanadi desak xato bo'lmaydi. Ushbu konsepsiya o'zida quyidagilarni nazarda tutadi:(1)

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning ishlab chiqilishi, 2019–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari hamda 2025– 2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanganligi ham maktabgacha ta‘lim sohasining huquqiy asosini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bu kabi normativ –huquqiy hujjatlarning yuritish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi har yili 1-dekabr qadar o‘tayotgan yilning «Yo‘l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun «Yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo‘l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Ushbu monitoringga ko‘ra har bir MTTning normativ huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.(3)

Ma‘lumot sifatida aytish joizki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yaxshi ish haqi to‘lansa, bu kasbga qiziqish bo‘ladi albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yilning mart oyida Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqanligi ham sohani rivojlantirishning ustuvor vazifasini ta‘minladi. Agrippina Shinning so‘zlariga ko‘ra, o‘tgan 27 yil davomida maktabgacha ta‘lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining tarif stavkasi biror marta oshirilmagan. Shu boisdan ham 2018 -yilning mart oyida Maktabgacha ta‘lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy tarif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma‘lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foizga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.(2) Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘liq rivojlantirish sohasidagi ilgor xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta‘limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta‘limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va oquv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. maktabgacha ta‘limni uzluksiz ta‘lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilinib borilayapti. Bu esa maktabgacha talim sohasini yanada takomillashga qaratilgan chora tadbirlar sifatida e‘tirof etilayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-son qarori. // «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste‘dod, 2018. – 223 b
6. Ksendzova, GF Maktabgacha ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik- pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146- 148

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH UCHUN ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR**

*O'zbekiston, Navoiy viloyati Xatirchi tuman  
Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi  
sho'ba metodisti Salohiddinova Manzura Anvarovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatlarini yanada takomillashtirish uchun zamonaviy metodik yondashuvlar orqali pedagog-tarbiyachilarning malaka va ko'nikmalarini yanada oshirish mumkinligi haqida bayon qilingan. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning ham bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun ham zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

**Abstract:** In this article, it is stated that it is possible to further improve the qualifications and skills of pedagogues-educators through modern methodical approaches in order to further improve the activities of preschool educational organizations. Also, it is appropriate to use modern methodical approaches to form the knowledge, skills, and abilities of students in preschool educational organizations.

**Аннотация:** В данной статье утверждается, что возможно дальнейшее повышение квалификации и навыков педагогов-воспитателей посредством современных методических подходов в целях дальнейшего совершенствования деятельности дошкольных образовательных организаций. Также целесообразно использовать современные методические подходы для формирования знаний, умений и навыков обучающихся в дошкольных образовательных организациях.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, zamonaviy metodik yondashuvlar, ta'limiy faoliyatlar, metodik kengash, tavsiya, qo'llanma.

**Key words:** organization of preschool education, modern methodical approaches, educational activities, methodical council, recommendation, manual.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, современные методические подходы, воспитательная деятельность, методический совет, рекомендации, пособие.

Maktabgacha ta'lim sohasiga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning e'tiboridan bebahra qolgani yuq. Misol uchun, "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, 3-7 yoshli bolalarga ta'lim-tarbiya xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda sohada nodavlat sektorining ulushini oshirish maqsadida"[1] qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bundan maqsad shuki, maktabgacha ta'lim sohasi ham o'z navbatida boshqa sohalar singari jadallik bilan rivojlanmoqda.

Shuningdek maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi umumiy uyg'unlikda bir vazirlikka birlashdi: "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, uning sifatini oshirish hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2023/2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich oshirish belgilansin"[2] Bundan shuni anglash mumkinki, maktab sohalarning boshlanish sohasi albatta, maktabgacha ta'limga kelib taqaladi. Maktabgacha ta'lim har doim bolaning rivojlanishining muhim poydevori hisoblangan. O'tgan yillar davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga yondashuvda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi boshlandi. Har bir maktabgacha yoshdagi bola o'z qiziqishi asosida ma'lum bir bilimga ega bo'ladi va uni ta'limiy faoliyatlar davomida qo'llay olishi shart.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim-tarbiya qilib, amaliyotga tatbiq qilindi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o'qishni yanada yaxshiroq o'rganishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga qamrab olgan metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish orqali maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatlarini yanada takomillashtirish uchun pedagogik kengashlarning jamoa pedagoglari fikri va ulardagi kreativlikni ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladiga ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori pedagogik kengash raisi hisoblanadi va uni pedagogik kengashni boshqarib boradi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar:

- ✓ bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash va hal qilish yo'llarini izlash;

- ✓ tashkilotlar ish amaliyotga zamonaviy pedagogikaning yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish;

- ✓ tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish va ularni amalyotda qo'llash ishlarini amalga oshiradi.

Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, yo'l-yo'riq, nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarni; maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha ta'limiy faoliyatlarningsifatli bajarilishi jarayonini; ish amaliyotiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi. Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzuning kengligini, dolzarbligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina Pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi. Pedagogik kengash tarkibiga: uslubchi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta'lim muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi shifokor, katta hamshirasi, kasaba uyushma, ota-onalar qo'mitasining raisi xamda vasilik kengash raislari kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar. Pedagogik kengashni tashkil etishning turli usullari va texnologiyalaridan foydalanish uning samara va natijalarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

XX asrning 70-yillarida o'quvchilarning darslarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Xavfni bartaraf etish uchun nostandart darslarning tashkil etishga e'tibor qaratildi. Xuddi shuningdek tashkil etiladigan kengashlar shunchaki ommaviy yig'ilish shaklida olib borilishi ham pedagog xodimlar uchun zerikarli jarayonga aylanib qoldi. Bunday jarayonlarning oldini olish maqsadida an'anaviy texnologiyalardan noan'anaviy texnologiyalarga o'tila boshlandi. Noan'anaviy texnologiyaning asosiy turlari sifatida quyidagi usullar qo'llanila boshlandi. Masalan, rolli o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, har xil turdagi musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, ijodiy tanlovlar, teatrlashtirilgan darslar, binar darslar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, haqiqatni izlash, "paradokslar", auksionlar, dialoglar. Shuningdek ularning yordamchi tur sifatida to'garak; praktikum; seminar; konferensiya; maslahat (konsultatsiya); fakultativ mashg'ulot; ekskursiyalari; mustaqil ishlaridan ham kengash maqsad va mavzularidan kelib chiqqan holda foydalanishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatlarini yanada takomillashtirish uchun zamonaviy metodik yondashuvlar uchun pedagogik kengashlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki tarbiyachilar jamoa bo'lib ishlaganda ko'p qirrali hamkorlik orqali ko'pgina g'oyalar vujudga kelishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy metodik yondashuvlar orqali ta'lim sifatini yanada oshirish

mumkun. Ta'limiy faoliyatlarda va tarbiyaviy jarayonlarda metodik yondashuvlar judayam samarali natijalarga erishish mumkin. Bolalarga ta'limiy faoliyatlarni zamonaviy tashkil etish ularda zamonaviy bilimlarni o'rganishga zamin yaratadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. "Hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "PQ-PQ-5125-sonli qarori.26.05.2021
2. "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida "PF-79-sonli 26.05.2023
3. Umarova F.B , Sodiqova N.A " Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv" .
4. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q , Kayumova N.M, A'zamova M.N."Maktabgacha pedagogika ".
5. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogic texnologiyalar" darslik.
6. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quvslubiy majmua. Toshkent: 2016.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNI AHAMIYATI VA MOHIYATI**

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi A.A.Usmonov*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
S.I.Fayzullayeva, B.E Saydullayeva*

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni ahamiyati va boshqaruvni demokratik tizimi haqida so'z boradi. Oddiydan murakkabga qarab rivojlanishni bu tizimi keng ahamiyat kasb etishi maqolada yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, innovatsion yondashuv, maktabgacha ta'lim tizimi, demokratik tizim, pedagogik jamoa.

**Аннотация.** В статье говорится о важности инновационных подходов в развитии системы дошкольного образования сегодня и демократической системы управления. В статье подчеркивается важность данной системы развития от простого к сложному.

**Ключевые слова:** Менеджмент, инновационный подход, система дошкольного образования, демократическая система, педагогический коллектив.

**Abstract.** The article talks about the importance of innovative approaches in the development of the preschool education system today and the democratic system of management. The article highlights the importance of this system of development from simple to complex.

**Key words:** Management, innovative approach, preschool education system, democratic system, pedagogical team.

Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda biz ko'pchilik maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qidiruv rejimiga rasmiy yoki mazmunli o'tish faktini ishonch bilan aytishimiz mumkin. Ushbu rejim sifat o'zgarishlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish rejimiga o'tkazish yo'lida o'tish davri hisoblanadi. Yana bir jihat bu o'tishning sifat xususiyatlari bilan bog'liq: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy etilayotgan innovatsiyalar uni rivojlantirishning dolzarb ehtiyojlari va imkoniyatlariga qay

darajada mos keladi, bolalar, ota-onalar, o'qituvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradi, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo'shadi. barqaror yuqori rivojlanish ko'rsatkichlariga erishish. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirishning dolzarb muammolarini aniqlash masalasi eng dolzarb bo'lib qolmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishni modernizatsiya qilish motivatsion va dasturiy-maqсадli yondashuvlar doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqariladigan tizimiga boshqaruv tizimining har tomonlama va har tomonlama ta'sirini ta'minlaydigan turli xil turlari va boshqaruv texnologiyalari bilan bog'liq. motivatsion dastur-maqсадli boshqaruv, birgalikda boshqaruv, refleksiv boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishni sifat jihatidan o'zgartirish ko'rsatkichlari birinchi navbatda yangi tamoyillardir:

- demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqaruvning izchilligi va yaxlitligi;
- markazlashtirish/markazsizlashtirish;
- boshqaruvning strategik, taktik va operativ darajalari va ularning tegishli boshqaruv turlarini (an'anaviy, refleksiv, o'z-o'zini boshqarish) o'zaro bog'liqligi va ajratilishi;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning obyektivligi va to'liqligi.

Hozirgi bosqichda rivojlanishda bir qator muammolar mavjud innovatsion jarayonda, xususan:

➤ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion dasturlarni amaldagilar bilan uyg'unlashtirish;

➤ pedagogik jamoaning bo'linishi va turli pedagogik tushunchalar vakillarining birga yashashi;

➤ yangi turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ota-onalarning kutganlari va talablariga mos kelmasligi;

➤ olib borilayotgan ta'lim faoliyatini yangi ilmiy va uslubiy qo'llab-quvvatlash zarurati.

Ajratilgan joylar ko'pchilik maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tashkilotning innovatsion faoliyati natijalarini zarur darajada ko'paytirishni ta'minlash uchun zarur va hozirda yetarli. Ta'lim tashkilotini har tomonlama rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti modeli va uning tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich o'zgartirish mexanizmini hisobga olgan holda yaqin kelajak uchun uning faoliyati loyahasini qurish kerak. Shu bilan birga, bizning tushunchamizdagi model maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zaro ta'sirida ta'lim jarayoni sub'ektlarining rivojlanishini, shuningdek, ularning o'zaro bog'liqligi ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi makonlar tizimi bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi standart;

a) subyektning muhim kuchlarini joylashtirish bosqichlari va darajalarining o'zgarishi. Ijtimoiy rivojlanishni subyektning sotsializatsiyasining ma'lum bosqichlarida o'zgarish sifatida tasvirlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining barcha subyektlarini (moslashish, integratsiya, individuallashtirish) mantiqiy va rivojlanish yo'nalishini belgilashga imkon beradi;

v) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yetakchi boshqaruv turlarini o'zgartirish. Tanlangan menejment turlari "oddiydan murakkabga" yo'nalishi bo'yicha rivojlanadi - asosan tashqi ta'sirlarning ustunligidan ichki ta'sirga, jamoaviy retseptga e'tibor qaratishdan o'z-o'zini dasturlash va o'z rivojlanishini boshqarishga (an'anaviy boshqaruv, motivatsion boshqaruv) dastur-maqсадli boshqaruv, birgalikda boshqarish, refleksli boshqaruv, o'z-o'zini boshqarish).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish shartlari va rivojlanish g'oyalari manbalari:

✓ muammoni har tomonlama tahlil qilish asosida maqsadning aniq bayoni; -rivojlanish konsepsiyasining mavjudligi;

✓ kelgusidagi ishlar uchun kadrlar, moddiy-texnika bazasi, ilmiy-uslubiy ta'minoti, resurslari mavjudligi;

✓ jamoada qulay ijtimoiy-psixologik iqlim, o'qituvchilarning rivojlanish dasturini amalga oshirishga tayyorligi, subyektlarning joriy ish natijalaridan qoniqishi,

✓ innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilari manfaatlarining muvozanati;

✓ vazifalarni hal qilishda tanlash erkinligini ta'minlash;

- ✓ innovatsion faoliyat uchun pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq, optimal texnologiyalarni tanlash;
- ✓ jamiyatning ta'lim salohiyatidan foydalanish;
- ✓ tashqi aloqalarni kengaytirish, maktabgacha ta'lim muassasasining ochiqligi;
- ✓ maqsadga muvofiq boshqaruvni tashkil etish, boshqaruv turlarining optimal kombinatsiyasi;
- ✓ boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijobiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish, innovatsiyalar bankini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishni modernizatsiya qilish hamkorlikning motivatsion va dasturiy-maqsadli yondashuvlari doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqariladigan tizimiga boshqaruv tizimining kompleks va har tomonlama ta'sirini ta'minlaydigan turli xil boshqaruv turlari va texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 12 apreldagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5071-son Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019 yil 8 may. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2000 y.
4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: - T.: «Tarbiyachi», 2004 y.

### **ZAMONAVIY IJTIMOY-MADANIY SHAROITLARDA BOLA SHAXSINING BARQAROR RIVOJLANISHI**

*O'zbekiston, NavDPI maktabgacha ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi Fayzullayeva.Z.A.  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Ro'ziqulova Sh.A.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda bola shaxsining rivojlanishini tashkil etish, innovatsion o'qitish, ta'lim-tarbiya berish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, innovatsion ta'lim, zamonaviy ta'lim-tarbiya berish, afzalliklari, fikrlash jarayoni, madaniyat, ma'naviyat, tarbiya, pedagog, ota-ona, dunyoqarashi, jismoniy salomatligi.

**Аннотация:** В данной статье освещается информация об организации развития личности ребенка в современных социокультурных условиях, инновационном обучении, воспитании.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, инновационное образование, современное воспитание-воспитание, преимущества, мыслительный процесс, культура, духовность, воспитание, педагог, родитель, мировоззрение, физическое здоровье.

**Annotation:** this article covers information on the organization of the development of the child's personality in modern socio-cultural conditions, innovative training, education.

**Keywords:** preschool education, innovative education, modern education, affinities, thought process, culture, spirituality, upbringing, educator, parent, worldview, physical health.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda bola shaxsining barqaror rivojlanishida albatta biz tarbiyachilarning muhim va ahamiyatli rolimiz katta. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasiga har doim tarbiyachi rahbarlik qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ijtimoiy

jamoatchilik munosabatlarining boshlang'ich belgilari axloqiy va ma'daniy sifatlarining asosiy va murakkab guruhidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida (mehnat) tarbiyalanuvchi yoshdagi bolalarni mehnat tarbiyasi ularni mehnatga o'rgatish va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi va yosh davrida ularga singdiriladi. Bolalarni bo'lajak mehnat faoliyatiga o'rgatish va va o'z oldiga kelajakda maqsad qo'yishga undash maktabgacha ta'lim tarbiyachisining asosiy vazifasidir. Oilada ham bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda shariat qoidalari, islom dini arkonlariga rioya qilishga dav'at etilgan. Zamonaviy sharoitda oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi olim, psixolog va pedagog tomonidan oila muammosining turli jihatlarini tadbiq etish jarayonini ochib beradi degan fikrlarni bildirishgan. Olimlar va psixologlar o'zbek oilalarida, oila muhitidan kelib chiqqan holda bola tarbiyasiga katta e'tibor qaratilishini ko'p takidlashadi. Oilada bolalarni ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy hayotga tayyorlash oilada milliy tarbiyani ham rivojlantiradi. Demak, maktabgacha ta'lim tarbiyachisida, yani uning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida eng birinchi omil vazifasini bajaradi. Bolalarda tarbiya jarayonida axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor, vatanga bo'lgan muhabbat, ota-onaga bo'lgan hurmat, insonlarga bo'lgan samimiylik kabi munosabatlar albatta maktabgacha yosh davridan boshlab tarbiyachi tomonidan o'rgatiladi. Yana bir muhim aytiladigan masalalardan biri bolalar tarbiyasini yo'lga qo'yishda ota-onalar bilan ijtimoiy-pedagogik hamkorlikka erishishda ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarga egaligi, ularning ijtimoiy jihatdan faol, ruhan tetik ekanligi ham katta ahamiyatga ega. Atrofdagi insonlar bilan suhbatda bo'lish bolalarda bevosita bo'lish bolalarda ijtimoiy rivojlanishni barqaror qiladi. Atrof - muhitga bo'lgan munosabati ham bolada ijtimoiy-ma'naviy va madaniy jihatdan tarbiya topishiga katta ko'mak va tayanchdir. Zamonaviy madaniyat maktabgacha yosh davridagi bolalar uchun bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri. Zamonaviy bolalar bugun internet tasiri ostida rivojlanishmoqda. Bolalar bu raqamli texnologiyalarni o'z-o'zidan mustaqil ravishda o'zlashtirib, biz kattalar esa "qulog'im tinch bo'lsa bo'ldi" nazari ostida ularga bo'lgan nazoratni ancha-muncha suslashtirib qo'ydik. Bu esa tabiiy ravishda farzandlarimizni madaniy rivojiga kerakli darajada o'z salbiy ta'sirini kursatmoqda.

Ko'p holatlarda bolalarning hissiy holatiga salbiy ta'sir qilayotgan gadjetlar, smartfon, planshetlardagi o'yinlar va turli xildagi vedioroliklar bolada asab tizimidagi muammolar bilan birga tajovuzkorlikni hamda loqaydlik darajasini oshib borishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lgan internetga qaramlik maktab yoshidagi va ular bilan bir qatorda maktabgacha yosh davri bolalarida ham zamonaviy madaniyatni o'rin almashinishiga olib kelayotganligini afsuski, guvohi bo'lyapmiz. Bunday vaziyatda biz zamonaviy jamiyatda ulg'ayib borayotgan bolalarni salbiy rivojlanish oqibatlarini bartaraf etish maqsadida o'z strategiyamizni yaratib, o'z ustimizda izlanishimiz va tinimsiz ishlashimiz zarur.

Bolaning shaxsiy rivojlanishida yuz berayotgan nuqson va xavf-xatarlarni biz tarbiyachi pedagoglar o'z vaqtida baholay olishimiz, bola tarbiyasidagi va rivojlanishidagi muommalarni oldini olishimiz zarur ham shart.

Albatta bu jarayonda tarbiyachi pedagoglar ota-onalar bilan bir bo'lib, hamjihatlikda ishlash maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan ishlashda shuni e'tiborga olish muhimki, bu davrda yuzaga keladigan muammolarni yetarlicha baholab, unga o'z vaqtida e'tibor bermaslik, kelajakda jiddiy tuzatib bo'lmaydigan, shaxs sifatida rivojlanmagan yo'qotishlarni, o'zini anglamagan, ijtimoiy-madaniy hayotda o'z o'rniga ega bo'lmagan va vatanga, oilaga, jamiyatga hech qanday foydasi tegmaydigan shaxsni muallaq bir vaziyatda qolishiga sabab bo'ladi.

Zero, muhtaram prizidentimiz o'zlarning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi - bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz". Yurtboshimiz bu pirma'no so'zlari bilan bevosita biz Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglariga murojat, ham talab va iltimos qilayotganday nazarimda.

Men ishonamanki biz tarbiyachi pedagoglar bu vazifani albatta uddalaymiz va bizga bo'lgan ishonchni oqlaymiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" QONUN. T.: 2020.



2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. “2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
5. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги Мактабгача таълимда таълим жараёнини индивидуallashtirish. T.: 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.

## **ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*O‘zbekiston, Navoiy prezident maktabi ingliz tili  
o‘qituvchisi Tashpulatova M.A.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ta’lim talab darajasiga ko‘tarilgan davrda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy qobiliyatlarning rivojlanishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, innovatsion ta’lim jarayonini tashkil etish kabi ma’lumotlar taqdim etilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta’lim, innovatsiya, kasbiy kompetensiya, lingvistik, leksik, professional pedagog, chet tillarni o‘rgatish, axborot texnologiyalari, texnik bilimlar, raqobatbardosh kadrlar.

**Аннотация:** В данной статье представлена такая информация, как развитие профессиональных навыков у будущих учителей английского языка в период, когда современное образование выходит на уровень востребованности, использование инновационных технологий, организация инновационного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** современное образование, инновации, профессиональная компетентность, лингвистическая, лексическая, профессиональный педагог, обучение иностранным языкам, информационные технологии, технические знания, конкурентоспособный персонал.

**Annotation:** this article presents such information as the development of professional abilities in future English teachers, the use of innovative technologies, the organization of an innovative educational process during the period when modern education is in demand.

**Keywords:** modern education, innovation, professional competence, linguistic, lexical, profession educator, teaching foreign languages, information technology, technical knowledge, competitive personnel.

Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishda o'qituvchilar va ota-onalarning bir-birlari haqidagi g'oyalarini shakllantirish muhim rol o'ynaydi. Pedagoglarning bolalar tomonidan idrok etilishi, o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning o'qituvchi haqidagi tasavvuridan biroz farq qiladi. Bolaga tarbiyaviy ta'sirni tashkil etishda bolalar bog'chasi va oilaning uzluksizligi bola maktabgacha ta'lim muassasasiga kirgan paytdan boshlanadi. O'qituvchi bola tomonidan ikkinchi ona sifatida qabul qilinadi, agar o'qituvchi barcha kerakli empatiya va kasbiy mahoratga ega bo'lsa. Binobarin, ota-onalarning o'zlari pedagogning maslahat va tavsiyalarini tinglashga, ularni amalga oshirishga, kerak bo'lganda yordam so'rashga tayyor.

O'qituvchi boshlang'ich maktab birinchi sinf o'quvchisi bilan ma'lum bir masofada bo'lib chiqadi, bu o'qituvchiga o'rganib qolgan bola uchun tushunarsiz bo'lib qoladi - yaqin odam va birinchi turmush o'rtog'i. Bolaning o'qituvchi haqidagi tasavvurini to'g'ri va o'z vaqtida qayta tiklash oila a'zolari va ta'lim muassasalari xodimlarining birgalikdagi vazifasidir. Bu yo'nalish ota-onalarning umumiy yig'ilishi, ota-onalarning bo'lajak o'qituvchilar bilan uchrashuvlari, ota-onalar to'garaklari faoliyati orqali amalga oshirilmoqda. Agar barcha rejalashtirilgan tadbirlar professional tarzda amalga oshirilsa, bolalar bog'chasi va oilaning uzluksizligi maktab va maktab o'qituvchilarini bolalar tomonidan idrok etishning adekvat tizimini shakllantirishga maksimal darajada yordam beradi.

Bolalar bog'chasi va maktab ishida to'liq uzluksizlikni ta'minlaydigan ta'lim muassasalari ishining asosiy yo'nalishi bolalar bilan ishlashdir. Ushbu yo'nalishni amalga oshirib, o'qituvchilar o'z oldiga bolalarning maktab, maktab hayoti, o'quv mashg'ulotlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish vazifasini qo'ydilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari bolalar bog'chasida mashg'ulotlar o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlaridan biroz farq qiladi. "Maktab" deb ataluvchi ta'limning keyingi bosqichiga o'tayotgan bola o'zi uchun mutlaqo yangi muhitga kirib borayotganini his qilmasligi, balki "bolalar bog'chasi - boshlang'ich maktab" yagona tizimida davom etishi kerak. Davomiylik tanishish maqsadida maktabga sayohatlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar bog'cha va boshlang'ich maktabning uzluksizligi bilan tanishadilar, o'quvchilar o'yin va ko'ngilochar tadbirlarda o'quvchilar bilan muloqot qiladigan ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.[1]

Bolalarni maktab hayotining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish va kirish darslarini o'tkazish uchun maktab o'qituvchilari bo'lajak birinchi sinf o'quvchilari uchun maktabga kirishdan oldin bir muncha vaqt kirish darslarini o'tkazadilar. Bunday sinflardagi bolalarning qatnashishi, tajriba shuni ko'rsatadiki, bola psixikasida moslashish jarayonlarini shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi. Tizimdagi moslashuv darslarida qatnashgan bolalar mashg'ulotlardagi o'zgarishlarni osonroq qabul qiladilar, yangi jamoada tezroq moslashadilar. Shu bilan birga, ular yangi talaba bilan yaxshi munosabatda bo'lishadi, ular yangi o'qituvchini ijobiy qabul qilishadi. Bu holda bolalar bog'chasi va maktabning uzluksizligi o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda maktab mashg'ulotlariga qatnashishi orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z navbatida ta'limning yangi bosqichiga o'tish bosqichida bitiruvchilarni qo'llab-quvvatlab, "Kelajak birinchi sinf o'quvchisi maktabi" faoliyatini tashkil etadi. Bunday maktab bolalar bog'chasida taxminan oktyabrdan maygacha ishlaydi. o'quv yili. "Bolalar bog'chasi - boshlang'ich maktab: ishda uzluksizlik" mavzusida o'tkazilgan birinchi uchrashuvga bo'lajak birinchi sinf o'quvchilarining o'qituvchilari taklif etiladi, bu erda bolalarni

bitiruvchi tarbiyachi va bolalarni qabul qiluvchi o'qituvchining birinchi tanishuvi bo'lib o'tadi. Maktabning keyingi yig'ilishlari bolalarning diagnostikasi, ota-onalarning so'rovlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Bo'lajak o'qituvchilarni natijalar bilan tanishtirish, shu bilan bog'cha va maktabning uzluksizligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. "Kelajak maktabi birinchi sinf o'quvchisi"ning ish rejasi oldindan tuziladi va ta'lim muassasalari rahbariyati va pedagogik jamoasi bilan kelishiladi.[3]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Митчелл Д. Эффективные педагогические технологии специального и инклюзивного образования // Использование научно обоснованных стратегий обучения в инклюзивном образовательном пространстве. Главы из книги / Пер. Аникеев И.С., Борисова Н.В. – М., 20013.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi 2017-yil 09.09 PF-3261-sonli qaror.
3. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmon.

### **MONTESSORI PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY TA'LIM MAKONIDAGI O'RNI**

*O'zbekiston, NamDU Maktabgacha ta'lim  
Metodikasi kafedrasi o'qituvchisi Sh.Dosbayeva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Montessori pedagogikasining zamonaviy ta'lim makonidagi o'rni, Mariya Montessori pedagogikasini ta'lim tashkilotlarida amalga oshirish tarixi va nazariy qarashlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'limdagi gumanistik an'analar, M.Montessori pedagogikasi, ta'lim tashkilotlarida amalga oshirish, his-tuyg'u, erkin tarbiya, tarixiy va nazariy qarashlar, zamonaviy ta'lim makoni.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль Монтессори-педагогике в современном образовательном пространстве, история и теоретические взгляды на внедрение педагогики Марии Монтессори в образовательных организациях.

**Ключевые слова:** гуманистические традиции в образовании, педагогика М. Монтессори, внедрение в образовательные организации, эмоции, свободное воспитание, историко-теоретические взгляды, современное образовательное пространство.

**Annotation:** In this state, the role of Montessori pedagogy in the modern educational space, the history and theoretical aspects of the implementation of Maria Montessori pedagogy in educational organizations are discussed.

**Key words:** humanistic traditions in education, M. Montessori's pedagogy, implementation in educational organizations, emotions, free education, historical and theoretical views, modern educational space.

Montessori pedagogikasining asosiy maqsadi o'z-o'zini hurmat qiladigan erkin va mustaqil shaxsni tarbiyalashdir. Montessori - pedagogikaning prinsipi shundaki, bola o'zini o'zi, o'z faoliyatida yaratadi. Bolaning ongi atrofidagi hamma narsani shimgich kabi o'zlashtiradi. Bolaning ta'limi uning biologik ritmiga, individual sur'atiga muvofiq amalga oshiriladi.

Avvalo, tarbiya va ta'lim tizimlarining haqiqiy insonparvarligi, bola tabiatiga murojaat qilish, hech qanday avtoritarizmning yo'qligi. O'qituvchi belgilagan doirada bola o'ziga yoqadigan va ichki qiziqishlariga mos keladigan ishni tanlashi mumkin edi. U o'z his-tuyg'ularini erkin va o'z-o'zidan amalga oshirdi, bundan tashqari, u bunday ishlardan zavq va ishtiyoqni his qildi, chunki u birovning buyrug'i bilan emas, balki o'z iltimosiga binoan harakat qildi.

Montessori tizimining yana bir dominantasi - bu ta'lim faoliyatini maksimal darajada individuallashtirish, har bir bolani rivojlantirish uchun bugungi kunda ham, ko'p yillar uchun ham hisoblangan, har bir bolaning rivojlanishi uchun puxta o'ylangan va mohirlik bilan jihozlangan



dasturdan foydalanish, ham o'qitish va ham o'qitishni organik ravishda birlashtiradi. bolalar faolligini uyg'otish va saqlashga asoslangan ta'lim. O'z mahoratini oshirib, bola asta-sekin mustaqillik va ishonch tuyg'usiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, unda o'rganishga bo'lgan muhabbat uyg'ondi va qizg'in mustaqil kognitiv faoliyat motivlari shakllandi.

M.Montessorining muhim yangiligi an'anaviy sinf-dars tizimini yo'q qilish va 3 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun har bir o'quvchining muhim avtonomiya va mustaqillik huquqini tan olishga asoslangan o'ziga xos ta'lim jarayonini yaratish edi. o'ziga xos ish sur'ati va bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usullari. Montessori maktabining shiori bejiz emas: "Menga buni o'zim qilishimga yordam bering". Bunga Montessori maktablarida juda keng ta'lim dasturini amalga oshirish orqali erishildi, bu bizning odatiy ma'nomizda dastur emas. Aksincha, bu bolalar faoliyatining strategiyasi va taktikasining ta'rifidir.

Montessori klassi bir nechta sohalarni qamrab oladi. Amaliy hayot sohasi - yosh bolalar (2,5-3,5 yosh) uchun alohida ahamiyatga ega. Mana, bolaning o'zi va narsalariga g'amxo'rlik qilishni o'rganadigan materiallar. Mahkamlagichlar (tugmalar, fermuarlar, tokalar, pinlar, dantellar, kamon va ilgaklar) bo'lgan ramkalar yordamida bola mustaqil ravishda kiyinishni o'rganadi;

quying va quying (guruch, suv); stolni yuving va hatto kumushni jilolang;

hissiy rivojlanish zonasi - bolaga atrofdagi dunyoni o'rganishda o'z his-tuyg'ularidan foydalanish imkoniyatini beradi.

Bu erda bola turli xil narsalarning balandligi, uzunligi, vazni, rangi, shovqini, hidi, shaklini farqlashni o'rganishi mumkin;

gazlamalarning xossalari bilan tanishish;

zonalar - lingvistik, matematik, geografik, tabiiy fanlar materiallar bilan ta'minlangan, ularning asosiy maqsadi bolaning aqliy rivojlanishi.

Ko'pgina Montessori maktablari bolaning muhitini yanada boyitish uchun musiqa, san'at va raqs, yog'ochdan ishlov berish, chet tili kabi sohalar bilan to'ldiradi. Bolaning umumiy rivojlanishi. Harakat mashqlari bolani jismonan rivojlantiradi va uning tanasini his qilishiga, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Bularning barchasi, shuningdek, nozik psixologik yondashuv, buxgalteriya hisobi tufayli individual xususiyatlar va har bir bolaning imkoniyatlari, inson idrokining tabiiy xususiyatlariga tayangan holda, "Montessor bolalar" ertaroq (5 yoshga kelib) va tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq yozish va hisoblashni o'zlashtiradilar, ularda o'rganishga moyillik rivojlanadi va iroda rivojlanadi.

Montessori maktabidagi o'qituvchi bolaga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki didaktik materiallar - turli o'yinlar, moslashuvlar orqali ta'sir qiladi, ular yordamida bola o'qituvchi tomonidan tayyorlangan dasturga muvofiq harakat qiladi. An'anaviy Montessori maktabidagi o'qituvchidan farqli o'laroq, o'qituvchi sinfning markazi emas. Bolalar sinfda o'qiyotganda, u deyarli ko'rinmaydi. O'qituvchi stolda o'tirmaydi, lekin individual darslarda vaqt o'tkazadi, bola bilan stolda yoki gilamda ishlaydi;

Montessori rahbari zukko kuzatuvchi bo'lishi va har bir bolaning individual rivojlanish darajasini aniq tushunishi kerak. Qaysi materiallar ishlash uchun ko'proq mos kelishini u hal qiladi bu daqiqa... Shaxsiy kuzatuvlar o'qituvchiga bolaga materiallardan optimal foydalanishga yordam beradi; keyin u bolani material bilan qoldirib, kuzatishga qaytadi.

Har bir Montessori sinfi o'ziga xosdir. Usul juda o'ziga xos tuzilishga ega bo'lishiga qaramay, u moslashuvchan va individual talqin qilish uchun ochiqdir. Chunki mukammal ikkitasi yo'q bir xil odamlar va har bir Montessori sinfi, metodning talqini va o'qituvchining imkoniyatlariga qarab, o'ziga xosdir. Demak, M.Montessori pedagogikasining hodisasi uning bola tabiatiga cheksiz ishonchida ham, rivojlanayotgan shaxsga har qanday avtoritar bosimni istisno qilishga intilishida ham, uning erkin, mustaqil, faol idealiga yo'naltirilganligidadir.

Bolaga ishonch M.Montessori pedagogikasining tamal toshi, uning insonparvarlik intilishlarining eng mukammal ifodasidir. Bunday munosabat, istisnosiz, barcha bepul ta'lim vakillariga xos edi, ammo Montessori o'zining "mafkuraviy" sheriklaridan ko'ra uzoqroqqa bordi. U bolalarning o'z-o'zidan paydo bo'lishining namoyon bo'lishiga xalaqit beradigan pedagogik

usullarga nisbatan o'ziga xos negativizmni engishga muvaffaq bo'ldi. Aksincha, u eng kichik nuanslarga qadar bolalar faoliyatining maksimal rivojlanishini ta'minlaydigan usulni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, M.Montessori pedagogikasining hayotiyligi, uning muvaffaqiyati va ko'p o'n yilliklar davomida mashhurligi fenomenini tushuntiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" Toshkent. 2018 yil
2. Djumanova D.M. "Bola shaxsiga yondashuv" «Zamonaviy ta'lim» ilmiy- amaliy, ommabop jurnali, 2012 yil, 1-son. 50-53b.
3. Daminova M., Adambyekova T. «O'yin mashg'ulotlari» T.: «O'qituvchi» 1993y
4. Fausyek Yu.U. Motessori bolalar bog'chasi. T.: «Yangi asr avlodi» 2007y
5. Logipova V.I. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T.: «O'qituvchi» 1992y
6. "Montessori metodikasidan namunalar" metodik tavsiya Samarqand. 2004y
7. Yusupova G. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». T «O'qituvchi» 1993
8. Yusuf xos Xojib. «Qutadg'u bilig» T.: «Yulduzcha» 1989
9. Yu.I.Fausek "Montessori bolalar bog'chasi" Toshkent. 2008

## **YANGI O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TALIM TIZIMLARI MAKTABGACHA TA'LIM**

*O'zbekiston, NavDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti  
Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna  
O'zbekiston, NavDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Iqtidorli talaba: Ashurova Marjona Avazovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy talablarga javob beruvchi yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda tarbiyachining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlikfaoliyati ekanligi, o'quv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini topishga doir fikr mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, innovatsion metod, psixologik rivojlanish, renessans, uzluksiz ta'lim, tarbiya, ta'lim tizimi, bilim, ko'nikma, takomillashuv, ko'rgazmali tasavvur, metodika.

**Аннотация:** В данной статье новая организация дошкольного образования, отвечающая современным требованиям, и воспитатель должны обладать высокими знаниями и профессиональными навыками, будущие воспитатели, начиная со студенческого периода, понимают, что настоящей сущностью дошкольного образования является сотрудничество ребенка и Воспитатель, педагогическое образование обсуждаются средства и методы организации деятельности, проблемы, возникающие в процессе обучения и поиск их решения.

**Ключевые слова:** образовательная система, инновационный метод, психологическое развитие, реnaissance, непрерывное образование, образование, образовательная система, знания, умения, совершенствование, зрительное воображение, методология.

**Abstract:** In this article, a new organization of preschool education that meets modern requirements, and the teacher must have high knowledge and professional skills, future educators, starting from the student period, understand that the real essence of preschool education is the cooperation of the child and the teacher, teacher education, means and methods of organizing activities, problems arising in the learning process and the search for their solutions.

**Key words:** educational system, innovative method, psychological development, renaissance, lifelong education, education, educational system, knowledge, skills, improvement, visual imagination, methodology.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasida bergan intervyusida Uchinchi renessans va yangi O'zbekiston konsepsiyalari nimani anglashi haqida so'zlab berdi. Darhaqiqat, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan; eng ko'hna bayraylarimizdan biri Navro'z yangi kun deb atalishini esga olaylik, ushbu bayrm bilan bog'liq qadriyatlar shunchalik singib ketganki, xalqimiz asrlar dav omida bu an'analarga sodiq qolmoqda. Bugungi kunda umummilliy qadriyatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston g'oyasi zamirida birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlarida haqiqat uchun kurashib qurbon bo'lgan allomalarimizning ozru-armonlari, intilishlari mujassam bo'lgan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir Uyg'onish jarayoni ketmoqda. Shuning uchun prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda" degan fikrlarni bildirganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish, zamonaviy bolalar bog'chasini tashkil etish, yosh avlodni vatanvarvarlik ruhida tarbiyalash asos bo'ladi.

O'quv jarayonida; innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bolalarni psixologiyasi bilan tanishish tarbiyachi uchun ham tarbiyalanuvchi uchun ham ijobiy ta'sir qiladi. So'zinning isboti sifatida ta'kidlab o'tamanki, bu jarayonda tarbiyachi bolalar bilan ishlashni, ularni psixikasi bilan tanishish va o'z kasbiga bo'lgan mehr- muhabbatni his qiladi. Tarbiyalanuvchi esa, innovatsion metodlar yordamida aql idrokini shakillantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zining psixologik rivojlanishiga ega. Bolalar yurish boshlaganda, juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xona, ko'cha, bog'chada joylashgan predmatlar bilsan tanishadi. Turli predmetlarni yig'ish, ularni o'rganish mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'yektning qaqnday xususiyatlari borligini bildiradi. 5-6 yoshligida bola ko'zga ko'ringa barcha narsalrni eslab qolish xususiyatiga ega bo'ladi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning ma'lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qacon esga olmasligini isbotladilar. Bu davr bolada fikrlarini kengaytira olish, har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davri bo'lib xizmat qiladi va bu uni atrofdagi dunyosini qo'llab- quvvatlaydi o'ziga bo'lgam ishonchini oshiradi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolaga sog'lom rivojlangan muhitda tarbiya berish, mustaqil shaxs qilib shakillantirish, qobiliyatini ochib berish, o'qishga ta'ilmga bo'lgan ishtiyoqni oshirishdir. Maktabgacha ta'ilm tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayonlarida zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kerakli kadrlarni tayyorlash kabi muammoli vaziyatlar o'z yechimini topmoqda.

Bugungi kunda xorij mamlakatlaridan andaza olish ijodiy yondashgan holda amaliyotga tadbiiq etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlar majmualarini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxasislarda zamonaviy menetment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakillantirish vazifalari dolzarb masalalar qatoruiga kirmoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo'lganligi bois barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asolanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar.

Ta'lim innovatsiyasi deyilganda avvalo mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Texnologikyondashuv asta- sekin innovatsiya xarakterga ega bo'ladi. Shuningdek, inniovatsion ta'lim texnologiyalar qatoriga integral loyihalashgan faoliyat turini kiritish zarur. Chunki, bunday yondashuvga tayanib ko'p tomonlama yaxlit tasavvurlarni shakillantirish mumkin. Bundan tashqari ta'lim innovatsiyalarida tarbiyaviy ta'sir elementlari uyg'unlashtirishga e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni nutqidi rivojlantirishda turli xil o'yinlar va metodlar qo'llaniladi. Qo'llanilgan metodlar bolalar aqliy va psixik rivojlanishi uchum xizmat qiladi. Bola rivojlanishi uchun avvalo unga erkinlik berish lozim. Bu metod orqali u fikrlay olish qobiliyatini shakillantiradi. Bolaga to'g'ri tarbiya berishda

tarbiyachi ota-onalar bilan ishlashni ham yo'lga qo'ydi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachidan, oilada esa, ota-onasidan tarbiya bilim ko'nikma oladi. Bolaga bilim berishda innovatsion ta'lim ham alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ko'rsatib o'tilgandek, "Maktabgacha ta'lim bu ko'p tomonlamali maqsadga yo'naltirilgan bolani ta'limning keying bosqichi-maktab ta'limiga tayyorlash jismoniy ruhiy individual va yoshga doir rivojlanishni ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir. Ayniqsa Maktabgacha yoshdagi bolalarga ota-onasi misol bo'ladi. Shuning uchun ota-onalar bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

Uzluksiz ta'lim o'zi nima bu ta'lim turi o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qadar rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maxsus kasb hunar ta'limi oliy ta'lim o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi. Uzluksiz ta'lim ijodkor ijtimoiy faol, ma'naviy boy shakillanishi va yuqori malakali raqobatdosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yulimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent. «O'zbekiston» NMIU, 2017. - B. 427 - 428.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr).
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr / Sh.M.Mirziyoyev - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston, 2017. -104 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr.

## **STRUKTURAVIY BOSHQARUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONLARI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

*O'zbekiston, NamDU tayanch doktoranti  
O. H. Olimjonova*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada strukturaviy boshqaruv asosida maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslari, mazmuni, mohiyati, sohaga doir muaamolar va ularni yechimlari xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Strukturaviy boshqaruv, maktabgacha ta'lim, ta'lim, jarayonlari, me'yoriy-huquqiy asos.

**Аннотация:** В данной статье говорится о нормативно-правовой основе обеспечения эффективности процессов дошкольного образования на основе структурного управления, его содержания, сущности, проблемах, связанных с сферой, и их решениях.

**Ключевые слова:** Структурное управление, дошкольное образование, образование, процессы, нормативная база...

**Annotation:** This article talks about the regulatory and legal basis of ensuring the effectiveness of preschool education processes on the basis of structural management, its content, essence, problems related to the field and their solutions.

**Key words:** Structural management, preschool education, education, processes, regulatory framework.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan isloh qilish, zamonaviy boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga bolalarning qamrovini oshirishga qaratilgan alohida dasturlar ishlab chiqish, ta‘lim va tarbiya mazmunini sifat jihatdan tubdan o‘zgartirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash masalalari davlat ijtimoiy siyosatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta‘lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini xususida so‘z yuritir ekan, kelgusi 5 yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming bog‘cha o‘rni yaratilishi, ulardagi ta‘lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo‘yicha besh yillik dastur qabul qilinishi zarurligini ta‘kidlaydi[1]

Darhaqiqat respublikamizda 2017 yildan boshlab maktabgacha ta‘lim sohasida jiddiy islohotlar davri boshlandi. Chunki ayni shu yillarda maktabgacha ta‘lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo‘lib, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrovi 30 foizni tashkil etar edi.

O‘tgan davr mobaynida sog‘lom va har tomonlama rivojlangan o‘sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta‘minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta‘lim tizimini tashkil qilish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsada, maktabgacha ta‘lim sohasida davlat siyosatini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan mavjud tizimli kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati paydo bo‘ldi. Eng avvalo, maktabgacha ta‘limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini bermasligini inobatga olib, maktabgacha ta‘limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash chora-tadbirlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham maktabgacha ta‘lim sohasidagi mavjud muammolar va kamchiliklar tahlil etilib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilandi. Jumladan, Farmonda maktabgacha ta‘lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmaganligi, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta‘lim dasturlari tatbiq qilinmaganligi, bundan tashqari, maktabgacha ta‘lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermasligi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Maktabgacha ta‘lim sohasidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishning yetakchi omili sifatida maktabgacha ta‘limni strukturaviy boshqarish tizimida islohotlar amalga oshirildi, ya‘ni maktabgacha ta‘lim vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari, zamonaviy boshqaruv shakli – Kuzatuv kengashlari tashkil etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta‘limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, maktabgacha ta‘lim tizimida davlat talablarining monitoringi va ularga rioya etilishining samarali mexanizmlarini yaratishga oid chora-tadbirlar maktabgacha ta‘lim

tashkilotlarini strukturaviy boshqarishga tubdan yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etayotganligi muhim vazifalar qatorida ko'rsatildi.

Mazkur yangicha yondashuvlarni joriy etish maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish vakolatiga ega bo'lgan "boshqaruv apparati"ga tegishlidir.

Ma'lumki, O'zbekistonda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish: pedagogik kengash, kuzatuv kengashi va davlat MTT rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi pedagog xodimlardan iborat bo'lgan, uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kollegial boshqaruv organi hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi esa maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, rivojlantirish va unga ta'lim berishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilib, uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, o'z xodimlari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari orasidan shakllantiriladi.

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash va samaradorligini oshirish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash ta'lim tashkiloti rahbari – direktorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini ta'minlash, mazkur jarayon samaradorligini oshirish, strukturaviy boshqarishni takomillashtirish muhim zaruriyat sifatida kun tartibidan o'rin egalladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlash esa, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish strukturasi kiruvchi tizim va uni tashkil etuvchi (MTT direktori, metodist, pedagog-tarbiyachilar, xodimlar, jamoatchilik va h.k.)lar faoliyatiga bog'liqdir.

Biroq amaliyotdagi holatlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida strukturaviy boshqarish mexanizmidan samarali foydalanmaslik natijasida tarbiyachi-pedagoglar faoliyatini tashkil etish, pedagogik jarayonlarning monitoringini yuritish, innovatsion ta'lim muhitining hamda mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni mavjud emasligi kuzatiladi va oqibatda ta'lim jarayonlari samaradorligi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, bunda MTT rahbarlari va tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llash, boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanish zaruriyati tug'ilayotgani va bu o'z o'rnida ixtiyoriy rahbar va tarbiyachining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribalariga, ya'ni bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentligiga bog'liqligi, ta'lim tashkiloti faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim tashkilotida qulay ta'limiy muhitni tashkil etish, ya'ni innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zaruriyatining belgilayotganligi maktabgacha ta'lim jarayonlari samaradorligini ta'minlashda strukturaviy yondashish masalasi dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
- 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3261-сонли Қарори.
- 3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бoshqaruвини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармони
- 4.Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон. <https://lex.uz/docs/4646908>
- 5.«Илк қадам» давлат ўқув дастури /такомиллаштирилган иккинчи нашр/. Тошкент-2022 й.
- 6.Valijonov R., Qobulov O. Menejment asoslari. T.: ToshDU, 1997.
- 7.Хо'jayev A.A., Xeyki Lentinin. O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2001. – 126 b.

# ВЗАИМОСВЯЗЬ СОЦИАЛИЗАЦИИ И ВОСПИТАНИЯ, КАК ФАКТОР УСПЕШНОЙ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ ИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В СЕМЕЙНЫЕ ДЕТСКИЕ ДОМА

*Узбекистан, Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Филиала РГПУ им А.Герцена в городе Ташкенте  
Самира Абдухалимовна Рахимова*

**Аннотация:** В статье обсуждаются вопросы воспитания и социализации детей в семейные детские дома. Показаны особенности социально-психологической адаптации детей из институциональных учреждений в семейные детские дома. Раскрываются понятие «детский дом семейного типа», формы социального взаимодействия его с обществом

**Ключевые слова:** воспитание, личность, индивид, адаптация, социально-психологическая адаптация, социализация

Воспитание является частью социализации, единым с ней целым, так как «социализация близка русскому слову «воспитание», значение которого несколько шире английского, несмотря на их тождественную этимологию. Но воспитание подразумевает, прежде всего, направленные действия, посредством которых индивиду сознательно стараются привить желаемые черты и свойства, тогда как социализация наряду с воспитанием включает ненамеренные, спонтанные воздействия, благодаря которым индивид приобщается к культуре и становится полноправным членом общества. Воспитание стремится включаться в процесс социализации как составной части социальной среды с помощью направленного, стимулируемого и сознательно формируемого воздействия на личность.

Личность формируют многие, как внутренние (унаследованные и врожденные), так и внешние (среда и воспитание) факторы. Несмотря на то что каждый из этих факторов имеет свои специфические черты и особенности, они неразрывно связаны друг с другом и образуют единое целое» [14, с. 134].

Многообразие имеющихся в научной литературе основных понятий социализации содержит понимание того, что социализация — это процесс, благодаря которому люди усваивают социальные нормы и происходит становление личности. Выработка социальных позиций личности, позволяющих ей эффективно взаимодействовать в обществе, собственно и является содержанием социализации, а ее цель — формирование социально активной личности, действия которой регулируются социальными нормами и общественными интересами, а также воспроизводство общества в целом.

Таким образом, социализация — это двухсторонний процесс. С одной стороны, происходит усвоение социального опыта как результат воздействия среды на человека. С другой стороны, в ходе социализации человек также возможно действует на среду посредством отношений, своей деятельности и общения при избирательном отношении к нормам и ценностям. Такое понимание социализации характерно для современной науки, тогда как первоначально под социализацией понимали процесс одностороннего влияния среды, общества на человека.

В социологии базовым в реализации функции социализации ребенка также признается институт семьи, который А. Г. Харчев определял как «исторически-конкретную систему взаимоотношений между супругами, между родителями и детьми, как малую социальную группу, члены которой связаны брачными или родительскими отношениями, общностью быта и взаимной моральной ответственностью и социальная необходимость в которой обусловлена потребностью общества в физическом и духовном воспроизводстве населения» [25, с. 16]. Роль семьи в жизни общества важна и многогранна потому, что каждый человек на протяжении всего своего жизненного пути является частью семьи, в ней он рождается, развивается, взрослеет, выходит из нее и создает новую.

Социализация и воспитание в семье в значительной мере определяются господствующими в данном обществе идеологическими, политическими, морально-нравственными, правовыми и другими воззрениями. Процессы социализации, семейной социализации и воспитания являются «приобретением» каждого исторического периода общества. Общество, развиваясь, дает новое не только содержательное наполнение обозначенных процессов, но и толкование самих понятий.»

Семья — важнейший из феноменов, сопровождающий человека в течение всей его жизни. Семья является историческим образованием, важнейшим институтом, содействующим как становлению полноценной социально активной личности, так и исторической трансляции культурных, этнических, нравственных ценностей поколений.

Передача образцов поведения и моделей деятельности осуществлялась благодаря совместному труду разных поколений и их коллективному проживанию, в результате чего дети осваивали трудовые навыки и статусно-ролевые позиции [24, с. 92]. Семейная социализация является первичной и базовой, так как она должна обеспечить формирование социальной ответственности и умение подчинить общему индивидуальное. Социализация протекает на протяжении всей жизни, однако наиболее интенсивно социализация протекает в детстве и юности. В процессе первичной социализации нередуцируемое значение семьи.

Одним из важнейших условий нормального развития и благополучного вхождения в мир социальных отношений и культуры общества является эмоциональный комфорт ребенка в семье.

Сегодня, как никогда, человек нуждается в поддержке близких людей: в сопереживании, понимании, ласке, уважении и признании уникальности и само ценности его личности. Семейные ценности уникальны по своей природе, так как именно семья является той нишей, где человек может найти внимание, тепло, понимание и защиту. Для родственного общения важно, чтобы члены семьи были взаимно заинтересованы, доброжелательны, деликатны, понимали и поддерживали своих близких. Эти потребности очень сложно, а порой и невозможно удовлетворить вне семьи: нельзя уподобить семейным не только никакие межличностные связи, но и тем более формальные организации. Происходящие в период детства сензитивные возрастные периоды при условии их целенаправленной реализации закладывают фундамент интеллектуальных, физических, волевых и духовно-нравственных качеств личности ребенка, так как семейная социализация, воспитание и развитие охватывают все сферы жизнедеятельности ребенка.

В целях внедрения кардинально обновленной системы воспитания детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, применения на практике семейной и иных альтернативных форм устройства детей, создания благоприятных условий для их подготовки к самостоятельной жизни, в соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности семейных детских домов» с 1 сентября 2022 года по всей Республике созданы семейные детские дома.

Понятие «детский дом семейного типа» («детский дом семейного типа») в мировой архитектуре на сегодняшний день предполагает многофункциональный объект, предназначенный для размещения организации, продолжающейся фиксации, воспитания, опеки детей-сирот и социальной сирот в условиях приближения семей к иной атмосфере [1].

**Детский дом семейного типа (ДДСТ)** – это форма профессиональной семейной заботы о детях, оставшихся без попечения родителей, временно устроенных в семье.

Для детей, утративших родные семьи, помещение в ДДСТ – это **возможность**:

- **реализовать** свое право на воспитание в семье независимо от возраста, состояния здоровья, наличия негативного жизненного опыта, отклонений в развитии, поведении и правового статуса;
- **жить и воспитываться** в своем городе, районе (где живут его родители), продолжать посещать тот же детский сад, школу, и др.;
- **общаться** с биологическими родителями и близкими родственниками (бабушками, дедушками), если это не противоречит интересам детей;



- успешнее **социализироваться** в обществе;
- получить своевременную защиту своих прав и законных интересов.

Сегодня как никогда актуальна проблема социализации детей в общество и в семье связи с нарастанием кризисных явлений в современной семье, выражающихся в деформации в сфере воспитания детей, супружеских и детско-родительских отношений; падении брачности; росте разводов, количества неполных, материнских и альтернативных семей и т. п.

Как известно, семья — это «школа нравственности», «пробный камень», на котором проверяются характеры людей, их человеческие качества. Без высокой культуры чувств невозможно духовное обогащение личности. Семья по праву является не только первичной группой социализации, но и также источником человеческой духовности, а поэтому социальной и духовной культуры государства. Важными критериями эффективности семейного воспитания являются показатели самоидентификации детей со своими родителями, т. е. принятие или непринятие детьми духовно-нравственных, идеологических норм и жизненных ценностей своих родителей. Рассуждая о причинах нестабильности семьи, И. А. Ильин писал, что «семья распадается совсем не от ускорения исторического темпа, но вследствие переживаемого человеком духовного кризиса. Этот кризис подрывает семью и ее духовное единение, он лишает ее главного, того единственного, что может сплотить ее, спаять и превратить в некое прочное и достойное единство, а именно — чувства взаимной духовной со принадлежности...», и далее «...человеческая семья, в отличие от „семьи“ у животных, есть целый остров духовной жизни. И если она этому не соответствует, то она обречена на разложение и распад» [10, с. 112].

Адаптация в новой семье — процесс двусторонний, т. к. привыкать друг к другу приходится и ребенку, оказавшемуся в новой обстановке, и взрослым — к изменившимся условиям.

Адаптация у разных детей проходит по-разному. Здесь многое зависит и от возраста ребенка, и от черт его характера. Большую роль играет опыт прошлой жизни. Если ребенок до усыновления жил в семье, проблемы будут одни. Ребенок, который свою небольшую жизнь прожил в доме ребенка, а затем в доме Мехрибонлик, иначе будет реагировать на новые условия.

Первые реакции и самочувствие у каждого при этом будут разные. Кто-то будет пребывать в приподнятом, возбужденном состоянии и стремиться все посмотреть, потрогать, а если кто-то есть рядом, попросить показать, рассказать о том, что вокруг. Под влиянием новых впечатлений может возникнуть перевозбуждение, суетливость, желание порезвиться. А кто-то в новой обстановке испугается, будет прижиматься к взрослому, пытаться как бы заслониться (уберечься) от нахлынувшего потока впечатлений. Кто-то бегло скользнет взглядом по предметам и вещам, опасаясь дотронуться до них. Получив из рук взрослого какую-то одну вещь, прижмет ее к себе или спрячет в укромное место, боясь потерять.

В ходе социального развития человека изменяются формы социального взаимодействия его с обществом, возрастает мера соответствия требованиям, нормам последнего. Но это есть лишь количественные изменения. В ходе индивидуального развития личности нельзя зафиксировать момент качественного изменения или скачка, означающего смену его биологического существования и переход к социальному. Этот скачок совершается не в ходе онтогенеза, а в процессе филогенеза рода человеческого.

Социализация личности – противоречивый процесс. С одной стороны, он предполагает адаптацию человека к обществу, а с другой – обособление (отчуждение) человека от общества. В условиях всеохватывающих перемен, происходящих в настоящее время в нашем обществе, равновесие между адаптацией и обособлением (отчуждением), которое предполагает успешная социализация, нарушается.

Таким образом, ребенок появляется на свет, уже, будучи существом социальным. При этом под социальностью мы понимаем способность индивида вступать во взаимодействие с другими людьми, оказывать на них влияние, а также изменять себя и свое поведение в ответ

на их воздействия в направлении, соответствующем их ожиданиям, т. е. проявлять качество социальной адаптивности.

Как указывал немецкий философ П. Наторп, развивая идеи социальной педагогики, «человек... не вырастает в одиночестве, ... не вырастает и просто один рядом с другими, в приблизительно одинаковых условиях, но каждый под многосторонними влияниями друг друга, непрестанно реагируя на эти влияния». Появившись на свет, младенец нуждается в постоянной заботе взрослых. Это и вскармливание, и опека, и уход за ним. Без них невозможно не только психическое развитие, но и само выживание новорожденного, поскольку ребенку нужен другой человек, а не просто возможность удовлетворения своих физиологических потребностей.

Социально-психологическая адаптация представляет динамичный, непрерывный процесс, в котором задействованы, с одной стороны, физиологические, психические и психологические механизмы личности, с другой, условия и изменения социальной среды, в которой личность живет и функционирует.

Процесс адаптации направлен на достижение такого равновесия между личностью и средой, в результате которого личность может не только «приспособиться» и достичь «устойчивости», но и будет способна раскрыть свой потенциал, осуществить позитивные преобразования среды. Конечной целью процесса адаптации является физически и психически здоровая личность, гармонично развитая, удовлетворенная жизнью в целом и различными ее аспектами, способная быстро и эффективно реагировать на любые изменения среды, а также оказывать влияние на окружающую среду.

#### **Литература:**

1. Андреевкова Н. Роль семьи на разных этапах социализации индивида // Динамика изменения положения женщин и семьи. М., 1972.
2. Антонов А. И. Возродить семейную жизнь // Социологические исследования. 1992. № 10.
3. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. М.: Медиум, 1995. 323 с.
4. Восстановление социального статуса безнадзорных детей: Методич. пособие для сотрудников спец. учреждений для несовершеннолетних, нуждающихся в соц. реабилитации / Под ред. Г. М. Ивашенко. М.: ГосНИИ семьи и воспитания, 2002. С. 13.
5. Гидденс Э. Социология 90-х: учебник. Челябинск, 1999.
6. Григорьева И. А. Социальная политика как способ реализации власти // Управленческое консультирование. 1998. № 2: [Электронный ресурс]. Ш\_: <http://uk-archive.narod.ru/1998/p02/v98-2-10.Mt> (дата обращения: 22.03.2014).
7. Ослон В. Н. Жизнеустройство детей-сирот: профессиональная замещающая семья. М.: ^ Генезис, 2006. 368 с. m
8. Ильина А.Л. Архитектура детских домов семейного типа в социальной политике Евросоюза / А.Л. Ильина // Architecture and Modern Information Technologies. - 2017. -2(39). - С.126-136 [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [http://www.marhi.ru/AMIT/2017/2kvart17/10\\_ilina/index.php](http://www.marhi.ru/AMIT/2017/2kvart17/10_ilina/index.php)

## XAVF -XATAR RISKOLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHASI SIFATIDA

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha  
ta’lim kafedrasida dotsenti, PhD  
Jabborova Dilafruz Furqatovna  
dilafruzjabborova8989@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tavakkal nazariyasining qoidalari, xavf-xatar tushunchasi, pedagogik riskologiya, kadrli risklar, kontingent risklar, protsessual yoki o‘quv-uslubiy tavakkalchilik, imidj riski to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik riskologiya, tavakkalchilik, kadrli risklar, imidj riski, xavf-xatar

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о правилах теории риска, понятии риска, педагогической рискологии, кадровых рисках, условных рисках, процессуальном или образовательном риске и имиджевом риске.

**Ключевые слова:** Педагогическая рискология, риск, кадровые риски, имиджевый риск, риск.

**Abstract:** This article provides information on the rules of risk theory, the concept of risk, pedagogical riskology, personnel risks, contingent risks, procedural or educational risk, and image risk.

**Key words:** Pedagogical riskology, risk, personnel risks, image risk, risk

Tavakkal nazariyasining asosiy qoidalari. Xavflarni o‘rganish tartibi. 1990 yil sentyabrda Keln shahrida faoliyat xavfsizligi bo‘yicha Birinchi butun jahon kongressi ilmiy fan sifatida “Hayot xavfsizlikda” shiori ostida bo‘lib o‘tadi. Bu anjumanda dunyoning turli joylaridan kelgan olim va mutaxassislar o‘zlarining ma’ruza va xabaralarida doimo “tavakkal” tushunchasiga tayandilar. Xavfsizlik bo‘yicha bu tushuncha bizning texnik adabiyotlarimizda hali e’tirof qilinmagan va tarqalmagan edi. Tavakkal haqida V.Marshall quyidagi ta’rifni beradi, ya’ni u ta’kidlaydiki tavakkal-xavflarni amalga oshirish chastotasidir. Umumiy qilib aytganda *tavakkal*-xavflarni son jihatdan baholashdir. Sonli baholash- u yoki bu ko‘ngilsiz oqibatlar sonining ma’lum davr ichida bo‘lishi mumkin bo‘lgan soniga nisbatidir. Tavakkalni aniqlash mobaynida oqibatning sinfini ko‘rsatish muhimdir, ya’ni nimaning tavakkali? degan savolga javob berish kerak. Rasmiy ravishda tavakkal – bu tez-tez takrorlanishdir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tavakkal” tushunchasi: uzoq mulohaza qilib o‘tirmay, nima bo‘lsa bo‘lar, “yo ostidan yo ustidan” zaylida qilingan harakat ma’nosida talqin qilinadi. Tavakkalchilik tushunchasi esa tavakkaliga, tavakkal tushunchasi va tavakkaliga, tavakkal bilan ish qiluvchi ma’nosini beradi.

Amerikacha ta’rifga ko‘ra, tavakkalchilik – bu biron ish bilan shug‘ullanish oqibatida zarar ko‘rib qolishdan qutilib qolish imkoniyati. Albatta, ba’zi xavflarni sug‘urta kompaniyalari bilan shartnoma tuzish orqali oldini olish mumkin. Biroq, xavfning asosiy og‘irligi, ya’ni:

- Ta’limda boshqaruvning xatosi;
- ta’lim mazmunining o‘zgarishi;
- ta’limda talabning susayishi;
- noto‘g‘ri tanlangan loyiha;
- ta’lim oluvchilarning noroziliklari va boshqalar ta’lim beruvchining yelkasiga

tushadi.

Ammo, umuman, xorij tajribasi ishbilarmonlik tavakkalchiliksiz mumkin emasligidan guvohlik beradi. Kimki, hech bir tavakkal qilmasa, oxir oqibatda xonavayron bo‘ladi.

Bugungi kunda adabiyotlarda tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lgan ehtimollikni turlicha tushunchalarda, ya’ni:

- Xavf
- Xatar

Xavf – xatar iboralarida ifoda etilyapti. Shunchalik turli yondashuvlar maqsadga muvofiqmikin? Ularning qaysi birini qo‘llasa ma‘qul bo‘lardi?

Tavakkalchilik foydadan mahrum bo‘lish va boshqa sabablarga ko‘ra zarar ko‘rish singari yomon oqibatlar ro‘y berish ehtimoli bilan ifodalanadi. Shu ma‘noda:

Tavakkalchilik – bu oqibatning yaxshi bo‘lishiga umid bog‘lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat.

Tavakkalchilik – bu resurs yoki daromaddan to‘la yoki qisman yo‘qotish xavfi.

Tavakkalchilik – noaniqlik sharoitida har qanday dovyurak boshqaruvchi pedagog uchun tabiiy holat, vaziyat. Tavakkal botirning ishi.

Tavakkalchilik – bu omadsiz oqibatning miqdoriy baholanishi.

Yana o‘zbek tilining izohli lo‘g‘atiga murojaat qilamiz. Unda iboralar quyidagicha talqin qilingan:

**Pedagogik riskologiya** – bu yangi integrativ fan, kasbiy muayyan kasbiy fanlarga oid bilimlar, pedagogika, psixologiya va falsafa, sotsiologiya va madaniyat kabi umumta‘lim fanlaridan yangi kontent darajasiga ko‘tarilgan. Pedagogik riskologiya haqidagi bilimlar ta‘limni boshqarish sohasining muhim qismi sanaladi. Fanning yo‘nalishlari: pedagoglik kasbi va ta‘lim jarayoni qarama-qarshiliklar va xatarlar haqida muhim tasavvurlarni shakllantirish; murakkab va ziddiyatli voqelikni pedagogik voqelik sifatida tushunish; murakkab va ziddiyatli pedagogik jarayonda o‘qituvchining muhim rolini tushunish.

Pedagogikada xavf o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, *pedagogik risk o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatlarini bajarishda o‘quvchilar oldida masuliyatidir.*

Ikkinchi, risk – *qaror qabul qilish sharoitida noaniqlikni bartaraf etishga qaratilgan.*

Uchinchidan, *o‘quv jarayonida ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish.*

To‘rtinchidan, *pedagogik tavakkalchilik jarayonning barcha ishtirokchilar haraktlarining uyg‘unligini aks ettiradi.*

Pedagogik riskologiya ko‘pgina pedagog olimlar tomonidan tasniflangan. Masalan, amaliy maqsadlar uchun qulay bo‘lgan tasniflash V.I.Zubkov tomonidan ishlab chiqilgan.

Xatarlarning to‘rt asosiy xususiyatga ko‘ra ajratildi:

- obyekt-obyekt xususiyatlariga (masalan, individual, jamoaviy xavf);
- vujudga kelish shartlari (ixtiyoriy, ixtiyorsiz);
- mazmunga ko‘ra (harakat, harakatsiz);
- mumkin bo‘lgan oqibatlarga ko‘ra.

Ushbu tasnif standartlashtirilgan xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, bu orqali inson faoliyati sohasining har qanday xavfini ta‘riflash mumkin.

M.A.Belyayeva pedagogik tavakkalchiliklar tasnifini taklif qiladi. Ular quyidagi xatarlarga bo‘linadi: kadrli risklar, kontingent riski, protsessual risk (o‘quv-uslubiy), imidj risklari.

**Kadrli risklar** – ta‘lim muassasasining inson resurslarini ifodalaydi. Xodimlar tavakkalchiligi o‘qituvchilar malakasini normativ talablarga muvofiqligini aniqlaydi.

**Kontingent risklar** – talabalar soni va sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq xatarlar. Misol uchun, maktabdagi xavf yoshlardagi nochor va deviant harakatlar xafi bo‘ladi.

**Protsessual yoki o‘quv-uslubiy tavakkalchilik** bu ta‘lim-tarbiya jarayonini birgalikda olib boradigan xavflardir. Ushbu guruh joriy o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlarni, shuningdek, yangi standartlar va texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolari – ta‘lim sifatining pasayishi. Respublikamiz ta‘lim tizimida jamiyatning jadal rivojlanishi munosabati bilan, innovatsiyalar va pseudo-innovatsiyalarning toshqini pasaymoqda. Innovatsiyalarning bosh maqsadi ta‘lim sifatini yaxshilashdir, lekin aslida u qarama-qarshi, mavhum yoki kutilmagan ta‘sirga ega bo‘lishi mumkin.

**Imidj riski** – bu ta‘lim muassasasi haqida jamoachilik fikri bilan bog‘liq xavf. Ushbu xatarlarning tasniflovchi bir necha jihatlari mavjud. Birinchidan jamoachilik fikri – pullik xizmatlar asosida ta‘lim xizmatlarini amalga oshiruvchi institutning iqtisodiy samaradorligi uchun sharoitlardan biri. Ikkinchidan, o‘quvchilarni tayyorlashga sarflangan mablag‘ qandaydir natija

bergan. Misol uchun, universitet uchun – bitiruvchilarning kasbi bo'yicha ishga joylashish ko'rsatkichi. Ushbu ko'rsatkichni bitiruvchilarning bandligini monitoring o'tkazish natijalari asosida bilamiz. Uchinchidan, ta'limning asosiy maqsadi – madaniyatning namoishi, avlodlarning madaniy uzluksizligini ta'minlash.

Shunday qilib, pedagogik xavf – murabbiylar qabul qilgan qarorlar ijobiy natijalariga ta'sir ko'rsatadigan juda ko'p shartlar va dalillarga bog'liq bo'lgan juda murakkab hodisa. Ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatli faolitni amalga oshirish uchun o'qituvchi ehtimoliy xavflarni taxmin qilishi, ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishi va maqsaddan kelib chiqqan holda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga qodir bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

**Арсеньев Ю. Основы теории рискологии: [программа курса для ВУЗов] // ОБЖ. 2002. №2. <http://periodika.websib.ru/node/9186>**

**Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну.- М.: Прогресс-Традиция, 2000.**

Буянов В. П., Кирсанов К. А., Михайлов Л. М. Рискология (управление рисками): учеб. пособие. М.: Изд-во «Экзамен», 2007. 384 с.

Иванов В.Г., Лезгина М.Л. Педагогическая идея как смыслоопределяющее ядро педагогического поиска //Философия образования и творчество. СПб.,2002.

Михайлова Е.Н. Рискологические факторы и качество исследовательской деятельности... // Вестник ТГПУ. 2009. Выпуск 10 (88).

Фомин А.П. Личность учителя как носителя педагогической идеи. А/р диссертации на соискание уч. ст. кандидата философских наук. СПб.,2001.

Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford, 1991.

### **МАКТАБ О'QUVCHILARINING BILISH JARAYONINI FAOLLASHTIRISHGA NEYROPEDAGOGIK YONDASHUV**

**О'zbekiston, О'zRFA Navoiy bo'limi ilmiy kotibi,  
p.f.n., dotsent D.R.Gulyamov  
О'zRFA Navoiy bo'limi, tayanch doktoranti  
M.Sh.Abdusalomova**

**Аннотация:** Мақоллада мактаб о'қувчиларининг билеш жарайонини нейропедагогик йондашув асосида фаоллаштириш масаласи йоритилган.

**Калит со'злар:** Педагогик технoлогия, билеш жарайони, билеш фаоллиги, о'қувчининг индивидуаллиги.

**Annotation:** The article highlights the issue of activating the cognitive process of schoolchildren through a neuropsychological approach.

**Key words:** Pedagogical technology, cognitive process, cognitive activity, student's individuality.

**Аннотация:** В статье освещен вопрос активизации познавательного процесса школьников путем нейропедагогического подхода.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, познавательный процесс, познавательная активность, индивидуальность школьника.

О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni asosida mamalakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga

kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish vazifasi belgilangan. [1]

Dars jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligi asosida, ta'lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari yordamida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bunda darsdagi o'quv jarayoni bilish jarayoni, o'quv faoliyati esa bilish faoliyati hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati o'zaro uyg'unlikda muvofiqlashsa o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv materialini bilan tanishish;
- o'quv materialini o'rganish;
- bilimlarni avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan taqqoslash;
- o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;
- o'zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo'llash.

O'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi. O'qituvchi o'quvchi faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi. Bunda asosan, o'quv predmetini o'zlashtirish imkoniyati ta'minlanadi.

Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi – o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatish kabi uzviy bog'langan jarayonlarni o'z ichiga oladi. O'rganish o'quvchiga o'z hatti-harakatiga ishonch tug'diradi. Bunda o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishishda hamkorlikda o'qitish asosiy o'rinni egallaydi.[2]

Zamonaviy maktabda ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchi shaxsiga, balki uning individualligiga ham yo'naltirilishi muhim sanaladi. Bunda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlari o'quvchi shaxsini shakllantirish, ijtimoiylashtirish, unda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini imkon qadar erta aniqlash va rivojlantirishga qaratilishi talab qilinmoqda. Ta'lim jarayoni o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, balki uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Zamonaviy ta'lim – o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishiga, mustaqil bilim olishga, o'zlarining ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun sharoit yaratishi hamda safarbar qilishi kerak. Muvaffaqiyat har bir o'quvchi erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi. Mutaxassislar o'quv vaziyatida o'quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o'rin egallashini ta'kidlaganlar.

O'quv vaziyatini vujudga keltirish o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini didaktlar har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o'quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom mayllar va qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar. O'quvchida hosil bo'lgan bilish, ijod qilish, muloqotga kirishish quvonchi uning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi asosiy omildir. Bu esa o'qituvchi faoliyatining mazmun-mohiyatini oshirish imkonini beradi va o'qituvchi hamkorlikdagi faoliyat orqali har bir o'quvchi uchun muvaffaqiyat qozonishga yo'naltirilgan o'quv vaziyati hosil bo'ladi.[2]

Dars jarayonida har bir o'quvchiga individual yondashilsa bilish jarayoni faollashadi. Biroq o'quvchilarning barchasiga bir xil dars berilsa ham ular yangi ma'lumotlarni turlicha o'zlashtiradilar.[3]

Buning asosiy sababi – bosh miya yarimsharlarining qaysi biri inson hayoti faoliyatida yetakchi ekanligidir. Chunki, inson bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi xam murakkab kognitiv jarayonlarda ishtirok etsa-da, ularning faoliyat strategiyasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Chap yarimshari yetakchi bo'lgan odamlar ma'lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishi hamda tahlilning xususiy bo'laklardan umumiyga yo'nalganligi bilan ajralib tursalar, o'ng

yarimshari yetakchi bo'lganlar olamni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashi hamda tafakkurining umumiydan xususiy bo'laklarni tahlil qilishga moyilligi bilan farq qiladilar.

Bu holat ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish intuitiv-hissiy (kommunikativ) hamda mantiqiy-ratsional (nokommunikativ) yo'llar bilan sodir etilishida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida bosh miya chap yarimshariga tayanish faqat chap yarimsharning faol rivojlanishini, o'ng yarimshariga tayanish esa yarimsharlarning har ikkalasi faol rivojlanishini ta'minlab, o'quvchilarning bilish faolligini keskin oshish imkonini beradi.[4; 5]

Shuning uchun ham o'qituvchi ta'lim muhitini tashkil etishda berayotgan ma'lumotlar o'quvchi shaxsi tomonidan tushunib qabul qilinishiga sharoit yaratishi, qiziqishlarini inobatga olishi va ta'lim texnologiyalaridan to'g'ri va o'rinli foydalanishi – muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi.

Bir vaqtning o'zida turli bilim saviyasiga ega bo'lgan o'quvchilarga tayyor testlar berilishi, yangi mavzuni tushuntirishda dars sifatini fotosuratlar, kliplar, kino va videolavhalar orqali oshirish mumkin.

To'g'ri, o'quvchilarning bilish faoliyati va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan o'qitish texnologiyalari ongli faoliyatning yuqori darajada bo'lishi va ongli ehtiyojning ortib borishiga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan birga ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etilishida quyidagi holatlarga tayanish – o'quvchilarning bilish jarayonini yanada faollashtiradi, deb hisoblaymiz:

- har bir bolada ta'lim olish, atrof-muhitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni turlicha kechadi;

- har bir bola tafakkurining o'ziga xosligi – bosh miyasi yarimsharlarining ma'lumotlarni qabul qilish xajmi va ishlash tezligi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qilishida namoyon bo'ladi;

- ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda har bir individ bosh miya yarimsharlari faoliyatining o'ziga xosliklarini hisobga olish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-5712-sonli qarori/<https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. Boymurodova G.T., Tosheva N.T. Boshlang'ich ta'limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. // “Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar” J., №1, 2020. -B. 86-90.
3. Gulyamov D.R. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini. // “Pedagogika” J., №5, 2015. –B. 29-35.
4. Gulyamov D.R., Nurboyev K.M., Numonova D.U. On the Issue of the Organization of Integrated Student Learning // Journal of Advanced Zoology, 2023,44 (S-3), Retrieved from <http://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/795>
5. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе // Межд. научно-исслед.Ж. “Евроазиатский Союз Учёных”, № 11 (56), 2018. 5-часть. -С. 38-43.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Shamiyeva Manzura Fayzullayevna**

O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

**Nurboyevna Dilnoza G'aniyevna**

NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini kompleks ya'ni adabiy, badiiy, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yinlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** verbal-emotsional, improvizatsiya, adabiyot, musiqa, teatr, ijodiy qobiliyat

**Аннотация:** В этой статье говорится о важности игр для детей дошкольного возраста в развитии их творческих способностей, то есть их литературных, художественных, творческих и музыкальных способностей.

**Ключевые слова:** вербальные-эмоциональные, импровизационные, литературные, музыкальные, театральные, творческие способности

**Annotation:** This article talks about the importance of games for preschool children in developing their creative abilities Kompleks IE their literary, artistic, creative and musical abilities.

**Key words:** verbal-emotional, improvisation, literature, music, theater, creative ability

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish boʻyicha mashgʻulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega boʻlgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va doʻstona munosabatda boʻlishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Oʻyin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning effekti quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- muammoni qoʻyish yoki muammoli vaziyatni yaratish;
- kreativ maydonni yaratish;
- bir oʻyindan ikkinchi oʻyinga oʻtishi, bunda oddiydan koʻra ijodiy murakkabroqqa oʻtish;
- mashqlar, etudlar, shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus,

moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi, bolalar sahna ijodiyoti ragʻbatlantiriladi.

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish;
- ijro jarayonida muammolarni hal qilish;
- bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish;
- oʻyin jarayonida mashqlarni puxta oʻrgatish;
- etudlarni bajarish.

Shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda empatiya, tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi rivojlanadi. Teatrlashtirilgan faoliyat bolalar ijodiyotining faoliyati boʻlib, ushbu faoliyat tarbiyachi tomonidan ragʻbatlantiriladi.

Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bogʻliq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Aynan:

-tarbiyalanuvchilar aktyorlik ifoda vositasi va teatr haqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishga yordam berish;

-tarbiyalanuvchilar mustaqil musiqiy-teatr faoliyati talablarini rivojlantiradi;

-tarbiyalanuvchilarda teatr sanʼatiga boʻlgan qiziqishlari uygʻonadi;

-atrofdagi xodisalarga boʻlgan shaxsiy – yaxlit estetik munosabatlarini shakllantiradi;

-maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojlanadi;

-diqqatni, xotirani, xayolotni, fikrlashni, nutqni, hissiy va ixtiyoriy sohani, intellektual, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida sanab oʻtilgan vazifalardan tashqari adabiyot, musiqa, teatrga boʻlgan qiziqishlarini sahnalashtirish faoliyati orqali uygʻotadi, maʼlum hissiyotlarni oʻyin mahorati orqali mujassamlashtiradi, yangi obrazlarni yaratishga va fikrlashga undaydi. Teatr bolaning hissiy dunyosiga katta taʼsir koʻrsata oladi. Bugungi kunda bolalarda diqqat va nutq, ixtiyoriy xatti-xarakatlari, xotirasining yetarlicha rivojlanmagani koplak ota-onalar, psixologlar va tarbiyachilarni oʻylantirmoqda. Bola tilidan bayon etish, fantaziyalash, oʻynash orqali bolaning qisqilgini yechish, erkin emotsional boʻlishining eng qisqa yoʻlidir. Bu barcha ishlarni sahnalashtirish yordamida bajarish mumkin.

Shunday qilib, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolaning teatrlarga borishi, bolalar spektakl va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi, teatrlashtirilgan toʻgaraklarga va mashgʻulotlarga borishini tavsiya qilinadi. Maktabgacha taʼlim



tashkilotlarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko‘plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda. Ular bunday holatlarni o‘zlashtirish uchun aniq mazmunga ega, o‘quv materialini o‘z ichiga oladi:

- Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yo‘nalishni olish.

- Maxsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirish va mustaxkamlash, aynan musiqiy-teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi.

- Teatr san‘atining paydo bo‘lishi va tashkil topishi, shuningdek musiqiy teatrlar haqida dastlabki bilimlari shakllanishi.

Mashg‘ulotlarning mazmuni va qoidasi; individual va jamoaviy harakatlariga o‘rgatishda bolalarni atrofda haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish; bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og‘zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o‘zlashtirishi; so‘z omonligi va sahna nutqi ko‘nikmalarini egallashi, aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatiga qamrab oladi. Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta‘lim muassasalarining guruhlarida xar-xil burchaklar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi (musiqiy, teatrlashtirilgan burchaklar va x.k.) Taniqli musiqachilar, rassomlar, san‘atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etish orqali, tabiyki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini namoyon eta boshlaydi. Maktabgacha ta‘lim muassasasining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita ko‘plab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli xildagi sahnaviy mashg‘ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli ham berilyapti.

Teatr faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi, usbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so‘zlashi yoki o‘qib berishi kerak, balki qarashni, ko‘rishni, tinglashni va eshitishni ham bilishi lozim, ammo har qanday “obrazga kirishish”ga ham tayyor bo‘lishga majbur, ya‘ni aktyorlik mahoratini egallagan bo‘lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo‘lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o‘zlashtirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, maxkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga gapirish, ichki faoliyatni ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining aktyorlik va erkinlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani “sahnaga” va ijro jarayonida xato qilishdan, qo‘rqib chiqishdan, qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi “artist” va “tomoshabinlar”ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595 - sonli qonuni
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 637–sonli qonuni. 23.09.2020 y
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori - “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti”
- 5.Интерактивные методы ДОУ. <http://ds> – 11. Kaluga. Prosadiki.ru
- 6.Современные интерактивные педагогические технологии в работе с детьми дошкольного возраста. [www.maam.ru](http://www.maam.ru)

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA IQTIDORLI BOLALARNI PSIXOLOGIK PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi K.F.Qodirova  
NavDPI 2 kurs (kechki) talabasi R. B. Fayziqulova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar, ular orqali amalga oshirilayotgan ishlar, psixologik xizmat ko'rsatishning turlari hamda maqsad, vazifalari yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'limning birinchi bosqichi hisoblanmish, maktabgacha ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib kelmoqda

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, psixologik xizmat, psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik-pedagogik konsilium, diagnostik-korreksion ishlar..

**Annotation.** This article describes the reforms in the preschool education system, the work carried out through them, the types of psychological services and their goals and tasks. The development of preschool education, which is considered the first stage of education in the Republic of Uzbekistan, is one of the priority tasks of the state policy.

**Key words:** preschool education, psychological service, psychological campaign, psychological prevention, psychological counseling, psychological-pedagogical council, diagnostic-corrective work.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Faqatgina ularning inshootlarigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo'lmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

- Maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

Psixologik xizmatning maqsadi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

*Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:*

- ✓ Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda kasb-hunar haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

✓ tarbiyalanuvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga ko'maklashish;

✓ turli yosh davrlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish; tarbiyalanuvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

✓ pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

✓ iste'dodli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

✓ axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, bolalar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

✓ pedagog xodimlar, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to'laqonli bo'lishini ta'minlaydigan faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bola ruhining individual, rasmiy-dinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o'rin tutadi, bolalarning aqliy holati, jarayonlari, xatti-harakatlari va faoliyatining dinamikasini aniqlaydigan turli xil temperamentdagi bolalar bilan muayyan strategiya va taktikalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bir davrda har bir kichik yoshdagi bolaga, bog'cha tarbiyalanuvchisiga, maktab o'quvchisiga e'tibor qaratish muhim vazifadir. Ularning arzimadek ko'ringan kichik xatti-harakatlari, qaysarlik yoki erkaliklari yo bo'lmasa o'zlariga xos bo'lgan araz-ginalariga ota-onalari, tarbiyachi yoki o'qituvchilari, ta'lim muassasasiga birlashtirilgan psixologlar tomonidan o'z vaqtida yetarlicha e'tibor qaratilmasa, bular bola ruhiyatining sinishiga, ularning psixikasida o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi. O'z ishining mohiri bo'lgan psixolog uchun maktabgacha ta'lim muassasasida yetarlicha shart-sharoit yaratib berilsa, uning bolalar bilan ko'proq muloqotda bo'lishi uchun vaqt ajratilsa, yoki psixolog tomonidan bolajonlar bevosita kuzatib borilsa, vaziyatga mos choralar amalga oshirilsa, albatta, o'z ijobiy natijasini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
- 2.Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qaroriga 1-ILOVA
- 3.O.A.Shukurullayev Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni ta'minlash va psixologik xizmat sohasini takomillashtirish yo'llari.
- 4.Maxamadin Sotvoldiyevich Bannayev O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari.

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI APPLIKATSIYAGA O'RGATISH METODIKASI

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti  
Islomova Shahlo Madat qizi  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
Adashboyeva Mahfuza Malikjon qizi  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan faoliyat markazlari, san'at markazining bola rivojlanishidagi ahamiyati, katta guruh bolalarini applikatsiyaga o'rgatish metodikasi haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** İlk qadam, faoliyat markazi, san'at markazi, applikatsiya, sensor motorika, tasavvur, diqqat, rangli qog'oz, qaychi.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение центров деятельности в дошкольном образовании, значение центров творчества в развитии ребенка, а также методика обучения большой группы детей их применению.

**Ключевые слова:** Первый шаг, центр активности, арт-центр, аппликация, сенсомоторика, воображение, внимание, цветная бумага, ножницы.

**Abstract:** This article describes the importance of activity centers in preschool education, the importance of art centers in child development, and the methodology of teaching a large group of children to application.

**Key words:** First step, activity center, art center, application, sensory motor, imagination, attention, colored paper, scissors.

Davlatimizda maktabgacha ta'lim tizmining rivojlanishi, unda 2022-yilda takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat dasturi foydalanishga topshirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" dasturi asosida bolalar 5 ta faoliyat markaziga bo'lib faoliyatga o'rgatiladi. Bular: fan va tabiat markazi, til va nutq markazi, san'at markazi, matematika va qurilish yasash konstruksiyalash markazi, syujetli-rolli o'yinlar markazi. San'at markaziga bolalar alohida qiziqish va ishtiyoq bildiradilar. Ushbu markaz bolalarni ranglarni farqlash qobiliyati, sensor motorikasi, bolaning diqqati, tasviriy, musiqiy mahoratlarini rivojlantiradi. Tasviriy faoliyat bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, kabi xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Katta yoshdagi bog'cha bolalarining tasviriy faoliyati rasm solish, turli materiallardan mahsulotlar yasash, applikatsiya va konstruksiyalashlardan iborat bo'ladi. Bularning har biri bolalarda atrofimizdagi olam haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishiga turlicha xizmat qiladi.

Applikatsiya bilan shug'ullanish jarayonida bolalar har xil buyumlarning sodda shakllari bilan tanishadilar. Ularning alohida qismlarini yoki siluetlarini qirqib olib yelimlashni o'rganadilar. Siluet tasvirlar yaratish muallifdan xayolan va tasavvurda katta hajmdagi ish bajarishni talab qiladi, chunki ko'pincha siluetda buyumning asosiy xususiyatlarini ko'rsatadigan detallar bo'lmaydi.

Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tassavurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mexnati, shaklni his qilish, chamalash va rangni sezish qobiliyatini o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni applikatsiya ishiga o'rgatish turli yosh guruhlarida turlicha amalga oshiriladi. Xususan Katta guruh bolalari kichik va o'rta guruhga nisbatan malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning ma'lum bir qismini ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydigan jamoa ishi sifatida tashkil etiladi. Bolalar birgalikda oldinda turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tartibini

rejalashtiradilar, bir-birlariga yordam ko'rsatadilar. Applikatsiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarning o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatleri to'g'risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy uquvi va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan applikatsiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Applikatsiya mashg'ulotlari jarayonida predmet to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar berib boriladi.

Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. Shuningdek, bolalarga oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishni farq qilishni o'rgatadi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradilar. Masalan, och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikatsiya jarayonida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadilar, baland-past, keng-tor, ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. Shuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtasida kabi ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladilar. Bu ish bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib borish bilan davom ettiriladi. Bular quyidagilar: qog'ozni ikki buklab, bir xil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan, gullar, barglar va hokazo. Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikasiyaning sifatiga ta'sir etadi.

Qog'ozni garmoshka usulida buklab, qirqishga turli xil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan, bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari. Shuningdek, dekorativ applikatsiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek, tayyorsiluetlarni, zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan, guidon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo. Katta guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: bolalarni to'g'ri harakat bo'ylab qirqish, dumaloq shakllarni va ikkiga buklangan qog'ozni qirqishga o'igatiladi. Bir nechta qismdan tuzilgan predmetlarni hosil qilishga, geometrik va simmetrik shakllardan chiroyli dekorativ naqsh tuzishga o'rganadilar. Demak, bu guruhda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat ekan.

Katta guruhda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadilar. Katta guruh bolalarining ishlaydigan ish mazmuni shu bolalarda qirqishning ko'nikma va malakasini rivojlantirishdir. Dekorativ applikatsiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan barg gullar va boshqalarning elementlari kiritiladi.

Katta yoshdagi bog'cha bolalari somondan applikatsiya yasashni oson o'rganib oladilar. Ish uchun to'g'ri burchakli shakldagi predmetlar: uy – kvadrat, tom – uchburchak, archa – uchburchaklar to'plamidan tashkil topgan, qo'ziqorin – ildizi tepaga qarab qisqarib boradigan tasma, qo'ziqorin sallasi – yarim aylana. Somondan applikatsiya tayyorlashda 3-4 nafar bolalardan iborat kichik guruhlarda mashg'ulot tashkil etish maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda gullar, o'simliklar, barglardan applikatsiya tayyorlash – floristika keng ommalashib bormoqda. Katta yoshdagi bog'cha bolalari tabiiy materiallardan applikasiyalarni qiynalmasdan bajara oladilar. Bu mashg'ulot ular uchun qiziqarli va foydali bo'lib, tabiatni yaqindan o'rganishlariga ham yordam beradi. Bu jarayon bolalarning ijodkorligi, fikrlashi, kuzatuvchanligi, mehnatsevarligi, badiiy didini rivojlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikatsiya mashg'ulotlari. T., 2014.
2. Ilk qadam o'quv dasturi
3. Митителло К. Аппликация. Техника и искусство. М.: Эксмо, 2005

4. Xaydarova.M.D “Applikatsiya ishlarini bajarish metodikasi” .Metodik qo‘llanma.
5. Ro‘ziyev E.I. Applikatsiya turlari va ulardan mehnat ta’limi hamda to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish metodikasi. “Pedagogik tadqiqotlar”, 2017

## MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Rizaqulova Sabina Boburovna*

*NavDPI Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim fakulteti*

*Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ergasheva Lobar Dilmurod qizi*

*NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasasida tashkil etiladigan sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta’lim muassasasida sahnalashtirish faoliyati bolalar tafakkurini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sanaladi

**Kalit so‘zlar:** bolalar, teatr, aktyor, qahramon, sahna madaniyati, qo‘g‘irchoq.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены вопросы организации постановочной деятельности, организуемой в дошкольном образовательном учреждении. Занятия в дошкольном образовательном учреждении – один из важных факторов, развивающих мышление детей.

**Ключевые слова:** дети, театр, актер, герой, сценическая культура, кукла.

**Abstract:** This article discusses the issues of organizing staged activities organized in a preschool educational institution. Classes in a preschool educational institution are one of the important factors developing children’s thinking.

**Keywords:** children, theater, actor, hero, stage culture, doll

Dunyo hamjamiyatining taraqqiyoti, taqdiri va kelajagi albatta bolalar tarbiyasi, ularning ma’naviy ongi, bilim va ko‘nikmalari bilan bog‘liqdir. Yoshlarni ezgu g‘oyalar asosida tarbiyalashda, ularning madaniyati, ma’naviyati va dunyoqarashini kengaytirish hamda beg‘ubor qalblarini munavvar tuyg‘ulari bilan oshno qilish kelajakda yetuk, barkamol, vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, farzandlik burchini yurakdan ado etish, el manfaati yo‘lida fidoyilik va insoniylik fazilatlarini ruhida kamol toptirish, xullas bir so‘z bilan aytganda vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun san’atning ta’sirchan vositalaridan biri bu, teatrdir.

Hozirgi kunda ma’lumki, teatrning bir necha turlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bulardan: komediya teatri, drama, xalq teatri, musiqali drama va komediya, opera, balet va qo‘g‘irchoq teatrlari shular jumlasidandir. Teatr bu yunoncha (tiyation) so‘zidan olingan bo‘lib- tomoshaxona degan ma’noni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli tomoshasi bu - qo‘g‘irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o‘zlariga yaqin va tanish bo‘lgan o‘yinchoqlarni, ayiqcha quyuncha, kuchukcha va boshqa qahramonlarni jonliligi, harakat qilish va gapirish bolalarni o‘ziga rom etish. Bu teatr bolalarga katta hursandchilik va quvonch bahsh etish.

Soya teatri- qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo‘g‘irchoqlar emas, balki shakllardan iborat o‘yinchoqlar o‘ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro‘parasida o‘tirib, ekranda yorug‘lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko‘rishi mumkin. Bolalar bog‘chasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta’lim natijasida ularda bog‘cha yoshidan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko‘rsatadi. Ijodkorlik maktabgacha yoshidagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishlarini isbotladi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko‘rinishlar bilan bog‘liq emas, balki bola ishlayotgan, ko‘rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi. Masalan: qalam va bo‘yoqlar qog‘ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi.

Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Odatda bolaning ijodiy tasavvuri tasvirlangan qahramonlarning kiyimlari yangi detallar o‘ylab topishda yoki savatcha tayoqcha, belkurak singari predmetlarni qo‘shishda ko‘rinadi. Tarbiyachi bog‘cha bolasiga mustaqil fikrlashni o‘rgatishga ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolaga rahbarlik qilib rejali ijodiy ishga yo‘naltirishi kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalarda tasavvurni shakllantirish jarayoni to‘g‘risida gaplashar ekanmiz uning bola ongida obrazlar paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadigan emotsional tomonini aytmaslik mumkin emas. Bolalar o‘zlari ko‘rgan va eshitgan barcha narsalardan ta’sirlanadilar. Ular o‘zlari idrok etgan narsalarga muayyan ijodiy yoki salbiy munosabatda bo‘ladilar. Bu albatta tasvirlash faoliyatiga ta’sir etadi. [1]

Sahnalashtirish faoliyati nutq ifodaliligini shakllantirish, intellektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog‘liq ko‘plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hissiyotlarini rivojlantirishning tuganmas manbasi hisoblanib uni ma’naviy boylikka oshno qiladi. Xalqimizning boy madaniy ma’naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifodalashga o‘rganadi. Har bir insonning hayoti o‘yinlar bilan o‘tadi u bolada kattalarning hayotiy qonun qoidalarini anglashni o‘rgatadi. Har bir bola o‘zi bilganicha o‘ynaydi, lekin bu o‘yinlar asosan kattalar sevimli qahramonlaridan o‘rganib ularga taqlid qilgan. Sahnalashtirish uchun material tanlaganda bolalarning yosh xususiyatlari bilim ko‘nikmalaridan kelib chiqish zarur shu bilan birga ularning hayotiy tajribasini boyitish yangi bilimlarga qiziqish uyg‘otish va ijodiy imkoniyatlar berish kerak. Rollarni faqat qobiliyatli bolalar o‘rtasida taqsimlamay barcha bolalarga o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘rishlariga imkon berish lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalari sahna namoyishlari uchun burchaklar tashkil etish lozim.

Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, mahkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga gapirish, ichki faoliyatni ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining aktyorlik va erkinlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani “sahnaga” va ijro jarayonida xato qilishdan, qo‘rqib chiqishdan, qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi “artist” va “tomoshabinlar”ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin.

Sahnalashtirish faoliyatida o‘yin faoliyati mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan muvoffaqiyatli vaziyatni tashkil etishi, tarbiyalanuvchining sahna xarakterlariga faol jalb qilishga, bolaning badiiy imkoniyatini ochib berishiga va erkin bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolada ijodiy potensiali rivojlanadi va aktuallashadi, mashg‘ulorda davomida qiziqishlari o‘yg‘onadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdullayeva, Sh.M. O‘tamurodova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” O‘quv qo‘llanma T.:2022
2. J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov “Pedagogik diagnostika” o‘quv metodik qo‘llanma T.:2014 B.S.
3. N.Mirsaidova, R.O‘taganov “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”(qo‘lqopli qo‘g‘irchoq) nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma T.:2015

## INKLYUZIV MADANIYAT - ALOHIDA TA'LIM OLISH EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLA INTEGRASIYALASHUVINING MUHIM SHARTI SIFATIDA

*O'zbekiston, MTTDMQTMOI  
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti v.b., PhD  
Arslanova Madinaxon Mansurovna*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oilada inklyuziv madaniyatni shakllantirish orqali inklyuziv jamiyatga o'tishning ayrim masalalari borasida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar, integrasiya, inklyuziv jamiyat, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются некоторые вопросы перехода к инклюзивному обществу через формирование инклюзивной культуры в семье.

**Ключевые слова:** Дети с особыми образовательными потребностями, интеграция, инклюзивное общество, социальная адаптация, инклюзивная культура.

**Abstract:** This article discusses some issues of transition to an inclusive society through the formation of an inclusive culture in the family.

**Key words:** Children with special educational needs, integration, inclusive society, social adaptation, inclusive culture.

So'nggi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning hayotiga ham chuqur kirib bormoqda. Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning huquq-manfaatlarini himoyalash va ro'yobga chiqarish borasida xalqaro tajriba va umume'tirof etilgan tamoyillar va me'yorlarning izchil joriy etilishi va o'ziga xos milliy tajriba yaratilayotganligi ham shular jumlasidandir.

"Bu borada "inson qadri uchun" tamoyili asosida Yangi O'zbekistonda inklyuziv jamiyatni rivojlanish, ya'ni aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilayotgani muhim rol o'ynamoqda".

Ma'lumki, "inklyuziv jamiyat" keng qamrovli tushuncha bo'lib, turli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan insonlarning ma'lum jamiyatga to'siqsiz integrasiyalashuvini anglatadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar borasida inklyuziv jamiyat nogironlikni tibbiy jihatdan tan olgan holda, uning oldini olish, malakali tibbiy- ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bilan birgalikda, ijtimoiy jihatdan ulardagi ma'lum nuqsonlarga qaramasdan jamiyatda uning sog'lom a'zolari bilan teng huquqlar va imkoniyatlarda jamiyat hayotida o'zining munosib o'rniga, mavqeiga va hayot sharoitlariga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Inklyuziv jamiyatga o'tishning bir qator shart-sharoitlari bo'lib, ular sirasida inklyuziv madaniyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sababi, jamiyatdagi har qanday ijobiy o'zgarish, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish faqatgina shu jamiyat a'zolarining faol ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi orqali samarali amalga oshadi. Bunda esa o'z navbatida shunga mos dunyoqarash va madaniyatni talab etadi. Bir so'z bilan aytganda, inklyuziv madaniyat "insonlarning qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish", "turli toifadagi insonlarga nisbatan hayrihohlik", "turli xil farqli jihatlariga ko'ra kamsitmaslik", "barchaga insoniylik va insonparvarlik munosabatida bo'lish", "imkoniyati cheklangan shaxslarga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash" kabi tushunchalar bilan ham uyg'unlashadi.

Har qanday madaniyatga eng avvalo, oila muhitida tamal toshi qo'yilgani kabi, inklyuziv madaniyatning ham boshlang'ich nuqtasi oiladir. Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mazkur toifadagi bolalarning rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga faol integrasiyasi oilada inklyuziv madaniyatning shakllanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolaning dunyoga kelishi oila uchun ma'lum muammolar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Avvalo, ota-ona bu holatga to'liq ruhan tayyor emasligi, masalaning birinchi tomoni bo'lsa, keyingi muammolar oila muhitida



bolaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra to'laqonli rivojlanishi uchun zarur munosabat, shart-sharoitlar, imkoniyatlar, ko'mak va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq holda, zanjir reaksiyasi shaklida vujudga kelib boradi.

Oiladagi inklyuziv madaniyatning birinchi va muhim sharti bu alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolaga bo'lgan to'g'ri va ijobiy munosabatdir. Lekin bilamizki, har doim ham bunday munosabat ota-onalardan kutilavermaydi. Ota-onalar yoki oiladagi boshqa insonlarning bilim, saviya va hayotiy tajriba darajasi bolaga nisbatan birlamchi munosabatlarning shakllanganligi o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Bizningcha, bunday vaziyatdagi oilalarga boshlang'ich psixologik, tibbiy va pedagogik maslahatlar bola dunyoga kelganining ilk kunlaridanoq bevosita perenatal markazlarning o'zida berilgani ma'qul. Shuningdek, keyingi bosqichlarda chaqaloqning salomatligi bilan bir qatorda, ota-onalarning ruhiy holati va bolaga munosabati ham oila istiqomat qiladigan hududdagi tibbiyot muassasalari va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar diqqat-e'tiborida bo'lmog'i zarur.

Inklyuziv madaniyat - alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolaning jamiyatga faol integrasiyalashuvining muhim sharti va bosqichi bo'lgan ta'lim jarayonida ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yurtimizda inklyuziv ta'limga o'tish jarayonlari izchil davom etayotgan ekan, ota-onalarda shakllangan inklyuziv madaniyat uning bola uchun sifatli va samarali kechishini ta'minlaydi. Maxsus ta'limdan farqli o'laroq, inklyuziv ta'limda "jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi, oilasi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir". Bundan shunday xulosaga kelish zarur bo'ladiki, inklyuziv ta'lim shartida ota-ona bola ta'lim-tarbiyasi uchun pedagog bilan deyarli teng vazifalarni o'z zimmasiga olishiga to'g'ri keladi, garchi ular bunga hali tayyor bo'lmasalarda. Shu boisdan, inklyuziv ta'lim muassasalari ota-onalar bilan ishlashning aniq, maqsadli va imkon qadar har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan reja va dasturlariga ega bo'lishlari va hamkorlikda faoliyatni amalga oshirib borishlari lozim bo'ladi.

Bizningcha, quyidagilar oilada inklyuziv madaniyatni shakllantirishda bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini beradi:

- oilalar uchun bir martalik kompleks yoki uzluksiz maslahatlarni tashkil etib borish uchun alohida pedagogik-psixologik loyihalar ishlab chiqish va shunday tizimni yo'lga qo'yish;
- inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik sifati va samaradorligi indikatorlari va usullari bo'yicha namunaviy dasturlar, qo'llanmalar va tavsialarning yangi avlodini yaratish;
- alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar istiqomat qiladigan oilalar uchun maxsus saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda kanallar tashkil etish va targ'ibot ishlarini olib borish shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida aytganda, oiladagi inklyuziv madaniyat inklyuziv jamiyatga o'tishda, inson rivojlanishining barcha davrlarini o'z ichiga olgan holda hal qiluvchi rollardan birini o'ynaydi. Bu esa, maxsus ta'lim pedagogikasida inklyuziv madaniyatning barcha jihatlarini qamrab olgan yangi amaliy va ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ta'lim tizimini metodik, ota-onalarni esa pedagogik-psixologik maslahat va ko'makning samarali tizimi bilan qamrab olishni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU. 2017. 592-bet.
2. Qaharova D.S. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. T.: "Fan va texnologiya". 2014. - 192 b.
3. Культурология: Учебник / Под ред. Ю.Н. Солониной, М.С. Кагана. М.: Высшее образование, 2007. - 566 с.
4. Участие родителей, семьи и сообщества в инклюзивном образовании. Детский фонд ООН (ЮНИСЕФ) 2014 г.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ALOHIDA TA'LIMG'A EHTIYOJLI BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

*O'zbekiston, MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
katta o'qituvchisi Xasanboeva Gulbahor Nasrullaevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyasi va korreksion ishlarda qo'llaniladigan usul va metodlar berib o'tilgan.

**Abstract:** In this article, methods and methods used in education and correctional work with children with special needs are given.

**Аннотация:** В данной статье приведены методы и приемы, используемые в воспитательно-коррекционной работе с детьми с особыми потребностями.

**Kalit so'zlar:** korreksiya, dizartriya, reabilitatsiya, adabtatsiya, kompensatsiya, anatomik – fiziologik, mexanizm, artikulyatsion apparat.

**Key words:** correction, dysarthria, rehabilitation, adaptation, compensation, anatomical-physiological, mechanism, articulation apparatus.

**Ключевые слова:** коррекция, дизартрия, реабилитация, адаптация, компенсация, анатомо-физиологический, механизм, артикуляционный аппарат.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi, shuning uchun ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlarini, ya'ni nutq faoliyatining tuzilishi va ishlashi jihatidan tashkil etilishini bilish, birinchidan, nutqning murakkab mexanizmini normada tasavvur qilish, ikkinchidan, nutq buzilishi tahliliga differensial yondoshish, uchinchidan, tuzatuvchi ta'sir yo'llarini to'g'ri belgilashga imkon beradi. Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, jismoniy yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bir qancha qonun va qarorlar, farmoyishlar qabul qilingan. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash– sog'lomlashtirish faoliyatini olib boruvchi tashkilot hisoblanadi. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarni korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'lim tarbiya tayyorlash, jamiyatga moslashuviga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari hisoblanadi:

➤ Maktabgacha ta'lim ga qo'yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya va sog'lomlashtirish ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta'lim tarbiya olishlarini va korreksion - pedagogik ishni ta'minlash;

➤ Korreksion ta'lim tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;

➤ Bolaning ijtimoiy hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion–rivojlantiruvchi ta'lim - tarbiya muhitini yaratish;

➤ Bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy

korreksion-pedagogik ishni tashkillashtirish;

➤ Bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta'lim tarbiya sifatli tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan 3-7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:

➤ Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar;

➤ Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar;

➤ Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar;

➤ Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;

➤ Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;

➤ Tayanch harakatlanish a'zolarida nuqsonlari bo'lgan bolalar.

Bugungi kunda maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar ta'lim tarbiya olmoqdalar.

Alaliya - bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi.

Afaziya - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi.

Rinolaliya - tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog'liq holdagi buzilishdir.

Duduqlanish - nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'atohangning buzilishidir.

Dizartriya - nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

Bugungi kunda dizartriya nutq nuqsonini aniqlashdagi logopedik nazariyalar va amaliyoti dizartriya nutq nuqsonlarning yengil turlarini ochib bera oladi. Uni ta'riflash uchun turli atamalar qo'llaniladi, yengil, organik yoki murakkab dislaliya.

Shu tariqa dizartriyaning yengil darajasida nafaqat tovushdagi nuqson, balki tovushni ifodalash va uning vositalarini o'z ichiga olgan barcha komponentlarining o'zaro hamkorlikda taqdim etiladigan nutqning fonetik jihatdan ham tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi dizartriyaning yengil darajasiga ega bo'lgan bolalarda fonetik-fonematik nutq kamchiliklari kuzatiladi. Bunda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, fonematik eshituv, fonematik idrokda, tovushlarni analiz-sintez qilishdagi kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriyaning asosiy belgilari bular nutqiy artikulyatsiya motorikasi va nutqiy nafas bilan bog'liq bulgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuqsonlaridir. Dizartriya dislaliyadan farqli ravishda ham unli, ham undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriya nutq kamchiligida buzilishlarning turlariga ko'ra barcha nuqsonlar quyidagilarga bo'linadi:

a) tovushni buzib talaffuz qilish;

b) tovushni nutqda yo'qligi, tovushni boshqa tovush bilan almashtirish, differensiallanmagan talaffuz.

Fonologik nuqsonlarda tovushlarni akustik va artikulyatsion xarakteristikasini noaniqligi kuzatiladi. Shuning uchun ko'p hollarda yozma nutqda ham kamchiliklar kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq nuqsonining yengil darajasiga ega bo'lgan bolalarda fonetiko-fonematik nutq kamchiliklari respublikamizda o'rganilmaganligi, mazkur mavzu bo'yicha o'zbek tilida adabiyotlarning yetarli bo'lmasligi ayni vaqtda ta'limni muammoga muayyan e'tiborning kuchaytirilishiga sabab bo'lmoqda.

Mashg'ulotlar jadvali 5 kunlik ish kuniga mo'ljallab tuzilib, defektolog va tarbiyachilar tomonidan nutq o'stirish, tevarak atrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, matematika, to'g'ri talaffuzga o'rgatish, tasviriy faoliyat bilan tanishtirish, qurish-yasash, mehnat, jismoniy tarbiya, o'yin mashg'ulotlari olib boriladi. Shuni unutmaslik kerakki, maqsadga erishish uchun muayyan korreksion ta'lim tarbiya ishlarga kompleks yondoshilib, ya'ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog'lab olib borish kerak.

Ishning asosiy yo'nalishlari:

1. Somatik holatni kuchaytirish.

2. Umumiy, mayda, artikulyatsion, mimik motorikalarni rivojlantirish.
3. Tovushlarni to'g'ri talaffuzini shakllantirish.
4. Nutqning leksik va grammatik va bog'langan nutq ustida ishlash.
5. Nutqning ovoz madaniyati ustida ishlash (fonemik eshitish va idrokni rivojlantirish).

Yakka mashg'ulotlarning asosiy maqsadi:

Nutqda tovushlar talaffuzining buzilishlari, dislaliya, dizartiya va boshqalarga xos bo'lgan artikulyatsion mashqlar to'plamini tanlash va undan foydalanish yakka mashg'ulotlarda logoped tomonidan bola bilan hissiy aloqani o'rnatish, ovozli nutqning sifatini nazorat qilishni faollashtirish, nutq nuqsonini tuzatish, nevrotik reaksiyalarni yumshatish. Bu mashg'ulotlarda nutqda nuqsoni bo'lgan bola o'rganilayotgan har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini o'zlashtirishi va osonlashtiriladigan fonetik sharoitlarda mustahkamlashi kerak: ajratilgan holda, to'g'ri va teskari bo'g'inlarda, tuzilishi qiyin bo'lmagan bo'g'inli so'zlarda. Shunday qilib, bola kichik guruh mashg'ulotlarning mazmunini o'zlashtirishga tayyor bo'ladi.

Guruhli mashg'ulotlarning asosiy maqsadi:

Jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash, mashg'ulotlarda bolalar o'z tengdoshlarining nutqiy jumllarining sifatini yetarlicha baholashni o'rganishlari kerak. Guruhli mashg'ulotlar ochiq tizim bo'lib, bunda logoped ihtiyori bilan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlari dinamikasiga bog'liq.

Dasturni shakllantirish tamoyillari va yondashishlari

Bolalar bilan ishlashning asosiy shakli o'yin faoliyatidir. Barcha tuzatish va rivojlantirish ishlari yakka, kichik guruhli, guruhli integratsiyalashgan mashg'ulotlar, ish dasturiga muvofiq, o'yinli, turli hil o'yinlarga boy va o'yin mashqlarini rivojlantiradi va hech qanday holatda maktab ta'limini takrorlamaydi.

Logopedning ish dasturida belgilangan tuzatish, rivojlantirish va tarbiyaviy vazifalarning bajarilishi, pedagogik va tibbiyot mutaxassislari va bolalarning ota-onalari bilan hamkorlikdagi kompleks birlashtirish orqali ta'minlanadi. Integratsiya tamoyilining amalga oshirilishi bolalarning nutqiy rivojlanishining yuqori sur'atlari va rivojlanishiga, har bir bolaning ijodiy imkoniyatlarini yanada to'liqroq ochib berishga yordam beradi. Tabiatan bolalarga xos bo'lgan qobiliyatni logoped, tibbiyot xodimi, musiqa o'qituvchisi, psixolog, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, tarbiyachilar va maktabgacha yoshdagi ota-onalarning birgalikdagi ishini ta'minlaydi.

Dastur bo'yicha nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda korreksion - logopedik ishlarni muvaffaqiyatli olib borishda quyidagilarni hisoblash mumkin:

- bola og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalaridan yetarlicha foydalanadi: ona (rus) tilining barcha tovushlarini lingvistik normaga muvofiq, to'g'ri talaffuz eta oladi, nutq davomida to'g'ri nafas olishni, nutq ritmini va intonatsiyani amalga oshira oladi;

- bola tarbiyaviy faoliyatning universal shartlarini - qoidaga va modelga muvofiq ishlash qobiliyatini, kattalarni tinglash va uning ko'rsatmalariga amal qilish qobiliyatini: unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlay bilish qobiliyatiga ega; so'z; berilgan tovushning so'zdagi holati; berilgan tovushlar bo'yicha so'zlar bilan to'ldiriladi va 3-4 tovushlar, bo'g'inlar, so'zlarning zanjirlarini to'g'ri takrorlaydi, mustaqil ravishda har hil bo'g'inli tuzilmalar so'zlarining tovushlar analiz - sintezini amalga oshiradi;

- bola aloqa vositalariga va o'zaro ta'sir qilish usullariga ega, kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga qarab muloqot tarzini o'zgartira oladi: nutqning turli qismlari, so'zlar ma'nosining o'ziga xos xususiyatlarini, so'z va iboralarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq yangi so'zlarni o'rganadi. Yangi so'zlarni shakllantiradi, so'zlarni ko'plik, birlik, zamonda (hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon) nutqda qo'llaydi. Jumalardagi kamchiliklarni tuzatadi. Bola mustaqil ravishda rasmdan, rasmlar seriyasidan hikoyalar tuzadi, kengaytirilgan jumladan foydalanib matnlarni takrorlaydi;

- nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalari, tarbiyachi va logoped murakkab mashg'ulot jarayonida o'zaro munosabatda bo'lishadi, natijada bu bola o'zi, oila, jamiyat, davlat, dunyo va tabiat to'g'risida boshlang'ich g'oyalarni shakllantiradi: yosh imkoniyatlariga muvofiq lug'at takomillashtiriladi va umumlashtiriladi, nutqning grammatik tuzilishi shakllantiriladi, leksik

mavzular maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv dasturiga muvofiq yetarlicha rivojlantiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiyey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005.
3. Ayupova M.Yu. Logopediya. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.

### **NUTQDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI**

*O'zbekiston, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
dotsent, PhD Musaeva Nargiza Sayfullayevna,  
magistr Axmedova Gullola Quvondiq qizi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf maktab yoshidagi bolalarning nutq kamchiligidagi muammolari va ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan chora-tadbirlarning turlari. Disleksiya va uni oldini olish, korreksiyalashning ahamiyati. Bugungi kunda korreksiyalashda oila va o'qituvchining bola hayotidagi o'rni va ahamiyati orqali uni bartaraf etish usullari va metodlari.

**Аннотация:** Проблемы речевого дефицита детей младшего школьного возраста и виды мер, применяемых при его устранении. Дислексия и важность профилактики и коррекции. Сегодня методы и способы устранения коррекции определяются ролью и значением семьи и педагога в жизни ребенка.

**Annotation:** Problems of speech deficiency of children of primary school age and types of measures used in their elimination. Dyslexia and the importance of prevention and correction. Today, the methods and methods of eliminating correction through the role and importance of the family and the teacher in the child's life.

**Kalit so'zlar:** nutq, talaffuz, logopediya, disleksiya, harf va so'z, o'qish, korreksiyalash, muhit, jarayon, maqsad.

**Ключевые слова:** речь, произношение, логопед, дислексия, буква и слово, чтение, коррекция, среда, процесс, цель.

**Key words:** speech, pronunciation, speech therapist, dyslexia, letter and word, reading, correction, environment, process, goal.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bola har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishida albatta nutqi ravon bo'lishi, o'z fikrini erkin bayon eta olishi muhim sanaladi. Ba'zi hollarda shunday holatlar bo'ladiki bolalar nutqida turli xil nutq nuqsonlari uchrashi mumkin. Nutq nuqsonlarni bartaraf etishda logopediya yordam beradi.

Logopediya — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. Logopediyaning predmeti — nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalashning qonuniyatlarini o'rganish. Maqsad — nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek nutq nuqsonining oldini olishdan iborat[1]. Nutq buzilishlari turlicha bo'lib, yengil, o'rta, og'ir va juda og'ir darajalarga bo'linadi.

Nutqning fonetik – fonematik tomondan rivojlanmaganligi — bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir[2]. Bu logopediyada disleksiya deb yuritiladi. Disleksiya – bu o'qish jarayonining qisman buzilishi bo'lib, bunda bola ayrim harflar va so'zlarni adashtirib qo'yishi yoki umuman esdan chiqarishi natijasida bo'g'inlarni qo'shib o'qish, bo'g'inlardan so'z tuzish borasida kamchiliklar bilan tavsiflanadi[3]. Disleksiya grekcha “dis-buzilish, lego-o'qiyman disleksiyaning belgilari:

- ❖ almashtirib o'qish;

- ❖ harflarni bo‘g‘inlarga biriktira olmaslik, harf va bo‘g‘inlarni qayta-qayta takrorlash, tushirib ketish, o‘rnini almashtirish natijasida ma‘noni tushuninmay, noto‘g‘ri sekin o‘qish;
- ❖ so‘z qismlarini, bo‘g‘inlari, qo‘shimchalarni boshqa harf, bo‘g‘in yoki so‘zlar bilan almashtirish;
- ❖ tinish belgilari, pauzalarga rioya qilmaslik, so‘z o‘rtasida to‘xtab, pauzalar qilib, birinchi so‘zning ikkinchi qismini keyingi so‘zning birinchi qismi bilan o‘qib ketish[4].

Bu asosan savodga o‘rgatish davrida ko‘p uchraydigan holatlardan biri bo‘lib, bunday kamchiliklar asosan o‘qishga o‘rgatish davrida aniqlanadi va bartaraf etiladi. Bundan tashqari bolalarda so‘z boyligining kamligi, tafakkur, xotiraning pastligi va ruhiy zo‘riqish, oiladagi salbiy muhit, e‘tiborsizlik natijasi ham nutqdagi buzilishlarga sabab bo‘ladi. Ota-ona har doim ham bolaga o‘zining muammolarini ochiqchasiga ko‘rsatishi, bir-biriga baqirib urishishi ham bolaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ba‘zi hollarda esa ortiqcha erkalash ham nutq buzilishiga sabab bo‘ladi. Ya‘ni oiladagi muhitda bolaga so‘z o‘rgatish jarayonida erkalab uning tilida so‘zlarni talaffuz qilish ham boladagi nutq nuqsoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va ushbu jarayonda bola tilini korreksiyalash zarurati tug‘iladi.

Tuzatuvchi ta‘limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq kamchiliklarini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo‘llash yo‘li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug‘at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to‘g‘ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalashdan iborat[5] bo‘lib, ushbu jarayonda ota – ona va tarbiyalovchi o‘qituvchining hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Bola bilan har ikkala taraf birgalikda shug‘ullansa nuqsonni bartaraf etish shunchalik oson kechadi. Bolalar nutqini o‘stirish uchun har kunlik ishlatiladigan so‘zlardan foydalangan holda shu so‘zlarni yozib o‘qitish maqsadga muvofiq sanaladi. Og‘zaki nutqni rivojlantirish orqali bolada o‘z fikrini bayon etishini ham rivojlantirishimiz mumkin. Tilimizda so‘zlar va ularning bir-biriga o‘xshash ma‘noli turlari juda ko‘p. Shulardan o‘rinli foydalangan holda bola nutqini yana boyitib rivojlantirishimiz mumkin. Shuni ta‘kidlash lozimki, tarbiya jarayoniga alohida yondashgan holda bolaning nafaqat nutqi balki uning fikrlashiga ham e‘tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan jarayon, shuning uchun tarbiyalanuvchilar bilan alohida ishlagan holda ularning fikrlashi, dunyoqarashiga bog‘liq holda tarbiyalash o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dars davomida o‘qituvchi turli xil metodlardan foydalangan ularda yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishi mumkin. Masalan, “O‘qib ko‘r-chi” metodidan foydalangan holda harflarni to‘g‘ri o‘qiy olish ko‘nikmalarini hosil qilamiz. Ushbu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga yozma va bosma harflar bilan katta-katta qilib yozilgan so‘zlarni ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qiydi. Tez va to‘g‘ri o‘qigan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Bunda o‘quvchilarda yozma va bosma yozuvni ham o‘qish texnikasi rivojlanadi. Bu o‘yinni Alifbe davrida ham qo‘llash mumkin[6].

Xulosa: Bola nutqini rivojlanmaganligini aniqlash va tuzatishda oiladagi muhit va tarbiyalovchi o‘qituvchining hamkorligi orqali nutqni o‘stirish, to‘g‘irlash mumkin. Avvalo tarbiya jarayoniga to‘g‘ri yondashgan holda bolaga so‘zlarni talaffuz orqali o‘rgatish lozim. Bunda turli xil o‘yin metodlari orqali o‘qitish bolaning xotirasida yaxshi saqlanib qolishga yordam beradi. Chunki bola ayni boshlang‘ich sinfda o‘yinqaroq bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b.
2. Maxsus pedagogika (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2014,368 bet.
3. Boshlang‘ich ta‘lim uchun didaktik materiallar / Sh. Nurullayeva, O. Xaydarova/. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo,2022,96 b.
4. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet
5. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika/o‘quv qo‘llanma/. - Toshkent: “N1F MSH”, 2020, 164 bet.

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ҚЎРҚУВИНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР

*Ўзбекистон, Зарафшон шаҳар 6-ДМТТ услубчиси  
Жалилова Нилуфар Еркиновна*

Болалик қўрқуви нима? Бу шунчаки хавотирланиш учун сабабми ёки болалар томонидан ўйлаб топилган ва катталарни эътиборини ўзларига қаратишга бўлган бола инжиқликларими? Агар бола қўрқса нима қилиш керак? Аввалига у бегона ва нотаниш одамлардан қўрқади, кейинчалик у онаси йўқлигида йиғлайди, гўё у онасиз қолишдан қўрқади ва шу каби қўрқувлари ўсиб боради...

Нима қилиш керак? Уни қандай қилиб тинчлантириш керак? Болага унинг қўрқуви асосиз эканлигини қандай сўзлар ва қанақа усуллар орқали тушунтирса бўлади?

Қўрқув – инсондаги руҳий ҳолатлардан бири: нарса ва ходисаларнинг асл моҳияти, кўриниши тўғрисида аниқ тасаввурнинг йўқлиги туфайли безовталаниш, ҳадиксираш, ташвишланиш кечинмаларининг юзага келиши. Қўрқув, кўпинча, одамларда юрак уришининг ортиши, баданнинг тер билан қопланишида ўз ифодасини топади. Қўрқув инсонларда тасодифий, фавқулоддаги вазиятларда, невротик ҳолатларда, руҳий шикастланишда учраб туради.

Бола ҳаётида учрайдиган барча қийинчиликларни вақт ўтиши билан босқичма-босқич мустақил равишда енгиб ўтиши мумкин. Лекин қўрқув борасида бундай хулоса чиқариб бўлмайди. Боланинг бирор нарсадан қаттиқ чўчиши натижасида келиб чиқадиган ҳис-туйғу унинг фантазияси, ижодий тасаввури шаклланиши билан бирга ривожланиб бориши мумкин. Боланинг кучли кўрқиши унинг руҳиятида эмоционал жароҳат қолдиради, ҳатто салбий оқибатларга, неврозларга олиб келиши мумкин. Натижада болада кўзини тез-тез пирпиратиш, дудуқланиш, бошқалар билан муносабатга киришишга қийналиши, ўзига нисбатан ишонч ҳиссининг йўқолиши, баъзан

тажовузкорлик кузатилиши мумкин. Кўп ҳолларда ота-оналар болага таъсир ўтказиш, айтганларини бажартириш учун оқибатини ўйламай “энг осон” йўлини танлашади, яъни кўрқитишади. Агар бола ўзини муносиб тутмаса, масалан, ўйинчоқларини йиғиштирмаса, вақтида ухлашга ётмаса, шунингдек, ота-оналарнинг овозларини баландлатиб гапиришлари, бақиришлари, бирор нарсадан маҳрум бўлишдан, қоронғиликдан, ёлғизликдан кўрқиш ҳиссини келтириб чиқарувчи “Анвар келса, ҳамма ўйинчоғингни унга бериб юбораман”, “телевизор кўришга рухсат бермайман”, “ертўлага қамаб қўяман”, “бир ўзингни ташлаб кетаман”, “гапларимга кулоқ солмасанг ўлиб қоламан” тарзида гапириши, жисмоний жазо беришлари болада қўрқув ҳосил бўлишининг асосий сабаблари ҳисобланади ва бу уларни узоқ йиллар таъқиб этиши мумкин.

Буюмлар ва ўйинчоқлар бола учун жонлидек бўлиб қолади. Катталар ёнида бўлганида, бола ўзини хавфсиз ҳис этади. Аммо катталар кетиши билан унда ишонч ҳисси йўқолади, борлиқ ва ўйлаб топилган дунё орасидаги чегара жуда мустаҳкам бўлмайди, бола кўпинча тўқима образлар ва ҳақиқатни аралаштириб юборади. Ана шунда турли-туман қўрқувлар пайдо бўлади.

Агар бола қоронғиликдан қўрқса ва қоронғи хонага киришни рад этса, уни зўрламанг. У билан биргаликда хонага кириб, тинчлантиринг, бағрингизга босиб ҳеч нимадан қўрқмасликни тушунтиринг. Каравотига яқинроқ жойга чироқ ўрнатинг. Бола кириши биланоқ чироқни ёқади ва бу билан қўрқувини енгиб ўтишни ўрганади. Итдан қўрқувчи болага юмшоқ кучукча ўйинчоқ ёки турли зотли итларнинг фотосуратли тўпламларини олиб бериш керак. Бу итга нисбатан қўрқув ҳисси йўқолишига ёрдам беради. Итлар ҳақида ижобий эртақларни сўзлаб бериш ҳам болада қўрқув йўқолишига сабаб бўлади. Сувдан қўрқиш нафақат болалар, балки катта ёшдагиларда ҳам учрайди. Болани чўмилтиришдан аввал, ваннага сув тўлдириш ва ёрқин рангдаги турли резина ўйинчоқларни сувга ташлаб қўйинг. Ваннада сузиб юрган ранг-баранг ўйинчоқларни кўрган болада сувга нисбатан

кўркув ҳисси бир мунча пасаяди.Сўнг бироз вақт ўтгач сузиш спортига қатнаштиришингиз ҳам ижобий натижа бериши мумкин.

**Кўркувни бартараф этиш учун биз қуйидаги тавсияларни таклиф қиламиз:**

Фарзанди кўркувини енгиб ўтишини истовчи ота-оналар қуйидаги тавсиялар билан танишишлари фойдадан ҳоли бўлмайди.

**1. Болани оилавий низолардан йироқ тутинг.** Ҳамма оилада ҳам эр-хотин ўртасида тушунмовчиликлар бўлиб туриши сир эмас. Болалардаги кўрқиш ҳиссининг келиб чиқишининг асосий сабабларидан бири -оилавий низолар. Катталар ўртасидаги низоли вазиятлар, баланд овозда жанжаллашиш болага кучли психологик таъсир ўтказида. Ота-оналарнинг фарзанди олдида ҳиссиётларини жиловлашлари муҳим.

**2. Болага меҳр беринг.** Оилада кейинги фарзанд туғилгач, ҳамма эътибор унга қаратилади. Катта фарзанд эса кўпинча эътибордан четда қолиб кетиши, ҳамма “тарбиявий чоралар” унга қаратилиши мумкин. Бу унда ўзига нисбатан ишончсизлик уйғотади. Имкон қадар уни ҳам яхши кўришингизни айтиб, рағбатлантиринг. У хатти-ҳаражатларингиздан унга беъэтибор эмаслигингизни ҳис этсин.

**3. Болага кўмаклашинг ва тушунтиринг.** Агар бола ўзининг нимадандир кўрқаётганини айтса, демак, унга сизнинг кўмагингиз керак. Боланинг кўркуви қанчалар беозор кўринмасин, унинг устидан кулманг. Нималардан кўрқаётган бўлса ўша ҳақида унга батафсил маълумот беришдан эринманг. Токи бу нарса кўрқишга арзимаслигини билсин. Ўзингиз болалигингизда нималардан кўрққанингиз ва буни қандай бартараф қилганингизни сўзлаб беринг. Барча одамлар нимадандир кўрқиши ва бу одатий ҳолат эканлигини тушунтиринг.

**4. Боланинг диққатини чалғитинг.** Агар бола кўрққан бўлса, уни бирон бир иш ёки ўйин билан чалғитинг. Кўтаринки кайфиятни таъминлашга ҳаракат қилинг. Боладан жуда кўп нарсани талаб қилманг. Сизнинг ҳаддан ортиқ талабчанлигингиз ёки тез-тез жазолашингиз боланинг руҳияти учун ортиқча юклама бўлади ва бу ҳам кўшимча кўркувларни юзага келтириши мумкин.

**5. У билан кўпроқ бирга бўлинг.** Инсон руҳиятини жунбушга келтирувчи телекўрсатувлар томоша қилиши ёки компьютер ўйинларини ўйнашини қатъий назорат остига олинг. Шунчаки чеклаш ўрнига буларнинг ўрнини босувчи бошқа оилавий машғулотлар ҳақида бош қотиринг. Масалан, бола билан биргаликда расм чизиш ёки китоб ўқиш ҳам унда ижобий ҳис-туйғулар шакллантиришнинг муҳим омили ҳисобланади.

**6. Болага эртақ айтиб беринг.** Охир-оқибатда барча қийинчиликларни бартараф қилиб, ҳар қандай қийинчиликларни енга оладиган қаҳрамонлари бор эртақлар айтиб беринг. Уларда имкон борича ваҳимали жумлалар ишлатманг, салбий қаҳрамонларнинг кўрқинчлилик даражасини ошириб юборманг.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Выготский Л.С. Психология. –М., 2002.
2. Захаров А.И. Как помочь нашим детям избавиться от страха. -М., 1995.
3. Захаров А.И. Дневные и ночные страхи у детей. -СПб., 2000.
4. Макарова Е.Г. Как преодолеть страх или искусство-терапия. -М.,1996.
5. Развитие социальных эмоций у детей дошкольного возраста. Под.ред. А.А. Запорожца, Я.З.Неверович., -М., 1986.
6. Рима Ф. Основные формы страха. -М., 1999.



## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Узбекистон, г. Зарафшан, Навоийской области  
Методист ДОУ «Забава» №10 Хамраева Феруза Нурмуродовна*

**Аннотация.** Ни для кого не секрет, что основными принципами современного образования являются самоопределение, самореализация и самоактуализация. Для ребенка важны не только знания, но и в первую очередь – умение применить полученные знания в заранее выбранном профессиональном востребованном пространстве.

**Ключевые слова:** педагог, Вольтер, Цзи Юнь, Современное учреждение, самоценность, способность, самоактуализация, самореализация, самоопределения.

**Abstract.** It's no secret that the basic principles of modern education are self-determination, self-realization and self-actualization. Not only knowledge is important for a child, but also, first of all, the ability to apply the acquired knowledge in a pre-selected professional in-demand space.

**Key words:** teacher, Voltaire, Ji Yun, Modern institution, self-worth, ability, self-actualization, self-realization, self-determination.

**Введение.** Говоря о проблемах педагогики, каждый раз пытаешься определить ту высоту, к которой стремишься как педагог, как профессионал, которая наиболее полно отражает сущность твоей педагогики. Я каждый раз, задумываясь над этим вопросом, обращаюсь мысленно к словам Вольтера: «Подумай, как трудно изменить себя самого, и ты поймешь, сколь ничтожны твои возможности изменить других». Безусловно, это трудно, но не невозможно. И в поиске ответов на эти вопросы, решении проблем и проходит жизнь педагога. Одним из основополагающих принципов образования для меня являются слова китайского писателя, ученого и государственного чиновника XVIII в. Цзи Юнь из его «Заметок из хижины «Великое в малом»: «...книги читают для того, чтобы постичь высшие принципы, а высшие принципы постигают, чтобы применить их в жизни. Если же впитывают прочитанное, не вникая в суть, доходят до такой тупости, что причиняют вред другим». Так и моей главной целью преподавания является решение вопроса: как учить своим предметам так, чтобы при этом дети постигали высшие принципы и применяли эти принципы в жизни. Концепция модернизации образования основывается на обеспечении современного качества образования, формировании новых жизненных установок личности. При этом основной целью модернизации является создание механизма устойчивого развития системы образования. **Современное учреждение** – это учреждение сотрудничества, сотворчества педагогов, детей и родителей ради развития в ребенке культурной личности и творческой индивидуальности. Увидеть в каждом ученике неповторимые качества, понять и принять его самоценность – вот главная педагогическая задача современного учреждения. Хорошо известна китайская притча: «**Скажи мне – и я забуду; покажи мне – и я запомню; дай сделать – и я пойму**». Таким образом, немаловажной психолого-педагогической проблемой современного образования можно назвать и выбор методов обучения и воспитания детей. На данном этапе особенно актуальны интерактивные методы и приемы. Следует напомнить, что интерактивное обучение – это обучение, погруженное в общение. Формы такого общения диалоговые, основанные на взаимопонимании и взаимодействии.

Нельзя не согласиться с подобными выводами, ибо смысл групповой работы и заключается в том, чтобы приобретаемый в специально созданной среде опыт (знания, умения) ребенок смог перенести во внешний мир и успешно использовать его. Групповая форма обучения решает одновременно три задачи:

- Конкретно-познавательную, которая связана непосредственно с учебной ситуацией; - Коммуникативно-развивающую, в процессе которой вырабатываются основные навыки общения внутри и за пределами данной группы; -Социально-ориентационную, воспитывающую гражданские качества, необходимые для адекватной социализации воспитанника.

Как в психокоррекционной группе, так и в группе интерактивного обучения должны осуществляться две основные функции, необходимые для успешной деятельности:

- Решение поставленных задач (учебных, поведенческих и др.) - Оказание поддержки членам группы в ходе совместной деятельности. Работа дошкольного и школьного образования подчинена еще одному, на мой взгляд, основному принципу образования-принципу научности. Если научность перестанет быть ведущей составляющей, то соответственно значительно понизится и уровень образованности, что мы и наблюдаем в последнее десятилетие. Скорее всего, происходит этот «декаданс» по причине падения уровня воспитанности детей, что можно объяснить социальными условиями жизни семей: чрезмерная занятость родителей, определение единственной приоритетной цели – накормить, одеть, обуть, а далее – как получится. Какая уж тут наука? Но в дальнейшем уровень притязания родителей растет: ребенок должен поступить в институт или университет, как быть? Таким образом, основной проблемой можно назвать недостаток воспитанности, в основе которой лежит дефицит образованности детей. Путь решения этой проблемы неоднозначен. Но наиболее действенным я считаю следующий: личность воспитанника или ученика с высоким уровнем воспитанности и образованности будет сформирована через систематическую работу по развитию умственных способностей ребенка. Именно тот момент, когда ребёнок говорит: «Я могу это сделать, решить, написать, рассказать», можно считать наиболее успешным для его образования, для реализации принципов **самоактуализации, самореализации и самоопределения**. Развитие умственных способностей зиждется, в первую очередь, на умственной самостоятельности, которая определяется как способность владеть общими умениями и навыками, необходимыми для познания реальной действительности, приобретения знаний, творческого их применения в сложившейся и новой ситуации. Важным вопросом в этой ситуации становится вопрос о готовности самого педагога к процессу развития умственных способностей ребенка. Чтобы сформировать умственную самостоятельность у учащихся, педагогу необходимо самому владеть соответствующими умениями. В связи с этим умственную самостоятельность правомерно рассматривать как способность педагога к отражению и прогнозированию собственной деятельности своих воспитанников. Ведущими признаками умственной деятельности учащихся являются: 1. Осознание важности проблемы. 2. Умение выдвигать и формулировать гипотезу. 3. Умение самостоятельно разрабатывать план поиска. 4. Умение соотносить результаты исследования с изучаемыми явлениями, проверять их достоверность. 5. Умение применять полученные знания в жизни. Создание и внедрение в практику обучения комплекса методик, развивающих умственные способности детей, – это один из способов решения актуальной проблемы образования.

**Заключение.** Я говорю именно о развитии, то есть об уходе от традиционной педагогики к развивающей, потому что лишь развивающая педагогика ставит перед собою цель развития личности обучаемого, а именно выработка в личности особых свойств, новообразований в психике, способностей, которые становятся неотъемлемыми качествами личности. И при этом учитель выполняет функцию не только носителя информации, но и организатора сотрудничества, консультанта, управляющего поисковой работой учащегося. Задача сложна, но ведь и проблема очень серьезна: дети должны быть образованы: воспитаны, развиты и обучены. И качество образования должно повышаться, соответствовать требованиям времени, эпохи и современного общества.

#### **Список литературы**

1. Абраухова В. В. Педагогика дошкольного образования в условиях реализации ФГОС. Учебно-методическое пособие. М.: Директмедиа Паблишинг, 2021.
2. Богданова Т. Г. Основы специальной педагогики и специальной психологии. Сурдопсихология. М.: Юрайт, 2019.
3. Бороздина Г. В. Основы педагогики и психологии. М.: Юрайт, 2023.
4. Быстрова Ю. А. Педагогика. Основы специальной психологии и педагогики. М.: КноРус, 2023.

## OLIMLAR TAJRIBASIDAN MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TARAQQIYOTI TAHLILI

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi  
O'tamurodova Shohida Muhammadqulovna*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim yosh davrida bolalarning psixik taraqqiyotiga o'yin faoliyati vositasida o'qish va mehnat ko'nikmalariga bog'lanib diqqat, taassurot, tasavvur, xayol, idrok, tafakkur takomillashib boradi. O'yin jismoniy bo'lmasdan intellektual, ma'naviy-madaniy va bolaning psixologik taraqqiyotini ta'minlaydigan, xulq-atvorini shakllantiradigan ko'p funktsiyali jarayondir.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yosh, o'yin, psixologik xususiyat, ruhiy, taraqqiyot.

**Аннотация:** В период дошкольного образования совершенствуются внимание, впечатление, воображение, восприятие, мышление. Игра – многофункциональный процесс, обеспечивающий интеллектуальное, духовное, культурное и психологическое развитие ребенка, формирующий поведение ребенка, не являясь физическим.

**Ключевые слова:** Дошкольный возраст, игра, психологические особенности, психическое, развитие.

**Annotation:** Attention, impression, imagination, perception, thinking are improved in the period of preschool education. The game is a multi-functional process that ensures the intellectual, spiritual, cultural and psychological development of the child, and shapes the behavior of the child without being physical.

**Key words:** Preschool age, game, psychological characteristics, mental, development.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi sababli olimlar psixologik va pedagogik tadqiqotlar o'yin jarayonida amalga oshiradilar. O'yin bolaning o'sishi, rivojlanishi, turli tomonlama shakllanishi, ruhiy taraqqiyoti uchun muhim vositadir.

Psixolog va pedagog olim L.S. Vigotskiyning ta'kidlashiga ko'ra[1], maktabgacha yoshdagi o'yinlar ularga zavq beradi. Gohida sport o'yinlarini o'ynab yengilganda o'yin zavq bermaydi, yer tepadi, janjal qiladi, yig'laydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining xohishlarini qondirilishini istaydi. Tushuntirish ishlaridan so'ng bola o'zini kattalarday tuta boshlaydi. Boshqa o'yinlar bilan chalg'iydi. O'yin jismoniy bo'lmasdan endi intellektual funktsiyali bo'lishi kerak. Agar o'yin bolaning xulq-atvoriga mos kelmaydigan bo'lsa, bu yerda o'yin bo'lmaydi. O'yin bolaning individual qiziqishlariga mos tanlanishi zarur. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishidagi rolini aniqlashga imkon beradi.

D.B.Elkonin bolalar psixologiyasiga qiziqishi, izlanishlari 1930-yillarning dam olish kunlarini maktabgacha yoshdagi ikki qizi bilan bayramday o'tkazishlaridan boshlanadi. Ular shu kunlari o'yin rejasini ertalabdan tuzib olardi va o'qirdi, rasm chizardi, musiqa chalardi, ikki marta sayrga chiqardi, o'zlarini xursand qilib shovqin solardi. Shu kuni nonushtalarini stol atrofida yemas edi. Ular shu dam olish kuni ota-yu qizlar oq xalatlari kiyib "bolalar bog'chasi" o'yinini o'ynashardi. Qizaloqlarning biri tarbiyachi bo'lar, ovqat mahali kelganda, u dasturxon tayyorlar va tarbiyalanuvchisi otasi va singlisini dasturxoniga taklif qilardi[2]. Ular, ya'ni bolalar bog'chasidagidek yana ovqat so'rar edi. Yana ular bekinmashoq o'yinlarini o'ynardi.

D.B.Elkonin: "Shunday qilib, bola boshqa odamlar rolini o'z zimmasiga oladigan xayoliy vaziyat o'yin birligining asosi bo'lib, ular uchun odatiy harakatlar va munosabatlarni maxsus o'yin sharoitida amalga oshiradi, degan gipoteza shunday tug'ildi",-deydi. Darhaqiqat, bola ko'rgan hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib o'ynaydi.

F.Frebelning ta'kidlashicha, ta'lim insonning qadriyatli tabiatini ochish usulidir. Frebel o'yinni bola ruhiyatining ajralmas harakati deb hisoblaydi. Maktabgacha yoshda bola o'ynashi va ertak eshitishi kerak. Frebel nazariyasining asosiy g'oyasi "Bolalar – hayot gullari!". U birinchi bo'lib bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarning yuqori o'rganish qobiliyatiga e'tibor qaratdi. U hamma narsani o'rganish uchun asos sifatida bolalar bilan muloqot qilish amaliyotiga o'yinni kiritdi[3].

M. Montessorining[4] ta'kidlashicha, pedagogik tizim psixologik, fiziologik bilimlar bilan ilmiy asoslanadi. O'yin jismoniy mashqlar, sezgi a'zolarining gimnastikasi xususiyatiga ega. O'yinni to'g'ri tashkil etish shundan iboratki, bola o'ynab, asta-sekin ishlashga o'rganadi. Bola tug'ilishida ichida qandaydir qobiliyat bilan tug'iladi. Unga yordam berish kerak. Ongning yangi va erkin shakllarini rivojlantirish kerak.

D.B.Shneyder "Oila psixologiyasi" darsligida eng sezgir yosh 5-6 yoshdan 10 yoshgacha deb ta'kidlaydi. Bu yoshda samimiy hissiy munasabatlar, rol o'yinlarda aqliy rivojlanish, tashabbuskorlik, o'zaro ta'sir, ta'limiy funksiyalar, zavqlanish, tuyg'ular, boy taassurotlar aniq namoyon bo'ladi. Besh-olti yoshli bolalarda qo'g'irchoq bilan o'ynashdan ko'ra, haqiqiy "tirik" olti oylik chaqaloqlarga enagalik qilish uning ruhiy rivojlanishini tezlashtiradi. Shneyder boshqa izlanishlarni o'rganganida, boshqa madaniyatlararo tadqiqotlarda olti oylik bolaga 6 yoshli bola enagalik qilishini tasdiqlanganligini aytib o'tadi. Rossiyada yuzdan ortiq millatlar yashaydi. Ular o'z millatlarining urf-odatlarini, qadriyatlarini, madaniyatlarini, tili, milliy goya, xulq-atvor, axloq normalari va qoidalarining umumiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda ijtimoiy muhitning ma'naviy an'analarini qisman o'zlashtiradi[5]. Xuddiki, bizning yoshligimizdagidek, 5-6 yoshdan ukalarga enagalik qilish qabidir.

5-6 yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rol o'yinlar, individual va guruhiy ijod, o'yin musobaqa, o'yin muloqot, uy mehnati. Maktabgacha katta yoshda sardorlik, liderlik, tashkilotchilik xususiyatlar, xulq-atvoridagi jadal sifatli o'zgarishlar, o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi. Katta maktabgacha yosh davrida bolalarning psixik taraqqiyotiga o'yin faoliyati vositasida o'qish va mehnat ko'nikmalariga bog'lanib diqqat, taassurot, tasavvur, xayol, idrok, tafakkur takomillashib boradi[6].

Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Katta maktabgacha yosh davrida o'yin jarayonida uy-ro'zg'or buyumlarini ishlatish ko'nikma va malakalarini egallaydi, oddiy mehnat qilish, kattalarning turmush tarzidan nusxa olish, shaxslararo munosabatlar, muloqotlar tajribasini egallaydi[7].

Psixolog E.G'.G'oziyev "tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini berdi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi, b) shu boisdan, personajning nutq boyligini egallash xatti-harakatini takrorlashdan iborat bolada ongli maqsad oldindan paydo bo'ladi va oson amalga oshadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ta'sir ko'rsatadi[8]"-deydi. Psixolog maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'yin va boshqa faoliyatlarda o'z xulqini o'zi boshqarishi ularning yosh davrining xususiyati deb baholaydi. Olim maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bilish, xatti-harakatlari, aqliy o'sishi, eslab qolish, tasavvur qilish, anglash, idrok etish, obyektlarning xayoliy ko'chishi, xotirasining rivojlanishi va boshqa psixik jarayonlarning shakllanishida o'yin omili qulay sharoit yaratib berishi haqida bayon qiladi.

Aysem Tombakning tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha tarbiyada drama:

-ijodkorlik va tasavvurni, qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash va kashf qilish motivatsiyasini oshiradi;

-drama jarayonida do'stlari bilan suhbatlashish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi;

-bu bolalarning o'zini o'zi irdok etishida va unda ijobiy tushunchalarini rivojlantirishida yordam beradi;

-guruh bilan hamkorlik qilish, sezgirlik, mas'uliyat hissini rivojlantiradi, ijtimoiy hayotiy, psixomotor ko'nikmalar bilan birga, organlarda muvofiqlashtirish va muvozanatni, harakatlarda moslashuvchanlik va chaqqonlikni yaratadi;

-maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining barcha sohalari shakllanishiga hissa qo'shadi[9].-deydi.

Maryam Maleki, Abbas Mardani, Mino M Mitra Chehrzad, Mostafa Dianatinasab and Mojtaba Vaismoradilarning jamoaviy izlanishlarida, maktabgacha yosh ijtimoiy rivojlanishning hal qiluvchi davri. Ushbu davrda olingan ijtimoiy ko'nikmalar kelajakdagi hayot muvaffaqiyatining asosidir[10].

Ushbu tadqiqot bolaning (ijtimoiy qanday oilada) tug'ilganlik darajasi, otasining yoshi, otasining ishi, tarbiyachining yoshi, tarbiyachining bilimi, tarbiyachining tajribasi va ijtimoiy ko'nikmalarga ta'sir qiluvchi maktabgacha ta'lim guruhlarining ahamiyatini aniqladi. Eron shahridagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun topilmalarining umumlashtirilishi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi madaniy farqlar tufayli qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Tadqiqot namunasi hajmi 6 yoshli va shaharlarda yashaydigan bolalar bilan cheklangan, ammo bolalardan olingan hech qanday ma'lumot to'planmagan, kelajakdagi tadqiqotlarda e'tiborga olinishi kerak"[10] -deydi. Bundan tashqari, tadqiqot ishtirokchilarining xulosalariga ko'ra, qiz bolalar uyda hamkorlik qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va umumiy ijtimoiy ko'hikmalarga ega edilar, ammo tarbiyachilarning nuqtayi nazari maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalarda yuqori darajadagi tasdiqlashdan tashqari, jinslar o'rtasidagi ijtimoiy mahorat(malaka) sohalarida farqni ko'rmadi. ... bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish uchun oilaning holati, tarbiyachi va maktabgacha ta'lim tashkilotining xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim[10]-deb tavsiya beradilar. Tadqiqotda otasining yoshi katta bo'lgan bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarni egallash jarayoni yuqori bo'lganligini alohida aytib o'tadilar. Tadqiqotchilar ma'lumotlarni ota-onalar va tarbiyachilardan olingan so'rovnoma asosida to'planganligini ta'kidlab o'tadilar. Tadqiqot natijasiga ko'ra, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashda o'g'il yoki qiz bolalarda farq yo'qligi aniqlangan va faqat qiz bolalarda hamkorlik qilish sifatleri yuqori ekanligini aniqlashgan.

Bizning tadqiqotimizda ham yoshi katta ota-onalarning farzandlari ancha yuqori natijalarni ko'rsatganini kuzatdik. Bundan tashqari, ijtimoiy kelib chiqishida oliy ma'lumotli, ziyoli oila farzandlari ham yuqori ko'rsatkichli natijalarni berganini guvohi bo'ldik.

Zhihong Cheng, Yu Chenglarning hammuallifdagi tadqiqotida takidlanishicha, Xitoy an'anaviy madaniyati tomonidan dramatik ta'lim faoliyati bolalarning dramatik tabiatiga mos keladi, yo'naltiradi, va rag'batlantiradi, shunda har bir bola dramatik ta'lim faoliyatida o'zi uchun munosib o'rin topishi va bolalarning individualligi bilan o'sishiga yordam beradi[11]. Xitoyning boy adabiyoti, qadriyatleri, teatr madaniyati, madaniy ramzlari o'zini o'zi zamonaviy e'tiqodlar bilan birga integratsiya qilib ijtimoiy-madaniylashtiradi. ... bolalar bog'chalari uchun dramatik ta'lim resurslarini ah'anaviy madaniyat tashuvchisi sifatida dramatik ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun kafolat berish va yosh bolalarda an'anaviy madaniyatni himoya qilish to'g'risidagi xabardorlikni rivojlantirish[11] lozim.

V.K. Mages tadqiqotida, ta'limdagi drama maktabgacha yoshdagi bolalarning aqli, tasavvur qobiliyatlarini va tilidagi (hikoya qilish, tushunish, so'z boyligining rivojlanishi) sezilarli darajada yaxshiladi[12]. Sahnalashtirilgan tomoshalar maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, idrok etish va tasavvurini keng bo'lishiga yordam beradi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashlaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim yosh davrida bolalarning psixik taraqqiyotiga o'yin faoliyati vositasida o'qish va mehnat ko'nikmalariga bog'lanib diqqat, taassurot, tasavvur, xayol, idrok, tafakkur takomillashib boradi. O'yin jismoniy bo'lmasdan intellektual, ma'naviy-madaniy va bolaning psixologik taraqqiyotini ta'minlaydigan, xulq-atvorini shakllantiradigan ko'p funktsiyali jarayondir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Выготский Л.С. Игра и ее роль психическом развитии ребенка. //Альманах Института коррекционной педагогики. Альманах №28 2017 URL:

1. Эльконин Д.Б. Психология игры. От автора биография исследований. 2015. –226 с.  
<https://dytpsycholog.files.wordpress.com/2015/01/elkonin-psihologiya-igry.pdf>

2. <https://avtovokzal-tver.ru/uz/the-incident/zhizn-i-deyatelnost-frebelya-dary-frebelya-pervye-didakticheskie-materialy.html>

3. Montessori M. Kosmische Evziehung / Hg. V.P. Oswald u G. Schult-Benesch. Freiburg, Basel, Wien, 1993. S. 18-26
4. Шнейдер Д.Б. Семейная психология Учебное пособие 2-е изд. -М.: Академический Проект: Екатеринбург: 2006, -768 с.
5. Do'stmuhamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunsova G., Ziyavitdinova G. Umumiy psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi) 2-kitob, -Toshkent: 2020. 345 b.
6. Nishanova Z.T., Alimova K.G., Turg'unboyeva A.G'., Asranboyeva M.X. Bolalar psixologiyasi va psixogiagnostikasi -Toshkent, 2017. 198 b.
7. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi darslik, "NIF-MSH", -Toshkent: 2020, 228 b. 110-b.
8. Aysem Tombak IMPORTANCE OF DRAMA IN PRE-SCHOOL EDUCATION. 3rd Cyprus International Conference on Educational Research 2013. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
9. Maryam Maleki, Abbas Mardani, Minoo Mitra Chehrzad, Mostafa Dianatinasab va Mojtaba Vaismoradi "Social Skills in Children at Home and in Preschool" 2019.
10. Zhihong Cheng, Yu Cheng Research on Kindergarten Drama Education Activity System with Traditional Culture as Carrier under Big Data Platform 2023  
<https://doi.org/10.2478/amns.2023.2.00338>
11. Vendy K. Mages Does theatre-in-education promote early childhood development?: The effect of drama on language, perspective-taking, and imagination 2018  
<https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2017.12.006>

## **RIVOJLANISHDA ALOHIDA EHTIYOJI BO'LGAN ERTA VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBİYALASH: MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi K.F.Qodirova  
NavDPI 2-kurs (sirtqi) talabasi Z. J. Ismoilova*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlarida va jamiyatning barcha ijtimoiy guruhlarida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bor, ular bizning mamlakatimizda odatda nogironlar deb nomlanadi. Ushbu maqolada har bir bolaga nuqsonga sababli bajara olmaydigan tamonidan emas, balki mavjud nuqsonga qaramay, u bajara olishi mumkin bo'lgan tamonidan murojaat qilish lozimligi tushunchasi va bunda inklyuziv ta'lim ahamiyati xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Alohida ehtiyojga ega bolalar, inklyuziya, inklyuziv ta'lim, oila, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy model, metodologiya

**Аннотация:** В настоящее время во всех странах мира и во всех социальных группах общества есть дети с особыми потребностями, в нашей стране их принято называть инвалидами. В данной статье говорится о концепции обращения к каждому ребенку не с той стороны, которую он не может выполнять в силу своей инвалидности, а с той стороны, которую он может выполнять, несмотря на имеющуюся инвалидность, и о важности инклюзивного образования в этом.

**Ключевые слова:** Дети с особыми потребностями, инклюзия, инклюзивное образование, семья, социальная адаптация, социальная модель, методика

Bolarning hayoti, ta'lim - tarbiyasi, ma'naviy va ahloqiy kamoloti, ularning barkamol o'sib ulg'ayishiga dahldor barcha masalalar davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida o'ziga xos huquqiy maqom kasb etgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashishi huquqi, turar joyga, ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi, nogiron bolalar, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsонlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam va bilim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlari ham hozirda mavjud "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun hujjatida o'z aksini topgan. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'la-to'kis

moslashuvini ta'minlash va bunda o'quv jarayonini tashkil qilish to'g'risida juda ko'p tushunchalar shakllangan. Shunday tushunchalardan biri bu inklyuziya tushunchasi.

Inklyuziya bu - alohida ehtiyojli o'quvchilarni ehtiyojlarini qondirish, ta'lim, madaniyat va jamiyatda bo'lib o'tayotgan jarayonlarga keng jalb etish va ta'lim olish yo'lida bo'lgan qiyinchiliklarni yengillashtirish bo'yicha olib boriladigan chora tadbirlardir. Inklyuziv ta'limda hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olingan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejaları tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'la-to'kis moslashuvi muammolari har doim ham eng dolzarb o'rinni egallab kelgan masalalardan biri bo'lib kelgan. Bolalar nogironligi ularning hayot faoliyatini cheklabgina qolmasdan, ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi. Bu esa o'z xulqi ustidan nazorat qila olmaslik, shuningdek o'z-o'ziga xizmat layoqati, oldinga intilish, mo'ljal olish, o'qish, muloqot va kelgusidagi mehnat faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda esa bolaning rivojlanishida o'zgarishlar bo'lishi uchun oila eng zarur omil hisoblanadi.

Oilada alohida ehtiyojli bola tug'ilganda, ota-onalarning hayotga bo'lgan qarashlari, o'zlariga va boshqalarga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shuning uchun alohida ehtiyojli bolalarning reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyasi haqida gapirilganda, nafaqat shu bolalarning ehtiyojlarini, balki oilaning ham ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurki, ularning ko'pchiligi majmuaviy ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'ladi.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolarga:

- ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklar va kamdan-kam bolalar bog'chaga boradiganligi;
- tashqi muhitdan izolyatsiya qilingan;
- jismoniy jarayonlarning rivojlanish darajasi pastligi;
- baholash natijalari asosida o'quv dasturining bir yoki bir nechta bo'limlarida rivojlanish darajasi juda pastligi;
- baholash natijalari asosida o'quv dasturining bir yoki bir nechta bo'limlarida yuqori darajadagi rivojlanishi;
- ba'zi bir faoliyat turi uchun yuqori qobiliyat (teatr, vizual, intellektual, jismoniy, ijtimoiy-samarali qobiliyatlar);
- shaxsiy xususiyatlarda zaif motivatsiya, yengil qo'zg'aluvchanlik, hissiy va irodaviy sohadagi buzilishlar, psixologik muvozanati buzilgan, oilada yetarli tarbiya berilmaganligi va boshqalar kiradi.

Har tomonlama rivojlangan sog'lom avlodni tarbiyalash har bir davlatning o'ta dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Iсталgan davlatning kelajagi, uning taraqqiyoti va gullab yashnashi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi qayerda va qanday amalga oshirilishi, bola shaxsining qay tarzda shakllanayotganiga bevosita bog'liq.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash g'oyat ma'suliyatli vazifa bo'lib, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgandir. Insonning ijtimoiy barkamolligi uning atrof olamga qanday moslashganligi, jamiyatda o'zini qanday his etishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Inklyuziyaning muvaffaqiyati, muttaxislarning fikri bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qayerga borib o'qishiga va inklyuziv ta'lim dasturiga bog'liq. Eng avvalo inklyuziv ta'lim davlat ishi bo'lishi kerak. Chunki ta'lim olishga imkoniyati bo'lmagan alohida ehtiyojli bolalar

iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayondan tushib qoladilar. Hukumat ularga tenglik imkoniyatini ta'minlashi kerak. Shuni aytish joizki, inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar uchun zarur. Qanchadan - qancha inklyuziv ta'lim olgan alohida ehtiyojli bolalar orasidan iqtidorli, yaxshi mutaxassislar yetilib chiqqan. Bu xorij amaliyotda sinalgan.

Inklyuziv ta'limga o'tish masalasi O'zbekistonda ratifikatsiya qilingan bolalar huquqlari va nogironlar huquqlari tug'risidagi konventsiyaga asoslanadi. Ammo inklyuziv ta'limga o'tishga, bunday yondashuv uchun nafaqat mos keladigan huquqiy bazani yaratish, kadrlarni tayyorlash, nogironlarni kasbiy rehabilitatsiyasini ta'minlash, jamiyatni to'g'ri va ijobiy fikrlashiga, davlat ta'lim standartlarini moslashtirish, inklyuziv ta'lim islohotini amalga oshirish uchun normativ bazasini mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlash uchun pedagoglarni malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, inshootlarni moslashtirish kabi bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni - 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-88 b.
3. Абдуллаева, Ш. А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
4. Erkaboyeva, N. S. (2016). FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES. Ученый XXI века, (4-1), 36-39.
5. Erkaboyeva, N. S., & Ugli, A. S. S. (2022). Nclusive education and inclusive society. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 10-14.

### **МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИҚТИДОРЛИ БОЛАЛАРНИ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚО'ЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Yusupova Manzura Axtamovna*

**Аннотация.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish hozirgi kundagi muhim pedagogik-psixologik muammolardan biri sanaladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus metodika asosida ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotning dastlabki natija va xulosalari keltirilgan.

**Калит со'злар:** ijtimoiylashuv, ijtimoiy-hissiy rivojlantirish, emotsional rivojlantirish, emotsional tajriba, syujetli-rolli o'yinlar, muloqot.

**Аннотация:** Социально-эмоциональное развитие детей дошкольного возраста сегодня считается одной из важнейших педагогико-психологических проблем. В статье представлены предварительные результаты и выводы исследования социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста на основе специальной методики.

**Ключевые слова:** социализация, социально-эмоциональное развитие, эмоциональное развитие, эмоциональный опыт, сюжетно-ролевые игры, общение.

**Abstract:** Socio-emotional development of preschool children is considered one of the most important pedagogical and psychological problems today. The article presents the preliminary results and conclusions of the research carried out on the socio-emotional development of preschool children based on a special methodology.

**Key words:** socialization, social-emotional development, emotional development, emotional experience, plot-role games, communication.



Kirish. Yaqin vaqtlargacha bolalarda intellektual imkoniyatlarni shakllantirish asosiy pedagogik vazifa bo'lib keldi, biroq, uning hissiy olami, boshqa insonlar bilan munosabatini tashkil etish, jamoada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasiga uncha ham e'tibor qaratilmadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdi. Ushbu shiddatkor davrda bolaning emotsional rivojlanishiga shaxs yaxlit rivojlanishining dastlabki tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarash va uni sifatli rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu bosqichli pedagogik jarayon bo'lib, mazkur vazifani uzluksiz ta'lim tizimi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero, - “Maktabgacha bo'lgan yosh - bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir”

Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha faoliyatlar asosan o'yin orqali amalga oshirilishini nazarda tutganda, rolli va syujetli o'yinlar, musiqa mashg'ulotlari bu yo'nalishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini tasavvur etish qiyin emas. Emotsional tajriba va qiziqishlarga asoslangan holda bolaning turli faoliyatlar jarayonida bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllanadi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, kattalar ko'magida ularni differentsiyalash, o'z emotsional holatini baholash va boshqarish amalga oshiriladi.

Respublikamiz rivojlangan davlatlar qatoriga yetishi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan vazifalarimizning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzalarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz. Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamlı umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma'lum. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda»<sup>1</sup>. Aslida «Sog'lom bola» nima degani? «Sog'lom» so'zi: dard-kasaldan xoli; sog'; sog'liqni saqlash talablariga to'la javob beradigan; beg'ubor, toza, sof; zararli ta'sirdan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli; toza, pok; ruhiy jihatdan shikast yetmagan; raso; g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy jihatdan toza, pok, degan ma'nolarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, lug'aviy ma'noda sog'lom bola – hali yosh, voyaga yetmagan, beg'ubor, sof, zararli ta'sirlardan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli o'g'il-qiz ekani ma'lum bo'ladi. Milliy qadriyatlarmizda ham bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligi tarixiy manbalarda to'liq aks etgan bo'lib, jumladan hadisi shariflarda sog'lom bola ahli islomning muddaosi bo'lganligi keltiriladi. Bunga muhaddislar imomi – buyuk bobomiz Imom Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» kitobida dalil bor. Kitobning bir bobı «Bola sog'lom tug'ilsa, Xudoga shukr qilish haqida», deb ataladi. Unda: «Oyisha (r.a.) biron oilada farzand tug'ilsa, o'g'il yoki qizligini so'ramas edilar. Balki: «Sog'lommi?» – deb so'rar, «Ha», deyilsa, «Olamlarning Parvardigori Allohga shukr», derdilar» deyilgan<sup>4</sup>. Bundan tashqari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari yaratilib, amaliyotda qo'llanilmoqda. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari, xususiylashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar qoshida maktabdan tashqari muassasalar va xususiy turli maktab tayyorlov markazlarida bolalarni maktabga tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash yangi omillarni izlash, topish, tajriba-sinovlardan o'tkazish asosida amalga oshirish zaruriyatini talab etmoqda. Maktabga tayyorlashda bolalarning ruhiy tayyorgarligi, jismonan sog'lom bo'lishi, muloqotga kira olishi, so'z boyligini (zaxirasini) boyitish, boshlang'ich elementar matematik tushunchalarga ega bo'lishi, yozishga boshlang'ich tayyorgarlik, ayrim so'zlar to'g'risida tasavvurlarni bilishi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa 3-6 yoshli bolaning axborotga ehtiyoji ko'pdir.

Daho va yovuzlik birbiriga mos kelmaydi, degan fikr iqtidorli bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog'liq. Bu yerda mantiq oddiy: axloqsiz odam o'z iste'dodini yo rivojlantirmaydi, yoki ertami-kechmi uni yo'q qiladi. Shu bilan birga, axloqiy va ilmiy jasorat birbirini to'ldiradigan yana bir fikr aksiomasi ham haqiqatdir. Bolalikda o'rganilgan asosiy axloqiy haqiqatlar inson hayotida yo'l-yo'riq va qutqaruvchi bo'lib qoladi, bu ko'plab buyuk insonlar hayoti misollari bilan tasdiqlangan.

Pedagogik amaliyot va kundalik kundalik voqelik erraklar va ayollar qobiliyatlarining turlari va darajalaridagi sezilarli farqlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, nazariy jihatdan uzoq vaqtdan beri hech kim qobiliyat bo'yicha hech kimdan oshib ketmasligi - na erkaklar, na ayollar. Biz shunchaki turli qobiliyatlar va ularning rivojlanishining xususiyatlari bilan shug'ullanamiz. Ma'lumki, erkaklar aqli mantiqda afzalliklarga ega, ayol aqli erkak sezgisidan ustundir. Hayotda ular bir-birini to'ldiradi. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda gender yondashuvi aniq hayotiy misollarga asoslanis Iqtidorli bolalar bilan ishlashda buyuk odamlarning tarjimai holiga tayanish kerak, ayniqsa ularning sovg'a sabablarini tushuntirishda. Shu bilan birga, dahoning rivojlanishi nafaqat taqlid qilish uchun namuna, balki iqtidorli bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun namuna bo'lishi mumkin.

Binobarin, o'tmishdagi yoki hozirgi zamonning u yoki bu yorqin shaxsining qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan aniq omillar hisobga olinsa, iqtidorli bolalar bilan ishlash sifati sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Shunday qilib, o'qituvchining sanab o'tilgan shaxsiy va kasbiy xususiyatlari iqtidorli bolalar bilan samarali ishlashning eng muhim shartlaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1 "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilmoqda"  
// Prezident Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. <https://kun.uz/news/2020/08/31/>

2 "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son. – 20 b. <https://lex.uz/docs/4646908>

3. Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. - 2021. - S. 98-104.

4. Toyirova Sh. O'zbek oilalarda egizak farzandlarni tarbiyalashdagi o'ziga xos psixologik muammolar //Oriental Art and Culture. - 2020. - №. I (2). - S. 122-125.

5. Izatovna T. L., Izatovna T. S. PSYCHODIAGNOSTIC BASES OF THE STUDY OF TWINS IN PSYCHOLOGY //E-Conference Globe. - 2021. - S. 98-104.

6. Risnawati, W. I., Astuti, M., Shaxlo, T., Dilafuz, I., & Dilnoza, K. Effect of Work Conflict, Work Stress and Satisfaction working on Employee Erformance at PT. Federal International Financegroup (FIF-Group) Sidoarjo. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(4), 69-80.

7. Izatovna, T. S., & Murtazoyevna, Q. D. (2022). MAKTAB YOSHIDAGI EGIZAKLARNING O'QISHDAGI MUAMMOLARNI KORREKTSIYALASH YO'LLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 220-223.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YISHNING SAMARALI USULLARI

*O'zbekiston, Navoiy viloyati Zarafshon shahar 13-DMTT uslubchisi  
Odilova Dilorom Sunnatovna*

**Annotasiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning samarali usullari, ta'lim jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning afzalliklari, maqsad va vazifalari bu boradagi innovatsion yondashuvlar haqida tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Farzandlar tarbiyasi, barkamol shaxs, oilaviy muhit, psixologik va pedagogik yordam, hamkorlik, aloqa daftari, sinalgan, ijobiy natija, samarali usullar.

**Аннотация:** Эффективные методы налаживания сотрудничества с родителями в дошкольных образовательных организациях, преимущества, цели и задачи налаживания сотрудничества с родителями в образовательном процессе, даны рекомендации по инновационным подходам в этом отношении.

**Ключевые слова:** Образование ребенка, всесторонняя личность, семейная среда, психолого-педагогическая поддержка, сотрудничество, контактная книга, проверенный, положительный результат, эффективные методы.

**Abstract:** Effective methods of establishing cooperation with parents in preschool educational organizations, advantages, goals and objectives of establishing cooperation with parents in the educational process, recommendations are given on innovative approaches in this regard.

**Keywords:** Child education, comprehensive personality, family environment, psychological and pedagogical support, cooperation, contact book, proven, positive results, effective methods.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisi Senati va Qonunchilik palatasi deputatlariga 2019 yilda amalga oshirgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2020 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasi xalqimiz uchun kutilmagan yangiliklarga boy bo'ldi. Barcha sohalar qatorida maktabgacha ta'lim sohasiga ham qator yangiliklar kiritildi. Jumladan: bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 % ga yetkazilishi, tariximizda ilk bor 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinishi soha rivojida tub burilish yasadi. Bunday islohotlar yosh avlodni har tamonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Farzand tarbiyasida esa maktabgacha bo'lgan yosh davri muhim hisoblanadi. Bolaga ta'lim-tarbiya berish oiladan boshlanadi. Oiladagi sog'lom muhitning bola rivojlanishidagi ahamiyati juda kattadir. Bolaning barkamol shaxs bo'lib yetishishida esa ta'lim tizimining ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limning alohida o'rni bor. Bola bu yerda ilk bor tengdoshlari bilan muloqotga kirishishni, o'z fikrini erkin bayon qila olishni, o'rgana boshlaydi. Aynan shu davrda bolaning dunyoqarashi kengayib, nutq boyligi oshib boradi. Oiladagi ta'lim-tarbiya jarayoni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilsa bolaning har tamonlama rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Har bir millatda oilada farzand dunyoga kelgan kundan boshlab unga oilasi, yaqinlari tomonidan ta'lim-tarbiya berib boriladi. Farzand ulg'aygan sayin uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy talablar qo'yish va uni bajarish talabi oshib boradi. Sog'lom muhit shakllangan oilada ota-onaning asosiy vazifasi farzandiga ta'lim-tarbiya berish, maqsadi esa farzandini barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir. Hozirgi kunda yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni shaxs sifatida shakllanishida oiladan tashqari, uzluksiz ta'limning ham o'z o'rni hamda vazifalari bor. Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim ham bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar oila muhitiga ota-onasiga juda bog'langan bo'ladi. Bu yoshdagi

bolalarning maktabgacha ta'limga moslashib ketishi ba'zida qiyinchiliklar tug'diradi. Oilaviy muhitdan bog'cha muhitiga o'tishda bolaga tarbiyachi hamda ota-onalar psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishlari kerak.

Sharq mutafakkirlaridan biri bo'lgan Yusuf Xos Hojib : "Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishning oldi olinadi"- deb takidlaganlar. Darhaqiqat ota-ona uchun oilada farzand tarbiyasidan muhimroq vazifa bo'lmasa kerak. Maktabgacha yosh davri esa bolalarning shaxs bo'lib shakllanadigan har tamonlama rivojlanadigan yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davriga yetgan bolalarning ta'lim-tarbiyasida endilikda ota-onalar bilan tarbiyachilarning ma'suliyati ham oshib boradi. Bolaning bu yoshida o'z "men"ini anglashi, aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishi uchun ota-onalar va tarbiyachilar birgalikda faoliyat olib borishi va samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya bilishi zarur hisoblanadi.

Pedagoglarning fikricha tarbiyada hamma narsa tarbiyachining kimligiga bog'liq ekan. Tarbiyachilar ta'lim tashkilotiga bola ilk qadam qo'ygan kundan boshlab ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishlari shart. Birinchi navbatda ishni bola bilan tanishib chiqishdan boshlash kerak. Bizga ma'lumki bolalarning har biri turlicha xarakter va turlicha tempramentiga ega. Tarbiyachi bolani yaxshi tushina olishi u bilan tezda chiqishib keta olishi uchun ota-onalarning farzandlari haqidagi ma'lumotlari muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlik qilishning sinalgan turli usullari mavjud. Bularga umumiy va guruh majlislari, ochiq eshiklar kuni, aloqa daftari, suhbat, oila ahvolidan xabar olish va hokozalar kiradi.

Tarbiyachilar bu usullardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishsa bo'ladi. Bolalar vaqt o'tgan sayin bog'cha hayotiga moslasha boradi. Maktabgacha ta'limning vazifasi faqatgina tarbiya berish emas balki maktab ta'limiga ham tayyorlab borishhamdir. Har bir bola bilan har kuni individual ishlashning iloji yo'q. Bunga vaqt yetishmasligini oddiy bir sabab qilib olsa bo'ladi. Ammo hozir XXI asr. Zamonaviy ilm-fan taraqqiy etgan, har sohada innovatsion o'zgarishlar bo'layotgan davr. Tarbiyachilar ham bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning zamonaviy, sinalgan, ijobiy natija beradigan usullarini izlab topishi, va asosiy maqsadga erishishda foydalana bilishlari zarur.

Har bir tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan doimiy muloqotda bo'lishi, farzandi haqida suhbatlashishi, uning-tarbiyasidagi o'zgarishlarni birgalikda muhokama qilishi bilim olish uchun keng imkoniyatlari ochib berishga ma'suldir.

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan ilk kundan boshlab, oila va MTT hamkorligini tashkil etish kerak. Birinchi navbatda tashkilotga yangi qabul qilingan bolani ota-onasi va oilasi bilan yaqindan tanishish ular bilan uzviy muloqotni yo'lga qo'yish kerak. Biz bilamizki, har bir bolaning psixologiyasi, xarakteri turlicha bo'ladi. Shuning uchun ham ba'zi bolalarda bog'cha hayotiga ko'nishi bir muncha qiyin kechishi mumkin. Avvaliga uni bog'cha hayoti bilan tanishtirib borish, tengdoshlari bilan erkin muloqot qilishini e'tiborga olish lozim. Agar biz bolani bog'cha hayotiga tog'ri yo'naltira olsak u ta'lim-tarbiya olish jarayonida ham qiynalmaydi.

Ikkinchidan doimiy ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bolaning uydagi faoliyati, qiziqishlari haqida so'rash uni ta'lim-tarbiya jarayonida inobatga olishi vaqti-vaqti bilan bolani rag'batlantirib turish, uning kichkina mehnatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Oila va MTT o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishda turli usullardan foydalansa bo'ladi. Tarbiyachilar ham doimo ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashning yangicha va samarali usullarini qo'llashlari kerak. "Ijodkor bolalar" kuni, "Biz bir oilamiz" shiori ostida ota-onalar va bolalar kuni, "Otam, onam va men birgalikda bajaramiz" "Men haqimda" nomli hamkorlikning yangi shakllaridan tarbiyachilar ish faoliyatlarida foydalananshlari mumkin. "Ijodkor bolalar" kuni oy mavzusi bilan nomlanadi. Metodik tavsiyamizga binoan har oyning oxirgi jumasida "Ijodkor bolalar" kunini quyidagicha tashkil etish mumkin. (aprel oyi misolida ko'rib chiqamiz.)

#### **Yer sayyorasi umumiy uyimiz.**

**Ishning borishi:** oyning oxirgi sanasiga qadar mashg'ulotlar reja asosida o'tib boriladi. Bolalarning mashg'ulot davomida yasagan, tayyorlagan ishlari yig'iladi, oy davomidagi mashg'ulot

paytida barcha rivojlantiruvchi markazlarda olib borilgan ishlar na'munalari olib qo'yiladi. Oyning oxirida esa ob-havo sharoitiga qarab, "**Bolalar ijodkorligi**" kuni ochiq havoda tashkil qilinadi. Barcha guruhlar uchun joylar belgilanadi. Belgilangan joylarni bezatishda bolalar ishlaridan, tarbiyachining ishlaridan foydalaniladi. Ta'lim tashkilotida tashkil etilgan bu kunga ota-onalar, boshqa ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, maktabgacha ta'lim sohasida ishlayotgan soha xodimlari taklif etiladi.

Ko'pchilik bolalar bayramlarda, tadbirlarda ota-onalari tomoshaga kelishganda o'zlarini g'alati tutishadi. Bu ularning psixologiyasiga, yosh xususiyatlariga bog'liq hisoblanadi. Ba'zi bolalar ota-onalarini ko'rib hayajonlanadi natijada yod olgan sheri raqsi esidan chiqib qolish holatlari kuzatiladi. Buning oldini olish maqsadida ota-onalar bilan birgalikda bajaradigan faoliyatlarni tez-tez o'tkazib turish kerak. Ko'p ota-onalar ishda bo'lishligi sababli farzandlari bilan turli o'yinlar o'ynamasligi mumkin. Lekin buni ota-onalar vaziyatidan kelib chiqqan holda MTTlarda tashkil etsa bo'ladi. Masalan har yili mayning 15 sanasida oila kuni nishonlanadi. Ko'pchilik bu kunda bolalari bilan birga xordiq chiqaradi, ovqatlanishga, sayrga chiqishadi. Bu kunni yanada esda qolishi uchun MTT va oila hamkorligida "Biz bir oilamiz kuni" ni tashkil etish samarali usullardan biri hisoblanadi.

"Otam, onam va men birgalikda bajaramiz" Maktabgacha yoshda bolalarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqati yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Lekin buni ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etsa bo'ladi. Mustaqil ta'lim mavzusi tarbiyalanuvchilarga bir kun oldin, ertangi kun mavzusi uchun beriladi; (misol uchun ertangi mashg'ulot mavzusi: uy hayvonlari bilan tanishamiz. Tarbiyachi bolalarga vazifa qilib uy hayvonlarini o'rganib kelishi, ular hovlisida qaysi uy hayvonlarini parvarishlashi, yoqtirgan uy hayvonini rasmini chizib kelishini aytadi.)

Mustaqil ta'limni tashkil etish, ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga berilgan vazifani ota-onalarga tushuntiradi. Buning uchun farzandiga yordam berishini, farzandi mustaqil ta'limga ijodiy yondashishi uchun muhit yaratib berishni so'raydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008
5. Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N. A'zamova .Toshkent-2017
6. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" 18.06. 2018.
7. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018-yil
8. Baxtli bola ma'naviyati. "Muharrir" nashriyoti 2017-yil.
10. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.V.Loginova tahriri ostida T., 1992
11. Maktabgacha pedagogika O,Hasanboyeva va boshqalar T., 2007 y
12. Maktabgacha ta'lim jurnali.
13. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

## RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA KORREKSION ISHLARNING MAZMUN – MOHIYATI

*O‘zbekiston, NavDPI “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”  
(Maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti  
Shodiyeva Barchinoy Xudoyqulovna*

**Annotatsiya:** Maqolada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda korreksion ishlarning mazmun-mohiyati, korreksion ishlarni amalga oshirishda o‘yin faoliyati va barmoq mashqlarining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan

**Kalit so‘zlar:** korreksion pedagogika, inklyuziv ta’lim, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim hamma uchun”, o‘yin faoliyati, barmoq mashqlari.

**Аннотация:** В статье говорится о сущности коррекционной работы у детей с отклонениями в развитии, значении игровой деятельности и пальчиковой гимнастики в осуществлении коррекционной работы.

**Ключевые слова:** коррекционная педагогика, инклюзивное образование, Закон «Об образовании», «Образование для всех», игровая деятельность, пальчиковая гимнастика.

**Annotation:** The article talks about the essence of corrective work in children with developmental disabilities, the importance of game activities and finger exercises in the implementation of corrective work.

**Key words:** correctional pedagogy, inclusive education, Law "On Education", "Education for all", game activities, finger exercises.

XIX asming 20 yillaridan beri Defektologiya fani-jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar talim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fan sifatida o‘rganilib kelmoqda. Hozirgi kunda bu fan **“korreksion pedagogika”** deb ham yuritilmoqda. “Inson huquqlari” deklaratsiyasi, bolalar konvensiyasi talablaridan kelib chiqqan holda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni kamsitmaslik, xaqoratlamaslik uchun masalan, Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti “Korreksion pedogogika ilmiy tadqiqot instituti” deb nomlanmoqda. Defektologiya fani ko‘p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoqda. Korreksion pedagogika fanining predmeti - anomal bolalar, ya’ani jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar (yunoncha anomalos - odatdan tashqari), noraso degan ma’noni bildiruvchi so‘zi bilan yuritiladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda Korreksion pedagogika-alohida yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixo-fiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandır. Korreksion pedagogika so‘zi lotincha tuzatish—bartaraf etish, pedagogika — ta’lim-tarbiya, o‘rganish degan so‘zlardan olingan[6].

2001 yilda YUNESKO **“Ta’lim hamma uchun”** dasturini qabul qiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga a‘zo bo‘lgan barcha mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi ham, ushbu dasturga imzo chekkan. Dastur global, keng miqyosida “Ta’lim hamma uchun”(Obucheniye dlya vsex) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi. O‘zbekistonda “Ta’lim hamma uchun” milliy dasturi 2005 yili dekabr oyida qabul qilindi. Shu davrdan beri uni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv ta’lim haqidagi hujjatlar rasmiylashtirilmoqda, hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini o‘rganib chiqib, inklyuziv ta’limning ayrim turlarini joriy etmoqdalar [6].

O‘zbekiston Respublikasining qayta ko‘rib chiqilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim olishlari qayd etilgan [1].

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda korreksion ishlarni amalga oshirishda turli noan'anaviy o'yin usullaridan foydalanib, tashkil etilsa, yanada samara beradi. O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, balki uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri, tasavvurini nutq boyligini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin, uning xarakteriga, ishga, atrofdagi xayot ta'surotlarni tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi. Uning xulq-atvorini shakllantirib boradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta-sekin murakkablikka o'tish qoidalariga rioya etish talab etiladi. O'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyasidagi tutgan o'rni benihoya kattadir.

#### “ANTONIM SO‘ZLAR” O‘YINI

Bu o'yin katta va tayyorlov guruhlarda o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarai yordam beradi degan umiddamiz. O'yin individual, guruh bilan ham o'tkazilsa ham bo'ladi. O'yin sharti qo'yidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama-qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: *katta-kichik, issiq-sovuq, qattiqyumshoq, uzoq-yaqin* va xokazolar. Odatda bollar o'yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so'zga javoban, antonim emas sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng abstrakt tushunchalarni ham osonlik ilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga xarakter qiladilar. Masalan: *chaqqoon-yalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz* va xokazolar.

#### “AVVAL NIMA BO‘LGAN EDI” O‘YINI

Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: *jo'ja-tuxum, ot – toychoq, kapalak – qurt* kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: *non – un – bug'doy, uy – g'isht – loy, stol – yog'och – daraxt – urug', ko'ylak – mato – ip – paxta – chigit* tarzida o'yin davom etaveradi.

Bolaning qo'l panjasi va barmoqlarini harakatlantirish o'ziga xos rivojlantiruvchi ta'sirga ega. Mutaxassislar fikricha, qo'l va barmoqlar ishtirokidagi o'yinlar tana va ongning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Qo'lning oddiy harakatlari nafaqat qo'lning balki, lab, yuz mushaklari zo'riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishi ko'nikmalarning shakllanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi.



#### **Shilliq qurt**

Mittivoy shilliq qurtning,

O'sibdi shoxchalari.

Yurishni o'rgataman,

O'sganda oyoqchalari

*Barmoqlar musht qilib tugiladi. Ko'rsatkich barmoq va jimjiloq uzatilgan holda. “Shilliq qurt” sekin harakatlanib, mo'ylovlarini qimirlatib yuradi.*



#### **Uycha**

Biz quramiz

Baland uylar.

Unda bordir mo'ri,

Eshik va romlar.

*Kaftlar burchak ostida, barmoqlar uchi bir-biriga tegib turadi. O'ng qo'lning o'rta barmog'i yuqoriga tik ko'tarilgan (mo'ri).*

#### **Quyosh**

Erta tongda

Quyosh turib

Bolalarni erkalaydi,

Boshlarini silaydi.

*Bilaklar ichki tarafi bilan bir-biriga tekkiziladi.*

*Barmoqlar quyosh nurlari kabi keng yoyilgan holatda bo'ladi*  
[5]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda korreksion ishlarni amalga oshirishda o'yin faoliyatidan foydalanish ancha samaraliroqdir. Barmoq mashqlaridan foydalanish esa rivojlanishda orqada qolgan bolalarning mayda qo'l va senso motorikasini, aqliy qobiliyat va diqqatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda barmoq mashqlari kaft va barmoqlarda joylashgan nerv uchlarini qo'zg'atadi, retseptorlar faoliyatini kuchaytirib ular funksiyasini takomillashtiradi.



#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediyal O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlashriyoti Toshkent – 2007.
3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi| Ma'ruza matni .T-2001
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniyel xrestomatiya - Eksmo-Pressl, 2001.
5. S.Raximova. - Uslubiy ko'rsatma| Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda barmoq mashqlaridan foydalanish. S-2014
6. V.S.Raxmanova —Logopediyal Korreksion pedagogika va logopediya.T-2007

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UCHINCHI MING YILLIKDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI**

*O'zbekiston, NDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, dots. Shamsidinova G.D.*

*2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" mamlakatni haqiqiy mustaqil taraqqiyot yo'lidan olg'a boshlovchi muhim hujjat bo'lib, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni uzluksiz ravishda amalga oshirish uchun xizmat qiladi.*

Mirziyoyev Sh.M.

*Sayyorada murakkablashib kelayotgan ekologik vaziyat, butun insoniyat oldida tabiat, atrof - muhitni muhofaza qilish, tabiiy zahiralardan tejab-tergab, foydalanishni dolzarb muammoga aylantirib, mazkur muammolarning oldini olish va ularning keltirib chiqaruvchi omillarini aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf qilish duhyo tamaddunini halokatdan saqlab qolish mumkin. "Texnologiyalar ekologik samaradorligi"ning barcha ko'rinishlarida, qisqa va o'rta muddatli siyosiy o'yin sifatidagina tasavvur qilinadi. Buni pedagoglar ham tushunib yetishlari zarur".*

Ken Vebster.



**Annotatsiya:** Maqolada rivojlangan mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti natijasida erishilayotgan yuksak darajadagi texnologiyalar, ishlab-chiqarish sohasidagi mukammal muvaffaqiyatlarning amalga oshirilishi - jamiyatdagi ekologik muammolarning yechimi, tabiatni muhofaza qilish, barqaror taraqqiyot hamda biologik xilma-xillikni saqlash masalalariga bog'liq bo'layotganligi haqidagi masalalar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье освещаются вопросы о высоком уровне технологий, достигаемых в результате устойчивого развития развитых стран, о том, что реализация достижений в области производства являются решением экологических проблем в обществе, об охране природы, об устойчивом развитии и сохранении биоразнообразия.

**Annotation:** The article covers issues about the high level of technology being achieved as a result of the sustainable development of developed countries, about the implementation of achievements in the field of production being a solution to environmental problems in society, about the conservation of nature, and about sustainable development and the conservation of biodiversity.

**Kalit soʻzlar:** Tabiiy resurslar, ekologik muammolarni bartaraf etish, chiqindilar, mineral oʻgʻitlar solinishi, pestitsidlar, gerbitsidlar, biologik resurslarning ifloslanishi.

**Ключевые слова:** природные ресурсы, устранение экологических проблем, отходы, использование минеральных удобрений, пестициды, гербициды, загрязнение биологических ресурсов.

**Key words:** natural resources, elimination of environmental problems, waste, use of mineral fertilizers, pesticides, herbicides, pollution of biological resources.

Globalashuv jarayonlarida yer kurrasining kelajagi, insoniyatning taqdiri, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning tashkiliy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish va unga rioya qilishda inson mas'ulligini e'tirof etish davr talabi bo'lib, atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol qilish chiqindilaridan muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanib, qator mamlakatlarda chiqindilarni utilizatsiya qilish, kuydirish, poligonlarga ko'mish ishlari amalga oshiriladi.

Uchinchi mingyillikda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat va jamiyatdagi ekologik muammolarni bartaraf etish masalalari muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalardan hisoblanib, mavjud ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, vazirliklar, idoralar hamda davlat tomonidan qabul qilingan ilmiy, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha gigiyenik, milliy, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakat rejalarida o'z aksini topgan. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi bu borada tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va ishlab chiqarish jarayonida kam chiqindili texnologiyalarni qo'llash kabi ekologik siyosatni olib bormoqda. O'zbekistonda "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, har yili 100 mln.tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'lib, ularning 14 %i toksik toifaga mansubdir. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan chiqindilar hosil qiladigan korxonalar, zavod va fabrikalar, ishlab- chiqarish inshootlari ustidan davlat nazorati ishlari amalga oshirilmoqda.

Tabiatda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni bartaraf etish masalalari azaldan hammani qiziqtirib, sanoat va transportning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, aholining ko'payishi va urbanizatsiyasi, qishloq, xo'jalik ishlab chiqarishini kimyolashtirish, yerlarni betartib, rejasiz o'zlashtirish, suv zahiralardan bemalol xo'jasizlarcha foydalanish, bir tomondan respublika boyliklaridan ko'proq foydalanishga imkoniyat bersa, ikkinshi tomondan atrof-muhitga salbiy ta'sir etib, uning dastlabki tabiiy muvozanatini buzilishiga olib kelmoqda. Natijada hududning havosi va suvi ifloslanib, tuproq erroziyasi tezlashmoqda, o'simlik va hayvonlarning ba'zi turlari kamayib yoki yuqolib ketmoqda, tabiiy yodgorliklar shikastlanmoqda.

Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol qilish chiqindilaridan muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb bo'lib, energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanib, qator mamlakatlarda chiqindilarni utilizatsiya qilish, kuydirish, poligonlarga ko'mish ishlari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish tizimi va uning huquqiy asoslarini kafolatlovchi qonunlar va me'yorlar ham tubdan o'zgardi. 1995 yil 31 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi BMT ning Yer kurrasida cho'lga aylanish va qo'rg'oqchilikka qarshi kurashish Konvensiyasiga qo'shildi.

Respublikada sug'oriladigan yerlarning 50% dan ziyodroq qismi turli darajada sho'rlangan, 722 ming.ga yaqin maydonda irrigatsiya eroziyasi, 766 ming.ga yaqin maydonda defolyatsiya sodir bo'lmoqda. XX asrning 90 yillariga qadar paxta yakka hokimligi, tuproqqa ko'plab mineral o'g'itlar solinishi, pestitsidlar, gerbitsidlar, insektitsidlardan ortiqcha miqdorda foydalanish yerlarning unumsiz holga kelishini kuchaytirdi. Tuproqdagi foydali mikroorganizmlarning qirilib ketishi uni sturukturasini yo'qolishiga va chirindi (gumus) miqdorining kamayishiga olib kelib, mazkur holat paxta, sholi, don, yem-xashak ekinlaridan olinayotgan hosil miqdorining kamayishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida atrof-muhit muhofazasini tashkil etish Vazirlar Mahkamasi, Respublika va viloyatlardagi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitalari, Davlat boshqaruvining tegishli mahalliy organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining tabiat muhofazasini tashkil etishdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Respublikada tabiat muhofazasiga doir yagona davlat siyosatini yuritish;
- Hududlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish;
- Tabiiy resurslarni aniqlash, baholash va uning zahiralarni tasdiqlash;
- Ekologik jihatdan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

• Tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof-muhitni ifloslantirganlik, chiqindilar, zararli ta'sir etuvchi moddalarni joylashtirib tashlaganlik uchun haq to'lash tartibini meyyorga solish va chiqindilarni joylashtirish limitlarini belgilash;

- Ekologik ta'lim-tarbiya tizimini yaratish va uning amalga oshirilishini ta'minlash;

• Tabiatdan maxsus tartibda foydalaniladigan hududlarning chegaralarini va xo'jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash;

• Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Vazirlar mahkamasiga bo'ysunib, vazirliklar, Davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar tomonidan yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatadigan barcha tashkilotlar ustidan ish ko'ruvchi organ bo'lib, tabiatni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tarmoqlararo boshqaruv va davlat nazoratini amalga oshiradi. U o'z funksiyasini mahalliy boshqaruv organlariga bog'liq bo'lmagan holda bajaradi va tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish korxonalari holati va tabiiy resurslarni himoya qilish bo'yicha texnik va iqtisodiy masalalarni hal etishga ko'maklashadi.

Respublikada "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Yer osti boyliklari to'g'risida", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Dori vositalari va farmaseftika sanoati to'g'risida", "Yerkin iqtisodiy zonalar to'g'risida", "Veterinariya to'g'risida", "Seleksiya turlari to'g'risida", "Tabiiy boyliklar monopoliyalari to'g'risida", "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "O'simliklar karantini to'g'risida", "O'rug'chilik to'g'risida" kabi bir qancha

qonunlar qabul qilinganligi mazkur hududlarda tabiiy resurslarni ishlatishga nisbatan qat'iy nazorat o'rnatilganligidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatida atmosfera havosini, suv havzalarini, yer va yer osti boyliklarini muhofaza qilishga doimo birinchi darajali masala deb qaralib, Markaziy Osiyo mintaqasida murakkablashib ketgan ekologik vaziyat butun insoniyat oldiga tabiatni, atrof muhitni muhofaza qilishni, agar ana shu muammoni hal etishga zudlik bilan kirishilmasa, uning oqibatlarini o'ta dahshatli bo'lishi va hattoki dunyo tamadduni halok bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi masalani kundalang qilib quydi. Ekologik muammolarni hal qilishda yoshlarni ham jalb qilish maqsadida, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ekologik haftaliklar tashkil qilinsa, o'quvchilarning har biriga alohida vazifalar belgilansa, shuningdek vazifalarni kim qanday bajarayotgani haqida ma'lumot berib borilsa, yaxshi bajarganlar rag'batlantirilsa yosh avlodda ekologik tushunchalarni rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Davlatlararo ekologik kengashida faol qatnashib, hamdo'stlik mamlakatlari doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya davlatlari bilan ikki tomonlama bitimlar tuzilib, hozirda Respublikada quyidagi ekologik muammolarni bartaraf etishga doir ekologik harakatlar amalga oshirilmoqda:

- Orol bo'yidagi ekologik fojea holatini bartaraf etilishi;
- Yer, suv va biologik resurslarning turli chiqindilar bilan ifloslanishi natijasida buzilishi va mazkur resurslar va atmosfera havosiga transportning ta'siri;
- Tabiiy muhit holati, ifloslanish manbalari va tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish uchun, texnik va meteorologik imkoniyatlarning yetishmasligi;
- Atrof-muhit holatini analitik nazorat qilish uchun maxsus asbob-uskunalarini ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish;
- Tog'-konlarning chiqindilari: uran konlari, chegara hududlaridagi holati;
- Sanoat va maishiy chiqindilarini qayta ishlovchi va o'zlashtiruvchi tizimlarning zamonaviy komplekslarini yaratish;
- Atrof-muhit va uning ifloslanish manbalari va tabiiy resurslardan foydalanish holati bo'yicha yetarli ekologik ma'lumotlar tizimining tartibga solinishi.

Respublikada Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan Ekologik siyosatni, ya'ni atrof muhit holatini yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan atrof muhitni muhofazasi, gigiyenik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng muhim vazifasi aholi sonini o'sishi, shaharlarning transport orqali yuk tashishi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda atrof muhit muhofazasini muammolarini hal etish ya'ni tabiiy resurslarni qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish masalalari negizida - tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan kam chiqitli texnologiyalardan foydalanish kabi ekologik siyosatni qo'llashni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'z.R.Prezidenti Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiysidagi nutqini o'rganish bo'yicha risola. T. "Ma'naviyat" 2017 y. 183 b.
2. BMT Asosiy omillar. Toshkent, 2001 yil.
3. Shamsidnova G.D. "Barqaror taraqqiyot ta'limi va ekologik muammolar", Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik, Toshkent 2023 yil, bet
4. Shamsidnova G.D. va boshqalar. "Ekologiya va atrof -muhitni muhofaza qilish", Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik, Toshkent 2021 yil, 635 bet.

## INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARI

O'zbekiston, MTTDMQTMOI  
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti v.b., PhD.  
Arslanova Madinaxon Mansurovna

**Annotatsiya:** Yurtimizda inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonlarida soha uchun yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta'lim muassasalarida faoliyat olib boradigan bo'lajak oligofrenopedagoglar uchun kommunikativ kompetensiyalarni mustahkam egallanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, oligofrenopedagog, oliy ta'lim, maxsus pedagogika, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv.

**Аннотация:** В процессах внедрения инклюзивного образования в нашей стране особое внимание уделяется вопросу подготовки высококвалифицированных педагогических кадров для данной сферы. Для будущих олигофренопедагогов, работающих в инклюзивных образовательных учреждениях, большое значение имеет прочное приобретение коммуникативных компетенций.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, олигофренопедагог, высшее образование, специальная педагогика, компетенция, компетентностный подход.

**Abstract:** In the processes of introducing inclusive education in our country, special attention is paid to the issue of training highly qualified teaching staff for this field. For future mental health teachers working in inclusive educational institutions, the solid acquisition of communicative competencies is of great importance.

**Key words:** Inclusive education, mental retardation teacher, higher education, special pedagogy, competence, competency-based approach.

Inklyuziv ta'lim uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini samarali hal etish mazkur ta'lim shaklini joriy etish bilan bog'liq eng dolzarb vazifalardan birini tashkil etadi. Buni bugungi kunga qadar inklyuziv ta'limni joriy etgan barcha xorijiy davlatlar misolida ko'rish mumkin.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etishga nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, balki, istiqbolda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun barcha sohalarida teng imkoniyatlar yaratiladigan inklyuziv jamiyatning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaralmoqda.

2022 yildan boshlab, O'zbekistondagi 225 ta ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun eshiklar ochilgan ekan, "Biz butun mamlakat bo'ylab inklyuziv ta'lim yo'lidagi bu ilg'or qadamni olqishlaymiz. Dalillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun foydali bo'lib, ta'lim natijalarini yaxshilashda katta imkoniyatlarni taqdim etadi", degan edi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade.

Bunday sharoitda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyida inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalar sirasida o'zining alohida pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlovchi oligofrenopedagoglarning kommunikativ kompetensiyalari haqida so'z boradi.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyo miqyosida pedagogika nazariyasi va amaliyotida ham kasbiy tayyorgarlikka nisbatan kopetensiyaviy yondashuv yetakchilik qilmoqda. "Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy talablarni ang'lay olish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi" [2].

O‘z navbatida inklyuziv ta‘lim ham pedagoglardan o‘ziga xos kasbiy kompetensiyalar, ya‘ni inklyuziv ta‘lim kompetensiyalarini talab etadi. Inklyuziv ta‘lim kompetensiyalari umumpedagogik va maxsus kompetensiyalardan bevosita ta‘lim maqsadi va tashkil etish shakliga ko‘ra, ya‘ni sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng ta‘lim imkoniyatlarini yaratish hamda ma‘lum guruh yoki ta‘lim muassasasida ularning o‘zaro uyg‘unlikdagi ta‘limi tashkil etishga qaratilganligi bilan farqlanadi.

Garchi pedagogika yoki maxsus pedagogikada inklyuziv ta‘lim kompetensiyalari haqida bahs-munozaralar qizg‘in davom etayotgan bo‘lsada, hali ularning umumiy tasnifi, mazmuni yoki ta‘rifi bo‘yicha yagona to‘xtamga yoki talqinga kelinganligi yo‘q. Ya‘ni, bevosita inklyuziv ta‘lim jarayonida pedagoglar to‘qnash kelayotgan muammolarni yechish borasidagi nazariy qarashlar va fikrlar, xuddi inklyuziv ta‘limning o‘zi kabi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda.

Inklyuziv ta‘limning taniqli nazariyotchilardan biri V.V. Xitryuk [4] bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv ta‘limga tayyorligini konstruktiv, tashkiliy, refleksiv, kommunikativ tarkibiy qismlar, shuningdek, pedagogning ijtimoiy-shaxsiy va boshqa kasbiy kompetensiyalarini egallashda, deb biladi.

Kommunikativ kompetensiyalar tushunchasiga nisbatan ham turli yondashuvlar mavjuddir. Masalan, til o‘qitish nuqtai nazaridan u lingvistik (til), nutq (sosiolingvistik), diskursiv, strategik, ijtimoiy, sosiomadaniy, predmet va kasbiy kompetensiyalarni o‘z ichiga olsa [1], boshlang‘ich ta‘lim nuqtai nazaridan pedagogning kommunikativ kompetensiyalari o‘qituvchining muloqot jarayonida qadriyatlarga asoslangan munosabatini ta‘minlaydigan integrativ shaxsiy sifatlari jamlanmasi hamda ma‘lumot uzatish, almashish, munosabatlar va aloqalar o‘rnatish, vaziyatni boshqarish maqsadidagi ongli, samarali ijtimoiy ta‘sir uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari yig‘indisidir [3].

Oligofrenopedagoglarning inklyuziv ta‘lim sharoitidagi kommunikativ kompetensiyalari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarini ilmiy va hamma uchun tushunarli usullarda bayon qila olishi;
- aqli zaif bola bilan muloqotning barcha verbal va noverbal usullarini egallagan bo‘lishi;
- muloqot jarayonida bolalar tengligini hurmat qilish, ular bilan har qanday vaziyatda ham samimiy til topa olishi;
- ota-onalar bilan muloqotda ularda bola shaxsi va inklyuziv ta‘limga nisbatan hurmat va ijobiy munosabatlarni shakllantira olishi;
- jamoadagi boshqa hamkasblar bilan iliq munosabatlarda bo‘lish hamda muloqot orqali umumjamoa kayfiyatini mustahkamlashga hissa qo‘shish;
- muloqot madaniyati bilan jamoada, ayniqsa, bolalar jamoasida samimiy va o‘zaro hurmat, ko‘mak va g‘amxo‘rlik muhitini mustahkamlash;
- muloqot jarayonida bolalarni ularga tushunarli usullarda erkin shaxsiy rivojlanishga motivasiyalash, o‘z-o‘ziga hurmat va ishonchni shakllantira olish va boshqalar.

Ma‘lumki, kommunikativ kompetensiyalar bo‘lajak mutaxassislarda asosan oliy yoki undan keyingi ta‘lim jarayonida shakllantiriladi va rivojlantirib boriladi. Shu boisdan, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining maxsus ta‘lim fakultetlari va kafedralarida ta‘lim jarayonini tashkil etishda bo‘lajak oligofrenopedagolarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha alohida dasturlar va loyihalar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Литвинко Ф.М. Коммуникативная компетенция как методическая понятие. Коммуникативная компетенция: принципы, методы, приемы формирования: сб. науч. ст. / Белорус.гос.ун-т; в авт. ред. – Мн., 2009. – Вып. 9. – 102 с.
2. Рахимов З.Т. Педагогик kompetentlik ta‘lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida // Современное образование. 2019. №7 (80). 4-b.
3. Ротова Н.А. Коммуникативная компетенция педагога начального общего образования в процессе повышения квалификации // Современная педагогика. 2014. № 7

## **“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA “NUTQ VA TIL” RIVOJLANISH MARKAZIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMYI FAOLIYATNI TASHKIL ETISH**

**O‘zbekiston, MTTDMQTMOI Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti  
Fayzullayeva Malika Zakirovna  
O‘zbekiston, MTTDMQTMOI Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti  
Rustamova Movlyuda Erkinovna**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishi, rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga yordam berishi haqida yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье комплексная образовательная деятельность, проводимая в центрах развития на основе государственной учебной программы “Ilk qadam”, служит сознательному и эффективному освоению детей, центры развития помогают ребенку развиваться во всех сферах, таких как эмоциональная, физическое, социальное и интеллектуальное.

**Abstract:** In this article, the integrated educational activities carried out in the development centers based on the “Ilk qadam” state curriculum serve to consciously and effectively master the children, the development centers help the child to develop in all areas, such as emotional, physical, social and intellectual. explained about.

**Kalit so‘zlar:** rivojlanish markazi, rivojlanish sohalari, ta’limiy faoliyat, integratsiya, hissiy, jismoniy, ijtimoiy, intellektual, qobiliyati

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi.

Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qayerda shug‘ullanishni xohlayotgan bo‘lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo‘lgan materiallar bolalarga predmetlarni o‘rganish, turli o‘yinli vaziyatlarda o‘z g‘oyalarini yaratish va tekshirish, o‘rganish yordamida o‘z savollariga javoblarni topishga imkon beradi.

Rivojlanish markazlarida bolalar integrativ shaklda ta’lim oladi, ya’ni har bir rivojlanish muhiti boshqa rivojlanish muhiti bilan uzviy bog‘liqlik asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ta’lim jarayoni uzviy bog‘langan va integrallashgan bo‘lishi kerak.

Guruhlarda rivojlanish markazlarida bolaga o‘z tanlovini mustaqil amalga oshirishni ta’minlaydigan vaziyat yaratiladi. Har bir guruhning xonasi bir necha markazlarga bo‘lingan va ularning har birida o‘rganish va o‘ynash uchun yetarlicha materiallar mavjud. Ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, uning qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, tajribasi hisobga olinadi, bu bolani “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini o‘zlashtirishdagi maqsadlarga erishishida yordam beradi.

Rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, “Nutq va til” markazida bolalar o‘yin davomida muloqot qilib, ona tilida so‘zlashadilar, shunda nutqning moslashuvchanligini oshiradilar, so‘z zaxirasini ko‘paytiradilar, yangi tushunchalarni o‘zlashtiradilar, bolalar mazmunli rasmlar orqali hikoyalar tuzadilar, o‘qilgan badiiy asar yuzasidan savol-javoblarda qatnashadilar, nutq o‘stirish bo‘yicha ta’limiy o‘yinlar o‘ynaydilar.

Markazda bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olish, mavzu asosida hikoyalar tuzish, guruh muhokamasida muloqotga kirishish va tinglab ishtirok etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko'pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo'qola boshlaydi. Guruh muhokamasida muloqotga kirishish bolaning tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo'lish, do'stlariga yordam berish, kelishib o'ynash, o'rtoqlariga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalashdi.

Bu markazda harfli kubiklar (suratli alfavit: kiril, lotin), magnit doska, ko'rgazmali va tarqatma qurollar (turli mavzudagi), uy-ro'zg'or buyumlarning to'plami (kiyim, idish-tovoq, mebel, o'yinchoqlar). Ijodiy hikoya tuzish uchun plakatlar: "Mening shahrim", "Bizning oila", "Kuz", "Yo'l harakati qoidalari", "Qish", "Qishgi o'yinlar", "Uyimizga qorbobo keldi!", "Guruhimizdagi jonli burchak", "Men qushlarni ovqatlantirdim", "Men qish bayramini qanday o'tkazdim?", "Bahor keldi", "Onamlarning bayrami", "Navro'z bayramini qanday o'tkazdim?", "Koinot", "Yoz fasli", "Metroda", "Sirkda", "Dam olish kuni", "Gulzordagi gullarni qanday parvarish qildik?", "Yoqtirgan o'yinchog'im", "Yoqtirgan o'yinlarim", "Eng yaqin o'rtog'im", "Dadamlarga yordam berdim", "Zo'r multfilm ko'rdim", "Qo'g'irchoq teatriga bordik", "Men onamga yordamchi", "Men dadamga yordamchi", kattalar mehnati, bayramlar, buyuk siymolar, qadimgi shaharlar: Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, O'zbekiston hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlarga taaluqli mazmunli plakatlar qo'yiladi.

Maktabga tayyorlov guruhida "Nutq va til" markazi bolaga jismoniy, ijtimoiy- hissiy va intellektual kabi barcha sohalarida rivojlanishiga yordam beradi.

#### **Jismoniy rivojlanish quyidagilar tufayli amalga oshadi:**

Mayda motorikani rivojlantirish;

Ko'rish va qo'l harakatlari koordinatsiyasi bo'yicha tajribasini orttirish.

#### **Ijtimoiy rivojlanish quyidagilar tufayli amalga oshadi:**

Bolalarga erkin va mustaqil bo'lishni amalga oshirishlarida yordam berish;

Boshqa bolalar bilan hamkorlik yuritish va navbatma-navbat harakat qilish imkoni;

Bolalarda buyumlar but saqlanishi uchun javobgarlik hissini rag'batlantirish.

#### **Hissiy rivojlanish quyidagilar tufayli amalga oshadi:**

Topshiriqni bajarishda sabr-toqatli, qat'iyatli bo'lish, o'yinlarni tashkillashtirish, faoliyatlarda mustaqil harakat qilish, o'ziga nisbatan samimiy va nosamimiy munosabatlarni anglash, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qarash.

#### **Nutq, muloqot, yiqish va yozish malakalarining rivojlanishi quyidagilar tufayli amalga oshadi:**

Bolalarning so'z zaxirasini oshirish;

Badiiy asarni, xususan ertaklarni qayta hikoya qilish;

Rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzish;

Sodda va murakkab gaplarni nutqida qyllash;

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzish; qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozish;

qo'lni uzmasdan nuqta- chiziqchalarni birlashtirib rasm chizish;

#### **Intellektual rivojlanish quyidagilar tufayli amalga oshadi:**

So'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega bo'ladi;

Rasmlar bo'yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi;

Tasviriy va ijodiy hikoya tuzishda voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi;

Predmetlar, o'yinchoqlarni tasvirlashda ichki va tashqi belgilarga ko'ra predmetlarni guruhlariga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, vazifasiga qarab).

**"Nutq va til" markazi uchun ta'limiy faoliyat ishlanmasi**

#### **Maktabga tayyorlov guruh uchun**

**Oy: Mart**

**Mavzu: Go'zal bahor**

**2-hafta. Mavsumiy o'zgarishlar.**

**Mavzu: "Bahor keldi" jamoa hayotidan hikoya tuzish.**

## **Maqsad:**

“**Nutq va til**”: bola kattalarga murojaat qiladi, rasmda ko‘rgan narsasi haqida so‘zlaydi, berilgan savollarga tortinmasdan javob beradi, muloqot davrida faollik bildiradi.

Bolada bahar keldi mavzusidagi *tarbiyachining savollari bo‘yicha yoki suratlariga qarab* mazmuni so‘zlab berish malakasi rivojlanadi. So‘zlayotganlarida so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalarini shakllanadi.

Bolalarda bahar fasli tabiat hodisalarni o‘zgarishini ifodali hikoya qilish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma‘noli jumlar tuzish malakasini shakllantirish.

So‘zlayotganda so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zlashuv va hikoya qilib berish nutqini shakllantirish, bahor fasli haqida shaxsiy tajribalari asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya tuzish layoqatini rivojlantirish.

### **Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.**

Navro‘z bayrami udumlari, urf-odatlar haqida tushunchalarini rivojlantirish. Kishilar Navro‘z bayramiga atab qariyalarga sovg‘alar tayyorlashishi, bemorlarni ko‘rib ulardan xabar olishi, qariyalarga yalpiz, binafsha, boychechak kabi gullar olib borishi, natijada kishilar orasida mehr-oqibat oshishi haqida tushuncha berish.

### **Intellektual-bilish malakalari.**

Bolalarning bahor faslidagi tabiat hodisalari haqida, bahor faslida qush va hayvonlar hayoti haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** “Bahor keldi” nomli surat

### **Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatning borishi**

Tarbiyachi bolalarga bahar fasli tabiat hodisalarni o‘zgarishi, o‘simlik, daraxtlar, qushlar, hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

1. “Bahor keldi” mavzusidagi suratni ko‘rib chiqish.

2. “Bahor keldi” ijodiy hikoya tuzish. (Tarbiyachi bolalarga ijodiy hikoya tuzish yengilroq bo‘lish uchun sxema chizib ko‘rsatadi. Bolalar sxemaga asoslanib hikoya tuzadilar. 1-sxema: quyosh, qorning erishi; 2-sxema: boychechak; 3-sxema: yashil barglari bo‘lgan daraxtlar va butalar; 4-sxema: bahorda uchib keluvchi qushlar; 5-sxema: hashoratlar; 6-sxema: kiyimlar. Bolalar nima uchun aynan shu narsalar, tabiat hodisalari, qushlar va hayvonlar mnemonik jadvalda tasvirlanganligi haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Sxema bo‘yicha bolalar tomonidan hikoyalar tuziladi.

3. Hikoya asosida savol- javob o‘tkazish.

4. “Bahor keldi” ta’limiy o‘yin

5. Jismoniy daqiqa

6. Bolalarning ijodiy hikoyalarini muhokama qilish va rag‘batlantirish

**Qo‘shimcha qism:** “Bahor” mavzusida she‘rlar aytish.

**Alohida e’tibor qaratiladi:** Bolalarni hikoya voqyealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilishga e’tibor qaratish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.

2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi /**takomillashtirilgan ikkinchi nashr**/. Toshkent, 2020 y.

3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A. “O‘yin orqali ta’lim olish” Toshkent, 2020 y.

4. Groshyeva I.V., Olimov Q.T., Nazarova V.A., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A. “Kuzatish va baholash” T., 2020.



## ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA ONA TILI TA'LIMI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*O'zbekiston, Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti v.b (PhD)  
Qurbonova Oysha Beknazarovna*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy yondashuvlar asosida ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirish talabalarning nutqiy kompetensiyalarini dars jarayonida rivojlantirish, ona tili o'qitish ta'lim mazmunini singdirish, o'quv dasturida belgilangan talablarni bajarish, davlat tilida ish yuritish hujjatlarini mustaqil tuzishni o'rgatish, shuningdek, ularning o'zbek adabiy til me'yorlari asosida fikrlash, nutqiy birliklar va zamonaviy yondashuvlarini o'stinish yuzasidan respublikamiz va xorijiy olimlarning fikr- mulohazalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim mazmuni, ona tili ta'lim mazmuni, uning tarkibiy qismlari zamonaviy yondashuvlar, nutqiy kompetensiya, ona tili o'qitishning maqsad, vazifalari, davlat tilida ish yuritish, lingvistik kompetensiya, nutqiy faoliyat, og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, nutqiy birliklar, rasmiy matn ustida ishlash, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini o'quv dasturida belgilangan talablar asosida rivojlantirib kasbiy faoliyatga yo'naltirish va ularning zamonaviy yondashuvlarini rivojlantirish professor- o'qituvchilar oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Ularning mustaqil va erkin fikr, munosabat bildirishlari, muloqot jarayonida, yozma nutq ifodasida suhbat mavzusiga mos leksik tushunchalarni o'rinli qo'llashlari hamda ilmiy salohiyatini takomillashtirishda ona tili ta'lim mazmuni muhim ahamiyatga ega. Ta'lim mazmunini rivojlantirish masalalari qator tilshunos va metodist olimlar tomonidan tadqiq qilingan. "Ta'lim mazmuni – yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir"<sup>1</sup>. Ta'lim mazmuni talabalarni zaruriy axborotlarni o'rganishga, tafakkur, muloqot qilish qobiliyatlarini, nutqiy bilimlarini oshirishga undaydi. A.G'ulomov, H.Ne'matovlar "Ona tili ta'limi mazmuni"<sup>2</sup> metodik qo'llanmalarida ta'lim mazmunining to'rtta tarkibiy qismi yuzasidan nazariy ma'lumot keltirilgan: a) o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi; b) ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi; d) ijodiy faoliyat usullari; e) o'quvchi ~ o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi. Bizningcha, ta'lim mazmunining tarkibiy qismlariga nutqiy kompetensiya elementlarini kompleks tarzidagi rivojlantirishni ham kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. "Demak, ona tili ta'limi mazmuni ona tili ta'limi usuli, vositalari, ta'lim natijasini o'z ichiga oladi. U—ona tili ta'limi maqsadining yoyilmasi; ona tili ta'limi material, usuli va vositalari, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro munosabatlarining oldindan loyihalashtirilgan modeli hisoblanadi"<sup>3</sup>. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova va boshqalar tomonidan tuzilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida "O'quv imkoniyatining ichki asoslariga o'quvchilardagi nutq malakalarining shakllanganlik darajasi, fikrlash va esda saqlab qolish, tafakkur usullarini bilishi va uni zarur o'rinlarda to'g'ri ishga sola olishi, tez o'qish va yozish malakalarining mavjudligi til materiallarini o'rganishga munosabati kabilar, tashqi omillarga ona tili ta'limining mazmuni, o'quvchilarning til muhiti, ularga qo'yilgan yagona imloviy va nutqiy talab, o'qituvchining nutqi, moddiy texnikaviy ta'minotlarni kiritish mumkinligi ifoda qilingan"<sup>4</sup>.

Shu xususda B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Ona tili o'qitish mazmuni – fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash,

<sup>1</sup> Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. –85-6.

<sup>2</sup> Гуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 5-8- б.

<sup>3</sup> Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / .Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 104 b

<sup>4</sup> G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M.va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: "Fan va texnologiya", 2012.- 59b

fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi." **Talaba-ta'lim-o'qituvchi**" sistemasi yangilangan ta'lim mazmunida yetakchi omildir<sup>5</sup>. Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqini og'zaki va yozma shaklda rivojlantirish uzluksiz ravishda rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Mazkur darsdan ko'zlangan asosiy maqsad ularning nutqiy faoliyatini o'stirish, so'z zahirasini kengaytirishga oid mashq va topshiriqlar ustida muntazam ishlash ularning kommunikativ, informativ, kompetensiyaviy, integrativ yondashuvlarini takomillashtiradi. "Modomiki, ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarni fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish ekan, demak, o'quv topshirishlari bevosita amaliy maqsadlarga, ya'ni o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga bo'ysundirilishi kerak. O'quvchilarning so'z zahirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirish, gaplarni kengaytirish va toraytirish, gap mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish, ayni bir voqea, hodisa yoki ishlab chiqarish jarayonining ham oddiy, ham badiiy, ham ilmiy tasvirini bera olish; ko'rgan, kuzatgan, o'qigan, eshitgan voqea, hodisalarini bayon qilishga qaratilgan o'quv topshiriqlari nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar sirasiga kiradi"<sup>6</sup>, - deb e'tirof etadi.

Metodist olimi D.N. Yuldasheva D.N. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida)" darsligining O'zbek (ona tili) tili ta'limining umumiy asoslari deb nomlangan 2- bo'limining Ona tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar qismida "Bugungi kunda ona tili ta'limida uch xil yondashuv (bixevioristik yondashuv, integrativ yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuv)dan foydalanilmoqda. Mazkur yondashuvlar mohiyatan bir-birini to'ldirib boradi va o'qituvchi dars davomida ulardan vaziyat talab qilgan holatni inobatga olib foydalanmog'i zarur.

1. Bixevioristik yondashuv.

2. Integrativ yondashuv.

3. Kompetensiyaviy yondashuv"<sup>7</sup>. Bu yondashuvlar ona tili ta'limi mazmuni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi ahamiyatliki, mazkur yondashuvlar mutanosiblikda rivojlantirib borilishi talabalarning og'zaki va yozma monologik nutqini, informativ, aksiologik bilimlarini amaliy idodalashini mustahkamlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / .Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.

2. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.дисс. –Т.:2000.

3. Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. .

4. То'хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –Т.: 2006.-192b

5. Фуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995. .

6. Gulomov A, Qodirov M., Ernazarova M va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.-Т.: "Fan va texnologiya", 2012.

<sup>5</sup> То'хлиев В., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –Т.: 2006.-192b

<sup>6</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.дисс. –Т.:2000. -16 б.

<sup>7</sup> Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / .Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 191 b

## ULUG'BEK HAMDAM SHE'RIYATIDA TAKROR VA UNING LISONIY TAHLILI

O'zbekiston, Angren Universiteti  
Babaxanov Lazixon Abdullaxanovich

Takror - she'riy matn yaratishning universal mexanizmlaridan biri sanaladi. Olimlar amaldagi til tizimining vazifaviy hodisalaridan biri bo'lgan takrori ekspressiv-stilistik va grammatik vosita; til me'yorlarining buzilishi, tuzilmani mustahkamlash, yangilash va uyg'unlashtirish usuli, matnning mazmun kategoriyasi sifatida o'rganadilar.

Ma'lumki, takrorning o'ziga xosligi matnning turli segmentlarida bir xil lingvistik birliklarning takroriy qo'llanishidir. She'riy matnlarda takror eng ko'p qo'llanuvchi usul sanaladi. Unda takrorning: tovush takrori, so'z takrori, anafora, epifora, misra takrori, band takrori ko'rinishlari uchrashi mumkin va aytish mumkinki, takror shoir she'riy matn paradigmasining semantik-sintaktik tarkibiy qismlaridan biri sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ulug'bek Hamdam she'riyatida ham takror qo'llanilgan birliklarning muhim o'rni bor. Jumladan, uning sheriyaatidagi fonetik takrori obrazli, ifodali, qofiya va ritm yasovchi vosita sifatida tavsiflash mumkin.

Tahlil qilinayotgan matnlarda tovush takrorining eng keng tarqalgan turlari alliteratsiya va assonansdir. Alliteratsiya yordamida shoir ma'lum bir "musiqiy" fon yaratadi. Musiqadan farqli o'laroq, she'riyat sof tovush foniga emas, semantik fonga ega bo'ladi. Shuning uchun she'riyatdagi alliteratsiya butun she'rning semantik to'qimasini sezilarli darajada boyitishga yordam beradi: undagi so'zlar kabi tovushlar ham ahamiyatli bo'lib qoladi. She'riyatda alliteratsiyaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. Ma'lumki, she'riy matndagi bir xil unli tovushlar takrori vokal alliteratsiya, undosh tovushlar takrori konsonans alliteratsiyani yuzaga chiqaradi. Masalan, ushbu she'riy matnlarda konsonans alliteratsiya:

*Qo'llarni qo'ydilar qo'llarga* ("Qor yog'arkan");

*Sevgi nima, zamondosh?*

*Sevgi – sovuq hisoblar.*

*Hisobni hech sevmayman!*

*Unda senga itoblar!* ("Sevgi nima?")

Quyidagi she'riy matnda esa vokal alliteratsiya:

*Holim yomon, dardim yomon, borim yomon,*

*Goha shunday qiladurg'on zorim yomon.* ("O'zim yomon") ko'rinishlari namoyon bo'lgan.

Mazkur she'riy misralarda fonetik takror so'zlar atrofida o'ziga xos assotsiatsiv maydon hosil qilgan va bu usul o'ziga xos musiqiy fon yaratib, turli xil kayfiyatni (xushchachaqlik, tushkunlik, g'am) ifodalaydi.

Ma'lumki, she'riyatning majburiy atributlaridan biri bo'lgan qofiya ham fonetik takrorga mansub. Sheriy matnning turli satrlarida bir xil takrorlangan tovushlar majmuasi nafaqat nutqning intonatsion bo'linishini his qilish, balki sherning semantik o'zagini tushunishga yordam beradi.

Ulug'bek Hamdam she'riyatida qofiyalarning turli xil ko'rinishlarini kuzatish mumkin: aniq qofiyalar (urg'udan keyingi barcha tovushlar), to'liq va to'liqsiz qofiya; unlilar ohangdoshligigagina asoslangan assonans va undosh tovushlar ohangdoshligigagina asoslangan dissonans qofiyalar va hok. mavjud. Masalan, hozirgi o'zbek she'riyatida qofiyadagi tovushlarning qay darajada mosligi jihatidan och (to'liqsiz) va to'q (to'liq) qofiyalar ajratiladi. To'liq qofiyada qofiyadosh so'zlar tarkibidagi tovushlarning katta qismi to'la mos:

*O'lsam, elim ardoqlarmikan?*

*Yurak-bag'rin bir dog'larmikan?*

*Shoirim deb to'kib qatra yosh,*

*Har bahor bir so'roqlarmikan?*

to'liqsiz qofiyalarda tovushlarning ayrimlarigina mos:

*Baxtsiz bo'lsang, kel qoshimga tez*

*Yuragimga birrov boq qiyo:*

*Mendek baxtsiz yonida shaksiz,*

*Baxtli bo'lib qolgaysan illo.*

Shuningdek, takrorning anafora (misralar boshida bitta so'zning takrorlanishi) bilan, epifora (misralar oxirida bitta so'zning takrorlanishi) kabi ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, U.Hamdami mazkur usulning har ikkalasini bitta to'rtlikda jamlab takrorning go'zal ko'rinishini namoyon etadi:

*Shoir bo'lib tug'ilgan edi,*

*Shoir bo'lib yashadi shoir.*

*Biroq hasad boshini yedi –*

*Tildan qolib qaqshadi shoir!*

Shoir she'rlarida so'z birikmasi takrori orqali ma'noni kuchaytirish, yangilash uchun ham murojaat qiladi:

*Hali ham u yerda yam-yashil olam,*

*Hali ham u yerda rang-rang xayol.*

*Hali ham u yerda azizdir odam,*

*Hali ham u yerda muqaddas ayol! (“Hali ham u yerda”)*

She'riy misralarda aynan bir so'zni emas, balki ma'noni kuchaytirib takrorlashga asoslangan usul gradatsiya deb yuritiladi. Masalan, mazkur she'riy matnda ma'noning kuchaytirilgan takrori kuzatiladi:

*Uyimdan chiqaman har kuni, har tong,*

*Boshimda mingta o'y, dilda ming istak.*

*Ammo bilmoq qayda: qay biri, qay on*

*Meni baxtli etar yo aylar halak?.. (“Hayot sahnasida”)*

Ko'rinadiki, U.Hamdami she'riyatida takrorning turli ko'rinishlari, tilning turli vazifalarini namoyon etish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga shoir mahorati she'riy nutqning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ РЕЗЕРВОВ ДЫХАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ЛЕГКОАТЛЕТОВ

PhD.доцент. Л.Н.Шахриiddинова

Наваинский государственный педагогический институт

Факультет Физическая культура

Кафедра «Методики преподавания спорта»

**Аннотация:** Статья посвящена исследованию функционального состояния дыхательной системы спортсменов-инвалидов, занимающихся легкой атлетикой.

**Ключевые слова:** Спортсмены-инвалиды, паралимпийский спорт, адаптивный спорт, легкая атлетика, функциональные резервы, дыхательная система.

В последнее десятилетие лица с ограниченными возможностями здоровья тренируются и выступают в разных видах спорта, среди которых для лиц с последствиями детского церебрального паралича (ДЦП) одно из ведущих мест в нашей стране занимает легкая атлетика [1]. Адаптационно-оздоровительная направленность и ориентирование на формирование межличностных коммуникаций являются одной из отличительных особенностей легкой атлетики. Эти факторы, кроме прочего, оказывают выраженное положительное влияние на психофизическое развитие инвалидов [2].

Многие исследователи подчеркивают, что занятия легкой атлетикой положительно влияют на функциональное состояние респираторной системы здоровых людей. Систематические тренировочные нагрузки в этом виде спорта вызывают определенные адаптационные изменения в дыхательной системе, в частности, выявлено увеличение числа и объема активных альвеол в легких, повышение тонуса дыхательной мускулатуры и способности организма усваивать кислород.

Наряду с этим, до настоящего времени недостаточно изученным остается вопрос о влиянии спортивных нагрузок на дыхательную систему спортсменов-инвалидов. Особенность данного контингента спортсменов заключается в том, что у них постоянно и, как правило, максимально задействованы механизмы, обеспечивающие компенсацию утраченной функции, что является неизбежным фактором напряжения системы адаптации. Кроме того, физические и психические нагрузки «Сверх нормы» при занятиях спортом могут быть дополнительным фактором стресса, который отрицательно влияет на состояние нервной системы спортсмена с ограниченными возможностями здоровья и, как прямое следствие этого, на регуляцию функций кардиореспираторной системы [3].

Для объективной оценки функционального состояния аппарата внешнего дыхания в настоящее время используются методы спирографии, позволяющие с высокой точностью измерять основные статические и динамические параметры дыхания. Однако сопоставление полученных показателей между собой и объективная оценка по ним резервных возможностей внешнего дыхания представляют трудности не только для тренеров и спортсменов, но нередко и для врачей, работающих в области адаптивного спорта [4]. Необходимость изучения влияния спорта на состояние органов дыхания спортсменов-инвалидов и выявления у них функциональных резервов дыхательной системы обусловила актуальность исследования.

При изучении анамнеза и амбулаторных карт обследуемых легкоатлетов было установлено, что у 8 спортсменов с ограниченными возможностями здоровья отмечался гемипарез (у 5 – правосторонняя и у 3 – левосторонняя форма), в 4 случаях выявлен тетрапарез и у 5 спортсменов – нижний парапарез.

Согласно спортивной классификации по легкой атлетике еждународного паралимпийского комитета (IPC Athletics Classification Rules and Regulations), спортсменам присвоены следующие спортивные классы (по типам поражения): T35 – у 2 спортсменов, T36 – у 5 спортсменов, T37 – у 6 спортсменов и T38 – у 4 спортсменов.

Заболеваний органов дыхания выявлено не было. Жалоб на какие-либо нарушения функции дыхания спортсмены-инвалиды не предъявляли. При клиническом исследовании респираторной системы патологических изменений не наблюдалось, однако у 6 легкоатлетов при аускультации лёгких регистрировалось ослабленное везикулярное дыхание.

При спирографии были определены показатели, характеризующие уровни резервных возможностей дыхательной системы в соответствии с рассмотренными критериями.

Для изучения резервов мощности аппарата внешнего дыхания использовались показатели: жизненная емкость легких, исследуемая на вдохе (ЖЕЛвд), резервный объем вдоха (Ровд) и индекс силы дыхательной мускулатуры (ИСДМ = ЖЕЛвд / ЖЕЛвыд).

Согласно полученным результатам (табл.1), средний показатель фактической ЖЕЛвд у спортсменов-инвалидов оказался достоверно ниже должной величины, а процентное соотношение фактической и должной величин соответствовало нижней границе нормы для здоровых людей. Вероятно, это является следствием общего функционального перенапряжения организма при ДЦП. Чем более выраженной была степень поражения при ДЦП, тем величина фактической ЖЕЛвд была ниже. В том числе у 4 спортсменов-инвалидов фактическая ЖЕЛвд была в 1,8 раза ниже должных величин. Статистически подтверждалась сильная отрицательная корреляция этих показателей ( $r=-0,80$ ).

Полученные показатели Ровд можно объяснить адаптационными изменениями системы дыхания, связанными с систематическими тренировочными нагрузками.

Значение зарегистрированного у спортсменов-инвалидов ИСДМ приближалось к 1,0. Это является свидетельством равной силы мускулатуры вдоха и мускулатуры выдоха. Такой же результат характерен для здоровых, но нетренированных лиц. У обследованных лиц наблюдалась умеренная отрицательная корреляция между степенью тяжести ДЦП и ИСДМ ( $r=-0,47$ ). Это также говорит о том, что чем лучше состояние здоровья спортсмена-инвалида, тем больше сила мускулатуры вдоха.

В целом результаты исследования данных показателей позволили оценить резервы мощности спортсменов-инвалидов как «Ниже среднего». При этом, чем тяжелее было течение основного заболевания, тем ниже были резервы мощности дыхательной системы, что подтверждалось средней отрицательной корреляцией этих показателей ( $r=-0,66$ ).

Таблица 1

Оценка уровня резервов мощности аппарата внешнего дыхания легкоатлетов с ДЦП ( $X\pm m$ ), достоверность отличий при  $P<0,05$

Показатели	Значения		
	Должные	Фактические	Соотношение фактических и должных величин (%)
ЖЕЛВд, л	5,18±0,08	4,12±0,28	79,4±5,02
РОВд, л	2,46±0,04	2,37±0,38	99,8±14,63
ИСДМ	1,04±0,06		
Уровень резервов мощности	Ниже среднего		

Оценка резервов мобилизации аппарата внешнего дыхания спортсменов-инвалидов проводилась по показателю максимальной вентиляции легких (МВЛ), который характеризует потенциальную физическую работоспособность дыхательной системы.

При анализе полученных результатов было выявлено, что фактическая МВЛ спортсменов-инвалидов достоверно ниже должной, а усреднённое процентное соотношение этих показателей находилось на нижней границе нормы для здоровых людей. Вероятно, это обусловлено постоянным включением в работу организма спортсмена-инвалида компенсаторных механизмов, что приводит к дальнейшему напряжению функциональных систем, работающих на предельных возможностях. Вместе с тем было выявлено, что чем выше степень тяжести ДЦП у легкоатлетов, тем ниже величина МВЛ и уровень резервов мобилизации ( $r=-0,62$ ).

Фактические ЖЕЛВд и МВЛ спортсменов-инвалидов не коррелировали спортивным стажем ( $r=0,08$ ). Следовательно, уровень мастерства спортсмена-инвалида в определенной мере зависит от функционального состояния дыхательной системы. Это опосредованно связано с тем, что именно сердечнососудистая и дыхательная системы в значительной степени ограничивают физическую работоспособность во многих видах спорта и, в частности, в легкой атлетике.

Резервы экономичности аппарата внешнего дыхания спортсменов-инвалидов исследовали по дыхательному объему (ДО) и частоте дыхания (ЧД) в состоянии физиологического покоя. Дыхательный объем и частота дыхания у обследованных легкоатлетов в большинстве наблюдений укладываются в диапазон этих величин для здоровых людей.

Причем ДО находится на верхней границе нормы, что можно объяснить тренированностью легкоатлета, поскольку известно явление экономичного углубления дыхания на фоне снижения его частоты у спортсменов в состоянии физиологического покоя. Однако ЧД у обследованных инвалидов всё же оставалась на верхней границе нормы, что в данном случае является признаком недостаточно экономичного дыхания и, возможно, связано с напряжением компенсаторных механизмов. В целом по результатам исследования уровень резервов экономичности спортсменов-инвалидов оценивался как «Средний».

При выявлении корреляционной зависимости общий уровень функциональных резервов респираторной системы находился в среднем отрицательном корреляционном отношении со степенью тяжести заболевания, которое послужило причиной инвалидности ( $r=-0,56$ ).

Таким образом, наши исследования показывают, что систематические профессиональные занятия легкой атлетикой улучшают функциональное состояние

дыхательной системы, делая ее работу более экономичной в состоянии покоя. Тем не менее, в связи с основным заболеванием и постоянным напряжением компенсаторных механизмов организма спортсмена с ДЦП общие резервы аппарата внешнего дыхания, особенно резервы мощности и мобилизации, остаются сниженными. Поэтому к данному контингенту спортсменов необходимо подходить индивидуально, с осторожностью относительно использования в тренировочном процессе чрезмерных физических нагрузок, осуществлять постоянный контроль функций кардиореспираторной системы, а также широко применять комплекс восстанавливающих процедур при выявлении состояний перенапряжения и переутомления.

### **Выводы**

1. Для объективной оценки функционального состояния аппарата внешнего дыхания легкоатлетов с ДЦП весьма информативен метод спирографии, результаты которой анализировать с применением критериев резервных возможностей респираторной системы.
2. Установлено, что уровень резервов мощности, мобилизации аппарата внешнего дыхания и общий уровень резервных возможностей дыхательной системы спортсменов-инвалидов с ДЦП ниже среднего, а уровень резервов экономичности – средний.
3. Полученные в исследовании результаты необходимо учитывать при врачебно-педагогическом наблюдении врачам по спортивной медицине и тренерам при построении тренировочного процесса легкоатлетов с ДЦП.

### **Список литературы**

1. Парастаев С.А., Поляев Б.А., Чоговадзе А. В. Некоторые проблемы медицинского обеспечения паралимпийского спорта // Спортивная медицина. – 2005. – №1. – с.20-25.
2. Спортивная медицина: национальное руководство // Под. ред. акад. Миронова С. П., проф. Поляева Б. А., проф. Макаровой Г. А. – М.: ГЭОТАР-Медиа. – 2012. – С.160-174, 404-418.
3. Caroll K. L., Leiser J., Paisley T. S. Cerebral palsy: physical activity and sport // Curr Sports Med Rep. – 2006. – 5(6)/ - P. 1534-322.
4. Palisano R. J., Copeland W. P. Performance of physical activities by adolescents with cerebral palsy // Phys Ther. – 2007. – 87(1). – P.77-87.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

*O‘zbekiston, NavDPI, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”  
(Maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti  
Shodiyeva Barchinoy Xudoyqulovna  
O‘zbekiston, NavDPI, Ilmiy Rahbar: DSc R.H.Davlatova*

**Annotatsiya:** maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik tamoillari va asoslari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha yosh, bola, nutq, psixik shakllanish, aqliy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, muloqot, rivojlanish.

**Аннотация:** представлена информация о педагогико-психологических принципах и основах развития речевой компетентности детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, ребенок, речь, психическое формирование, умственная подготовка, физическое воспитание, общение, развитие.

**Annotation:** information is provided on the pedagogical and psychological principles and foundations of the development of speech competence of preschool children.

**Key words:** preschool age, child, speech, mental formation, mental training, physical training, communication, development.

Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bola

sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishni taʼminlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam taʼlim olishga tayyorlaydi.

Taʼlim tizimidagi islohotlar va davlat tili toʻgʻrisidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini oʻstirish metodikasi va amaliyotida oʻzgarishlar boʻlishini taqozo etadi. Bu oʻzgarishlar meʼyoriy oʻquv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada oʻz aksini topgan. Lekin, ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshmoq talab etiladi. Metodist olimlarning koʻpchiligi bolalar bogʻchalarida bolalarning nutqini oʻstirish shartlarini toʻgʻri taʼkidlaydilar. Mazkur mualliflarning fikricha, nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qoʻrs, odamovi, quntsiz boʻlib qoladi. Bundan tashqari, bunday bolada tevarak-atrofni oʻrganishga boʻlgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarni oʻzlashtira olmaslikka sabab boʻladi.<sup>8</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuvlar mavjud

- tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi);

- aniq talaffuz hosil qilish (soʻz va soʻz birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish);

- soʻzni talaffuz qilganda urgʻuni toʻgʻri qoʻyish ustida ishlash;

- nutqning orfoepik jihatdan toʻgʻriligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);

- nutq surʼatini rivojlantirish;

- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, yaʼni nutqning ongli ifodalanishi);

- nutqiy aloqa koʻnikmalarini tarbiyalash;

- nutqiy eshitish koʻnikmalarini shakllantirish;

- nutqʼiy nafas olishni shakllantirish;

- oʻz fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda tarbiyachi va ota-onalarning roli benihoya kattadir. Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida:

- tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala boʻlishlariga;

- tabiiy ohangda gapirishlariga;

- soʻzlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga;

- qoʻllarini bamaylixotir holatda tutib turishiga eʼtibor bermoq zarur<sup>9</sup>

Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida oʻrin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qoʻyadi. Bolalarda nutq rivojlanishini ragʻbatlantiruvchi yoki unga toʻsqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni koʻzlagan holda pedagogik taʼsir koʻrsatishni tashkil etish kalitidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- ❖ nutqni oʻstirish va rivojlantirish – bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy oʻrin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani oʻzlashtirishining murakkab, koʻp omilli jarayonidir;

- ❖ nutqni oʻstirish va rivojlantirish – bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas;

- ❖ bola nutqni oʻstirish va rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, oʻziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning oʻziga xosliklarini koʻra olishi va bolaning individualligini

<sup>8</sup> F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni oʻzbekcha soʻzlashishga oʻrgatish. T., “Oʻqituvchi” 1993.

<sup>9</sup> F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqlol”, 2006.



hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim<sup>10</sup>

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning so'z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur. Bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun:

1. nutq o'stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish;

2. bolalarning eslab qolishi va to'g'ri talaffuz etishi, so'zlashganda tez-tez foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo'lgan so'zlarning taxminiy ro'yxatini tuzish lozim.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug'atini boyitishda ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, tadqiqotchi A.M.Borodich shunday deb yozadi: «Bolalarni borliq bilan tanishtirishning ikkita yo'li bor»:

1. hissiy organlar bilan tashqi olamni bevosita idrok etish - bolalar predmetlarni kuzatadilar, ushlab ko'radilar, eshitadilar, tatib ko'radilar, u bilan harakat qiladilar;

2. bolalar tevarak-atrofdagilar haqida bevosita ma'lumot oladilar; tarbiyachi mehnat kishilari to'g'risida, tabiat bilan bog'liq hayot haqida gapirib beradi, bolalar kuzatgan hodisalarni tushuntiradi, kitob o'qib beradi, rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar namoyish etadi.<sup>11</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya'ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dasturi materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.<sup>12</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutq inson dunyoni anglashi uchun berilgan asosiy visitadir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Bola nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.

<sup>10</sup> Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).

<sup>11</sup> Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.

<sup>12</sup> Sharipova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ifodali nutqning ijtimoiy-pedagogik funksiyalari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

2. Nizomova, Shoxista. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush tizimini shakllantirish." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993.
4. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
5. Sharipova M. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 32. – №. 32.

## **PEDAGOGIK AKMEOLOGIYANING HOZIRGI KUNDAGI RIVOJLANISHI VA UNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**

*Navoiy davlat pedagogika instituti Dotsenti S.Sayidov  
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti G.O.Bahriddinova*

**Annotatsiya:** Pedagogik akmeologiya, o'qitishning nazariy va amaliy jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda, pedagogik akmeologiya o'quv jarayonlarini va ta'lim usullarini o'rganishning eng zamonaviy va ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Bu soha, o'quvchilarning o'rganishini oshirish, o'qitish usullarini yanada mukammallashtirish va ta'limning natijalarini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'z:** O'qitish psixologiyasi, O'qitish jarayonlari, Ta'lim texnologiyalari, Innovatsiyalar va yangiliklar, o'qitishning sifati va samaradorligi, ma'naviyatshunoslik.

**Аннотация:** Педагогическая акмеология занимается изучением и анализом теоретических и практических процессов обучения. В настоящее время педагогическая акмеология развивается как одно из самых современных и научных направлений изучения образовательных процессов и методов обучения. Эта область имеет большое значение для улучшения обучения учащихся, совершенствования методов преподавания и улучшения результатов обучения.

**Ключевые слова:** Психология преподавания, Процесс обучения, Образовательные технологии, Инновации и инновации, Качество и эффективность преподавания, Духовная наука.

**Abstract:** Pedagogical acmeology deals with the study and analysis of theoretical and practical processes of teaching. Nowadays, pedagogical acmeology is developing as one of the most modern and scientific areas of studying educational processes and educational methods. This area is of great importance in enhancing student learning, improving teaching methods, and improving educational outcomes.

**Keyword:** Teaching psychology, Teaching processes, Educational technologies, Innovations and innovations, Quality and efficiency of teaching, Spiritual science.

Pedagogik akmeologiya, o'qituvchilarning ta'lim va o'qitish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish va ularni mukammalroq qilishga yo'naltirish bilan shug'ullanadi. Ushbu so'z esa "o'qitish fanlarini tadqiq qilish" ma'nolarini ifodalaydi. Pedagogik akmeologiya hozirgi kunda rivojlanmoqda va bu soha bir nechta asosiy yo'nalishlarda o'rganilmoqda:

1. Tadqiqot va ilmiy muammolarni yechish: Pedagogik akmeologiya, ta'lim jarayonlarini tahlil qilish, o'rganishning eng yaxshi usullarini aniqlash va o'quvchilar va o'qituvchilar uchun eng muhim muammolarni hal qilishda ilmiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

2. O'qitish va ta'lim texnologiyalari: Texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari sohasidagi rivojlanish, pedagogik akmeologiyani ham yangi texnologiyalarni o'qitish jarayonlarida qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha o'rganish va rivojlanishga olib kelmoqda.

3. Psixologiya va ma'naviyatshunoslik: O'qitish jarayonlarida psixologik o'tishlar va ma'naviyatshunoslikning o'rnini o'rganish va aniqlash, o'qituvchilar va o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifat bilan bag'ri bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

4. O'qituvchilar tayyorgarligi: O'qitishning sifatini oshirish va o'qituvchilar tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar va darsliklar tayyorlash, o'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

5. Innovatsiyalar va yangiliklar: Pedagogik akmeologiya, ta'lim usullarini va dasturlarini yangilashda innovatsiyalarni ta'limning har bir bosqichiga qo'llashni o'rganadi va ularga e'tibor beradi.

Pedagogik akmeologiya, boshqa fanlar bilan ham aloqalidir. Masalan, ildizlararasida o'qitish texnologiyalari, kognitiv psixologiya, axborotshunoslik, ma'rifatshunoslik, va boshqalar bilan integratsiya qilinadi. Bu, ta'limning keng doiradagi yo'nalishlari va fanning multidisiplinar jihatlarini o'rganishda o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Pedagogik akmeologiya, o'qitishning nazariy va amaliy jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda, pedagogik akmeologiya o'quv jarayonlarini va ta'lim usullarini o'rganishning eng zamonaviy va ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Bu soha, o'quvchilarning o'rganishini oshirish, o'qitish usullarini yanada mukammallashtirish va ta'limning natijalarini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik akmeologiya, ta'limning mohiyatini, o'qitishning psixologik va ma'naviy jarayonlarini o'rganish, ta'limning samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni qo'llash va ta'limning o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan tushunilishini oshirishga qaratilgan. Ushbu soha, yangi texnologiyalardan foydalanish, ma'naviy-ma'rifat bilan bag'ri bog'liqlikni kuchaytirish, ta'limni individual va guruh o'qitish usullariga moslashtirish va ta'limning qiziqarli va oson bo'lishini ta'minlashga yo'naltiriladi. Pedagogik akmeologiya fanlar tizimida o'z o'rnini o'zlashtiradi, chunki u o'qitish, ta'lim usullari, psixologiya, axborotshunoslik, ma'naviyatshunoslik, va boshqa ko'plab fanlar bilan integratsiya qilinadi. Bu esa, pedagogik akmeologiya o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini tahlil qilishda, o'qitish jarayonlarini mukammallashtirishda va o'quvchilar va o'qituvchilarning rivojlanishini ta'minlashda ahamiyatga ega bo'lishini anglatadi.

Pedagogik akmeologiya, ta'lim va o'qitish sohasidagi ilmiy tadqiqot va tajribalar asosida o'qitish jarayonlarini tahlil qilish, o'rganishning eng yaxshi usullarini aniqlash, o'qituvchilar va o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Hozirgi kunda, pedagogik akmeologiya, ta'lim tizimini yanada mukammalroq qilish, o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini kuchaytirish, o'qituvchilar tayyorgarligini oshirish va ta'limning eng yaxshi natijalarini ko'rishga qaratilgan. Pedagogik akmeologiya fanlar tizimi ichida quyidagi yo'nalishlar katta ahamiyatga ega:

1. O'qitish psixologiyasi: O'qitish jarayonlarini tahlil qilish, o'quvchilar psixologiyasini tushunish, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'rganish hamda ta'limning ma'naviy-ma'rifat aspektlarini tahlil qilish.

2. Ta'lim texnologiyalari: Texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari sohasidagi yangiliklarni o'qitish va ta'lim jarayonlariga qo'llash, onlayn ta'lim platformalarini va dasturlarini ishlatish bilan shug'ullanadi.

3. Innovatsiyalar va yangiliklar: Ta'limning eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, yangi ta'lim usullarini o'rganish va amalga oshirishda innovatsiyalarni qo'llashga asoslangan.

4. O'qitishning sifati va samaradorligi: O'qitish jarayonlarini sifatini oshirish, ta'lim natijalarini oshirish, ta'lim usullarini yanada mukammallashtirishga yo'naltiriladi.

5. Ma'naviyatshunoslik: O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifat munosabatlarini oshirish, ta'limning ma'naviy qismini tahlil qilish va uni kuchaytirish.

Bu yo'nalishlar pedagogik akmeologiyani hozirgi kunda rivojlanayotgan fanlar tizimi ichida eng muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Bu soha, ta'limning eng yaxshi natijalarini ko'rish va ta'lim tizimini yanada mukammalroq qilishga yo'naltirilgan. Akmeologiya atamasi 1928-yilda rossiyalik psixolog NA. Ribnikov tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan. Inson ontogenezidan keyingi bosqichlarida rivojlanib boradigan, yetuklik bosqichigacha shakllanadigan, individual shaxsiy va subyektiv taraqqiyotida ko'tarilib boradigan cho'qqini ilmiy

maktabning bu namoyondalari ko‘pincha kulminatsiya yoki optimum deb ataydilar. Insoniyat tarixida fan, madaniyat rivojlanishida tub o‘zgarish istagan

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.librarygenesis.com](http://www.librarygenesis.com).
2. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ik86uP8AAAAJ&citation\\_for\\_view=Ik86uP8AAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ik86uP8AAAAJ&citation_for_view=Ik86uP8AAAAJ:u5HHmVD_uO8C)

### BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA MA‘NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

*O‘zbekiston, O‘zbekiston-FinlandiyaPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti  
Abdumannotov Abdumajit Matayevich  
O‘zbekiston, O‘zbekiston-FinlandiyaPI 2-bosqich magistranti  
Jabbarova Munira Saparboy qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni va metodi, bo‘ljak tarbiyachilarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning ijtimoiy zarurati, omillari, pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘ljak, tarbiyachi, rivojlantirish, ijtimoiy zarurat, oliy, pedagog, shart, sharoit.

**Abstract:** This article describes the content and method of spiritual and moral education, the social necessity, factors, and pedagogical conditions for the development of spiritual and moral qualities in future teachers.

**Key words:** future, educator, development, social need, higher, pedagogue, condition, conditions.

**Аннотация:** В данной статье описаны содержание и метод духовно-нравственного воспитания, социальная необходимость, факторы и педагогические условия развития духовно-нравственных качеств у будущих учителей.

**Ключевые слова:** будущее, педагог, развитие, социальная потребность, высшая школа, педагог, состояние, условия.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrda Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining kengaytirilgan majlisida “Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”-mavzusidagi ma‘ruzasida “ Ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma‘naviyat biz uchun ustivor masaladir”,- deb alohida ta’kidladi [1].

Bugungi glaballashuv sharoitida g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyor bo‘lishimiz, bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘lishini davlatimiz rahbari e’tirof etdi.

A.E.Yusupovning fikricha “Xalqi ma‘naviy jihatdan qashshoq bo‘lgan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo‘lsa ham, hech qachon buyuk davlat bo‘la olmaydi. Bu fikrlar to‘g‘riligi ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining har qadamida to‘la isbotlandi. Shu sababli hozirgi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar, mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tib olgan yosh davlatlar jamiyat a’zolarining ma‘naviy kamoloti masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqda. Bu ayrim davlatlarning vaqtinchalik siyosati emas, balki jahon taraqqiyotining asosiy yo‘lidir [2].

Azaldan ma‘naviyatga ta’sir etish, turlicha maqsadlarga erishish, rejalarni amalga oshirishning asosiy omili sifatida qaralgan. Insonning ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir sharoitda ma‘naviyat uchun kurashish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Amaliyot jarayoni shuni ko‘rsatadiki ma‘naviyati kuchli bo‘lgan yigit-qizlar kuchli harakterga ega, yuksak qudrat sohibi sifatida ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasida ularni ma‘naviyatli, ma‘rifatli bo‘lishiga e’tibor qaratilmoqda. Boshqacha aytganda jamiyat davlat oldiga ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog‘lom shaxsni

shakllantirish, jahon andozalariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish vazifalari qo'yilmoqda.

2019-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu Qonunchilikda yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaning baholashning ilmiy asoslangan indekatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlab, voyaga yetgunga qadar davom etadigan uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish;
- bola tarbiyasida ilmiy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, zarur darsliklar yaratish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarni ham bilim va malakalarini muntazam oshirib borish.

Mazkur Konsepsiya to'rt bosqichda amalga oshirilishi belgilab berilgan. Jumladan, to'rtinchi bosqichdagi ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan shuningdek, o'rta professional, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlar qamrab olindi",-deb ko'rsatilgan [3].

Shuningdek "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning beshinchi yo'nalishi ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish nazarda tutilgan[4].

Mamlakatimizda ta'limning dastlabki bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Respublika bo'yicha maktabgacha ta'limga qamrov darajasi 74 foizni tashkil etmoqda. Yaqin vaqtlar ichida bu ko'rsatgich yuz foizga etishi ko'zda tutilgan. Maktabgacha ta'limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda malakali kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi asosiy vazifalardan biri oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachi (pedagog)larda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ham davlat rahbarimizning qarorlarida ta'kidlangan, uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyaning natijadorligiga erishish, takomillashtirish, ularni mustaqil hayotga, Vatanga sadoqat, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mehnatsevarlik, kabi tayanch kompetensiyalar ko'zda tutilgan.

Bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishni takomillashtirish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilsa;
- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning ilmiy, tarixiy, diniy manbalardagi holati tahlil qilinsa;
- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda mutaxassislar fikrining o'rni;
- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning rivojlanganlik darajasi tahlil qilinsa;
- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyaviy tadbirlar vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilsa;
- bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga oid o'quv uslubiy qo'llanmalar chop etilsa, bo'lajak tarbiyachilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 22- dekabrda Respublika Ma'naviy va ma'rifiy Kengashining kengaytirilgan majlisidagi "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi shart" mavzusidagi ma'ruzasi/Yangi O'zbekiston gazetasi m-267(1056) 2023 yil 23- dekabr, shanba.

3. Yusupov Erkin. Inson kamolotining ma'naviy asoslari T: "Universitet", 1998, 165-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy-tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi m-1059-son qarori.

4. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son Farmoni

5. Ibragimov X.Quronov M. “Umumiy pedagogika T.: “Sehhot”, 2023, 418-b.

## **B2 DARAJASIDAGI NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARINING STRATEGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR TIZIMINDAN FOYDALANISH**

*O‘zbekiston, O‘zDJTU Ingliz tili integrallashgan  
kursi № 1 kafedrası dotsenti, pedagogika  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Gulyamova Mavluda Xamitovna  
[mavludagulyamova82@mail.ru](mailto:mavludagulyamova82@mail.ru)*

*O‘zbekiston, NDPI Ingliz tili va adabiyoti doktoranti  
Hodiyeva Yulduz Yunusovna  
[hodiyeva14@gmail.com](mailto:hodiyeva14@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada B2 darajasidagi talabalar uchun strategiyani ishlab chiqishning mohiyati, ahamiyati, usullari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Unga ko‘ra til o‘rganishda strategik kompetensiya bosqichlarini ishlab chiqish, uzoq va yaqin davr uchun tilni muvaffaqiyatli o‘rganish borasida rejalar belgilab olish va ularni bosqichma- bosqich amalga oshirishda ta’lim beruvchilar uchun kerakli talab va takliflar keltirilgan. Bugungi rivojlanish juda jadal bir davrda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab undanda yuqori bo‘lganligi boisdan har qanday chet tilini o‘rganish uchun juda qat’iy va ishonchli rejalar talab qilinadi bu esa strategiya asosida belgilanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi va murabbiylardan ogohlikni oshirish, model strategiyalari ishlab chiqish, o‘z-o‘zini mulohaza qilishni rag‘batlantirish, amaliyot uchun imkoniyatlar yaratish, fikr-mulohaza erkinligini ta’minlash, oddiydan murakkabga qarab harakatlanish, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish, ta’lim uslublarini aniqlash, aniq maqsadlar qo‘yish, turli manbalardan foydalanish, muntazam ravishda mashq qilish, shaxsiy o‘sislarini kuzatib borish, til almashish dasturlarida ishtirok etish, fikr-mulohazalarni izlash, ochiq fikrli bo‘lish kabi bir qator tavsiyalar ko‘rsatib o‘tilgan.

**Abstract.** This article analyzes the essence, importance, methods and technologies of strategy development for B2 level students. According to it, necessary requirements and suggestions for educators are presented for developing strategic competence stages in language learning, setting plans for successful language learning for the long and near term, and implementing them step by step. Due to the fact that the demand for learning foreign languages is even higher in today's fast-paced development period, very strict and reliable plans are required for learning any foreign language, which is determined on the basis of strategy. In this process, teachers and coaches are asked to follow a number of recommendations such as: raise awareness, develop model strategies, encourage self-reflection, create opportunities for practice, provide freedom of opinion, move from simple to complex, support to create a supportive learning environment, identify learning styles, set clear goals, use a variety of resources, exercise regularly, monitor personal growth, participate in language exchange programs, seek feedback, be open-minded.

**Kalit so‘zlar:** B2 darajasi, strategiya, kompetensiya, metodologiya, kommunikativ, model, texnologiya, konsepsiya, tamoyil, kontekst, mentalitet, madaniyatlararo muloqot.

**Ключевые слова:** уровень B2, стратегия, компетентность, методология, коммуникативная модель, технология, концепция, принцип, контекст, менталитет, межкультурная коммуникация.

**Keywords:** B2 level, strategy, competence, methodology, communicative, model, technology, concept, principle, context, mentality, intercultural communication.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda metodika, til o‘rganish ko‘nikmalari sohasida ham tiklanish, yangilanish va takomillashuv jarayonlari ro‘y bermoqda. Ma’lumki, ilmiy ijodda ma’lum bir yo‘nalishning paydo bo‘lishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, lekin har qanday tamoyilning paydo bo‘lishi o‘z tarixi, ko‘lami, ko‘lami va istiqboliga ega. Til o‘rganish ko‘nikmasining usul va tamoyillarining paydo bo‘lishi ilmiy tafakkurning o‘zgarishi jarayonida boshlanadi. Albatta, yangicha fikrlashning natijasi yangicha qarashning yaratilishidir. Hozirgi zamon fanlarini o‘rganishda usul va uslubning rivojlanish jarayoni, uning ifoda uslubi, o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Xususan, uslub va faoliyatni yaratish omillari, fanning ilmiy xususiyatlari va ijodkorlik masalalariga muhim hodisa sifatida yondashilmoqda.

Shuningdek, u ta’limning amaliy ahamiyatini, uning shaxsiy faoliyat yo‘nalishini kuchaytirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning maqsadli tizimini kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati chet tilini o‘rganuvchilarning ijodiy va intellektual faoliyatini faollashtirish, ingliz tilini o‘qitishning yuqori sifatli mazmunini yaratishdan iborat. Strategik yondashuvning asosini tashkil etuvchi barcha chora-tadbirlar chet tilini o‘rganuvchilarning shaxsiy faollik xususiyatiga ega bo‘lgan ingliz tilini o‘zlashtirishda strategik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, chet tilini o‘rganuvchilarning malakasini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish va faollashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda kompetensiyaga asoslangan yondashuv oliy ta’lim tizimida prinsipial ahamiyatga ega hisoblanib, faol muhokama qilinmoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitishda B2 darajasidagi o‘quvchilarning strategik kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati tadqiqot ishining dolzarbligini ifodalaydi. Strategik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida zarurligi haqidagi umumiy nuqtai nazarga qaramay, "strategik kompetensiya" ning umume'tirof etilgan tushunchasiga nisbatan noaniqlik hali ham mavjud. Biroq, ushbu vakolat chet tilining kommunikativ faoliyatidagi muammolarni hal qilishning maqbul usullarini izlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, ushbu konsepsiyaning mazmuni bo‘yicha muhokamalar bir necha o‘n yillar davomida olib borilmoqda. Olimlar strategik kompetensiya doirasi haqida turli fikrlarni bildiradilar. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda talabalar suhbatdosh, shu jumladan chet ellik ma’ruzachi bilan muloqotda strategik kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi haqidagi g‘oya yaxshi aniqlanmagan. Ushbu kompetensiya og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalar yordamida har xil turdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini ta'minlaydi, shuning uchun strategik kompetensiyani kommunikativlikni belgilaydigan kommunikativ kompetensiyaning alohida komponenti sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir.

### **Strategik kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- til shaxsning strategiyalari majmuasi (kommunikativ qobiliyat, tilni o‘rganish qobiliyati);
- turli omillarning murakkab majmui bilan belgilanadigan ulardan foydalanish qobiliyati, masalan, milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlari, uning boshlang‘ich (chet tilini o‘rganish boshida) strategik kompetensiyasi, o‘zbek va xorijiy til xususiyatlari. tillar, ularning amaliy va nazariy bilim darajasi, muloqot tajribasi, xorijiy mamlakatlarga borish tajribasi, til o‘rganish g‘oyalari, milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlari, nutqiy xulq-atvor madaniyati, boshlang‘ich kompetensiyalarga kiritilgan strategiyalarning asosiy toifalari.

Strategik kompetensiyani rivojlantirish B2 darajasidagi talabalar uchun turli akademik va ijtimoiy vaziyatlarda harakat qilishlari uchun muhimdir. B2 darajasidagi talabalar uchun strategik kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun ba’zi tavsiyalar:

### **O‘qituvchilar uchun:**

**Ogohligni oshirish:** Talabalaringizni strategik kompetensiya nima va nima uchun muhimligi haqida xabardorligini oshirishdan boshlang. Til strategiyalaridan turli vaziyatlar va kontekstlarda foydalana olishning afzalliklarini tushuntiring.

**Model strategiyalari:** Talabalariniz uchun turli til strategiyalarini modellang va ulardan qanday va qachon foydalanishni tushuntiring. Misol uchun, siz taqdimotni tashkil qilish uchun nutq belgilaridan qanday foydalanishni yoki noaniqlikni ifodalash uchun himoya tilidan qanday foydalanishni ko'rsatishingiz mumkin.

**O'z-o'zini mulohaza qilishni rag'batlantiring:** Talabalarinizni o'z tillaridan foydalanish haqida fikr yuritishga va samaraliroq muloqot qilish uchun strategiyalardan foydalanishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlashga undash. Bu ularga metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga va tildan foydalanishda yanada strategik bo'lishga yordam beradi.

**Amaliyot uchun imkoniyatlar yarating:** Talabalarinizga turli kontekstlarda til strategiyalaridan foydalanish uchun ko'p imkoniyatlar bering. Bunga rolli o'yinlar, bahslar, taqdimotlar yoki yozish vazifalari kiradi.

**Fikr-mulohaza erkinligi:** Talabalarinizning tildan foydalanishi va strategiyalari haqida fikr-mulohazalarinizni bildiring, ularning kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni ko'rsating. Bu ularga o'z tillarini qo'llashdan xabardor bo'lishga va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

**Oddiydan murakkabga:** (Iskala) Talabalarinizning til strategiyalaridan foydalanishini asta-sekin oshiring, asosiy strategiyalardan boshlab va asta-sekin murakkabroq strategiyalarni joriy qiling. Bu ularga vaqt o'tishi bilan o'ziga bo'lgan ishonch va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yarating:** O'quvchilaringiz xavf-xatar va xatoga yo'l qo'yadigan o'zlarini qulay his qiladigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yarating. Bu ularning strategik vakolatlarini yanada samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Strategik kompetentsiyani rivojlantirish B2 darajasidagi talabalar uchun foydaliroq va samaraliroq til o'rganuvchilar bo'lishlari uchun zarurdir. Talabalar uchun strategik kompetentsiyani rivojlantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalarimiz:

**Ta'lim uslubingizni aniqlang:** Talabalar turli xil o'rganish uslublariga ega va qaysi o'rganish uslubi sizga mos kelishini aniqlash muhim. Ba'zi talabalar vizual o'rganuvchilardir, boshqalari esa eshitish yoki kinesetik o'rganuvchilardir. Ta'lim uslubingizni tushunib, siz o'zingizning afzalliklaringizga mos keladigan o'rganish strategiyalarini ishlab chiqishingiz mumkin.

**Aniq maqsadlar qo'ying:** Aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yish sizga erishmoqchi bo'lgan narsaga e'tiboringizni qaratishga yordam beradi va sizga yo'nalish hissi beradi. Maqsadlaringiz qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin va ular aniq, o'lchanadigan, erishish mumkin, tegishli va vaqt bilan bog'liq (SMART) bo'lishi kerak.

**Turli manbalardan foydalaning:** Tilni o'rganish va mashq qilish uchun turli manbalardan foydalaning. Bu resurslarga darsliklar, onlayn materiallar, til almashish dasturlari, til o'rganish uchun ilovalar, podkastlar va videolar kiradi. Turli manbalardan foydalanish til va o'rganishning turli usullari haqida kengroq tushunchani rivojlantirishga yordam beradi.

**Muntazam ravishda mashq qiling:** Til o'rganish izchil va muntazam amaliyotni talab qiladi. Tilni mashq qilish uchun har kuni yoki haftada bir oz vaqt ajratishga harakat qiling. Bu o'qish, yozish, gapirish yoki tinglash faoliyati orqali bo'lishi mumkin.

**O'sishingizni kuzatib boring:** O'sishingizni muntazam kuzatib boring va o'rganish strategiyalarinizni baholang. Bu sizga o'rganish strategiyangizni yaxshilash va mos ravishda moslashtirish kerak bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi.

**Til almashish dasturlarida ishtirok eting:** Til almashinuv dasturlari ona tilida so'zlashuvchilar bilan til ko'nikmalarinizni mashq qilishda yordam beradi. Bu nutq va tinglash ko'nikmalarinizni yaxshilash, til madaniyatini o'rganish va madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin.

**Fikr-mulohazalarni izlang:** o'qituvchilaringiz, tengdoshlaringiz yoki til almashish bo'yicha hamkorlaringizdan fikr-mulohazalarni izlang. Fikr-mulohaza sizning kuchli va zaif tomonlaringizni aniqlashga yordam beradi va til ko'nikmalarinizni qanday yaxshilash bo'yicha g'oyalarni beradi.



**Ochiq fikrli bo'ling:** ochiq fikrli va yangi narsalarni sinab ko'rishga tayyor bo'ling. Til o'rganish qiyin bo'lishi mumkin, ammo ijobiy munosabatni saqlab qolish va yangi g'oyalar va yondashuvlarga ochiq bo'lish jarayonni yanada qiziqarli va samaraliroq qilishi mumkin.

Ushbu tavsiyalarga amal qilgan holda, o'qituvchilar B2 darajasidagi talabalariga turli akademik va ijtimoiy vaziyatlarda yanada samarali muloqot qilish imkonini beradigan strategik kompetentsiyani rivojlantirishlari mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdilkadimovna, K. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF GENDER RELATED WORDS IN ENGLISH LANGUAGE. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(2), 179 -182. 2.

2. Bashman, L. (1990), Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press.

3. Kizi, S. G. N., & Tolibovna, S. A. (2022). Semantic features and new methods of non-standard English. Ta'lim fidoylari, 24(17), 2-272.

4. London, Penguin. Sanale, M. (1983). From communicative competence to communicative language pedagogy. In J. S. Richards and R.W. Schmidt (eds.), Language and communication. London: Longman, 2-27.

5 Najmiddinova, R. Z., & Najmiddinova, R. K. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 19-21.

6. Savignon, S.J. 1983. Communicative Competence: Theory and Classroom Competence. Reading, MA.: Addison-Wesley.

7. Shodiyeva G. N. K., Dustmatov H. CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. - 2022. - T. 2. – no. 4. - S. 234-237.

## **СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРДА НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

*Ўзбекистон, НамДУ Мактабгача таълим методика кафедраси  
доценти п.ф.н. А.М.Абдуллаева  
НамДУ Жисмоний маданият кафедраси  
катта ўқитувчиси Д.С.Абдуллаев*

**Аннотация:** Ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилгани ҳаммамизга маълум. Бу борада қатор фармон ва қарорлар қабул қилинган. Болалар спортини ривожлантириш бўйича мислсиз ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ишлар жисмоний тарбия ўқитувчилари, болалар спорт мураббийлари зиммасига улкан масъулият юклайди.

**Калит сўзи:** Ёш авлод, баркамол қилиб тарбиялаш, давлат сиёсати, фармон, қарорлар, спорт, жисмоний тарбия, ўқитувчи, болалар спорт мураббийлари.

**Аннотация:** Все мы знаем, что воспитание подрастающего поколения поднялось на уровень государственной политики. В связи с этим принят ряд указов и постановлений. Беспрецедентная работа ведется по развитию детского спорта. Масштабная работа, проводимая в нашей стране, возлагает большую ответственность на учителей физкультуры и тренеров по детскому спорту.

**Ключевые слова:** Молодое поколение, совершенное воспитание, государственная политика, указ, решения, спорт, физическая культура, педагог, детские спортивные тренеры.

**Annotation:** We all know that educating the young generation has risen to the level of state policy. A number of decrees and decisions have been adopted in this regard. Unparalleled work is being done to develop children's sports. The large-scale work being carried out in our country places great responsibility on physical education teachers and children's sports coaches.

**Key word:** Young generation, perfect upbringing, state policy, decree, decisions, sport, physical education, teacher, children's sports coaches.

Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган куниданоқ жисмоний маданият ва спортни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ишларига катта эътибор бериб келмоқда. Айниқса, ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилгани ҳаммамизга маълум. Бу борада қатор фармон ва қарорлар қабул қилинган. Болалар спортини ривожлантириш бўйича мислсиз ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг қўламли ишлар жисмоний тарбия ўқитувчилари, болалар спорт мураббийлари зиммасига улкан масъулият юклайди.

Сир эмаски, жисмоний тарбия дарслари, спорт машғулотларида ўқувчи талаба ёшларнинг назарий тайёргарлиги бир мунча оқсоқ соҳа бўлиб қолмоқда. Спорт машғулотларига келган ўқувчи – талаба маъруза эшитиш эмас, балки спорт майдончаси ёки спорт залида турли машқлар бажаришга иштиёқманд бўлиши одатий ҳол. Ўқитувчи ва мураббийлар эса асосан жисмоний, техник ва тактик тайёргарликка, спорт меъёрларини бажаришга урғу бериб келганлар.

Назарий тайёргарлик – бу ўйин техникаси ва тактикасини, гигиена, физиология, ўз ўзини назорат қилиш, машқ, машғулотлар тузилиши қонуниятлари ҳақида билимларни эгаллаш жараёнидир. Бу билимлар ижодий фикрлаш асоси бўлиб, улар ўқувчи – талабага спорт машғулотларида танланган йўлдан дадил бориш, ўзининг кучли томонларини намоён этишга ёрдам беради. Назарий тайёргарлик ўқувчи – талабага ўзи томонидан режалаштирилган машқ жараёнида қатнашишга ишонч бағишлайди, ўз тайёргарлигини ва мусобақалардаги натижаларини мураббий билан бирга малакали таҳлил қилиш имконини яратади. Бундай тайёргарлик учун маъруза, суҳбат, кинолавҳаларни ўрганиш, ўтказилган ўйинни кўриш, таҳлил қилиш, назарий машғулотни муҳокама ва таҳлил этиш каби шакллардан фойдаланилади.

Назарий машғулотлар ўқувчи – талабалар тайёргарлигида жуда муҳим саналади. Зеро бу машғулотларда ўқувчи ва талабалар, шуғулланувчиларни нафақат спорт техникаси ва тактикаси, балки юксак инсоний фазилатларга ўргатиш ҳам амалга оширилади.

Спорт машғулотлари жараёнида ўқитишда назарий машғулотлар фақат муайян спорт тури техникаси ва тактикасига бағишланиши у қадар тўғри эмас. Бу машғулотларда спортимизнинг шонли йўли, машҳур спортчиларимизнинг ҳаёти ва фаолияти, мамлакатимизда спорт – соғломлаштириш ишларига берилаётган катта эътибор ҳақида алоҳида тўхталиш лозим, деб биламиз.

Назарий машғулотларга таниқли спортчилар ва мураббийларни таклиф қилиш, кино-видео материаллардан фойдаланиш орқали нафақат ёшларнинг спортга оид билимларини такомиллаштириш, балки уларнинг шахсий сифатларини тарбиялашда ҳам катта натижаларга эришиш мумкин. Спортчига жисмоний куч билан бир қаторда ирода кучи ҳам зарур. Мамлакатимиз спорт усталари ҳаётдан олинган ёрқин мисоллар ёш авлодни кийинчиликларни сабот билан енгиб ўтиш, кўзланган мақсад сари далил одимлашга чорлайди.

Спорт машғулотларида ҳам ёшларнинг ахлоқий тарбиясини назарда тутиш керак. Ҳалоллик, дўстлик, рақибини ҳурмат қилиш, қолаверса, ўз мамлакати ва халқига садоқатни тарбиялаш айнан назарий машғулотлар давомида ҳал қилинадиган вазифалар сирасига киради.

Назарий машғулотларга тайёргарлик кўрар экан, ўқитувчи – мураббий мавзуни пухта ишлаб чиқиши, ундаги асосий ва асосий бўлмаган ўринларни аниқ фарқлаши, машғулотнинг яхлитлиги, мазмунан бой бўлиши ҳақида яхшилаб бош қотириши лозим. Ҳаётдан олинган мисоллар, таниқли шахсларнинг фикрлари машғулот мазмунини бойитиши, ёшларнинг мавзуга қизиқишини орттириши шубҳасиз. Демак, ўқитувчи – мураббий ҳар бир фикрини асосли, мантиқий изчиллик билан баён қилиши, нуқтининг тўғрилиги, аниқлиги, равонлиги ва таъсирчанлигига алоҳида эътибор қаратиши лозим. Бир сўз билан айтганда, спорт

машғулотларида назарий машғулотлар жисмоний тайёргарлик дарслари каби муҳим эканини доим ёдда тутиш лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7.- Т.: Ўзбекистон, 1999.- 410 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М.: Рус тили, Том 1, 1981.- 631 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедия.- Т.: Давлат илмий нашриёти, Том 2, 2001.- 703 б.
4. Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари.- Т.: Фан, 1994.- 133 б.

### MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PEDAGOGIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH

*O‘zbekiston, NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, (PhD) Toshpo‘latova Dildora Baxriddinxon qizi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mutaxassislik fanlarni o‘rganishdan maqsad talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik jarayonni samarali tashkil etish texnologiyasi bo‘yicha kasbiy mahoratni shakllantirishdan iborat ekanligi, mutaxassislik fanlari bo‘yicha darslarga tayyorgarlik ko‘rishda didaktik prinsip talablarini hisobga olish zarurligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, fanlararo aloqa, mutaxassislik fanlari, didaktik prinsip, bilim, ko‘nikma va malaka, motivatsiya.

**Аннотация:** в данной статье говорится, что целью изучения профильных предметов является подготовка студентов к профессиональной деятельности и формирование профессиональных навыков в технологии эффективной организации педагогического процесса.

**Ключевые слова:** интеграция, межпредметная коммуникация, профильные предметы, дидактический принцип, знания, умения и компетенции, мотивация.

**Annotation:** in this article, it is said that the purpose of studying specialized subjects is to prepare students for professional activities and to form professional skills in the technology of effective organization of the pedagogical process. goes

**Key words:** integration, interdisciplinary communication, specialized subjects, didactic principle, knowledge, skills and competence, motivation.

Maktabgacha ta’lim tizimini isloh etishning zamonaviy bosqichida ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘zda tutilgan bo‘lib, ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlanishini ta’minlashda MTT rahbarlari va tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash, boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion metodlar va usullardan foydalanish zaruriyati tug‘ilayotgani va bu o‘z o‘rnida ixtiyoriy rahbar va tarbiyachining bilimi, ko‘nikma va malakasi hamda tajribalariga, ya’ni bir so‘z bilan aytganda kasbiy kompetentligiga bog‘liqligi, shuningdek, MTTda yaratilayotgan zamonaviy shart-sharoitlar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda MTT rahbari va tarbiyachi-pedagoglardan o‘z kasbiy faoliyatida boshqaruv metodlaridan samarali foydalanish, ta’lim muassasasi faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, boshqaruvning zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, ta’lim muassasasida qulay ta’limiy muhitni shakllantirish, ya’ni innovatsion ta’limiy muhitni vujudga keltirish bo‘yicha zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish zaruriyatining belgilayotganligi o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligini isbotlaydi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim uzluksiz ta’limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan mustaqil turi hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan

kelib chiqib, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, shuningdek, mehnat bozori hamda kadrlar buyurtmachilarining talablarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash yo'nalishida ta'lim mazmuniga, bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar darajasiga hamda oliy ta'lim muassasalari kasb ta'limi yo'nalishi bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni mazmunini boyitish, ta'lim mazmuni va ta'lim berish usullarini yanada takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsion ta'limning eng samarali texnologiyalarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) amaliyotiga tayyorlash jarayonida o'qitish texnologiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish, fanlar bo'yicha o'qitiladigan mavzularning o'zaro bog'liqligini, ularning integratsiyasini ta'minlashga, fanlarni o'qitilishida tizimli yondashuvga asoslanish talabalarni amaliy faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirish va o'zi tanlagan soha yo'nalishidagi tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni inobatga olgan holda, mavzularning o'zaro bog'liqligini asoslab o'qitish talabalarning fanlar bo'yicha shaxsiy tushunchalarni rivojlantirish, boshqaruv va o'quv faoliyatining ahamiyatini yetarli darajada yoritib berishga imkoniyat yaratadi.

Mutaxassislik fanlarini o'rganishdan maqsad – talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik jarayonni samarali tashkil etish texnologiyasi bo'yicha kasbiy mahoratni shakllantirishdir.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha darslarga tayyorgarlik ko'rishda didaktik prinsip talablarini hisobga olish zarur. O'qituvchining o'qitish qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhimdir. Bunga esa o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitishning asosiy qoidalariga tayanish kerakligini chuqur anglagan taqdiridagina erishishi mumkin. Bu qoidalar didaktikada o'qitish prinsiplari yoki didaktik prinsip deb ataladi.

Didaktik prinsiplar:

- ✓ ta'limni ilmiy asosda tashkil etish;
- ✓ uning tarbiyaviy xarakteri, muntazamligi va izchilligi, ko'rgazmaliligi, mazmunining talabalarga mos bo'lishi;
- ✓ o'qitishning faolligi va ongliligi;
- ✓ bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish va har bir talabaga yakka tartibda yondashishdan iboratdir.

Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish prinsipi talabalarning ta'limi ishlarini faollashtiruvchi, aqliy kobilyatlarini o'stiruvchi, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatuvchi usullarni tanlash va texnik atamalardan foydalanishga odatlanishdir. Ta'limning tarbiyaviy xarakteri talabalarga kasbiy bilim berish, ularning aqliy o'sishi hamda dunyoqarashining shakllanishi uchun sharoit yaratadi. Ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi talabalarda o'z kasblariga muhabbat, ongli intizom, o'z mehnatini rejalashtira bilish, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim.

Amaliy mashg'ulot – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Amaliy mashg'ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Amaliy mashg'ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi.

✓ Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan amaliy mashg'ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulot quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- ✓ nazariy materialni tartibga solish.
- ✓ ko'nikmalarni hosil qilish.

✓ bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi amaliy mashg'ulotni samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- ✚ o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- ✚ o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- ✚ o'quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Amaliy mashg'ulot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilar davomati aniqlanadi.

Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejası beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan amaliy mashg'ulot darslari albatta ma'ruza o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Ma'ruzada o'tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma'ruza bilan amaliy mashg'ulot bog'lanadi. Amaliy mashg'ulotlar fanning, hattoki mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usullarda o'tkazilishi mumkin.

Talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni modelida ta'limning zamonaviy metodlari muhim o'rinni egallaydi. Bu metodlar: Keys-stadi, muammoli-izlanishga doir, interfaol metodlar, mustaqil ishlar, treninglarni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ш.Ш.Олимов, Б.Т. Жураев. Малакавий амалиёт. Методик кўлланма. –Б.: Бухоро давлат университети, 2021. - 41 б.
2. Fayol Anri. "Umumiy va sanoat ma'muriyati". – F.: 1916, 9-b
3. Sh.A.Tursunov, Sh.B.Rashidova. "Menejment va marketing asoslari" O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2014 6-b.
4. Ta'lim menejmentini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. –T.: 2021, 57-b.
5. Педагогик амалиёт: тизим моҳияти ва механизми. Э.Юзликаева., Ж.Фуломов., Х.Рузиметов ва бошқалар. Низомий номидаги ТДПУ, 2012 й., -165 б.
6. Sagindikova N.J. Talabalar o'quv faoliyatida mas'uliyatning tender xususiyatlari / Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya", 2016, 120 -b.
7. Tadjiyev O.A. Pedagogik mahoratni oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish. / Zamonaviy ta'lim. 2015, 12-son, 28-32-betlar.
8. Zaripov L., Hayitov N., Tohirov Z. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish / Metodik qo'llanma. –T.: "Sano-Standart", 2023. 32-b.
9. Цукерман Г.А. Как младшие школьники учатся учиться? – Рига: ПЦ "Эксперимент", 2000. – 224 с.
10. <https://cyberleninka.ru>

## **МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA MEDIA TEXNOLOGIYASINING O'RNI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna  
O'zbekiston, NavDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishi magistranti  
Shermetova Shahnoza Otomurod qizi*

**Annotatsiya.** Media tizimlari va texnologiyalari ta'limni va uning istiqbolini rivojlanishni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Ushbu vositalari har qanday turli dars faoliyatlarining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi. Maqolada multimedia texnologiyalaridan o'quv faoliyat jarayonida foydalanish, ta'lim oluvchining o'zlashtirish samaradorligini rivojlantirishga bog'liq nazariy ma'lumotlarni izohlaydi.

**Kalit soʻzlar:** media, internet, zamonaviy axborot texnologiyalari, media savodxonlik, media taʼlim.

**Annotation.** Media systems and technology will elevate education and its prospects to a new high level of development. These tools contribute to improving the effectiveness of any variety of lesson activities. The article explains theoretical information about the use of multimedia technologies in the learning process and the development of the effectiveness of the teacher's learning.

**Keywords:** media, internet, modern information technology, media literacy, media education.

**Аннотация.** Медиа-системы и технологии выведут образование и его перспективы на новый высокий уровень развития. Эти инструменты способствуют повышению эффективности любых видов деятельности на уроке. В статье разъясняются теоретические сведения об использовании мультимедийных технологий в учебном процессе и развитии эффективности обучения учителя.

**Ключевые слова:** медиа, интернет, современные информационные технологии, медиаграмотность, медиаобразование.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni taʼhlil etish borasidagi bilim va koʻnikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Maʼlumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun koʻplab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga koʻra esa, zarur axborot va maʼlumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, yaʼni mediasavodxonlikka ega boʻlish zarurati yuzaga keldi. Avvalo, mediasavodxonlikning oʻzi nima, nega unga bugun dunyo boʻylab talab ortib bormoqda kabi savollariga javob topish lozim. Chunki soʻnggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy maʼlumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning koʻpayishi mediasavodxonlikka ega boʻlish zaruratini qoʻydi.[1]

Bugungi kunda media, yaʼni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, sanʼatning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday maʼlumot inson ongiga oʻzining maʼlum bir taʼsirini oʻtkazib, uning dunyoqarashini oʻzgartirishga sabab boʻlmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qoʻllanilishi va bugungi kunda mediataʼlim, mediasavodxonlik, media tanqid va mediani oʻrganishga boʻlgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir. Medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, yaʼni mediasavodxonlik, media taʼlim, mediani oʻrganish va boshqalar bir-biri bilan bogʻliq boʻlsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediataʼlimning uzviy bogʻliq qismidir. Shu bilan birgalikda uning koʻrinishlari koʻpaymoqda. Bugungi kunda media axborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda media taʼlim, mediani oʻrganish, media madaniyat tushunchalari ham qoʻllanilayotir.

Ayni paytda mediataʼlim asoslarini har bir taʼlim tashkilotiga oʻquv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha taʼlim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli oʻyinlar shaklida tushuntirish, oʻsib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, toʻgʻri qaror qabul qila olishiga asos boʻladi.[2]

Taʼlim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning singchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Taʼlim jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. MTTda bolalarga madaniy – gigienik koʻnikmalar, asosiy harakatlar oʻrgatiladi, ular madaniy ahloqiy qoidalarini oʻzlashtirib oladilar.[3] Maʼlumki, aholi oʻrtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda boʻlayotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot

vositalari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimiga yana bir muhim vazifa — bolalarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda. Yoshlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, internet, televideniye, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur jarayonda mediata'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Bolalarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi.[1] Biz uchun ommaviy axborot vositalaridan uzatilayotgan axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tushungan holda tahlil qila olish, axborotdagi asosiy kerakli xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday turdagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki media vositalari bolalar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Zamonaviy texnologiyalar masalan: musiqa, televizor, telefon, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Shu sababli biz ommaviy axborot vositalarini foydalanuvchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalarini va odatlarini bolalikdan rivojlantirishimiz kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, ularni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, media savodxonlik ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. Media ta'lim orqali biz bolalarda media savodxonlikni rivojlantiramiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595 - sonli qonuni
2. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>
3. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga hosligi (azkurs.org)
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori - "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQ VA INTELEKTINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING O'RNI

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
Dotsenti, PhD. Salimova Salima Sobirovna  
O'zbekiston, NavDPI talabasi  
Sulaymonova Sharofat Temirovna*

**Annotatsiya.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi juda muhimdir, chunki u ma'rifiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun ko'nikmalar hosil qiladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiq va intellektini rivojlantirishda tarbiyachining o'rnini haqida so'z boradi.

**Kalit soʻzlar:** nutq, muloqot, intellekt, tarbiyachining sifatlari, tarbiyachining nutqi, bolaning intellektual rivojlanishi.

**Аннотация.** Интеллектуальное развитие детей дошкольного возраста очень важно, поскольку формирует навыки успешного освоения учебной деятельности. В статье говорится о роли воспитателя в развитии логики и интеллекта дошкольников.

**Ключевые слова:** речь, общение, интеллект, педагогические качества, речь воспитателя, интеллектуальное развитие ребенка.

**Abstract.** Intellectual development of children of preschool age is very important, because it creates skills for successfully mastering educational activities. The article talks about the role of the educator in the development of logic and intelligence of preschool children.

**Key words:** speech, communication, intellect, educator's qualities, educator's speech, child's intellectual development.

Maktabgacha yoshdagi ma'lumotlarning to'planishi tez sur'atlarda kechadi, bilim jarayonlari takomillashtirilmoqda, nutq shakllanmoqda. Rivojlangan razvedkaga ega bo'lgan maktab o'quvchilari yangi materiallarni tezda o'rganadilar va yod olishadi, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch hosil qilishadi va amaliyotda ko'rsatilishicha o'rganish istagi ko'proq bo'ladi.

MTT tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini rivojlantirishda alohida o'ringa ega o'qitish vositalariga didaktik o'yinlar kiradi va u bolalarga bilim olish va ularni mustahkamlashda, shuningdek, bilim faoliyati metodlarini o'rganish uchun yordam beradi. Didaktik o'yin tufayli bolalarning ta'lim faoliyatiga qiziqishi ortib boradi, tasniflashni, taqqoslashni va umumlashtirishni o'rganadi. Kichik bolalarni aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni egallash va mustahkamlash, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham yordam berishi kerak.

Bolalarning intellektual rivojlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Nutq va nutqni rivojlantirish;
- Makon fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish ( taqvim, vaqt )
- Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- Sezgir muvofiqlashtirish va qo'llarning avtoullov qobiliyatlarini shakllantirish (grafik belgilar, kashtanchilik );
- Taxminlarni kuzatish, ta'riflash va yaratish qobiliyatini shakllantirish;
- Tabiat dunyosi va inson tomonidan yaratilgan narsalar bilan bog'liq qoidalar bilan tanishish;
- O'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilishga va axloqiy jihatdan qimmatli muloqot yo'llarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar quyidagilardan iborat:

1. Rasmlar orqali hikoyani yoki hikoyani chizish. Bolaga 4 ta surat ko'rsatiladi, ularda ertak yoki unga ma'lum bo'lgan voqealar tasvirlangan bo'ladi. Bolaning vazifasi suratlarni to'g'ri ketma-ketlikda tartibga solish va illyustratsiya yordamida kichik bir hikoya yaratishdan iborat.

2. Bir qator sabablar bo'yicha obyektlarni tanib olish. Bolaga qaysi mavzu haqida gaplashayotganingizni aniqlashni buyurishingiz kerak. Masalan, sariq, nordon, tasvirlar (limon).

3. Ikki yoki undan ko'p narsalarni taqqoslash. Bolaning so'zlari nimaga o'xshashligini aytishga taklif qilinadi. Masalan, mushuk, kitob, tom. Siz bolaga mushuk va itni, stol va stulni qanday nomlashini aytib berishingiz mumkin. So'ngra, obyektlardagi farqlarni topishingiz kerak: qalam va ruchka, daraxt va buta.

4. Mavzularda tushunchalarni tahlil qilish va ularning xususiyatlarini aniqlash. Qaysi narsalar ortiqcha emas va nima uchun? Sigir, ot, sher; kartoshka, sabzi, bodring.

6. Qarama-qarshi so'zning so'zini tanlang. Sotib olish - sotish, ochish -? eslayman -? to'liq -?; och -?

7. Mantiqiy muammolarni yechish.

Bolalar intellektual rivojlanishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyati - yangi bilim, muvaffaqiyatlardan ijobiy his-tuyg'ular yaratishdir.



Mantiq murakkab jarayon hisoblanib, u o'z navbatida ko'pgina tarmoqlarga bo'linadi:

- Rasmiy mantiq;
- Norasmiy mantiq;
- Klassik bo'lmagan mantiq;
- Ramziy mantiq;
- Hisoblash mantiq'i kiradi.

Mantiqning bu turlari va ularning barchasi o'zlarining tadqiqot obyektlarini fikrni tushunishga va uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashga yordam beradi. Mantiqni o'rganish yunon faylasufi Aristotel davridan to hozirgi kungacha rivojlanib kelmoqda. Rasmiy mantiq, shuningdek klassik mantiq yoki Aristotel mantiq'i deb ham ataladi, bu takliflar, dalillar, bayonotlar yoki jumalarni tarkibiy nuqtai nazardan o'rganadi. Bu fikrlashni tuzish va o'ziga xos yondashuvning to'g'ri yoki noto'g'ri shakllarini aniqlash usulidir. Rasmiy mantiq ma'lum bir argument tarkibining to'g'riligiga yoki yolg'onligiga e'tibor bermaydi, aksincha uning shakli asosligiga yoki emasligiga e'tibor beradi. Ya'ni, rasmiy mantiqni o'rganish obyekti empirik emas, chunki mantiqchi uchun keltirilgan argumentning haqiqiy va isbotlanganligini aniqlash muhim emas; aksincha, uning ishi aniq aytilgan argumentning tuzilishiga qaratilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkin, maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishi uning aqliy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismidir. Inson intellekti, hissiy tajribasining asosi bola hayotining birinchi yillarida qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalikda idrok, e'tibor, xotira, tasavvurni rivojlantirish, shuningdek, mavhumlashtirish, umumlashtirish va oddiy xulosalar chiqarishning birinchi shakllarini shakllantirish, amaliy fikrlashdan mantiqiy fikrlashga o'tish sodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun. T.: 23 sentabr 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019- yil 14-dekabrda ma'qullangan.
3. Ismoilovich, I. M. (2021, July). ISSUES OF TRANSFORMATION OF EDUCATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. In Euro-Asia Conferences (pp. 227-239).
4. Urinova F. NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN EDUCATIONAL CONTENT: DIRECTIONS, PROBLEMS, SOLUTIONS //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 74-76.
5. Уринова, Ф. У. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКЦИОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ИННОВАТИКИ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 36.

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING BOG‘LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston, NamDU, Maktabgacha ta’lim  
metodikasi kafedrası o‘qituvchisi  
Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda yordam beradigan “Dialogli muloqotni rivojlantirish” texnologiyasi, Majoziy nutqni o‘rgatish texnologiyalaridan: solishtirishni o‘rgatish texnologiyasi, metafora tuzishni o‘rgatish texnologiyasi hamda topishmoq o‘rgatish texnologiyasi kabi innovatsion texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bog‘lanishli nutq, dialogik nutq, monologik nutq, “Dialogli muloqotni rivojlantirish” texnologiyasi, Majoziy nutqni o‘rgatish texnologiyalari, solishtirishni o‘rgatish texnologiyasi, metafora tuzishni o‘rgatish texnologiyasi topishmoq o‘rgatish texnologiyasi

**Аннотация.** В данной статье изложено мнение о таких инновационных технологиях, как технология «Развитие диалогического общения», которая помогает в развитии связной речи старших дошкольников, из технологий обучения образной речи: технология обучения сравнению, технология обучения метафорам, а также технология обучения загадкам.

**Ключевые слова:** связная речь, диалогическая речь, монологическая речь, технология «Развитие диалогического общения», технологии обучения образной речи, технология обучения сравнению, технология обучения построению метафоры, технология обучения загадке.

**Abstract.** In this article, an opinion on innovative technologies such as the "Development of dialogic communication" technology, which helps in the development of connected speech of older preschool children, from the technologies of teaching figurative speech: the technology of teaching comparison, the technology of teaching metaphors, and the technology of teaching riddles held.

**Key words:** connected speech, dialogic speech, monologic speech, "Development of dialogic communication" technology, figurative speech teaching technologies, comparison teaching technology, metaphor construction teaching technology, riddle teaching technology

Bog‘lanishli nutq – bu mantiqiy jihatdan bog‘liq bo‘lgan bir qator jumladan iborat batafsil, to‘liq, kompozitsion va grammatik jihatdan tuzilgan semantik va emotsional bayonot shaklidagi nutq hisoblanadi. Bog‘lanishli nutq tilning lug‘at boyligini egallashni, til qonunlari va me‘yorlarini o‘zlashtirishni, ya‘ni grammatik tuzilmani egallash, shuningdek, ularni amaliy qo‘llash, o‘zlashtirilgan til materialidan amaliy foydalana olish, ya‘ni tayyor matn mazmunini boshqalarga to‘liq, izchil va tushunarli yetkaza olish yoki mustaqil ravishda izchil matn tuza olishda ko‘rinadi. Muvofiq nutq deganda ancha uzunlikdagi va ozmi-ko‘p to‘liq (mustaqil) qismlarga bo‘lingan nutq bo‘lagi tushuniladi; muloqot va o‘zaro tushunishni ta‘minlaydigan mazmunli, batafsil bayonot hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

**“Dialogli muloqotni rivojlantirish” texnologiyasi.** Ushbu texnologiya bolaning atrofidagi odamlar bilan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalar yordamida muloqot qilish qobiliyatiga asoslangan kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan.

**Majoziy nutqni o‘rgatish texnologiyalariga quyidagilar kiradi**

- Bolalarga solishtirishni o‘rgatish texnologiyasi
- Metafora tuzishni o‘rgatish texnologiyasi
- Topishmoq o‘rgatish texnologiyasi Bolalarga solishtirishni o‘rgatish texnologiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni taqqoslash usullarini o'rgatish uch yoshdan boshlanishi kerak. Mashqlar nafaqat nutqni rivojlantirish darslarida, balki bo'sh vaqtlarda ham amalga oshiriladi.

**Taqqoslash uchun model:**

- o'qituvchi obyektни nomlaydi;
- uning belgisini bildiradi;
- ushbu atributning qiymatini aniqlaydi;
- bu qiymatni boshqa obyektдаgi atribut qiymati bilan solishtiradi.

Masalan:

- tovuq go'shti (1-obyekt);
- rang bo'yicha (belgi);
- sariq (xarakterli qiymat);
- quyosh bilan bir xil sariq (atribut qiymati) rangi (atributi) (obyekt 2).

Erta maktabgacha yoshda rang, shakl, ta'm, tovush, harorat va boshqalarga asoslangan taqqoslash modeli ishlab chiqiladi.

Bir qarashda, tarbiyachi tomonidan aytilgan ibora shunday noqulay va biroz kulgili ko'rinadi, lekin bolalarga belgi ma'lum bir belgining ma'nosidan ko'ra umumiyroq tushuncha ekanligini tushunishga imkon beradigan bunday uzoq kombinatsiyaning takrorlanishi bog'anishli nutqni rivojlantirishga asos bo'ladi.

Masalan:

“To'p yumaloq shaklga ega, shakli olma bilan bir xil”.

Keyin tarbiyachi bolalardan berilgan atribut qiymatiga ega bo'lgan narsalarni topishni so'raydi (dumaloq shakl – quyosh, g'ildirak, plastinka).

To'rt yoshga to'lgunga qadar tarbiyachi bolalarni berilgan xususiyatlar asosida taqqoslashga undaydi. shuningdek, tarbiyachi bolalarni sovuq shamolning haroratini boshqa narsalar bilan solishtirishni taklif qiladi. Tarbiyachi bolaga quyidagi iboralarni tuzishga yordam beradi: “Tashqarida shamol muzlatgichdagi havo kabi sovuq haroratda”.

Hayotning beshinchi yilida mashg'ulotlar yanada murakkablashadi:

tuzilgan iborada belgi talaffuz qilinmaydi, faqat uning ma'nosi qoladi (momaqaymoqlar tovuqlar kabi sariq rangda);

taqqoslashda ikkinchi obyektning xarakteristikasi kuchayadi (yostiқ yumshoq, yangi tushgan qor bilan bir xil).

Bu yoshda bolalarga taqqoslashda ko'proq mustaqillik beriladi, taqqoslanadigan xususiyatni tanlashda tashabbuskorlik rag'batlantiriladi.

Kattaroq yoshda bolalar tarbiyachi tomonidan ko'rsatilgan mezonlar asosida mustaqil ravishda taqqoslashni o'rganadilar. Tarbiyachi biror narsaga (daraxtga) ishora qiladi va boshqa obyektlar (rang, shakl, harakat va boshqalar) bilan taqqoslashni so'raydi.

Bolalarni metafora tuzishga o'rgatish texnologiyasi.

Metafora – bir obyekt (hodisalar)ning har ikkala taqqoslanadigan obyekt uchun umumiy xususiyatga asoslanib boshqasiga o'tkazilishidir.

Tarbiyachining maqsadi bolalarga metafora tuzish algoritmini o'zlashtirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Agar bola metafora tuzish modelini o'zlashtirgan bo'lsa, u holda u mustaqil ravishda metafora iborasini yaratishi mumkin.

Bolalarga topishmoq yozishni o'rgatish texnologiyasi.

An'anaga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalikda topishmoqlar bilan ishlash ularni taxmin qilishga asoslanadi. Iqtidorli bolaning ma'lum bir topishmoqqa to'g'ri javobini boshqa bolalar juda tez eslab qolishadi. Agar o'qituvchi bir muncha vaqt o'tgach, xuddi shu topishmoqni so'rasa, guruhdagi bolalarning aksariyati javobni shunchaki eslab qolishadi.

Bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda unga tanish bo'lganlarni taxmin qilishdan ko'ra, o'z topishmoqlarini tuzishga o'rgatish muhimroqdir. Topishmoqlar yaratish jarayonida bolaning barcha aqliy operatsiyalari rivojlanadi va u og'zaki ijodan quvonch oladi.

Topishmoqni o'qish butun bolalar guruhi yoki har qanday bola tomonidan birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. "Ilk qadam" (takomillashtirilgan ikkinchi nashri) Davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. Тихеева, Е.И. Развитие речи детей (раннего и до школьного возраста) – М.: Просвещение, 2003
3. Галкина, И.А. Индивидуальный подход в развитии связной монологической речи детей старшего дошкольного возраста // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. 2013. № 2 (13). С. 69-71
4. Korotkova, E. P. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya qilishga o'rgatish. – M. : Ma'rifat, 1982. - 128 b.
5. Vinogradova, N. F. Bolalar, kattalar va atrofdagi dunyo / - M. : Ta'lim, 1993.

### **ИЗУЧЕННОСТЬ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ**

*Узбекистан, ТГПУ им. Низами  
Соискатель Кадирова Н.М.*

По проблеме формирования лидерских качеств у дошкольников проведен ряд научных исследований.

Становления морального облика личности и развития её нравственных качеств начинается с раннего дошкольного возраста и продолжается всю жизнь (А.Н. Леонтьев, С.Л. Рубинштейн, А.В. Запорожец, Д.Б. Эльконин, А.П. Усова, С.И. Хусанходжаева, С.А. Гагиева, Э.М. Разбаева, Р.М. Кадырова, Ф.Р. Кадырова и мн. др.). Именно в дошкольные годы закладываются основы нравственности, формируются первые моральные представления, чувства, привычки, отношения, определяющие дальнейшее нравственное развитие личности (С. Раджабов, С. Нурматов, С.Х. Темурова, О. Хасанбаева, З. Миртурсунов и мн. др.).

Анализ литературы, научных источников и психолого-педагогических исследований показал, что проблема формирования лидерских качеств у подрастающего поколения рассматривалась в её различных аспектах как за рубежом, так и в нашем регионе (Л.И. Уманский, В.А. Гольнева, М.Г. Давлетшин, В.П. Кадыров, В.Л. Кузьмина, В.А. Слостенин, М.Н. Скаткин, И.И. Подласый, Л.Д. Столяренко, М.С. Алимов, И.А. Аллаёров, А.Т. Мамаджанов, А.А. Юлдашев и мн. др.).

За последние годы велись исследования по вопросам: формирования самостоятельности у детей младшего и старшего дошкольного возрастов воспитания трудолюбия у детей старшего дошкольного возраста (О.Р. Жамолитдинова.); педагогические технологии развития познавательных творческих способностей у учащихся младших классов (Ш. Абдуллаева.), лидерских умений в начальной и средней школах (Л.М. Кувинко, и др.); воспитания дисциплинированности на занятиях физкультуры (Д.М. Мамедов, и др.); формирования лидерских умений у учащихся 8-10 классов (Г.А. Пономаренко, Г.М. Ивашенко и др.).

Подчёркивая большое значение проведённых исследований по проблемам формирования лидерских качеств у подрастающего поколения, отметим, что они были актуальны для соответствующего периода развития общества и государства. Проблема теоретического обоснования сущности формирования лидерских качеств у дошкольников условий, необходимых для её достижения, в настоящее время ещё недостаточно исследована.

Лидерские качества развиваются с опорой на эгоцентризм ребенка (который присутствует у любого человека). Задача родителей — направить энергию малыша в мирное русло, чтобы лидерство помогало общему развитию личности, а не тормозило его: можно

стать лидером плохой компании и вредить окружающим, а можно возглавить группу помощи пострадавшим. Все зависит от моральных качеств ребенка.

Есть личности, которым нужно работать над собой в течение всей жизни, чтобы получить статус лидера. Определенные типы психики обладают лидерскими качествами с рождения — возможно, ваш ребенок тоже является прирожденным лидером.

Дети, желая получить что-то немедленно, часто используют манипулятивные техники общения: кричат, устраивают истерики, шантажируют родителей. Ребенку с выраженными лидерскими качествами нет нужды каждый раз повышать голос — он получает необходимое с помощью обаяния и умения договариваться.

Лидерство требует наличия талантов: умения выступать на публике, подбирать нужные слова, находить контакт с аудиторией. Ребенок с врожденным стремлением вести людей за собой наверняка будет неплохим оратором. Такие дети любят внимание, стремятся выступать на сцене, демонстрируя артистичность.

Если малыш тянется к занятиям по развитию речи, выступает в детском театре, любит развлекать гостей, у него есть задатки, чтобы стать лидером.

Ребенок с врожденными лидерскими качествами с раннего детства может быть неплохим организатором. Он раньше других начинает видеть перспективные направления развития, любит командовать ровесниками. Ребенок замечает, как члены команды взаимодействуют друг с другом, и понимает совершаемые ошибки.

Сообразительность, находчивость — важные элементы лидерских качеств. Однако люди никогда не идут за человеком, который не способен вступать в контакт. Ребенок стремится быть лидером не только в тесном семейном кругу, где поддержка гарантирована: находясь среди незнакомых людей, малыш тоже выделяется на фоне остальных.

Лидер интуитивно понимает психологический тип собеседника, быстро находит подход к представителям разных темпераментов. В компании такого человека царит комфортная атмосфера: малыш-лидер объединяет сверстников, которые никогда бы не стали друзьями без влияния извне.

1. Лидерские качества — хорошие помощники во время процесса коммуникации. Они помогают достичь цели, обозначить личные границы — лидер всегда четко видит, к чему следует стремиться.

2. Черты лидера нужны при построении карьеры. Взрослые люди обнаруживают, что их нужно развивать, когда этого требует работа и взаимодействие с коллегами. Лучше начать в детстве: малыш привыкнет к доминирующей позиции, и в более зрелом возрасте она не будет приносить дискомфорт.

3. Лидеру не обязательно контактировать с людьми или управлять большими коллективами. Лидерские качества нужны для многих видов развития: например, для собственного бизнеса. Проекты, связанные с социумом, требуют выраженных черт характера.

Лидерские качества во многом зависят от наследственности, врожденных особенностей, но условия жизни и воспитания тоже играют важную роль в формировании личности ребенка.

#### **Литература:**

1. Ананченко М.Ю. Сущность и источники лидерства // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки – Выпуск № 1 — 2005. – С. 29.
2. Джамилова, Н. Н. (2011). Формирование организаторских качеств у студентов в процессе их обучения в ВУЗе. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, (9), 690-691.
3. Djamilova, N. N., Terekhova, O. E., & Kim, I. N. (2018). THEORETICAL AND PRACTICAL STATE OF DEVELOPMENT OF INITIATIVE IN STUDENTS. ISJ Theoretical & Applied Science, 7(63), 127-132.

4. Джамилова, Н. Н. (2010). Формирование и развитие организаторских качеств у обучаемых в процессе непрерывного образования. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 8, 91-93.
5. Джамилова, Н. Н. (2012). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ (материалы исследования). Педагогические науки, (2), 11-15.
6. Джамилова, Н. Н. (2010). Педагогические условия формирования организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей. Вопросы гуманитарных наук, (3), 219-221.
7. Ergasheva, V. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Science and innovation, 1(B7), 401-405.
8. Varso, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

## TURLI YOSHDAGI BOLALAR GURUHIDA TA'LIMYIY JARAYONNI TASHKIL ETISHNING TURLI SHAKLLARI

*O'zbekiston, MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim kafedrasida  
katta o'qituvchisi Normirzayeva Muhayyo Olimovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turli yoshdagi bolalar guruhida ta'limiy jarayonni tashkil etishning turli shakllari haqida yoritib berildi. Ta'limiy jarayonning turli shakldagi mazmuni misol tariqasida yoritib berildi.

**Аннотация:** В данной статье описаны различные формы организации образовательного процесса в группах детей разного возраста. На примере было объяснено содержание образовательного процесса в разных формах.

**Abstract:** This article describes different forms of educational process organization in groups of children of different ages. The content of the educational process in different forms was explained as an example.

**Kalit so'zlar:** turli yosh, ta'limiy jarayon, mashg'ulotlar, jismoniy o'yinlar, nonushta, pedagog, kichik guruh, butun guruh, bir turdagi faoliyat.

**Ключевые слова:** разные возрасты, учебный процесс, обучение, физические игры, завтрак, педагог, малая группа, целая группа, один вид деятельности.

**Key words:** different ages, educational process, training, physical games, breakfast, pedagogue, small group, whole group, one type of activity.

Turli yoshdagi bolalar guruhida pedagog bolalar bilan har kunlik ishimiz kundalik reja doirasida amalga oshiradi. Ta'limiy jarayonni rejalashtirayotganda pedagog dasturning muhim nuqtalarini belgilaydi, masalan, bolalar to'planishi, individual mashg'ulotlar, jismoniy o'yinlar, nonushta, pedagog tomonidan erkin o'yinlar, yig'ishtirish ishlari, «teatrlashtirilgan tomosha», sayr, hikoya aytish yoki kitob o'qish kabilar bilan birgalikda o'tkaziladigan asosiy mashg'ulot vaqti. Ta'limiy jarayon davomida yanada tarkiblashgan harakatlar bola o'z harakatlarini erkin yarata olishi mumkin bo'lgan harakatlar bilan navbatma-navbat uyg'unlikda keladi va pedagog ularga yordam va ko'mak beradi.

Bolalar bilan ish olib borayotganda biz maktabgacha ta'lim metodikalaridan yaxshi biladigan shakl va metodlarni qo'llaymiz. Biroq, biz aralash yoshdagi bolalar guruhida o'qitish va tarbiyalash jarayoni butun ta'limiy jarayon davomida kechishini tan olishimiz kerak. Barcha bolalar birgalikda ishlab, bir xil narsalarni bajarayotganlarida, pedagog bitta asosiy topshiriqni bajarishida gap ketayotgani yo'q.

Turli yoshdagi bolalar guruhi bilan ishlash konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

Bir xil mavzu doirasidagi ish;

Talablar darajasining differentsiatsiyasi hamda bajariladigan topshiriqlar individuallashuvi;

Hamkorlik va birgalikdagi harakat qilishga o'rgatadigan, bolalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan o'zaro yordam;

Barcha uchun teng imkoniyatlar,

Individuallashtirish – har bir bola individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

Bolalar bog'chasini hayotga, bolalar tajribasiga yaqinlashtirish.

“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi pedagogning ishi bolani har tomonlama va uyg'unlikda rivojlanishiga yo'nalganligini ta'kidlaydi va belgilaydi.

Ushbu shartlar bolaga shaxsini shakllantirishda yordam berish maqsadida, uning ehtiyojlari va imkoniyatlarini, faoliyati va faolligining o'ziga xosligini aniqlash, sub'ektivlik tamoyilidan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sub'ektivlikni shakllantirish – bu:

bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish;

individuallashtirish va guruhda hamkorlik qilishga o'rgatish;

bolaning asoslanishi va anglanadigan ehtiyojlarining qondirilishi;

o'qitishning psixologik asoslaridan foydalanish, bolaning imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash;

tarbiyalashning demokratik usulini tanlash va qo'llash;

insonparvarlik qadriyatlariga tayanish va ularni qo'llash.

Bunday guruhlarni tashkil qilishning murakkabligi shundaki, turli yoshdagi bolalar uchun o'quv va jismoniy yuklamaning differentsiatsiyasini hisobga olish kerak. Agar o'yinlar, unumli faoliyat bilan shug'ullanish, sayr va ekskursiyalar birgalikda o'tkazilsa, BTF ni (bevosita ta'limiy faoliyat) tashkil qilishda, ko'pincha, kichik guruhlariga bo'lish amalga oshiriladi (mashg'ulotlarni davom ettirish va aqliy yuklama miqdori maktabacha yoshdagi bolaning yoshiga muvofiq bo'lishi uchun).

Bo'lishni qanday amalga oshirish bolalar tarkibi va soniga bog'liq. Mashg'ulotlarni rejalashtirayotganda, pedagog hech bo'lmasa ikki kichik guruhlariga bo'lishni hisobga oladi:

Kichik bolalar — uch yoshdan to'rt yoshgacha.

Katta bolalar – besh yoshdan olti yoshgacha

Agar turli yoshdagi bolalar guruhida maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha yoshdagilari mavjud bo'lib, bolalar ko'p bo'lsa, uni ikkitaga bo'lish maqsadga muvofiq va har biriga chegara yoshdagi bolalarni joylashtirish zarur:

Kichik guruh —uch – to'rt yoshlilar

Katta guruh — besh – olti yoshlilar

Biroq bu kabi bo'lish shartlidir. Pedagog har bir mashg'ulot uchun uni o'tkazish rejasini va kichik guruhlardagi ishlarini o'ylab chiqadi: agar o'rganilayotgan mavzu oson bo'lsa, o'rta guruhdagi bolalar katta guruhdagilar bilan birga ishlashlari mumkin, lekin o'rganilayotgan mavzu murakkab bo'lsa, kichik guruhdagi bolalar bilan birga ishlashlariga ruxsat etiladi. Har bir bolaning individual qobiliyatlari hisobga olinadi: qaysi bir bola bilimlarni osonroq o'zlashtiradigan bo'lsa, katta guruhga o'tishi mumkin; kimga bilim o'zlashtirish qiyin bo'lsa, kichik guruhga o'tishiga imkon beriladi.

Ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil qilayotganda mashg'ulotlarning davomiyligi farqlanishi va aqliy murakkabligi sababli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tashkil qilish shakli ko'ra:

- Butun guruh bir turdagi faoliyat bilan band: mashg'ulot barcha bolalar uchun bir vaqtda o'tadi.

- Bir turdagi faoliyat, lekin individual mashg'ulotlar bolalarning yoshiga qarab beriladi: Ijodiy va amaliy guruhdagi loyihalar uchun qo'llaniladi. Masalan: “Guldasta” applikatsiyasini yaratish. Kichik bolalar dastlab tarbiyachi tomonidan qaychida qirqib berilgan oddiy detallarni yelimlaydilar, o'rta yoshdagi bolalar esa detallarni o'zlari qirqib oladilar va detallarni yelimlaydilar, katta bolalar esa hajmdor detallarni yasaydilar va umumiy ishga qo'shadilar.

- Mashg'ulot barcha bolalar uchun bir vaqtda o'tadi, lekin har bir guruh o'z vazifalarini bajaradi: Dasturning bir bo'limi bo'yicha o'quv faoliyati, lekin o'rganiladigan materiallari turlicha.

Bunday mashg'ulot bir necha bosqichlarga bo'linadi, va ularning har birida bir kichik guruh tarbiyachi bilan ishlaydi, ikkinchisi esa mustaqil ish bajaradi.

- Bir guruh bilan ishlash. Qolgan bolalar tarbiyachi yordamchisining kuzatuvida boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanadilar: Matematikaga yoki savodga o'rgatishda ayniqsa murakkab mavzularni o'zlashtirishda qo'llaniladi.

- Ikkita kichik guruhlar bilan birgalikda ish olib boorish: Bir turdagi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun qo'llaniladi. Mashg'ulot davomiyligi bolaning yoshiga mos bo'lishi uchun, mashg'ulotni pog'onali boshlash yoki tugatish uchun foydalaniladi.

1-shakl: Bir turdagi faoliyat, lekin individual mashg'ulotlar bolalarning yoshiga qarab beriladi. Guruh ikki kichik guruhga bo'linadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.

2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /**takomillashtirilgan ikkinchi nashr**". Toshkent, 2020 y.

3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "O'yin orqali ta'lim olish" Toshkent, 2020 y.

4. Groshyeva I.V., Olimov Q.T., Nazarova V.A, Djanpeisova G.E., Mikailova

## **INSONIY FAZILATLARNI MAKTABGACHA YOSH DAN SHAKLLANTIRISH ZARURAT**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Suyarova Nafosat Usar qizi  
Ilmiy rahbar: NavDPI maktabgacha ta'lim kafedrasida katta  
o'qituvchisi O'tamurodova Shohida Muhammadqulovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'tmish avlodlarimiz yozib qoldirgan o'n ikki insoniy fazilat va o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishi axloqli odam bo'la olishi haqida hamda shu fazilatlarni maktabgacha yoshdan bola qalbida shakllantirish masalasi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** insoniy fazilat, maktabgacha yosh, bola, komil inson.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются двенадцать человеческих добродетелей, записанных нашими прошлыми поколениями, а также то, что человек, сочетающий в себе двенадцать врожденных качеств, может стать нравственным человеком и вопросы формирования этих качеств в сердце ребенка, начиная с дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** человеческая добродетель, дошкольный возраст, ребенок, совершенный человек.

**Abstract:** This article discusses the twelve human virtues written down by our past generations and the fact that a person who combines twelve innate qualities can become a moral person and the issue of forming these qualities in the heart of a child from preschool age.

**Key words:** human virtue, preschool age, child, perfect person.

Bugungi kunda vatanimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va har tomonlama tarbiya qilish davlat ta'limi siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodlarda insoniy fazilatlarini shakllantirish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun kelajagimiz poydevorlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning o'sishi, rivojlanishi, ulardagi insoniy fazilatlarini tarkib toptirish, yetuk va barkamol, komil shaxs sifatida tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida qarashimiz lozimdir.



Davlatimiz Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida"gi qarorida ham "Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan bilim va singdirilgan qadriyatlar uning butun umri davomida eng muhim ahamiyatga ega ekanligi"ni aytib o'tgan.

Buyuk allomalarimiz tomonidan ham insoniy fazilatlarga turli xil ta'riflar berilgan. Jumladan Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Abu Nosir Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarlarida ham axloqqa oid g'oyalar ilgari surilib, insonparvarlik va insoniy fazilatlar, sifatlar ulug'langan.

Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida inson davlat boshqaruvchisi bo'lishi uchun o'n ikkita fazilatga ega bo'lishi kerakligini yoritib bergan."Bu hislatlar bir odamda jonlanishi amri mahol, zero bunday to'g'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo shunday barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan 6tasi yoki beshtasi kamol topganida ham u aql va zakovatda benazirligi tufayli davlatga rahbarlik qila oladi" degan fikrlarni bildiradi. Allomamiz o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishi axloqli odam bo'la olishini ta'kidlab ulardan birida shunday so'zlarni yozadi." Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimlarni charchashni sevmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin, Zero aqlli deb shunday kishilarga aytadiki ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan zarur narsani kashf va ixtiro etishga qodir bo'lgan kishilardir". Shunday insonlarni oqil insonlar deb hisoblagan.

.Arastu(Arestotel) (er.avv.384-322) "Axloqi kabir" asarida quydagi fikrlarni bayon qiladi: "Agar tuyg'ular pokiza bo'lsa-yu, ularga yo'ldan ozdiruvchi aql hukmron bo'lsa, fazilatlariga o'rin qolmaydi. Chunki fazilatlar yaxshilikka boshlovchi aql hamda eng pokiza tuyg'ulardan kelib chiqadi. Shuning uchun ham agar insonda fazilat bo'lsa, uni yomon maqsadlarda ishlatish mumkin emasdir". U adolatparvarlik, haqgo'ylik, rostgo'ylik, do'stlik, hazilkashlik, kamtarinlik, zukkolik, o'z qadrini anglash, qo'li ochiqlik, kengfe'llik, olijanoblik, mardlik, saxiylik, vazminlik, jasurlik, donolik, oqillik kabi insoniy sifatlarni "fazilatlar" deb hisoblaydi. Arastuning fikricha adolatli mamlakatda fuqarolarning insoniy fazilatlarini ularning qonunlarida ham maqtoqli deb belgilab quyiladi. Barcha xislatlarda me'yordan oshmaslik, o'rtacha me'yorda bo'lish ham bir fazilat hisoblanadi.

Fazilat - bu go'zallik demakdir. Fazilat - yaxshilikka intilish, doimo yaxshi amallarni bajarishdir. Fazilatli insonlar esa fozil insonlardir go'zal fazilatlar egalar - axloqli, odobli, yaxshi xulq-atvoriga ega, madaniyati, ma'naviyati va tarbiyasi bilan namuna bo'la oladigan insonlar sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ham fazilatli bolalarni tarbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib olgan ekanmiz birinchi navbatda ular ongiga madaniyatimizni milliy urf odatlarimizni singdirishimiz, badiiy adabiyotimiz namunalarini o'rgatishimiz, buyuk siymolarimiz o'gitlari, hadislarini uqtirib borishimiz lozimdir. Bolalarda insoniy fazilatlarni avvalo, oiladan boshlab shakllantirish, keyinchalik esa maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va boshqa maskanlarda olib boramiz. Yana bundan tashqari ko'cha- kuyda bozorlarda, tuy va marosimlarda, bayramlarda, ovqatlanish joylarida, bolalar maydonchalaridagi o'yinlarda, kattalar bilan muloqot qilishi davomida shakllantirish mumkin. Teatrlar, qo'g'irchoq teatrlari, konsertlar va multfilmlar orqali ham bu fazilatlarni sahna orqali o'rgatish ham estetik madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda albatta ota-onalar, mahalla, ta'lim tashkilotlari va pedagoglar mas'ul hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa sahna faoliyatlari bevosita bolalarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi va ularning ichki dunyosini aks ettiradi. Sahnalashtirish faoliyatida qatnashish orqali bolalar nafaqat atrof-olamdagi dunyoni taniydilar balki ularni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida rivojlanishlariga yordam beradi. Bu faoliyatda har qanday adabiy asar yoki ertaklar axloqiy yo'nalishga ega ekanligi sababli xulq-atvorning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda imkon beradi. Bola olamni aql va yurak bilan anglaydi, yaxshilik va yomonlikka nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Sevimli obrazlariga taqlid qiladi va ulardan o'rnak oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 09.09.2017-yildagi PQ-3261-son
2. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, -T., 1993, www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Arastu Axloqli kabir -Toshkent: 2015.
4. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
5. Azimov Hakim Madaniyatshunoslik o'quv uslubiy qo'llanma Toshkent: 2012.

## PEDAGOGIK JAMOADA O'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*O'zbekiston, NavDPI Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi tayanch doktoranti Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik jamoada muvaffaqiyatli o'qituvchi kompetensiyasi uchun jamoa tarkibini o'rganish, kamchiliklarini korreksiyalash va haqiqiy pedagogik jamoa sifatida shakllanishga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlangan darajasi ham muvaffaqiyatli jamoa uchun asosiy omillardan biridir. Jamoada ishlash muloqot vositasida amalga oshadi. Pedagogik jamoaning ta'sirida o'qituvchi rivojlanishida shaxslararo muloqot muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchilar jamoasi, o'qituvchi kompetensiyalari, shaxs kamoloti, ta'lim-tarbiya, ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье высказываются взгляды на изучение состава коллектива для успешной педагогической компетентности в педагогическом коллективе, исправление его недостатков, формирование настоящего педагогического коллектива. Кроме того, высокий уровень навыков командной работы является одним из основных факторов успешной команды. Коллективная работа осуществляется посредством общения. Подчеркнута важность межличностного общения в развитии педагога под влиянием педагогического коллектива.

**Ключевые слова:** педагогический коллектив, компетенции педагога, развитие личности, образование, психология образования, психология образования, педагогическая деятельность.

**Abstract:** In this article, views on studying the composition of the team for successful teacher competence in the pedagogical team, correcting its shortcomings, and forming a real pedagogical team are expressed. Also, the advanced level of teamwork skills is one of the main factors for a successful team. Teamwork is done through communication. The importance of interpersonal communication in teacher development under the influence of the pedagogical team is highlighted.

**Key words:** team of teachers, teacher competencies, personal development, education, educational psychology, educational psychology, pedagogical activity.

Pedagogik jamoada o'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda, pedagogika-psixologiyaning, shaxs psixologiyasi hamda muloqot psixologiyasini uzviy o'rganish va ularning kesimida yangi ilmiy muammoni yaratish bugungi yuksak taraqqiyot davrida ta'lim tizimi va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'qituvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini o'rganish, pedagogik faoliyat va o'qituvchi muloqotining o'zaro munosabati masalasi psixologiya fanida bir qadar tadqiq qilingan muammolardan biridir. Biroq mamlakatimizda, hozirgi zamon bolalariga pedagogik ta'sir o'tkazishda o'qituvchi ishlayotgan mikromuhitning ta'siri, bu sohada o'qituvchilarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoani boshqarish orqali u yerda ijodiy muhit va hamkorlikni, kasbga fidoyilik va qiziqishni shakllantirish va bu muammoning psixologik imkoniyatlarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. O'qituvchining o'z jamoasidagi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda guruhning ruhiyati, pedagogik jamoa intellektual taraqqiyoti,

irodasi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, boshqaruv tarkibining psixologik taraqqiyoti kabi psixologik yondoshuvlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Biz o'rganayotgan mavzu doirasida jahon psixolog olimlari XIX-XX asrlarda faol shug'ullanishgan. Ushbu sohaning rivojlanishida V. Kann-Kalik, A.Yu. Panasyuk va boshqa bir qator olimlar katta hissa qo'shganlar. Respublikamizda ijtimoiy psixologiya sohasi bo'yicha V.M. Karimova, F. Akramova, E.R. G'oziyev, M. Maxsudova kabi olimlar ilmiy izlanishlarni olib borganlar. Ammo, ushbu katta mavzu hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan, ijtimoiy hayot o'zgarishlari bilan yangi-yangi qirralari va o'rganilishi lozim bo'lgan muammolariga ega bo'lib bormoqda. Z.T.Nishonova tomonidan nashr etilgan «Psixodiagnostika» (T., 2009), «Oliy ta'lim psixologiyasi» (T., 2011) kabi darsliklar ham bu sohani o'rganish davom etayotganligini ko'rsatadi.

Pedagogik jamoada o'qituvchi etikasi, fazilatlari o'qituvchi va o'quvchilarda sog'lom ruhiyat, o'qishga qiziqish, kasbga muhabbat va kelajakka ishonch hosil qilishda yetakchi ahamiyatga ega. Fazilat – bu ijobiy xislat yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarining turlicha bo'lishi hamda xulq – atvorlar insonning badanini aylanib yuradigan suyuq moddalariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi tajribada ko'zatilgan. Qadimgi tibbiyotning yirik namoyondasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o'rinni ishg'ol etsa bunday odam harakatchan yengil bo'ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko'nikib keta qoladi, o'z atrofida sodir bo'ladigan voqealarga darhol va ishtiyoq bilan aralashadi degan fikri bejiz emas.

Mana shu kishilarni Gippokrot sangviniklar deb atagan. Bu lotincha “sangvinik” ya'ni “qon” degan so'zdan kelib chiqqan. Sangviniklar tuyg'u xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: Yangi kishilar bilan tez til topishadigan; Bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadigan; Bir turda bajaradigan ishlarni yoqtirmaydigan; Yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadigan; Xushchaqchaq; Harakatlari shiddatli; Nutqi tez; Kelajakka ishonch bilan qaraydigan; So'zini aniq va ma'noli qilib imoishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Obyekt: O'qituvchining jamoaga nisbatan madaniyatligi, xalqparvarligi, ya'ni;

- ✓ Kishilarga e'tibor va hurmat;
- ✓ Kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;
- ✓ Oliyjanoblik va beg'arazlik, xolislik;
- ✓ Kishilarning qadr – qimmatiga yetish kabilar;
- ✓ Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- ✓ Odamlarga ishonch kishilarning o'z kuchiga qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab – quvvatlay olish uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;
- ✓ Yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;
- ✓ O'zaro munosabatdagi quyidagi oddiy e'tiqod qoidalariga rioya qilish;
- ✓ Xushmuomalalik;
- ✓ Sipolik;
- ✓ Kamsuqumlik;
- ✓ Vazminlik;
- ✓ Andishalilik;
- ✓ Mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda o'zaro yordam va qo'llab - quvvatlash;
- ✓ Hozirjavoblik va majburiylik so'zsiz bajarishlik;
- ✓ Prinsipiallik va ishonch;
- ✓ Talabchan. Rahbarning jamiyatga nisbatan madaniyatligi.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar va xislatlar rahbar va o'qituvchinining jamoada o'z o'rnini topishga juda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi alohida e'tibor talab qiladigan obyektidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- a)pedagog bilan bo'lgan munosabatga e'tiborli bo'lish;
- b)pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga munosabat;

v)subyekt – subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga e'tiborli bo'lish.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Ravidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi:31838/jcr.07.17.69
5. Usarov Jabbor. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

### **ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЦЕЛОСТНОСТИ И ПРЕЕМСТВЕННОСТИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Бобоёрва Мухлисабону - студентка 3 курса НавГПИ  
Научный руководитель – д.ф.н.п.н.(PhD)  
Алимова Шахноза Шукуровна*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается актуальная проблема обеспечения целостности и преемственности в системе дошкольного и школьного образования в Узбекистане. В контексте стремительного развития образовательной среды и изменяющихся требований к подготовке учащихся, авторы анализируют инновационные подходы к достижению этих целей. Статья основывается на обзоре существующей системы образования, предлагает ряд решений и примеров успешных практик внедрения инноваций в узбекском образовании.

**Ключевые слова:** Узбекистан, образование, целостность, преемственность, инновации, дошкольное образование, школьное образование, современные технологии, педагогические подходы, развитие образования.

Инновационный подход в образовательной системе предполагает не только внедрение новых методик, но и строительство надежных мостов между дошкольным и начальным образованием, тем самым обеспечивая непрерывность и целостность образовательного процесса.

Современное образование стоит перед постоянными вызовами, требующими постоянного обновления и совершенствования. В контексте Узбекистана, эти вызовы особенно актуальны, учитывая стремление к развитию и модернизации образовательной системы. В данной статье рассмотрим инновационный подход к обеспечению целостности и преемственности системы дошкольного и школьного образования в Узбекистане.

Современный мир находится в состоянии постоянного изменения, и образование должно быть способно адаптироваться к этим изменениям. В Узбекистане в последние годы наблюдается стремление к совершенствованию образовательной системы с целью обеспечения качественного и доступного образования для всех граждан страны. Один из ключевых аспектов этого процесса - обеспечение целостности и преемственности образовательной системы от дошкольного до школьного уровня.

Система образования Узбекистана прошла длительный путь развития, но до сих пор сталкивается с рядом вызовов. Несмотря на значительные усилия правительства по совершенствованию образования, все еще существуют проблемы в доступе к образованию, качестве образовательных услуг и подготовке педагогических кадров.

Для решения проблем обеспечения целостности и преемственности в системе образования необходимо внедрение инновационных подходов. Это может включать в себя использование современных технологий в образовательном процессе, разработку уникальных программ и методик обучения, а также внедрение проектной деятельности и практических задач в учебный процесс.

В Узбекистане уже существуют примеры успешного внедрения инновационных подходов в образование. Например, разработка онлайн-платформ для дистанционного обучения, внедрение интерактивных учебных материалов и создание центров развития профессиональных навыков для учителей.

Следует отметить, что несмотря на успешные инновации, система образования Узбекистана все еще сталкивается с рядом проблем, таких как недостаточное финансирование, неоднородное распределение ресурсов и отсутствие квалифицированных кадров. Для преодоления этих препятствий необходимо разработать комплексную стратегию, включающую усиление государственной поддержки образования, повышение профессиональной компетентности педагогов и активное использование инноваций. Инновационный подход к обеспечению целостности и преемственности системы дошкольного и школьного образования в Узбекистане является ключевым фактором в повышении качества образования и подготовке учащихся к вызовам современного мира. Тем не менее, для успешной реализации инноваций необходимо уделить внимание проблемам и перспективам развития системы образования.

#### **Список использованной литературы:**

1. Ибрагимов, Ш. Инновационные подходы к развитию образования в Узбекистане. "Образование и наука", 2020, № 3, с. 45-58.
2. Хамраева, Д. Проблемы и перспективы развития образования в Узбекистане. "Педагогические исследования", 2019, том 7, с. 112-125.
3. Узбекистан на пути к инновационной модели образования: опыт и перспективы. Материалы конференции "Инновации в образовании", Ташкент, 2021.
4. Официальный сайт Министерства образования Узбекистана: [<https://uzedu.uz/ru>]
5. Каримов, А. Роль технологий в обеспечении преемственности образовательного процесса. "Информационные технологии в образовании", 2018, № 2, с. 76-88.

## **KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TA'LIMNI INDIVIDUAL TASHKIL ETISH SHARTLARI**

*O'zbekiston, Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi  
Arzikulova Surayyo Fayzullayevna  
[surayyoarzikulova1972@gmail.com](mailto:surayyoarzikulova1972@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya sohasidagi eng keskin muammolardan biri bo'lgan kredit-modul tizimi sharoitida ta'limni individual tashkil etish shartlari haqida ta'kidlab o'tilgan. Maqolada berilgan manbalardan Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** individual ta'lim, individual psixologiya, individual ong, individuallik, kredit, modul, tizim.

**Аннотация:** В данной статье акцентируются условия индивидуальной организации обучения в условиях кредитно-модульной системы, которая является одной из наиболее острых проблем в сфере образования и обучения. Ресурсы, приведенные в статье, могут быть использованы при преподавании профильных предметов, преподаваемых в вузе.

**Ключевые слова:** индивидуальное образование, индивидуальная психология, индивидуальное сознание, индивидуальность, кредит, модуль, система.

**Abstract.** This article emphasizes the conditions of individual organization of education in the conditions of the credit-module system, which is one of the most acute problems in the field of education and training. The resources given in the article can be used in the teaching of specialized subjects taught at the Higher Education Institution.

**Key words:** individual education, individual psychology, individual consciousness, individuality, credit, module, system.

**Kredit-modul tizimi**, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.<sup>13</sup>

**Individual ong** - ayrim shaxsning ongi, davr, sinf, millat va, shuningdek, individual hayot sharoitlari ta'sirida shakllangan shaxsning ma'naviy dunyosi ijtimoiy ong bilan uzviy bog'langan, chunki har bir shaxs muayyan jamiyatda, muayyan ijtimoiy muhitda yashaydi, shuning uchun uning ongi ijtimoiy ongning ifoda-sidir. Ammo individual ong ijtimoiy ongdan ajralmas bo'lsada, har doim ham ijtimoiy ongning ma'lum bo'lagi bo'lavermaydi. Har bir shaxsning voqelikni idrok etishi, uni qabul qilishi, ma'lum bilimlar tizimiga ega bo'lishi ijtimoiy taraqqiyot bilan izohlansada, uning o'ziga xos tomonlari mavjud. Buni kishilarning bilimi, xulqi va xususiyatlaridagi har xillikda ko'ramiz. O'z navbatida ijtimoiy ong individual ongning muhim umumiy tomonlarini aks ettiradi. Individual ong ijtimoiy hayotni tadqiq etishda, tarixda shaxsning rolini aniqlashda, ta'lim-tarbiya masalalarini to'g'ri hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

**Individual psixologiya** - psixologiyadagi freydizm oqimidan ajralib chiqqan yo'nalish. A. Adler ta'limotiga asoslangan. Individual psixologiya kishining ijtimoiy xususiyati negizida tugma ijtimoiy qissiyot yotadi, biroq bu hissiyotning to'la taraqqiy etishi uchun uni tarbiyalash lozim, deb hisoblaydi. Individual psixologiya nuqtai nazaridan bola shaxsining tuzilishi (individualligi) ilk bolalik (5 yoshgacha bo'lgan) davrida alohida «turmush tarzi» ko'rinishida na-moyon bo'ladi va u bolaning butun kelgusi psixik rivojlanishini belgilab beradi. Bola o'z tana a'zolarining hali yetarlicha takomillashmaganligi tufayli nomukammallik hissini tuyadi, buni bartaraf etishga urinish davomida bola o'z-o'zini anglab, maqsadlari shakllana boradi. Agar bu maqsadlar real bo'lsa, shaxs me'yorida rivojlanadi, mabodo haqiqatdan yiroq bo'lsa, u holda shaxs nevrotik va ja-miyatga zid xususiyatlar bilan shakllanadi. Ilk bolalik yoshida tugma ijtimoiy hissiyot bilan nomukammallik hissi o'rtasida qaramaqarshilik paydo bo'ladi, bu hol kompensatsiya va o'ta yuqori kompensatsiya vositalarini ishga solib yuboradi. Bu hukmronlikka, boshqalardan ustun bo'lishga intilishni va xulq-atvorning ijtimoiy qadrlanadigan me'yorlaridan og'ishni keltirib chiqaradi. Bunday nevrotik sub'ektlarga yordam qilish psixoterapiyaning vazifasidir. Individual psixologiya g'oyalari nafaqat shaxs psixologiyasida, shuningdek, ijtimoiy psixologiyada ham keng yoyildi. Ulardan guruhli psixoterapiya usullarida foydalanildi

**Individual ta'lim** - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. O'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi. Individual ta'lim ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qad. davr va o'rta aarlarda keng qo'llanilgan. O'zbekiston ta'limi tarixida individual ta'lim shakli keng qo'llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san'at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta'limi tarzida namoyon bo'lgan. Mashhur xalq ustalari Toshpo'lat Arslonqulov, Usta Shirin Murodov, Qodirjon Xaydarov, Mahmud Usmonov, Hamro Rahimovlar shu tarzda ta'lim olganlar. Individual ta'lim da bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyati ta'minlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, individual ta'lim ga e'tibor sezilarli tarzda ortdi. Ayniqsa kollej va oliy

---

<sup>13</sup> Boloniya jarayoni i navchannya vprodovzh hayoti / inspektorlari M.F. Stepko, B.V. Klimentko, L.L. To-vazhnyanskiy. Xaryuv, 2004. 110 b.

o'quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etilishi individual ta'lim ning repetitorlik shakli rivojlanishiga turtki bo'ldi.<sup>14</sup>

**Individuallik (lot. individuum — bo'linmas)** — muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilar. Belgi sifatlarining o'ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka (individ esa umumga) qaramaqarshi qo'yiladi. Dastlab, individuallik antik davrda atokli yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan shakl va mazmunga, ya'ni o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ (ya'ni, bo'linmas) kabilarga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida ma'lum bo'lgan. Qadimgi Rim faylasufi Seneka individuallik tushunchasini yanada takomillashtiradi. Individuallik o'ziga xos xususiyatlarni va mazmunini yo'qotmay turib, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan aniq bir narsa (mavjudot) ekanligini e'tirof etgan. O'rta asrlar falsafasida individuallik inson shaxsi tushunchasini ifodalagan. Individuallik bilan bog'liq fikr mulohazalar nemis faylasufi Leybnis ta'limotida atroflicha rivojlantiriladi. Individuallik nemis adibi I. V. Gyote ijodida ham o'z ifodasini topdi. Individuallik romantizm dunyoqarashi uchun ham xos xususiyatdir. Hozir individuallik tushunchasi ilmfanda turli ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, biologiyada individuallik biror organizmga xos irsiy yoki keyinchalik paydo bo'lgan xususiyatlarning o'ziga xosligidir, psixologiyada muayyan bir shaxsning fikrlashi, sezgisi, irodasi, istak va intilishi, ehtiyoji, qiziqishi, kayfiyati, hissiyoti, ahvoli, xattiharakati, odati, mayli, qobiliyati va sifatlarini, shuningdek, mijozi va tabiatining o'ziga xosligini anglatadi. Ijtimoiy fanlarda individuallik olomonga, guruxga zid tushuncha sifatida o'rganiladi. Adabiyotshunoslikda individuallik badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari asarda qay darajada hayotiy, haqqoniy aks ettirilganini ko'rsa-tadigan mezon bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asar qahramonining o'ziga xosligi uning milliyligi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilaydi. Yozuvchining o'ziga xos tili va uslubiga xos belgilar ham individuallik ni tashkil etadi. Individuum, individ (lot. individuum — bo'linmaydigan) — 1) alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan organizm; 2) alohida odam, shaxs degan ma'nolarni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ta'limni individuallashtirish ta'limni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. O'z xususiyatlari va imkoniyatlariga, darajasiga muvofiq faoliyat mustaqil ishlarni bajarishda talabalarni rivojlantiradi. Ushbu holatda talabalarning individual ta'lim uslubini rivojlantirishi muhimahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayoni individual fazilatlarini rivojlantirish uchun maksimal sharoitlar yaratish orqali talabalar bu jarayonda chinakam ijodiy faoliyat olib boradi. Talabalarni kredit shakliga tayyorlashni individuallashtirish yakka faoliyatni emas balki, jamoaviy, frontal faoliyatni ham nazarda tutadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boloniya jarayoni i navchannya vprodovzh hayoti / inspektorlari M.F. Stepko, B.V. Klimenko, L.L. To-vazhnyanskiy. Xaryuv, 2004. 110 b.
2. Boloniya jarayoni: tendentsiyalar, muammolar, istiqbollor / ukl. V.P. Bex, Yu.L. Malshovskiy; boshiga ed. Akademik V.P. Andryushchenko. Kshv: NPU sh. M.P.Dragomanova, 2004. 221 b.
4. Vishcha osvgga Decorate i Bolonya jarayoni: navch. poabnik /tahrir uchun. V.G. Kremenya. Avtomatik. jamoa: M.F. Stepko, Ya.Ya. Balubosh, V.D. Shinkaruk, V.V. Grubshko, I.I. Babin. Ternopsh: bosh. kitob Bogdan, 2004. 384 b.
5. Jareva L. Qo'lda to'qish asoslari. Xizmat ishi bo'yicha amaliyot: Asosiy qo'llanma. Donetsk: MChJ "Yugo-Vostok, LTD", 2007. 200 b.
6. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

<sup>14</sup> "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

## BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
Ergasheva Lobar Dilmurod qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llashda eng oliy ta'lim muasasasi pedagoglarining tayyorligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda imkon beruvchi muhitni yaratish va talabalarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga oid fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, ma'ruza-seminar-kredit tizimi, Dastgoh texnologiyasi, Case – texnologiya, integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi, Dalton texnologiyasi va boshqalar. Ijtimoiy tajriba.

**Аннотация:** В данной статье описывается готовность педагогов высшего учебного заведения использовать образовательные технологии в развитии творческой компетентности будущих педагогов дошкольного образования, создании благоприятной среды для применения новых педагогических технологий, овладения учащимися новыми педагогические технологии. сделано

**Ключевые слова:** педагогическая технология, лекционно-семинарско-кредитная система, Мастерская технология, Кейс-технология, интегрированная образовательная технология, Дальтон-технология и др. социальный опыт.

**Abstract:** This article describes the readiness of pedagogues of the highest educational institution to use educational technologies in the development of creative competence of future preschool educators, the creation of an enabling environment for the use of new pedagogical technologies, and the students' mastery of new pedagogical technologies done

**Key words:** pedagogical technology, lecture-seminar-credit system, Workshop technology, Case - technology, integrated educational technology, Dalton technology, etc social experience.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda eng avvalo, oliy ta'lim muasasasi pedagoglarining o'zlari ushbu faoliyatga - tayyorligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda imkon beruvchi muhitni yaratish va talabalarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda kelgusida o'z kasbiy faoliyatlarida amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lishlari IIrenesans davrida juda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya ko'pincha quyidagicha ta'riflanadi:

- metodlar majmui - pedagogik faoliyatning chuqur jarayonlarining xususiyatlarini, ularning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aks ettiruvchi, boshqaruvi ta'lim jarayonining zarur samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik bilim sohasi;
- ijtimoiy tajribani uzatish shakllari, usullari, texnikasi va vositalari, shuningdek, ushbu jarayonni texnik jihozlash;
- o'qituvchining aniq faoliyati bilan bog'liq va maqsadlarga erishishga qaratilgan muayyan harakatlar, operatsiyalar ketma-ketligi yoki o'quv-idrok jarayonini tashkil etish usullari majmui (texnologik zanjir).

Ta'lim texnologiyasi - bu ishtirokchilar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va cheklovlarni hisobga olgan holda muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirish va sozlash bo'yicha o'quv jarayoni subyektlarining birgalikdagi faoliyati tizimi.

Mavjud ta'lim texnologiyalarining keng doirasi ularni tasniflashni taklif qiladi. Garchi bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining yagona, aniq belgilangan tasnifi mavjud bo'lmasa-da, bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini ikkita texnologiya guruhi jalb qilmoqda.

An'anaviy ta'lim texnologiyalari bilimlarni yetkazish va harakat usullarini tavsiflashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga tayyor shaklda uzatiladi va reproduktiv assimilyatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim texnologiyalari guruhiga quyidagilar kiradi:



Tushuntirish va illyustrativ o'qitish texnologiyasi;  
Muammoli ta'lim texnologiyasi;  
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;  
Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi;  
Modulli ta'lim texnologiyasi;  
Ma'ruza-seminar-kredit tizimi;  
O'yin texnologiyasi va boshqalar.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'qituvchini o'quv faoliyatini tashkil etishning bunday harakatlari, usullari va shakllaridan foydalanishga yo'naltiradi, bunda asosiy e'tibor o'quvchining majburiy kognitiv faoliyatiga, tizimli fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilishda g'oyalarni shakllantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

MM. Blagoveshchenskaya, V.F. Manuilov, I.V. Fedorov bunday texnologiyalarning uch turini ajratib ko'rsatadi: radikal (o'quv jarayonini yoki uning katta qismini qayta qurish); birlashtirilgan (bir qancha ma'lum elementlar yoki texnologiyalarni yangi texnologiya yoki o'qitish uslubiga birlashtirish); o'zgartirish (o'qitish usuli yoki texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartirishdan takomillashtirish). Oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda ta'limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan.

Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi
3. Loyihalash texnologiyasi
4. Loyiha faoliyatida foydalaniladigan texnologiyalar
5. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar
6. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi
7. Salomatlikni tejaydigan texnologiyalar
8. Dastgoh texnologiyasi
9. Case - texnologiya
10. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi
11. Dalton texnologiyasi va boshqalar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha va ijodiy yondashuv ya'ni kreativlik asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirish va o'zgartirish imkonini beradi. Axborotkommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Bir tomondan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ikkinchi tomondan, ijodiy shaxsni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar orqali ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish mumkin.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutuxassislarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi va talabalarning aqliy rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uni qo'llash bilan rivojlanayotgan faoliyat yanada yorqinroq va jadalroq kechadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotni jozibali va chinakam

zamonaviy qilishga, aniqlik asosida kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abduzazizova Byeronika. Formirovaniye kreativnogo pedagoga Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga innovatsion yondashuv, Namangan.
2. Aribjanova A.R., Razvitiye kreativnogo potentsiala pedagogicheskogo sostava VUZa v usloviyax informatizatsii obrazovaniya.
3. Abdullaeva N.Sh "Kelajak sari ilk ta'lim bilan" variativ dasturi. -T., 2020 y.

4. Ikramov Shuxrat Erkinovich, “Maktabgacha Ta’limda -Kreativlik Tushunchasi” Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya
5. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.—T.,«Fan va texnologiya», 2008.

## **ZAMONAVIY PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOG SHAXSINING INSONPARVARLIK TAMOYILLARIGA ASOSLANISHI**

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrası  
o‘qituvchisi N.G.Meyliyeva  
NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi  
talabasi S. Saidova*

**Annotatsiya:** Maqolada uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan moderniza-siyalash, ta’lim – tarbiya samaradorligini yangi bosqichiga ko‘tarish bosqichiga ko‘tarish xususida fikr bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, modernizasiyalash, tarbiya, samaradorlik, sifat, yoshlar manfaatlarini himoyalash.

**Аннотация:** В статье представлен взгляд на модернизацию системы непрерывного образования, поднятие эффективности образования на новую ступень.

**Ключевые слова:** система образования, модернизация, образование, эффективность, качество, защита интересов молодежи.

**Annotation:** The article presents an opinion on modernizing the continuous education system, raising the effectiveness of education to a new stage.

**Key words:** education system, modernixation, upbringing, effecton, quality, safery of yongth interests.

**Kirish:** Uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizasiyalash va ta’lim – tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan bosqichiga ko‘tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lishini ta’minlashdir. Davlatning bugungi va istiqloldagi barqaror iqtisodiy o‘shishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosta bog‘liqdir. Hayotda rejali ish hamisha samara berib kelgan.Shu jihatdan olganda pedagog o‘z ish faolliyatini reja asosida maqsadli tashkil etadi[1].

**Asosiy qism:** Ma’lumki, pedagogik faoliyat – bu pedagogning talabalarga ta’lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan profssional faolligidir. Pedagog bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: o‘qitadi, tarbiyalaydi, yo‘l – yuruqlar ko‘rsatadi, tashkil qiladi, targ‘ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanadi. Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo‘naltirilgan.

Pedagogik faoliyati maqsad va vazifalarni faoliyatining motivasion – orientirlash bosqichi, vaziyatini tushunishi namoyon bo‘ladi, motivlar tug‘iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo‘yiladi va o‘zgartiriladi, pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari ( faoliyatning ijro qilishning dastlabki bosqichi, pedagog talabalarning psixik rivojlanishlarga ta’sir o‘tkazishi) ; peadgogik o‘z – o‘zini tahlil qilish usullarini ( nazorat – baholash bosqichida ) pedagog qo‘yilgan vazifani hal etadi va buning uchun mavjud sharoitlar nuqtai nazaridan o‘z harakatini tahlil qiladi va tuzatishlar kiritadi) o‘z ichiga oladi.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini yangilash, unga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugun tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omillidir. Mazkur vazifani hal qilishda pedagog insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq”asarida: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo

mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, - degan edi. Shuning uchun ham, pedagog shaxsining insonparvarlik mahorati yuqori darajada psixologik- pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini e’tirof etish lozim.

Zamonaviy pedagogga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ularni o‘shidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g‘oyalar bilan taqqoslash, rivojlanish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘zaro bir – biriga o‘tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi, uning shaxsi, xarakteri, talabalar bilan muomalasiga, eng asosiysi kompetentligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday pedagoglarning ilhombaxsh muammolaridan talabalarda o‘qishga intilish, o‘zlarida yanada yaxshiroq o‘qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo‘ladi. Bu holda ta’lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarini amalga oshirish va undan pedagogga axloqiy fazilatlarini o‘tkazish vositasiga aylanadi.

Kasbiy kompetensiya funksiyalaridan biri - empatiya ya’ni hamdard bo‘lishdir. U boshqa kishi hissiyatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash, qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadago munosabatlarni me’yorga keltiradi. Bunda talabani, uning istaklarini tushunish va bular asosida talabalarni ta’sir etish zarurligi anglash pedagog uchun juda muhimdir.[2-302b]

Darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki talabalarni o‘z shaxsini namoyon qilishlarini va o‘z shaxsiy qobiliyatini ham ko‘rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirish zarur.

Insonparvarlik yo‘nalishi kommunikativ moslashishda ham muhim o‘rin egallaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish pedagog tomonidan muloqot ketma- ket moslashuvlarni topa olinishiga bog‘liqdir. O‘zaro ta’sir uchun tanlangan noto‘g‘ri pedagogik xatti-harakat yoki noto‘g‘ri muloqot shaklini qo‘llanilishi, ya’ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtai nazaridan tayyorlanmaganlik, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.[3]

Shunday qilib, zamonaviy o‘qituvchining pedagogik faoliyatida amaliy-konstruktiv malakalari o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad O‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilish zarur. Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo‘yish va uni O‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o‘zini - o‘zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni–T., 2020 y.
2. I.A.Karimov Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yO‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T., O‘zbekiston, 2015y, 302b.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

## ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA UMUMINSONIY MASALALARNING AKS ETTIRILISHI

*O'zbekiston, Jizzax DPI mustaqil tadqiqotchisi  
Umarova Nuriniso Rahimovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Oripovning vafotidan so'ng chop etilgan "Shoirning tug'ilishi" she'riy to'plamiga kiritilgan she'rlarida insonning ruhiy holati, qalb kechinmalari, umuminsoniy masalalar yoxud ijodkorning asar yaratish jarayonida tasavvuri va dunyoni idrok etishi tarzidan kelib chiqqan holda voqelikka munosabat bildirishi, davr muammolarini turli timsollar, ma'naviy fazilatlar, illatlar yordamida aks ettirishi hamda har bir davr muammosi, ma'naviy fazilat, yoxud illat - bu yozuvchining ichki "men"ini junbushga keltiradi va bitiklarda o'z aksini topishi haqida so'z boradi.

**Abstract.** This article was published after the death of Abdulla Oripov.

The poems included in the collection "The Birth of a Poet" reflect a person's state of mind, emotional experiences, universal human problems, or the artist's reaction to reality, based on the imagination and perception of the world in the process of creating a work, the problems of the time are represented in various symbols. It is said that spiritual virtues and vices serve to reflect and the problems of each era, spiritual virtue or vice - it excites the inner self of the writer and is reflected in the writings.

**Аннотация** Эта статья была опубликована после смерти Абдуллы Орипова. В стихотворениях, вошедших в сборник «Рождение поэта», отражено душевное состояние человека, душевные переживания, общечеловеческие проблемы или реакция художника на действительность, основанная на воображении и восприятии мира в процессе создания произведения, проблемы времени представлены в различных символах, говорят, что духовные добродетели и пороки служат для отражения и проблемы каждой эпохи, духовной добродетели или порока - она волнует внутреннее "Я" писателя и находит свое отражение в сочинениях.

**Kalit so'zlar.** Inson, ma'naviy fazilatlar, ijodkor, tuyg'ular, dard, shoir, shaxs, holat.

**Key words.** Human, spiritual qualities, creator, feelings, pain, poet, personality, condition.

**Ключевые слова.** Человек, духовные качества, творец, чувства, боль, поэт, личность, состояние.

Azal-azaldan yozma bitiklar davrlar, xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'prik vazifasini o'tagan. Qolavaersa, bu yozma manbalar yozuvchi uslubi, shaxsiyati, davri, madaniy hayoti haqida ma'lumotlar bergan. Ijodkorlar o'zi yashab turgan davrning haqiqatlari, tuzumi haqida ijodkor "men"ida aks etgan qalb kechinmalarini yozib qoldirishni ana'anaga aylantirishgan. Abdulla Oripov o'z davrining shoiri sifatida ijodida millat dard-u g'amida yashadi, davr muammolarini jasurlik bilan she'riy misralari orqali aks ettirib berdi. Shoir o'z asarlarida turli xildagi hayotiy muammolarni jonlantirdi. Shoir asarlarida e'tiqod, vijdon, odamiylik, savob, insof kabi ma'naviy fazilatlarini tarannum etdi, targ'ib etdi. Ijodkor asar yaratish jarayonida tasavvuri va dunyoni idrok etishi tarzidan kelib chiqqan holda voqelikka munosabat bildiradi, davr muammolarini turli timsollar, ma'naviy fazilatlar, illatlar yordamida aks ettirishga harakat qiladi. Har bir davr muammosi, ma'naviy fazilat, yoxud illat - bu yozuvchining ichki "men"ini junbushga keltiradi va bitiklarda o'z aksini topadi. "Dastlabki asarlarida tug'ilib o'sgan muhitning o'ziga xosligi, xalqona qadriyatlarining ustuvorligi, samimiyat tuyg'ularining ta'siri yaqqol seziladi. Shu bilan bir qatorda, tafakkur tarzi, keng dunyoqarash va tabiatdagi haqiqatgo'ylik ta'siri she'riy asarlarning badiiy-estetik qimmatini oshirdi." <sup>15</sup>"Badiiy adabiyotning nodir namunalari buyuk ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Shunday ekan, yuqoridagi kabi omillar Abdulla Oripovning insoniy "men" va ijodiy

<sup>15</sup> Davlatova Adiba Raxmatovna "Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. "Filil. Fan.dok... dis. - avtoref - Tashkent. 2022. B 30.

“men” ining shakllanishida poydevor vazifasini o‘tagan, chunki bu iqtidor boshqalardan farqli ravishda o‘zgacha nigoh bilan ko‘radi, his qiladi, uning anglam va sezgilari olamni hamda odamni o‘zgacha idrok etadi.”<sup>16</sup> Abdulla Oripov “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamiga kiritilgan dastlabki she‘rlaridanoq pok niyatli, kamtarlikni libos etgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi va she‘r mutoalasi orqali shoir qalbi hech qachon qarimasligiga, barchaga, insoniyatga ezgulik tilashga, ko‘nglida borini samimiylik bilan satrlarga singdirish ekanligi ko‘zga tashlanadi va har qanday holatda Abdulla Oripovning bosh tamoyili - rostg‘oylik, soddalik ekanligi o‘z isbotini topadi. Jumaladan, she‘riy to‘plamdagi birinchi she‘ri “So‘zboshi o‘rnida”

Men o‘zim ham bilmayman, yozdim

Nima chiqqan bo‘lsa qalbidan...

Men hayotda o‘rnim izlarkan,

O‘ylarimni she‘rda tizarkan,

Bilamanki, quvnoq davraga

Bundoq she‘rlar keragi kamroq...

E‘tibor berilsa, asl haqiqatga yo‘g‘rilgan bitiklarni jamiyat qabul qilishidan ko‘ra yolg‘on jilvasi ko‘proq kitobxonni jalb qilishi bayon qilinganday go‘yo. Aslida, xom sut etgan bandalar Erkin Vohidov ta‘biri bilan aytganda, “Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg‘on yomon, so‘ng shirin yolg‘onga aldanib qolg‘on yomon” zamonida yashashmoqda va shu holat, shu tutumni insoniyat ruhiyati afzal ko‘rishini hayotiy misollar ham dalillaydi va bu holatlarni shoir qalbi birinchilardan bo‘lib his qiladi. Abdulla Oripovning ijodkor shaxs sifatida o‘rganishda yashab o‘tgan hayot yo‘lidan ayro tarzda o‘rganish mushkul, chunki har bir asarida, har bir satrida ijodiy “men” va insoniy “men”ning mujassam tarzda aks ettirilishi an‘anadir. Atrof- muhitdagi hech bir voqea, hech bir hodisa, u shaxsiy bo‘ladimi, jamiyatga daxldor bo‘ladimi Abdulla Oripovning shoirlik nigohidan, ijodkor qalbidan chetda qolmaydi. Jumladan, “Shoirning tug‘ilishi” she‘rida esa ijodkor-inson yaralishi, dunyoga kelishi tasvirlangan.

Orzularim qiynamang meni,

Umidlarim, qo‘zg‘amang isyon.

Men sevdim daryo to‘lqinini

Porlaganda zangori osmon.

Men ham tunlar daryo bo‘yida,

Ha, samoviy o‘ylar surardim.

Har to‘lqinda inson qalbinmas,

Faqat moviylikni ko‘rardim.

Bu esa shoirning qalb iqrori, umidlariga, orzulariga murojaatidir. Ijodkor tafakkuridagi mavjud fikr -tuyg‘ularning ifodasi – bayonchisidir. “Badiiy ijod, bir tomondan qaraganda yozuvchining shaxsiy hayoti bilan bog‘liq hodisa, ikkinchi tomondan qaraganda esa, u oddiy insondan farqli ravishda maishiy iker-chkirlardan yuqoriga ko‘tarilmog‘i lozim. Ijod insonning noaniq va notugal harakatlari yig‘indisi bo‘lib, asar yozayotganda u odatiy insondan koinot odamiga aylanadi”.<sup>17</sup> Yozuvchi ijod jarayonida butunlay boshqa odamga evriladi, “lahza”ning ijrochisiga, samoviy miqiyosdagi odamga aylanadi, ayni “lahza”da ijod va ijodkorlik yuz beradi. Bunday “lahza”dagi yozuvchi bilan real hayotdagi ijodkor aynan bir inson emas. “Shuni hisobga olish zarurki, muayyan asarni yozayotgan paytdagi muallif shaxsi bilan uni yozguncha yoki yozib bo‘lgandan keyingi shaxsni bir-birining o‘rnini to‘la bosa oladigan shaxs, deb qarab bo‘lmaydi. Negaki, ayni asarni yozayotgan paytda ilhom og‘ushida bo‘lgan muallif shaxsi shunday holga kelguncha yoki undan chiqib ketgandan keyin tamomila boshqa shaxsga - ijodkorga emas, hamma qatori odamga aylanadi.”<sup>18</sup> “Safaring bexatar bo‘lsin, navqiron” she‘ri “Shoirning tug‘ilishi” she‘rining davomiday jaranglaydi, ya‘ni katta hayot yo‘liga otlananuvchi navqiron yosh avlodni

<sup>16</sup> To‘laganova S. “Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi” (Abdulla Qodiriy ijodi misolida): Filil. Fan.nomz... dis. - Toshkent. 2019.19 b.

<sup>17</sup> Yung K.G. Ob otnoshenii analiticheskoy psixologi k poetika xudojestvennomu tvorchestvu. Zarubejnaya estetika I teorii literature XX veka vv. Traktati, stat‘I, esse. – M.: Izd. MGU, 1987. – C. 220, 214.

<sup>18</sup> Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 50.

yaratishga, buyuk ishlarga da'vat etadi, ruhlantiradi, zamonaviy psixologlar ta'biri bilan aytganda, motivatsiya beradi, undaydi:

Tug'ilish o'sishning so'nggi payvasta,

Dema: Tug'ildingmi yarat-da, o's-da !

Seni-chin o'g'lini erkalar asta,

Farovon safarli qutlug' bu zamon:

Safaring bexatar bo'lsin, navqiron!

Bu misralar atoqli adib G'afur G'ulomning " Bilib qo'yki, seni vatan kutadi" she'rining ohanglarni yodga soladi, qolaversa, Abdula Oripovning yuqoridagi she'rida G'afur G'ulom kabi yosh avlodga da'vat, chaqiriq, undash ruhi aks etib turadi. "Cho'lpon ijodi Abdulla Oripovga g'oyaviy-ma'naviy jihatdan ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, G'afur G'ulom she'rlari uslub jihatdan ta'sir ko'rsatdi. U maktabdanoq G'afur G'ulom ijodini yaxshi bilardi, ko'plab she'rlarini yoddan o'qirdi, mahoratiga tan berardi. Uning vafotiga bag'ishlab marsiya va vafotining bir yilligiga bag'ishlab she'r yozgani bejiz emas. G'afur G'ulom vafotidan keyin qaysidir ma'rakasida uning oila a'zolari Abdulla Oripovga shoirning marg'iloncha do'ppisini sovg'a qilishadi. Bunda ulkan ramziylik bor edi. U do'ppi sovg'a qilinganidan behad xursand bo'lib, uni avaylab-asrab saqlab yurdi. Uyiga kelgan do'stlari va qarindoshlariga faxrlanib do'ppini ko'rsatar edi. Do'ppi unga qandaydir ma'naviy burch yuklaganini his qilib, "g'afurona" uslubda qator she'rlar bitdi. <sup>19</sup>Adiblar teran tafakkur egasi sifatida doimo izlanishda, xalq amaliy hayotini doimo sinchliklab kuzatuvchi, o'rganuvchi, tevarak-atrofga o'zgacha nigoh bilan qaraydigan, hech kim ko'ra olmagan, sezmagani, payqamagan, his qilmagan jihatlarni ham aqlan, ham qalban bila oladigan, anglashlaridan insoniyat uchun ahamiyatli xulosa yasay bilish qudratiga ega kashfiyotchilardir va albatta, ijodiy jarayonda yozuvchining psixologiyasi, xarakteri, insoniy "meni" muhim rol o'ynaydi.

Pushkin ijodini chuqur o'rgangan olim M.O.Gershenson: " Pushkin shoir sifatida eng oddiy va sodda so'zning mohiyatida butunlay haq bo'lib, har bir she'rida uning shaxsiy avtobiografik iqrori mavjud, faqatgina uni tinglay olish hamda unga ishonish lozim"<sup>20</sup> deb ta'kidlaydi. Quyidagi she'rdan ham Abdulla Oripovning avtobiografik iqrori, shaxsiy kechinmalari aks etgan. " Abdula Oripovni ba'zi birovlar mungli shoir degandek bo'ladilar. Uning she'rlarining tahlili ko'rsatadiki, u mungli shoir emas, balki unli shoir".<sup>21</sup>

Bolalik kechganda bunda pildirab,

Loy o'ynab issig'i, soyasida ham.

Zilol suv oqqanda chopib, shildirab,

O'ylardim: Men axir, qaysi suvdan kam!?

Yillar o'tdi uchqur... Keksaydi tol ham,

Yoshlik qarab qoldi, kelmas izimdan.

Boshim uzra sokin bulutlar shivirlab,

Yoz, yoz degan kabi... chiqmas esimdan.

Ijodkor tazod she'riy san'atidan unumli foydalangan holda yoshlik va keksalikni qarama-qarshi qo'yish orqali bolalikning zilol suvdek chopqirligini, hech qachon ortga qaytmasligini, umrning yoz-u qishida hamrohi tol daraxti yozishga undagani, ruhlantirgani hech qachon esdan chiqmasligini xotirlaydi.

Ijodkor shaxsiyatini ko'rsatishda ochqich vazifasini o'taydigan omil bu - uning tabiati, ichki dunyosi, fe'l-atvori, odatlari, kayfiyati, xislatlari, fazilatlarini, kundalik hodisalar, yashash tarzi, ruhiyati, ijodiy olami, tafakkur tarzi, atrof-muhit kabi jihatlar bilan yaxlit o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. U.Normatov: " Ijodda haqiqatni barqaror etish uchun mustaqil shaxs, haqgo'y, jasur bo'lish bilan barobar, o'sha hayotni chuqur bilish, uni teran tadqiq va tahlil eta olish layoqatiga ega bo'lish, yozuvchi iborasi bilan aytganda, turmush ichiga kirish, uni bilish, turmush kishilarini

<sup>19</sup> [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz). Abdurahim Erkayev . Abdulla Oripov fenomeni

<sup>20</sup> Gershenson M.O. Severnaya lyubov' Pushkina . - Spb.: Gumanitarnoe agentstvo Akademicheskiiy proekt, 1997. – S. 53-73.

<sup>21</sup> Matyoqub Qo'shjonov, Suvon Meli. Abdulla Oripov. – T.: Ma'naviyat, 2000. -B. 42.

o'rganish mashaqqatini zimmaga olish kerak"<sup>22</sup> -, deb ta'kidlaydi . Darhaqiqat , shoir uchun “ turmush” va “ turmush kishilari” ruhlantiruvchi, ilhomlatiruvchi vosita vazifasini o'tagan, “ Shoirning tug'ilishi ” she'riga nazar solsak,

Go'zal edi ko'zimga bari,  
Mavzu edi so'zimga bari.  
Ko'zlarimga borliqni go'zal  
Ko'rsatolgan kim ekan deya:  
Hayotimga shodlikni tugal  
O'rnoigan kim ekan deya:  
U – mehnatkash; U insondir, deb...

“ Inson hayotida shunday lahza bo'ladiki, qachon va qay darajada bo'lmasin, uning o'ziga xos xarakteri , ko'ngil olami, tafakkur tarzi oxir borib ma'lum nuqtalarda bor bo'y-bastini ko'rsatish aniq”<sup>23</sup>, deb ta'kidlanganidek, to'plamdagi “ Vijdon azobi” she'rida shoirning o'ziga xos shaxsiyati, qalb kechinmalari boricha tasvirlangan. Shoirilar ijodida xalqning hayotida muhim ahamiyat kasb etgan hodisalar, urf-odatlar, hayot tarzi, axloq normalari tasvirlanadi va , albatta, bu tasvirlar, ijodkor “ meni” va insoniy “ men”ing umulashmasi tarzida namoyon bo'ladi.

Yo'lga boshla meni , vijdon azobi  
Sening olovingda yonaman bu dam.  
Alamlidir o'tgan kunimning yodi,  
Men gunoh qildim-ku, gunohkor banda.  
Men gunoh qilddim-ku, kesil, kazzob til,  
Nechun sen erkimni qo'ldan olding , ayt?!  
Bashang ,oliftani ko'rolmas ko'zim,  
Nega sen adashding, adashding u payt.

“Abdulla Oripovning bir qator she'rlari borki, ular ba'zan oddiy, ko'z ilg'amas, bir qarashda uncha muhim bo'lib ko'rina bermaydigan axloqiy masalalar olg'a suriladi va shoirona hal qilib beriladi.”<sup>24</sup> “ Borliqni qabariq nigoh bilan ko'radigan shoir his eta olgan go'zallik, mehr, nafrat kabi kechinmani his qilish uchun o'sha holatni boshdan kechirish shart. Aslida ijodkorning o'zi ham bu evrilish, bu kechinmani har doim ham yashay olmaydi, chunki ijod ruhning oniy lahzalardagi sirli suvratidir.”<sup>25</sup>. Buni Abdulla Oripovning o'zi shunday izhohlaydi: “ Qaysidir shoir ijodiga baho berayotganda faqat uning, ya'ni aynan bir shoirning ruhiy qiyofasidan turib qarash kerak. Mahorati mukammal, fikri tiniq ijodkorning qaysi mavzuda bo'lsin yozgan asari kitobxon qalbiga , albatta, yetib boradi. Shu ma'noda yiksak pafosning ham, quloq ilg'amas lirik entikishlarning ham o'z betakror qadr-u qimmatini, sehr-u jodusi mavjud.”<sup>26</sup>

Xulosa o'rnida, Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, “ Ijodkor umuminsoniy dardni shaxsiy darddek qabul qilishi yoki shaxsiy dardni umuminsoniy dard darajasiga ko'tarishi lozim”<sup>27</sup>, darhaqiqat , ijodkorning har bir she'rida umuminsoniy daradni shaxsiy darddek qabul qildi yoxud umuminsoniy dard darajasiga olib chiqa oldi, shuning uchun ham uning she'riyatini suyumli, xalqchil, ta'sirchandir. Abdulla Oripov she'riyatining umumbashariyligi, umumboqiyiligi shundaki, har bir davr, jamiyat , insoniyat uchun dolzarb bo'lgan, milliy ruh ustuvorlik qilgan, ma'naviy-axloqiy madaniyatga targ'ib qiladi, kitobxonni qalb chaqirig'i orqali ogohlikka chaqiradi.

Zero, Abdulla Oripov she'riyatining umurboqiyiligining, abadiyiligining siri ham mana shundadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yung K.G. Ob otnoshenii analiticheskoy psixologi k poetika xudojestvennomu tvorchestvu. Zarubejnaya estetika i teoriya literature XX veka vv. Traktati , stat'i, esse. – M.: Izd. MGU, 1987.

<sup>22</sup> Normatov U. Qodiriy bog'i. – Toshkent: Yozuvchi, 1994. – B.62.

<sup>23</sup> Zarubejnaya estetika I teoriya literature XiX -XX vv. – M.: MGU, 1987. – C. 42.

<sup>24</sup> Matyoqub Qo'shjonov, Suvon Meli. Abdulla Oripov. – T.: Ma'naviyat, 2000. -B. 39.

<sup>25</sup> Ilhom G'aniyev, Nodira Afoqova. Abdulla Orif falsafasi. – T.: Muharrir, 2021. – B. 5.

<sup>26</sup> A.Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. 7-jild. Maftunkor she'riyat. – T., Sharq NMIU, 2013. - B.226

<sup>27</sup> Abdulla Oripov . Ehtiyoj farzandi. – Toshkent, 1988. B.117

2. Zarubejnaya estetika I teoriya literature XiX -XX vv. – M.: MGU, 1987.
3. Gershenzon M.O. Severnaya lyubov' Pushkina . - Spb.: Gumanitarnoe agensstvo Akademicheskiiy proekt, 1997.
4. A.Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. 7-jild. Maftunkor she'riyat. – T., Sharq NMIU, 2013.
5. Abdulla Oripov . Ehtiyoj farzandi. – Toshkent, 1988.
6. Abdulla Oripov “Shoirning tug‘ilishi” .- Toshkent: Adabiyot, 2021.
7. Matyoqub Qo‘shjonov, Suvon Meli. Abdulla Oripov. – T.: Ma‘naviyat, 2000.
8. Ilhom G‘aniyev, Nodira Afoqova. Abdulla Orif falsafasi. – T.: Muharrir, 2021
9. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.
10. Davlatova Adiba Raxmatovna “” Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. “:Filil. Fan.dok... dis.- avtoref .- Toshkent. 2022.
11. To‘laganova S. “Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi”
12. (Abdulla Qodiriy ijodi misolida):Filil. Fan.nomz... dis. - Toshkent. 2019.
13. Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
14. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz). Abdurahim Erkayev . Abdulla Oripov fenomeni .

## ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛАТЛАРАРО МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Ўзбекистон, Қорақалпоғистон республикаси  
Қорақалпоқ давлат университети педагогика ва психология кафедраси  
ассистенти Бекбергенов Абдинагим Абдуллаевич*

**Аннотация:** мақолада олий ўқув юртида талабанинг миллатлараро мулоқотда коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг концептуал модели шахсни касбий фаолият субъекти сифатида коммуникатив ривожлантиришга, уни биргаликдаги ижодий фаолиятга киритишга ва инновацион мулоқотни ривожлантириш, уни амалга ошириш усуллари назарий ва амалий асослари кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** таълим, тарбия, билим, малака, маданият, қобилият, мулоқот, тизим, модел, усул, интеграция, фаолият, шахс.

**Аннотация:** в статье показана концептуальная модель развития коммуникативной культуры студента в межнациональном общении в вузе, коммуникативное развитие личности как субъекта профессиональной деятельности, включение его в совместную творческую деятельность, а также теоретические и практические основы развитие инновационной коммуникации и методов ее реализации.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, знание, компетентность, культура, способность, общение, система, модель, метод, интеграция, деятельность, человек

**Annotation:** the article shows the conceptual model of the development of the student's communicative culture in international communication in the higher educational institution, the communicative development of the individual as a subject of professional activity, his inclusion in joint creative activities, and the theoretical and practical foundations of the development of innovative communication and the methods of its implementation.

**Key words:** education, upbringing, knowledge, competence, culture, ability, communication, system, model, method, integration, activity, person

Олий таълим муассасаларида ўқув жараёни талабаларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришга ва индивидуал билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришга қаратилган. Талабаларнинг миллатлараро мулоқотда коммуникатив маданияти таълим муҳитида биргаликдаги фаолият, мулоқот ва ўзаро муносабатларнинг бошқа шакллари жараёнида шаклланади. Шу нуктаи назардан, талабаларда миллатлараро мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг концептуал моделин такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб масаласи ҳисобланади.



Модел одатда маълум бир объект (тизим) деб таърифланади, уни ўрганиш бошқа объект, асл нусха ҳақида билим олиш воситаси бўлиб хизмат қилади. Ижтимоий-педагогик ҳодисаларни моделлаштириш жараёнида ҳар хил идеал моделлар яратилиши мумкин, уларнинг ҳар бири объект ҳақидаги билимларни ўзаро боғлиқ бўлган маълум бир фаразлар, баёнотлар, хулосалар тўплами шаклида акс эттиради ва моделлаштирилган объектнинг назарий схемасини ифодалайди.

Педагогика ва психологияда модел деганда асл тизимнинг айрим муҳим хусусиятларини такрорлайдиган объектлар ёки белгилар тизими тушунилади.

Коммуникатив маданиятни шакллантириш модели Н.Амиров "Ижтимоий ўқитувчининг касбий тайёргарлиги умумий тизимининг ажралмас, аммо нисбатан мустақил элементи бўлган ва концептуал, мақсадли, мазмунли ва ажралмас бирлигини ифодаловчи педагогик тизим" сифатида тавсифлайди.

Н.Амиров ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги ҳамкорлик тамойилига асосланган, шахсни ҳар томонлама ривожлантиришга, фаол нутқ фаолиятида амалий кўникмаларни шакллантиришга, умумий маданиятни ривожлантиришга қаратилган талабаларнинг коммуникатив маданиятини такомиллаштириш моделини таклиф қилади.

С.Хўжаназарова талабаларнинг коммуникатив маданиятини шакллантириш моделини таклиф қилади, у тўртта блокни ўз ичига олади:

- мақсадли блок (битирувчиларнинг таълимига қўйиладиган давлат талаблари);
- мазмун-процессуал блок (коммуникатив маданиятни шакллантириш усуллари, шакллари, воситалари);
- ташкилий-фаолият блоки (педагогик шартлар мажмуи);
- назорат ва баҳолаш блоки (ўқитувчининг коммуникатив маданиятни шакллантириш жараёнини кузатиши ва талабаларнинг ўзини ўзи баҳолаши).

Н.Амировнинг коммуникатив маданиятнинг назарий модели қуйидаги таркибий элементларни ўз ичига олади: «гуманистик йўналиш; аксиологик потенциал; акмеологик ният; шахсий-фаолиятнинг ўзини ўзи ташкил этиши ва ижодий ўзини ўзи ривожлантириш; коммуникатив технологик ускуналар» .

Илмий таҳлиллар хулосасига кўра, миллатлараро коммуникатив маданиятни шакллантиришда қуйидагиларни назарда тутамиз:

- мулоқот жараёнида айниқса миллатлараро мулоқотда аниқ намоён бўладиган бир қатор психологик ва руҳий хусусиятларнинг ривожланиши;
- алоқа воситаларини ўзлаштиришга ёрдам бериш;
- самарали мулоқот қилиш учун зарур бўлган бир қатор ижтимоий муносабатларни шакллантириш;
- мулоқот қобилиятларини ривожлантириш ва шакллантириш.

Олий ўқув юртида талабанинг миллатлараро мулоқотда коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг концептуал модели шахсни касбий фаолият субъекти сифатида коммуникатив ривожлантиришга, уни биргаликдаги ижодий фаолиятга киритишга ва ушбу жараённинг бошқа иштирокчилари билан мулоқотга қаратилган.

Талабанинг коммуникатив маданиятини шакллантириш бўйича биз таклиф қилаётган моделимизнинг концептуал асосини тизимли, маданий, компетенцияга асосланган, фаолиятга асосланган ва шахсга йўналтирилган асосий услубий ёндашувлар ташкил этади. Тизимли ёндашув методлар гуруҳини ўз ичига олади, улар ёрдамида объект (субъект, ҳодиса) ўзаро таъсир қилувчи компонентлар тўплами сифатида тасвирланади. Тизимли усуллар ўқув маълумотларини идрок этиш ва ёдлаш учун қулай шаклда такдим этиш имконини беради.

Маданият жиҳатидан ёндашув (культурологик) таълим ва тарбияда маданиятнинг устуворлигини тан олишдан иборат. Булар таълим ва тарбия жараёнида талабалар нафақат маданиятни ўрганади, балки уни ўзининг ҳаёт ва фаолият тарзи, маълум бир маданий муҳит сифатида яшайди ва ҳис қилади, шунингдек, уни ривожлантиришда давом этади.

Компетенцияга асосланган ёндашув - таълим мақсадларини белгилаш, таълим мазмунини танлаш, ўқув жараёнини ташкил этиш ва таълим натижаларини баҳолашнинг умумий тамойиллари тўпламидир. Фаолият ёндашуви маданиятни инсоннинг ижодий фаолияти сифатида тушунади.

Шахсга йўналтирилган ёндашув - бу ўзаро боғлиқ тушунчалар, ғоялар ва ҳаракат усуллари тизимига таяниб, ўз-ўзини билиш, ўзини ўзи қуриш ва ўзини ўзи англаш жараёнларини таъминлаш ва қўллаб-қувватлаш имконини берадиган талабанинг шахсияти, унинг ўзига хос индивидуаллигини ривожлантирувчи педагогик фаолиятдаги услубий йўналиш.

Талабалар ўртасида миллатлараро мулоқотда коммуникатив маданиятни ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик моделини ишлаб чиқишда биз уларнинг энг самарали коммуникатив маданиятини психодидактик принцип асосида қурилган олий таълим муассасаси таълими шароитида ривожланади деган фарздан келиб чиқдик яъни интеграция умумлаштириш тамойилига асосланган дидактик ва психологик мазмун, уни амалга оширишнинг инновацион диалогик усуллари ишлаб чиқишдан иборат.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Асаматдинова Ж. Технологии формирования ценностной ориентации учащихся на основе их нравственно-эстетического воспитания. Монография. Ташкент, 2016. - С.167.
2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. – 126 б.
3. Н.И.Амиров. Таълим жараёнида талабалар коммуникатив компонентида шакллантириш. Олий таълим. 2020 (3) 88

## ZAMONAVIY RAHBAR AUTOKOMPETENTLIGI

*O‘zbekiston, Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
Normirzayev Farxodjon Muminovich*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining autokompetentligini rivojlantirish masalasining muhimligi, o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishning boshqaruvdagi, ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati va usullari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Kompetentlik, autokompetentlik, boshqaruv omillari, usullari, o‘z-o‘zini rivojlantirish...

**Аннотация.** В данной статье говорится о важности развития самокомпетентности руководителей дошкольной образовательной организации, значении и методах самопрофессионального развития в управлении, обеспечении эффективности образования.

**Ключевые слова.** Компетентность, аутокомпетентность, факторы управления, методы, саморазвитие...

**Annotation.** This article talks about the importance of developing the self-competence of pre-school educational organization leaders, the importance and methods of self-professional development in management, ensuring the effectiveness of education.

**Key words.** Competence, self-competence, management factors, methods, self-development...

Zamonaviy boshqaruv haqida so‘z ketar ekan, rahbarning ta’lim muassasasi oldidagi burchi bu uning o‘zi boshqarayotgan tashkilotning rivojlanishida, ta’lim samaradorligini oshishida va faoliyat yuritayotgan xodimlar muvaffaqiyatlarini ta’minlash jarayoniga ta’sirini erta anglay bilishi va shu asnodda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi.

Prezidentimizning quyidagi berilgan fikrlarini maqolamizning kirish qismida berib o‘tishni joiz topdik: “Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak[1].

Jahonda boshqaruv va menejment yoʻnalishidagi tadqiqotlarda rahbar shaxsi yoki faoliyatiga kompetentsiyalar va kompetentlik kontekstida –boshqaruv kompetentligi, akmeologik kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, professional kompetentlik, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, ijtimoiy-pertseptiv kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, konfliktli kompetentlik, etnomadaniy kompetentlik masalalari boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda.

Rahbar autokompetentligini modellashtirish, xususan maktabgacha taʼlim tashkilotlari rahbarlari autokompetentligini rivojlantirishning kompleks modelini yaratish alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Tadqiqotchi olim E.F. Zeer autokompetentlikni mutaxassisning kasbiy kompetentsiyasi shakllanishidagi asosiy krmponentlaridan biri deb hisoblaydi. U "Autokompetentlik - bu oʻz ijtimoiy-kasbiy faoliyatini toʻgʻri baholash va rivojlantirish, kasbiy qiyinchiliklarni yengishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va texnologiyalarni oʻzlashtirishdir" deya taʼrif beradi[2].

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari rahbarlarida autokompetentlikni rivojlantirish zarurati yuzaga kelar ekan, boshqaruvning quyidagi eng muhim tamoyillarini tatbiq etishi maqsadga muvofiq boʻladi.

- strategik rejalashtirish;
- maqsad va vazifalarni aniq belgilash;
- toʻgʻri va adolatli qarorlar qabul qilish;
- tizimli tahlil;
- HR-menejment;
- Collaboration (hamkorlik);
- taym-menejment;
- prioritetlarni toʻgʻri tanlash;
- boshqaruvchilik madaniyati;
- moliyaviy resurslarni toʻgʻri taqsimlash;
- mehnat resurslarini toʻgʻri taqsimlash, umumiy strategik manfaatlar yoʻlida harakat qiluvchi kuchli jamoani shakllantirish;
- boshqaruvga zamonaviy uslublarni, innovatsiyalarni tatbiq etish;
- har bir xodimning oʻz imkoniyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratish;
- kadrlar professionalizmi va kompetentligini rivojlantirish;
- maktabgacha taʼlim tashkiloti imidjini shakllantirish;
- KPI (samaradorlikning bazaviy koʻrsatkichlari) ni baholash.

Rahbar autokompetentligi – bu oʻz-oʻzini rivojlantirish va takomillashtirishning ichki zaxirasi sifatida oʻzini oʻzi bilish, oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi anglash darajasining oshishiga olib keladigan koʻnikmalar, shuningdek, oʻzi haqidagi bilimlar tizimi; rahbarning oʻz aqliy resurslarini rivojlantirishi va ulardan foydalanishi, ichki holatini oʻzgartirish orqali boshqaruvchilik faoliyatida kutilmagan vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish, muammolarni yechish yoʻlida kuchli irodali munosabatni shakllantirishda koʻzga tashlanadi.

Zamonaviy rahbar autokompetentligi quyidagi yondosh kompetentsiyalarni rivojlanishiga bogʻliq boʻladi:

- liderlik;
- oʻzini boshqarish, self-menejment;
- konflikt-menejment, nizolarni boshqarish;
- insonlarni tinglay olish;
- tizimli fikrlash;
- muloqot kompetentsiyalari;
- gʻoyalar generatsiyasi;
- maqsadni toʻgʻri shakllantirish;
- vakolatlarni delegatsiya qilish;
- analitik koʻnikmalar;
- siyosiy-huquqiy bilimlar;
- maʼnaviy-ahloqiy bilimlar;

- mas'uliyatni zimmasiga ola bilish;
- prognozlash;
- mehnat resurslarini to'g'ri taqsimlash;
- shaxsiy xarizma;
- siyosiy intuitsiya.

Rahbar autokompetentligini rivojlanishida **rahbarning shaxsiy fazilatlari** katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Rahbarning shaxsiy fazilatlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqalarga ta'sir ko'rsata olish siyosiy iroda, ijtimoiy intellekt, ma'naviy-axloqiy bilimlarni talab qiladi.

Shu o'rinda ulug' sohibqiron, markazlashgan davlat asoschisi, taktik va strategik bilimlar sohibi Amir Temurning boshqaruvga oid fikrlarini keltirish joiz: *“Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim. Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim.*

*Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonlariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim”*[3].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ijobiy fazilatlari quyidagi:

- o'zaro hurmat, o'zaro ishonch, o'zaro yordam;
- muammolar yechimini birgalikda izlash;
- yaxshi an'analarni qadrlash;
- yumor va ko'tarinki kayfiyat;
- to'g'ri va ochiq munosabat;
- shaxsiy kamolotga intilish;

-xodimlardagi professionalizmni, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, motivatsiya berish[4] kabi o'zaro birgalikdagi munosabatlarida va hamkorlikdagi faoliyatida ko'zga tashlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy rahbar autokompetentligi rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari o'zini ustida ishlashi, kasbiy va shaxsiy sifatlarini uyg'un rivojlantirishi, boshqaruvga innovatsion yondashuv zaruriyatini anglashi, to'g'ri qaror qabul qilishi, menejmentga ularni tatbiq etishi boshqaruvda ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishga asos bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” T.: “O'zbekiston”-2017. 20-bet.

2. Axmedov B. “Temur tuziklari”. //Forschadan| A. Soguniy va H. Karomatov tarj; B. Ahmedov tahrir. ostida/.— T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.— 144 b

3. Zeer, E.F. Psixologiya professiy: - 2-e izd., -M.: Akademicheskij Proekt; Yekaterinburg: Delovaya kniga, 2003. – S. 53

4. Цыренова А.А. Менеджмент: Учебно-методическое пособие – Улан-Удэ:

5. Xoliqova M. Zamonaviy rahbarning korporativ kompetentsiyalar matritsasi. [https://api.moiti.uz/media/book/\\_\\_.pdf](https://api.moiti.uz/media/book/__.pdf).

## КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕДАГОГА КАК ВАЖНЫЙ АСПЕКТ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

*Узбекистан, НГПИ преподаватель кафедры  
русского языка и литературы  
Фефелова Гузалия Рашидовна*

**Annotatsiya:** ta'lim tizimida o'qituvchilarni yangi ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlashni tashkil etish va mazmuni masalalari etarlicha o'rganilmagan bo'lib qolmoqda va o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yagona yondashuvni talab qiladi. Ta'limning muhim jihati-o'qituvchining kasbiy vakolatlari mavjudligi. Kompetentsiyalardan o'qituvchining samarali rivojlanishini yaratish uchun mavjud bo'lgan ko'plab aniq ko'nikma va bilimlarni tashkil qilish uchun foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, o'qituvchi, rivojlanish, zamonaviy jamiyat, kasbiy samaradorlik.

**Аннотация:** вопросы организации и содержания подготовки педагогов к работе в новых условиях обучения в системе образования остаются недостаточно изученными и требуют единого подхода к подготовке педагогических кадров к профессиональной деятельности. Важным аспектом образования является наличие профессиональных компетенций педагога. Компетенции могут быть использованы для организации многочисленных конкретных навыков и знаний, доступных для построения эффективного развития учителя.

**Ключевые слова:** компетентность, педагог, развитие, современное общество, профессиональная эффективность.

**Annotation:** the issues of the organization and content of teacher training for work in the new learning environment in the education system remain insufficiently studied and require a unified approach to the training of teaching staff for professional activity. An important aspect of education is the availability of professional competencies of a teacher. Competencies can be used to organize the numerous specific skills and knowledge available to build effective teacher development.

**Keywords:** competence, teacher, development, modern society, professional efficiency.

В настоящее время общество и образование испытывает самые стремительные перемены за всю свою историю. Меняется роль учителя в организации образовательной деятельности, появляются другие источники информации при получении знаний учащимися. Современная система образования требует от педагога постоянного совершенствования компетенций, чтобы оставаться интересным своим ученикам.

Что такое компетенции учителя? Компетенции – это навыки и знания, которые позволяют учителю быть успешным. Чтобы максимизировать обучение студентов, учителя должны обладать обширным набором компетенций в особенно сложной среде, где каждый день требуются сотни критических решений. Немногие рабочие места требуют интеграции профессионального суждения и умелого использования компетенций, основанных на фактических данных, как это делает преподавание.

В 2019 году указом Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева утверждена «Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», которая предусматривает выполнение следующих приоритетных задач: – вхождение Республики Узбекистан к 2030 году в ряд первых 30 ведущих стран мира по рейтингу программы оценки учащихся Международного уровня PISA (The Programme for International Student Assessment); – качественное обновление содержания системы непрерывного образования, а также подготовки, переподготовки и повышения квалификации профессиональных кадров; – совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса; – внедрение современных

информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования и др.[1]

Кроме этого, в стране создан Республиканский научно-методический центр развития образования, деятельность которого направлена на внедрение инновационных педагогических технологий, разработку и реализацию новых учебных планов, программ и учебно-методической литературы, отвечающих современным требованиям. В функции Центра входят: разработка и утверждение требований к образовательным стандартам, учебным планам и программам, обязательных для организаций дошкольного, общего среднего и внешкольного образования, а также учебных курсов; организация издания, апробирования и экспертизы новых учебников и учебно-методических комплексов для организаций дошкольного, общего среднего и внешкольного образования; анализ эффективности образовательных стандартов, учебных планов, программ, учебников и учебно-методических комплексов и совершенствование требований к ним; а также мониторинг качества образования.[2]

Вдохновляющий учитель может глубоко повлиять на учеников, стимулируя их интерес к обучению. В равной степени верно и то, что большинство студентов сталкивались с учителями, которые были не вдохновляющими и для которых они выполняли плохо. К сожалению, эффективные и неэффективные учителя не имеют легко различимых личностных различий. Некоторые из самых лучших учителей приветливы, но многие неэффективные инструкторы могут быть представительными и заботливыми. И наоборот, некоторые из лучших учителей кажутся суровыми надсмотрщиками, но чье влияние огромно в мотивации учеников к выполнению того, что они никогда не считали возможным. Как правило, лучшие учителя проявляют энтузиазм и волнение по отношению к предметам, которые они преподают. Они не просто вызывают волнение, они дают студентам дорожную карту для достижения поставленных перед ними целей. Лучшие учителя владеют техническими компетенциями преподавания: преподавание, формирующая оценка и управление классом. Не менее важно, что они свободно владеют многослойным набором социальных навыков, которые ученики распознают и реагируют на них, что приводит к большему обучению. Эти навыки должны быть определены как четкие модели поведения, которые учителя могут освоить для использования в классах. Незаменимые мягкие навыки включают в себя: установление высоких, но достижимых ожиданий, поощрение любви к обучению, умение слушать, быть гибким и способным приспосабливаться к новым ситуациям, проявление сочувствия, внедрение и поощрение мышления более высокого порядка наряду с обучением базовым навыкам.[3]

Что говорят нам исследования о личностных компетенциях? Количественные исследования дают общий диапазон размеров эффекта от 0,72 до 0,87 для эффективных отношений учителя и ученика. Улучшение отношений между учителем и учеником способствует повышению успеваемости учащихся и улучшению климата в классе за счет снижения деструктивного поведения учащихся. Существует множество исследований, подтверждающих идею о том, что учителя играют решающую роль в улучшении успеваемости учащихся в школах. То, что делают учителя в классе, имеет решающее значение в этом процессе.

#### **Список использованной литературы**

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 29.04.2019 г. №УП-5712 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://lex.uz/docs/4312783>
2. Холматова З.А., Тухтасинова М.И., Шатунова О.В. Тенденции развития образования: педагог, образовательная организация, общество – 2023: материалы Всеросс. науч.-практ. конф. с международным участием (Чебоксары, Aug 25, 2023. 98-101
3. Широколобова А. Г., Ларионова Ю. С., Ачкасова О. Г., Формирование цифровых компетенций педагогов в процессе повышения квалификации в условиях цифровой трансформации образования. Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки. 2022.

## OILA – BOLADA NUTQI SHAKLLANISHINING ASOSIY BO‘G‘INI

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi*  
*Ramozonova Shalola Bekmurodovna*  
*Ilmiy rahbar: NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrası katta o‘qituvchisi*  
*O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna*

**Annotatsiya:** Oila birinchi navbatda tarbiya maskani hisoblanadi. Ota – ona bolaga boshidanoq ta’lim tarbiyani hamda uning nutqining shakllanishiga bevosita e’tibor bersa, odamiylik xislatlarini singdirib borsagina, tarbiyalagan farzandlarimiz, barkamol, sog‘lom, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega yetuk shaxs bo‘lib kamol topadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, bola, nutq, madaniyat, odamiylik, so‘zlashuv, tarbiya.

**Аннотация:** Семья – это прежде всего место воспитания. Только если родители будут уделять пристальное внимание образованию ребенка и формированию его речи, прививать ему качества человечности, дети, которых мы воспитываем, вырастут полноценными, здоровыми, зрелыми личностями, способными самостоятельно мыслить.

**Ключевые слова:** семья, ребенок, речь, культура, человечность, речь, образование.

**Abstract:** The family is primarily a place of education. Only if parents pay close attention to the child's education and the formation of his speech from the beginning, and only if they inculcate the qualities of humanity, the children we bring up will grow into full-fledged, healthy, mature individuals with the ability to think independently.

**Key words:** family, child, speech, culture, humanity, speech, education.

Rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonda oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlarining ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, kasb-kori hamda turmush tarzining yaxshilanishi muhim masala sanaladi. Oilalarda yuzaga kelib chiqishi mumkin bo‘lgan har qanday muammoli vaziyatlar va holatlar hamisha davlatimizning diqqat e’tibori va uning himoyasidadir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘on bu – oiladir”. Oila bu jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, bu bo‘g‘inlar qanchalik darajada mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shu darajada birlashgan bo‘ladi. Oila amalda mavjud bo‘lgan qonunlar, milliy urf-odat va diniy qoidalar bilan tartibga solingan.

O‘zbek oilalaridagi o‘ziga xos betakrorlik, nutq etiket qoidalari, har bir so‘zni o‘ylab, ma’nosiga yetgan holda so‘zlash kabilar bilangina go‘zal ma’no kasb etadi. Aynan bolaning ta’lim va tarbiya jarayoniga, bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan bu – oila.

Bolalardagi insoniylik, avvalo oilada, ota-ona, bobo-buvilaridan ibrat olgan holda shakllanadi. Unib o‘sayotgan yosh avlodga ma’naviy-madaniy tarbiya berishning yo‘llari va uning vositalari turli xil bo‘lib, aynan ular ichida bolaning kattalarga nisbatan muomalasi hamda ularning nutqi alohida ma’no kasb etadi. Farzand bu ota-onaning baxt-u kamoli, ishongan to‘g‘ri hisoblanadi. Bolaning oiladan o‘rgangan barcha fazilatlarini, uning eshitgan va ko‘rgan voqeliklari, bolalarning ota-onalarini astoydil ravishda hurmat qilishi, bu oilalarning milliy ramzi bo‘lib qolaveradi.

Ota-onalarning bir-birlarini hurmat qilgan holda suhbat qurishlari hamda ovoz tonlariga (baland yoki past ohangda) biri so‘zlayotganda ikkinchisining tinglab turishiga, shuningdek, yurish turishi va o‘zini tutish kabi holatlar ta’siri ostida bolada nutq qobiliyatining, qolaversa, nutq madaniyatining chambarchas bog‘liqlik zanjiri mustahkamlanib boraveradi. Ota-ona farzandiga ta’lim va tarbiya berishi uning unib o‘sishi uchun shart-sharoit yaratib berishi darkordir. Hattoki, diniy ta’limotlarda ham ota-ona o‘z farzandiga ta’lim-tarbiya berishi dolzarb va muhim sanalgan. Jumladan, bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandingizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ulganlar” deya har bir ota-onani bolaning ta’lim olish jarayoniga befarqlik bilan munosabatidan qaytishga chaqirgan.

Ota-onalar bolalarining nutq madaniyatiga bog‘liq holatda niman va qanday gapirishni o‘rgatishi asosidagina, bola ota-onaning “ko‘zgudagi aksi” paydo bo‘la boshlaydi. Bola shaxsini

shakllantirishda va nutqini rivojlantirish borasida yo'lga qo'yiladigan kamchiliklar ming afsuski, hali hanuzgacha ko'zga ko'rinib kelmoqda.

Ota-onalarning bolalariga nisbatan sovuq munosabatlari, beparvoliklari bu salbiy munosabatlar bo'lib, oilada "yangi mehmonning" dunyoga kelishi bilan uning tili chiqish jarayonida, bola to'la to'kisligicha so'zlashuv jarayoniga ehtiyoj sezadi. Bu esa bolada nutq jarayoniga kirishuvida qiyinchiliklarning yuzaga kelib chiqishi, yosh doirasida belgilangan miqdordagi so'zlardan foydalana olmasliklarida qolaversa, ushbu so'zlar tarkibidagi ayrim harflarning talaffuzi bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oila birinchi navbatda tarbiya maskani hisoblanadi. Ota-ona bolaga boshidanoq ta'lim-tarbiyani hamda uning nutqining shakllanishiga bevosita e'tibor bersa, odamiylik xislatlarini singdirib borsagina, tarbiyalagan farzandlarimiz, barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega yetuk shaxs bo'lib kamol topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh .M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz -T.: "O'zbekiston", 2017 .
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarqiyot strategiyasi <https://www.lex.uz>.
3. Manzuratxon Xalmatova Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi T.: "O'zbekiston" – 2000 .
4. Nosirjon Uloqov Tilshunoslik nazariyasi T.: "Barkamol fayz media" -2016.
5. Babayeva D. R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: -2018.

### **ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Исманова Гульнора Гафуровна*

*Степень магистра, методист ЭГДОО №324 при Агентстве дошкольного образования  
Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан  
[ismanova-gulnora@yandex.ru](mailto:ismanova-gulnora@yandex.ru)*

**Аннотация:** В статье рассмотрена значимость профессиональных качеств педагогической профессии, представлен «Портрет современного педагога дошкольного образования», обсуждены вопросы использования интегративных технологий в подготовке будущих педагогов дошкольного образования.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada pedagogning kasbiy sifatleri ahamiyati, «Maktabgacha ta'limning zamonaviy pedagogi portreti», bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini tayyorlashda integrativ texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati yoritilgan.

**Abstract:** The article examines the importance of the professional qualities of the teaching profession, presents a «Portrait of a modern teacher of preschool education», discusses the use of integrative technologies in the training of future teachers of preschool education.

**Ключевые слова:** профессиональные качества, компетенция, стандарт, подход, принцип.

**Калит сўзлар:** касбий сифатларлар, компетенция, стандарт, ёндашув, тамойил.

**Key words:** professional qualities, competencies, standard, approach, principle.

Современный мир прогрессирует и трансформирует, влияя на появление все новых профессий и развитие креативных профессиональных компетенций. Существующий факт закрепляется глобальным интересом к развитию профессиональных компетенций разных сфер человеческой деятельности. В современном мире профессий профессиональный стандарт WorldSkills определяет профессиональные знания и специфические навыки на международном уровне.



Период обучения в высшем педагогическом учебном заведении, предшествует развитию профессиональных компетенций будущего педагога на основе профессионального стандарта педагога дошкольного образования. Существующие более 700 моделей компетенций и индикаторы разработанные начиная с 1991 года отражают уникальные комбинации, уровни и кластеры компетенций (Р. Бояцис, 1981 г.) и могут адаптироваться к типичным обязанностям социальных профессий [3]. Педагог сферы дошкольного образования также является социальной профессией. Но в то же время, педагогическая профессия требует творческого подхода к дальнейшей педагогической деятельности применяя деятельностно-творческий, компетентностный, междисциплинарный, личностно-ориентированный, проектный, рефлексивно-деятельностные подходы и учитывая принципы системности, целостности, интегрированности, гибкости, когнитивности. Основные задачи направлены на развитие профессиональных компетенций у будущих педагогов, готовых к трудовой деятельности с функциями управления, воспитания, обучения и развития. Также отметим важность совершенствования процесса профессиональной подготовки с перспективой дальнейшего применения освоенных профессиональных компетенций в практической, методической, управленческой, научно-педагогической деятельности [6].

В рамках нашего педагогического исследования мы сделали попытку объединить все профессиональные качества педагога дошкольного образования и представить «Портрет современного педагога» (Рисунок 1.).



Рисунок 1. Портрет современного педагога

В личности современного педагога дошкольного образования преобладают качества:

- гуманного отношения ко всем участникам дошкольного образования и воспитания;
- ценностного отношения и обращения к периоду дошкольного детства, обогащая развитие ребенка через игру, творчество, речевой коммуникации и общения, создания условий для познания и мышления;
- благоприятного и эффективного взаимодействия со всеми участниками дошкольного образования используя вербальные, невербальные и специфические дошкольные средства общения;
- осознание своего внутреннего, внешнего образа и индивидуального стиля, понимая нравственно-этические, духовные, эстетические качества педагогической профессии;
- педагога, прогрессирующего в самообразовании, саморазвитии, самоактуализации, саморегуляции, самомотивации, саморефлексии, с ценностным отношением к своему физическому и психическому здоровью;
- педагога, с проактивными, конструктивными, управленческими, организаторскими, методическими способностями организации педагогической деятельности, имеющий

исследовательские способности, проявляющего научно-педагогический интерес к развитию, обновлению, трансформации дошкольного образования.

«Портрет современного педагога дошкольного образования» даёт возможность представить «Профессиограмму современного педагога», в которой качественные показатели сопоставлены с профессиональными компетенциями, а также определить педагогические подходы и технологии, средства для достижения качественной подготовки будущих педагогических кадров дошкольного образования.

Для становления современного педагога дошкольного образования необходимо обратить внимание на модернизацию всего обучения, структуры и системы подготовки студентов. Учет внутренних ресурсов, личностного потенциала каждого будущего педагога дошкольного образования определяет систему организации обучения в педагогическом вузе. В свою очередь такая постановка задач подразумевает интеграцию прогрессивных и современных педагогических технологий. Перечисляя эффективные средства интегративных технологий, обратим внимание на:

- Технологию коучинга (Милтон Эриксон и Тимоти Голви) и коучинговые методы работы, активизирующие поисковую и познавательную деятельность, влияющие на саморазвитие, самоактуализацию, самооценку и саморефлексию студентов. Коучинговые технологии развивают у студентов компетенции поиска, нахождения, обработки, передачи информации, взаимодействия с участниками образовательного процесса, изучения путей достижения поставленных целей и задач, а также педагогических умений самим быть субъектом, который направляет в обучении.

- Teamwork technology (Д. Катценбах, М. Дуглас, Б.Г. Ананьев, Б.Ф. Ломов, А. Либерман), командный подход, распределение ролей в командной работе развивающий компетенции сплочения, коммуникации, взаимодействия в достижении единой цели [1]. Педагогическая профессия, как одна из социальных видов деятельности человека реализуется в социуме: детском сообществе, педагогический коллектив, совет родителей, партнеры и соучастники. Компетенции взаимодействия, управленческие и организаторские навыки развиваются в процессе командного подхода изучения дисциплин, специальных предметов, выполнения совместных проектов, прохождения педагогической практики.

- Проектную технологию (Дж. Дьюи, У. Килпатрик, В. А. Заренков) [5], как технологию в процессе применения способной объединить и интегрировать подходы, принципы, методы, приёмы и средства педагогических технологий, таких как критическое мышление (Эдвард де Боно, М. Липман, Р.Х. Джонсон) [4], кейс-технологии (Э.Тоул) [7], проблемного обучения (Т.В. Кудрявцева, И.Я.Лернер, М.И.Махмутов и др.), игрового обучения и методов тренинговых, интеллектуально-познавательных игр (Д.Б.Эльконин, Г.В.Селевко), интерактивных технологий и фасилитации (В.В.Гузеева), информационные и цифровые технологии [2] с колоссальными способами, возможностями и границами использования в обучении студентов.

Таким образом, по современным тенденциям в портрете современного педагога прорисовываются взаимосвязанные, взаимодополняющие, взаимозависимые профессиональные компетенции. В профессиональной подготовке современного педагога дошкольного образования с высоким уровнем развитых компетенций важнейшими факторами выступают каждый этап подготовки, личный потенциальный ресурс каждого студента, «микст» из педагогических технологий как средство интеграции.

#### **Использованная литература:**

1. Вытнов И.О. Статья: Особенности организации эффективной командной работы / «Наука и практика в образовании: электронный научный журнал» izdanie-nauka.ru // Выпуск № 3 (5) 2021 г.
2. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии / Учебное пособие// ЧПГУ, 2012-411 с.
3. Панько Е. А. Воспитатель дошкольного учреждения: Психология: пособие для педагогов дошкол. учреждений: 2-е изд., перераб. и доп. / Мн.: Зорны верасень, 2006. – 264 с.

4. Плотникова Н.Ф. Формирование критического мышления студентов вуза в условиях командной формы организации обучения: монография / Изд-во Казан. ун-та, 2015. – 84 с.

5. Стрижов А. Н. и др. Технология проектной деятельности: учебное пособие / Череповец: ЧГУ, 2021. – 98 с.

6. Токарева Ю.А. Управление профессиональными компетенциями: учебно-методическое пособие / Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 327 с.

7. Юлдашев З.Ю., Бобхужаев Ш.И. Инновационные методы обучения: Особенности кейс-стади метода обучения и пути его практического использования // Ташкент. “ISTIQLOL MOLIYA”, 2006. – 88 с.

## **OLIV TA'LIMDAGI BO'LAJAK PEDAGOGLARNI PEDAGOGIK DIAGNOSTIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi  
Meyliyeva Nafosat Gulomovna*

**Annatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarni diagnostik fikrlashi, kasbiy jarayonini boshlashdagi qiyinchiliklar, bo'lajak pedagoglarni o'zini anglashi, o'zini ustida ishlash, o'z-o'zini baholash kompetentligi, pedagogik – psixologik holatlar va ularning yechimlari haqida fikrlar, refleksiya hodisasi haqida yosh o'qituvchilar uchun mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'z:** diagnostika, kompetentsiya, refleksiya, pedagogik mahorat, yosh pedagog, didaktik qiyinchilik, pozitiv, mulotoqchilik.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются диагностическое мышление будущих педагогов, трудности начала профессионального процесса, самосознание будущих педагогов, работа над собой, самооценка компетентности, представления о педагогико-психологических ситуациях и их решениях, рефлексия. для молодых учителей об этом явлении.

**Ключевые слова:** диагностика, компетентность, рефлексия, педагогическое мастерство, молодой педагог, дидактическая трудность, позитив, общение.

**Annotation:** In this article, the diagnostic thinking of future pedagogues, difficulties in starting the professional process, self-awareness of future pedagogues, self-work, self-assessment competence, ideas about pedagogical-psychological situations and their solutions, reflection There are comments for young teachers about the phenomenon.

**Key words:** diagnosis, competence, reflection, pedagogical skill, young pedagogue, didactic difficulty, positive, communication.

**Kirish.** Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko'lamli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.[1]

Hozirgi zamon jamiyatimiz hayotida pedagoglarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Pedagog bo'lganda ham qanday pedagog - ilg'or tajribalarga ega, o'z kasbining ustasi, pedagogik mahoratga ega, bilimli, fidokor, turli xil vaziyatlarni diagnoz qilib nostandart pedagogik yechimlar bilan chiqib ketadigan pedagog kerak.

O'qituvchining ijtimoiy-psixologik shakllanishida o'z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o'qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yondashuvda barcha o'zaro bog'langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas.[2] Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo'ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo'g'inlari tahliliga chuqur yondashib bo'lmaydi. Umuman, pedagogik faoliyat doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil etish, o'qituvchi refleksiya rivojlanishining tashabbuskorligi bo'la oladigan o'ziga xos "tezlashtiruvchi" rolini o'ynamog'i kerak.

I.G.Turning ishi endigina o'z faoliyatini boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag'ishlangan. U didaktik qiyinchiliklarga shunday ta'rif beradi: "Didaktik qiyinchiliklar – o'qituvchining ta'lim jarayonidagi qiyinchiligi bo'lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo'qligi, keskinlik, beparvolik, o'z ishidan qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha, uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta'minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik "fikrlashni", malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsional ko'tarinkilik holatining mavjud emasligi". Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. "Indikatorlik vazifasi pedagogik mahoratning shakllanish jarayonini tormozlovchi ob'yektiv omillarni ajratadi, biroq u o'z-o'zini baholash tarzida subyektiv namoyon bo'lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarni aniqlab berishi mumkin".[3]

O'qituvchining o'z ichki imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e'tiborga olinishi lozim, – deb ta'kidlaydi A. K. Markova, –unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo'yish o'qituvchini kasbiy rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin.

Ushbu o'qituvchining individual rivojlanish mantig'ini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.


O'qituvchining yutuqlarini boshqa o'qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o'zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak. Shaxsiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zida tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o'rganadi, pedagogik ziddiyatlar o'rtasidagi sabab va oqibatli bog'lanishlarni aniqlaydi, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo'llarini belgilaydi, – deb ta'kidlaydi L.Y. Pleskach. Olimning fikriga ko'ra, "**Refleksiya – o'z-o'zini tahlil qilish bo'lib**, o'z-o'zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashishga nisbatan rag'batlantirishdir" [3] O'zini- o'zini tahlil qilish orqali pedagog o'z – o'zini obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'z - o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini- o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. **A.Avloniy** nomidagi O'qituvchilar malakasini oshirish instituti pedagog olimasi **L.T.Xurvalieva**: "Kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatleri, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati", – deb ta'riflaydi.

O'zbek olimi M. Ochilov "kompetensiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalar faoliyatdagi bir ko'rinishi". Kvalifikatsiya esa potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishidir. Demak, kompetensiya ko'rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo'ladi.[5]

## O'qituvchining diagnostik faoliyatidagi maxsus kompetensiyalar:



1-jadval

**A.V.Xutorskiy ta'limda o'qituvchining yetti diagnostik faoliyati ko'rinishlarini tavsiflaydi:**

**1. Dunyoqarash asosida o'zini anglash** - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra oladi va tushuna oladi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

**2. Umummadaniy** – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish;

- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish;
- ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angalay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

**3. O'quv va bilish jarayoni** – o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati;

- mantiqiy fikrlashi;
- o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

**4. Ma'lumotga ega bo'lish** – pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

**5. Muloqotchanlik** - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

**6. Ijtimoiy** - foydali mehnat - oilaviy munosabatlar va ma'suliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

**7. O'z ustida ishlashi** - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi.[4]

**Kvalifikatsiya va kompetensiyaning o'zaro munosabati:**

**Kvalifikatsiya** - potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishi. **Kompetensiya** - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi.

**Didaktik kompetensiya:**

- o'qitish muhitini yaratish;
- mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;
- o'quv jarayonini boshqarish;
- talabalarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish;
- talabalar bilimni anglash va ularni rivojlantirish;
- talabalar yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;
- fanlar bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lish.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikada o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rniga baho berishda layf touching (ingliz tilida: life- hayot, couching rejalashtirish) ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini to'g'ri rejalashtiradigan mutaxassis faoliyatidan foydalanilmoqda. Ma'lumki, o'qituvchi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchisi, boshqaruvchisi hamda yo'naltiruvchisi hisoblanadi. Uning kasbiy, shaxsiy faoliyatini uyg'unlikda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda har bir yosh pedagog pedagogik kasbiga kirib kelar ekan o'zining ustida ishlashi, yuqori natijalarga erishish uchun tinmay izlanishi, kasbiga fidokor, izlanuvchan, bilimli, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim, har bir voqea va jarayonni diognoz qila olishi va oldindan turli xil variantlarda ko'ra olishi lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sh.M. Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.
3. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – T.: TDPU nashriyoti, 2018.
4. Tolipova J.O. Pedagogik testologiya. – T.:, 2015.
5. Ochilov M. Muallim qalb me'mori “O'qituvchi” 2001 yil.

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA  
KITOB VA KITOBXONLIKNING O'RNI**

*O'zbekiston, Navoiy viloyati Karmana tumani 8-"Paxtaoy" DMTT tarbiyachisi  
Xasanova Nilufar Botirboyevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, har bir ta'lim va tarbiya kitobning vazifalari muhokama qilinib, mazkur vazifani hal qilishda pedagog tarbiyachining o'rni qanchalik muhim ekanligi, yosh ota-onalarga bolalarini kitoblarga va kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha qator taklif va tajribalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, psixologiya, metodlar, yosh davrlari, kitobxonlik.

Dunyoda biror kishi yo'qki, uning ustoz bo'lmasa. U hukumat odamimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul hunarmand ustami qo'yinki, barcha-barchaning o'z ustoz, hayot yo'lini charog'on etuvchi yo'lboshchi shamchirog'i bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sogasida ham o'z faoliyati bilan kelajagimiz bo'lgan aziz farzandlarimiz, yosh avlod vakillariga ta'lim va tarbiya berib, o'z ilm bolaligidan kichik, nimjon bir "niholni" ona Vataniga mehrl, fidoyi qilib "ildiz" ottirayotgan tarbiyachilar ham shundayin yuksak e'tirofga loyiqdir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli, shu bilan birga o'ta mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolani zamon talablariga munosib etib tarbiyalasa, unung ilmliligi, yangiliklarga, ijodga tashnaligi

jamiyatga munosib kadrlarni yetishtirishga, kelajakda xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga, har bir masalaga ilmiy-ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va o'sishga ko'maklashadi.

Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarni bajarishi uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi, umumiy kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqorosi sifatida his eta bilishi lozimdir.

Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyachining psixik asoslari va qonuniyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan, ularni kasbiy faoliyatiga tatbiq etishdan iboratdir. Bu masalalarni yechishda albatta, bizga beminnat ko'makchi, bir umrlik do'stimiz, maslahatgo'yimiz, barcha savollarimizga javob beruvchi ustozimiz bu-kitob ekanligini bir daqiqaga bo'lsin, unutishga haqqimiz yo'q. Va bu isbotlangan fikrni yosh avlod qalbiga singdirishimiz bizning eng katta yutuqlarimizdan biridir.

Avvalo bolaga tarbiya berishlik lozim zeroki, tarbiyasiz bolaga ta'lim berish bir muncha mashaqqatli va samarasizdir. Qadimdan ota-bobolarimiz ta'lim va tarbiya ishlarini teng olib borishgani barchamizga ayon. Zero, "Farzand tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina uning noo'rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi", deb aytganlar buyuk adib Yusuf Xos Xojib. Shuningdek, buyuk mutafakkir shoir bobomiz mir Alisher Navoiy: "Tarbiya-insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlarini hosil qilishga yordam beradi" deya ta'kidlagan ekanlar.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan texnikalar asrida kitoblarga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj birmuncha kamaygandek bizning nazarimizda. Aksariyat ota-onalar bolalarni kiyintirish, qornini to'ydirish va kerakli jihozlar bilan ta'minlashni o'zi uning kelajakda o'z o'rnini topishiga muhim rol o'ynaydi degan tushunchaga ega. Bular ham kerak albatta. Ammo eng muhimi bolaga yetarlicha e'tibor va tarbiya berishdir. Bolajonlar ota-onalari, bobo-buvilari tomonidan aytib berilgan ertak, hikoya, she'r, topishmoqlar orqali ta'lim, tarbiya oladi. Bunday badiiy adabiyot namunalari, albatta, bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bolajonlar bilan kitoblarni birga o'qish, filmlarni birga tomosha qilish, ta'limiy o'yinlarni birga o'ynash, jismoniy harakatlarni ya'ni, badantarbiya mashqlarini bajarish, bolalar xonasini birgalashib bezatish, kattalarga hurmatda bo'lishga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilish ya'ni, o'ynagan o'yinchoqlarini yig'ish, tabiatga ehtiyotkorona, mehrlil munosabatda bo'lishga o'rgatib borish, narsalarini ehtiyotlashga o'rgatish, opa-akalari bilan yaxshi munosabatni shakllantirish bilan berib boriladi.

Bolaga o'z oilasida qanchalik ko'p e'tibor berilsa, uning ko'cha-ko'ydan yomon odatlar ta'siriga tushishi shuncha oson bo'lmaydi. Hali o'qish va yozishni bilmaydigan kichik yoshdagi bu bolajonlar dunyo sir-asrorlaridan bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, ular o'zlarini qurshab turgan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Chunki, biz uchun oddiy narsalar ular uchun go'yoki "mo'zija". Bu borada ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ularni qiziqtirgan savollarga birgalashib javob topishlari, birga kitob tanlab, o'qib berishi va tahlil qilishga o'rgatib borishi zarur. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bejiz aytilmagan. Oilada kattalar kitobga oshno bo'lsa, tez-tez kitob mutoala qilsalar, bu oilada o'sayotgan farzand ham kitobga mehr qo'yadi. Bunday bolaning dunyoqarashi keng, so'z boyligi ko'p, nutqi ravon bo'ladi. O'zining erkin fikriga ega bo'lib o'sadi. Bolalarga go'daklikdan alla aytish bilan xalq og'zaki ijodining bebaho qadriyatlari go'dak qalbida, ong shuurida sehrli ohang, ona mehrining samimiy ifodasi orqali kurtak yozadi. Chaqaloq o'z vaqtida orom olishi, oziqlanishi kabi zaruratlar qatorida xalq og'zaki ijodining nammunlaridan alla, erkalatma, ovutmacholarga ham ko'nikma hosil qilib boradi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida "Chaqaloq organizmi va xarakterini mustahkamlash uchun; birinchidan, uni yengilgina chayqatish va silash, ikkinchidan, unga musiqa eshittirish, ashula va alla aytish", lozimligi ta'kidlangan. Bolada shu orqali jismoniy harakat, fikrlash va ijodiy intilishga moyillik paydo bo'ladi. Bola hayotidagi muvaffaqiyat onaning unga bo'lgan emotsional munosabatiga bog'liq. Shu bois, allada faqat ezgu tilaklar, maqtov va erkalashlar, fidoiylilik tuyg'ulari mujassamlangan bo'lmog'i lozim. Bu esa bolaning har tomonlama

sogʻlom inson boʻlib kamolga yetishiga xizmat qiladi" deganlar. Bundan tashqari bolaga oʻzbek xalq ertaklaridan soʻzlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, ezgulik kabi insoniy fazilatlarini kamol toptiradi.

Bolalar uchun kitoblar tanlashda albatta ularning yosh xususiyatlarini eʼtiborga oling. Yaʼni asarning hajmi qisqaligiga, mazmuni sodda va tushunarli boʻlishiga, yorqin va sehrli voqealar ishtirokiga va albatta kitobning rangli rasmlar bilan boyitilganligi-yu, harflarining yirik-yirik boʻlishi qiziquvchan bolalarning eʼtiborini jalb qilmay qoʻymaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ularni oʻqishga boʻlgan qiziqishini soʻndirmasdan maktabga chiqqunlaricha kitob oʻqishga oʻrgatish juda muhim hisoblanadi. Bu borada tarbiyachi va ota-onalar bilan yuqoridagi fikrlarimga qoʻshimcha tarzda bir qancha sinalgan tavsiyalarim bilan oʻrtoqlashmoqchimiz;

– Bolaga sovgʻa olganingizda albatta uning qiziqishlari va yoshiga mos, oʻzi orzu qilgan sifatli kitob olishni ham kanda qilmang. Bu ishingiz keyinchalik farzandingizning kundalik, yaxshi odatlariga aylanib boradi.

– Kitobni birgalikda oʻqing va muhokama qiling. Bola bilan birgalikda rasmlarini tomosha qiling. Bu yerda nima chizilgan? Mushukning quloqlari nechta, qayerda joylashgan? Menga koʻrsatchi, u qanday ovoz chiqarar ekan? Mushukning rangi qanaqa, senga bu rang yoqadimi? Mushukning yonida nima bor? Qaysi kichik, qaysi katta?".

Katta va tayyorlov guruhi bolalariga esa qiyinroq savollar berish lozim;

– "Bu qahramon nega shunday qildi-ykin, sen nima deb oʻylaysan, toʻgʻri ish qildimi? Voqea qanday davom etarkin? Seningcha nima qilsa, hammaga yaxshi boʻladi?" kabi. Yoki, rasmlarga qarab, asarni qayta hikoya qilib berishini iltimos qiling.

– Doim osonidan qiyiniga qarab yuring. Tovushlardan boshlang. Kitobdagi predmetlar rasmidagi birinchi yoki oxirgi tovushni topish "oʻyini"ni oʻynang. Keyinchalik tovushni ifodalayotgan harfni topishni oʻrgating. Sekin-asta boʻgʻinlarga oʻtish mumkin. Takrorlanadigan boʻgʻinlardan tuzilgan soʻzlar masalan, "da-da, bo-bo, bi-bi" kabi birinchi soʻzlar boʻlsin. Keyinchalik qiyinroq soʻz birikmalariga oʻtamiz.

– Harflar hamma joyda borligini koʻrsating. Bu ishni ham albatta oʻyin tarzida olib boring. Bola hamma joyda, uyda, koʻchada, oʻzini oʻrab turgan tevarak-atrofdan harflarni topishni oʻrgansin. Masalan, doʻkonlardagi yozuvlar, koʻchalarning nomi kabilarda bolalar oʻrgangan harflarni topishga harakat qilsin. Harflarni oddiy yod oldirmang, ohangga solib, qoʻshiq tarzida aytib oʻrganish ham qiziqarli, ham maroqli. Oʻrganayotgan harflarni bosma shaklda yozish malakalarini ham birdan mustahkamlab boring. Hamma bolaning oʻzlashirib olishi uning psixik jarayonlarining rivojlanishiga bogʻliq. Shunday ekan hamma bola bir xil vaqtda oʻzlashtirilmasligi mumkin. Siz vaqtdan unumli foydalaning. Sayrga chiqqanda rangli boʻrlar bilan chiqib, oʻrganayotgan, masalan rang-barang "A" harfini yozishni va qaysi rangda harf yozganligini aytishni taklif qiling. Ertalabki oʻyin vaqtida yoki yakka tartibda ishlaganda sanoq choʻplardan oʻrganayotgan harfini yasashni, rangli qumlar yordamida, katta idishlarga solib, barmoqchalari bilan harflarni yozib koʻrishni maslahat bering. Rasm chizish jarayonida oʻrgangan harflarini "yashirish"ni keyin doʻstlari bilan birga topishni taklif qiling. Oʻrganib olgan harflari yordamida soʻzlar hosil qilish oʻyinini oʻynang. Hamma harflarni yod olishini kutib turmang, masalan, "A,O,N" harflaridan "ONA, ANA, ON" kabi soʻzlari hosil boʻlishini oʻrgating, yangi soʻzlarni maʼnosini birdan oʻzlashtirib borish foydadan holi boʻlmaydi. Yaxshi oʻzlashtirib olgan bolalarni doʻstlariga koʻmak berishga undang, yaʼni "bogʻcha opa" rolida oʻyin oʻynasin. Unutmang, bola kattalardan koʻra, oʻzi tengilardan koʻproq va tezroq oʻrganishi mumkin.

– Yana oʻynang! Harfli va boʻgʻinli kubiklardan soʻzlar yasab oʻynashni taklif qiling. Tayyor boʻlgan soʻzga qofiyadosh, yoki teskari maʼno beruvchi soʻz topishni taklif qiling, oʻzingiz namuna boʻling. Katta harflar bilan yozilgan soʻzlarni oʻqib berishni iltimos qiling. Bolalarning fikrlarini eshiting, xohishiga koʻra kitob tanlang. Bu mashgʻulotlar uchun har qanday imkoniyatdan foydalaning. Eng asosiysi majbur qilmang.

– Kitobni oʻqiyotganingizda oʻzingiz ham shu kitob "ichiga" kiring, yaʼni bola sizni qiziqib, oʻqiyotganingizni sezsin, majburan emas. Har bir tovushni toʻgʻri, toʻliq va aniq talaffuz qiling. Ovozingizni baland-pastligiga, doim bir xilda mingʻillab chiqmayotganiga eʼtibor bering. Chunki



ma'lum bir vaqtda bir xil tonda gapirish bolani qiziqishini so'ndirishi, uni charchatishi yoki zeriktirishi mumkin.

– Albatta obrazga kiring va bundan uyalmang, aksincha zavqlanib bajaring. Mushukday miyovlab, bo'riday ovoz chiqarishdan tortinmang, kerak bo'lsa, ularning harakatlarini ham o'xshatib bering. Unutmang, siz kichkintoylarga dunyoni tanitayapsiz, bilim beryapsiz. Keyingi kitob mutoalasida boladan hayvonlarni ovozlari va harakatlarini ko'rsatib berishni iltimos qiling. Siz o'rgatgandek ayiqvoyning lapanglab yirishi-yu, tulkiyning ayyorona kulishlarini siz kutgandan-da ziyoda o'zlashtirishadi shunda bolalar.

– Judayam kuzatuvchan bo'ling. Bolalar qiziqib, ko'zi yonib tinglayaptimi? Qaysidir qahramonga achinib, mehr-shafqat belgisi yuzlarida namoyon bo'lyaptimi? Yoki, aksincha, kulguli voqealardan mazza qilib kulishayaptimi? Unga ertak va hikoyadagi qaysi epizod yoqdi, nima uchun? Ertakdagi qaysi holatni o'zgartirishni xohlashini so'rab biling. Shundagina bolaning xarakter-xususiyatlaridagi yashirin holatlaridan xabardor bo'la boshlaysiz.

– Bolalar uchun alohida kitob burchagi, rasmlarini ko'rib, o'qishi uchun tinch joy bo'lishiga e'tibor qarating. Bir eslab ko'ring, bolaligimizda kravotni tagida fonar bilan kitob o'qish qanchalik maroqli va sehrli edi. Shuni doimo yodda tutinki, bolangizga bilim olishida qilayotgan har bir harakatingiz, kelajakda albatta bolangizni katta yutuqlarga erishishiga, sizning yuzingizni yorug' qilishiga olib keladi. Va bularning zamirida azizlar, bolani kitob o'qishga mehrini oshirish yotadi. "Bolalikda olingan bilm-toshga o'yilgan naqsh kabidir"-deyilgan maqol bejizgamas. Agarda bolani bolalikdan kitob o'qishga, ilm olishga qiziqitirmas ekansiz, keyin kech. Abu Ali ibn Sino bobomizga bolani necha yoshidan boshlab tarbiya bermoq kerak degan savolga, juda erta, ona qornidaligidayoq deb aytgan gaplarini eslang va bunga amal qiling.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitobning o'rni beqiyosdir va albatta kitobga bo'lgan qiziqishni oiladan boshlasak, ularni bolalikdan kitobga oshno qilsakkina, kelajakimiz barkamol va ma'naviyatli shaxslarning qo'liga o'tadi. Hech bir onaning, hech bir pedagogning unutishga haqqi yo'q bir jumla bor: "Bolalarning begonasi bo'lmaydi. Ular Ollohning yerdagi niholchalaridir. Ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berib "parvarishlasak", kelajakda mazali "mevalaridan" bahramand bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. "Faylasuflar" nashriyoti-2017.
2. Xudoyberdiyeva.G. "Keksalarning yosh onalarga maslahatlari, chaqaloq, tarbiya".
3. Imomov.O. "Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari" pedagogika fan.dok. diss-Toshkent, 1998-316 b.
4. Alimardanova.M.M. "21-asrda bolalar kitobxonligi. Muammo va vazifalari"/Новости образования, исследование в 21 веке,-2023.
5. T.M.Mallaboyevna. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish usullari"-2018.
6. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" o'quv dasturi.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi I-bosqich magistranti  
Nuriddinova Maxliyo Nuriddin qizi  
E-mail: n14mahliyo@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizdagi uzluksiz talimning dastlabki bosqichi hisoblangan Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tillini o'qitishda qo'llaniladigan texnologiyalarni yanada takomillashtirish va uning natijali bo'lishini kafolatlash hamda, bolalarni maktab talimiga tayyorlashda chet tillidan dastlabki tushunchalarga ega bo'lishga xizmat qilishni taminlash kerakligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Chet tilini oʻqitish, Uzluksiz taʼlim, Lugʻat, Texnologiya, Nutq madaniyati, Multimedia, Didaktik oʻyin, Chet tilini oʻqitish metodikasi.

**Аннотация:** В данной статье мыслится необходимость дальнейшего совершенствования технологий, используемых при обучении иностранному языку в организациях дошкольного образования, которое считается первым этапом непрерывного образования в нашей стране, и гарантировать его эффективность, а также обеспечить оказание услуг по приобретению начального понимания иностранного языка при подготовке детей к школьному обучению.

**Ключевые слова:** Обучение иностранному языку, Непрерывное образование, Лексика, Технология, Культура речи, Мультимедиа, Дидактическая игра, Методика преподавания иностранного языка.

**Annotation:** In this article, it is thought that it is necessary to further improve the technologies used in teaching a foreign language in pre-school education organizations, which is considered the first stage of continuous education in our country, and to guarantee its effectiveness, and to ensure the provision of services to acquire the initial understanding of a foreign language in preparing children for school education.

**Key words;** Foreign language teaching, Continuous education, Vocabulary, Technology, Speech culture, Multimedia, Didactic game, Foreign language teaching methodology.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi „Maktabgacha taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida”gi PK-3261 sonli qarori<sup>28</sup> ijrosini taminlash yuzasidan maktabgacha taʼlim sohasidagi ishlar sifati oshirilmoqda. Prezidentimizning bunday qaror va farmonlari maktabgacha talim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarni sifatli maktab talimga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, talim – tarbiya jarayoniga texnologiya va zamonaviy talim dasturlarni joriy etish kabi dolzarb masalalarni hal etishga yoʻnaltirilgan. Uzluksiz talim tizimida tillarni oʻrgatishga etibor oshirildi. Madaniyatlararo muloqot vositasi hisoblangan til oʻrganish maktabgacha talim tashkilotlaridanoq kuchaytirilmoqda. Respublikamizda soʻnggi yillarda ingliz tili boʻyicha oʻquv yakunlariga doir umumeʼtirof etilgan testlar topshirish faoliyati va tizimini tashkil qilish dolzarb vazifa sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu bois Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilindi. Xalqaro eʼtirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarurligi belgilandi.

T.K. Sigal tomonidan yaratilgan “Audirovaniye dlya shkolnikov” (2014) deb nomlangan oʻquv qoʻllanma Elementary darajasidagi ingliz tilini oʻrganishga moʻljallangan. ETR Moskva shahridagi Ayris-press nashriyotida tayyorlangan boʻlib, uning maqsadi - ingliz tilidagi matnlarni tinglash koʻnikmalarini rivojlantirish, shuningdek mazmunli maʼlumotlarni ajratib koʻrsatish qobiliyatini rivojlantirish. Tinglash materiallari mashhur afsonalar va ertaklardan moslashtirilgan matnlarga asoslangan. Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun puxta ishlab chiqilgan mashqlar mavjud: Ushbu ETR 61,91 MB ni tashkil qiladi.<sup>29</sup> Dunyo mamlakatlari amaliyotiga qaraydigan boʻlsak chet tillarini bolalarga ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib oʻqitishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Ispaniyadagi Mursiya universitetida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini qoʻshiqlar va ertaklar asosida oʻrgatish, Gretsiyadagi Ayenina universitetida axborot texnologiyalari vositasida, Erondagi Islamik Azad universitetlarida raqamli oʻyinlardan foydalanish boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik boʻlib, ushbu xorijiy tajribalarni oʻrganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib boorish zaruriyatga aylanganligini koʻrsatadi.

Respublikamiz talim tizimida oʻtkazilatotgan tub islohotlar ,chet tillarini birinchi sinfdan boshlab uzluksiz oʻqitishning yoʻlga qoʻyilishi, maktabgacha talim tashkilotlari moddiy-texnik va

<sup>28</sup> <https://lex.uz>.

<sup>29</sup> <https://moluch.ru/archive>.

o'quv-uslubiy taminotining mustahkamlanishi, maktabgacha talim sifatini oshirish, bolalarga chet tillini o'qitishning interfaol metod va usullariga etibor kuchayganligi, „Ilk qadam“ tayanch dasturi va shu kabi qator meyoriy-huquqiy asoslarning yaratilishi maktabgacha talim sohasini to'liq modernizatsiyalanishiga olib keldi. Bu Maktabgacha talim tashkilotlari uchun chet tillarini xususan, ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, metodik qo'llanmalar yaratish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Bolalar uchun chet tillarini o'rganishning eng maqbul va oson o'zlashtirish davri maktabgacha bo'lgan davr bo'lib, kichik yoshdagi bolalarda til o'rganishning o'ziga xosligini tug'ma qobiliyat deyish mumkin. So'z-musiqaharakat horijiy tilni o'rgatishda bir butun yaxlitlikni tashkil etadi. So'zlarni qo'shiq qilib aytish va uning ohangiga mos holda ko'rsatib, so'zning nomini aytadi. Bolalarni talaffuzni jo'rlikda takrorlaydilar. Keyingi bosqichda o'yinchoq yoki rasmni berib, yangi so'zni aytishga undaydi. Bu faoliyat bir boladan ikkinchisiga zanjir kabi o'taveradi va qadama qadam o'stirib brogan holda amalga oshirib boriladi. Pedagog yangi so'zni o'rgatish jarayonida, har bir bolaning to'g'ri talaffuz qilishini ham kuzatib boradi. Mashq yakunida bolalar o'zlashtirilgan so'zlarni jo'rlikda takrorlaydilar. Kichik yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyat turi o'yin bo'lib, u shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatki, bu jarayonda bolaning barcha psixik jihatlari va bilish faoliyati rivojlanadi. O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita bo'lib, ayniqsa syujetli-rolli o'yinlar malum bir mavzuga oid so'zlarni o'zlashtirish va o'z fikrni mustaqil ravishda bayon etishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda so'z o'yinlari, didaktik, harakatli, musiqiy, syujetli-rolli, sahnalashtirilgan o'yinlardan foydalanish yaxshi samara berishini ko'rsatdi. Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tilli mashg'ulotlarida yangicha innovatsion metod va usullardan foydalanish bolalarning chet tilli bo'yicha bilimlarini egallashga yengiliklar yaratadi. Bolalar uchun asosiy faoliyat turidan biri o'yin bo'lganligi uchun ham mashg'ulotlarda o'yin metodi ko'proq foydalaniladi. Charades o'yini. Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilarning sust, zerikkan va uyqus kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Ularni uyg'oting va harakatlantiring!

O'quvchilar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qilib qirqilgan qog'ozlarga so'zlar yozing. Fe'llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo'lsada hamma o'quvchilar biladigan so'zlardan foydalanishingiz mumkin.

Sinfni ikki jamoaga bo'ling. Va har bir jamoadan bir o'quvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqada ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi. Ushbu o'yini bog'cha yoshidagi bolalarga moslab tashkil qilish kerak. Qog'ozlarga so'z o'rniga hayvonlar rasmini qo'yib, bolalarni taqlid qilishga o'rgatish mumkin. O'yin davomida hayvonlarning ingliz tilidagi nomini ham eslab qolishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://lex.uz>.
2. <https://moluch.ru/archive>.
3. Akbarova Shakhnoza Hikmatullaevna. Pedagogikafanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
4. hasanboy.uz. Ingliz tili darslarda qiziqarli o'yinlar.

## СРОК СЛУЖБЫ И ИНТЕНСИВНОСТЬ ИЗНОСА ШИНЫ ПОЖАРНО-СПАСАТЕЛЬНЫХ АВТОМОБИЛЕЙ

*Махкамов Нурмухаммад Янгибоевич к.т.н., профессор Академии МЧС РУз.,  
Асамов Шерали Байкузиевич соискатель Академии МЧС РУз.*

**Аннотация:** В статье приводится анализ эксплуатации шин пожарно-спасательных автомобилей, износ шин от воздействия агрессивной среды, дорожного покрытия, притока теплового удара, класса дороги и климатического условия. Даны рекомендации по расчету срока эксплуатации шин пожарно-спасательной техники.

**Ключевые слова:** Поверхность дороги, дорожные покрытия, поперечные профили, каркасы, появление усталость, стирание протектора.

**Annotation:** The article analyzes the operation of tires of fire and rescue vehicles, tire wear from the impact of an aggressive road surface, influx of thermal shock, road class and climatic conditions. Recommendations are given for calculating the service life of tires for fire and rescue equipments.

**Keywords:** The surface of the road, pavement, cross profiles, carcass, fatigue wears out the tread

Автомобильные шины являются одним из наиболее дорогостоящих элементов автомобиля, влияющим на безопасность движения, расход топлива и экологию. Научно-практическая задача повышения технического ресурса шин приводит к повышению безопасности движения автомобилей, снижает расход топлива и уменьшает негативное влияние на экологию, так же повышение технического ресурса позволяет получать положительный экономический эффект, который можно реализовать для модернизации материально-технической базы автотранспортного предприятия. В области технической эксплуатации шин проведено множество исследований. Все эти исследования направлены для решения научно-практической задачи повышения технического ресурса шин. Разница заключается в подходах и методах решения.

Срок службы шин пожарно-спасательных автомобилей в процессе эксплуатации зависит от интенсивности износа шин, которая, в свою очередь, является непрерывной величиной. Соответственно всегда имеет место быть определенный набор факторов, влияющих на интенсивность износа шин. Факторы могут варьироваться по степени их влияния, а некоторые факторы могут просто не существовать в некоторых условиях эксплуатации и поэтому оказывать нулевую степень влияния на процесс износа шин:

- основные факторы разделены на три группы по степени управления (рис.1):
- управляемые факторы – это факторы, зависящие от работы технической службы предприятия. К ним относятся организационно-технические факторы, техническое состояние автомобиля;
- частично управляемые факторы – квалификация водителей, эксплуатационные факторы;
- неуправляемые факторы – факторы, не зависящие от работ.



Рис.1. Факторы, влияющие на интенсивность износа шин технической службы.

К ним относятся дорожно-климатические условия, конструкция автомобилей, качество шин.

На основе экспертной оценки ученых специалистов в области технической эксплуатации автомобильных шин были проведены ранжирования факторов и установлены в порядке по степени влияния (рис.2), где эксплуатационные условия, технические состояния автомобилей и организационно-технические факторы имеющие наибольшую степень влияния на ресурсы шин.

На основе исследований [2] выделяются следующие факторы, влияющие на сроки службы шин: техника вождения автомобиля и крутящие моменты; дорожные, климатические условия и конструкции автомобилей; весовые перегрузки шин; скорость движения автомобилей; давление воздуха в шинах; углы установки колес и силы, действующие на шины; несоответствия конструкций и неоднородность колес; перекосы осей и технические состояния подвесок.



Рисунок 1.2 – Классификация основных факторов, влияющих на ресурс шин

Влияние факторов определяются рядом параметров (рис.2). Отклонение каждого из параметров от оптимального состояния увеличивает интенсивность износа шин. Влияние первой группы факторов может быть полностью устранено совершенствованием работ технической службы предприятия. Влияние второй группы факторов может быть полностью или частично устранен, но не всегда это возможно, влияние третьей группы факторов не может быть устранено, но должно учитываться при установлении или корректировке норм пробега шин.

Давление воздуха в шине оказывает большое влияние на срок службы шины. Поэтому для каждой марки шин производитель устанавливает определенную норму давления [1], при которой шина будет иметь наибольший ресурс. При увеличении или уменьшении давления их срок службы значительно снижается (рис.3).




Рис.3. Влияние давления в шине на ее ресурс

Такое влияние внутреннего давления в шине на ее ресурс объясняется достаточно просто: пониженное давление ведет к большей деформации самой шины, что повышает ее температуру и вызывает рост интенсивности износа в зоне контакта шины с дорогой. При недостаточном давлении шина имеет значительно меньшую площадь зоны контакта протектора с дорогой: протектор изгибается, и его середина теряет контакт с дорогой, тогда как вся весовая нагрузка, приходящаяся на шину, ложится на плечевую зону протектора, что приводит к его интенсивному износу.

Так же повышенная деформация повышает вероятность усталостных разрушений. При нормальном давлении шина имеет полный контакт с дорогой по всей ширине протектора, что позволяет равномерно распределить весовую нагрузку на шину и обеспечить равномерный износ. При повышенном давлении происходит обратная ситуация: протектор изгибается, но уже в другую сторону. Вся нагрузка ложится на середину протектора, соответственно при повышенном давлении происходит интенсивный износ средней его части.

#### Литература:

1. Захаров Н.С. Корректирование давления воздуха в шинах при эксплуатации автомобилей зимой: монография / Н. С. Захаров, Г. В. Абакумов. – Тюмень: ТюмГНГУ, 2011. – 162 с
2. Янчевский В.А. Основные пути рационального использования шин на автомобильном транспорте: обзор. - М., 1987. - 57 с. - (Автомобильный транспорт / Минавтотранс РСФСР. ЦБНТИ; Вып. 7).

## MAKTABGACHA TA'LIMDA MENEJMENT FAOLIYATI TURLARI VA BOSHQARUV TIZIMI

*O'zbekiston, Taylanova Shohida Zayniyevna*

O'zbekistonda ta'lim tizimlarini rivojlantirish, samaradorligini yuksak hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amalga oshiralayotgan ta'lim tizimlarining ilg'or tajribalarini milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish jarayonlari yoritib berilgan bo'lsa<sup>30</sup>, bugungi kunda "Harakatlar strategiyasidan -

<sup>30</sup> 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича [матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодийёт университети – Т.: «Маънавият» нашриёти, 2017- йил, 190-б.

Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar va maqsadlarda ta‘lim tizimlariga ham e‘tibor qaratilib, ta‘limning ilk bosqichi maktabgacha ta‘lim haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan<sup>31</sup>. Bunda maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasini hozirgi kundagi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, maktabgacha ta‘lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish<sup>32</sup>, maktabgacha ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022–2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalari qamrab olingan<sup>33</sup>.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti - uzluksiz ta‘lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy qatlamidir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘lim tizimlarining uzluksizligi va o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, bunda:

#### **Ta‘lim tizimi:**

davlat ta‘lim standartlarini, davlat ta‘lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

✚ davlat ta‘lim standartlarini, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta‘lim tashkilotlarini;

✚ ta‘lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

✚ ta‘lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

✚ ta‘lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi<sup>34</sup>.

Ta‘lim tizimi yagona va uzluksizdir. Ushbu Qonunda ta‘lim turlari:

✚ maktabgacha ta‘lim va tarbiya;

✚ umumiy o‘rta;

✚ o‘rta maxsus ta‘lim;

✚ professional ta‘lim;

✚ oliy ta‘lim;

✚ oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;

✚ kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

✚ maktabdan tashqari ta‘lim etib belgilab berilgan.

Ushbu Qonunning 8 - moddasi maktabgacha ta‘lim va tarbiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, bu tashkilot bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma‘naviy - axloqiy, etnik, etika, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan ta‘lim turi ekanligi va maktabgacha ta‘lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta‘limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi ko‘rsatib berilgan.

<sup>31</sup> “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.

<sup>32</sup> Yuqoridagi manba, 37-bet.

<sup>33</sup> “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.

<sup>34</sup> “Ta‘lim to‘g‘risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet.



Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun bilan va shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi<sup>35</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullanib, 16 dekabrda tasdiqlanib, 2020 - yil 16 - iyundan boshlab amalda qo'llanilmoqda. Bu 11 bob, 58 moddadan iborat.

**Ushbu Qonunning maqsadi** maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa Qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi<sup>36</sup>.

Barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 yil 29 dekabrda PQ – 2707 -son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari Maktabgacha ta'lim Vazirligi tasarrufiga kiradi. Respublikamizda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan birga nodavlat, xususiy, davlat sherikchilik va oilaviy MTT ham faoliyat yuritadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va boshqa normativ- huquqiy hujjatlarga, shuningdek Nizomga amal qiladi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati NIZOM asosida tartibga solinadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz"<sup>37</sup>, - deb ta'kidlagan edi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish, bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat tuyg'ularni singdirish, ularni maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim tashkilotida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlangich ta'lim tashkilotlariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, vazirliklar tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, ularni eng ilg'or oliy ta'lim tashkilotlari tarkibiga o'tkazish orqali umumiy o'rta

<sup>35</sup> Yuqoridagi manbaa, 4 - bet.

<sup>36</sup> "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun T.:2019- yil, 16-dekabr, O'RQ – 595-son.

<sup>37</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.

ta'lim maktablari o'qituvchilariga eng kuchli va tajribali professor-o'qituvchilar ta'lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.
2. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича [матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодий университети – Т.: «Маънавият» нашриёти, 2017- йил, 190-б.
3. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.
4. “Ta'lim to'g'risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet.

### **ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ОБРЯДОВЫХ ПЕСЕН**

*Ўзбекистан, старший преподаватель кафедры русский язык и методики преподавания  
Узбекского Государственного Университета Мировых Языков  
Рахмонова Роза Пантелеевна*

**Аннотация:** в данной статье рассказывается об истоках появления народных обрядовых песен, а также перечислены жанры народных обрядовых песен, приведены примеры из научных трудов узбекских ученых-фольклористов. Автор отмечает дальнейшие перспективы в изучении узбекского обрядового фольклора.

**Ключевые слова:** традиционная культура Узбекистана, обрядовые песни, фольклор, научные труды, фольклористы, развитие, первые истоки, наука, перспективы

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek xalq marosim qo'shiqlarining paydo bo'lishi va o'zbek xalq marosim qo'shiqlarining janrlari va rivojlanishining asoslari yoritilgan, shuningdek, o'zbek folklorshunoslarining ilmiy ishlaridan misollar keltirilgan. Muallif o'zbek marosim folklorini o'rganishning keyingi istiqbollari ham qayd etadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekistonning an'anaviy madaniyati, marosim qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodi, ilmiy asarlar, folklorshunoslar, taraqqiyot, ilk kelib chiqish, fan, targ'ibot.

**Annotation:** This article talks about the origins of the appearance of folk ritual songs, and also lists the genres of folk ritual songs, and provides examples from the scientific works of Uzbek folklorists. The author notes further prospects in the study of Uzbek ritual folklore

**Key words:** traditional culture of Uzbekistan, ritual songs, folklore, scientific works, folklorists, development, first origins, science, prospects.

В традиционной культуре Узбекистана большое место занимают обряды, праздники с их многообразием обычаев, церемоний, ритуалов и традиций. Обряды, как и праздники, сочетают в себе все, что накоплено в культуре народа, отражают историческую жизнь определенной общественно-экономической формации и в известной мере формируют духовный мир нации.

Обряд является важнейшим компонентом традиционной и духовной культуры народа, он выступает как важный этнографический фактор, в определенной мере, отличающий один народ от другого. Обряд составляет этническое лицо нации, являясь одним из его этнических символов. Наряду со многими атрибутами, музыка и пение являются одной из ценных областей духовного опыта, которых отличает богатство стилей, манера исполнительства, тематика и содержание.

Обрядовая музыка древнейший пласт традиционной культуры. Именно с обрядами связано приобщение человека к народному творчеству – песням, танцам, народным играм,

зрелищным действиям и пр. При этом музыка и пение становятся главным атрибутом любого обряда. Обрядовое песнетворчество – это музыка и пение непосредственно участвующая в проведении обрядности и исполняемая во время обрядовых действий. К ним относятся календарно-обрядовые, свадебно-обрядовые песни, похоронно-поминальные и культово-ритуальные песнопения. Для каждого характерны своя специфика и содержание, музыкально-поэтические закономерности и особенности исполнительства с учетом локальности и вариантности.

К календарным относятся песни, связанные с временами года, явлениями природы и трудовыми процессами, то есть с обрядами «вызывания дождя, ветра и снега» - самобытные песни-призывы (Суст хотин, Шамол чакириш, Чой момо, Кор келди), первого цветка (Бойчечак, Бинафша), первой борозды (Куш хайдаш, Шохмойлар, исполняемых мужчинами сольно без сопровождения, громким и открытым голосом), жатвы (Майда, Обло барака), а также праздниками, как Навруз (ритуальные, церемониальные, праздничные, ритуальные), исполняемых сольно или группой – (Салом Навруз, Муборакбод, Йил боши, Сумалак); песни-колядки, связанные с восточным календарем – своеобразные обходные песни, исполняемые в прошлом взрослыми, позднее группой детей (Рамазон или Ё раббим).

Самый обширный и многообразный пласт семейно-бытовая обрядовая музыка, связанная с жизненным циклом человека – от рождения через совершеннолетие и создания семьи вплоть до его смерти, то есть человеческая жизнь связана с возрастно-жизненным циклом – мучаль (12-летняя цепочка). Сюда входят свадебно-обрядовые песни с разнообразием выразительных средств и исполнения, выполняющие различные функции – поздравления, шествия, величания, назидания, приветствия и др., где основными песенными жанрами являются «муборак» (поздравления – Той муборак, Той бошлови, Ал муборак), «кутлов» (приветствия – Хуш келдингиз, Келин и куёв кутлови), «ёр-ёр и улан» (шествия и величания – Ёр-ёр, Улан), «келин салом» (приветствия и назидания – Келин салом, Чор салом, Хазор али), «айтишув» (корильные – Муборак, Байтхонлик, Лапар – групповые песни-соревнования в форме двух или четырёхстиший), «хайрлашув» (прощальные – Той жавоби, распространенные в Хорезме, оповещающий песней об завершении свадебного пиршества обряда бракосочетания - Никох той). По случаю рождения ребёнка и проведения «торжества у колыбели» - бешик той, исполнялись колыбельные песни (Алла или Она алласи, песни импровизационной формы). Свадебные песни всегда пелись с инструментальным сопровождением с речитативно-распевными и песенными типами мелодий, разнохарактерных и многообразием манеры пения. Для ряда регионов характерно бытование самобытных свадебных песен и даже циклов, как для Бухары – Мавриги, для Самарканда – Карсак, для Ферганской долины – Накш, Шомуборак, Устози сартарош.

Основным жанром похоронно-поминальной обрядности является плач-причитание – Йиги или Йуклов, чаще исполняемые женщинами сольно или группой без инструментального сопровождения в лирико-драматическом и эмоциональном воспроизведении. К похоронным также относятся песенный жанр Марсия (посвящение) и песнопения Садр. Семейно-бытовая обрядность врачевания больных детей включает Бадик – песня-речитация в сольной интерпретации женщинами.

История обрядов свидетельствует, что они, как образно-символическое, художественно-словесное или музыкально-поэтическое оформление важнейших событий жизни общества и личности, имеют непреходящее значение. Религиозные верования представления никогда не являлись стержнем жанров народного творчества, но, несмотря на это, в них прослеживаются наслоения древних мифологических образов, постулатов ислама. Религиозный ритуал и обряд включает культово-ритуальную музыку, связанная с древнейшими культами, как шаманизм (обряд врачевания с песнопениями «Куч» или «Кайтарма», букв. – изгнание), с мусульманским богослужением (азан, Коранопение, зикр, мавлюд), с вокальными произведениями религиозного содержания ( муножот, наът, каландар, хонакои и др.) – это сфера изустно-профессионального творчества и в основном

вокальная без инструментального сопровождения, начиная от мелодекламации Азана до распевно-декоративных Тажвид.

Обрядовые песни и песнопения сопровождают человека с первых дней рождения (колыбельные «алла», бытовые «азан») и до последних его дней (похоронные «йиги»), и даже память о нем дольше всего сохраняется в песнях («марсия», «наът»). Обрядовая музыка узбеков была предназначена для определенного обряда и исполнялась в конкретные дни года и по тому или иному поводу: календарь, быт и род (рождение, свадьба, смерть), болезни, стихийные бедствия, религиозные действия. Неразрывная связь в обряде музыки, слова и действия определяла не только содержание произведений, соответствующих тому или другому этапу обрядовых ситуаций, но и их структуру, музыкально-поэтические закономерности и стиль исполнения.

Современное бытие обрядовых песен – это не только охрана, сохранение и развитие исполнительских традиций, но и преемственность, живое творческое воплощение. И оно связано с экспедиционной практикой – аудио-визуальная и нотная запись образцов обрядовой песенности; популяризация через радио и телепередачи, фильмы; проведения конкурсов, фестивалей (фольклорных ансамблей, исполнителей алла и свадебных песен), конференций, издания книг, сборников и дисков, научно-исследовательская деятельность. Обрядовые песни являются источниками новых музыкальных произведений композиторов Узбекистана.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Миршаев У.М., Миршаева Д.А. РОЛЬ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ //Проблемы педагогики. 2020. №. 3 (48).

2. Каримов О.И. ЗНАЧЕНИЕ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ //Academy. 2020. №. 3 (54).

3. Каюмов И.Ф. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ МУЗЫКИ //Academy. 2020. № 11(62).

### **TALABA SHAXSINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATI MODELI**

**O‘zbekiston, Maktabgach ta’lim kafedrası o‘qituvchisi  
Davlatova Zebo Haydarovna**

O‘zbekiston jamiyati sanoatdan axborot jamiyatiga o‘tish bosqichida bo‘lib, unda bilim qiymati ustunlik qiladi. Jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lish va yanada rivojlanish uchun intellektual resurslarni yaxshilash kerak. Zamonaviy madaniyat dinamizm, ochiqlik va ijodkorlikka qaratilgan. Konfliktni madaniyatsiz hal qilish nizodagi tomonlarga ham, butun jamiyatga ham zarar keltiradi. Globallashuv tufayli jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi paradigma o‘zgarishi fan va talimning ijtimoiy taraqqiyot uchun ahamiyatining misli ko‘rilmagan darajada oshishiga olib kelmoqda.

Shuni hisobga olish kerakki, “axborot jamiyati” va “bilimga asoslangan jamiyat” o‘rtasida sezilarli farq bor. Birinchisidan ikkinchisiga o‘tish bilimlarni yaratish va uni tarqatish uchun zarur shart-sharoitlar va yondashuvlarni shakllantirishni talab qiladi. Shuni hisobga olish kerakki, hatto eng yaxshi aloqa tizimlari ham ulardan samarali foydalanishga yoki jahon bozorida o‘z xizmatlarini taklif qilishga tayyor bo‘lmagan mamlakatning gullab-yashnashiga yordam bermaydi. Muvaffaqiyatli institutsional islohotlarni amalga oshirish uchun mamlakat aholisining madaniy va qadriyat yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Talabalar o‘rtasida konfliktologik madaniyatini shakllantirishni o‘rganish, shuningdek, bitiruvchilarning raqobat muhitida ishlashga tayyor emasligi va ish beruvchilarning ushbu sohadagi muayyan talabi tufayli ham dolzarbdir. Mamlakatimizda konfliktlarni boshqarish madaniyatini shakllantirishda g‘arb tushunchalari va ayniqsa ularning amaliy qo‘llanilishi katta ahamiyatga ega. Garbda talabalarni oqitishning umumiy tamoyillari demokratik shakllarga asoslanadi. O‘qituvchi va

talabalarning birgalikdagi qarorlari mamnuniyat bilan qabul qilinadi, baholashda rasmiyatchilik orqada qoladi. Fikr va harakat erkinligi individual va jamoaviy darajada transformatsion jarayonlarni boshlashga yordam beradi.

Zamonaviy madaniyatshunoslikda konfliktologik madaniyatning umumiy tabiatga ega bo'lgan turli tavsifi va modellari farqlanadi. Mazkur tasniflarni umumlashtirgan holda konfliktologik madaniyat – bu shaxsiy madaniyatning turli ko'rinishi bo'lib, nizoli vaziyatlarga munosabati va ushbu vaziyatlarning oldini olish, hal qilishda xatti-harakatlarini aniqlash; mutaxassisning konfliktologik madaniyati – bu konfliktologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalarga asoslangan mutaxassisning kasbiy madaniyatining bir qismidir.

Ilmiy manbalardagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi doimo bilimning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish tomonlarini o'zlashtirishga qaratiladi. Zamonaviy menejment nazariyalariga ko'ra tashkilot oldingi ilmiy yondashuvlardan farqli o'laroq, mashina sifatida emas, balki tirik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatni boshqarish paradigmasi motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirishga asoslangan boshqaruvga o'tmoqda, alohida tashkilotlardagi boshqaruv tizimi va kadrlar tayyorlashga yondashuv ham o'zgarimoqda.

Shunga ko'ra shaxsning konfliktologik madaniyati va mutaxassisning konfliktologik madaniyati o'zaro umumiylik va xususiylik belgilariga ega bo'lgan keng qamrovli tushunchalardir. N.V. Grishinaning fikricha, "Ta'limda tinchliksevar va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish zarur. Agar xulq-atvorning zo'rvonlik shakllari madaniy tajriba orqali orttirilgan bo'lsa, u holda konfliktologik xatti-harakatlarning zo'rvonliksiz usullarini ham o'rganish mumkin". [2, s. 350]

Turli tadqiqotlardagi qarashlarni umumlashtirib, N.V. Samsonova va O.V. Shuriginalarning modelini asos qilib olgan holda talaba shaxsining konfliktologik madaniyati modelini quyidagicha belgilash mumkin. Ushbu modelni amalga oshirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin: diagnostik texnologiyalari va har bir blokni amalga oshirishga asoslangan texnologiyalar.

1) Konfliktlarni diagnostika qilish texnologiyalari. Nizolarni boshqarish nafaqat bevosita boshqarish bilan bog'liq vazifalarni, balki diagnostika bilan bog'liq quyidagi vazifalarni ham o'z ichiga oladi: profilaktika, prognozlash, yechim.

2) Konstruktiv nizolarni boshqarish texnologiyalari; nizolarni hal qilish, nizolarni nazorat qilish, konstruktiv nizolarni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

3) Konfliktologik muzokara texnologiyalari Muzokaralar jarayonining asosi optimal javobdir. Muloqot raqibning nuqtai nazarini hisobga olgan holda muzokaralar jarayoni va mutanosib javobdan iborat.

4) Ishdagi aloqalarni optimallashtirish texnologiyalari. Ushbu band etika, og'zaki va og'zaki bo'lmagan ishoralar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kommunikativ xatti-harakatlarni rivojlantirish texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Umuman olganda, aloqada ko'proq ijobiy signal, kamroq konfliktogen bo'ladi.

5) Stressga chidamlilikni rivojlantirish va ichki nizolarni boshqarish texnologiyalari. Bu fazilat ong ostiga ta'sir qiluvchi turli xil psixotreninglar, shuningdek, faoliyat treninglari orqali rivojlanishi mumkin.

6) Himoya va qarshilik texnologiyalari. Afsuski, raqiblar har doim ham konstruktiv muloqot qobiliyatiga ega emas.

Har bir texnologiyani amalga oshirish mexanizmi mavjud bo'lib buni amalda qo'llash talabalarda konfliktologik madaniyat rivojlanishiga asos bo'la oladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Гришина Н.В. Психология конфликта. 2–е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 544 с. 3.
2. Егидес А.П. Психология конфликта: учеб. пособие / А.П. Егидес. – М.: Московский финансово–промышленный университет «Синергия», 2013. – 320 с.
3. Шурыгина О.В. Уровни развития конфликтологической культуры у студентов / О.В. Шурыгина // Приволжский научный журнал / Нижегород. гос. архитектур.–строит. ун–т. – Н. Новгород, 2011. – № 2. – С. 211–216. 14.

4. Cabezudo A., Haavelsrud M. Rethinking Peace Education / Cabezudo A., Haavelsrud M. // Journal of Conflictology, Volume 4, Issue 1, 2013. – Universitat Oberta de Catalunya, 2013. – pp. 3–13.

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI BILAN INFORMATSION OLAMNING INTEGRATSIYALASHUVI

*O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi  
To'rayeva Charosxon Shavkat qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kun talabi o'laroq har bir soha mutaxassisi va tarbiyachi-pedagoglarning ijtimoiy tarmoqlar, internet tarmoqlari, raqamli texnologiyalardan foydalanish holati hamda media madaniyat, axborot madaniyati va axborotlashgan jamiyatning qay holatda bo'lishi haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoq, raqamli texnologiya, media madaniyati, axborot madaniyati, axborotlashgan jamiyat, information kompetentlik.

**Аннотация:** В данной статье описывается состояние использования социальных сетей, сетей Интернет и цифровых технологий специалистами в каждой области и педагогами-педагогами, а также состояние медиакультуры, информационной культуры и информационного общества.

**Ключевые слова:** Социальная сеть, цифровые технологии, медиакультура, информационная культура, информационное общество, информационная компетентность.

Annotation: This article describes the state of use of social networks, Internet networks, and digital technologies by experts in each field and educators-pedagogues, as well as the state of media culture, information culture, and information society.

**Key words:** Social network, digital technology, media culture, information culture, information society, information competence.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr – globallashuv davri, texnika asri deyiladi. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib darslar, mashg'ulotlar va seminar-ma'ruzlar o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz ertasi bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim, tarbiyachilar o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars va mashg'ulotlar samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Bilimdon va ma'naviy yetuk bo'lgan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallagan hamda boshqara oladigan malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirish bunday islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatidan tayyorgarligiga bog'liq, bo'ladi”, deb ta'kidlagan edilar. [3]

Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan Respublikamizda yangi iqtisodiy sharoitlar ro'yobga keldiki, bu xalq xo'jaligining barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Fan va texnika taraqqiyotining jadal kechayotgani, kompyuter texnikasining keng qo'llanilayotganligi, bolalarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar ko'lamining tobora oshib borayotganligi, ta'limni tubdan yaxshilashni, fanlar bo'yicha milliy va mahalliy sharoitlarga mos keladigan hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan dastur va darsliklar, ta'limning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunda maktabgacha ta'limni yanada takomillashtirish maqsadida Respublika hududida maktabgacha ta'lim tizimini yanada isloh qilish bo'yicha bir qancha islohotlarning amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda bolalar eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida axborot

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, hozirda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xususan, statistik ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda dunyo aholisi **8,01 mlrd.**ni tashkil etsa, **5,03 mlrd. (66,8 %)** aholi internet foydalanuvchilari hisoblanadi. O'z navbatida ular kuniga o'rtacha **6 soat 49 minut** vaqtlarini internet uchun sarflashi va uning **2 soat 29 minutini** ijtimoiy tarmoqlarida o'tkazishi aniqlangan. O'z navbatida, har 1 daqiqa davomida "**YouTube**" ijtimoiy tarmog'ida umumiy ko'rishlar soni **3,67 mln.**tani tashkil etsa, "**Instagram**" tarmog'iga **66 ming** ta rasm va videolar, "**Twitter**" tarmog'iga **575 mingta** tvitlar joylanadi [1]. Ushbu raqamlardan ham axborot texnologiyalari bugungi kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida, hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda va ushbu globallashuv jarayonida yurtimizda ham axborot texnologiyalari va elektron hukumatni rivojlantirish, bu orqali fuqarolarga qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha bir qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham uni qanday rivojlantirish masalalari jamiyat va xalq oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. [2]

Har bir tarbiyachi-pedagog bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda sekin-asta informatsion kompetentlikka tomon qadam tashlashi zarur. Internet tarmog'ining keng imkoniyatlarini inobatga olgan holda ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy saytlardan foydalanish me'yorlari, qoidalari va talablarini bilish katta ahamiyat kasb etadi va ushbu muhim omil o'laroq har bir inson jamiyatning faol a'zosi, bir necha sohalar va ta'lim-tarbiyaning sifatiga hissa qo'shuvchi shaxs sifatida o'zida media madaniyatni to'g'ri shakllantirgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Madaniyatshunoslikda media madaniyat deganda XX asrda ommaviy axborot vositalari ta'sirida paydo bo'lgan va shakllangan zamonaviy G'arb kapitalistik jamiyati tushuniladi. Bu atama ommaviy axborot vositalarining nafaqat jamoatchilik fikriga, balki did va qadriyatlarga ham ko'rsatadigan umumiy ta'siri va intellektual ta'sirini anglatadi. [5]

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad ham axborot madaniyati borasida quyidagicha fikr bildirgan: "Azaliy tushunchalar ma'no qatlami benihoya kengayib borayotgan zamonda yashayapmiz. "Madaniyat" atamasi ham ana shunday kengayuv, chuqurlashuv, rang-baranglashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shaxsiy madaniyat, muomala madaniyati, kiyinish madaniyati singari birmuncha tor bo'lgan mavzular bilan cheklanish davri ortda qoldi. Endilikda iqtisodiyot, ishlab chiqarish, bozor munosabatlari, dehqonchilik, tibbiyot, rahbarlik, siyosat va xalqaro munosabatlarning o'z madaniyati bor, ya'ni "madaniyat" tushunchasidan holi soha, tarmoq, jabha yo'q. Hatto, har qanday jamiyat o'zagini, demak, taraqqiyot yo'sinlari umurtqasini madaniyat tashkil etishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatga aylanib ulgurdi.

Buni qarangi, axborotlashgan jamiyat, jamoatchilik bilan aloqalar (ommaviy kommunikatsiya) asr muammosi sifatida sertarmoq fan maqomiga ega bo'la borayotgan hozirgi vaqtda axborot madaniyati hayot-mamot masalasi darajasiga ko'tarildi. Atak-chechak qadam tashlayotgan bolajondan tortib, asrni qaritgan bobo-buvilargacha shu "hayot-mamot" iskanjasida deyaering. [4]

Media olamida axborot almashinuvida va har bir soha mutaxassisi o'z sohasi yuzasidan media-axborot vositalari orqali jahon tajribalarini o'rganib, shu tajribalar orqali o'z sohasi va o'z shaxsini yuksaltirishi axborotlashgan jamiyatni barpo qilishga asos bo'ladi.

Axborotlashgan jamiyat termini Yaponiyada paydo bo'ldi. Mutaxassislar ushbu termin yuqori sifatli axborot mo'l-ko'l bo'lgan va uni saqlash, taqsimlash va foydalanish uchun barcha vositalarga ega bo'lgan jamiyatni ifodalaydi, deb e'tirof etadilar. Axborotlar manfaatdor kishilarga tez va oson hamda qulay shaklda yetkazib beriladi. Axborot xizmatlari uchun narxlar shu darajada

past bo'lishi kerakki, jamiyatning har bir a'zosi undan ehtiyojiga qarab foydalansin. Akademik V.A.Izvozchikov axborotlashgan jamiyat xususiyatlarini ifoda etuvchi quyidagi ta'rifni taklif etgan:

“Axborotlashgan jamiyat deb, jamiyatning barcha sohalari hamda a'zolari hayoti va faoliyatida kompyuter, telematika va boshqa vositalar aqliy mehnat qurollari sifatida ishlatiluvchi, kutubxonalardan foydalanish, katta tezlik va aniqlikda axborotlarni qayta ishlash, real va prognozlashtirilgan hodisalarni modellashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish, ta'limni avtomatlashtirish va boshqa vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatga aytiladi.

- Xohlagan kishi, guruh yoki ixtiyoriy korxonatashkilot o'z faoliyati uchun zarur bo'ladigan axborot resurslaridan foydalana bilishi;

- Zamonaviy axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining taqdim etilishi;

- Ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish masalalarini yechish uchun zarur bo'lgan axborot resurslarini doimiy yangilash va to'ldirish imkoniyatini beruvchi rivojlangan axborot infrastrukturasi ega bo'lish. Axborotlashgan jamiyat darajasiga eng yaqin kelgan davlatlarga AQSh, Yaponiya, G'arbiy Evropa davlatlari kiradi.[1]

Umumiy holatda biz shuni e'tirof qilamizki, raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalarining insoniyat hayotiga kirib kelishi bir necha ishlarning osonlashuviga va butun dunyo bo'ylab tajribalar almashinish imkoniyatiga sabab bo'ldi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarning ham shiddat bilan rivojlanishiga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Shu imkoniyatlardan to'laqonli foydalangan holda har bir mutaxassis, pedagogning informatsion kompetentligi yuqori darajada bo'lishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmuxamad Duisenov. *ResearchGate*. “Jamiyat taraqqiyotida axboriy madaniyat, axborot resurslarining tutgan o'rni” 2021.
2. O.M.Nuriddinov, A.B.Shazimov “Axborotlashitirishdan raqamlashtirish sari” “RAQAMLI IQTISODIYOT” ilmiy-elektron jurnali 2-son [WWW.INFOCOM.UZ](http://WWW.INFOCOM.UZ)
3. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” 16-b, T-2016.
4. **Xurshid Do'stmuhammad** “Axborot madaniyati — hayot-mamot masalasi” Xalq so'zi 2018-y.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Media\\_madaniyati](https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_madaniyati)

#### RAHBAR KADRNING IJTIMOIIY QIYOFASI VA KASBIY MOBILLIK

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi  
Tagayev Kamol Kamilovich*

**Abstract:** The article analyzes the existence of a direct relationship between the level of professional mobility in society and the leader's social image. A leader who is firmly convinced that the opportunity to occupy a position of higher social importance is related to the effectiveness of professional activity, strives not only to improve his professional skills, but also to improve his intellectual, moral, and legal level, deeply analyzes his work and eliminates the identified shortcomings.

**Key words:** personnel, leadership, strategy, state policy, spiritual image, cultural level, culture.

**Аннотация:** В статье анализируется существование прямой зависимости между уровнем профессиональной мобильности в обществе и социальным имиджем руководителя. Руководитель твердо убежденный в том, что возможность занять более высокую общественную должность связана с эффективностью профессиональной деятельности. Стремится не только совершенствовать свое профессиональное мастерство но и повышении свой интеллектуальный уровень.

**Ключевые слова:** кадры, лидерство, стратегия, государственная политика, духовный облик, культурный уровень, культура.



Shaxs tarbiyasida eng muhim yo'nalishlardan bo'lib, u insonning hayot, uning ma'nosi, yashashdan maqsad, har bir odamning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi falsafiy tushunchalari, o'y-fikrlari va qarashlarining muayyan maqsadga qaratilgan jarayoni demakdir. Aslida, tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini boshdan oyoq g'oyaviy tarbiya tashkil etadi, desak to'g'ri bo'ladi. Chunki ta'lim tizimida ham, akademik ta'limda ham - barchasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari o'quvchi, talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongi va qalbini ilmiy bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan insoniy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tarbiyaning maqsadi - jamiyatdagi har bir fuqaroni, uning timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhi tarbiyaviy yuksaltirishdir. Shu ma'noda rahbarning ijtimoiy qiyofasi boshqaruvning muhim elementidir.

Zotan, jamiyatda rahbar kadrlarga tahsil berish va malakasini oshirish mexanizmining samaradorligi darajasi ta'sir ko'rsatadi. Bu mexanizm rahbarlarning ijtimoiy qiyofasi va professional malakasini ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari va jamiyat talablariga muvofiq ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Jamiyatning bu mexanizmdan mosuvoligi salmoqli ijtimoiy vazifalarni bajarishga qodir rahbar kadrlarni topishga, ularni ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallari sari safarbar qilishga, ijtimoiy qiyofasini muttasil yuksaltirib borishga xalal beradi.

Rahbar ijtimoiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatuvchi qudratli omillardan biri jamoatchilik nazoratining shakllanganligi darajasi bilan bog'liq. Jamoatchilik nazorati mavjud jamiyatda rahbar o'zining har bir hatti harakati uchun jamiyat oldida javob beradi. Bunday javobgarlik rahbardan o'z fazilatlarini kengroq namoyon qilishni, mavjud kamchiliklarini qat'iy nazorat ostida saqlashni talab etadi.

Rahbarga muayyan shaxsiy javobgarlikning yuklanganligi ham uning ij-timoiy qiyofasida iz qoldiradi. Mehnat natijalari uchun shaxsan javobgarligini chuqur his etgan rahbar o'z faoliyatini, korxonada ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tanqidiy tahlil qilib, xolis baholab borishga odatlanadi, qat'iy tartib-intizomga rioya qiladi va qo'l ostidagi xodimlardan ham shuni talab etadi.

Rahbar ijtimoiy qiyofasining shakllanishiga milliy qadriyatlar ham beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar korxonadagi mehnat jarayoni, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga ham ta'sir o'tkazadi. Rahbar boshqa xodimlar kabi mehnat jarayoni va shaxslararo munosabatlarda milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda ishtirok etadi, ularga aynan milliy qadriyatlarga tayanib baho beradi.

Rahbar ijtimoiy qiyofasi jamiyatdagi rahbarlik faoliyatining huquqiy asoslari ta'sirida shakllanadi. Rahbar ijtimoiy xislat va fazilatlari, e'tiqodi, faoliyatining asosiy prinsiplari, hayotiy pozitsiyasi jamiyatda yaratilgan rahbarlik faoliyatining huquqiy asoslari ta'sirida shakllanadi. Bu asoslardagi kemtikliklar, ularning yemirilishi, obro'sizlanishi yoxud zamon talablaridan ortda qolishi avtomatik ravishda rahbar ijtimoiy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatdagi kasbiy mobillik darajasi bilan rahbar ijtimoiy qiyofasi o'rtasida ham bevosita aloqadorlik mavjud. Ijtimoiy ahamiyati yuqoriroq bo'lgan lavozimni egallash imkoniyati professional faoliyat samarasi bilan bog'liqligiga qat'iy ishonch hosil qilgan rahbar nafaqat kasbiy mahoratini oshirishga, balki aqliy, axloqiy, huquqiy saviyasini ham yuksaltirishga intiladi, o'z faoliyatini chuqur tahlil qiladi va aniqlagan kamchiliklarini bartaraf etishga urinadi.

Bu jarayonlarning asosiy maqsadi "izchil va barqaror rivojlanayotgan, erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishdan iboratdir".<sup>2</sup> Ko'zlangan maqsadga erishish uchun, bir tomondan, turli ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida va muntazam hal etib borish imkonini beradigan mexanizmi vujudga keltirish, ikkinchi tomondan esa, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" va "Xalq davlat idoralari emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyalarni ro'yobga chiqarish zarur bo'ladi. Har ikkala holatda ham mulohazalar zamonaviy rahbar kadrlarni shakllantirish, ularning ijtimoiy qiyofasini yuksaltirish masalasiga borib taqaladi. Chunki insonparvarlik g'oyalari sodiq, ijtimoiy ahamiyatga molik fazilat va xislatlarga

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. Эркин ва обод, демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз.// Миллий тарақ-қиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.:Ўзбекистон,2017.- Б.134.

ega, jamiyat manfaatlarini keng tasavvur qila olgan rahbargina ijtimoiy muammolarni hal qilish mexanizmini harakatga keltira oladi, inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlaydi, davlat idoralarning xalqqa xizmat qilishiga zamin yaratadi.

## **YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA HUQUQIY ONGNING IJTIMOY MOHIYATI**

*O'zbekiston, NavDPI tadqiqotchisi Ma'ruffjon Shodiyev*

*E-mail:m.shodiyev@mail.ru*

*Navoiy davlat pedagogika instituti professori, f.f.d N.Safarova taqrizi asosida*

*“Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan biri-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”*

*Sh.M. Mirziyoyev*

Huquqiy ong va madaniyat fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishning muhim omilidir, zero, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy tizimni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali yoshlarning ongi va ruhiyatida huquqqa nisbatan munosabatni shakllantirishga erishiladi.

Natijada ular ongida hayotni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini idrok etishga erishiladi.

Huquqiy ong fuqarolik jamiyatining huquqiy hayotining asoslaridan biri desak to'g'ri bo'ladi. Sababiki, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida huquqiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar ta'sir ko'rsatadi.<sup>38</sup>

**Huquqiy ong** - bu huquq haqidagi bilim, amaldagi qonunni baholash, qonunchilikdagi kerakli o'zgarishlar haqida fikr va g'oyalar tizimidir. Huquqiy ong, shuningdek davlatning barcha huquqiy tizimiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ishlaydi. Jamiyatda tug'ilgan inson ijtimoiylashuv jarayonida barcha o'zidan oldindi avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o'zlashtiradi, shuning uchun jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida huquqiy ong ob'ektivlashadi.

Huquqiy ong va biron bir jamiyatda shakllangan huquqiy tizim o'zro bir-biriga ta'sirda bo'ladi. Bir tomondan, huquqiy ong qonunlarga bog'liq holda rivoj topib borsa, boshqa tomondan, ushbu jamiyatda shakllangan huquqiy tizim huquqiy ongga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ongning tuzilishini hisobga olgan holda, odatda, odatiy yoki kundalik huquqiy ong va nazariy huquqiy ong darjalariga ajratish o'rinalidir.

Huquqiy ongni tadqiq qilish ishi XX asrda rus olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlari olib borilgan va ularda xilmaxil qarashlarni uchratishimiz mumkin. Masalan Y.Dmitrievning fikricha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir.

2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisobanadi, deya ta'kidlab o'tilgan.

<sup>38</sup> Karimova O.A. Huquqiy tarbiya metodikasi. - T.: Adolat, 2000.

Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz 2019- yildagi farmonlarida “Fuqarolar ongida —Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish- demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”,- degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi.

Shunday ekan, bugun biz ana shu qoidalarga hammamiz va hamma vaqt ham rioya etyapmizmi, degan haqli savol tug‘iladi. Zero, qonun normalari odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi.

Qonun esa xalqning xohish irodasidir. Shunday qilib huquqiy ongning mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, shaxsning qonunga va huquqiy hodisalarga, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar qoidalari va me‘yorlariga va ularning adolat tamoyillariga muvofiqligini belgilaydigan va aks ettiradigan ko‘plab qarashlar, g‘oyalar to‘plami bo‘lganligi bilan tavsiflanadi.

Huquqiy demokratik davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan dadil borayotgan Yangi O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini yuksaltirish g‘oyat darajada muhim, dolzarb muammodir.

Mamlakatimizning rivojlanishi va istiqboli, keng ko‘lamda o‘tkazilayotgan iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma‘naviy o‘zgartirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan huquqiy ongi va bilimi hamda huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ayon.

Huquqiy ong, bilim va tasavvurlar insonda tasodifiy ravishda paydo bo‘lmaydi. Uni insonning tug‘ma xususiyati deyish ham mumkin emas. Inson onadan dono-yu donishmand bo‘lib ham tug‘ilmaydi. Kishidagi huquqiy ong, huquqiy bilim va madaniyat ta‘lim tarbiya, o‘qish o‘rganish, mehnat qilish, amaliy faoliyat, hayot tajribasi, ajdodlar merosi va namunasi asosida shakllanib, rivojlanib uzlyuksiz takomillashib boradi.

Huquqiy bilimlar va huquqiy ongning yuzaga kelishi va rivojlanishi cheksiz jarayondir. U jamiyat taraqqiyoti asosida yuzaga keladigan obektiv talab va ehtiyojlar, mavjud imkoniyatlar, shart sharoitlar asosida shakllanadi.<sup>39</sup>

Huquqiy g‘oyalar, bilim va tasavvurlar, huquqiy nazariyalari ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga kirib borib, fuqarolarning ongidan o‘rin olib odamlar hulq atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy va psixologik ta‘sir etadi. Huquqiy ong odamlarni ma‘lum tarzda o‘zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko‘rsatishga undaydi.

Huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan – falsafa, siyosat, din, axloqdan farq qiladi. U jamiyatda ijtimoiy ongning maxsus shakli bo‘lib hisoblanadi, chunki huquqiy ong keng tushuncha bo‘lib, jamiyatda huquqiy normalarni qabul qilish, ularni turmushda qo‘llash, huquq to‘g‘risida bilimlarning, ya‘ni huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya to‘g‘risidagi murakkab ijtimoiy vazifalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi - bu huquqiy madaniyatdir.<sup>40</sup> O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi turli demokratik islohotlarni o‘tkazishlarni talab qiladi. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Unda kishilar qanchalik madaniyatli bo‘lsa, qanchalik huquq normalari va qonunlarni bilsa, yuridik adabiyotlarni bilib ularga amal qilsa, shunchalik huquq buzilishi kam bo‘ladi.

<sup>39</sup> Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli farmoni. QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti.

Jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabo'l qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.

Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, farmonda fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!"<sup>41</sup> degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabo'l qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi.

Shundan kelib chiqib, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashqil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda qonunlarimizni oddiy xalq tushunadigan darajada sodda tilda ishlab chiqish masalasi ham dolzarb bo'lib turibdi. Qonun loyihalarini o'zbek tilida tayyorlab, keyinchalik rus tiliga o'girish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda esa bir qator qonun loyihalari rus tilida tayyorlanib, so'ngra o'zbek tiliga o'girilishi oqibatida undagi ayrim jumlar g'aliz va tushunarsiz bo'lib qolmoqda.

Qolaversa, qonun hujjatlarini aholiga yetkazadigan veb-saytlar nomi ham o'zbek tilida, qisqa jumlada ifodalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir".

## **PEDAGOGIK JAMOADA O'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

*O'zbekiston, NavDPI Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi tayanch doktoranti  
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik jamoada muvaffaqiyatli o'qituvchi kompetensiyasi uchun jamoa tarkibini o'rganish, kamchiliklarini korreksiyalash va haqiqiy pedagogik jamoa sifatida shakllanishga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlangan darajasi ham muvaffaqiyatli jamoa uchun asosiy omillardan biridir. Jamoada ishlash muloqot vositasida amalga oshadi. Pedagogik jamoaning ta'sirida o'qituvchi rivojlanishida shaxslararo muloqot muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchilar jamoasi, o'qituvchi kompetensiyalari, shaxs kamoloti, ta'lim-tarbiya, ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat.

**Abstract:** In this article, views on studying the composition of the team for successful teacher competence in the pedagogical team, correcting its shortcomings, and forming a real pedagogical team are expressed. Also, the advanced level of teamwork skills is one of the main factors for a successful team. Teamwork is done through communication. The importance of interpersonal communication in teacher development under the influence of the pedagogical team is highlighted.

<sup>41</sup> Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –T.: Sharq, 2002.

**Key words:** team of teachers, teacher competencies, personal development, education, educational psychology, pedagogical activity.

**Аннотация:** В данной статье высказываются взгляды на изучение состава коллектива для успешной педагогической компетентности в педагогическом коллективе, исправление его недостатков, формирование настоящего педагогического коллектива. Кроме того, высокий уровень навыков командной работы является одним из основных факторов успешной команды. Коллективная работа осуществляется посредством общения. Подчеркнута важность межличностного общения в развитии педагога под влиянием педагогического коллектива.

**Ключевые слова:** педагогический коллектив, компетенции педагога, развитие личности, образование, психология образования, педагогическая деятельность.

Pedagogik jamoada o'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda, pedagogika-psixologiyaning, shaxs psixologiyasi hamda muloqot psixologiyasini uzviy o'rganish va ularning kesimida yangi ilmiy muammoni yaratish bugungi yuksak taraqqiyot davrida ta'lim tizimi va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'qituvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini o'rganish, pedagogik faoliyat va o'qituvchi muloqotining o'zaro munosabati masalasi psixologiya fanida bir qadar tadqiq qilingan muammolardan biridir. Biroq mamlakatimizda, hozirgi zamon bolalariga pedagogik ta'sir o'tkazishda o'qituvchi ishlayotgan mikromuhitning ta'siri, bu sohada o'qituvchilarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoani boshqarish orqali u yerda ijodiy muhit va hamkorlikni, kasbga fidoyilik va qiziqishni shakllantirish va bu muammoning psixologik imkoniyatlarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. O'qituvchining o'z jamoasidagi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda guruhning ruhiyati, pedagogik jamoa intellektual taraqqiyoti, irodasi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, boshqaruv tarkibining psixologik taraqqiyoti kabi psixologik yondoshuvlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Biz o'rganayotgan mavzu doirasida jahon psixolog olimlari XIX-XX asrlarda faol shug'ullanishgan. Ushbu sohaning rivojlanishida V. Kann-Kalik, A.Yu. Panasyuk va boshqa bir qator olimlar katta hissa qo'shganlar. Respublikamizda ijtimoiy psixologiya sohasi bo'yicha V.M. Karimova, F. Akramova, E.R. G'oziyev, M. Maxsudova kabi olimlar ilmiy izlanishlarni olib borganlar. Ammo, ushbu katta mavzu hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan, ijtimoiy hayot o'zgarishlari bilan yangi-yangi qirralari va o'rganilishi lozim bo'lgan muammolariga ega bo'lib bormoqda. Z.T.Nishonova tomonidan nashr etilgan «Psixodiagnostika» (T., 2009), «Oliy ta'lim psixologiyasi» (T., 2011) kabi darsliklar ham bu sohani o'rganish davom etayotganligini ko'rsatadi.

Pedagogik jamoada o'qituvchi etikasi, fazilatlarini o'qituvchi va o'quvchilarda sog'lom ruhiyat, o'qishga qiziqish, kasbga muhabbat va kelajakka ishonch hosil qilishda yetakchi ahamiyatga ega. Fazilat – bu ijobiy xislat yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarining turlicha bo'lishi hamda xulq – atvorlar insonning badanini aylanib yuradigan suyuq moddalariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi tajribada ko'zatilgan. Qadimgi tibbiyotning yirik namoyondasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o'rinni ishg'ol etsa bunday odam harakatchan yengil bo'ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko'nikib keta qoladi, o'z atrofida sodir bo'ladigan voqealarga darhol va ishtiyok bilan aralashadi degan fikri bejiz emas.

Mana shu kishilarni Gippokrot sangviniklar deb atagan. Bu lotincha “sangvinik” ya'ni “qon” degan so'zdan kelib chiqqan. Sangviniklar tuyg'u xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: Yangi kishilar bilan tez til topishadigan; Bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadigan; Bir turda bajaradigan ishlarni yoqtirmaydigan; Yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadigan; Xushchaqchaq; Harakatlari shiddatli; Nutqi tez; Kelajakka ishonch bilan qaraydigan; So'zini aniq va ma'noli qilib imoishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Obyekt: O'qituvchining jamoaga nisbatan madaniyatligi, xalqparvarligi, ya'ni;

- ✓ Kishilarga e'tibor va hurmat;

- ✓ Kishilarga xayrixoh va iltifotli bo‘lish;
- ✓ Oliyjanoblik va beg‘arazlik, xolislik;
- ✓ Kishilarning qadr – qimmatiga yetish kabilar;
- ✓ Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- ✓ Odamlarga ishonch kishilarning o‘z kuchiga qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini qo‘llab – quvvatlay olish uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo‘naltira bilish;
- ✓ Yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish va tashqi ko‘rinishdagi ozodaligi;
- ✓ O‘zaro munosabatdagi quyidagi oddiy e‘tiqod qoidalariga rioya qilish;
- ✓ Xushmuomalalik;
- ✓ Sipolik;
- ✓ Kamsuqumlik;
- ✓ Vazminlik;
- ✓ Andishalilik;
- ✓ Mehnat va do‘stlikdagi sherikchilikda o‘zaro yordam va qo‘llab - quvvatlash;
- ✓ Hozirjavoblik va majburiylik so‘zsiz bajarishlik;
- ✓ Prinsipiellik va ishonch;
- ✓ Talabchan. Rahbarning jamiyatga nisbatan madaniyatligi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlar va xislatlar rahbar va o‘qituvchining jamoada o‘z o‘rnini topishga juda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi alohida e‘tibor talab qiladigan obyektidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, odatda o‘qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar. Hamma gap psixolog o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o‘ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- a)pedagog bilan bo‘lgan munosabatga e‘tiborli bo‘lish;
- b)pedagoglarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga munosabat;

v)subyekt – subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga e‘tiborli bo‘lish.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo‘lgan konstruktiv hamkorlikni ta‘minlay oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Ravidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi:31838/jcr.07.17.69
5. Usarov Jabbor. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

## BO‘LAJAK TARBIYACHINI KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

*O‘zbekiston, Angren universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi Giyasova Mushtariy Abdiganiyevna*

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak tarbiyachining pedagogik madaniyatini shakllantirish muammosi ko‘rib chiqiladi, pedagogik madaniyatning muhim xususiyatlarini ochib beradi, shuningdek bo‘lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini OTM dagi ta’lim faoliyati davomida tayyorlab borish muammosi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik madaniyat, pedagogik va kasbiy faoliyat, shaxs, pedagogik bilim va ko‘nikmalar, tizimdagi muammolar, mutaxassislik, yondashuv.

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема формирования педагогической культуры будущего воспитателя, раскрываются важные особенности педагогической культуры, а также раскрывается проблема подготовки особенностей профессиональной деятельности будущего учителя в ходе образовательной деятельности в высшем учебном заведении.

**Ключевые слова:** педагогическая культура, педагогическая и профессиональная деятельность, личность, педагогические знания и умения, проблемы в системе, специализация, подход.

**Annotation.** The article examines the problem of forming the pedagogical culture of the future educate, reveals the important features of the pedagogical culture, and also reveals the problem of preparing the specific features of the professional activity of the future teacher during the educational activity at the higher education institution.

**Key words:** pedagogical culture, pedagogical and professional activity, personality, pedagogical knowledge and skills, problems in the system, specialization, approach.

Keyingi o‘n yilliklar mobaynida bir qator rivojlangan xorij davlatlari Angliya, Fransiya, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e’tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kompetensiya shakllanishi, takomillashuviga va talabani kreativ fikrlashga o‘rgatishga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida uchta muammo dolzarb hisoblanadi.

1. Hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash bilan bog‘liq muammolar, jumladan, quyidagi masalalar:

hozirgi bosqichda tizimning rivojlanishini tavsiflovchi mazmunning xilma-xilligi, shakl va usullarning o‘zgaruvchanligi;

ijtimoiy sohaga e’tiborni kuchaytirish bolaning shaxsiy rivojlanishi;

dasturiy-uslubiy ta’minlash-o‘quv adabiyotlarini yaratish va tarqatish; maktabgacha ta’lim sifatini davlat akkreditatsiyasi orqali tartibga solish; maktabgacha ta’limning davlat standartlarini joriy etish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda milliy va madaniy an’analarning ahamiyatini hisobga olish.

2. Maktabgacha ta’lim tizimini kadrlar bilan ta’minlash to‘g‘risida:

oliy va o‘rta kasb-hunar ta’limi tizimidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mutaxassislar tayyorlashni muvofiqlashtirish va yangicha yondashuvlar;

maktabgacha va kasbiy pedagogik ta’lim standartlarini ishlab chiqishda uzluksizlik; tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish.

3. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini saqlash va rivojlantirish muammolari:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini ko'paytirish tendentsiyalari va uning turlari xilma-xilligini kengaytirishdagi ijobiy jarayonlar;

yangi, byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini jalb qilish;

bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida qisqa muddatli bo'lishi asosida maktabgacha ta'limning yangi shakllarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan ma'lumki tizimni malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanmaganligi hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Tarbiyachining shaxsiyati, mahorati uning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan pedagogning kasbiy-pedagogik mahoratiga, uning pedagogik madaniyatiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda.

Barchamizga ma'lumki, pedagogik ishning asosiy mazmuni yaqqol qadriyat-insonparvarlik xususiyatiga ega bo'lib, u pedagogik ishning mohiyati va maqsadini belgilaydi. Tarbiyachi (pedagog) pedagogik qadriyatlarning yaratuvchisi va tarqatuvchisi sifatida ishlaydi va jamiyat madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Madaniyat tushunchasini juda keng tushunish mumkin. Kundalik darajada, bu odamlar amal qilishi kerak bo'lgan namunadir. Madaniyat ma'lum bir insoniy sifat sifatida ta'lim va aql bilan bog'liq. Madaniyatni jamiyatning o'ziga xos xususiyati sifatida ham qarash mumkin, bu odamlarning tarixga, tabiatga va jamiyatga munosabatini aks ettiradi.

Agar madaniyatning aniq tushunchasi haqida gapiradigan bo'lsak, unda quyidagi ta'rif maqsadga muvofiq bo'ladi.

Madaniyat (lotincha "cultura" so'zidan) inson faoliyatining barcha turlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yig'indisini anglatadi.

Shaxsning o'zi o'z faoliyati jarayonida madaniy va tarixiy shaxs sifatida shakllanadi, u tilni o'zlashtiradi, jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odatlar va qadriyatlar bilan tanishadi, ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan faoliyatning o'ziga xos uslublari va ko'nikmalarini egallaydi va uning madaniyati rivojlanib boradi.

Demak, shaxs umuminsoniy madaniyat mahsuli, uning vakili va tashuvchisidir. Madaniyatni insoniyat hayoti va ongining barcha sohalarida ijtimoiy progressiv faoliyati sifatida tushunish voqelikni takomillashtirish va o'zgartirishga, insoniyat tarixining boyligini, shaxsning ichki boyligini o'zgartirishga qaratilgan.

Muayyan kasbning rivojlanishi bilan ushbu faoliyat sohasi vakiliga kasbiy normalar, qoidalar va talablar shakllanadi. Ushbu talablar zarur bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar va ma'lum shaxsiy fazilatlarni, kasbiy faoliyatning turli tarkibiy qismlariga munosabat normalarini o'z ichiga oladi. Kasbiy madaniyat har qanday faoliyat sohasida mavjud bo'lganligi sababli, pedagogik sohada u o'ziga xos xususiyatga ega, chunki tarbiyachi o'z mohiyati va ijtimoiy maqsadiga ko'ra bunday madaniyatning tashuvchisi hisoblanadi. Tarbiyachining kasbiy faoliyatini tavsiflovchi madaniyat pedagogik madaniyat yoki pedagogik faoliyat madaniyati deyiladi. U tarbiyachilik etikasi deb ham ataladi. Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismidir.

Pedagogik madaniyat bo'lajak tarbiyachilarda oliy ta'limdagi ta'lim faoliyati davomida shakllanib boradi. Ya'ni ma'ruza, amaliy va seminar soatlaridagi ishtiroki, OTM da tashkil qilinadigan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, turli ilmiy va ijtimoiy loyihalarda faol qatnashishi ham uning kasb madaniyati shakllanishining asosi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent 2022.
2. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2021). Теоретическое и практическое состояние проблемы развития профессиональных качеств будущих педагогов. Управление дошкольным образовательным учреждением, (3), 56-61.
3. Джамилова, Н. Н. (2019). ИЗУЧЕННОСТЬ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ" ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ". In ДЕТСТВО В ПРОСТРАНСТВЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРАКТИК (pp. 105-107).



## TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORLASHDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARINI

*O'zbekiston, NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasida  
o'qituvchisi Berdiyev Dilmurod Nomonovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida o'quvchilar bilan ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarining nazariy va uslubiy asoslari o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, mavzuli sport kechalari, sport kunlari, ommaviy yengil atletika poygalari, kross va estafetalar, sport va sport bayramlari va sog'lomlashtirish kunlari, sport turlari bo'yicha musobaqalar, nazariy, uslubiy.

**Аннотация:** В данной статье изложены теоретико-методологические основы технологий организации и проведения массовых спортивных мероприятий со студентами в процессе профессионально-педагогической подготовки студентов.

**Ключевые слова:** Физическое воспитание, тематические спортивные вечера, спартакиады, массовые легкоатлетические забеги, кроссы и эстафеты, спортивно-спортивные праздники и оздоровительные дни, спортивные соревнования, теоретические, методические.

**Abstract:** In this article, the theoretical and methodological foundations of the technologies of organizing and conducting public sports events with students in the process of professional and pedagogical training of students are expressed.

**Key words:** Physical education, thematic sports nights, sports days, public athletics races, cross country and relays, sports and sports holidays and wellness days, sports competitions, theoretical, methodological.

Zamonaviy jamiyat bolalar va yoshlarning ijtimoiy-madaniy, jismoniy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijodiy yondashishga qodir bo'lgan yuqori ma'lumotli, madaniyatli va tashabbuskor mutaxassislariga juda muhtoj. Shu munosabat bilan talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitishning istiqbolli shakllari va usullarini izlash va ularni kasbiy faoliyatda amalga oshirish yo'llari yangilanmoqda.

Oliy ta'lim faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mazmunini yangilash, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirishdir. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarga qo'yiladigan Davlat ta'lim standarti talablarining tahlili shuni ko'rsatdiki, davlat loyiha faoliyati hamda bakalavri tayyorlash uchun ijtimoiy buyurtmani shakllantirgan bo'lib, u prognozlash, modellashtirish va baholash elementlarini o'z ichiga oladi. Talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida maktab o'quvchilari bilan ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarining nazariy va uslubiy asoslarini o'zlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Sport tadbirlarini tashkil etishning samarali usullari ko'plab tadqiqotlar mavzusi bo'lib, ularda turli ssenariylar, modellar va ularni amalga oshirish texnologiyalari taqdim etiladi. Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining mazmuniga quyidagilar kiradi: mavzuli sport kechalari, sport kunlari, ommaviy yengil atletika poygalari, kross va estafetalar, sport va sport bayramlari va sog'lomlashtirish kunlari, turli sport turlari bo'yicha musobaqalar, piyoda sayohatlar va dam olish tadbirlari va boshqalar.

Bir qator mualliflarning fikricha, ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarining maqsadi "shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yoshlarni muntazam yoki vaqti-vaqti bilan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etishdan iborat". Bunday tadbirlarning asosiy funktsiyalari sifatida u ta'lim, tarbiya, shaxsni rivojlantiruvchi, amaliy va dam olish va sog'lomlashtirishni ajratib ko'rsatadi [1, 2].

Talabalarning ommaviy jismoniy tarbiya, sport va ko'ngilochar mashg'ulotlarga yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalar kelajakda mahoratli pedagog bo'lishiga asosdir. Bunday yondashuvlar talabaning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va yanada samarali o'quv jarayonini tashkil etishga hissa qo'shish imkonini beradi.

Talabalarni ommaviy jismoniy tarbiya, sport va ko'ngilochar tadbirlarni loyihalashga o'rgatish bo'yicha taklif qilingan yondashuv quyidagilarga imkon beradi:

- kasbiy faoliyatga qiziqish, ehtiyoj va motivlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish;
- ongli, tezkor, samarali va moslashuvchan foydalaniladigan kasbiy bilimlar majmuasini shakllantirish;
- talabalarning kasbiy faoliyatning innovatsion shakllari, usullari va usublarini yuqori darajada o'zlashtirishlarini ta'minlash;
- ijodkorlik va hamkorlik pedagogikasi ko'nikmalarini samarali rivojlantirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Djaubayev Y.A. Jismoniy madaniyat bakalavrlarini dam olish faoliyati uchun tayyorlashning kompetentsiya // Uchenye zapiski universiteta im. P.F. Lesgaft. -2017 yil. - 11-son (153). - S. 64-66.
2. Litvinenko, S.N. Sport tadbirlarini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari / S.N. Litvinenko; Janubiy federal. un-t. - Rostov-na-Donu: [b.i.], 2015. - 110 p.
3. Samarali ta'limning masofaviy kursi / J. Schneider, I. Bem, A Arnold, S. Wenitske. - M.: Xalq ta'limi, 2000. - 248 b.

### **BOLALAR NUTQIDA INTEROSEPTIV SEZGILARNING IFODALANISHI**

*O'zbekiston, NavDPI tayanch doktoranti  
Namozova Feruza Homidovna*

**Annotatsiya:** Maqolada interotsepsiya, ya'ni ichki sezgi, inson o'z tanasining holatini idrok eta olishi, bu jarayon bolalarda qanday kechishi haqida bayon qilingan. Interotseptiv sezgilarning ochlik, to'qlik, chanqoq, og'riq, hafas olish, yurak, qon-tomirlar holati haqida axborotni miyaga uzatishi, ularning qay tarzda ifodalanishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** interotsepsiya, markaziy nerv sistemasi, ochlik, chanqoq, yurak, qon-tomir, retseptor, tirnash, tana tili.

**Аннотация.** В статье описывается интероцепция, то есть внутренняя интуиция, способность человека воспринимать состояние своего тела, и как этот процесс происходит у детей. Интероцептивные органы чувств передают в мозг информацию о голоде, сытости, жажде, боли, раздражении, сердце, кровеносных сосудах и о том, как они выражаются.

**Ключевые слова:** интероцепция, центральная нервная система, голод, жажда, сердце, кровеносный сосуд, рецептор, чесание, язык тела.

**Abstract.** The article describes interoception, that is, internal intuition, the ability of a person to perceive the state of his body, and how this process occurs in children. Interoceptive senses transmit information about hunger, satiety, thirst, pain, irritation, heart, blood vessels to the brain, and how they are expressed.

**Key words:** interoception, central nervous system, hunger, thirst, heart, blood vessel, receptor, scratching, body language.

Interotsepsiya (lot. interior – ichki, receptio – qabul qilish) – ichki a'zoldagi sezuvchi nerv uchlari (interoretseptorlar)ning qo'zg'alishi natijasida vujudga keladigan impulslarning markaziy nerv sistemasi tomonidan qabul qilinishidir[1]. Demak, interoretseptorlar tananing ichki (ochlik, to'qlik, chanqoq, og'riq, yurak, qon-tomir va sh.k.) holati haqida ma'lumot beradi. Inson tanasining ichki sezgilarini ifodalashda uning yoshi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar hamda kattalarning interoseptiv sezgini ifodalashlari bir-biridan farq qiladi. Kattalar bolalarga qaraganda ichki sezgilarini, o'z holatlarini aniq tasvirlab bera oladi. Bunda ularning nutqida turli fonetik, leksik, sintaktik, frazeologik birliklardan keng foydalanganliklari kuzatiladi.

Rus tilshunos olimlari A.V. Nagornaya «Вербальная репрезентация интероцептивных ощущений в современном английском языке» («Zamonaviy ingliz tilida interotseptiv sezgilarning og'zaki ifodalanishi»), V.K. Xarchenkoning «Внутрителесное в детской речи» («Bolalar nutqida intrakorporeal») ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu masalalarga e'tibor qaratilgan. A.

Nagornaya bolalarning interoseptiyasini o'rganish muhimligini, Tilshunoslikda bu jihatga yetarlicha e'tibor berilmayotganligini va buning sabablarini izohlab beradi [3]. V. Xarchenko ham bolalar nutqi korpusi materialidan foydalangan holda intrakorporal tilshunoslik muammolari ustida izlanish olib borib, bu mavzuni mukammal o'rganish lozimligini ta'kidlaydi [8]. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o'zbek tilshunosligida bolalar nutqida interoseptiv sezgilarning ifodalanishini o'rganish maqsadida ba'zi badiiy matnlardan tahlil uchun namunalar olindi. O'rganish natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar ichki sezgilarini metaforalarsiz, soddada, oddiy, o'z ma'nosida ifodalasa, 10 yoshdan oshgan bolalar nisbatan murakkabroq fonetik, leksik, sintaktik birliklardan foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Bu holat bolalarning yoshi, idroki, so'z boyligi, tanadagi ichki sezgilarni qay darajada anglab, uni bayon eta olishi bilan bog'liq.

4-5 yoshdan to 12-13 yosh oralig'idagi bolalar nutqida interoseptiv sezgilarning ifodalanishini tananing ichki holatini va ruhiy holatni anglatuvchi sezgilar guruhlariga bo'lib tasnif qilindi.

Tananing ichki muhitidan keladigan va uning fiziologik holatini tavsiflovchi signallarni idrok etish jarayonida sezgilar yordamida inson o'z tanasining ichki holatini anglaydi hamda uni ifoda etadi. Mazkur holat insondagi chanqoq, ochlik, to'qlik, yurak urishi, nafas olish kabi subyektiv ravishda seziladigan jarayonlar bilan bog'liq.

1) *bavl sezgisi*: tananing keraksiz suyuqlikni tashqariga chiqarish ehtiyoji idrok etiladi. Masalan: *Bola yo'lakka chiqdi, hojat eshigiga qo'l cho'zdi. Ocholmadi. Otani tortqiladi. Ota tosh qotgan. Onani tortqiladi. Ona boshini yo'qotgan. Bobo bilan momo ham bu dunyoda emas – telefon dunyosiga chiqmaydigan bo'lib kirib ketishgan. Bolakay chida-madi, turgan joyida, xolli gilam ustini nam etdi – siyib qo'ydi. So'ng yig'lab yubordi* [6];

2) *tana harorati sezgisi*: ichki harorat ba'zan pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Yuqorida aytilgan holatlar sezilganda inson bezovtalanadi. Masalan: *Kechqurunga borib akamning isitmasi ko'tarilib ketdi. Hadeb yo'taldi. Kechasi uning alahlashidan men ham uyg'onib ketdim. U nuqul o'zini u yoqdan bu yoqqa tashlar, "olov yonib ketdi, olovni o'chiring", deb tipirchilar edi* [2];

3) *ochlik yoki to'qlik sezgisi*: oshqozondagi mavjud retseptorlarning tirnash oqibatida ochlik hissi ma'lumoti miyaga yetib boradi. To'qlik holatida ham bevosita miyaga axborot uzatiladi. Masalan: *Qorin ham ochgan, oyijonim pishirib qo'ygan palovjonni ko'z oldimga keltirib har zamonda lablarimni chapillatib qo'yaman* [7]. *Yong'oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to'q tutadi. To'rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz. Tolqon to'yimli bo'ladi. Ikki qoshiq yeb, ustidan olma choy ichsangiz, darrov nafsingiz qonadi* [2];

4) *chanqoqlik sezgisi*: tananing suyuqlik (suv, choy, sharbat ...)ka bo'lgan ehtiyoji, chanqash nazarda tutiladi. Masalan: *Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o'tirib qolibman. Mudray boshladim. Yo'q, men uxlamasligim kerak dedim o'zimga-o'zim* [7];

5) *tananing ichki og'riq sezgisi*: ichki a'zoldagi og'riqni anglash. Masalan: *Oyog'im zaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman* [2];

6) *nafas olish sezgisi*: o'pka, nafas yo'llarining faoliyatida ko'zga tashlanadi. Masalan: *Oyim cho'nqayib o'tirib, echki sog'ayotgan ekan. O'tirgan joyida shu saratonda botinka nimaga kerak bo'lib qolganini surishtirdi. – Kerak! Kerak! – dedim nafasim tiqilib. Oyimning javobini ham kutmay bostirmaga yugurdim*[2]. *Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'mni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... Oxiri tomoglm xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmayman-u nafas olishga qiynalaman* [2];

7) *ko'ngil aynishi sezgisi*: noxushlik, behuzurlik, ichki organlar holatidan bezovtalik yuzaga keladi. Bu ko'p hollarda oshqozon, qizilo'ngach faoliyati, tana harorati bilan bog'lik muammolarda sodir bo'ladi. Masalan: *Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim* [2];

Inson ruhiyatida interoseptiv sezgilar orqali ba'zan xush, ba'zan noxush tuyg'ularni his qiladi. Sechenov ta'biri bilan aytganda, mazkur «yashirin sezgilar» («тёмные чувства»)[5]ni ifodalashda aniq tasavvur qilish mumkin bo'lgan predmetlardan, tana a'zolari ishtirokidagi

holatlardan foydalaniladi. Aks holda «yashirin sezgilar»ni anglatish oson bo‘lmaydi. Bu holatni nutqda ifodalash bolalar uchun yanada murakkab sanaladi. Kichik yoshdagi bolalar nutqida ichki interotsepsiyani ifodalay olish deyarli uchramadi desak, xato bo‘lmaydi. Masalan: *Bola qo‘lmatohga qul bo‘lib o‘lgur bu davraga mo‘ltirab boqdi. Ulardan ozgina e‘tibor kutdi, mehr kutdi... Ular band edi – bola pand yedi, yolg‘izlik hissi yuragiga og‘irlik qildi, chinqirib yig‘lab yubordi* [6].

Interotsepsiyani ifodalash 4-5yoshdagi bolalarga nisbatan 10-13 yoshdagi bolalarda bir muncha yaxshi shakllangan. Bu yoshdagi bolalar ichki diltanglik, ziqlanishni (*yuragim qisilmoq*), hayajon aralash qo‘rquvni (*yuragim shig‘illab ketmoq*), nomini o‘zlari ham bilmaydigan tuyg‘u (*tomog‘imga bir nima tiqilmoq*) larni tushunib, anglata oladi. Masalan: *Shunday qilib desangiz, kecha mana shunaqangi dili siyohlik bo‘lib o‘tgan. Hozir ko‘chaga chiqib shularni o‘ylab yuragim qisilib ketdi* [7]. *Birinchi dars «jon-dilimdan yaxshi ko‘rganim» algebra edi, albatta. Qo‘ng‘iroq chalinishi bilan yuragim shig‘illab ketdi* [7].

– *Issiqxonani kim sindirdi?*

– *Bilmayman.*

– *Bilmaysanmi? – O‘qituvchi qahr bilan ovozi balandlatdi.*

– *Bolmasa, Pushkin tosh otdimi? Tomog‘imga bir nima tiqilib turar, gapirsam yig‘lab yuborishimni bilar edim* [2].

Interotseptiv sezgilar sohasi tilshunoslikning tubdan yangi tadqiqot ob‘yekti bo‘lib, shuning uchun uning o‘rni va mavqeyini kengroq ilmiy kontekstda aniqlashni talab qiladi[4]. Bolalar interotsepsiyasi haqida gap ketganda bu talab ikki hissa ortadi. Negaki bu mavzuda qator muammolar va masalalar o‘z yechimini kutmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI. I harfi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000-2006. 221-b.
2. Hoshimov O‘. Duniyoning ishlari. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent, 2018.
3. Нагорная А. В. Вербальная репрезентация интероцептивных ощущений в современном английском языке: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. М., 2015. 51 с.
4. Нагорная А.В. Методологические основы лингвистического изучения интероцепции // Проблемы истории, филологии, культуры. – Магнитогорск, 2014. - № 1. – С. 319-330.
5. Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований. – Москва, 2017.
6. Norqobilov Q. Hikoyalar. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/qo‘chqor-norqobil-1968>
7. То‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Yangi asr avlodi.– Toshkent, 2010.
8. Харченко В.К. «Внутрителесное в детской речи» <https://cyberleninka.ru/article/n/vnutritelesnoe-v-detskoy-rechi/viewer>

#### **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В УЗБЕКСКИХ ГРУППАХ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА**

**Ф.Р.Турсунова., методист Навоийского академического лицея МВД**

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросу усовершенствования методики обучения русскому языку в узбекских группах на основе коммуникативного подхода. Русский язык является одним из важных критериев успешной коммуникации и образования в Узбекистане, и поэтому необходимо непрерывно совершенствовать методику обучения для достижения эффективных результатов. Статья подчеркивает важность активного участия студентов в различных коммуникативных ситуациях и развития навыков понимания и

говорения на русском языке. Отмечается, что использование аутентичных материалов и заданий, отражающих реальные коммуникативные ситуации, способствует более эффективному освоению языка. В целом, статья подчеркивает необходимость совершенствования методики обучения русскому языку в узбекских группах на основе коммуникативного подхода. Она предлагает использовать различные стратегии и подходы, такие как использование аутентичных материалов, индивидуальный подход к студентам и развитие навыков аудирования и чтения.

**Ключевая слова:** Коммуникация, результат, аутентичность, эффективность, обучения, подход, понимания, говорения, совершенствование, аудирование, чтение, ролевые игры, дискуссия.

В современном мире знание русского языка является одним из важных критериев успешной коммуникации и образования. В Узбекистане, где русский язык является одним из официальных, методика обучения русскому языку должна быть постоянно совершенствована, чтобы обеспечить эффективное и результативное обучение. Коммуникативный подход является одним из наиболее эффективных методов обучения, ориентированных на развитие навыков реальной коммуникации на русском языке.

Коммуникативный подход в обучении русскому языку в узбекских группах предполагает активное участие студентов в различных коммуникативных ситуациях. Основная цель этого подхода - развитие навыков понимания и говорения на русском языке, а также способности свободно выражать свои мысли и идеи. Для достижения этой цели необходимо создать условия для регулярной практики и общения на русском языке.

Одним из ключевых элементов коммуникативного подхода является использование аутентичных материалов и заданий, которые отражают реальные коммуникативные ситуации. Это могут быть аутентичные тексты, аудио и видеоматериалы, а также ролевые игры, дискуссии и презентации. Такой подход позволяет студентам применять полученные знания в практических ситуациях и развивать навыки реальной коммуникации.

Важным аспектом коммуникативного подхода является индивидуальный подход к каждому студенту. Учителя должны учитывать особенности каждого студента и создавать условия для его активного участия в уроках. Это может включать использование различных методов и техник обучения, а также организацию работы в малых группах или парами, чтобы студенты могли общаться и взаимодействовать друг с другом.

В рамках прагматического подхода к обучению русскому языку для развития коммуникативных навыков учащихся могут использоваться следующие стратегии и методы:

1. Контекстуальное обучение: учащимся предлагается изучать язык в реальных коммуникативных ситуациях, которые могут возникнуть в их повседневной жизни. Это помогает им лучше понимать контекст использования языка и развивать навыки адаптации к различным обстоятельствам.
2. Ролевые игры и симуляции: учащиеся могут играть роли различных персонажей или сценариев, что помогает им практиковать коммуникативные навыки, такие как умение вступать в диалог, задавать вопросы, выражать свое мнение и т.д.
3. Обучение через действие: учащимся предлагается активное участие в обсуждениях, дискуссиях, дебатах и других коммуникативных активностях, которые способствуют развитию их умения общаться на русском языке.
4. Использование аутентичных материалов: учащимся предлагается работа с реальными текстами, аудио- и видеоматериалами на русском языке, что помогает им понимать различные стили и жанры речи, а также адаптировать свое общение к различным ситуациям.
5. Работа в группах: учащимся предлагается работать в небольших группах, где они могут общаться, обсуждать и решать задачи совместно, что способствует развитию навыков коллективного общения на русском языке.
6. Рефлексия и обратная связь: учащимся предлагается анализировать свое общение, выявлять свои сильные и слабые стороны, а также получать обратную связь от педагога и сверстников для улучшения своих коммуникативных навыков.

Эти стратегии и методы позволяют учащимся практиковать реальное общение на русском языке, развивать навыки адаптации к различным ситуациям и контекстам, а также усовершенствовать свою коммуникативную компетенцию в рамках прагматического подхода.

Важным аспектом коммуникативного подхода в обучении русскому языку является развитие навыков аудирования и чтения. Учителя должны предлагать студентам аутентичные тексты и аудиоматериалы различной сложности, чтобы развивать их навыки понимания на слух и чтения на русском языке. Также важно проводить регулярные аудирование и чтение уроки, чтобы студенты могли применять свои навыки в реальных ситуациях.

Одним из вызовов при использовании коммуникативного подхода в узбекских группах может быть недостаточное количество аутентичных материалов на русском языке. Для решения этой проблемы можно использовать интернет и различные онлайн-ресурсы, которые предлагают широкий выбор аутентичных материалов на русском языке. Также можно приглашать носителей языка для проведения дополнительных уроков или мероприятий, чтобы студенты могли практиковать свои навыки общения на русском языке.

В заключение, совершенствование методики обучения русскому языку в узбекских группах на основе коммуникативного подхода является важной задачей. Коммуникативный подход позволяет развивать навыки реальной коммуникации на русском языке и создает условия для активного участия студентов в уроках. Для успешной реализации этого подхода необходимо использовать аутентичные материалы, индивидуальный подход к каждому студенту и развивать навыки аудирования и чтения.

#### **Используемая литература**

1. Хайдарова Ш. Применение коммуникативного подхода в обучении русскому языку в узбекских группах.
2. Ахмедова Т. (2018). Коммуникативный подход в обучении иностранным языкам
3. Юсупова М. (2021). Развитие коммуникативных навыков у учащихся русского языка в узбекских группах.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBİYACHINING KASBIY SIFATLARIDA NUTQNING AHAMIYATI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi  
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi,  
O'zbekiston, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Ramazonova Shalola Bekmuradovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining kasbiy sifatlarida nutqning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachining nutq boyligi, ifodaliligi hamda soddalik iboralardan tarkib topishi muhim ahamiyatga ega. Bu bolalarda tushunchalarni tez ilg'ab olishida asosiy vosita bulib hisoblanadi.

**Abstract:** this article discusses the importance of speech in the professional qualities of educators in preschool educational organizations. It is important that the pedagogue-educator's speech richness, expressiveness and simple expressions are included in the educational process of preschool educational organizations. This is the main tool for children to quickly learn concepts.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается значение речи в профессиональных качествах воспитателей дошкольных образовательных организаций. Важно, чтобы богатство речи педагога-воспитателя, выразительность и простота выражения были включены в образовательный процесс дошкольных образовательных организаций. Это основной инструмент для быстрого изучения концепций детьми.

**Kalit soʻzlar:** Maktabgacha taʼlim tashkiloti, pedagog- tarbiyachi, kasbiy sifat, kasbiy mahorat, etika-estetika, taʼlim-tarbiya, qobiliyat, nutq tovushlar, isteʼdod, adabiy til, ifodalilik, sodda nutq, intonatsiya.

**Key words:** preschool education organization, pedagogue-educator, professional quality, professional skill, ethics-aesthetics, education-education, ability, speech sounds, talent, literary language, expressiveness, simple speech, intonation.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, педагог-воспитатель, профессиональное качество, профессиональное мастерство, этика-эстетика, воспитание-воспитание, способности, звуки речи, талант, литературный язык, выразительность, простая речь, интонация.

Maktabgacha taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan qator islohotlar va ularning deyarli barchasi aynan pedagoglar va tarbiyalanuvchi bolalar uchun va taʼlim sifatini har tomonlama rivojlantirish uchun qaratilgan tizim hisoblanadi. Har qanday jamiyatning kelajagi avvalo yosh avlodning qanday va qay tariqa tarbiyalanishiga hamda ularning taʼlim olishiga uzviy bogʻliq boʻlgan jarayondir. Har tomonlama tarbiyalangan avlodgina mamlakatimiz oldida yechimini kutib turgan umumdavlat ahamiyatiga molik boʻlgan vazifalarni bajarishga qodir boʻladi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shuning uchun ham yosh avlodni milliy mustaqilligimiz va ajdodlarimizning ulugʻvorligi ruhida tarbiyalashimiz, bu tarbiyachi-pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalash bu koʻp jihatdan ularga taʼlim-tarbiya beradigan pedagoglarda ham birdek mujassam boʻlishi kerak. Aynan bugungi kun tarbiyachisi eng avvalo, pedagogik, psixologik tayyorgarlikka, shuningdek bilim, koʻnikma, yillar davomida qoʻlga kiritilgan mahorat, yuksak pedagogik qobiliyat va goʻzal xulq hamda fazilatlariga ega boʻlmogʻi lozim .

Tarbiyachi - pedagogik jamiyatning yosh avlod taʼlim tarbiyasiga qoʻyilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisi va taʼminlovchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham muhtaram prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Maktabgacha taʼlim tizimiga alohida eʼtibor qaratayotganimiz bejiz emas, yoshlar tarbiyasiga bugundan eʼtibor bermasak, ertaga kech boʻlishi mumkin” - degan fikrlari ham ayni haqiqat. Tarbiyachilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik oʻz kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borishga ishtiyoq boʻlmas ekan, u yaxshi ustoz tarbiyachi boʻla olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, hukumatimiz tomonidan olgʻa surilayotgan barcha islohatlarning ijobiy yechimi ana shu koʻp minglik ziyokorlik ishining samarasiga bevosita aloqador. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida tarbiyachilik kasbiga boʻlgan eʼtibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda.

Tarbiyachilik bu avvalo, masʼuliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham mutaxassis oʻz ish faoliyati davomida psixologiya, gigiyena, taʼlim, tarbiya va pedagogik talablariga javob bera olishi kerak. Odatda tarbiyachi boʻynida bir guruh bolalarga gʻamxoʻrlik qilish yotadi. Bu jarayon bino ichida va xuddi shu bilan bir qatorda tashqarida xam oʻtkazilishi mumkin. Tarbiyachilar maktabgacha taʼlim tashkilotlari, yaʼni bogʻchalarda, rivojlantiruvchi markazlarda, xususiy bogʻchalarda ishlaydilar. Tarbiyachi vazifasiga yosh bolalarni maktabgacha boʻlgan tarbiyasi, bilimi bilan belgilangan qoidalar asosida ishlab boradi. Bunga oʻqish, chizma, tabiat va ogʻzaki nutq bilan shugʻullanish ,bundan tashqari esa yozuv qobiliyatlarini ham shakillantirish kiradi. Pedagog – tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning diqqatni bir joyga jamlovchi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, nutqni oʻstiruvchi va etika- estetikani rivojlantiruvchi oʻyinlar, turli xil qiziqarli topshiriqlar bilan bolalarni mashgʻul qiladi. Bolaning sogʻligi va hayoti uchun har tomonlama javobgar shaxs hisoblanadi. Doimo kichkintoylarning diqqat-eʼtibori markazida turadigan hamda ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manbaa hisoblanadi, shuning uchun ham tarbiyachi nafaqat toʻgʻri soʻzlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi. balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan soʻzlashi, nutqining ifodaliligi, grammatik jihatdan toʻgʻri rasmiylashtirilganligi , ravon, tushunish uchun oson boʻlishi hamda soʻz bilan belgilash toʻgʻri va aniq amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda bolalarga aytib bergan hikoyasi tarbiyalanuvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi, agarda shu hikoya tez va quruq ohangda, oddiy, his-hayajonlarsiz tarbiyalanuvchilarga aytib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi. Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Biroq u har doim ham o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi, chunki uning diqqati nutqining shakliga emas, balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, uzoq vaqtgacha u o'z nutqiga ehtiyotsizlik, e'tiborsizlik bilan qaraganligi tufayli, ayrim kamchiliklar nutqiga mustahkam o'rinish qolishi va bu nuqson o'ziga mutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun tarbiyachi hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va bu kamchilikni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash bu uning o'z kasbiga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hamda mezon hisoblanadi. Taniqli pedagog bolalarni ona tiliga o'rgatish uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I. Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi: „Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekor-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim". Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir tarbiyachi o'z nutqidagi nuqsonlarni aks ettiruvchi daftar tutishi, unga kamchiliklarini belgilab borishi, so'ngra ularni bartaraf etish bo'yicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Tarbiyachi -pedagogning nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar bular quyidagilardir:

1. Nutq tovushlarining to'g'riligi ;
2. Adabiy til normalariga muvofiq to'g'ri talaffuz qilish ;
3. Nutqning ifodaviy vosita va qismlaridan to'g'ri foydalanish ;
4. Tarbiyachi- pedagogda nutqning jo'shqin va intanatsiyalarga ega bo'lishi ;
5. Tarbiyachi – pedagogda nutqning oddiy, aniq va bola tushunadigan bo'lishi hamda biri ikkinchisi bilan izchillik asosida bog'liqligi;
6. Tarbiyachi –pedagogning so'z boyligi ;
7. Tarbiyachi –pedagogning nutq holatining samimiy bo'lishi ;

Yuqorida sanab o'tilganlarning deyarli barchasi bu tarbiyachilarning nutq salohiyatiga va uning mustahkamlanishiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Pedagog nutqning ifodaliligi ustida ishlashi uning og'zaki nutq vositalaridan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to'g'ri ishlatish, ovoz tempini va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan (pauza) nutqda ovozni vaqtincha to'xtatish (o'rinli foydalanish, nutqda ovozning balandligi va kuchiga qarab harakati, nutq tempi, ma'lum vaqt ichida aytiladigan so'zlar miqdori), ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Intonatsiya nutqni jonli hamda jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi. Tarbiyachi o'z so'z boyligini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy shuningdek, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va mustahkamlaydi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan va unsurlaridan foydalanganligiga, qaysi so'z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, qay darajada bayon etganligiga ham e'tiborni qaratishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" - 2016



2. Alimova G., Alimova E. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonini rivojlanishi. Pespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent- 2012.
3. Erkayev A. Yosh avlodni tarbiyalash ustivor vazifa. MT jurnali 4-son 2012.
4. Xolboyeva G., Nigmatova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik treninglardan foydalanish Pespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. -Toshkent, 2012.
5. Qodirova F.R., R. M. Qodirova "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi " Toshkent, 2006.
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz).

## **BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATINI**

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi  
Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mediakompetensiya turlari, talabalarda mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, hozirgi kundagi yechimini kutayotgan muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** mediakompetensiya, mediakompetentlik, mediasavodxonlik, axborot, ta’lim, kompetentlik, mediakompetentlik turlari.

**Аннотация:** В данной статье говорится о видах медиакомпетентности, формировании и развитии медиакомпетентности у студентов, работающих с информацией, актуальных проблемах и их решениях.

**Ключевые слова:** медиакомпетентность, медиакомпетентность, медиаграмотность, информация, образование, компетентность, виды медиакомпетентности.

**Abstract:** This article talks about the types of media competence, formation and development of media competence in students, working with information, current problems and their solutions.

**Key words:** media competence, media competence, media literacy, information, education, competence, types of media competence.

Jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asrida har bir jamiyat a’zosi dan mediamadaniyat, mediasavodxonlik, mediakompetentlikka ega bo‘lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ma’lumotlarni samarali izlash, topish, baholash, yaratish, uzatish muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, bu kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘z faoliyati davomida turli xil ko‘rinishdagi axborotlar oqimiga tushib qoladi.

Bugun medianing turli shakllarini samarali boshqarish va ulardan foydalanish qobiliyati muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy mahoratga aylandi. Elektron aloqa vositalari, internet, sun’iy yo‘ldoshlar aynan ommaviy axborot vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi pedagog xodimlarning tinmay o‘z ustida ishlashini talab qilmoqda. Globallashuv jarayonida gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, fotografiya, hujjatli va badiiy filmlar, axborot agentliklari, internet, global tarmoqdagi axborot resurslarining son jihatdan beqiyos o‘sishi, sifat jihatdan sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Kompyuter, faks, “uyali” telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo‘jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta’lim jarayonida qo‘llashning istiqbolli yo‘nalishlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda.

«Media» atamasi (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi.

Kompetentlik- ma'lum bir holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama.

Kompetentlik – bu shaxs faoliyatini samarali bajarishga olib keladigan bilim, qobiliyat, ko'nikma, tajriba va xatti-harakatlar yig'indisidir. Ba'zi olimlar «kompetentlik»ni amaliy va nazariy bilimlar, kognitiv qobiliyatlar, xatti-harakatlar va ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladigan qadriyatlarining kombinatsiyasi, deb biladilar yoki yaxshi malakaga ega bo'lish, muayyan rolni bajarish qobiliyatiga ega bo'lish holatidir.

Mediakompetentlik tushunchasi (media competence) ta'lim sohasiga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib u media ma'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish, yetkaza bilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi.

Shaxsning integral sifati sifatida mediakompetentligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

- motivatsion (OAV va OAV matnlari bilan aloqa qilish motivlari);
- kontakt (chastotali media matnlari bilan aloqa);
- axborot (media madaniyati, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasini bilish);
- pertseptiv (media matnlarini idrok etish qobiliyati);
- sharhlovchi/baholovchi (jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyati jarayonini va media matnlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati);
- amaliy va operatsion – ommaviy axborot vositalari va media matnlarni tanlash, o'z media matnlarini yaratish / tarqatish qobiliyati);
- ijodiy–ommaviy axborot vositalarining faoliyati bilan bog'liq ijodkorlikning namoyon bo'lishi.[2]

Oliy ta'limda mediakompetensiyaning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Talabalar o'zlari duch keladigan ma'lumotlarning ishonchligi tanqidiy baholay olishlari, haqiqiy manbalar va noto'g'ri ma'lumotlar o'rtasidagi farqni bilishlari kerak. Bundan tashqari, onlayn maxfiylik va raqamli xavfsizlik bilan bog'liq tashvish ortib bormoqda. Bu esa bo'lajak pedagoglarning media kompetensiyasini rivojlantirish muammolarini yanada kuchaytiradi [1].

O'ylaymizki, talaba – bo'lajak pedagogning media kompetensiyasini rivojlantirishning professional darajasi, birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning samarali oldini olishni ta'minlaydigan, ikkinchidan, media makon, o'smir avlodda jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash uchun ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, mediakompetentlikni rivojlantirish hozirgi globallashuv davrining muhim vazifalaridan biriga aylandi. Mediakompetentlik o'qituvchilarning faoliyati davomida mediamakondan axborot va mediamatnlardan to'g'ri tanlay olishi va samarali foydalanishi muhim o'rin tutadi. Mediakompetentlikda mediata'lim faqat faktik va yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmaydi. Shuningdek, bu yangi media hodisalarini tasniflash uchun ham muhim hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Alimov Z.Ch. Technical science research in Uzbekistan. <https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/2161>
2. Fyodorov A.V. Pedagogika universiteti talabalari mediakompetensiyasini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash. Monografiya. Moskva-2007.

3. Shamigulova O.A. Vasilina D.S. Universitet muhitida media kompetentsiyasini shakllantirish, talabalar - bo'lajak o'qituvchilarning fikrlarini tahlil qilish

4. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ik86uP8AAA&citation\\_for\\_view=Ik86uP8AAA&u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ik86uP8AAA&citation_for_view=Ik86uP8AAA&u5HHmVD_uO8C)

## PEDAGOGIK AMALIYOTLAR TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH VOSITASI SIFATIDA

*O'zbekiston, Shahrisabz davlat pedagogika institut o'qituvchisi  
Choriyeva Mehribonu Baxtiyorovna*

**Annotatsiya:** Maqola mazmunida talabalarni pedagogik amaliyot kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy nazariy mohiyati yoritilgan bo'lib mavzuning metodologiyasida bu tushunchaning paydo bo'lishi va ommalashishga zamin hozirlovchi fikrlar tahlili berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv, faoliyat, pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot

**Аннотация:** В содержании статьи освещена научно-теоретическая сущность подготовки студентов к профессиональной деятельности в педагогической практике, а в методологии темы дан анализ идей, подготавливающих почву для возникновения и популяризации данного понятия. .

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, профессиональная подготовка, социальная адаптация, деятельность, педагогическая практика, профессиональная практика.

**Annotation:** In the content of the article, the scientific theoretical essence of preparing students for professional activity in pedagogical practice is highlighted, and in the methodology of the subject, an analysis of the ideas that prepare the ground for the emergence and popularization of this concept is given.

**Key words:** professional activity, professional training, social adaptation, activity, pedagogical practice, professional.

Talabalar amaliyoti oliy kasbiy ta'limning asosiy ta'lim dasturining (OTM) ajralmas qismi bo'lib, u talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, bevosita pedagogik amaliy ko'nikma yoki ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik nazariya g'oyalariga ko'ra shaxs kamolotida tarbiya va ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi. Jamiyatning a'zosi sifatida u ijtimoiy ahamiyatga ega muayyan vazifalarni bajaradi yosh jihatidan ulg'aygani sari u tomonidan bajarilayotgan ijtimoiy rollar shakli va mazmuni o'zgarib boradi qiziqishlari va qobiliyati darajasida atrofdegilar bilan munosabatga kirishadi. Mazkur jarayon o'z mohiyatiga ko'ra bevosita shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning ijtimoiylashuvida esa ta'lim tizimi, unda ustuvor bo'lgan maqsad hamda ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning sezilarli ta'siri va rolini inobatga olgan holda ta'limni shaxsiga yo'naltirish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida shaxsni shakllantirish jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi. Aslida bu masala bugungi kungacha ham adabiyotlarda va mutaxassislarining fikrida mavjud edi, Bunday fikrlarga misol sifatida quydagilarni ko'rsatamiz.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “ Ta'lim to'g'risida” gi qonunda butun dunyo ta'lim me'yori asosida tuzilgan davlat ta'lim talablari darajasida, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida chet el ta'limi bilan raqobat qila oladigan, raqobat jarayonida Vatan sha'ni, manfaati va obro'sini munosib himoya qila oladigan milliy kadrlarni yetishtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bu muhim vazifani amalga oshirish yalpi ta'lim va tarbiya tizimini, uning murakkab qismlaridan biri pedagogik amaliyotni tashkillashtirishni tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Chunki yangi zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos Yangi pedagogik xodimlarni avvalgi pedagogik texnologiya asosida tayyorlash aslo

mumkin emas. Shu bois, kadrlar tayyorlash milliy dasturida Yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va uni hayotga tadbiiq etishga talaba-amaliyotchilarni o'rgatish alohida ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga muvofiq pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan;
2. Pedagogik yoki malakaviy amaliyotga qatnashishini shakllantirish;
3. Pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarashga o'rgatish;
4. Maxsus, pedagogik va psixologik fanlarni chuqur o'rganishga yordam berish;
5. Bo'lajak o'qituvchining Yangi jamiyat talablariga moslashishiga ko'maklashish;
6. Bo'lajak mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga ega bo'lgan holda kasbiy mahoratni egallashiga yordam berish;
7. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash;
8. Yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish;
9. Talabalarni o'quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul

metodlarni ko'rgazmali texnik vositalarni, an'anaviy va noan'anaviy dars va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish tayyorlash darajasini oshirish;

10. O'quvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, shakllanirish va bilim o'rganish maqsadida talabalarning ular bilan o'zaro munosabatini tashkil qilishga jalb qilish, ularda pedagogik izlanuvchanlikka bo'lgan qiziqishni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida xohlagan masala bo'yicha pedagogika institutining pedagogik amaliyot va tashkilot rahbariyatiga, o'quv o'rni amaliyotning tashkiliy masalalari bo'yicha tavsiyalar berish o'quv muassalaridagi bolalar va o'smirlar yoshlar va kasaba uyushmalarining konferensiya va yig'ilishlariga qatnashish kutubxona fan kabinetlaridan va mavjud o'quv-uslubiy qurollardan faoydalanish huquqiga ega. Bundan tashqari pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish bo'lajak mutaxassislar uchun foydaliligini ta'minlovchi omillar mavjud va bu omillarning quydagilari muhim.

-o'qituvchi va tarbiyachilariga murojaat qilishi, o'quv - tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

-amaliyot bo'yicha rahbari, guruh rahbari, metodistlar, pedagogika va psixologiya o'qituvchilari, tashkilot rahbariyati va o'qituvchilarning topshiriqlarini ma'suliyat bilan bajarish;

-texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidasini qat'ian amal qilish;

-kamtarinlik, tashkilotchilik, tartib-intizom, odoblilik va mehnatsevarlilik kabi ijobiy jarayonlarda namuna bo'lishi;

- pedagogik amaliyot dasturlarida ko'rsatilgan barcha vazifalarni bajarish;

-bolalar bilan o'tkaziladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning tashkil qilinishi va uyushtirilishiga puxta tayyorlanish;

-ularning reja va dasturlarini, konspektlarini tuzishga, uni o'qituvchi, sinf rahbari va uslubiyotchiga tasdiqlatish o'rganish;

- dars jadvaliga muvofiq barcha o'quv tarbiyaviy ishlariga va ularning tahliliga faol qatnashish;

-amaliyot kundaligini yuritish va amaliyot yakunida guruh rahbariga hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shartligini bilish;

Yuqorida e'tirof etilgan talablarni bajarmagan amaliyotchi pedagogik amaliyotdan chetlashtiriladi. Pedagogik amaliyotdan chetlashtirilgan yoki pedagogik amaliyot davridagi faoliyati uchun noloyiq baho olgan talaba ushbu

semestrda o'quv rejasini bajarmagan hisoblanadi. Fakultet (Institut) kengashi qarori bilan unga o'qishdan uzluksiz ravishda takror pedagogik amaliyot belgilanadi.

### **Xulosa**

Biz yuqorida aytib o'tgan talabalarni pedagogik amaliyot davomida ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorlashning ba'zi muhim jihatlariga oid tahlillarimiz va chiqargan xulosalarimizdan ta'lim jarayonlarida samarali foydalanilsa o'ylaymizki, keng tafakkurli, mustaqil dunyoqarashga va nohiziqli fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, har bir muammoga aql ko'zi bilan qaraydigan, intellektual jihatdan salohiyatli va mamlakatimiz barqaror taraqqiyotiga o'zining munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.

3. A. Xodjaboyev, I. Husanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2007-yil 192 bet.

4. I. M. Sirojiddinova "Kasbiy ta'lim metodikasi" o'quv qo'llanma Andijon "Noshirlik" nashriyoti 2021-yil 220 bet.

## **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯСИ: ПРАГМАТИК ЁНДАШУВ**

*O'zbekiston, NavDPI mustaqil tadqiqotchisi  
Улугбердиев Нурбек*

**Abstract:** The article analyzes that youth are the most dynamic and active part of society and have great social, intellectual and creative potential. It is also based on the formation of a flexible social class that can quickly perceive changes in a rapidly changing situation, always learns new skills, adapts and offers new ideas for development

**Key words:** youth, upbringing, science, education, public policy, socialization, culture.

**Annotasiya:** В статье анализируется, что молодежь является наиболее динамичной и активной частью общества и обладает большим социальным, интеллектуальным и творческим потенциалом. Также оно основано на формировании гибкого социального класса, который может быстро воспринимать изменения в быстро меняющейся ситуации, всегда обучается новым навыкам, адаптируется и предлагает новые идеи для развития общества.

**Ключевые слова:** молодёжь, воспитание, наука, образование, государственная политика, социализация, культура.

Маълумки, ёшлар янгича фикрлашга, янги-янги ғояларни дадил ўртага ташлаб, уларни амалга оширишга, муаммоларни ижодий ва ностандарт ёндашувлар асосида ҳал этишга мойил бўлади. Шунинг учун ҳозирги кунда ёш авлод вакилларининг билим олиши, илм-фан, инновациялар, адабиёт, санъат, спорт соҳасидаги истеъдод ва салоҳиятини юзага чиқариши, уларнинг жамиятимизнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида фаол иштирок этиши учун барча шароитларни яратишга устувор аҳамият бермоқдамиз»<sup>42</sup>. Демак, ёшлар сиёсати мудом мамлакат стратегиясининг асоси, ядроси бўлиб қолади. Шунинг учун жамиятдаги ёшлар

<sup>42</sup>Мирзиёев Ш.»Янги Ўзбекистон» газетаси бош муҳаррири Салим Дониёров саволларига жавоблари // «Янги Ўзбекистон» газетаси. – Тошкент: 2021 йил 17 август.

муаммоси унинг давлати муаммоларидан ажралмасдир. Бинобарин, ёшлар сиёсати давлатнинг асосий йўналишлари ва устувор йўналишларидан биридир.

Ёшларга оид давлат сиёсати мамлакат ижтимоий-маданий ривожланишининг асосидир. Ёшларга оид сиёсат, ўз навбатида, ҳар қандай давлатнинг асосий устувор йўналиши ҳисобланади. Зеро, ёшлар сиёсатининг ўзи ёшларнинг жамиятдаги ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, маданий ва маънавий мавқеини асраш ва ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирлар тизими, бу борадаги давлат ва жамоат органларининг фаолиятидир. Бинобарин, юртимиз ёшларини ватанпарварлик, одоб-ахлоқ, билимли ва маданиятли қилиб тарбиялаш асосий қадриятларимиздан бири бўлади.

Бу борада ёшларнинг қизиқиш ва мойиллигини тўғри йўлга қўйиш, унинг юртимиз учун самарасини кўрсатиш, ёшларни ватанпарвар, билимли этиб тарбиялаш жамият олдидаги асосий вазифалардан бири бўлиб қолади. Ёшларнинг таълим ва тарбияси уларнинг маънавий, миллий-ахлоқий фазилатлари даражасига боғлиқ.

Мамлакатимиз келажаги бугун ёшларнинг қай даражада таълим-тарбия олиши, малакали мутахассислар бўлиб етишишига боғлиқдир. Ёш авлоднинг асосий вазифаси ўзлари туғилиб ўсган мамлакатнинг муносиб фуқаролари бўлишдир. Бу борада Президент Ш.Мирзиёевнинг «Янги Ўзбекистон» газетаси бош муҳаррири саволларига берган жавоблари аҳамиятлидир: «Ёшлар – халқимизнинг асосий таянчи ва суянчи. Кенг қўламли ислохотларимизни самарали амалга оширишда улар ҳал қилувчи куч бўлиб майдонга чиқмоқда. Айнан замонавий билим олган, илғор касб-хунарларни, инновацион технологияларни, хорижий тилларни пухта эгаллаган ўғил-қизларимиз мамлакатимизни янада тараққий эттиришда етакчи ўрин тутади.

Мамлакатимизнинг келажаги бўлмиш ёшларимизни ҳар томонлама етук, билимли, салоҳиятли шахс, комил инсон сифатида тарбиялаш масаласига бугунги кунда ҳам ўзига хос тарзда, замонавий усуллар асосида ёндашилмоқда, уларнинг барча ҳуқуқ ва эркинликлари, имконият ва манфаатларини ҳимоя қилишда ташкилий-ҳуқуқий асослар замон билан ҳамнафас такомиллашиб бормоқда.

«Масофавий таълим, онлайн режимида узлуксиз ташкил этилган ҳолда ёшларнинг билим олиш ҳуқуқини таълимда таъминлаганининг ўзи Ўзбекистоннинг бугун ёшларга бераётган таълим-тарбия ва кўрсатилаётган ғамхўрлик, эътиборнинг амалий ифодасидир»<sup>43</sup>.

Шарқ Уйғониш даврида ҳам, жадидлар фаолиятида ҳам, жамиятнинг янгиланишида ёшларнинг ўрни бекиёс бўлган. Шу жиҳатдан мунтазам шаклланиб боровчи бу қатламни доимий йўналтириб ва қўллаб-қувватлаб туриш талаб этилади.

Бу эса, замонавий талаблар даражасида, давлат томонидан ёшларнинг мамлакат манфаатлари учун эркин ва мустақил фикрли ва ўз-ўзини англаши учун мақбул шароит ва имконият яратиш билан бир қаторда ёшларни қўллаб-қувватлашга қаратилган янги истиқболли тизим ва режаларни ишлаб чиқиш ўз навбатида ёшларга оид давлат сиёсатини англатади. Ўзбекистоннинг тараққиёт йўлида белгиланган сиёсий-ижтимоий, иқтисодий ислохотлар, янги Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотларнинг оламшумул моҳиятини англаш, уни авайлаш, асраш ва ҳимоя қилиш билан ҳамоҳангдир. Ёшлар ҳар бир даврнинг прогрессив фикрловчи қатлами бўлиши билан бирга, Ватан келажагини тараққий этишида ҳам масъул, ҳам етакчи кучдир.

Демак, ёшлар сиёсий онгини шакллантиришда маънавий-маданий мерос ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда дунёни ўзига жалб қилиб келаётган масжиду мадрасалар, буюк авлиёлар қадамжолари ва бошқа диққатга сазовор жойлар тарихи билан ёшларни мунтазам таништириб бориш, уларни миллий қадриятларимизга қизиқтириш нафақат масъулларнинг, балки шу юртнинг фуқаросиман деган барча инсонларнинг вазифасига айланмоғи даркор.

<sup>43</sup>Суннатова Н.Б. Инновациянинг тизим сифатидаги устувор йўналишлари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2011. № 4 (5). – Б. 126-129.

## TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi*

*D.Q. Ulug'berdiyeva*

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

*K.A. Nazarova*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashga zamonaviy, kasbiy kompetentli yondashuv, innovatsion kompetentlilik, pedagogik faoliyat va amaliy-yo'naltirilgan ta'lim asosidagi yondashuvlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, o'qituvchi, zamonaviy, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat, kompetensiya, kompetentli pedagog.

**Annotation:** The article presents a modern, professionally competent approach to the training of future teachers, based on innovative competence, pedagogical activity and practice-oriented education.

**Key words:** Education system, teacher, modern, competent, professional, approach, activity, competence, competent educator.

Hozirgi kun o'qituvchisiga doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga to'g'ri kelmoqda, bu o'z navbatida uning kasbiy sifatleri takomillashtirilishini talab qiladi. Pedagogik nazariya va metodikalarning doimiy rivojlanishi, pedagogic amaliyotga o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish hozirgi kun o'qituvchisining ta'lim texnologiyalari sohasida qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligini ko'rsatmoqda [1-5].

Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'lim tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o'tilgan talablar yangi milliy ta'lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi [6-11].

### MUHOKAMA

Bugungi kunda kompetentli yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy faoliyat kometensiyalarining shakllanishini, balki bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatleri yuzaga chiqarilishini ham ko'zda tutadi. Oliy ta'lim standartida bo'lajak mutaxassisga mehnat bozorida raqobatbardoshlik, o'z kasbini erkin egallaganlik va faoliyatning turdosh yo'nalishlarida yo'nalishni topa olish imkoniyatlari haqida talablar qo'yiladi - bularning barchasini kompetentli yondashuv sharoitlaridagina yuzaga chiqarish mumkin.

"Kompetensiya" tushunchasining ta'riflaridan kelib chiqib (bu tushuncha esa o'z navbatida hamma tomonidan bir xilda talqin qilinavermaydi), ko'pchilik mualliflar uni mutaxassisning o'zi olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga tayyorligi, boshqalari esa muammolarni hal qila bilish qobiliyati tarzida ta'riflaydilar.

Lotinchadan tarjima qilinganda "kompetensiya" so'zi kishi biron-bir masala doirasida yaxshi xabardor ekanligini bildiradigan, tajribaga ega ekanligini ko'rsatadigan tushunchani ifodalaydi. Oliy ta'lim bo'yicha DTS ga muvofiq kompetensiya - bu ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, mahorat va shaxsiy sifatleri qo'llash qobilyatidir. Kompetentli yondashuv muammosiga murojaat qilish "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarining bir-biridan ajratilishini talab qiladi, chunki, ularning pedagogik adabiyotlarda [6]. Yetarlicha ko'p ishlatilishiga

qaramasdan mazkur tushunchalarni hozirgi vaqtlargacha bir xil ma'noda talqin qilish variantlari mavjud emas.

"Kompetentlilik" tushunchasi (lotincha *sompetentia*, *compete* - birgalikda erishaman, uddalayman, mos kelaman, to'g'ri kelaman ma'nolaridagi so'zidan hosil qilingan) lug'atlarda bir xilda talqin qilinmaydi, balki "biron-bir narsa haqida fikr yuritishga imkon beruvchi bilimlarga egalik" va "xabardorlik, vakolatlilik", "obro'ga egalik, to'la huquqlilik" kabi variantlarda qo'llaniladi [2;3].

Kompetentli yondashuv g'oyalari bir qancha xorijiy tadqiqotchi-olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning maqsadi sifatida kompetentlilikning belgilanishiga asoslanadi. Kompetentli yondashuv ta'lim oluvchilar tomonidan har xil hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga imkon beruvchi turli hildagi mahoratning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi.

#### NATIJA

Kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari modeli asosiga qo'yiladi va oliy ta'lim bo'yicha DTS doirasida yuzaga chiqariladi. Bitiruvchi modeli uning kasbiy malakasini ta'lim natijalariga umum o'quv fanlari talablari bilan birlashtiradi va buning natijasida bo'lajak informatika o'qituvchisining tayyorgarligi kompetentli yondashuv mantig'ida amalga oshirilishi hamda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy kompetentlili shakllanishiga olib kelinishi lozim.

Kasbiy kompetentlilik "o'qituvchi tomonidan uning pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va o'qituvchi shaxsini ma'lum bir qadriyatlar, g'oyalar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida shakllanganligini belgilovchi bilim, mahorat va ko'nikmalarning zaruriy hajmini egallaganligi" sifatida talqin qilinadi [4].

Pedagogik faoliyatni yetarlicha yuqori darajada amalga oshira oladigan, o'quvchilarning o'qitilganligi va tarbiyalanganligida yaxshi natijalarga erishadigan hamda shaxs sifatida o'zini yuzaga chiqara oladigan o'qituvchi kasbiy kompetentli bo'lib hisoblanadi [12-18].

Yuqorida aytilganlarni umumlantirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv - bu hozirgi zamon kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozorining talab-ehtiyojlari bilan bir qatorga qo'yishga intilishdir [30]. Mana shunday yondashuv o'qituvchidan o'quvchiga bilimlarning translyatsiya qilinishini emas, balki amaliy tajribalar, bilim, mahorat va ko'nikmalar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetentlilikni shakllantirishni ko'zda tutadi. Pedagog-xodimlar uchun eng muhim vazifa bo'lib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Абдушоҳид Абдурашидович Хасанов, & Шарофат Бахрдир Кизи Уроцова (2021). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАТИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА. *Scientific progress*, 2[1], 300-308.

[2] Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). ACCESS TO ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN THE EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).

[3] Khasanov A.A. Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. *Education, Science and Innovation // Spiritual-Educational, Scientific and Methodological Journal* 2017, №3, P. 38- 44. 4.

[4] Uroкова, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 09(89), 34-37.



## ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDA POWER POINT DASTURIDAN YANGICHA YONDASHUV VA IJODKORLIKNI OSHIRISH

*O‘zbekiston, Finlandiya pedagogika instituti  
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası  
M.A.Sayitova*

**Annotatsiya:** maqolada Power point dasturi asosida ijodkorlikni oshirish hamda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishini, ta’limning dunyo ta’limi tizimiga integratsiyalashuvini, taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishini ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalariga yangicha yondashuv zarurligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Power point, animatsiya, elektron darsliklar, demokratiya, integratsiyalash, tasviriy san’at, elektron plyonka, grafik obyekt, zamonaviy texnologiya

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish darajalarini yana bir bora ko‘rib chiqishni talab etadi.

Respublikamizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham ma’lum yangiliklar, tubdan o‘zgarishlar bo‘lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma’suliyat yuklaydi.

Jahon ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan asosiy o‘qitish texnologiyalari quyida keltirilgan:

1. O‘yinli texnologiyalar.
2. Muammoli o‘qitish texnologiyasi.
3. Tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
4. Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
5. Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
6. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi.

Taqdimot muharrirlarining maqsadi turli jarayonlar uchun taqdimotlar yaratishdan iborat. Bu maqsadda MicroSoft firmasi foydalanuvchilarga Power Point dasturini yaratgan. Slaydlar yaratishning usullarini Power Point 2016 varianti orqali tanishamiz. Power so‘zining ma’nosi “biror bir narsaga jon bag‘ishlash” yoki “qurilmalarni yoqish” kabi ma’nolarni anglatadi.

Point so‘zining ma’nosi esa “nuqta” degani. Demak, Power Point so‘zining ma’nosi “nuqtani ishlatish”, “nuqtaga jon kiritish” ma’nolari bilan mos keladi. Power Point taqdimot yaratish dasturlari ichida eng yaxshisi va qulay dastur hisoblanadi. Sababi WORD, Excel dasturlari bilan ishlashni o‘rgangan foydalanuvchilar uni tez o‘zlashtiradilar. Ma’ruzachi biror axborotni tinglovchiga yetkazishda namoyish materiallaridan foydalanadi.

Namoyish materiallari qog‘oz, elektron, plyonka, va prospektlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Power Point ushbu ko‘rinishdagi namoyish materiallarini tayyorlashda qo‘llaniladigan asosiy dastur hisoblanadi. Power Point dasturida inson faoliyatidagi (biror sohada) namoyish uchun to‘plangan materiallarni slaydlarga joylashtirish, ularni multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob‘yekt)lardan foydalanib shakllantirish, masalan: matn mazmunini rasm ko‘rinishida tasvirlash, maxsus effektlar yordamida bezash orqali tezkor taqdimotlar yaratishni ta’minlaydi. Power Point dasturi va uning ish oynasi Power Point dasturida ikkita asosiy tushuncha mavjud, slayd - multimedia tizimlarini ko‘rsatuvchi sahifa va taqdimot - slaydlar va maxsus effektlar to‘plami bo‘lib, u bitta faylda saqlanadi. Power Point boshqa dasturlar bilan chambarchas bog‘langan. Power Point taqdimotlarini yaratishda Word matnlarini, Excel elektron jadvallarini va grafikani bog‘lash mumkin.

MS Power Point dasturi yordamida turli mazmundagi ma'ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjatlarni slaydlar tarzida tayyorlash mumkin. POWER POINT dasturining imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- Taqdimot (prezentatsiya) va slaydlar tashkil qilish;
- Rasm va grafiklarni slaydlarga joylashtirish;
- WEB uchun taqdimot (prezentatsiya) tashkil qilish;
- Internetda hamkorlikda ishlash;
- MS OFFICE dasturlari bilan hamkorlikda ishlash.<sup>[1]</sup>

Power Point 2016 dasturini ishga tushirish Power Point 2016 dasturini yuklashdan oldin Windows 10 amaliyot tizimi dasturini yuklash lozim. Bu esa sodda, ya'ni hozirgi paytda kompyuter yuklanishi bilan amalga oshadi. Power Point dasturini yuklash jarayoni quyidagicha: "Sichqoncha" ko'rsatkichi ekranning quyi qismida joylashgan Пуск (Start) tugmachasiga keltirilib chap tugmasi bosiladi. So'ngra ekranda hosil bo'luvchi dasturlar ro'yxatidan PowerPoint 2016 tanlanadi va "sichqoncha" chap tugmasi bosiladi:

Natijada kompyuter ekranidagi quyidagi boshlang'ich oynadan dastur taklif qilayotgan slaydlarning ko'rinishlardan biri, masalan, [Пустая презентация] tanlanadi. Natijada ekranga Power Point 2016 dasturining ish oynasi hosil bo'ladi.

Tez foydalanish paneli– foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun tez-tez foydalanib turiladigan buyruqlarning belgisini joylashtirish va zarur bo'lganda foydalanish imkonini beradi. Unga yangi buyruqlarni qo'shish uchun panelning oxiridagi tugmaga kelib "sichqoncha" chap tugmasini bosish kerak. So'ng ro'yxatdan kerakli buyruqlarni tanlash lozim. Sarlavha satrida ayni vaqtda tayyorlanayotgan hujjatning (faylning) nomi va muharrirning nomi aks etadi. Excelda tayyorlanayotgan taqdimot (презентация) deb nomlanadi.

Вид. 1. Dasturning Файл lentasi fayllar ustida turli amallarni bajarishga imkon beruvchi buyruqlardan tashkil topgan: Сведения - fayl haqida turli ma'lumotlarni olish; Создать – yangi fayl hosil qilish; Открыть – mavjud faylni ochish; Сохранить – faylni saqlash; Сохранить как – faylni boshqa nomda saqlash; Печать – faylni chop etish; Закрыть – dasturni yopish. 2. Dasturning Главная - bosh lentasi Windows buferi bilan ishlash (Буфер обмена), slaydalar yaratish (Слайды), slaydlardagi shrift turlari, o'lchami, ko'rinishlarini o'zgartirish (Шрифт), abzatslar bilan ustida turli amallar bajarish (Абзац), slaydlarga turli shakl va rasmlar qo'yish (Рисование) hamda slaydlarni tahrirlashga (Редактирование) imkon beradi: 3. Dasturning Вставка – qo'yish, o'rnatish lentasi slaydlar hosil qilish, jadvallar, shakllar, diagrammalar, havolalar, turli obyektli matnlar, izohlar va belgilarni hamda multimedia amallarini (videoyozuv, ovozlarni) slaydlarga qo'yish uchun zarur bo'lgan buyruqlardan tashkil topgan: 4. Dasturning Дизайн – dizayn lentasi yordamida taqdimot mavzusiga mos ko'rgazmali ko'rinishlarni tanlash, turli variantlardan foydalanish, slayd o'lchamini va fonini o'zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin: 5. Dasturning Переходы - slaydlarga o'tish lentasi slaydlarni ekranga turli effektlarda chiqishini ta'minlab, slaydlarni ovoz bilan chiqishi va slaydlarni almashish vaqtini belgilashga imkon beradi: 6. Dasturning Анимация - obyektarga animatsiya (harakat) berish lentasi buyruqlari animatsiya elementlarini qo'yish, animatsiya effektlarini o'rnatish, animatsiya sohasini belgilash, animatsiya tartibini o'zgartirishga mo'ljallangan: 7. Power Pointning Слайд-шоу lentasi yordamida slaydlarni ko'rishni boshlash, ko'rish vaqtini belgilash va slayd-shouni sozlash kabi amallarni bajarish mumkin: 8. Dasturning navbatdagi Рецензирование – taqrizlash lentasi buyruqlari slaydlarda imloni tekshirish, yozuv tilini o'zgartirish, slaydlarga izohlar qo'yish, yozuvlarni qo'lyozma ko'rinishda yozish kabi amallarni bajarishga imkon beradi: 9. Power Point dasturining Вид – ko'rinish lentasi slaydlarni ko'rish rejimi xususiyatlarini o'zgartirish, masshtablar, oynalar va makroslar bilan ishlashga xizmat qiladi:– Рецензирование; – Слайд-шоу; – Анимация; – Переходы; – Дизайн; – Вставка; – Главная; – Файл; – Agar yangi hujjatga nom berilmagan bo'lsa, u holda doimiy qabul qilingan birinchi hujjat uchun Презентация ikkinchisi uchun Презентация va hokazo nomlar beriladi. POWER POINT dasturi lentalari Power Point 2016 dasturida quyidagi lentalardan foydalaniladi.

Power Pointda dasturining asosiy elementlari, animatsion effektlar. Faraz qiling, Siz odamlar bilan to'la majlislar zalidasiz. Shu yerdan turib o'zingizning yangi fikrlaringizni bo'lg'usi

mijozlaringizga etkazish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Ushbu imkoniyatni amalga oshirishda Power Point yordamga keladi. Bu dastur har xil video-klip va animatsiyalardan foydalanib taqdimot yaratish orqali, o'z fikringizni tushunarli qilib yetkazib berish imkoniyatini beradi. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda reklamalarga juda keng e'tibor berilmoqda. Reklamalarning har xil ko'rinishlari: sahifalar, e'lonlar, tele va radio reklamalar sizga ma'lum. Bugungi kunda kompyuter - reklamalarini yaratish va tarqatish bo'yicha eng kuchli vositaga aylandi. Reklama namoyishini yaratish bu ko'p vaqtni talab qiladigan, juda muhim va ma'suliyatli jarayondir. Bu o'rinda sizdan talab qilinadigani rasmlar, animatsiya (harakat), qisqa matnlardan iborat ssenariyni o'ylab topishdir. Namoyish(prezentatsiya)lar va slayd-filmlar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri - bu Microsoft Office ilovasidagi - MS Power Point dasturidir. U grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib, sizga sifatli namoyishlar yaratish imkonini beradi. Zamonaviy kompyuter va proyektorlardan foydalangan holda seminarlar, konferensiyalar, bitiruv ishlari himoyalari hamda o'quv jarayonida namoyishlardan foydalanish oddiy holga aylandi.

- Namoyish - bu MS Power Point yordamida yaratilgan, bitta faylda saqlanuvchi va ularni ko'rsatish ekranda amalga oshiriladigan slaydlar va maxsus effektlar to'plamdan iborat bo'lib, tarqatma material, ma'ruza rejasi yoki konspekt shaklida bo'lishi ham mumkin.
- Slayd esa namoyishning alohida sahifasi (kadri) bo'lib, unda sarlavha, matn, grafik, diagramma va boshqa ma'lumotlar joylashgan bo'lishi mumkin.
- MS Power Point yordamida yaratilgan slaydlarni printer yordamida chop etish yoki maxsus agentliklarda 35-millimetrli fotoplyonkalarga o'tkazib olish mumkin.
- Animatsiya - bu slaydlarni namoyish qilish va ko'rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig'indisidan iborat.
- Tarqatma material deb namoyish slaydlarini bitta sahifaga ikki, to'rt yoki oltitadan qilib chop etib anjuman qatnashchilarga tarqatish uchun tayyorlangan materialga aytiladi.<sup>44</sup>

Reklama prezentastiyasini yaratish bu ko'p vaqtni talab qiladigan, juda muhim va mas'uliyatli jarayondir. Bu o'rinda sizdan talab qilinadigani bu rasmlar, animatsiya (harakat), qisqa matnlardan iborat ssenariyni o'ylab topish. Prezentastiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri-bu Microsoft Office ilovasidagi-Power Point dasturidir. U grafik axborotlar, taqdimotlar, ovoz, video kliplar, animastiyalardan foydalanib, sifatli taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Prezentastiyalarni tayyorlash natijasida:

- qatnashuvchilarga tarkatish uchun chop qilingan hujjat;
- kadoskopda foydalanish uchun kalkalar;
- slaydoskoplarda foydalanish uchun 35-millimetrli slaydlar;
- cho'ntak daftarchasi;
- elektron prezentastiyalarni olish mumkin.

Microsoft Power Point dasturi 1987-yildan boshlab paydo bo'lgan bo'lsa ham, ammo prezentatsion grafik ishlarida yetakchi o'rin tutadi. Bu dasturning keyingi versiyalarida esa shu dasturga yangi qo'shimcha fikrlar va prezentastiyalarni qo'llashning yangi usullari ishlab chiqildi. Microsoft Power Pointdan foydalanayotgan har bir foydalanuvchi xoh u yangi ish boshlovchi bo'lsa, xoh tajribali bolishidan qat'iy nazar, ushbu dasturga kiritilgan yangi usullarni yuqori darajada baholaydi.<sup>[2]</sup>

Microsoft PowerPoint – taqdimotlarni tayyorlash va taqdimotlarni hosil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda yaratilgan taqdimotlarda oddiy animatsiyalar hosil qilish mumkin. Taqdimot – ma'ruza, biznes reja va hokazolar bo'lishi mumkin. Har bir taqdimot bir necha slayddan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi asosan elektron ta'lim resurslari orqali amalga oshiriladi.

<sup>44</sup> Axmedov N. Toyloqov "Informatika" darsligi Toshkent 2001-yil

Kompyuterli o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ta'lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan;
- o'qituvchi ta'lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o'qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta'minlanadi;
- o'qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta'limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta'lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi .

Kompyuterli o'qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi. Agar o'qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg'or o'qitish texnologiyalari ham samara bermaydi .

Bu texnologiya o'quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o'qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, o'qituvchi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko'nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi. Shu boisdan ham Power Point dasturining o'quvchi yoshlarga o'rgatishda zamonaviy texnologiyalaridan foylanib yaxshi natijaga erishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida -T.: «Sharq», 2000-yil. 529 b.
2. Axmedov N. Toyloqov "Informatika", T.2001-yil.
3. A.Aripov A Xaydarov "Informatika asoslari"2022-yil
4. A.Abdugodirov A Xayitov Axborot texnologiyasi"2020-yil
5. G.Yormatov , Y.Isamuhamedov "Mehnatni muhofaza qilish"2021-yil
6. D.E.Omonov International Journal of Innovations in engineering research and technology 2021-yil 199 bet

## MARKAZIY OSIYODA TA'LIM TIZIMINING XUSUSIY VA BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNIDAGI MEHNAT MADANIYATI

*O'zbekiston, NDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi  
katta o'qituvchisi A.S.Sayitov*

**Annotatsiya:** maqolada XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ijtimoiy- ma'naviy muhiti va Buxorodagi ta'lim - tarbiya mazmuni hamda kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Movarounnahr, ta'lim –tarbiya, madaniyat, hayot, kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta'rif.

**Annotation:** The article presents thoughts about the socio-spiritual environment of Central Asia in the XVI-XVIII centuries, as well as the content of education and training in Bukhara.

**Keyword:** Movarounnahr, education - upbringing, culture, life, profession, craftsman, painter, calligrapher, description

**Annotatsiya:** V state predstavleny mysli o sotsialno-duhovnoy srede Sredney Azii v XVI-XVIII vekax, a takje o soderjaniy obrazovaniya i obucheniya v Buxare.

**Klyuchevye slova:** Movarunnaxr, obrazovanie, kultura, jizn, professiya, remeslennik, xudojnik, kalligraf, opredelenie.

XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan Buxoro xonligidagi ijtimoiy-ma'naviy hayot, rivojlanish va taraqqiyot mohiyatini shaxs tarbiyasi, uning har tomonlama barkamolligi g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jamiyat hamda hayot taraqqiyotidagi jarayonning faol ishtirokchisi hisoblangan ma'lum bir ijtimoiy tabaqaga mansub shaxslarning kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan g'oyalar, qarashlar

ta'lim tizimidagi asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan, **aynan bir shaxsga yo'naltirilgan, xususiy ta'limda** rivojlantirilib, amalga oshirilgan.

Aynan ushbu davrda yaratilgan bebaho ma'naviy meros mazmuni, ilmiy tafakkur ne'matlari jamlangan asarlar qismlari sinchiklab o'rganilib, qiyosiy tahlil etilganda ular matnlarida o'z davrining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususiy ta'limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yoshning pok, haqi halol, qo'li to'g'ri, nekbin, mehnatsevar va hunarli bo'lib voyaga etishi masalasi tashkil etadi. Buxoro xonligidagi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan xususiy ta'lim jarayonida asosan **hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik** yo'nalishidagi ta'lim turlari o'rgatilgan.

CHorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. O'g'il bolalar mollarni boqish, urchitish, tuya,otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash,chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, shuningdek, Vatan himoyasi maqsadid harbiy hunarni ham bilishlari, qiz bolalarga esa yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to'qish, tikishni bilishlari majburiy bo'lgan.

SHayboniylar davrida bunyod etilgan shaharlar qurilishi, turli imoratlar, koshonalar, qal'alar, xar xil inshootlarning bunyod etilishi jarayonining bayoni ham hunarni egallash va o'rgatish faoliyati yuksak darajada yo'lga qo'yilganligining dalilidir. Ushbu binolar haqida gap ketganda ularning hashami, naqshlari, bezaklari, hamda qandil, yoritgichlari tavsifi beriladi. Bu esa bizning sarzaminimizda me'morchilik san'ati ancha yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi.

Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e'tibor berganliklarini ko'rsatadi.

**Hunarmandchilik** yo'nalishidagi xususiy ta'lim natijasida qurolsozlik, degrezlik, zargarlik, po'stindo'zlik, ranli metall va toshlarga ishlov berishdek ancha murakkab hunar turlari o'rgatilganligi diqqatga sazovordir.

XVI-asr Buxoro xonligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da,ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, xonlikning hunarmandchiligi sohasida **to'qimachilik** uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Xonlikda ayniqsa bo'z, chit,olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hissor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, SHahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to'qish, tayyor kiyim tikish, gilam to'qish va boshqa to'qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning zarbof to'nlari, SHahrisabzning iroqi do'ppilari,Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari xonlikdan tashqarida ham juda mashhur bo'lgan

Xonlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – **kulolchilik** edi. Xo'jlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik xonlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Dehnov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Xonlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar(turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Xonlik iqtisodiyotining **metallga ishlov berish** sohasi ham yaxshi rivojlangan. SHahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, SHerobod kabi tog'li tumanlardan ma'danlar qazib olingan bo'lib, ulardagi konlardan foydalanish ba'zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda xonlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to'rtta asosiy tarmog'i-temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlikni alohida ko'rsatish mumkin. **Temirchilik** sohasida ustalar qishloq xo'jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Xonlikning ko'pgina shaharlarida Temirchi, Guzari,

CHilangaron kami chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha tarqqiy etganligini ko'rsatadi.

Xonlikning asosan yirik shaharlarida **misgarlik** ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida **degrezlik**-cho'yan quyishning alohida o'rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular cho'yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash – **rixtagarlik** ham xonlikning ko'pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari xonlikda hunarmandchilikning boshqa ko'pgina turlari ham rivojlangan. Xususan Buxoro, Qarshi va SHahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar xonlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo'lgan.

**Ko'nychilik** ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. CHarmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nim po'stin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Xonlikning deyarli barcha hududlarida **yog'och o'ymakorligi** yaxshi rivojlangan. SHaharlarda mohir duradgorlar ko'p bo'lgan. Xonlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor extiyojlarini ta'minlabgina qolmasdan ko'p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xullas, **xususiy ta'lim** - ta'lim tizimining uzviy va ajralmas bo'g'ini sifatida har bir yoshning mehnat tarbiyasi asosida jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanishi, yuksak axloq sohibi bo'lib voyaga etishi yo'lida muhim o'rinni egallab, ta'lim tizimining keyingi bosqichlari hisoblangan boshlang'ich va yuqori ta'lim uchun poydevor vazifasini bajaradi.

XVI-XVIII asrlarda **boshlang'ich ta'lim** asosan madrasa tipidagi ta'lim muassasalarida olib borilgan.

Boshlang'ich ta'limda, **bilim sohalari** sifatida yozuv va o'qishni o'rganish, hisob va yulduzlar ilmini o'rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o'q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroatni o'rganish majburiy hisoblangan.

#### **Ta'lim metodlari :**

##### **1.Og'zaki, bayon qilish**

“Qur'oni karim” hamda diniy kitoblar, shuningdek, mehnat tarbiyasi mazmunini o'zida singdirgan pandnomalar matni ustoz-murabbiylar tomonidan og'zaki tarzda yoddan bayon qilingan. Matnlarni bayon qilish shakli sifatida **hikoyat, rivoyat, nasihat, o'git, qo'shiqlardan** foydalanilgan. O'rganilgan yangi bilimlarni mustahkamlashga oid topshiriqlar berilgan.

##### **2. Ko'rgazmali**

Boshlang'ich ta'limda ko'rgazmali usullardan keng foydalanilgan. Jumladan hisob (arifmetika)ni o'rganishda hisob tayoqchalari, falakiyot ilmida osmon jismlarini ko'rsatish va kuzatish, san'at sohasida musiqa asboblari, san'at asarlari, imoratlar, qoyaga o'yilgan tasvirlar, naqqoshlik, xattotlik, kandakorlik, misgarlik, oltin va kumush, yog'och o'ymakorligi buyumlari va mahsulotlari, turli taomlar va pishiriqlar va h.k.z lar ko'rgazma hamda ashyoviy dalillar vazifasini bajargan.

##### **3. Amaliy**

Boshlang'ich ta'limdagi og'zaki va ko'rgazmali metodlar orqali olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta'lim jarayonida amaliy (mashq, topshiriq, muloqot, mustaqil ta'lim) usullaridan ham foydalanilgan. Bu usullar tarkibiga chavandozlik, kurash tushish, voizlik, dasturxonni bezash, mehmon kutish, shatranj va nard o'ynash, ibodat qilish kabi ko'plab amaliy mashg'ulotlar kirgan.

#### **Adabiyotlar**

1. Muqimov Z. Shayboniyalar va tasavvuf shayxlari / XV-XVI asr tasavvuf namoyandalari ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati. Samarqand, 2011, 16-18-betlar.
2. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o'rta asrlar) T.: O'qituvchi. 1991., -212-6.
3. Homidiy, Hamidjon. Ko'hna SHarq darg'alari: Badiiy-ilmiy lavhalar.— T.:«SHarq», 2004.-352 b.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA BADIY ADABIYOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHLARI

### O'zbekiston, NavDPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Jumaqulova Xumora

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada MTT larida badiiy adabiyot jarayonlarini yanada takomillashtirish, yangi loyihalar taklif qilish va takomillashtirish bo'yicha yangi investitsiyalar kiritish haqida so'z boradi. Jumladan, MTT laridagi ta'lim-tarbiya jarayonining ayni kundagi holati hamda kelgusida rejalashtirilgan bosqichlar to'g'risida aytib o'tilgan.

**Abstract:** This article talks about further improvement of fiction literature processes in MTTs, proposing new projects and making new investments for improvement. In particular, it was mentioned about the current state of the educational process in MTTs and the planned stages in the future.

**Аннотация:** В данной статье говорится о дальнейшем совершенствовании процессов художественной литературы в МТТ, предлагаются новые проекты и делаются новые инвестиции для улучшения. В частности, говорилось о нынешнем состоянии образовательного процесса в МТТ и планируемых этапах в будущем.

**Kalit so'zlar:** badiiy jarayon, adabiyot, kadr, pedagog-tarbiyachi, ilmiy daraja, yangilik, investitsiya.

**Key words:** artistic process, literature, personnel, pedagogue-educator, academic degree, innovation, investment.

**Ключевые слова:** художественный процесс, литература, кадры, педагог-педагог, ученая степень, инновации, инвестиции.

Maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim turlarining dastlabki bosqichida turganligi bu tizim yanada katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Zero bola taraqqiyotining dastlabki poydevori aniq maqsadlarni ko'zlagan holda qo'yilishi uning kelajakda mustahkam o'rnini belgilab beradi. Bu borada yurtimizda sohaga oid qator yangicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezidentimizning «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;

2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan va bu borada bosqichma bosqich qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga har tomonlama tayyor holda chiqishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari va pedagog-tarbiyachilari oldida katta mas'uliyatli vazifalar turadi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida esa bu jarayonni amalga oshirishda muhim shartlari belgilab qo'yilgan. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;  
nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;  
bilish jarayonini rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish va shu sohalarining bajarilishi bo'yicha ta'lim jarayoni tashkillashtiriladi. "Ijodiy rivojlanish" sohaning dunyoni badiiy tasavvur etish; badiiy-ijodiy qobiliyatlar kabi kichik sohalarini bolani badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga hamda dunyoni badiiy tasavvur qilishga, so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalarni adabiyot bilan qurshab olish, ulardagi qiziqishni yanada oshirish, qolaversa jalb qilish hamda o'rgatilishini takomillashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kelajak avloddan buyuk adabiyotshunos olim-u olimalar chiqishi, bizning ayni damda ularga qaratilgan e'tiborimiz bilan bevosita bog'liq. Biz ayni damda Oliy ta'limda, texnikumlarda, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarda, maktablarda va eng muhimi poydevorimiz bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarida qay holatda adabiyotni ularga tanishtirmoqdamiz, o'rgatmoqdamiz? Uzoqdan olib qaraydigan bo'lsak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta ahamiyatga ega. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Shu bilan birga bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik, V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, „Tarbiya – buyuk ish u insonning taqdirini hal qiladi“-degan edi. Badiiy adabiyotlarning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlarini, his-tuyg'ulari, xatti-xarakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biron narsaga yaxshi-yomon, adolatli- adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi.

Aytib o'tishimiz joizki, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan soha uchun ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilgani yana bir isbot bo'ldi deya ayta olamiz. 2018-yil Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar ixtisosliklar ro'yxatiga yangi 13.00.08. „Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi“ ixtisosligiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Atestatsiya Komissiyasining qarori bilan Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzurida pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tashkil etildi, Ushbu ilmiy kengash 13.00.08 „Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi“ ixtisosligi bo'yicha mamlakatimiz tarixidagi Birinchi tashkil etilgan ilmiy kengash hisoblanadi.

Yuqoridagi yangiliklar bo'lmasdan avval ham maktabgacha ta'lim tizimi ishlayotgan edi. Misol tariqasida, biz alohida urg'u beradigan adabiyot o'rgatilishi. Aynan she'r o'rgatilishi. Bunda she'r tarbiyachi tomonidan o'qiladi va ortidan tarbiyalanuvchi tomonidan qaytariladi. Aksariyat MTT larida xuddi shu tartibda she'rlar o'rgatiladi. Muhit, voqealar talab qiladigan she'rlar borligi bois yuqoridagi jarayonlarga qo'shimchalar kiritilishi lozim. Avvalombor, NMMT, DMTT, mehribonlik uylaridagi MT guruhlari, ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida alohida badiiy adabiyot xonalarini tashkil etish, pedagog-tarbiyachilarning badiiy nutqini boyitish, adabiyot namunalari bilan ko'proq tanishtirish samarali natija beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent sh., 2018-yil 18-iyun,



2. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
3. Borodich M. "Metodika razvitiya rechi detey" Moskva, 1981 yil.
4. Shodiyeva Q. Kichik toylarni o'qish va yozishga o'rgatish. Toshkent, "O'qituvchi" – 2002 yil.
5. M. Asqarova "Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" T.; – "O'zbekiston" 2001y.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARINI TAHLIL QILISH**

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi  
Ikromova Shaxinabonu Usmonjon qizi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizimda rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilk qadam, moddiy texnika bazasi, davlat dasturi, tarbiya, rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, konsepsiya, ta'lim sifati, ijtimoiy rivojlantirish malakali kadrlar, rejalashtirish dasturi.

### **KIRISH**

Maktabgacha ta'lim tizimini to'liq uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taminlash, bolalarni har tomonlama axloqiy, intellektual, manaviy, estetik, ma'rifiy va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar tadbiq etilmoqda, ularning hammasi bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilaydi. Shuni alohida aytib o'tish joizki- 2018-yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilganligi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarining metodik jihati desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari sanalib, bu dastur asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari yanada mukammallashti. "Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi", - degan edi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin. Ushbu dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlana bordi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar sifatli holatga keldi, zamonaviy ta'lim berish jarayoni barqarorlashdi.

### **NATIJALAR**

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi belgilangani ham sohani istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan omillardan asosiysi hisoblanadi desak xato bo'lmaydi. Ushbu konsepsiya o'zida quyidagilarni nazarda tutadi:(1)

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va

jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

➤ bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

➤ maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

➤ maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

➤ maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning ishlab chiqilishi, 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari hamda 2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi ham maktabgacha ta'lim sohasining huquqiy asosini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi normativ –huquqiy hujjatlarning yuritish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning «Yo'l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo'l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Ushbu monitoringga ko'ra har bir MTTning normativ huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.(3)

#### **MUHOKAMA**

Ma'lumot sifatida aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaxshi ish haqi to'lansa, bu kasbga qiziqish bo'ladi albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yilning mart oyida Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqanligi ham sohani rivojlantirishning ustuvor vazifasini ta'minladi. Agrippina Shinning so'zlariga ko'ra, o'tgan 27 yil davomida maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining tarif stavkasi biror marta oshirilmagan. Shu boisdan ham 2018 -yilning mart oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy tarif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foizga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.(2) Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'liq rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi.

#### **XULOSA**

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va oquv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas, birlamchi bo'g'ini sifatida takomillashtirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilinib borilayapti. Bu esa maktabgacha talim sohasini yanada takomillashga qaratilgan chora tadbirlar sifatida e'tirof etilayapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **ADABIYOTLAR**

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2707-son qarori. // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-

modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

11. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste’dod, 2018. – 223 b

12. Ksendzova, GF Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik- pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146- 148

## БИЛИМ ҮРДИСИНДЕ ЖАҢА ТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫ ҚОЛДАНУДЫҢ ТИИМДІЛІГІ

Кумакбаева Гулбану Кунтуаровна  
НМПИ, Орыс және қазақ филологиясы факультеті,  
Қазақ тілі және әдебиеті кафедрасы аға оқытушысы

**Аннотация.** Бұл мақалада оқыту технологиялары білім беру мазмұнын жүзеге асырудағы алға қойған мақсатқа жетудің тиімділігін қамтамасыз ететін оқытудың әдіс- тәсіл және олардың түрлері туралы сөз болған. Педагогикалық технологияның үш аспектіде қаралуына тоқталған.

**Кілт сөздер:** педагогика, технология, оқыту, үрдіс, дағды, қазіргі заман, сабақ.

**Аннотация.** В данной статье говорится о методах и методах обучения и их видах, обеспечивающих эффективность достижения поставленных целей при реализации образовательного содержания. Педагогическая технология рассматривается в трех аспектах.

**Ключевые слова:** педагогика, технология, обучение, прием, умение, современность, урок.

**Annotation.** This article talks about teaching methods and techniques and their types that ensure the effectiveness of achieving set goals in the implementation of educational content. Pedagogical technology is considered in three aspects.

**Key words:** pedagogy, technology, training, reception, skill, modernity, lesson.

Еліміздің болашағы көркейіп, өркениетті елдер қатарына қосылуы, бүгінгі ұрпақ бейнесімен көрінеді. Дүниежүзілік озық тәжірибелерге сүйеніп, жаңа типті оқыту, яғни әр баланың табиғи қабілетін дамыту үшін қолайлы жағдайлар жасай отырып, оны жан-жақты дамыту керек. Қазіргі күнде білім беру мазмұны жаңарып, жаңаша тәсілдер пайда болып, оқытудың жаңа технологиялары өмірге келді, яғни педагогикалық технология ұғымы іс-әрекетімізге кеңінен еніп, қолданылуда.

Оқыту технологиялары білім беру мазмұнын жүзеге асырудағы алға қойған мақсатқа жетудің тиімділігін қамтамасыз ететін оқытудың әдіс- тәсіл және олардың түрлерінің жүйесі болып табылады. Педагогикалық технология үш аспектіде қаралады: ғылыми, процессуалды – сипаттамалы, процессуалды – әрекеттік. Осындағы жолмен педагогикалық технология оқытудың тиімді жолдарын зерттеуші ғылым ретінде, принциптер мен зерттеуші қызметін атқарады. Жаңа технологияның басты мақсаттарының бірі білім алушыға білім бере отырып, оның еркіндігін, белсенділігін қалыптастыру, өз бетінше шешім қабылдауға дағдыландыру. Педагогикалық технология – педагогикалық іскерліктердің жетістігіне жеткізетін ғылыми жобалау және нақты өндіру. Сонымен педагогикалық үрдіс белгілі жүйе принциптерінде құрылатын болғандықтан, педагогикалық технология сыртқы және ішкі болып бөлінеді. Осы принциптерді жалғастырмалы орындау оларға объективті қарым – қатынастарында және педагогтың тұлғасын толық көрсететін жинағы ретінде қалыптастырылады. Педагогикалық

**Significant kinship:** A person consciously knows their basic similarities in the process of learning languages that have significant kinship. **Partial kinship:** This definition only applies when scientists have 15-35 percent of related languages similar to each other (grammar, phonetics). **Long-term kinship:** Although the languages studied in such a situation are considered conditionally related, in most cases even experts are unable to explain the essence of the random similarities in them. While psychologists recommend learning different foreign languages, they emphasize that this requires, first of all, a serious goal and a proper assessment of opportunities. It is important to remember that everything can be achieved through hard work and hard work [7; 20].

According to the latest 19th edition of Ethnologue, one of the world's most recognized sources, Uzbek ranks 54th out of 6,000 languages. At a time when we are sweating and learning foreign languages with a thousand and one difficulties, representatives of many other nationalities are courageously mastering the secrets of our native language in prestigious universities around the world. According to the National Encyclopedia of Uzbekistan, "according to the genealogical classification of languages, this language belongs to the Qarluq group of the Turkic language family ..." This means that people who speak languages close to ours can easily master it. It should also be noted that a person can learn a language that he is interested in and needs at the same time. Only in this case, the expected result may not be achieved if the study of languages is not started sincerely.

It is not in vain that our people have the wise saying, "He who knows the language knows the hand." Compared to today, it is necessary to know foreign languages in order to get acquainted



with the culture, traditions and works of other peoples, which have been a "golden heritage" for centuries, and even to introduce to the world the masterpieces written in their native language. It is also necessary to learn many foreign languages in order to be aware of the information transmitted by people communicating in different languages on Earth. In our country, too, serious attention is paid to the study and teaching of foreign languages. The implementation of such measures in educating young people as fully mature individuals, of course, is bearing fruit. In particular, according to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages" from 2013 to 2014, all secondary schools in the country will teach foreign languages from the 1st grade [5].

Learning foreign languages is not only beneficial for the development of the individual, but also has a positive impact on the development of society. It is safe to say that the role of young people who are fluent in foreign languages is special in promoting our country to the world. So the more we learn, the more languages we know, it's just and only useful. Indeed, the unsolved mysteries of the world, the knowledge that man must possess, are innumerable.

#### References:

1. Max-Planck-Gesellschaft "Study shows ancient relations between language families". ScienceDaily. ScienceDaily, 20 September 2012.
2. Абсаломов А. Рус тилини ўрганишнинг энг самарали усуллари, Т.: Янги аср авлоди. – 2013. [thelinguistblogger.wordpress.com](http://thelinguistblogger.wordpress.com)
3. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009.
4. [www.lingua.com](http://www.lingua.com)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. [fla.sagepub.com](http://fla.sagepub.com)
7. [www.ethnologue.com](http://www.ethnologue.com)
8. [thelinguistblogger.wordpress.com](http://thelinguistblogger.wordpress.com)

## MUSIQANING INSON SALOMATLIGI, RUHIYATI VA TARBIYASIGA TA'SIRI

*O'zbekiston, NavDPI Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi  
Abduqayumova Malika Mirzohid qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola musiqa insonning salomatligi, tarbiyasi va o'rganishida katta ahamiyatga ega ekanligi va bu borada ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganligi hamda natijalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, inson, salomatlik, ruhiyat, kayfiyat, vosita.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение музыки для здоровья, образования и обучения человека, а также результаты многих исследований в этом отношении.

**Ключевые слова:** музыка, человек, здоровье, психика, настроение, инструмент.

**Abstract:** This article discusses the importance of music in human health, education and learning, and the results of many studies in this regard.

**Key words:** music, human, health, psyche, mood, tool.

Barchamizga ma'lumki, musiqa hayotimizning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Kundalik hayotimizning ko'plab jabhalarida unga suyanamiz va undan foydalanamiz. Insonlar kayfiyatlari ko'tarinki bo'lsa ham, tushkun bo'lsa ham musiqa eshitishga moyil bo'lishadi.

Darhaqiqat, musiqaning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sir eta olish qobiliyatini hech kim inkor eta olmaydi. Chunki har bir odam buni boshidan kechirgani aniq. Malasan, musofir yurtda yurganlar Vatan haqidagi qo'shiqlarni eshitganda, onasini sog'inganlar, ona haqidagi qo'shiqni eshitganda, sevib qolganlar, ishq-muhabbat, yor haqidagi qo'shiqlarni tinglashganda ruhiyatlarida o'zgarish sezishadi. Bu borada turli ilmiy izlanishlar olib borilgan va o'z hayot tarzimizga nazar tashlasak ham bunga amin bo'lishimiz mumkin.

Biz stressni his qilganimizda o'zimiz sevgan musiqalarni tinglab tinchlanamiz, o'zimizni yaxshi his qila boshlaymiz. Haqiqatdan ham, musiqaning shifobaxsh xususiyatlaridan biri, insonni tushkunlikdan chiqara olishidir. 2011-yil Kanadaning Mac Gill universitetida olib borilgan tadqiqotga ko'ra, musiqa tinglash miyadagi kayfiyat ko'taruvchi kimyoviy modda – dofamin gormonining oshishiga, stress gormoni bo'lgan kortizolning pasayishiga sabab bo'lishi va bu depressiyaga tushgan insonlarga yordam berishi mumkinligi aniqlangan[3]

Olimlarning fikriga ko'ra chaqaloqlar ham musiqa orqali uzoqroq vaqt xotirjam bo'lib qolishar ekan. Musiqaning takrorlanuvchi naqshi, ohangi, ritmi, impulslari organizm ichidagi puls ritmi bilan sinxronlashishi aniqlangan.

Musiqaning bu xususiyati yurak bilan bog'liq kasalliklarga ham katta yordam berishi mumkin. Uning yordami asosan temp orqali amalga oshiriladi.

Joriy yilning boshida Buyuk Britaniyaning Manchester shahrida, Britaniya Kardiologiya jamiyati konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Britaniyaning Oksford universiteti tadqiqotchilari takroriy musiqiy iboralar yurak urishining tezligini nazorat qilish va qon bosimini pasaytirishga yordam berishi mumkinligini aniqladilar.

Musiqa nafaqat tushkun holatdan chiqaradi, balki jismoniy og'riqlarni kamaytirishga ham yordam berishi mumkin.

Buyuk Britaniyadagi Brunel universitetining tadqiqotlariga qaraganda, musiqa jarrohlik amaliyotini boshdan o'tkazgan bemorlarning og'riq va xavotirlarini kamaytirishi aniqlangan. Unga ko'ra jarrohlik amaliyotidan chiqqan 7 000 dan ortiq bemor orasidan tasodifiy tanlov orqali 72 kishi tanlab olingan. Natijada, musiqa tinglagan bemorlar, tinglamaganlarga nisbatan kamroq og'riq his qilishlarini va og'riq qoldiruvchi vositalarga ehtiyoj sezmasliklarini aniqladilar.

Yana shunga o'xshash tadqiqotlardan biri 2014-yil mart oyida Daniyada o'tkazilgan bo'lib, olimlar musiqaning mushaklar va bo'g'imlarda og'riq va charchoqni keltirib chiqaradigan Fibromiyalgiya kasalligi bo'lgan bemorlar uchun foydali bo'lishi mumkinligini aniqladilar. (Medicalnewstoday.com)

Shuningdek, musiqa inson xotirasi bilan ham bog'liq hisoblanadi. Insonlar bolalikda eshitgan qo'shiqlarini, do'stlari bilan kuylagan yoki raqsga tushgan qo'shiqlarini eshitganda, hamkasblari bilan kuylagan mehnat qo'shiqlarini, nikoh to'yida yangragan ohanglarni yoki to'satdan quloqqa chalingan alla sadolarini eshitishganda beixtiyor o'sha damlarni xotirlashadi, o'sha davrga qaytganday bo'lishadi. Musiqaning xotira bilan bog'liq foydali xususiyati shundaki, u xotirani yaxshilashi, eslab qolish jarayonini osonlashtirishi mumkin.

2013-yilda "Memory&Cognition" jurnalida chop etilgan tadqiqotda venger tilini o'rganayotgan 60 nafar kattalar ishtirok etishgan. Ular 3 xil o'rganish turiga ko'ra tasodifiy tanlov orqali ajratilgan: venger iboralarini gapirish, iboralarni ritmik tarzda gapirish va iboralarni kuylash. Natijada tadqiqotchilar, iboralarni kuylagan ishtirokchilarning eslab qolish aniqligi boshqa ikki guruhga qaraganda ancha yuqori ekanligini aniqladilar.

Bunday ilmiy izlanishlar ko'rsatayotgan natijalardan keyin, olimlar Altsgeymer kasalligi bo'lgan odamlar xotirasining yaxshilanishiga umid qilishni boshladilar. Musiqaning yana bir foydalaridan biri, miya shikastlanishidan, masalan, insultdan tiklanishga yordam berishidir.

2008-yilda Finlandiyadagi Xelsinki universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, insult bo'lgan bemorlarning, kuniga 2 soat musiqa tinglaganlari, audio kitob tinglaganlariga qaraganda yaxshiroq va tezroq tuzalish xususiyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, musiqa epilepsiyani, ya'ni tutqanoqni davolashda yordam berishi mumkinligi taxmin qilingan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yaqin yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, musiqa tinglash, kuylash va biror cholg'u asbobida ijro etish nafaqat insonning ruhiy-aqliy sog'ligiga, balki jismoniy jihatdan sog'liq sifatining yaxshilanishiga ham yordam beradi. Malasan, pianino yoki akkordion chalganda ikki qo'l, ikki xil vazifani bajaradi: biri solo chalsa, biri akkord beradi. Bu miya yarim sharlarining yaxshi ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa rivojlanayotgan bolalar uchun. Bundan tashqari pianino qalqonsimon bez, buyurak, sikkik pufagi faoliyatining yaxshilanishiga yordam beradi.

Puflab chalinadigan cholg‘u asboblari o‘pka faoliyati, nafas olish organlari va qon aylanishiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Urma-zarbli cholg‘u asboblari yurak, jigar, qon aylanishi tizimini normallashtiradi[1].

Arfa, gitara, skripka kabi asboblari esa yurak-qon tomir tizimiga va hissiy jihatlama ijobiy ta‘silarga ega[2]

Musiqaning sog‘lik uchun ko‘p foyda keltirishi haqidagi jiddiy dalillarga asoslanib, ko‘plab mutaxassislar sog‘liqni saqlash muassasalarida musiqa terapiyasidan ko‘proq foydalanishga chaqirmoqda.

Eng e‘tiborlisi, tibbiyot, psixologiya, pedagogika sohalarining atamallari qatoriga “Musiqiy terapiya” ya‘ni musiqa orqali davolash, tarbiyalash, o‘qitish atamasining qo‘shilganligidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://Gigafox.ru>
2. <https://Xabar.uz>
3. <https://Medicalnewstoday.com>

### **KOMMUNAL MADANIYAT**

*O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta‘lim” kafedrasini o‘qituvchisi  
Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi  
NavDPI 2-kurs (sirtqi) talabasi N.X.Ismaylova*

**Annotatsiya.** Kimdir yakka tartibdagi uy-joy (hovli)da yashasa, yana kimdir ko‘p kvartirali turar-joy binolarida istiqomat qiladi. Ikki holatda ham uy-joyning asrash kerak, aks holda u eskiradi, yaroqsiz holatga keladi va unda yashash xavfli bo‘lib qoladi. Birinchi holatda uy-joyning saqlash uning mulkdori tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi, chunki odatda unga bitta yoki bir nechta bir biriga qarindosh bo‘lgan mulkdorlar egalik qiladi. Ko‘p qavatli uylarni? Ularni qanday saqlash kerak? Ko‘p sonli aholini yashash uchun zarur bo‘lgan sharoitlar bilan ta‘minlash uchun ko‘p kvartirali turar-joy binolari egalarining umumiy mulki bo‘lgan kirish yo‘laklari (pod‘yezdlar), zinapoya, lift va boshqa unsurlarni yaxshi holatda saqlash lozim.

**Аннотация.** Кто-то живет в частном доме (дворе), а кто-то в многоквартирном доме. Дом нужно защищать дважды, иначе он постареет, ветшает и придет в негодность. Основной владелец дома считается независимой управляющей ассоциацией, поскольку он принадлежит одному или нескольким связанным владельцам. Жилые дома: как их содержать? Необходимо обеспечить необходимые условия проживания большого количества жильцов, поддерживать в исправном состоянии входные коридоры (лестницы), лестницы, лифты и другие конструкции, являющиеся общей собственностью владельцев многоквартирных домов.

**Annotation.** Someone lives in a single-family house (courtyard), and someone lives in multi-apartment residential buildings. In both cases, the housing must be preserved, otherwise it will become old, fall into disrepair and become dangerous to live in. In the first case, housing maintenance is carried out independently by its owner, because usually it is owned by one or more owners who are related to each other. Apartment buildings? How to maintain them? In order to provide the necessary living conditions for a large number of residents, it is necessary to maintain the entrance corridors (stairs), stairs, elevators and other elements that are the common property of the owners of multi-apartment residential buildings in good condition.

Kommunal soha ko‘pchilik yashaydigan ana shunday ko‘p qavatli uylarni to‘g‘ri saqlash, ularga xizmat ko‘rsatish uchun kerak. Shuningdek, bilamizki uyda qulay sharoitlarda yashashimiz uchun bizga issiqlik, yorug‘lik va shinamlik zarur. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi uylarimizga kommunal resurslar (suv, gaz, elektr energiyasi) ni markazlashtirilgan holda taqdim qilinishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda ko'pchilik kommunal xo'jaligi faoliyati haqida yaxshi tasavvurga ega emas. Bu masalani qanchalik dolzarbli va bu bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish zaruratini ko'rsatadi. Ko'p xonadonli uylardagi ba'zi odamlar xonadoni hududiga kirmaydigan joylar uchun (pod'yezd, hovli, lift) mahalliy hokimiyat javob berishi kerak deb hisoblaydi

Dastavval, keling bilishimiz lozim bo'lgan atamlarga to'xtalib o'tsak:

Ko'p xonadonli uy-joy mulkdori – bu ko'p xonadonli uyda turar yoki noturar joyga ega shaxs. Turar-joy mulkdori bu xonadon egasi, sohibi. Bunda mulkdorni yashovchi shaxsdan farqlash lozim. Ko'p xonadonli uyda egasidan tashqari oila a'zolari, ijarachilar ham yashashi mumkin. Boshqaruv tashkiloti – bu boshqaruv shartnomasi asosida ko'p qavatli turar-joylarda umumiy mulkni saqlash va ta'mirlash bo'yicha kommunal xizmatlarni ko'rsatadigan tashkilot. Resurslar bilan ta'minlaydigan tashkilot – bu kommunal resurslar xaridini amalga oshiradigan tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor. Resurslar bilan ta'minlaydigan tashkilot kommunal xizmatlarni taqdim qilish bilan shug'ullanadi. Bunday tashkilotlar ko'p qavatli turar-joylarni elektr energiyasi, gaz, suv va issiqlik bilan ta'minlaydi. Ular har xil nomlanishi, mahalliy yoki davlat korxonalari yoxud xususiy tashkilotlar (MCHJ, AJ), yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lishi mumkin.

Uy-joy va kommunal xizmatlar tushunchasi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi uy egalariга ikki turdagi xizmatlarni ko'rsatish bilan tavsiflanadi:

- uy-joy xizmatlari
- kommunal xizmatlar

Uy-joy xizmatlari deganda ko'p qavatli turar-joy binolari egalari ning umumiy mulkini to'g'ri saqlash uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar tushuniladi. Uy-joy xizmatlarining aniq ro'yxati mulkdorlar va boshqaruv tashkiloti tomonidan shartnoma asosida kelishiladi. Bunday xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'p qavatli uydagi umumiy mulkka texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- ko'p qavatli uyni sanitariya qoidalariga javob berishini nazorat qilish (farrosh xizmatlari, pod'yezdlarni tozalash, ularni hashoratlardan (dezinfeksiya) va kemiruvchilardan (deratizatsiya) zararsizlantirish, axlatlardan tozalash);
- umumiy mulk va pul mablag'larini boshqarish xizmatlari (texnik hujjatlarni qabul qilish, saqlash va berish, tegishli tashkilotlarga ma'lumotlarni taqdim qilish va ularni yangilab turish, qarzdorlikni undirish ishlari).

Ko'p xonadonli uylar aholisi 3 ta usuldagi boshqaruv tashkilotlari xizmatidan foydalanishi mumkin. Bu boshqaruv tashkiloti, shirkat yoki o'z uyida to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvni amalga oshirgan mulkdorlar tomonidan tanlangan shaxs bo'lishi mumkin.

Kommunal xizmatlar. Kommunal xizmatlarni eslab qolish qiyin emas, ular jami yettita: issiq suv, sovuq suv, oqova suvlarni olib chiqish, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish xizmati.

Eslab qoling: Kommunal resurslarni ko'p qavatli turar-joy chegarasigacha olib borishga resurs bilan ta'minlaydigan tashkilot javobgar hisoblanadi.

### 3. Ko'p qavatli uylardagi umumfoydalanish mulkini saqlash tartibi, bunda aholi e'tibor berishi kerak bo'lgan muhim jihatlar

Mulkdor bo'lish katta mas'uliyat. Xonadon egasi uni ijaraga berishi, sotishi, hadya yoki vasiyat qilishi mumkin. Biroq, shuni tushunish kerakki, xonadon atrofida o'z egalari bo'lgan shu kabi boshqa xonadonlar ham bor. Shuning uchun ham har bir mulkdor o'z uyidan faqatgina qo'shnilarining qonuniy huquq va manfaatlarini buzmaganda foydalanishi kerak!

Ko'p qavatli turar-joylarning o'ziga xosligi shundaki, unda mulkning ikki turi mavjud:

- shaxsiy (kvartira, ofis)
- umumiy (zinapoya, lift, tom, yerto'la).

Umumiy mulkka aholi uyiga to‘siqlarsiz kira olishini ta‘minlovchi jihozlar, lift joylashgan shaxta ham kiradi. Bundan tashqari, uyda umumiy mulk hisoblangan shamollatish (ventilyasiya) shaxtasi, binoning quyi, yuqori va o‘rtasida joylashgan texnik qavat (u muhandislik jihozlari joylashtirish va kommunikatsiyalarni o‘tkazish uchun zarur hisoblanadi) bo‘lishi mumkin.

Ba‘zi ko‘p qavatli uylarda aholining ijtimoiy va maishiy ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo‘ljallangan xonalar mavjud. Bu kolyaskalarni saqlash joylari, dam olish xonalari, sportzallar bo‘lishi mumkin. Ammo, agar kimdir uyning birinchi qavatidan ikkita xonadonni sotib olib, ularni pullik sport zalga moslashtirib qayta qurib olgan bo‘lsa, bu umumiy mulk bo‘lmaydi – uning o‘z egasi bor.

Balkon tarkibida aynan plita umumiy mulk, parapet, balkonning oynali qismini asrash mulkdorning vazifasi, zero bu uning shaxsiy mulkidir. Texnik podval ham ko‘p qavatli turar-joy binosi barcha mulkdorlarining umumiy mulki hisoblanadi, chunki u birinchi qavat tagida havo almashishiga xizmat qiladi hamda bu yerga muhandislik va kommunal tarmoqlar joylashtiriladi.

Ko‘p qavatli uyga tutash yer uchastkasi – bu ko‘p qavatli uyga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hudud. Yer uchastkasida uy, obodonlashtirish unsurlari va ushbu turar-joyga xizmat ko‘rsatish, undan foydalanish va ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llashga mo‘ljallangan boshqa ob‘yektlar joylashtiriladi.

Eslab qoling! Obodonlashtirish unsurlariga dam olish joylari, xususan qish va yozda hordiq chiqarish uchun kerakli jihozlarga ega bolalar o‘yingohlari va sport maydonchalari kiradi. Qolaversa, ularga ushbu turar-joyga xizmat ko‘rsatadigan, foydalanish va obodonlashtirishda kerak bo‘ladigan hamda ushbu yer uchastkasida joylashgan ob‘yektlar, ya‘ni qo‘shimcha qurilmalar (bino tashqarisida bo‘lgan shaxsiy isitish tizimi manbasi, jamoaviy avtoturargohlar, garajlar) ham kiradi.

Umumiy qoidaga ko‘ra yer uchastkasidagi hamma narsa ko‘p qavatli turar-joy binolari egalarining umumiy mulki hisoblanadi. Shuningdek, ba‘zi istisnolar ham mavjud: turar-joydan o‘tmaydigan kommunal tarmoqlar hamda mahalliy yo‘llar umumiy mulk hisoblanmaydi. Boshqa mulkdor hisobiga qurilgan hovlilardagi transformator podstansiyalari ham mulkdorlarning umumiy mulkiga o‘tmaydi. Ko‘p qavatli uylardagi muhandislik kommunikatsiyalari yagona, ammo juda muhim shart bilan ko‘p qavatli uyda umumiy mulk sifatida tan olinadi: ular ko‘p qavatli uyda bir nechta xonadonga xizmat qilishlari kerak. Bunga quyidagilar kirishi mumkin: barcha uskunalarga ega isitish tizimi; har tomonlama jihozlangan turar-joy ichidagi suv bilan ta‘minlash tizimi: tik quvurlar, ulardan chiqadigan bo‘linmalar (birinchi o‘chiruvchi asbob-uskunagacha). Bundan tashqari, sovuq va issiq suv uchun o‘lchash moslamalari va ushbu tarmoqlarda joylashgan barcha mexanik, elektr va boshqa uskunalarni umumiy mulk hisoblanadi; barcha qurilmalarni o‘z ichiga olgan ichki drenaj tizimi – birinchi ulash bo‘g‘inlarigacha; barcha qurilmalarni o‘z ichiga olgan turar-joy ichidagi gaz ta‘minoti tizimi – qulflash kranigacha (o‘chiruvchi uskuna); barcha uskunalarni o‘z ichiga olgan ichki elektr ta‘minoti tizimi – yakka tartibdagi, umumiy (xonadon) elektr energiyasini hisoblash moslamalarigacha; kommunal resurslar va xizmatlar hisobini yuritish bo‘yicha avtomatlashtirilgan axboriy-o‘lchash tizimi shular jumlasidandir.

Kommunal xizmatlar turlari - sovuq va issiq suv ta‘minoti, oqova suvlarni olib chiqish (kanalizatsiya), issiqlik tizimi, gaz va elektr ta‘minoti.

Kommunal xizmatlar uchun to‘lov miqdori ikkita tarkibiy qismiga qarab hisoblanadi:

- kommunal resurs uchun tarif;
- kommunal resursni iste‘mol qilish hajmi.

Tarif – bu kommunal resurs birligining narxi. Tasavvur qiling, siz do‘konda elektr energiyasini sotib olyapsiz. Tarif – bu “kilogramm” narxi.

Bir oy davomida qancha elektr energiyasi sizga kerak bo‘lishi esa– bu hajm. Tarif va hajm iste‘mol qilingan resurs uchun to‘lov miqdorini tashkil qiladi.

Ikki turdagi tarif mavjud:

- bir komponentli;

-ikki komponentli. Bir komponentli tariflar kommunal resurslarning ko‘p turlari uchun xos (ya‘ni, belgilangan resurs narxiga ega tariflar). Istisno tariqasida issiq suvni keltirishimiz mumkin. Ba‘zi hududlarda issiq suvning tarifi ikkita komponentdan iborat. Birinchisi, bir kubometr sovuq

suvning narxi. Ikkinchisi – sovuq suvni isitib issiq holatga keltiradigan issiqlik energiyasi bir gigakaloriyasining narxi.

Xonadonda barcha kerakli o'ldash moslamalari bo'lishini ta'minlash uchun mulkdor javobgar.

Energiya tejash.

Energiyani tejash – bu oila byudjetini tejash demakdir. Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya yo'qotishlarini kamaytirish salohiyati 30 foizdan 40 foizgachani tashkil qilmoqda.

Oila byudjetini tejash usullari. Hisoblagichlardagi har qanday oddiy sonlar ortida turar va noturar-joy mulkdorlarining mablag'lari yashirinadi. Deyarli har bir inson o'z uyida issiqlik va elektr energiyasi sarf-xarajatini qisqartirishi mumkin. Xonadonning issiqlik izolyasiyasini yaxshilash va to'lov miqdorini kamaytirish uchun nima qilish mumkin?

1. Energiya tejovchi deraza, rom va eshiklarni o'rnatish.
2. Yuqori energiya samaradorligi sinfiga kiradigan maishiy texnika sotib oling.
3. Eski lampalarni energiya tejaydigan lampalar bilan almashtiring.

Oddiy 60 vattli chiroq bir soat ichida aynan shuncha energiya sarflaydi. Xuddi shunday yorug'lik beradigan tejamkor diodli lampalar (LED) bir soat ichida atigi 5 vattni "yeydi". Ha, u oddiy lampochkadan qimmatroq. Ammo yangi avlod lampalarining xizmat qilish muddati eskilariga qaraganda 30-50 baravar uzoq.

Umuman olganda turar-joy binosining energiya samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak?

1. Zinapoyadagi derazalarni zamonaviy plastik romlarga almashtirish.
2. Eski kirish va yerto'la eshiklarini energiya tejaydigan eshiklar bilan almashtirish.
3. Chiziqli muvozanat ventillarini o'rnatish va isitish tizimini muvozanatlashtirish.
4. Radiatorlarga termostatik ventillarni o'rnatish.
5. Yakka tartibdagi isitish punktini tashqi haroratga qarab isitish tizimidagi suv parametrlarini avtomatik ravishda boshqarishga imkon beradigan moslamalar bilan yangilash yoki almashtirish.
6. Umumiy foydalanish joylarida lampalarni sensor datchiklari bo'lgan energiya tejaydigan samaradorli lampalar bilan almashtirish.
7. Liftlarning elektr dvigatellarini energiyani tejaydiganlari bilan almashtirish.
8. Yerto'la (podval) shiftini, polini, tom va tashqi devorlarni ta'mirlash va izolyasiya qilish.
9. Panellararo va qo'shimcha yoriqlarni yopish.

Eslatma! Ushbu bandlarni amalga oshirish uchun uy mulkdorlari umumiy yig'ilish o'tkazib, yaqin kelajakda qanday ishlarni bajarish kerakligini ko'pchilikning ovoz berishi bilan hal qilishlari kerak. Ushbu ishlarning barchasi sarmoya talab qiladi va ularning har biri har xil muddatlarda o'zini qoplaydi.

Energiya tejash qoidalari qo'shimcha!

Sovuq va issiq suv xarajatlarini kamaytirish uchun nima qilish mumkin? 1. Smesitellarni ta'mirlash, dushlarni tejamkor modellarga almashtirish. 2. Santexnikani sozlash yoki yangi, tejamkorini o'rnatish (masalan, suv quyishning ikkita rejimiga ega unitaz).

Xonadonning har bir rezidenti bir vaqtning o'zida uy-joy kommunal xizmatlarining iste'molchisi hisoblanadi. Turar-joylarining aksariyat mulkdorlari va ijarachilari o'z uylarining "taqdirida" faol ishtirok etishga intilmaydilar va bu ayrim vijdotsiz boshqaruv tashkilotlari rahbarlarining vaziyatdan o'z foydasiga foydalanishlariga olib keladi.

Uyni yaxshi holatda saqlash uchun mulkdorlar quyidagilarni eslab qolishlari kerak:

- bino egalari umumiy mulki bu ham javobgarlik talab etiladigan mulkdir;
- mulkdorlardan boshqa hech kim uning taqdiri to'g'risida qaror qabul qila olmaydi, shuning uchun har bir mulkdor qanday masalalarni hal qilish lozimligi va shu munosabat bilan uy kengashi va uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot nima qilmoqchi ekanligi bilan qiziqishi kerak;

- mulkdorlarning umumiy yig'ilishlariga kvorum uchun odamlar yig'ilmasligini bilsangiz ham borishdan qochmang, chunki faqat u yerda muloqot qilib, qo'shnilarning u yoki bu masala haqida fikrlarini olsa bo'ladi;

- bunday yig'ilishlar tartibsizlikda o'tishiga yo'l qo'ymang. Zero bu holda siz boshqalarning fikrini eshitmaysiz, boshqalar ham sizni eshitolmaydi; xususiy uy faqat mulkdorning hisobidan saqlanadi.

Ko'p qavatli uydagi ishlar ham aholining mablag'lari evaziga amalga oshiriladi, shuning uchun to'lovlar uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan qanday sarflanishini kuzatish bizning manfaatimizdir; umumiy mulkning holati ko'p qavatli uydagi kvartiralar yoki ofislarning narxiga bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun unga loqayd munosabatda bo'lib, siz kun sayin o'z mablag'laringizni yo'qotib borasiz; uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi haqida hech bo'lmaganda asosiy bilimlarga ega bo'lishingiz kerak, chunki bu xizmat fuqarolarning mol – mulkning eng qimmat qismi bo'lgan ko'chmas mulkka tegishli. Hech kim qimmat tovarlarni xususiyatlari va hujjatlari bilan tanishmasdan, oldi-sotdi shartnomasini tuzmasdan (hech bo'lmaganda chek ko'rinishida) sotib olmaydi. Shunga o'xshab, biz ham uy-joy xizmatlari bizga kim tomonidan va qanday taqdim etilayotgani haqida aniq tasavvurga ega bo'lishimiz kerak; vijdotsiz tadbirkorlarga umumiy mulkni boshqarish masalalarida pul evaziga yon bosib, siz bir necha oy davomida sifatsiz xizmat ko'rsatish natijasida olingan mablag'ga qaraganda ancha ko'proq yo'qotasiz; ko'p qavatli uyni taqdirini hal etishda bino mulkdorlarining samarali umumiy yig'ilishlarini o'tkazish katta ahamiyatga egadir, shuning uchun ko'p qavatli uy kyengashiga va uning raisiga ushbu tadbirlarga tayyorgarlik ko'rishda va ularni o'tkazishda yordam berishdan bosh tortmang.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI**

1. Ernazarov G. Uy-joy kommunal xo'jaligi faoliyatini statistik baholash. Monografiya. – T.: "Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022 y. – 160 bet. Hadya. 1 nusxa.
2. Predstavleniye Prezidenta Respubliki Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyeva na rasshirennoye zasedaniye Kabineta Ministrov 14 yanvarya 2017 goda. //Zarafshon, 18 yanvarya 2017 g.
3. Sanjar Bobokulov - K kommunal ushuga ro'kazyvat sistema effektivnost uvelichivat metody // «Ekonomika i innovatsionnyye tekhnologii» nauchnyy elektronnyy jurnal. №3, may-iyun 2017 g.
4. Postanovleniye Prezidenta Respubliki Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyeva «O programme razvitiya sistema teplosnabjeniya na 2018-2022 gody». Uzbekistan , 24 aprelya 2017 goda . 3568.

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN O'TKAZILADIGAN SOG'LOMLASHTIRISH TADIRLARINI TASHKIL QILISH**

*O'zbekiston, NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi  
Ne'matova Diyora Dilshod qizi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim bolalar faoliyatining asosiy bo'limlaridan biri bu jismoniy tarbiya bo'yicha olib boriladigan sog'lomlashtirish tadbirlarining o'rni

**Аннотация:** Одним из основных разделов деятельности детей в дошкольном образовании является роль физкультурно воспитательной деятельности.

**Abstract:** One of the main sections of childrens activities in preschool education is the role of physical education activities.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy rivojlanish, harakatli o'yinlar, sog'lomlashtiruvchi mashqlar, ta'limiy tarbiya

**Ключевые слова:** Физическое развитие, активные игры, фитнес-занятия, развивающие тренировки

**Keywords:** Physical development, active games, fitness exercises, educational training

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi 5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (selektsiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida boshlang'ich gimnastika va harakatli o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqishni shakllantirish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrda PQ-5282-son qarori, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, jismoniy rivojlantirish, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Jismoniy tayyorgarlik va "Salomatlik" poydevorini eng kichik yoshdan qurishni boshlash kerak. Bu yoshdagi bolalarda harakat ko'nikma va malakalarining shakllanishi shiddatli bo'ladi. Ularning bo'yi va muskul kuchlari ortadi, harakat koordinatsiyalari yaxshilanadi. Harakat amplitudiyasini, tezligini, yo'nalishini, ritmini va ifodaliligini ajrata bilish ko'nikmasi takomillashadi, harakatini taxlil qilish qobiliyati ma'lum fazalarga ajratilgan holda rivojlanadi. O'z-o'zini nazorat etish va o'zining hamda o'rtoqlarining harakatlarini baxolash qobiliyatlari rivojlanadi. Bola harakat natijalarini bajarish sifatiga bog'liqligini tushunadi, yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qiladi.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy bo'limlaridan biri bu jismoniy tarbiya bo'yicha olib boriladigan sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishdir.

Sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borishdan maqsad bolalarni xar tomonlama garmonik rivojlangan, jismonan baquvvat, hayotga, mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyor qilib voyaga, kamolga yetkazishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib 3-ta asosiy

- a) sog'lomlashtirish,
- b) ta'limiy,
- v) tarbiyaviy guruhlarga bo'linadi.

Yangi O'zbekistonimizda jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilishi tufayli bolalar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda: sport majmuasi, alohida stadionlar, sport zallar, xavzalar, tennis maydonchalari va boshqalar, sport anjomlari va uskunalar. Maktabgacha ta'lim tarbiya muassasalarida, jismoniy tarbiya masalalari yuqori darajaga ko'tarilgan. Bog'cha tarbiyachilari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu masala bo'yicha nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg'un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohaldagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish, hissiyotlari, jismoniy rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar: Qo'llar va yelka kamari uchun mashqlar. Qo'llarni yuqoriga oldinga, yon tomonlarga ko'tarish, tovonlarni juftlab oyoq uchlarini ochib, tik tutgan holatda oyoq uchida ko'tarilish, bir oyoqni uchini orqada qoldirib, devorga suyanish. Ko'llarni ko'krak oldida tutgan yoki yelkalarga ko'yg'an holatdan ularni yuqoriga yon tomonlarga cho'zish. Yelkalarni ko'tarish va pastga tushirish. Tirsakda bukilgan qo'llarni oldinga va yon tomonlarga shaxdam yozib (barmoqlar musht qilib siqilgan), tirsaklarni orqaga bukish (2-3 marta) va qo'llarni ko'krak oldidagi holatdan yon tomonlarga cho'zish. Qo'llar tirsakdan bukilgan holda aylana holatdan yon tomonlarga cho'zish. Qo'llar tirsakda bukilgan holda aylana harakatlar qilish. Bir qo'lda barmoqlari bilan xalqani vertikal o'q atrofida aylantirish, bilaklar va ko'l panjalari oldinda va yonda. Panjalarni



aylantirish, barmoqlarni yoyish va birlashtirish, barmoqlarning uchlarini navbatma-navbat bosh barmoq bilan bukish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi bu – bola jismoniy tarbiyasi shakllanishining umumiy qonuniyatlaridan saboq beruvchi fandır. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga va o'rganish predmetiga ega, ayni paytda u 7 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy tarbiyasi qonuniyatlarini va shunga muvofiq bolaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi rivojlanishini boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o'rganadi. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi har bir yosh bosqichini o'rganib, ilmiy ma'lumotlar va amaliy tajribani umumlashtirib borib, jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, ularning mohiyatini, butun jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning juda samarali vositalari va metodlarini, maqsadga muvofiq shakllarini kompleks ravishda ochib beradi. [4] Sog'lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o'z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, maktabdagi o'qishga hamda kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatidagi alohida ahamiyatini belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida (mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar, mustaqil harakat faoliyati va h.k.) tarbiyachining e'tibori fikrlaydigan, o'z yosh imkoniyatlariga ko'ra ongli harakat qiladigan, harakat ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo'ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan bolani tarbiyalashga qaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. Bola organizmining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi; bola suyagini bexato va o'z vaqtida qotishiga orqa umurtqadagi egik joylarning shakllanishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay-bo'g'im apparatlarni pishitishga yordam ko'rsatiladi. Tana qismlarining (proporsiyalar) to'g'ri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar o'sishi va vaznini bir tartibga solishga yordam berish; barcha muskullar guruhini rivojlantirish (tana, oyoq, qo'l va yelka kamari, panja, barmoqlar, tovon, bo'yin, ko'z, ichki organlar - yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa muskullar); ayniqsa, zaif rivojlangan bukuvchi muskullar guruhining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida ta'limiy vazifalarni hal etish ham muhimdir. Chunonchi: harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilik)ni o'stirish, to'g'ri qaddi-qomat, gigiyena ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish. Bolalar asab tizimining plastikliги tufayli ularda harakat ko'nikmalari nisbatan yengil shakllanadi. Ularning ko'pchiligidan (emaklash, yurish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish va boshqalar) kundalik hayotda harakat vositasi sifatida foydalaniladi. Harakat ko'nikmalari tashqi muhit bilan aloqani osonlashtiradi va uni bilishga yordam beradi: bola emaklab o'zini qiziqtirgan narsalarga yaqinlashadi va ular bilan tanishadi; velosipedda sayr qila oladigan bolalar qor, shamollarni oson idrok etadilar; suzish chog'ida esa bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar. Jismoniy tarbiya mashqlarini to'g'ri bajarish muskullar, paylar, bo'g'imlar, suyak tizimini rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi. Mustahkam shakllangan harakat ko'nikmalaridan foydalanish bolaga mashqlarni bajarishda jismoniy kuchni tejash va o'yin faoliyatida e'tiborni kutilmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan turli vazifalarni olishga yo'naltirish imkonini beradi. Bolalarda 7 yoshgacha shakllangan harakat ko'nikmalari maktabda ularni yanada takomillashtirish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi va kelajakda sportda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg'un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2009.
2. G.Q.Jalolova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash” (metodik tavsiya). Toshkent, 2004.
3. D. Sharipova va boshqalar “Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz“ (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) metodik qo‘llanma. T.: 2006.
4. K.M.Mahkamjonov, M.Sh.Rasuleva va bosh. T.: “Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi”. Tuzuvchi-mualliflar: “Ilm Ziyo” nash. 2006.
5. T.S.Usmonxo‘jayev, S.T.Islomova. T.: “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya” Tuzuvchi-mualliflar: “Ilm Ziyo” nash. 2006.
6. Usmonxo‘jayev S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati. T., «ILM ZIYO». 2006.

## СПИЧРАЙТЕР ВА УНИНГ СИЁСИЙ МЕНЕЖМЕНТДАГИ ЎРНИ

### *Ўзбекистон, ЎзЖОКУ Ахборот хизматлари технологиялари мутахассислиги 1-курс магистранти Эргашева Зухра*

Биз инсонлараро ахборот алмашинуви кундан-кун тезлашиб бораётган, жадал ривожланаётган замонда яшаймиз. Бугунги тезкор технологик жараёнлар ўзаро коммуникация ва ахборот олишнинг бир неча қулайликларини яратиб бераётган экан, айти тараккиёт ахборот бошқарувининг қийинлашуви масаласини ҳам кўндаланг қўяётганини тан олмай иложимиз йўқ. Олимларининг аниқлашича, ҳозирги шароитда ҳар қандай давлатнинг кучи ва таъсири унинг ахборот маконидаги ўрни билан ўлчанади<sup>45</sup>. Зеро, ахборот оқимини бошқариш жамиятнинг тартибли равишда яшашига таъсир кўрсатиб туради. Фуқаролик жамияти шароитида давлат билан халқ ўртасидаги узвий ўзаро алоқалар давлатнинг ўз функцияларини бажара олишига имкониятлар яратади. Ўзбекистонда амал қилаётган “халқ манфаати ҳамма нарсадан устун” принципи давлат сиёсатининг демократик моҳиятини очиб беради.

Давлат ва жамият ўртасидаги ўзаро муносабатлар асосан сўз, шунингдек нутқ ирод этиш воситасида кечади. Шунинг учун ҳам инсонлараро сўзлашув ва етакчилар нутқлари халқнинг манфаатларини турфаллашиб бориши ва унинг кайфиятига монанд равишда ўзгариб боради. Сўз инсон моҳиятини англатувчи восита сифатида юксак куч ва қудратга эгадир. Қадим замонлардан бошлаб сўзнинг мазмун-моҳиятини англаш ва уни ўз ўрнида ишлатиш, фикрни тўғри ифода этиш буюк санъаткорлик сифатида қабул қилинган. Тил нафақат жамият, балки давлат сиёсатининг асосий элементи бўлиб, тил ва сиёсат ўртасида умумий ўзига хос ўзаро боғлиқлар мавжуд. Жамиятни турли ахборотлардан хабардор қилиш ва жамоатчилик фикрини шакллантиришда тил асосий ролни ўйнайди.

Тилшуносларнинг тилнинг сиёсий жиҳатларига қизиқиши табиий бир ҳолдир, чунки айнан шу тилнинг сиёсий жиҳатлари инсоний муносабатларни мувофиқлаштиришнинг муҳим ва асосий омилидир. Сиёсий лидернинг ҳар бир сўзи мамлакат фуқароларининг манфаатлари, эҳтиёжлари ва ички кечинмаларини ифодалайди. Шунинг учун сиёсий муносабатлар тилда ифода этилаётган фикрлар таъсири остида кечади, бу муносабатлар инсониятнинг тил бойлигидан озикланади<sup>46</sup>.

Рус олимаси Л.В. Минаева сиёсатчи имижига қуйидаги фикрни билдиради: “Сиёсий лидер ҳаётининг ўта бандлиги ва баъзи ҳолларда нутқ сўзлашга тайёр эмаслиги учун унинг нутқини бошқалар томоғидан тайёрланишига эҳтиёж сезади. Бундай вазиятда

<sup>45</sup>Алимов Б.С.Медиа маконда миллий манфаатлар. - Т.:Таълим медиа,2019.28-б.

<sup>46</sup>Chilton P.,Schaffner C.(eds.). Politics as Text and Talk- Analytical Approaches to Political Discourse. John Benjamins Publishing Company, Amsterdam, 2002. P.3-4.

унга кўплаб экспертлар ва спичрайтерлар, яъни, ижтимоий нутқлар тайёрловчи мутахассисларга эҳтиёж сезади. Айнан спичрайтерлар биринчи навбатда сиёсий лидернинг вербал имижини яратади”<sup>47</sup>.

Нотикнинг аудитория олдида оммавий чиқиш қилиш учун ёзиладиган нутқи матнини тайёрлаш муҳим жараён ҳисобланади. Сиёсий спичрайтинг (speechwriting - инг. нутқ ёзувчи) – сиёсатчи ёки давлат хизматчисининг тингловчилар олдида чиқишлари учун матнларни тайёрлаш, ёзиш билан шуғулланадиган касб-корни англатади. Рус филолог олими А.Д. Кривоносов спичрайтерлик фаолиятини оммавий нутқни яратиш ва унинг ижроси бўйича консталтинг хизмати кўрсатувчи фаолиятини олиб боровчи, деган фикрни билдиради. Яна бир рус тадқиқотчиси Федорченконинг фикрига кўра, сиёсий спичрайтернинг асосий мақсади сиёсатчи айтмоқчи бўлган фикр ва мақсадларни электорат учун жуда ҳам қизиқарли тарзда етказиб беришдан иборатдир<sup>48</sup>. Сиёсий лидернинг нутқи узоқ вақт одамлар эсида сақланиши ва уларда чуқур таассурот қолдира олиши лозим. Одамлар кўпинча ўз хаёллари, ўй-ташвишлари билан банд бўлиб юради. Шу боисдан улар қизиқарсиз нутқларни шунчаки ташқи томондан келаётган шовқин тарзида қабул қилишлари мумкин. Сиёсатчи ўз нутқида аудиторияни қизиқтира олиш, ўзига жалб қилиш қобиляти билан халқ ичида танила олади.

Тадқиқотчилар фикрига биноан сиёсий спичрайтерлик антик даврдаёқ санъат даражасига кўтарилган, бу даврдаги анъаналар ҳозиргача яшамокда, ва ўзини намоён қилмоқда. Дарҳақиқат, аҳолини йўналтириш, ишонтириш, тушунтириш каби функцияларни бажарадиган нутқлар тайёрлайдиган спичрайтер ўтмишдан қолган меросдан озиқланган ҳолда ижод қилади. Шу билан бирга, тарихда яна бир фаолият тури мавжуд бўлганки, у ҳозирги давр спичрайтерлари функциялари ўхшаш вазифаларни бажаради.

Қадимги Юнон фуқароларининг барчасида ҳам яхши нутқ ирод қилишга доир етарли билим ва кўникмаларга эга бўлмаган. Бу каби замонавий спичрайтерлик фаолиятига прототип касб – бу логографлик (юнон. Logos-сўз, grapho-ёзаман) касби ҳисобланади. Бу касб-кор вакиллари суд жараёнларида маъруза қилувчилар учун махсус нутқ тайёрла билан шуғулланади. Ўз олдида “мижоз” муаммосини кўндаланг қўйган логограф буюртмачи-нотикнинг индивидуал хусусиятларидан келиб чиқиб, пул ишлаш эвазига нутқ ёзиб бериш иши билан шуғулланган. “Мижоз” эса у ёзиб берган бу нутқни ёдлаб, бу нутқни суд жараёнида ирод этган<sup>49</sup>.

Кўриниб турибдики, нутқ инсон имкониятларининг ижтимоий ва табиий маҳсули сифатида ўз эгасини имижини яратади, унга аҳамият бағишлайди. Сиёсий жараён муайян бир ахборот маконида амалга оширилиши сабабли ҳам у сиёсий алоқаларнинг энг муҳим воситаларидан бирига айланди. Айниқса, сиёсий етакчининг ижобий визуал қиёфасини яратишда нутқнинг ўрни бениҳоя каттадир. Барча сиёсий етакчилар ўз вазифаси ва фаолиятини амалга ошириш тақозоси билан минглаб инсонлар билан ўзаро мулоқотда бўлади. У хоҳ мажлис бўлсин, хоҳ телевизион кўрсатувлардаги интервью бўлсин, барибир – жамиятдаги инсоний ўзаро мулоқотларнинг намоён бўлишини ўзида ифодалайди.

Рус олими Андрей Колесников спичрайтерлик фаолиятига таъриф берар экан, уларни “кўринмас фронтнинг курашчилари”, деб атайди. Дарҳақиқат, сиёсий нутқлар ёзувчилар парда ортидаги буюк инсонлардир, шунингдек улар дунёни ўзгартирувчи касб-кор эгаларидир. Шунингдек, нотикликни санъан даражасига кўтариш доимий равишда ривожланиш, такомиллаштишни тақозо этади Америкалик сиёсатчи Томас Дьон “Мамлакатни Президентга нутқ ёзувчи одам бошқаради” деганида минг карра ҳақ эди. Кўриниб турибдики, нутқлар ҳар қандай замонларда ҳам аҳамият касб этувчи шахслар сифатида намоён бўлган.

Сиёсий етакчи ўзининг таъсирчан ва билимга асосланган нутқи билан нафақат ўзининг имижини шакллантиради, балки у ўз партияси, ўз муҳлисларига хизмат қилади, ўз

<sup>47</sup>Минаева Л.В. Речь в мире политике. - М.:Аспект Пресс, 2019. С-4.

<sup>48</sup>Федорченко Л.В. Спичрайтинг как форма политического консталтинга в современной России. Вестник МГОУ. Серия «История и политические науки». № 2 / 2012.

<sup>49</sup>Минаева Л.В. Речь в мире политике. - М.: Аспект Пресс, 2019. С-41.

мамлакати имижини кўтаришга ҳисса қўшади. Демак, спичрайтернинг асосий вазифаси - тингловчиларда нутқ матни уни ирод этувчига нисбатан шубҳа уйғотмаслигидадир<sup>50</sup>. Нутқни сиёсий етакчи тилига мослаб моҳирона ёза олиш спичрайтер касбининг муҳим аҳамият касб этишига далилдир. Спичрайтер биронта етакчига нутқ ёзиб беришдани аввал бу етакчининг фикрлаш ва сўзлаш услубини ва тили хусусиятларини чуқур ўрганиб чиқиши талаб этилади. Бу жараёндаги барча кичик тафсилотларни ҳам ўз назаридани қочирмаслиги лозим.

Собиқ АҚШ президенти Рональд Рейганнинг спичрайтери Пегги Нунан спичрайтерликнинг машаққатли иш эканлигига доир қуйидаги фикрни билдирган эди: “Нутқ сўловчиларнинг қандай сўзлардан кўпроқ фойдаланишини, уларни қай тарзда намоён қилишини кузатиш талаб этилади. Бунда шунини билиш лозимки, бу нотиклар қандай фикрлайди: очикми ёки мулоҳозалими, умумлаштириб сўзлайдими, ёки музокараларга берилганми? Баъзи одамларнинг фикрлаши мантикий изчиллик асосида кечади, яна баъзилари эса ички ҳислар таъсирида ҳеч ким кутмаган, шунингдек ҳаётий қизиқ милоллар воситасида фикрлашни хуш кўради. Баъзи интеллектуал зиёлилар аудиторияга қувноқлик баҳш этади, баъзилари эса жиддий бўлишни хуш кўради. Шундай тоифадаги “нотик”лар ҳам борки, улар муайян бир ғоя ёки муаммо ечими ҳақида тўхтовсиз равишда сўзлаши, аудиторияни ўзига қаратиши, интерактивликка берилиши, шу йўл билан муҳокама қилинаётган мавзунининг долзарблигини ва аҳамиятини осон йўл билан аудиторияга етказиши мумкин, яна баъзилар эса аксинча, қисқа маълумотлар бериш билан чекланади, бу ҳолат аудиторияда жимлик ҳукм суришига олиб келади”<sup>51</sup>.

Сиёсий соҳа спичрайтери нутқ имижини шакллантиришда урта муҳим жиҳатга эътибор бериши лозим:

1. Нутқ сўзловчи шахснинг сиёсий ҳамда индивидуал жиҳатларини сақлаб қолишга ёрдамлашиш. Ҳозирги давр аудиториясининг турли, илгаридан қолипларга солинган сўзларни ҳам хуш кўришини ҳам эътиборга олишимиз лозим. Шунинг учун ҳам нотикнинг индивидуаллиги – ўзига хос қизиқтирувчи жиҳатларини намоён қилиши муҳим аҳамиятга эгадир. Спичрайтернинг асосий вазифаси нутқ ирод қилувчи етакчининг ўзига хос инсоний ва индивидуал хусусиятлари ва фазилатларини эътиборга олиши, уларни иложи борича ёзаётган нутқ матнида ифодалаши лозим.

2. Нутқ сўзловчи шахснинг нутқини матн воситаси ва таъсирида “ишлов бериш” воситасида такомиллаштириш. Ҳар қандай инсонга равон нутқ ирод этиш қобилияти берилмаган. Бу каби хислатни кимгадир табиат инъом этилган, кимгадир яхши нутқ сўзлаш узоқ йиллар машқ қилиш натижаси ўлароқ насиб этади. Яна кимнидир чиройли нутқ сўзлашига физиологик омиллар, масалан ҳис-ҳаяжон ҳалақит бераётган бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам спичрайтер кимнинг нутқини ёзаётган бўлса, унинг ўз нутқида ишлатадиган иборалари, талаффузи, овози тембри, виртаул хатти-ҳаракатлари каби бетакрор ва ўзига хос жиҳатларини инобатга олиши, матнда уларни ифодалашга ҳаракат қилиши лозим. Аудитория нутқни қабул қилиши давомида ўзини енгил ҳис этиши учун нотикнинг талаффузининг қандай бўлиши ҳам муҳим аҳамият касб этади. Спичрайтер “хаттоки нотикнинг нафасининг маромини қадай кечишини ҳам инобатга олиши лозим. Зеро, матнни силлиқ ва текис бўлиши нотикнинг талаффузига мос бўлиши, яъни унда зўриқиш бўлмаслиги, нутқ жараёнида нафас олишга қийналмаслиги лозим. Нафас олиш мароми нутқнинг моҳияти, шунингдек, унинг энг муҳим жиҳатларига урғу беришда ҳамоҳанг бўлиши лозим”<sup>52</sup>. Айтайлик, бирон-бир сўз қурилиши узун сўзлар ишлатиладиган бўлса, ижро жараёнида анча қийинчиликлар туғилиши турган гап. Нутқда иложи борича узун жумлаларни қисқартириш, ёки паузаларни кўпайтириш нотик учун бирмунча қулапйликлар туғдиради.

<sup>50</sup>Минаева Л.В. Речь в мире политике. - М.: Аспект Пресс, 2019. С-180.

<sup>51</sup>Noonan P. On Speaking Well: How to Give a Speech with Style, Substance, and Clarity. N.Y.:Harper Collins Publisher/Regan Books, 1998. P.101-102.

<sup>52</sup>Ильин А.Л., Кадацкий В.Ф., Никифоров К.В., Пихоя Л.Г. Указ. Соч. С.130

По мнению Г.Н.Назаренковой, музыкальная и театральная деятельность развивает творческие способности и активность детей. Музыкальный театр или сказки позволяют детям раскрыть свои способности. Содержание формирования творческой активности детей дошкольного возраста включает в себя совокупность ряда качеств, таких как стремление к цели, инициатива, смелость, трудолюбие, дисциплинированность, чувство прекрасного в искусстве.

Существуют разные подходы к определению творческой активности, возможности формирования творческой активности, где дается высокая оценка воспитательному значению творчества. Б.М.Теплов считает, что любое творчество ребенка связано, прежде

всего, с эмоциональным откликом на музыку, и оно чрезвычайно полезно в период начального обучения, когда закладываются основы ценностного отношения к музыке.

Б.Л. Яворский выделяет ряд возможностей музыкальной деятельности в развитии творческой активности. Основные положения его работ следующие:

— все проявления творческой инициативы детей ценны, поэтому главная задача педагога — всемерно стимулировать их;

— важным средством активизации творческих способностей является комплекс всех видов музыкальной деятельности, когда дети могут проявить себя в самых различных направлениях;

— педагогическая ценность детского творчества заключена в самом процессе творчества.

Ученый, вскрывая природу творческого процесса, показал, что в развитии творческих способностей существуют определенные этапы:

— накопление впечатлений;

— выражение творческого начала в зрительных, сенсомоторных, речевых направлениях;

— двигательные, речевые, музыкальные импровизации, иллюстративность в рисовании;

— создание собственных композиций, которые являются отражением художественного впечатления: литературного, музыкального, изобразительного;

По мнению Б.Л. Яворского музыкально-творческие способности формируются на основе игры на инструментах, движения, пении, декламации и др.

Анализ исследований по формированию творческой активности детей в музыкально-постановочной деятельности выдвигает показатели творческих способностей:

— оригинальность движений;

— эмоциональность при воплощении игрового образа;

— наличие выразительных средств для воплощения образа;

— гибкость при принятии решений;

— умение находить нестандартные решения творческих задач.

Творческая активность – это деятельность, способствующая повышению качественные и количественные показатели результата труда. Творчески активная личность может полностью адаптироваться к окружающей среде, и постоянно обращает внимание на будущее. Музыкальная деятельность способствует развитию творческой активности, способностей и интересов ребенка; у него усиливается любознательность, желание изучать новое; развивается целеустремленность, общая эрудиция, решительность, ассоциативное мышление; при исполнении роли проявляются эмоции. Развивается чутье, умение объединять образы, способность к импровизации и эрудиция.

Творческая активность - важный фактор в развитии личности ребёнка. Оно может проявляться во всех видах музыкальной деятельности: пении, танцах, игре на детских музыкальных инструментах. Дети обычно импровизируют спонтанно, в различных играх. Они поют куклам колыбельную, напевают марш для солдатиков, охотно сочиняют песни, придумывают мелодии на заданный текст. Детское музыкальное творчество, как и детское исполнительство, обычно не имеет художественной ценности для окружающих людей. Оно важно для самого ребенка. Критериями его успешности является не художественная ценность музыкального образа, созданного ребенком, а наличие эмоционального содержания, выразительности самого образа и его воплощения, вариативности, оригинальности. Что бы ребенок мог сочинить и спеть мелодию, у него необходимо развить основные музыкальные способности.

Развитие творческих способностей и формирование гармоничной личности ребенка происходит через восприятие музыки, умение ее слушать и анализировать, а также через активность ребенка, которая проявляется в разных видах музыкальной деятельности. Для проявления творчества требуется воображение, фантазия, свободное

ориентировка в непривычных ситуациях. Детское музыкальное творчество по своей природе синтетическая деятельность. Оно может проявляться во всех видах музыкальной деятельности: в пении, ритмике, игре на детских музыкальных инструментах. Песенное творчество важно формировать, начиная с младшего дошкольного возраста, используя посильные детям творческие задания. Успешность творческих проявлений детей зависит от прочности певческих навыков, умения выражать в пении определенные чувства, настроения, петь чисто и выразительно. Кроме пения, детское творчество может проявляться в ритмике и игре на музыкальных инструментах.

Таким образом, развитие творческой активности ребенка происходит музыкальной деятельности, через восприятие музыки, умения её слушать и анализировать, ведь музыка – это самая доступная, приятная и прекрасная форма общения взрослого и ребенка. Также развитие музыкально-творческих способностей проявляется и во время выполнения музыкально-ритмических движений, игре на инструментах, театральной деятельности.

#### **Список литературы:**

1. Безрукова В. С. Педагогика: учебник .Екатеринбург : 1994. - 340 с.
2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. М.: «Академия», 2002.
3. Зотова О.Н. Формирование творческой активности у будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений в педагогическом колледже: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: Москва, 2003. -16 с.
4. Ковалёв.А.Г. Психология личности: учебное пособие. Москва: Просвещение,1970 – 294 с.
5. Радынова О.П. Музыкальное воспитание дошкольников: Учеб. пособие для студ. М.: Просвещение: Владос, 1994. 223 с.
6. Назаренкова Г. Н. Игра как средство развития творческой активности подростка: дис. ... канд. пед. наук: М. : 1994. 225 с.
7. Яворский Б.Л. Музыкальная педагогика в контексте концепции музыкального искусства Материалы Сибирской научно-практической конференции. - Новосибирск: НГУ, 1994.
8. Нурматова И.Т. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and edugation., 15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
9. Нурматова И.Т. Development of creative activity of older preschool children by means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. <https://www.eipublication.com>.

## **HAR BIR YOSH GURUHDA BOLALARNI PREDMETLAR SHAKLI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI**

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi Bolalarning predmetlar shakli va geometrik figuralarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan obyektlarning shakli haqidagi g‘oyalarni o‘zlashtirilishi, predmetlarning shakli bilan tanishtirishga xos bo‘lgan didaktik o‘yinlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** predmet, metod, figura, iyerarxiya, assimilatsiya, analizator, oval, kub, silindr.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности восприятия дошкольниками формы предметов и геометрических фигур, усвоение дошкольниками представлений о форме предметов, дидактические игры, характерные для ознакомления с формой предметов.

**Ключевые слова:** предмет, метод, фигура, иерархия, усвоение, анализатор, овал, куб, цилиндр.

**Annotation:** This article reflects on the specific features of the perception of objects and geometric figures of preschool children, the assimilation of ideas about the shape of objects by preschool children, didactic games inherent in the introduction of The Shape of objects.

**Key words:** object, method, figure, hierarchy, assimilation, analyzer, oval, cube, cylinder.

Atrofdagi predmetlarning xususiyatlaridan biri ularning shakli. Obyektlarning shakli geometrik shakllarda umumlashtirilgan aks ettirilgan.

Geometrik shakllar va ularning xususiyatlari bilan tanishish muammolari ikki jihatdan ko'rib chiqilishi kerak:

- geometrik shakllar hissiy idrok jihatidan va atrofdagi obyektlarning shakllarini bilish jihatidan
- ularning tuzilishi, xususiyatlari, asosiy munosabatlari va naqsh xususiyatlarini bilish uchun mos yozuvlar sifatida foydalanish, ularning qurilishida, ya'ni aslida geometrik material sifatida ko'rib chiqish.

Dastlab, bolalar noma'lum geometrik shakllarni oddiy narsalar deb bilishadi, ularni bu narsalarning nomlari deb atashadi: silindr- stakan, ustun, oval -tuxum, uchburchak-yelkan yoki tom, to'rtburchak-oyina, deraza va boshqalar. Kattalarning ya'ni tarbiyachi, ota onalarining ta'lim ta'siri ostida geometrik shakllar hissi asta-sekin shakllanadi. Bolalar bilimlarni egallagach ularni predmetlar bilan atamaydilar, faqat solishtiradilar: silindr - stakan, uchburchak-tom kabi va boshqalar.

Predmetning strukturasi, uning shakli va hajmini bilish nafaqat ma'lum bir shaklni ko'rish jarayonida amalga oshiriladi, ushlab ko'rish, yonidan ko'rish va so'z bilan ifodalash orqali ham his qilinadi. Barcha analizatorlarning birgalikdagi ishi predmetlarning shaklini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Predmetni yaxshiroq bilish uchun bolalar qo'lini tegizishga, qo'llariga olishga harakat qilishadi, bundan tashqari shakli va dizayniga qarab shakllarni ajratadi. Shuning uchun, mavzuni idrok etishda va uning shaklini aniqlashda asosiy rol vizual va vosita-sensorli analizatorlar tomonidan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan so'rov bo'lib, keyinchalik so'z bilan belgilanadi. Muayyan predmetning shakli bilan taqqoslash bolalarga geometrik figuralarni ongli tushunishga yordam beradi.

Masalan: geometrik shakllar bilan turli narsalarni yoki ularning qismlarini taqqoslashingiz mumkin.

Shunday qilib, asta-sekin geometrik shakl predmetlarning shaklini aniqlashning standartiga aylanadi. Bolalarning tizimli o'qitish sharoitida obyektlarning shakli, geometrik shakllari, ularni tanib olishi va so'zni to'g'ri qo'llash hissi sezilarli darajada oshadi.

Geometrik shakllarning boshlang'ich tushunchasini o'rgatish faqat olti yoshdan yetti yoshgacha bolalar uchun juda qulaydir. Bundan tashqari, olti yoki yetti yoshdagi bolalar geometrik shakllarning eng oddiy xususiyatlarini, shuningdek, geometrik shakllarning ayrim turlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun ko'nikmalari mavjud bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda: bolalarni turli geometrik shakllar bilan tanishtirish, ularning elementar xususiyatlariga asta-sekin e'tibor berish kerak (vertikallar, burchaklar, shakllardagi tomonlar, tomonlarning tengligi va tengsizligi, ularning o'zaro qarashlari va boshqalar), shuningdek, bolalarni geometrik shakllarni guruhlarga ajratish uchun o'rgatish, bu shakllarning noaniqligini ta'kidlab borish lozim.

Tadqiqotlar, turli olimlarning o'rganishi natijasida «Geometrik bilim» ning rivojlanishida bolalarda bir nechta turli darajalar kuzatilishi mumkin:

*Birinchi daraja*, shakllar bolalar tomonidan butun sifatida qabul qilinganligi bilan ajralib turadi, bola hali alohida elementlarni qanday ajratishni bilmaydi, shakllar orasidagi o'xshashlik va farqlarni sezmaydi, ularning har biri alohida-alohida qabul qiladi.

*Ikkinchi darajada*, bola allaqachon rasmdagi elementlarni ajrata oladi va ular orasidagi va alohida belgilari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatadi, lekin shakllar o'rtasidagi umumiylikni hali tushunmaydi.

*Uchinchi darajada*, bola raqamlarning xususiyatlari va tuzilishi, xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga qodir.. Bir darajadan ikkinchisiga o'tish o'z-o'zidan emas, insonning biologik rivojlanishiga parallel ravishda va yoshga bog'liq.

Bu yuqori darajaga o'tishni tezlashtirishga yordam beradigan maqsadli o'qitish ta'siri ostida davom etadi. Yetishmasligi rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ta'limni to'g'ri tashkil etish kerak. Shunda bolalarda geometrik shakllar haqidagi bilimlarni assimilatsiya qilish bilan bog'liq holda boshlang'ich geometrik fikrlash ham rivojlanadi. Bolalar sekin astalik bilan "oddiy" va "murakkab" geometrik shakllar o'rtasidagi aloqalarni yanada aniqroq o'rganishadi, ular nafaqat farqlarni emas, balki ularning umumiylikni, "oddiy" va tobora "murakkab" shakllar o'rtasidagi munosabatlarning iyerarxiasini topishadi.

Shakllarni so'z bilan ifodalash tamoyilini assimilatsiya qilish bolalarda har qanday yangi shaklga umumiy yondashuvni, uni muayyan shakllar guruhiga bog'lash qobiliyatini shakllantiradi. Bolalarning bilimlari tizimlashtiriladi, ular umumiy bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, keyingi bilimlarga qiziqish hosil qiladi, aqlning harakatchanligini ta'minlaydi. Geometrik shakl va figuralarni o'rgatuvchi mashg'ulotlarning barcha turlari bolalarning geometrik fikrlash g'oyalarini va boshlang'ichlarini rivojlantiradi, ularni kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, asosiy, muhim va ayni paytda maqsadga muvofiqligi, qat'iyatligi kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash qobiliyatini shakllantiradi.

Bolalarni geometrik shakl bilan tanishtirish usullari qanday va bu holda so'zning roli qanday? Ko'pgina psixologik va pedagogik ishlarda predmetlarning tuzilishini bilish isbotlangan, ularning shakli va hajmi nafaqat ko'rish orqali ma'lum bir shaklni idrok etish jarayonida amalga oshiriladi. Vizual va vositali -sensorli analizatorlar tomonidan olib borilgan tekshiruv uning shaklini belgilash mavzusini idrok etishda asosiy rol o'ynaydi va keyinchalik so'z bilan tushuntiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalar mustaqil ravishda geometrik shakl va figuralarning xususiyatlarini bilishmaydi, uning shaklini ajratishadi. Shunday qilib, shaklni aniqlashda qo'l va ko'zlar bir-biriga yordam berib, o'zaro ta'sirlanadi va so'zda ma'lum bir narsa aniqlanadi. Shaklni idrok etishni o'rganish usuli bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan yana bir xususiyatni hisobga olish kerak. Ba'zi bolalar ushbu shaklga alohida qiziqish bildiradilar, ular ko'rgan narsalar haqida so'rashadi, nom berishga va xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishadi. Boshqalari esa -predmetni o'zlari ko'rib chiqmaslikni afzal ko'rishadi, lekin kattalar nima deyishlarini tinglashadi: ular uchun asosiy narsa - so'zdir.

Yosh bolalarda idrokning bunday farqlari ko'pincha avvalgi ta'limning natijasidir. Shuning uchun bolalarni og'zaki xulosalar va umumlashmalarga shoshilmasdan kuzatishlarga o'rgatish kerak. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri idrokka to'g'ri va o'z vaqtida kiritilgan so'z, uni chuqurlashtiradi, kuzatilgan xotirani eslab qolishga yordam beradi. So'z hissiy idrokni kamaytirmaydi, balki uni umumlashtirishdan oldin ko'taradi. Hissiy in'ikosdan tashqaridagi so'z o'ziga xos tasvirlarga olib kelmaydi.

So'z har doim o'ziga xos mazmunga boy bo'lgan hissiy tasvirni saqlab turishi kerak. Shunday qilib, yosh bolalar uchun geometrik shakllar oddiy o'yinchoqlar bilan bir-biriga mos keladi, ular boshqa o'yinchoqlar kabi ular bilan ishlaydi va ularning shakli o'yinni manipulyatsiya qilishdan farq qilmaydi. Kelajakda bolalarning bilim faoliyati asta - sekin ajralib chiqqan boshlaydi, geometrik shakllarning shakli va ularni birinchi navbatda hayot obyektlari bilan taqqoslash, keyin esa, aksincha, geometrik shakllar shakllari bo'lgan hayotiy narsalar bilan taqqoslash metodlari paydo bo'ladi. Nihoyat, tekshiruv tizimli va muntazam bo'lib, ularni qayta hisoblash, masofani o'lchash, shaklning tomonlari haqida o'rganadilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalarning kognitiv faoliyatining rivojlanishi kattalarning ta'lim yo'nalishi bo'yicha sezilarli darajada tezlashadi va yaxshilanadi. Shunday qilib, bolalarni erta yoshdan boshlab geometrik shakllar shaklini to'g'ri tekshirish usullarini o'rgatish zarurligi haqidagi quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- ularning eng oddiy xususiyatlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- turli xil rang va o'lchamdagi shakllar orasida so'z va namunani tanlashga o'rgatadi;
- geometrik shakllarni turli xususiyatlarga ko'ra guruhlarni o'rgatadi;
- atrofdagi predmetlarda ma'lum geometrik shakllar bilan o'xshashlikni topishga o'rgatadi; Geometrik shakllarni o'zgartirishni o'rgatadi, ularni predmetlar modellarini yaratadi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. M. Jumayev "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi" T., 2007 y.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti 2020-yil 22-dekabr 802-son.
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur. 2019.

### МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA SON-SANOQQA O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna  
O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Bozorova Durdona Obid qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda son-sanoqqa o'rgatishning interfaol usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** maktabgacha ta'lim, maktabgacha yosh davri, son-sanoq, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются интерактивные методы обучения счету детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дошкольный возраст, считать, интерактивные методы, дидактические игры.

**Annotation:** This article discusses interactive methods of teaching numeracy in preschool children.

**Key words:** preschool education, preschool age, count, interactive methods, didactic games.

Maktabgacha yosh davri - bolalarning rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib, bu davrda ular fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy va aqliy jihatdan rivojlanadi. Bu davrda ayniqsa, bolalarda matematik tasavvur va bilimlarni rivojlantirish ularning intellektual jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulgayishiga O'ziga xos o'ringa ega. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu sohani rivojlantirishga doir ko'plab qonun, qaror va farmoyishlar, shuningdek, ilmiy darsliklar ishlab chiqilmoqda. Bularga:

-O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Maktabgacha ta'limni to'g'ri tashkil etish, yosh guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda inklyuzif ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlash dasturlarini ishlab chiqish;

-Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabdagi 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti” asosida ta’lim-tarbiya faoliyatini sifatli tashkil etishni amalda joriy etilishi bu sohaga oid masalalarni hal etishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Son-sanoq” bo‘limi “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” bo‘limining asosiy o‘zagidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mazkur bo‘lim dasturiy masalalarini o‘zlashtirishlari maktabning boshlang‘ich sinflarida ularning matematikani ongli o‘zlashtirishlarida asosiy o‘rinda turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish o‘ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha yoshda yechilishi kerak bo‘lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabda o‘qitish muvaffaqiyatli bo‘lmaydi. Bu vazifalardan biri aniq bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o‘tishdir.

Matematik mashg‘ulotlarni olib borishda turli interfaol metodlardan foydanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

1. Bir nechta o‘yinchoq ichidan namunaga o‘xshashini tanlab olish. Pedagog stol ustiga kubikni, qo‘g‘irchoqni, ayiqchani qo‘yadi. So‘ngra “sehrli qopcha” ichidan bitta o‘yinchoqni oladi va stol ustiga xuddi shunga o‘xshash o‘yinchoqni topishni taklif qiladi.

2. Rangi, o‘lchami yoki shakli bir xil bo‘lgan 2-3 ta predmetlar (kubiklar, shariklar va koptoklar) orasidan xuddi shu rang, o‘lcham, shakldagi predmetni tanlab oladi. Bola topshiriqni bajarib bo‘lgach, tanlab olgan o‘yinchog‘ining nomini va har ikkala o‘yinchoq uchun ham umumiy bo‘lgan belgini aytishi kerak. Agar kichkintoy xato qilsa, pedagog unga savollar bera boshlaydi: “Bu nima?”, “Sen bu o‘lchamdagi (rangdagi) kubikni oldingmi?”, “Kubiklarni ustma-ust qo‘y!” Pedagog olinishi kerak bo‘lgan predmetni ko‘rsatishi mumkin: “Mana bu kubikni olish kerak. Ko‘rdingmi, u xuddi mana shu rangda”. Bolalarga o‘yin davomida predmetlarni guruhlarga qarab ajratish topshiriladi. Predmetning quyidagicha belgilari ajratib ko‘rsatilgan holda aytiladi: predmetning nimaga kerakligi (bu qurilish materiali, undan qurish mumkin; bu mo‘yqalam, u bilan rasm solinadi va hokazo), rangi, o‘lchami.

Elementar matematikada “son”, “sanoq” va boshqa tushunchalarni asoslashda to‘plam tushunchasidan foydalaniladi. Bu o‘z navbatida bolalarda miqdoriy munosabatlarni shakllantirishga va natural son haqidagi tushunchalarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Alohida predmetlarni, to‘plamlarni hosil qilishga, “ko‘p”, va “bitta” tushunchalarini ajratishga, turli to‘plamlarni solishtirishga o‘rgatish usullari matematik tasavvurni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda tarbiyachi bolalarga:

1. “Bolalar, stolda har biringizga konvert qo‘yilgan, qani konvertlarni ko‘ringlarchi, nima bor ekan? To‘g‘ri, doiralar bor ekan. Doiralar qanday rangda? Ko‘rsatkich barmog‘ingizni doiraning chetidan yurgizib chiqing. (Tarbiyachi topshiriqni bajarishga qiynalgan bolalarga yordam beradi.) Endi katta doirani yumalatib ko‘ringlar. Yaxshi, yumaladimi? Kichkinasini yumalatinglar. Ko‘rdingizmi, hammadoiralar yumalaydi. Bu doiralardan nimalar yasash mumkin? kabi savollar bilan murojaat qiladi. Bolalar savollarga javob qaytaradilar. Tarbiyachi: “Kelinglar, bolalar, doiralardan chiroyli gullar yasaymiz va guldasta hosil qilamiz”. Tarbiyachi va bolalar birgalikda doiralardan turli gullarni yasaydilar. “Ko‘p” va “bitta” predmetlarni ajratadilar.

2. Har bir bolaga bitta va ko‘p sharlar va tasvirlash uchun qog‘oz berib chiqiladi, bolalar sharlarni o‘zlari xohlagan rangda bo‘yashlari mumkin bo‘ladi. Bolalar ishni tugatganlaridan so‘ng tarbiyachi so‘raydi: “Bitta sharni qaysi rangga bo‘yadingiz? Ko‘p sharlarni qaysi rangga bo‘yadingiz?” Shunday mashq va masalalar yordamida bolalarda “Ko‘p” va “Bitta” tushunchalari haqida bilim berish samarali bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanashga o‘rgatishdagi asosiy vazifalardan biri bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan taqqoslash, solishtirish yo‘li orqali bolalarni to‘plamlarni taqqoslashga o‘rgatishdan iboratdir. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini o‘rganadi. Bola sanashda qiynaladi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to‘plamlarning qaysi biri ko‘p, qaysi biri kam ekanini, yoki ular teng ekanini aniqlashni chamalaydi. Bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sanashga o‘rgatishning ilk davriga bog‘liq.

Ikkinchi kichik guruhda tarbiyachi bolalarda to‘plam alohida bir jinsli elementlarning majmui haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishi kerak. O‘qitishni predmetlarning sifat va xossalarini ajratishga

oid mashqlardan boshlash kerak. Masalan, bir qancha o'yinchoqlar ichidan xuddi tarbiyachi qo'lidagidek o'yinchoqni topish taklif etiladi, "Xuddi shunday kubchani (bayroqchani, sharni) ber". Shundan keyin har xil rangli (o'lchamdagi, shakldagi) bir nechta buyum orasidan xuddi shu rangdagi (o'lchamdagi, shakldagi) buyumni tanlash topshirig'i beriladi. Navbatdagi bosqich berilgan belgi-alomatlari bo'yicha buyumlarni tanlash va guruhlariga ajratishga oid mashqlardan tashkil topgan bo'lmog'i lozim.

Masalan: "Sariq rangli hamma kubchalarni mana bu qutiga sol, bu qutiga esa hamma kichik quyunchalarni yig', mana bunisiga esa hamma katta ayiqchalarni joyla". Bunday mashqlar natijasida bolalar har xil buyumlarning umumiy belgilari mavjud ekanini, shu bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkinligini tushuna boshlaydilar: "Bular o'yinchoqlar", "Bular koptoklar", "Bular bayroqchalar" kabi. Tarbiyachi bolalarni guruhdagi buyumlarning biror qismi uchungina umumiy bo'lgan belgilarni ko'rishga o'rgatadi. Shuningdek, bayroqchalar ko'pligini, ammo ularning ba'zilar qizil, ba'zilar esa yashil ekanini ko'rsatadi (Qizil bayroqchalar ko'p, yashil bayroqchalar ham ko'p). Miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir xil buyumlardan guruhlar tuzish va guruhni alohida buyumlarga ajratishga doir har xil o'yin mashqlar muhim ahamiyatga ega. Odatda, bu o'yin-mashqlar darsda ma'lum izchilikda o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Birinchi ta'lim faoliyatida bir xil o'lcham va rangli, aynan bir xil o'yinchoqlarning: sabzilar, archalar, jo'jalarning majmualari tuziladi, bunda guruhda bolalar qancha bo'lsa, o'yinchoqlar ham shuncha bo'lishi lozim. Tarbiyachi dastlab bolalarga bittadan o'yinchoq beradi, o'z harakatlarini ushbu so'zlar bilan ifodalaydi: "Menda mevalar juda ko'p. Men bolalarning hammasiga bittadan meva berib chiqaman. Menda bitta ham meva qolmaydi". Shundan keyin bolalarga murojaat qiladi: "Har biringizda nechtdan meva bor?" So'ng tarbiyachi hamma o'yinchoq mevalarni yig'ib oladi, bunda u bitta ham yo'q (bolada), juda ko'p (tarbiyachida) so'zlariga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Mashqni boshqa o'yinchoqlar bilan yana bir marta takrorlash mumkin. Har gal tarbiyachi ko'p, bitta, bittadan, bitta ham yo'q, hech narsa yo'q so'zlaridan foydalanadi; "Qancha?", "Qanchadan?" savollarini beradi. Kichikintoylar buyumlarni va ular qanchadanligini (ko'p, bitta) aytadilar. Ta'limiy faoliyatning borishida bolalar to'plam alohida buyumlarga ajralishiga va alohida buyumlardan tuzilishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar. Ikkinchi mashg'ulot ham shunga o'xshash tashkil etiladi. Dastlab oldingi ta'lim faoliyatida foydalanilgan o'yinchoq turlarining biri bilan mashg'ulot tashkil etiladi, keyin esa o'yinchoq yoki buyumlarning yangi xili tanlab olinadi, ular bir xil bo'lishi shart emas: ular turlicha o'lchamli va har xil rangli bo'lishi e'tibor qaratish kifoya. O'yinchoqlar guruhlariga ajratiladi, masalan, bir savatga sariq koptoklar, ikkinchi savatga qizil koptoklar yig'iladi; katta baliqchalar katta idishga, kichik baliqchalar kichik idishga solinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda son-sanoq haqidagi tasavvurlarini kengaytirishda to'plam va uning bir turdagi elementlaridan foydalangan holda turli didaktik metodlarni, o'yinlarni, shuningdek, interfaol usullarni mashg'ulotlarda keng miqyosda qo'llash faoliyatning mukammal va izchil bo'lishiga xizmat qiladi. Bunda, albatta, tarbiyachining yuksak darajadagi bilimga ega bo'lishligi, kreativligi, turli metodlarni qo'llay olish qobiliyatlari alohida e'tiborga molikdir. Shu nuqtai nazardan bolalarning olgan bilimlarini mustahkamlab borish ham g'oyat muhim masalalardan hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda mashg'ulot jarayonida turli ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda interfaol usullarni qo'llanishi kelgusida yosh avlodni barkamol bo'lib o'sishiga zamin yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" 802-sonli Qarori;
3. F.Q.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur"-T.:2019;
4. N.U.Bekboyeva, Z.I.Ibrohimova, H.I. Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" ., T.:O'qituvchi. 2015y.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHLARIGA O'RGATISH

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna  
O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
Zaripova Moxina Shavkat qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga applikatsiyaga o'rgatishning interfaol usullari, applikatsiya mashg'ulotlari qay tarzda tashkil qilinishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** applikatsiya, shaklni sezishni, mo'ljallay olish, rang sezish, estetik tarbiya, qobiliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены интерактивные методы обучения аппликации дошкольников, как организуются занятия по аппликации.

**Ключевые слова:** аппликация, умение воспринимать форму, нацеливаться, цветовое восприятие, эстетическое воспитание, умение.

**Annotation:** This article discusses interactive methods of teaching applications to preschoolers, how application classes are organized.

**Key words:** application, ability to perceive Shape, be able to aim, color perception, aesthetic education, ability.

Tasviriy faoliyat metodikasida rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikatsiya ham asosiy turlardan biri sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritilgan. Applikatsiya mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. U bolalardagi hayolni uyg'otadi, ijodni tug'diradi, kuzatuvchanligini faollashtiradi, diqqat va tasavvurini, irodasini tarbiyalaydi, qo'l malakasini rivojlantiradi, shaklni sezishni, mo'ljallay olish, rang sezish hissini rivojlantiradi.

Olimlar fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300 xil rangni ajrata oladilar. Demak, bolalarda ranglarga nisbatan qiziqishni uyg'ota olsak, atrofimizdagi olam, ranglar jilosi haqidagi tushunchalari kengayadi. Rang sezishni o'stirish orqali bolalarda estetik tarbiya qobiliyati tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda qog'ozdan predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya, quritilgan o'simlikdan, somondan applikatsiya bajaradilar.

Applikatsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "joylashtirish" degan ma'noni anglatadi. Applikatsiya tasviriy faoliyatning bir turi. Applikatsiyada ishlatiladigan ashyo o'ziga xosligi bilan ajraladi. Qog'oz, somon, quritilgan o'simlik o'ramga joylashtirilib, turli xil yelim bilan yelimlanadi. Mato, charm, jun, paxmoq – ularda esa tiqiladi. Applikatsiya bir xil rangda yoki rangli bo'ladi. Bir xil applikatsiya grafik tus bersa, ko'p ranglisi esa go'zallik. Uni ham buni ham badiiylik desa bo'ladi. Applikatsiya chamalash va buyumni hajmiy tasvirlash harakterida bo'ladi.

Rang applikatsiyani ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun applikatsiya ishida ranglarning uyg'unlashuviga e'tibor qaratish, ularning mos tushishi, hayoliy va dekorativ kompozitsiyaning ifodaliligi, garmoniyasini izlab topishdir. Applikatsiya bolalarda qog'ozda kompozitsion uquvni bilishga sharoit yaratadi. Bola tayyorlagan applikatsiya ishi estetik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya predmetning umumiy, tipik va individual belgisini ko'ra olishiga o'rgatadi, ularni o'zaro bog'liqligi, butun, qismlar, ritm, simmetrik chamalash rivojlanadi, predmetning shaklini, rangini bosqichma-bosqich ko'rsatish malakasini ko'rsata oladi.

Applikatsiya badiiy ishlarni oddiy va mos vosita orqali xaqqoniy asosni saqlagan holda amalga oshiruvchi faoliyatdir. Masalan: mustaqil asar, pannolar,

surat, plakat. Suratli tasvirda elementar mavzuga o'rgatuvchi ko'rgazma qurol, tabiat, nutq o'stirish metodikasi uchun ijodiy o'yin, o'yinchoq, 8-mart bayram sovg'asi, qurolli kuchlar va boshqa bayramlarda bezatish uchun devoriy gazeta, ko'rgazma, maktabgacha ta'lim muassasasini bezatish ishlarida ham bolalar applikasiya ishlarining o'rni katta.

### **Applikatsiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar.**

Asboblar ishlatilishiga mos bo'lishi bilan birga estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyoni pap'e-mashe usulida qaychi qo'yish uchun qalamdon yasash, mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikasiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, yelim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'ozi.

**Qaychi** – uchi to'g'ri, katta-kichik.

*Katta qaychi* 14-20 sm, to'g'ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun.

*Kichik qaychi:* 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun. Qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi, do'stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatish kerakligi, qaychi ko'ndalangida qo'lni silkitish, o'qalish mumkin emasligini bolalarga birinchi mashg'ulot davomida tushuntirish lozim. Unda ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

**Yelim uchun mo'yqalam.** Masalan: 2-3 ta mo'yqalamga ega bo'lish kerak. Applikasiyaning mazmunining katta-kichikligiga qarab kerakli mo'yqalamdan foydalaniladi. Katta hajmdagi applikasiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Mo'yini tuzilishini saqlash uchun ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak, mo'yqalam o'rnida paxta o'ralgan tayoqchadan foydalansa bo'ladi. Mashg'ulotdan keyinpaxta olib tashlanadi.

**Mo'yqalam qo'ygich** – yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi, stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

**Qalam.** Masalan: tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ularning uchi ko'p ochilmagan bo'lishi lozim. Ish jarayonida kontur chizishda ruchka va ximiyaviy qalamni ishlatish mumkin emas.

**Yelim uchun idish** – yelim kichik idishchalarga solingan bo'ladi, buning uchun plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Applikatsiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonga turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san'atining bir turi. Applikasiyaning o'ziga hosligi tasvirning va uning ishlashida xulosaga chiqaradi. Applikasiya mashg'ulotlari bolaning tasviriy malakalarini shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarini o'sishiga yordam beradi. Applikasiya o'z ichiga hayolni, tasvirni, go'zallikni ko'ra olish qobiliyatlarini oladi. Applikasiya mashg'ulotlarida olgan malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llashlari mumkin. Applikasiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikatsiya o'rgatishda material bilan tanishish, turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma'lum tartibda joylashtirish, obraz va mazmunga mos ravishda yopishtirishni taxmin qiladi. Applikasiya o'rgatish bolalarni qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang va predmetning o'zaro munosabatlari haqidagi taasurotlarini boyitish bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash va (taasurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarida applikasiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ta'limiy usullar o'ziga hos xususiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ta'sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashni va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda harakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta'sir etadi. Applikasiya mashg'uloti jarayonida bola rang va uning rang tusi bilan tanishadi, mashq qiladi, shaklni va predmetni tuzilishini bilishga o'rganadilar. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog'oz varog'ida mo'ljallay olishga o'rganadilar.

Bolalar applikasiya faoliyatida rang va uning uygunlashuvi bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uyg'unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar. Rangni sezish-estetik sezishning umuman eng ommabop shakli bo'lib hisoblanadi. Uning uchun uni rivojlantirish natijasida biz bolalarning estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatamiz. Ular shu asosida shaklning go'zalligini, ritm va simmetriyani bilishga, sezishga o'rganadilar. Bolalar ritm va simmetriyaning qoidasini bilib olishlari natijasida ular shaklning tartibli joylashishidan xursand bo'lib va aksincha tartib qoidasining buzilishi bolaning asabiylashtirib yuboradi. Bolalar bu holatni xunuk, buzuq tartib sifatida tasavvur etadilar. Applikasiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladilar, natijada ular tevarak-atrofdagi predmetlarda geometric shakllarni abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadilar.

Murakkab tuzilgan shakllarni tuzilishini yaxshiroq tushunishga, ularni to'g'ri tahlil va sintez qilishga o'rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o'zlariga tanish bo'lmagan figuralarning nomini to'g'ri aniqlashga o'rganadilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarini sanab uning 3 ta yoki 4 taligi asosida uchburchak va to'rtburchak, keyinchalik ularning o'zlari mustaqil ravishda ko'pburchak kabi shakllarning nomini bilib boradilar. Applikasiya mashg'ulotlari bolalarda kattalik va fazoni mo'ljallash bo'yicha olgan tasavvurlari va qog'oz betini to'g'ri mo'ljallay olish kabi o'quvlar rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishni, yelimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklni mantiqiy va ritmik holda joylashtirishga o'rganishlari, asosan o'rtasida, o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so'zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog'oz betidagi nuqtada orentirovka qilishga o'rgatish – bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlarini asosiy shartlaridan biridir. Bolalar applikasiya mashg'ulotlarida juda ko'p qimmatli mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o'z ish joylarini toza saqlashga o'rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi qo'l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog'oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, ular o'z harakatlarini tezligini to'xtatib turishga o'rganadilar. Mashg'ulot jarayonida ular oz bo'lsada qiyinchilikni yengadilar, bu esa bolalarda harakterning irodaviy xususiyatini, chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni;
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" 802-sonli Qarori;
- 3.F.Q.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur"-T.:2019;
- 4.N.U.Bekboyeva, Z.I.Ibrohimova, H.I. Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" ., T.:O'qituvchi. 2015y.
- 5.Ishmuxammedov R.J, Yuldoshev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol"-nashriyoti. 2013.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SANASH FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna  
O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi  
Xusenova Shahinabonu Lutfullo qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda son-sanoqqa o‘rgatishning interfaol usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh davri, son-sanoq, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются интерактивные методы обучения счету детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дошкольный возраст, считать, интерактивные методы, дидактические игры.

**Annotation:** This article discusses interactive methods of teaching numeracy in preschool children.

**Key words:** preschool education, preschool age, count, interactive methods, didactic games.

Har bir davlatning istiqboli ta’lim darajasi va sifati bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida bolalarni ilk yoshdanoq sifatli ta’lim-tarbiya bilan qamrab olish va ularni jamiyatga ijtimoiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratilayotgan zamonamizning dolzarb masalasidir. Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo‘lishiga katta ahamiyat berishimiz muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya’ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo‘ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda qiziqтира olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak ular maktabda barcha bilimlarni o‘zlashtirishda a’lo baholarga o‘qib yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiynalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar keraak bo‘ladi. Shu sababli turli ta’limiy usullar, qiziqarli she’rlar, topishmoqlar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sanash faoliyatining rivojlanish bosqichlarini ta’riflab, tavsiflab berishdan oldin sonlarning kelib chiqish tarixiga nazar solsak.

Miloddan ancha zamonlar oldin Hindiston aholisi hisoblashning ancha qulay tizimini ixtiro qilishdi. Bu hisoblash tizimi Yevropaga arab savdogarlari tomonidan molidiy 900-yillarda olib kelindi, shu boisdan u hindiy-arabiy hisoblash tizimi deb ataladi. Hindiy arabiy hisoblash tizimiga binoan barcha sonlar 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 va nol “0” belgilari bilan yoziladi. Bu tizimda tartib bilan yozilgan miqdor sonlarning raqamlari o‘rinlarining o‘zgarishi bilan har xil ma’nodarga ega bo‘ladilar.

Ilmiy tekshirishlar natijasida aniqlanishicha, bolalarning sanoq faoliyati taraqqiyoti quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

**1-Bosqich.** Bu bosqichda bolalar bir xildagi narsalar to‘plami bilan ish ko‘rib ularni ajratadilar va bir joydan ikkinchi joyga olib quyib ,nimalarnidir quradilar. Bu vaqtda butun to‘plamini ayrim elementlarga ajratib, tovush yoki harakatlar yig‘indisi elementlarning bir xildagi takrorlanishiga ahamiyat bera boshlaydilar.

**2-Bosqich.** Bu bosqichda bolalar bir to‘plam elementlarini ikkinchi to‘plam elementlari bilan solishtirish malakasini amaliy egallab, elementlarning o‘zaro bir qiymatli munosabatda bo‘lishini aniqlay boshlaydilar. To‘plamlar elementlarini solishtirishni mashq qilish natijasida elementlar orasida tenglik yoki tengsizlikni seza boshlaydilar.

**3-Bosqich.** Bu bosqichda bolalar sanoq operatsiyasini egallay boshlab, solishtirilayotgan to‘plamlar elementlarini sanab, sonlarni o‘rinli ishlata boshlaydilar. Bolalar ongida natural sonlar qatori

to'plam tushunchasining shunday bir andozasi bo'lib uning yordamida istalgan to'planning elementar miqdorini aniqlash mumkinligini tushuna boshlaydi.

**4-Bosqich.** Bunda bolalar qo'shni sonlar orasidagi to'g'ri va teskari munosabatlarni aniqlaydi. Son tushunchasini chuqurroq o'zlashtirib, natural sonlar qatori ma'lum bir sistema ekanini bilib oladilar. Shunday qilib, bolalarning sanoq faoliyati jarayonida, avvalo, to'plamlar haqidagi tasavvuri tarkib topadi. So'ngra sonlar va sonlar qatori sistemasi tushunchasi tarkib topadi. Bu bosqichlar bolalarni yangi faoliyatga tayyorlaydi. Bu esa bolalarning aniq to'plamlar bilangina emas, balki sonlar bilan ham ishlashi mumkinligini ayon qilib qo'yadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohia e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning son sanoq bo'yicha matematik faolligi turli-tuman sharoitlarda ya'ni, mashg'ulotlar jarayoni, guruhning har bir tarbiyalanuvchilarida o'stiriladi. Bolalarning namoyon bo'lgan kuchli va zaif tomonlarini bilish nafaqat tarbiyachi balki ota-onalar tahlili uchun ham muhimdir. Biz tarbiyachilar ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishda mashg'ulot jarayonlarini matematik o'yinlar, matematik to'plamlar bilan boyitishimiz va har bir yosh guruhlariga to'g'ri qo'llay olishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Va shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarda sanash faoliyatining rivojlanish bosqichlarini ketma-ketlikda qo'llab borsak, bundanda yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" 802-sonli Qarori;
3. F.Q.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur"-T.:2019;
4. N.U.Bekboyeva, Z.I.Ibrohimova, H.I. Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" ., T.:O'qituvchi. 2015y.
5. Ishmuxammedov R.J, Yuldoshev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol"-nashriyoti. 2013.

#### **MTTDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna  
O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Shokirova E'zoza Qobil qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** maktabgacha ta'lim, hayvon, o'simlik, tabiat burchagi, barg, poyai, gul.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются конкретные способы организации уголка природы в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, животное, растение, уголок природы, лист, стебель, цветок

**Annotation:** This article discusses specific ways to organize a corner of nature in preschool educational organizations.

**Key words:** preschool education, animal, plant, nature corner, leaf, stem, flower.

Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar bog'chasida jonli tabiat burchagini bo'lishidir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va sistemali tarzda tanishtirish ularda jonli tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko'nikmalarni

hosil qilish, kuzatuvchanlikni o‘stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko‘nikmalar asosida tabiatga extiyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi.

Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha xayvonlarga, ularning o‘ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo‘lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan xayvon va o‘simliklarning xilma-xilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko‘rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan obyektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Tabiat burchagida yashovchilarning taloviy yaqinligi ham ahamiyatlidir. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliklarni yaxshilab ko‘rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kichik guruh tabiat burchagi uchun o‘simlik va xayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etish xususiyatlari shuningdek, ta‘limiy masalalar nazarda tutiladi. Kichikintoylar 2—3 xil o‘simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlari lozim.

Kichik yosh guruhning tabiat burchagiga asosiy qismlari (poyasi, bargi) aniq ifodalangan va yorqin, qiyg‘os hamda uzoq gullaydigan o‘simliklar joylashtiriladi. Masalan: xina, azaliya, fuksiya, xitoy atirguli va hokazolar. Aytib o‘tilgan turlardan yil davomida kuzatish uchun 3-4 o‘simlik tanlanadi. Ularning ba‘zilari 2 nusxada bo‘lishi lozim. Bular ichidan bolalar bir xil o‘simliklarni topib, ajratib ko‘rsatishni o‘rganadilar.

Ilk yoshdagilarning ikkinchi guruh tabiat burchagiga akvarium joylashtiriladi. Akvariumga kichikintoylarning idrok etish xususiyatlaridan kelib chiqib, chiroyli rangdagi, yilning ko‘p qismida faol yashaydigan, ozuqani shoshib-pishib yeydigan baliqlarni tanlash lozim (masalan, oddiy tilla baliq, tilla yoki kumush rangdagi tovon baliqlar). Kichik yosh guruhlarning tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o‘zi xushchaqchaq bo‘lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashi maqsadga muvofikdir. Konareyka xuddi shunday qushlardandir. Biroq imkon bo‘lsa, sa‘va, snegirni saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sut emizuvchilarni doimo saqlash mumkin emas.

O‘rta yosh guruh tabiat burchagi. O‘rta yosh guruxdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilma-xilligi, rangi, kattaligi, sathining xarakteri va shu kabilar) ko‘ra olish malakasi hosil qilinadi. Bolalar solishtirib ko‘rishning murakkabroq usullarini egallaydilar, narsalarning farqi va o‘xshashligini aniqlashni, ularni u yoki bu belgilariga ko‘ra umumlashirishni o‘rganadilar. O‘simlik va xayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. Bolalar o‘simliklarning xususiyatlarini aniq farqlashni boshlaydilar, ularning hayotlari uchun zarur bo‘lgan sharoitlari bilan tanishadilar. Shu bilan bolalar ko‘rganda taniydigan hamda nomlarini biladigan o‘simliklar soni ortib boradi.

организациях дошкольного образования, которое считается первым этапом непрерывного образования в нашей стране, и гарантировать его эффективность, а также обеспечить оказание услуг по приобретению начального понимания иностранного языка при подготовке детей к школьному обучению.

**Ключевые слова:** Обучение иностранному языку, Непрерывное образование, Лексика, Технология, Культура речи, Мультимедиа, Дидактическая игра, Методика преподавания иностранного языка.

**Annotation:** In this article, it is thought that it is necessary to further improve the technologies used in teaching a foreign language in pre-school education organizations, which is considered the first stage of continuous education in our country, and to guarantee its effectiveness, and to ensure the provision of services to acquire the initial understanding of a foreign language in preparing children for school education.

**Key words;** Foreign language teaching, Continuous education, Vocabulary, Technology, Speech culture, Multimedia, Didactic game, Foreign language teaching methodology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi ПК-3261 sonli qarori<sup>56</sup> ijrosini taminlash yuzasidan maktabgacha ta’lim sohasidagi ishlar sifati oshirilmoqda. Prezidentimizning bunday qaror va farmonlari maktabgacha talim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarni sifatli maktab talimga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, talim – tarbiya jarayoniga texnologiya va zamonaviy talim dasturlarni joriy etish kabi dolzarb masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan. Uzluksiz talim tizimida tillarni o‘rgatishga etibor oshirildi. Madaniyatlararo muloqot vositasi hisoblangan til o‘rganish maktabgacha talim tashkilotlaridanoq kuchaytirilmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda ingliz tili bo‘yicha o‘quv yakunlariga doir umume’tirof etilgan testlar topshirish faoliyati va tizimini tashkil qilish dolzarb vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilindi. Xalqaro e’tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarurligi belgilandi.

T.K. Sigal tomonidan yaratilgan “Audirovaniye dlya shkolnikov” (2014) deb nomlangan o‘quv qo‘llanma Elementary darajasidagi ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan. ETR Moskva shahridagi Ayris-press nashriyotida tayyorlangan bo‘lib, uning maqsadi - ingliz tilidagi matnlarni tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mazmunli ma‘lumotlarni ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish. Tinglash materiallari mashhur afsonalar va ertaklardan moslashtirilgan matnlarga asoslangan. Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun puxta ishlab chiqilgan mashqlar mavjud: Ushbu ETR 61,91 MB ni tashkil qiladi.<sup>57</sup> Dunyo mamlakatlari amaliyotiga qaraydigan bo‘lsak chet tillarini bolalarga ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qitishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Ispaniyadagi Mursiya universitetida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini qo‘shiqlar va ertaklar asosida o‘rgatish, Gretsiyadagi Ayenina universitetida axborot texnologiyalari vositasida, Erondagi Islamik Azad universitetlarida raqamli o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik bo‘lib, ushbu xorijiy tajribalarni o‘rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib boorish zaruriyatga aylanganligini ko‘rsatadi.

Respublikamiz talim tizimida o‘tkazilatotgan tub islohotlar ,chet tillarini birinchi sinfdan boshlab uzluksiz o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi, maktabgacha talim tashkilotlari moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy taminotining mustahkamlanishi, maktabgacha talim sifatini oshirish, bolalarga chet tillarni o‘qitishning interfaol metod va usullariga etibor kuchayganligi, „Ilk qadam“ tayanch dasturi va shu kabi qator meyoriy-huquqiy asoslarning yaratilishi maktabgacha talim sohasini to‘liq modernizatsiyalanishiga olib keldi. Bu Maktabgacha talim tashkilotlari uchun chet tillarini

<sup>56</sup> <https://lex.uz>.

<sup>57</sup> <https://moluch.ru/archive>.



xususan, ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, metodik qo'llanmalar yaratish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Bolalar uchun chet tillarini o'rganishning eng maqbul va oson o'zlashtirish davri maktabgacha bo'lgan davr bo'lib, kichik yoshdagi bolalarda til o'rganishning o'ziga xosligini tug'ma qobiliyat deyish mumkin. So'z-musiqqa-harakat horijiy tilni o'rgatishda bir butun yaxlitlikni tashkil etadi. So'zlarni qo'shiq qilib aytish va uning ohangiga mos holda ko'rsatib, so'zning nomini aytadi. Bolalarni talaffuzni jo'rlikda takrorlaydilar. Keyingi bosqichda o'yinchoq yoki rasmni berib, yangi so'zni aytishga undaydi. Bu faoliyat bir boladan ikkinchisiga zanjir kabi o'taveradi va qadama qadam o'stirib brogan holda amalga oshirib boriladi. Pedagog yangi so'zni o'rgatish jarayonida, har bir bolaning to'g'ri talaffuz qilishini ham kuzatib boradi. Mashq yakunida bolalar o'zlashtirilgan so'zlarni jo'rlikda takrorlaydilar. Kichik yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyat turi o'yin bo'lib, u shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatki, bu jarayonda bolaning barcha psixik jihatlari va bilish faoliyati rivojlanadi. O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita bo'lib, ayniqsa syujetli-rolli o'yinlar malum bir mavzuga oid so'zlarni o'zlashtirish va o'z fikrni mustaqil ravishda bayon etishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda so'z o'yinlari, didaktik, harakatli, musiqiy, syujetli-rolli, sahnalashtirilgan o'yinlardan foydalanish yaxshi samara berishini ko'rsatdi.<sup>58</sup> Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tilli mashg'ulotlarida yangicha innovatsion metod va usullardan foydalanish bolalarning chet tilli bo'yicha bilimlarini egallashga yengiliklar yaratadi. Bolalar uchun asosiy faoliyat turidan biri o'yin bo'lganligi uchun ham mashg'ulotlarda o'yin metodi ko'proq foydalaniladi. Charades o'yini. Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilari sust, zerikkan va uyqusini kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Ularni uyg'oting va harakatlantiring!

O'quvchilar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qilib qirg'ilgan qog'ozlarga so'zlar yozing. Fe'llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo'lsada hamma o'quvchilar biladigan so'zlardan foydalanishingiz mumkin.

Sinfni ikki jamoaga bo'ling. Va har bir jamoadan bir o'quvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi.<sup>59</sup> Ushbu o'yini bog'cha yoshidagi bolalarga moslab tashkil qilish kerak. Qog'ozlarga so'z o'rniga hayvonlar rasmini qo'yib, bolalarni taqlid qilishga o'rgatish mumkin. O'yin davomida hayvonlarning ingliz tilidagi nomini ham eslab qolishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://lex.uz>.
2. <https://moluch.ru/archive>.
3. Akbarova Shakhnoza Hikmatullaevna. Pedagogikafanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
4. [hasanboy.uz](https://hasanboy.uz). Ingliz tili darslarda qiziqarli o'yinlar.

<sup>58</sup> Akbarova Shakhnoza Hikmatullaevna. Pedagogikafanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

<sup>59</sup> [hasanboy.uz](https://hasanboy.uz). Ingliz tili darslarda qiziqarli o'yinlar.

## MAKTABGACHA TA'LIMNING RIVOJLANISH STRATEGIYASINING HUQUQIY ASOSLARI

*O'zbekiston, Inson huquqlari bo'yicha  
O'zbekiston Respublikasi milliy markazi  
mustaqil izlanuvchisi Sharapov Shuxrat Shokirovich*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasining huquqiy asoslari, mamlakatda ta'lim tizimining eng muhim qismlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'limni kengaytirish, sifatini oshirish va uni barcha uchun qulay qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasining huquqiy negizlari, amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusidagi yo'nalishlar haqida batafsil ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, rivojlantirish strategiyasi, huquqiy asoslar.

## ПРАВОВАЯ ОСНОВА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Узбекистан, Национальный центр  
Республики Узбекистан по правах человека  
самостоятельный соискатель Шарапов Шухрат Шокирович*

**Аннотация:** Правовая основа стратегии развития дошкольного образования в Узбекистане включает масштабные реформы, направленные на расширение дошкольного образования, которое является одной из важнейших частей системы образования страны, повышение его качества и обеспечение доступности для всех. В данной статье представлена подробная информация о правовых основах стратегии развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан, проводимых реформах и перспективных направлениях.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, стратегия развития, законодательная база.

## LEGAL BASIS OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF PRESCHOOL EDUCATION

*Uzbekistan, The National Center for Human Rights  
of the Republic of Uzbekistan  
independent researcher Sharapov Shukhrat Shokirovich*

**Abstract:** The legal basis of the strategy for the development of preschool education in Uzbekistan includes large-scale reforms aimed at expanding preschool education, which is one of the most important parts of the country's education system, improving its quality and making it accessible to all. This article provides detailed information about the legal foundations of the strategy for the development of the preschool education system of the Republic of Uzbekistan, the ongoing reforms and future directions.

**Key words:** Pre-school education, development strategy, legal framework.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimini, ayniqsa maktabgacha ta'limni, isloh qilish va modernizatsiya qilishga katta e'tibor berdi. Yangi O'zbekistonda ushbu jarayonlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bolalar tarbiyasida va ta'limida dastlabki qadam hisoblangan maktabgacha ta'lim, ularga kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun mustahkam poydevor quradi. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan.

**Huquqiy Asoslar**

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va qonunlari, jumladan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi. Konstitutsiyada har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlanadi, bu esa davlatning ta’lim tizimini, shu jumladan maktabgacha ta’limni rivojlantirish majburiyatini belgilab beradi.

Konstitutsiyaning 50-moddasida “...Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.”-deb belgilangan.[1]

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.

O‘zgartirilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonun maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga imkon beradi. Ushbu qonunlar maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, ta’lim dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. [2]

### **Rivojlanish Strategiyalari**

Ushbu islohotlarning markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

maktabgacha ta’lim sohasidagi me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta’minlash.[3]

### **Kelajak Yo‘nalishlari va Tavsiyalar**

Huquqiy asoslar va amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta’lim tizimini tubdan yangilashga qaratilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda hal qilinadigan masalalar ham mavjud. Kelajakda maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish muhim:

Huquqiy Asoslarni Takomillashtirish: Maktabgacha ta’lim sohasidagi qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borish va amaliyotdagi o‘zgarishlarni inobatga olish.

Sifat va Kirish Imkoniyatlarini Yaxshilash: Ta’lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish va maktabgacha ta’lim muassasalariga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

Xalqaro Hamkorlik: Maktabgacha ta’limni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.

Infrastrukturani Kengaytirish: Yangi maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish orqali bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga kirish imkoniyatlarini oshirish.

Sifatni Oshirish: Ta’lim dasturlarini yangilash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv materiallari va texnologiyalar bilan boyitish.

Inkluziv Ta’lim: Barcha bolalar, jumladan nogironligi bor bolalar va cheklangan imkoniyatlarga ega oilalarning farzandlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash.

Ota-onalar va Jamoatchilikni Jalb Qilish: Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda ota-onalar va jamoatchilikning ishtirokini faollashtirish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish strategiyasining huquqiy asoslari, mamlakatning ta’lim tizimini isloh qilish va bolalarni jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida tarbiyalashga qaratilgan sa’y-harakatlarini aks ettiradi. Davlatning bu boradagi intilishlari kelajak avlodning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor qurishga xizmat qiladi. Bu islohotlar va strategiyalar nafaqat maktabgacha ta’lim tizimini, balki butun ta’lim tizimini va jamiyatni ham yaxshilashga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BAHO MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasini  
o‘qituvchisi N.D.Nabiyeva  
O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi  
talabasi T. Murtozayeva*

**Annatsiya.** Har bir inson, shu jumladan bola ham doimiy ravishda tashqi dunyoni baholashni, o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantiradi va doimiy ravishda boshqa odamlarning baholariga ta’sir qiladi. Baholash insonning dunyo bilan, boshqa odamlar bilan, jamiyat bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilish uchun zarurdir.

**Kalit so‘zlar:** baho, taqqoslash, qiyoslash, kompetensiya, nutq, muloqot, qobiliyat

**Аннотация.** У каждого человека, в том числе и ребенка, постоянно формируется оценка внешнего мира, самооценка, постоянно находится под влиянием оценок других людей. Оценка необходима для организации взаимодействия человека с миром, с другими людьми, с обществом.

**Ключевые слова:** оценка, сравнение, сравнение, компетентность, речь, общение, способность.

Baholash nafaqat o‘quv faoliyatining tarkibiy qismi, balki atrofimizdagi dunyoni, o‘zimizni va boshqalarni baholash qobiliyatidir. Har bir inson, shu jumladan bola ham doimiy ravishda tashqi dunyoni baholashni, o‘z-o‘zini baholashni, aks ettiruvchi baholashni, nazorat baholashni shakllantiradi va doimiy ravishda boshqa odamlarning baholariga ta’sir qiladi. Baholash insonning ob’ektiv dunyo bilan, boshqa odamlar bilan, jamiyat bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilish uchun zarurdir. Baholar "to‘liq aks ettiradi va ular bilan birgalikda ko‘plab muhim shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradi: axloqiy, intellektual, hissiy, axloqiy-irodaviy, estetik" (Mnatsakyan). Baholash jarayonida tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalar shakllanadi, bolalar izchil nutq malakalarini egallaydi. Bu baholovchi bayonotni yaratish qobiliyatining muhimligini belgilaydi.

Maktabgacha yoshda bolaning fikrlashi rivojlanishning yangi bosqichiga kiradi. Faqat g‘oyalar doirasining ko‘payishi, nafaqat aqliy ufqlarning kengayishi, balki aqliy faoliyatning o‘zini qayta qurish ham mavjud.

Tarbiyaviy ish to‘g‘ri tashkil etilganda, bola qarama-qarshiliklarga tushib qolmasdan, kuzatilgan hodisalar va ular haqida fikr yuritish o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushuna boshlaydi.

Bu yoshdagi bola birinchi marta mantiqiy fikrlashning eng oddiy shakllarini rivojlantira boshlaydi.

Fikrlashning rivojlanishi yakka holda sodir bo‘lmaydi, bu bolaning hayotidagi umumiy o‘zgarishlar, uning atrofdagi voqelikka munosabati o‘zgarishi bilan bog‘liq. Rivojlanishning har bir bosqichida bolaning ruhiy xususiyatlarini shakllantirishda faoliyatning ma’lum bir turi ustun ahamiyatga ega. Atrofdagi voqelik hodisalariga amalda duch kelish, o‘ynash, kattalar va kattalar

bilan muloqot qilish, bola nafaqat individual bilimlarni egallaydi, balki uni ma'lum bir tarzda umumlashtirish va baholashni ham o'rganadi.

Olti-yetti yoshli bolalarni baholash va baholash bayonotini yaratishga o'rgatishning ahamiyati shundaki, baholash insonning ob'ektiv dunyo bilan, boshqa odamlar bilan, jamiyat bilan deyarli har qanday o'zaro ta'sir harakatini tashkil etishi uchun zarurdir. .

Ta'lim va nutq sharoitida baholash ayniqsa muhimdir: u murojaat qilingan shaxsni bilim va ko'nikmalarini oshirishga, mustaqillik va tanqidiylikni rivojlantirishga, o'z ishini o'z-o'zini baholashga undaydi, ya'ni. o'quvchini rag'batlantirish va yo'naltirish vositasidir. Bolaning hayotida baholashning ahamiyati uning baholash bayonotlarini yaratish qobiliyatini o'zlashtirish zarurligini belgilaydi.

Baholash bayonotini yaratishni o'rganish bosqichlarda sodir bo'ladi:

- baholash bayonotini yaratish uchun motivatsiya yaratish;
- bolalar nutqini baholashni ifodalashning lingvistik vositalari bilan boyitish va baholash va baholash bayonotlarining tuzilishi haqida tasavvurni shakllantirish;
- biror narsa yoki kimnidir baholash jarayonida baholash bayonini yaratish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish.

6-7 yoshli bolaning lug'atida baholovchi ma'noga ega bo'lgan lug'at kam miqdorda bo'lib, bolalar sabab-natija munosabatlariga ega bo'lgan murakkab jumladan foydalanadilar, matn haqida asosiy tushunchaga ega. Shu bilan birga, o'qituvchi ushbu turdagi matnlarni o'rgatish bo'yicha ishlarni tashkil etishda baho gapning mazmuniy qismlarini bog'lovchi rasmiy vositalar: qo'shma qo'shma gaplarga, kirish so'zlariga alohida e'tibor qaratishi zarur. Bolalarning baholash bayonotlarini tahlil qilish qo'shma gapning stereotipik ishlatilishini ko'rsatadi, chunki u ma'lum darajada muloqot jarayonida xuddi shu "Nima uchun?" Degan savolni qo'zg'atadi. Bayonotlar hajmi aloqa holatiga, mavzu va vazifalarning tabiatiga bog'liq. Argument qismlarini bog'lash uchun bolalar bog'lovchilardan foydalanadilar, chunki; nima uchun; Shuning uchun. Hatto maxsus tayyorgarliksiz ham, bolalar, agar kerak bo'lsa, fikrlash va baholash kabi bayonotlardan foydalanadilar. Bunday bayonotlarni yaratishdagi qiyinchiliklar ularning tarkibiy murakkabligi va bolalarning semantik qismlarni bog'lashning maxsus lingvistik vositalarini bilmasligi bilan bog'liq.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolaning baholash bayonotlari bevosita bolaning fikrlash rivojlanish darajasiga, xususan, og'zaki-mantiqiy fikrlashning boshlanishiga bog'liq; Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyati bu monolog turidan foydalana olmaslikdir, garchi uni o'zlashtirish uchun zarur shartlar mavjud bo'lsa ham.

Olti yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarni baholash bayonotini yaratishga o'rgatishda ikkita yo'nalish belgilanadi:

- ✓ bolalar nutqini baholashni ifodalash uchun ishlatiladigan til vositalari bilan boyitish;
- ✓ baholash bayonini tuzishni o'rganish.

Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarni baholash bayonnomasini yaratishga o'rgatish bo'yicha ish mazmuni. Ushbu ish jarayonida bolalar quyidagilar haqida g'oyalarga ega bo'ladi:

- ✓ baholashning og'zaki bo'lmagan va og'zaki (leksik) vositalari haqida;
- ✓ so'zlar yordamida baholovchi bayonotning asosiy g'oyasini ifodalash usullari haqida;
- ✓ fikrlash nutqning alohida turi sifatida va uning xilma-xilligi haqida - baholovchi bayon (uning nutqdagi vazifalari, tuzilishi, lingvistik xususiyatlari);
- ✓ baholash bayonotining tarkibiy qismlarini bog'lash vositalari haqida;
- ✓ baholash bayonotlarining turlari haqida (izoh, tanbeh, tasdiqlash);
- ✓ har xil turdagi baholash bayonotlarida qo'llaniladigan odob-axloq formulalari haqida;
- ✓ kommunikativ vaziyatga (so'zlashuv va ish nutqida) qarab baholovchi bayonotlarning stilistik farqlanishi haqida.

Baholash bayonotlarini yaratishga o'rgatish texnikasi bolalar nutqini rivojlantirish usullari bilan belgilanadi:

- Nutqni rivojlantirish darslarida kimnidir (biror narsani) baholashni talab qiladigan ta'lim va nutq vaziyatlarni yaratish.
- Ekskursiyalar va sayrlarda maxsus tashkil etilgan kuzatishlar, baholash bayonotini yaratishga undaydi.
- Baholovchi ma'noga ega bo'lgan so'zlardan sinonimik qator va antonimik juftlarni tuzish, ularni o'z baholash gaplaringizga kiritish.
- Berilgan turiga qarab gaplar, matnning tarkibiy qismlari, gaplar tuzish.
- Berilgan mavzu yoki ma'lum turdagi baholovchi ma'noga ega bo'lgan iboralar va jumalarni tuzish, ularni baholash bayonotlariga kiritish.
- Rasmlar, san'at asarlari uchun illyustratsiyalar, shu jumladan qiymat mulohazalari yoki baholash elementlari asosida hikoyalar tuzish.
- Fikrlash matnlari va baholash bayonotlarining namunalarini modellashtirish, natijada olingan modelga muvofiq o'z matnlaringizni yaratish.

Baholash jarayonida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalar shakllanadi; bolalar izchil nutq ko'nikmalarini egallaydi. Bu baholovchi bayonotni yaratish qobiliyatining muhimligini belgilaydi.

Hozirgi bosqichda bolalarni baholash va baholash bayonini yaratishga o'rgatish jarayoni faollik va amaliy o'rganish uslubiga ustunlik berilganligi sababli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday faoliyatni, shu jumladan o'quv va kognitiv faoliyatni baholashsiz tashkil etish mumkin emas, chunki baholash faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri, samaradorlik ko'rsatkichidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Alekseeva, M.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, 1999 yil.
2. Shuritenkova V. A., Bolalar baholovchi lug'atdan qanday foydalanishni bilishadimi?
3. Zaporozhets A.V., Maktabgacha yoshdagi fikrlashni rivojlantirish.

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA REFLEKSIV FAOLIYATLARINING AHAMIYATI**

*O'zbekiston, NamDU Maktabgacha ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi D.Xomidova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularni har tomonlama kamol toptirish, refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash haqida ma'lumotlar berilgan. Tabiat bolalarni tarbiyaviy va ma'naviy boyitishda muhim ekanligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiat, refleksiv faoliyat, atrof-muhit xossalari, oddiy izlanuvchanlik qobiliyati, oddiy tajribalar.

**Аннотация.** В данной статье дана информация о всестороннем развитии детей в дошкольных образовательных организациях путем ознакомления их с природой, совершенствования рефлексивных компетенций, качественной подготовки к школьному обучению. Указано, что природа играет важную роль в воспитательном и духовном обогащении детей.

**Ключевые слова:** природа, рефлексивная деятельность, свойства среды, простые поисковые способности, простые опыты и эксперименты.

**Annotation.** This article provides information about the comprehensive development of children in preschool educational organizations by introducing them to nature, improving reflexive competencies, and quality preparation for schooling. It is indicated that nature plays an important role in the educational and spiritual enrichment of children.

**Key words:** nature, reflexive activity, properties of the environment, simple search abilities, simple experiences and experiments.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda, kamol toptirishda eng samarali usullaridan biri ularni tabiat bilan tanishtirishdir. Tabiat bolani ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbai hisoblanadi. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yam-yashil o'tloqlar, anvoi gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, yomg'irdan keyin chiqadigan kamalakar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va ko'lmaklar, shuningdek tabiat hodisalari o'ziga jalb qiladi. O'simlik hamda hayvonotlarning xilma-xil olami, ularning xususiyatlari bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim vazifasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo'lmaganda ilk bilimlarni egallab olib, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdiridagina ularda tabiatga nisbatan g'amxo'rlik va ehtiyotkona munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Bolalarda tabiatga jonajon o'lka, ona-Vatanga muhabbat huddi mana shu asosda shakllanadi, ularning refleksiv faoliyatlari orqali tabiat haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Bolalar bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayr yoki ekskursiya uyushtirilganda bolalarning oldingi olgan bilimlari takrorlanadi, mustahkamlanadi.

Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida murg'ak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan joriy etilgan O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari", "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida berilgan yillik mavzuviy reja asosida oy mavzulari va hafta mavzulariga asoslanib, O'zbekistonning o'ziga xos etnik xususiyatlari, geografik iqlimi, tabiiy xususiyatlari o'rin olgan hamda amaliyotda erishilgan yutuqlar asosida ta'lim-tarbiya haqida nazariy g'oyalar berilgan.

Bolalarni tabiat qonun-qoidalarini bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning refleksiv kompetensiyalarini shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish barchamizning ishimiz ekanligini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi. Tabiat rang-barang, uning imkoniyatlari ham cheksiz. Bo'lajak tarbiyachilar ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishi, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida oqilona foydalanishi kerak.

Bolalar tabiat hodisalarini to'g'ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo'naltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatli hal etib bo'lmaydi.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning

ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi. Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko'rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish zarur.

Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishtirishdagi mustaqilligini, fikr doirasini oshirishda va o'ta faol bo'lishini ta'minlaydi. Bolalar tabiat unsurlari haqidagi bilimlari asosida oddiy tajribalar o'tkazishga qiziqishadi. Izlanuvchanlik qobiliyati bolalarga tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo'lish sabablarini bilishga, shu bilan birga maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi barcha faoliyatlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlari bilan bog'liq. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan oshno qilish, ularni izlanuvchanlikka o'rgatish, qiziqitira olish, maktabgacha tashkiloti hovlisida alohida tabiat zonasini yoki xonasini tashkil etish muhim masalalardan biridir. Bu bolalarni MTTga jalb qilish, ularni tabiat haqidagi bilimlarini, refleksiv faoliyatlarini takomillashtirishga, maktab ta'limiga tayyorlashga, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, ekologik tarbiyani rivojlantirishga hizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djanpeisova G.E., Rasulxo'jaeva Tabiat bilan tanishtirish. T.; Innovatsiya Ziyo. 2020.
2. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013.
3. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
4. Rasulxo'jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ahloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2020
4. Bukin A.P. Odamlar va tabiat bilan do'stlikda. -M.: Prosveshchenie, 1991.
5. Gorbunova, G.A. Maktabgacha ta'lim chilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish / Gorbunova G.A. // Maktabgacha pedagogika. - 2005.
6. Nikolaeva, S. N. Maktabgacha ta'limning ekologik ta'limi / Nikolaeva, S. N. // Pedagogika. - 2007.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA REFLEKSIV FAOLIYAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi  
N.D. Nabiyeva*

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
K.U. Muminova*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari pedagogik tahlil, metodologik manbalar hamda misollar keltirish asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Bola, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, faoliyat, refleksiya, bilim, pedagog, shaxs, qobiliyat, refleksiv jarayonlar.

**Аннотация.** В статье на основе педагогического анализа, методических источников и приведенных примеров выделены педагогические основы формирования исследовательских знаний и рефлексивных способностей у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова.** Ребенок, мировоззрение, логическое мышление, деятельность, размышление, знания, педагог, личность, способности, рефлексивные процессы.



Mustaqil faoliyat – maktabgacha yosh davrida shakllantirilishi zarur bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bolalarni erta yosh bosqichlaridan mustaqillikka o‘rgatish ularni kelajakda o‘z fikriga ega, o‘ziga nisbatan mustahkam ishonchga ega inson bo‘lib voyaga yetishlarini ta‘minlaydi. “Bola katta bo‘lgan sari bilim egallashi murakkabroq kechadi” degan edi Aleksandr Kulich.[1] Ushbu fikr mohiyati shundaki, bolalar katta bo‘lganlari sayin tushunchalarning umumiy jihatlarini o‘rganishlari talab qilina boshlaydi. Ular kichik yoshlik davrida mazkur tushunchalarning tarkibiy jihatlarini anglamaganliklari uchun ular maktabda o‘rganiladigan bilimlar mazmunini yaxshi anglab yetmaydilar.

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” dasturi bola tarbiyasida kompetensiyaviy yondashuvni talab qiladi. Dasturda kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmui deya ta‘rif beriladi. Boladagi umumiy va rivojlanish sohalari kompetensiyalar uning keyingi yosh bosqichlarda ijtimoiylashgan va o‘z mustaqil fikriga ega shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlaydi. Dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalaridan biri bilish jarayonining rivojlanishi bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: - Intellektual bilish malakalari; - Elementar matematik malakalar; - Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat[2] Mazkur bo‘limlar bolaning bilishga nisbatan munosabati va layoqatini aniqlashga xizmat qiladi. Intellektual qobiliyatlar bolaning aqliy salohiyati, uning mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini ko‘rsatsa, elementar matematik malakalar bolaning savodxonlik ko‘nikmalarini egallaganligini ko‘rsatadi. Ammo tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyat ko‘pincha pedagoglar nazaridan chetda qolmoqda.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari”da refleksiv faoliyat – bolada o‘z tushunchalari va hatti harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanish jarayoni – deb ta‘riflangan.[3] Mazkur faoliyat turini shakllanishida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida har bir yosh guruhida tashkil etilgan faoliyat markazlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tadqiqotchilik va refleksiv qobiliyatni rivojlanishida “Ilm-fan va tabiat” markazi asosiy muhim vazifani bajaradi. Chunki bu markazda bolalar kichik tadqiqotlar olib borish natijasida atrof-muhitdagi hodisalar, buyumlar xususiyatlari, ularning paydo bo‘lish sabablarini anglab yetadilar.

Tajribalar davomida bolada shaxsiy xulosalar va fikrlar yuzaga keladi va uning dunyoqarashi kengayib boradi Tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta‘kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir jihatlar, ya‘ni bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ularning kognitiv amal qilish, ijtimoiy va hissiy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalarini tajribada sinab ko‘rish xohish-istaklariga qaratilgandir.

Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e‘tibor berish avtomatik tarzda faollashadi.[4] Tadqiqiy bilish shunday jarayonki, bunda bola bilishga hech qanday undovlarsiz, hech qanday majburlovsiz yondashadi. Bu yerda yagona maqsad aqlga gavdalangan mavhumlikni aniqlashtirishdir. Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) faqat sub‘ektning o‘z ruhiy holatini o‘ylashi, bilishi va tushunishi, fikr yuritishi va uni tahlil qilishga moyilligi bilan bir qatorda, boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tahlillarini tushunishini aniqlab olishidir.[5] shundan kelib chiqqan holda bolalarda refleksiya - o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlari, fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, bilish amaliyot jarayonida o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan faoliyatining nazariy shakli – deyish mumkin.

Refleksiv jarayonlarga bolaning hatti-harakatlarini videokameralarga olishi va takroriy aks etishida o‘z fikri harakatlari va holatlarini tahlil qilishda tashqaridan nazar solishi, o‘zining faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash va tahlil qilib kelgusi hayotida bartaraf qila olishini misol sifatida keltirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobova F., Nabixonova Sh., Yo‘ldosheva G., Rahimova Z., Demina N. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim., (Trener uchun qo‘llanma), Toshkent – 2009, 10 b.

2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixonova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E., Isxakova M.R., “Ilk qadam” (Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturi), Toshkent – 2018 yil, 62, 63, 64 betlar.

3. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari” 1-mh-son., Toshkent., 2018 yil 18 iyun.

4. Ahmedova H., Rahimova D tarjimasida “Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturini tashkil etish”, Toshkent – 2012 y., 11 b.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY TASAVVURI VA TASVIRIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti  
Azimova Musharraf Utkirovna*

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi  
Baxriddinova Dilbar Anvar qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvuriva tasviriy faoliyatini rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijodiyot, tasviriy faoliyat, rang, o‘yin, ertak, estetik tarbiya, tuzli xamir.

**Annotation.** This article examines the ways of developing creative imagination and visual activity of preschoolers.

**Keywords:** Creativity, fine activity, color, play, fairy tale, aesthetic education, salty dough.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются пути развития творческой фантазии и изобразительной деятельности дошкольников.

**Ключевые слова:** Творчество, изобразительная деятельность, цвет, игра, сказка, эстетическое воспитание, соленое тесто.

Bola tabiatan sinchkov tadqiqotchi, olamning ixtirochisi. Shunday ekan ular qarshisida ajoyib dunyo yorqin ranglarda, yorqin va xayajonli ovozda, ertaklarda hamda o‘yinlarda, shaxsiy ijodda, odamlarga egulik ulashuvchi xolatda namoyon bo‘lsin. Ertak, fantaziya, o‘yin orqali, bundan tashqari bolaning takrorlanmas ijodi orqali bolaning qalbiga to‘g‘ri yetib boriladi.

*V.A.Suxomilinskiy*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim tarbiyaning mohiti mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha tarbiya tizimida xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Maktabgacha bo‘lgan yoshda bolada har tomonlama uyg‘un rivojlanish kuzatiladi. Psixologlar va pedagoglar shunday xulosaga kelishdiki, maktabgacha yoshdagi bolada ijodga bo‘lgan layoqatni erta rivojlantirish kelajagidagi omadga qo‘yilgan garovdir. Estetik tarbiya – bu davomli hamda murakkab jarayon bo‘lib, bunda bolalar san‘atga bo‘lgan ilk taassurotlarini xosil qiladilar, ijodiyot bilan to‘qnashadilar, ijodiy faoliyatning turlari bilan shug‘ullanadilar. Bundan ijod faoliyat turlari orasida tasviriy san‘at, ganch, applikatsiya, loyixalash yetakchi o‘rinni egallaydi. Erta yoshdan bolada ajoyibot xissi, estetik zavq rivojlanishi muxim, san‘at asarlarini, ona tabiyatning go‘zalliklarini tushunish hamda baxolay olishi lozim. Bu esa o‘z navbatida xar tomonlama rivojlangan boy ruxiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Tasviriy faoliyat bolalar uchun qiziqarli va jozibadordir, bunda qalam, bo‘yoq, plastilin, loy bo‘lagi yoki qog‘oz parchasi orqali bola atrofdagi xodisa 30 xaqiqatlar xaqidagi o‘z ta’ssurotini yetkazib bera oladi. Bu jarayon unda xursandchilik va ajablanish xissini uyg‘otadi. “Ijodiyot” tushunchasi bu - yakunida bola yangi, takrorlanmas, o‘z xayolotini ishga solgan holda orzu

niyatlarini shuning vositasida amalga oshirsa bo'ladigan jarayon sifatida qaraladi. Ijod qilish istagi – bolaning ichki extiyoji bo'lib u mustaqil yuzaga chiqadi va samimiyligi bilan ajralib turadi.

Mualliflik ishlarini ko'rib chiqar ekanmiz, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda tasviriy faoliyatga noan'anaviy yondashuvni tadbqiq etish imkoniyati bilan qiziqdik. Noan'anaviy tasvirlash texnikasi jixoz va asboblarning noodatiy birlashuvini namoyish qiladi. Ularning bajarilish texnikasi kattalar kabi bolalar uchun xam birdek qiziqarli va oson. Bolalarni yassi qog'oz bo'lagi bilan rasm chizishga, xavo oqimini puflashga, qattiq mo'yqalam bilan nam fonda chizishga, matoga chizishga, g'ijimlangan qog'oz bo'laginiing izi bilan chizishga o'rgatish mumkin. Turli materiallardan foydalanganda erkin tanlov yuzaga keladi bu esa ijodiy faoliyatda muximdir. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlari bolalarda ma'lum sifatlarni rivojlantiradi. Ganch bilan ishlashda bola buyumning xajmini o'rganadi, bo'laklari bilan ishlaganda ikki qo'llab ishlash ko'nikmasi paydo bo'ladi, xarakatlarini muvofiqlashtirishni o'rganadi, qo'llarning mayda muskullari faol ravishda rivojlanadi bu esa o'z navbatida tafakkurni, ko'z bilan chamalashni, makonga oid fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalarga plastilin yasash yoki u yordamida tasvirni tasvirlash texnikasini taklif qilish mumkin. Bunda faqat karton qog'ozgagina chizilmaydi. Agar bunda organik oynadan foydalanilsa tasvir xaqiqiydek bo'lib chiqadi. Tuzli xamirdan buyumlar tayyorlash texnikasi plastilin va loydan yasash texnikasi bilan bir hil lekin bunda xomashyoni bolalar o'z qo'llari bilan suv va undan tayyorlashadi. Tuzli xamirdan turli bumlar va tasvirlarni paydo qilishda foydalansa bo'ladi. "Applikatsiya" tushunchasi turli materiallardan ularning xususiyati hamda o'ziga xosligiga ko'ra foydalangan holda san'at asarini yaratishni anglatadi. Ular: 31 qog'oz, somon, quritilgan o'simliklardir. Bunda po'stloqlar fonga turli yelimlar yordamida yopishtiriladi; mato, charm va jun tikiladi; terakning pari, paxta duxoba matoga yelimsiz birlashtiriladi. Bolalar uchun tabiat ashyolari bilan ishlash qiziqarlidir, o'simliklardan, somondan, paxtadan, pista po'chog'i va boshqa po'stloqlardan applikatsiya yasash, qarag'ay g'o'ddasidan xajmli buyumlar yaratish jarayoni bolalarda ijodkorlikni rivojlantiradi.

Keraksiz buyumlar bilan ishlashda: polivinil plenkalardan, yupqa plastmass, qadoqlash qutilaridan foydalaniladi. Mato va shunga o'xshash materiallardan matodan va iplarni bo'laklab applikatsiyalar yaratish mumkin. Bundan tashqari, katta yoshdagi bolalar kollaj, qog'ozli plastika, origami va boshqa shunga o'xshash tasviriy ijod faoliyatida qatnashishlari mumkin. O'z qo'li, mehnati bilan yaratilgan buyum o'z mexnati natijasi, uning go'zalligidan lazzatlanish xissini, badiiy didni, zamon va makon tafakkurini, fantaziyasini, qo'l motorikasini hamda bilishni rivojlantiradi. Tasviriy san'atda, ganch va applikatsiya ishlarida ijodkorlikni shakllantirishda badiiy so'z, musiqa, tasviriy san'atning o'zaro ta'siri muxim rol o'ynaydi. Bolani ijod dunyosiga qiziqtirish orqali biz unda mexnatsevarlikni, sabrni, badiiy didni, tasavvurni, fikrlashni, dunyoga ijobiy yondoshgan holda qarashini shakllantiramiz. Bularning barchasi bolani maktabga tayyorlaydi, o'quv faoliyatiga ko'nikma xosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xayotiy zarur elementar bilimlarni egallaydilar, turli materiallar, ya'ni qog'oz, karton, iplar, kleenka, plastilin, tuzli xamir va boshqalarda qo'l mexnati bilan ishlash ko'nikmasi va maishiy buyumlarni dizayni elementlarini o'rganadilar. Bolalar badiiy obraz yaratishda uni nimadan xosil qilishni o'zlari mustaqil hal qiladilar. Individual o'ziga xoslikdan kelib chiqqan holda kommunikativ qobiliyatlar barcha bolalarda birdek rivojlangan bo'lmaydi, shunga ko'ra men mashg'ulotlar davomida har bir bolaga aktiv qatnashishi, o'ziga, kuchiga ishonishi uchun sharoit yaratib beraman.

Tasviriy san'atning noan'anaviy texnikasi jixozlar materiallarning o'zaro noodatiy uyg'unligini namoyish qiladi. Shubxasiz bunday texnika ularning universalligi qimmatini ta'minlab beradi. Ularning bajarilish texnikasi kattalar kabi bolalarga xam qiziqarli xam yengildir. Bolalar ijodkorligini rivojlantirish muammosi xozirgi kunda xam nazariy xam amaliy doirada muximdir. Bunda asosiy masala shaxs rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq unga kerakli imkoniyat va sharoitni yaratib beradi.

Shunday qilib, turli sharoitlarda o'z bilimlarini va maxoratini ko'rsata oladigan ijodkor shaxs tarbiyalanadi. Noa'naviy texnika bilan tasvir yaratish qiziqarli va o'ziga maxliyo etuvchi

faoliyatdir. Bu bolalarga o‘ylashga, sinab ko‘rishga, izlash, tajriba orttirish va eng muximi o‘z – o‘zini namoyon qilishga katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595 - sonli qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori - “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”
3. [Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta’lim berishning o‘ziga hosligi \(azkurs.org\)](http://Maktabgacha.yoshidagi.bolalarga.ta'lim.berishning.o'ziga.hosligi.azkurs.org)
4. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi  
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi,  
O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi  
Suyarova Nafosat Usar qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda muloqotning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muhim kompetensiyalarida asosida 5ta muhim rivojlantiruvchi sohasida nutq, muloqot asosiy o‘rinni egallaydi. Bu “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yilgan Davlat talablari”da o‘z aksini topgan va belgilab qo‘yilgan.

**Abstract:** This article discusses the role and importance of communication in the development of preschool children's speech. Based on the important competencies of preschool children, speech and communication occupy the main place in 5 important developmental areas. This is reflected and determined in the "State requirements for children of primary and preschool age".

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение общения в развитии речи детей дошкольного возраста. Исходя из важных компетенций дошкольников, речь и общение занимают главное место в 5 важных областях развития. Это отражено и определено в «Государственных требованиях к детям младшего и дошкольного возраста».

**Kalit so‘zlar:** nutq, muloqot, bola shaxsi, kompetensiya, rivojlanish, muhit.

**Key words:** speech, communication, child personality, competence, development, environment.

**Ключевые слова:** речь, общение, личность ребенка, компетентность, развитие, среда.

O‘sib kenlayotgan bola shaxsining shakllanishi uning axloqi, madaniyati, odobi, xulqi, insoniylik sifat va fazilatlari muloqoti bilan belgilanadi. Bolada shakllanadigan nutq madaniyati madaniy, aqliy, xuquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi va o‘z aksini topadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida bola shaxsining madaniyatlilik darajasi va ko‘rsatkichlari hamda ulardagi shaxsiy sifat va fazilatlarni kamol topishiga, kelajakda yetuk inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini egallashiga imkoniyat yaratadi.

Nutq deganda biz faqatgina ravon so‘zlashni emas, balki chiroyli, emotsiyalar bilan so‘zlashni inobatga olishimiz kerak. Shu bilan birgalikda, odob doirasida, madaniyatli muloqot qilishni ham o‘rganishimiz va o‘rgatishimiz lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham nutq - bu inson psixik komolotining, shaxs sifatida shakllanishini, o‘z ichki kechinmalarini aks ettirishning eng qudratli omili hisoblanadi.

Jadid marifatparvarlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiyning shunday so‘zlari bor: “ Avval biz musulmon bo‘laylik, o‘z o‘zbek tilimizni bilaylik, ana undan keyin ikkita emas, to‘rtta tilni o‘rganaylik.” Bu til o‘rganishga nisbatan sharqona qarashning namunasi bo‘lsa, g‘arbda ham til o‘rganishga nisbatan bir qancha fikrlar mavjud. Y.I. Tixeyeva o‘zining ilmiy qarashlarida, bolalarni

o'qitishda dastlab o'z ona tilisini o'rgatish, uni mukammal o'zlashtirishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Nutq bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilar: L.P.Gedorenko va G.A.Fomichevlar quydagi fikrlarni bildiradilar...."Bolani nutqqa o'rgatish ya'ni unga til materialini ( nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar ( intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida ( ehtirom va tuyg'ularni mashq qildirish) borliqni baholashni va ifodalashni o'rgatish, adabiy me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir" deb eng muhim g'oyalarni ilgari suradi. Unga ko'ra bola maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishda tayyorlashimiz uchun ularga ona tilimizning barcha boyliklarini egallab olishga kerakli sharoitlarni yaratishimiz zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bu bolalarning o'z xalqi badiiy tilini o'zgartirishlari natijasida ularning to'g'ri va aniq og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish- bu eng murakkab psixologik jarayon hisoblanib, u faqat bolaning o'zi eshitgan nutqiga taqlid qila olishidan iborat emas. Bu jarayon nafaqat bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish balki, ularni muloqotga bo'lgan ehtiyojini ham oshirishga xizmat qiladi. Bolaning tevarak-atrofnii, borliqni anglashi, uni o'z tasavvurida hosil qila olishi, olamni, odamlarni, ularning ijtimoiy munosabatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yangi muloqot vositalariga ehtiyojlarni ketirib chiqaradi. Shunday ekan bola nutqini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini, his-tuyg'ularini yanada kengroq, aniqroq va xilma-xil ifodalashlari uchun maktabgacha yoshdanoq zamin yaratishimiz zarurdir.

Bola nutqini zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar va tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik hamda muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini yanada boyitishimiz zarur. Bola nutqni egallab olishining asosiy sababi bu uning muloqot faoliyatlarini asosini ehtiyoj va motivatsiya tashkel qilishi ya'ni bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji qancha baland bo'lsa, uning nutqi ham yaxshi shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi nihoyatda muhim o'rinni egallaydi. Bunda tarbiyachi-pedagog bolalarning ota-onasi bilan muloqotda bo'lishi kerak. Pedagog bolaning psixologik va fizologik holatini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishi lozimdir. Avvalambor, tarbiyachi bola bilan do'stona munosabatda bo'lishi, uning ehtiyoji nimada ekanligini bilishi kerak. Bolani psixologiyasi va fizologiyasini o'rganib bo'lgach metodlardan foydalangan holda bolaning nutqidagi nuqsonini yo'qotishga kirishadi, uni so'zlashga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, o'yin davomida bolani to'g'ri talaffuzga tiniq gapirishga, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri va aniq qurishga o'rgatish lozim bo'ladi. Shu sababli tarbiyachi adabiy tilda gapirishi, shevaga oid so'zlardan foydalanmasligi, muloqot jarayonida bolalarni o'ziga jalb qila olishi, ovoz tonidan yetarli darajada foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari bolalarda o'z-o'zi bilan tengdoshlari bilan muloqot jarayonida ham nutqi shakllanib boradi. Bu jarayonda ular ancha erkinroq va aniqroq harakat qiladi. Shuning uchun ham bolalar bilan muloqot jarayonida kattalar xushmuomala bo'lishlari ularning bergan savollariga trio aniq va ishonarli javob berishlari va eng asosiysi tez-tez rag'batlantirib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Bola tug'ilgandan so'ng, ona o'z mehrini alla ohanglariga tushirib, bolasini allalaydi, ovutadi, butun dil isxorlarini o'z allasi orqali namoyon qiladi. Bola alla orqali birinchi navbatda onasini muhabbatini, mehrini sezadi, tovushlar va kuy bilan tanishadi, orom olib yotadi. Alla bolada nutqning tezroq vujudga kelishiga yordam beradi. Psixolog olimlarning fikricha, bolani besh-oylikdan boshlab nutqni tushunishga o'rgata boshlash kerak. Buning uchun bolaga, biror predmetni nomini bir necha marta aytib, takror takror eslatish kerak. Bu holat bir necha marotaba takrorlangach, keyingi safar shu predmetni ko'zi bilan qidira boshlaydi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshlashini bildiradi. Bola nutqini shakllantirishda nafaqat muloqot qilish balki, ularda sensor motorikani shakllantirish ham, samarali natija beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini shakllantirishda muloqot juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa ularda diologik nutq ya'ni tengdoshlar bilan muloqot maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatining rivojlanishiga katta ta'sir qiladi: u o'z harakatlarini

boshqa bolalarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi. O'yinlarda va haqiqiy hayotda, o'rtoqlar bilan muloqotda, bolalar kattalar munosabatlarini takrorlaydilar va o'z faoliyatlarida amalda qo'llashni o'rganadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-sonli qonuni 2019-yil, 16-dekabr.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida. O'RVM 802 - son qarori, 22.12.2020 yil.
3. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Darslik. Barkamol fayz media. 2018 yil.
4. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Darslik. Shafoat nur fayz. 2020 y.
5. X.A. Meliyev, O. Jamoliddinova, "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" T.: Zarvara nashryoti, 2021 yil.
6. F. Qodirova, "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 yil.
7. M. Asqarova "Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" T: "O'zbekiston" 2021.
8. R.M. Qodirova Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. - Sariog'och. 2017 y.

### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ESTETIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi  
Sharipova Nilufar Raufovna,  
Maktabgacha kechki ta'lim yonalishi 4-kurs talabasi  
Ochilova Bahora Ibodulla qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodga estetik tarbiya berish yo'llari, estetik tarbiya berish imkoniyatlari haqida fikr bayon qilingan

**Kalit so'z:** tarbiya, estetik, axloqiy tarbiya, g'oyaviy tarbiya siyosiy tarbiya, odob-axloqi

**Аннотация:** В статье изложено мнение о способах эстетического воспитания подрастающего поколения, о возможностях эстетического воспитания

**Ключевое слово:** воспитание. эстетическое, нравственное воспитание, идеологическое воспитание политическое воспитание, этика

**Annotation:** the article describes the ways of providing aesthetic education to the younger generation, the possibilities of providing aesthetic education

**Keyword:** upbringing. aesthetic, moral education, ideological education political education, etiquette

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi jahonning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishi—yuqori intellektual salohiyatli, qalbga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq bo'lib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sidqidildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafligini, mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala—bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim, albatta, yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin.

Lekin ayni paytda, o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. "Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [1], deya ta'kidlagan prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev.

Estetik tarbiya–insonning voqelikdagi va san’atdagi go‘zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o‘stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya’ni go‘zallik qonuni bo‘yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi-jamiyat a’zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go‘zallikni to‘laqonli his etishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san’at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko‘rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, turmush va texnika, sport va milliy urf-odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir. Estetik tarbiyani to‘la amalga oshirmay turib axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning asosiy ma’nosi va vazifasi kishilardan dunyo go‘zalligi to‘g‘risida his-tuyg‘ular, tassavur va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat.

Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda san’at asarlarida go‘zallikni ko‘ra bilish, uni to‘g‘ri tushinish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go‘zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va san’atda bema’nilikka, xunuklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab san’atda o‘zining ijodiy kamolotini ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo‘lgan go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go‘zallik uchun kurashga o‘rgatishdan iborat. Ta’lim tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvurlariga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta’kidlash lozimki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqorolarni har tomonlama rivojlanishiga, “rux va badan” hamohangligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi.

Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta’limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo‘lgani holda umumiylik ham mavjud bo‘lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona ahloqiy xulq-atvor va fuqorolik xislat- fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Bugungi kunda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omili ortib bormoqda, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko‘rsatayotgan insonlarning ezgu hislatlari, fazilatlarini, ongliligi, faolligi, ijodiy qobiliyatlari o‘smoqda.

Ikkinchidan, O‘zbekiston aholisining ko‘pchiligining umumiy madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashtirib boryapti.

Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyotining keng o‘rin egallab borayotganligi, qonunchilikning yanada rivojlanib amal qilinayotganligi, fuqorolarning umumiy madaniyati, ayniqsa, estetik madaniyati darajasining yuksalib borishini taqozo etmoqda.

To‘rtinchidan, hozirgi davr ilmiy texnika inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib beryapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo‘lgan odamlarning ruhiy holatining ham tubdan o‘zgarishini, ijtimoiy ruhiy, ahloqiy estetik saviyasini oshirishni taqozo etmoqda.

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, “oynai jahon“ kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o‘rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiyaga yanada ko‘proq e’tibor berishni talab etmoqda[3].

Avvallari estetik tarbiya o‘ta tor va bir tomonlama talqin qilinadi, ya’ni uni san’at asarlarini to‘g‘ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san’at turini bilib olib, muayyan badiiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish doirasida in’ikos etilar edi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad yo‘nalishlarini to‘la ifodalaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san’at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qaramaqarshi qo‘yish ham xato bo‘ladi. Shuni esda tutish lozimki, estetik tarbiya san’at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning ahloqiy tarbiyaga ta’siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg‘arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o‘z ifodasini topadi.

Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog‘liqligi esa tabiatga beg‘araz, insoniy munosabatda bo‘lishida, jamiyat bilan tabiat o‘rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi[4].

Shunday qilib, estetik tarbiya–bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo‘lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo‘lgan inson shaxsini shakllantirishga mo‘ljallangan ta’lim-tarbiya sohasidir.

San’at estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a’zolarini, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did-farosat va estetik talab-ehtiyojlari rivojlangan bo‘lishi zarur.

Bolalarni ma’naviy tomondan tarbiyalashda musiqaning ham roli katta. Musiqa turmushimizga chuqur kirib kelgan, u har qadamda bizga hamroh. Oila musiqa vositasida bola tarbiyasida ko‘p narsalarga erishish mumkin.

Bog‘chada o‘tkaziladigan har bir tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari estetik tarbiya vositalaridan biri bo‘lib, bolalarni aqliy rivojlantirish, estetik va badiiy didni tarbiyalash ijodiy qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

Rasmlar, loy va plastinkadan turli buyumlar yasash qirqib yopishtirish va qurib-yasash mashg‘ulotlarini bog‘cha yoshidagi bolalarning eng sevimli faoliyatlaridan biri. Tasviriy faoliyat dasturiga bezakli rasmlar ishlash, loy va plastilin, qirqib yopishtirish bo‘yicha milliy badiiy an’analar, naqsh kompozitsiyasini tuzish, o‘zbek xalk amaliy san’ati asarlari bilan tanishtirish kiritilgan. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida sopol buyumlar, xalq o‘yinchoqlari, o‘simliklar, gullar, bog‘lar, mevalar, paxta kabi narsalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama–ham aqlan, ham jismonan barkamol, ahloqan yetuk, ma’naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar:

1.Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2.Sh.M.Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –T., 2016.

3.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T., 2018.

4.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. Maktabgacha ta’limning me’yoriy asoslari. –T.: Ma’naviyat, 2013.

5.O.U.Hasanboeva va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. –T.: Ilm ziyo, 2006.



# RIVOJLANTIRUVCHI O‘YIN MUHITIDA MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALARNING REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH -IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

O‘zbekiston, NamDPI mustaqil izlanuvchisi  
I.S.Raxmonova

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada refleksiya so‘zining mazmun va mohiyati, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o‘yin muhitini yaratish asosida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Refleksiya, rivojlantiruvchi muhit, o‘yin, ta‘lim, mashg‘ulot, faoliyat, o‘yin turlari...

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение и сущность слова «рефлексия», формирование рефлексивных умений детей дошкольного возраста на основе создания развивающей игровой среды в дошкольных образовательных организациях.

**Ключевые слова.** Рефлексия, развивающая среда, игра, обучение, деятельность, виды игр...

**Annotation.** This article discusses the meaning and essence of the word reflection, the formation of reflexive skills of children of preschool age based on the creation of a developing game environment in preschool educational organizations.

**Key words.** Reflection, developmental environment, game, education, training, activity, types of games...

Mamlakatimizda ta‘lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta‘limda bolalarning ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilib, komil inson qilib tarbiyalash masalalari “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”da ta‘kidlanganidek, «maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; maktabgacha ta‘lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish»[1] masalalari ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. Shu asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning didaktik ta‘minotini ishlab chiqish, pedagogik mexanizmlarini yaratish, o‘yin texnologiyalarining bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish orqali bilim darajasi va intellektual salohiyatini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning Davlat standarti va amaldagi Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi va “Ilm yo‘li” variativ dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar egallashi lozim bo‘lgan talablar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, ma‘lumotlarni kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Shu bilan birga bu bosqich maktabgacha yoshdagi bolalarining ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilib, unda faqatgina ijodiy qobiliyatlarga emas, balki o‘z-o‘ziga, o‘z mehnatiga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman o‘ziga xos ijodiy munosabatni shakllantirishga erishish nazarda tutilgan. Bu jarayonda esa, maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni yuzaga keltirish muhim hisoblanadi. Shunday ekan avvalo **Refleksiya** so‘zini izohlab o‘tamiz.

**Refleksiya**-so‘zi (lot. reflexio—ortga qaytish, aks etish) ya‘ni, bolalarning o‘rganilayotgan bilimlarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyatning alohida bir shakli bo‘lib, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zining shaxsiy harakatlari va ruhiy xolati haqida o‘ylash, hayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi[3;63-b].

Refleksiya - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari va ularning qonunlarini anglashga qaratilib, inson ma‘naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislarini ochib beribgina qolmay o‘z-o‘zini bilishga va anglashga yordam beradi. Ilk bor “refleksiya” tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari

haqida fikr yuritish jarayoni o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishiga e'tiborini jalb qilishini anglatgan. Dekart, Sokrat, Platon, va boshqa yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'zini-o'zi bilishiga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanini ta'kidlashgan. Lokk, Kant, Gegel, Fikste, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiya insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaraganlar. Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya-psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andragogika, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmoqda. Jumladan, pedagog olim V.A.Slastenin fikricha, refleksiya insonning o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olishidir [4: 88-b]

I.N.Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan refleksiya esa quyidagi turlarga ajratilgan [5:139-b.] (1-rasmga qarang)



### 1-rasm. Refleksiya turlari

Yuqorida keltirib o'tilgan refleksiya turlarini izohlab o'tamiz:

Intellectual refleksiya-muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

Shaxsiy refleksiya- nizoli (konfliktlar) ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

Kommunikativ refleksiya-muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

Kooperativ refleksiya-jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sanaladi.

Bizning fikrimizcha, reflektiv ko'nikmalar ta'lim jarayonida bolaning mustaqil bilim olishi natijasida shakllanib, chuqur o'ylangan bilish harakatlarining mahsuli sifatida namoyon bo'lishini inobatga olib, bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishda mashg'ulotlararo aloqadorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishda ularning ma'naviy dunyoqarashlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarur. Mazkur jarayonlarda qo'llaniladigan o'yinlarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra to'g'ri tanlash, bolalarga o'rgatiladigan tushunchalar ko'lami va mazmun-mohiyatiga ko'ra ularning boshlang'ich tushunchalari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o'rgatish va shu asosda reflektiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko'proq tahliliy fikrlash bolaning o'zi tomonidan yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonlarida, ya'ni bolaga tarbiyachi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O'rganilayotgan yangi tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini bolalar tomonidan mustaqil ravishda tahlil qilish jarayonlari ularning reflektiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi o'yin muhitida bolalarning xulq-atvori shakllanib, ijtimoiylashuv jarayoni yuzaga keladi, o'yinlarning eng muhim jihati uning dramatik san'atga ham mosligidir. Birinchidan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchidan o'yinlarning aksariyatida mas'uliyatni his etgan xolda haqiqiy

vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, rivojlantiruvchi o‘yin muhiti aqliy faoliyatni rivojlantirishi va yuqori natijani kafolatlashini nazarda tutib ta‘lim jarayonida bolalarni muntazam ishtirok etishini ta‘minlashda ishbop o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, syujetli-rolli o‘yinlar, harakatli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

#### **Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312–son qarori

2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 22.12.2020 yildagi 802-son Qarori.

3. Горбунова Л.Л. Развитие умений учителя анализировать педагогический опыт. // Формирование профессионально-педагогического мастерства учителей: Сб. Науч. Тр. М.: Изд-во АПН, 1989.- С. 62-71

4. Ушева Т.Ф. Формирование и мониторинг рефлексивных умений учащихся: Методическое пособие. – Красноярск, 2007.- 88 с.

5. Семенов И.Н. Аналитические обзоры по основным направлениям развития высшего образования. Вып. 3: Рефлексивный подход в формировании и развитии личностно-профессионального самосознания студентов как фактор модернизации высшего образования. М.: ФИРО, 2013

### **МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTI BOLALARIDA JAMOA BILAN ISHLASH KO’NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

*O‘zbekiston, Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi  
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi  
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** maktabgacha ta‘lim, maktabgacha yosh davri, jamoa, **urf-odat**, qadr-qimmatini.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются способы развития умения работать в команде у дошкольников.

**Ключевые слова:** дошкольное воспитание, дошкольный возрастной период, коллектив, традиции, достоинство.

**Annotation:** This article discusses ways to develop the ability to work in a team among preschoolers.

**Key words:** preschool education, preschool age period, community, tradition, dignity.

Jamoa so‘zi lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimasi bo‘lib, omma, birlashma, yig‘ilma, guruh ma‘nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, jamoa bu kishilardan iborat guruh demakdir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan.

Shaxsni shakllantirishning muhim omillari bo‘lgan jamoa to‘g‘risidagi ta‘limot axloq tarbiyasida muhim o‘rinni egallaydi. Buning uchun bolalarni asta-sekin, avval bir necha kichikkichik guruhlarda uyushtirib, so‘ng birgalikda biron ishni bajarishga tortish kerak. Bunda qo‘yilgan maqsad bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Umumiy ish har bola ozgina bo‘lsa ham ishtirok etadigan qilib tashkil etilishi lozim. Bunday xususiyatlarni tarbiyalashda san‘at, bolalar bayramlari, birgalikdagi mehnat va faoliyatlarning tutgan o‘rni kattadir. Bolalar o‘yinlari va mehnatining jamoa tusida bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Bular bolalarni birga harakat qilishga, **o‘z intilishlarini umumiy maqsadga yo‘naltirishga, o‘z ishini va maqsadini boshqarish ishi va harakatiga bo‘ysungan holda boshqarishga o‘rgatadi.**

Bola yoshlikdan boshlab, o'zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda bo'lishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joydagi yoki ota-onasini ish joyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatriy boshlaydi. Bu muassasalarga bola o'z xohishi bilan bormaydi. Shunga qaramay bola bu jamoaning qonun qoidalariga bo'ysunishi, uning tartiblariga rioya qilishi shart. Aks holda uni jamoa kechirmaydi. Natijada bola o'zi yashayotgan axloq, odob tajribalarini egallashga majbur bo'ladi. Shuning uchun buyuk mutafakkir A.Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan bahramand bo'lishlarini tavsiya etadi. Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

-Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;

-O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;

-Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

-Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;

-Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;

-O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi. Bolalar o'zaro yashayotgan jamoaga bo'lgan munosabatiga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ijobiy xulqli bolalar bo'lib, ularni jamoa a'zolari hurmat qiladilar. Bu toifadagi bolalar jamoasining faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar faollar tashabbusiga

qo'shiladi, ammo barqaror bo'lishadi. Uchinchi guruhdagilar tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydi, mashg'ulotlarida ham sust bo'lishadi, bunday bolalarga alohida e'tibor va yordam berish zarur. Insonparvarlik hissini tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshda bolalar yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish. Kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va olijanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning otaonalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurli-gi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, o'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi. Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdotsizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog'liqdir. Ba'zi bolalar o'zlari to'qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko'rgandek qilib ko'rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan "Ertak" to'qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, bolalardagi xarakterning ijobiy namunalari, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Vatanparvarlik ijtimoiy tarixiy va axloqiy his-tuyg'ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'doshlariga, ona yeriga, urf-odatlariga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga

chuqurroq kirib bordi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylandi. Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat – eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketgan. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissi ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Baynalminal tarbiya. Bizning respublikamiz o'z mohiyati bi-lan baynalminaldir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalminalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" 802-sonli Qarori;
3. F.Q.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" "Tafakkur"-T.:2019;
4. N.U.Bekboyeva, Z.I.Ibrohimova, H.I. Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" ., T.:O'qituvchi. 2015y.
5. Ishmuxammedov R.J, Yuldoshev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol"-nashriyoti. 2013.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA BADIY ADABIYOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi  
Jumaqulova Xumora*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada MTTlarida badiiy adabiyot jarayonlarini yanada takomillashtirish, yangi loyihalar taklif qilish va takomillashtirish bo'yicha yangi investetsiyalar kiritish haqida so'z boradi. Jumladan, MTTlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining ayni kundagi holati hamda kelgusida rejalashtirilgan bosqichlar to'g'risida aytib o'tilgan.

**Abstract:** This article talks about further improvement of fiction literature processes in MTTs, proposing new projects and making new investments for improvement. In particular, it was mentioned about the current state of the educational process in MTTs and the planned stages in the future.

**Аннотация:** В данной статье говорится о дальнейшем совершенствовании процессов художественной литературы в МТТ, предлагаются новые проекты и делаются новые инвестиции для улучшения. В частности, говорилось о нынешнем состоянии образовательного процесса в МТТ и планируемых этапах в будущем.

**Kalit so'zlar:** badiiy jarayon, adabiyot, kadr, pedagog-tarbiyachi, ilmiy daraja, yangilik, investetsiya.

**Key words:** artistic process, literature, personnel, pedagogue-educator, academic degree, innovation, investment.

**Ключевые слова:** художественный процесс, литература, кадры, педагог-педагог, ученая степень, инновации, инвестиции.

Maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim turlarining dastlabki bosqichida turganligi bu tizim yanada katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Zero bola taraqqiyotining dastlabki poydevori aniq maqsadlarni ko'zlagan holda qo'yilishi uning kelajakda mustahkam o'rnini belgilab beradi. Bu borada yurtimizda sohaga oid qator yangicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezidentimizning «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;

2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan va bu borada bosqichma bosqich qator ishlar amalga oshirilmogda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga har tomonlama tayyor holda chiqishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari va pedagog-tarbiyachilari oldida katta mas'uliyatli vazifalar turadi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida esa bu jarayonni amalga oshirishda muhim shartlari belgilab qo'yilgan. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

bilish jarayonini rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish va shu sohalarning bajarilishi bo'yicha ta'lim jarayoni tashkillashtiriladi.

“Ijodiy rivojlanish” sohaning dunyoni badiiy tasavvur etish; badiiy-ijodiy qobiliyatlar kabi kichik sohalari bolani badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga hamda dunyoni badiiy tasavvur qilishga, so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalarni adabiyot bilan qurshab olish, ulardagi qiziqishni yanada oshirish, qolaversa jalb qilish hamda o'rgatilishini takomillashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kelajak avloddan buyuk adabiyotshunos olim-u olimalar chiqishi, bizning ayni damda ularga qaratilgan e'tiborimiz bilan bevosita bog'liq. Biz ayni damda Oliy ta'limda, texnikumlarda, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarda, maktablarda va eng muhimi poydevorimiz bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarida qay holatda adabiyotni ularga tanishtirmogdamiz, o'rgatmogdamiz? Uzoqdan olib qaraydigan bo'lsak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta ahamiyatga ega. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Shu bilan birga bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik, V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, „Tarbiya – buyuk ish u insonning taqdirini hal qiladi“-degan edi. Badiiy adabiyotlarning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonjon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlarini, his-tuyg'ulari, xatti-xarakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biron narsaga yaxshi-yomon, adolatli- adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi.

Aytib o'tishimiz joizki, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmogda. Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan soha uchun ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilgani yana bir isbot bo'ldi deya ayta olamiz. 2018-yil Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar ixtisosliklar ro'yxatiga yangi 13.00.08. „Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi“ ixtisosligiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Atestatsiya Komissiyasining qarori bilan Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzurida pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tashkil etildi, Ushbu

ilmiy kengash 13.00.08 „Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” istislosi bo’yicha mamlakatimiz tarixidagi birinchi tashkil etilgan ilmiy kengash hisoblanadi.

Yuqoridagi yangiliklar bo’lmagan avval ham maktabgacha ta’lim tizimi ishlayotgan edi. Misol tariqasida, biz alohida urg’u beradigan adabiyot o’rgatilishi. Aynan she’r o’rgatilishi. Bunda she’r tarbiyachi tomonidan o’qiladi va ortidan tarbiyalanuvchi tomonidan qaytariladi. Aksariyat MTT larida xuddi shu tartibda she’rlar o’rgatiladi. Muhit, voqealar talab qiladigan she’rlar borligi bois yuqoridagi jarayonlarga qo’shimchalar kiritilishi lozim. Avvalombor, NMMT, DMTT, mehribonlik uylaridagi MT guruhlari, ta’lim va tarbiyaning muqobil shakllarida alohida badiiy adabiyot xonalarini tashkil etish, pedagog-tarbiyachilarning badiiy nutqini boyitish, adabiyot namunalari bilan ko’proq tanishtirish samarali natija beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari” Toshkent sh., 2018-yil 18-iyun,
2. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
3. Borodich M. “Metodika razvitiya rechi detey” Moskva, 1981 yil.
4. Shodiyeva Q. Kichikintoylarni o’qish va yozishga o’rgatish. Toshkent, “O’qituvchi” – 2002 yil.
5. M. Asqarova “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o’stirish” T.;-“ O’zbekiston” 2001y.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA REFLEKSIV FAOLIYAT KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

*O’zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi o’qituvchisi N.D.Nabiyeva  
NavDPI 2-kurs (sirtqi) talabasi K.U. Muminova*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari pedagogik tahlil, metodologik manbalar hamda misollar keltirish asosida yoritilgan.

**Kalit so’zlar.** Bola, dunyoqarash, mantiqiy tafakkur, faoliyat, refleksiya, bilim, pedagog, shaxs, qobiliyat, refleksiv jarayonlar.

**Аннотация.** В статье на основе педагогического анализа, методических источников и приведенных примеров выделены педагогические основы формирования исследовательских знаний и рефлексивных способностей у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова.** Ребенок, мировоззрение, логическое мышление, деятельность, размышление, знания, педагог, личность, способности, рефлексивные процессы.

Mustaqil faoliyat – maktabgacha yosh davrida shakllantirilishi zarur bo’lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bolalarni erta yosh bosqichlaridan mustaqillikka o’rgatish ularni kelajakda o’z fikriga ega, o’ziga nisbatan mustahkam ishonchga ega inson bo’lib voyaga yetishlarini ta’minlaydi. “Bola katta bo’lgan sari bilim egallashi murakkabroq kechadi” degan edi Aleksandr Kulich.[1] Ushbu fikr mohiyati shundaki, bolalar katta bo’lganlari sayin tushunchalarning umumiy jihatlarini o’rganishlari talab qilina boshlaydi. Ular kichik yoshlik davrida mazkur tushunchalarning tarkibiy jihatlarini anglamaganliklari uchun ular maktabda o’rganiladigan bilimlar mazmunini yaxshi anglab yetmaydilar. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” dasturi bola tarbiyasida kompetensiyaviy yondashuvni talab qiladi. Dasturda kompetensiya bolaning bilim, ko’nikma, malaka va qadriyatlari majmui deya ta’rif beriladi. Boladagi umumiy va rivojlanish sohalari kompetensiyalar uning keyingi yosh bosqichlarda ijtimoiylashgan va o’z mustaqil fikriga ega shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalaridan biri bilish jarayonining rivojlanishi bo’lib, u quyidagi tarkibiy qismlarni o’z

ichiga oladi: - Intellektual bilish malakalari; - Elementar matematik malakalar; - Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat[2] Mazkur bo‘limlar bolaning bilishga nisbatan munosabati va layoqatini aniqlashga xizmat qiladi. Intellektual qobiliyatlar bolaning aqliy salohiyati, uning mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini ko‘rsatsa, elementar matematik malakalar bolaning savodxonlik ko‘nikmalarini egallaganligini ko‘rsatadi. Ammo tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyat ko‘pincha pedagoglar nazaridan chetda qolmoqda. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari”da refleksiv faoliyat – bolada o‘z tushunchalari va hatti harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanish jarayoni – deb ta’riflangan.[3] Mazkur faoliyat turini shakllanishida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir yosh guruhida tashkil etilgan faoliyat markazlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tadqiqotchilik va refleksiv qobiliyatni rivojlanishida “Ilm-fan va tabiat” markazi asosiy muhim vazifani bajaradi. Chunki bu markazda bolalar kichik tadqiqotlar olib borish natijasida atrof-muhitdagi hodisalar, buyumlar xususiyatlari, ularning paydo bo‘lish sabablarini anglab yetadilar. Tajribalar davomida bolada shaxsiy xulosalar va fikrlar yuzaga keladi va uning dunyoqarashi kengayib boradi Tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o‘ziga xosligiga doir jihatlar, ya’ni bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ularning kognitiv amal qilish, ijtimoiy va hissiy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o‘z g‘oyalari tajribada sinab ko‘rish xohish-istaklariga qaratilganidir. Bunda bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e’tibor berish avtomatik tarzda faollashadi.[4] Tadqiqiy bilish shunday jarayonki, bunda bola bilishga hech qanday undovlarsiz, hech qanday majburlovsiz yondashadi. Bu yerda yagona maqsad aqlda gavdalangan mavhumlikni aniqlashtirishdir. Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) faqat sub’ektning o‘z ruhiy holatini o‘ylashi, bilishi va tushunishi, fikr yuritishi va uni tahlil qilishga moyilligi bilan bir qatorda, boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tahlillarini tushunishini aniqlab olishidir.[5] shundan kelib chiqqan holda bolalarda refleksiya - o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlari, fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, bilish amaliyot jarayonida o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan faoliyatining nazariy shakli – deyish mumkin. Refleksiv jarayonlarga bolaning hatti-harakatlarini videokameralarga olishi va takroriy aks etishida o‘z fikri harakatlari va holatlarini tahlil qilishda tashqaridan nazar solishi, o‘zining faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash va tahlil qilib kelgusi hayotida bartaraf qila olishini misol sifatida keltirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobova F., Nabixonova Sh., Yo‘ldosheva G., Rahimova Z., Demina N. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim., (Trener uchun qo‘llanma), Toshkent – 2009, 10 b.
2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixonova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E., Isxakova M.R., “Ilk qadam” (Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi), Toshkent – 2018 yil, 62, 63, 64 betlar.
3. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari” 1-mh-son., Toshkent., 2018 yil 18 iyun.
4. Ahmedova H., Rahimova D tarjimasida “Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturini tashkil etish”, Toshkent – 2012 y., 11 b.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

*O'zbekiston, Buxoro viloyati G'ijduvon tuman 14-sonli DMTT metodisti  
Adizova Baxshanda Akmalovna*

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblangan o'yin jarayoni bolani shaxs sifatida to'liq shakllanishida yetakchilik qiladi. Bunda dastur asosida o'ynaladigan syujetli-rolli, didaktik, stol bosma, sport, ko'ngil ochish, o'zbek xalqining milliy, ertak o'yinlaridan foydalaniladi. Bola tarbiyasida o'yin texnologiyalari (L.S.Vigotskiy, G.K.Selevko) kayfiyatni ko'taruvchi, hamkorlik, o'zini namoyon etuvchi, millatlararo o'yin turlari, interfaol o'yinlardan foydalanish maqsad qilib olinadi.

**Аннотация:** Игровой процесс, являющийся основным видом деятельности детей в дошкольной образовательной организации, является ведущим в полном становлении ребенка как личности. При этом используются сюжетно-ролевые, дидактические, настольные, спортивные, развлекательные, национальные, Сказочные игры узбекского народа, играемые по программе. Игровые технологии в воспитании ребенка (Л.С.Выготский, Г.К.Селевко) нацелены на повышение настроения, сотрудничество, самовыражение, межнациональные виды игр, использование интерактивных игр.

**Annotatsion:** In a preschool organization, the process of play, which is considered the main type of activity of children, leads in the complete formation of the child as a person. It uses plot-role-playing, didactic, table-printing, sports, entertainment, national, fairy-tale games of the Uzbek people, which are played on the basis of the program. Game technologies in child education (L.S.Vigotsky, G.K.Selevko) is aimed at using mood-raising, cooperation, self-manifesting, types of interethnic games, interactive games.

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

YAKomenskiy, K.D.Ushinskiy, AS.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - U insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi. O'yin 2 turda amalga oshiriladi. Ijodiy o'yin va qoidali o'yin. Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTT ta'lim va tarbiya dasturda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTTning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi, O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Zunnunov A. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 2010.
2. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" -T., 2019
3. Nargiza Kayumova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2013
4. Sh.Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur bo'stoni"
5. Mamasoli Jumanboyev. Bolalar adabiyoti darslik majmua. Toshkent 2010.

#### **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH**

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti  
Sirtqi ta'lim Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 5-kurs talabasi  
Navoiy viloyati Nurota tumani 19-DMTT tarbiyachisi  
Hazratova Shahnoza Hoshimovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqida so'z yuritilgan. Hamda axloqiy fazilatlarga doir ayrim qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, axloqiy tarbiya, odob- axloq masalalari, tarbiyachi, metod va usullar.

**Abstract:** This article talks about organizing the process of education and upbringing of children of preschool age, and the formation of moral qualities in children. Some views on moral virtues have also been put forward.

**Key words:** Pre-school education, moral education, moral issues, educator, methods and methods.

**Аннотация:** В данной статье говорится об организации процесса обучения и воспитания детей дошкольного возраста, формировании нравственных качеств у детей. Также были выдвинуты некоторые взгляды на моральные добродетели.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, нравственное воспитание, вопросы нравственности, воспитатель, методы и методики.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalari - bu bola hayotining dastlabki yillarida, maktabga tayyorgarlik bosqichi sifatida muhim rol o‘ynaydigan ta’lim tizimidir. Ushbu muassasalar odatda 3-7 yosh oraliqdagi farzandlarni qamrab oladi va ularning ijtimoiy, jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar orasida axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining poydevorini qo‘yishda muhim ahamiyatga ega. Axloqiy fazilatlar quyidagi qadriyatlarni o‘z ichiga oladi: halollik, mehribonlik, adolatli bo‘lish, hurmat, sabr-toqat va boshqalar.

Bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish quyidagi choralarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. Namuna bo‘lish: Bolalar kattalardan ko‘p narsalarni o‘rganadilar, shuning uchun ota-onalar va tarbiyachilar ular uchun ijobiy olarak ish tutishi kerak.

2. Maqtov va rag‘batlantirish: Bolalarni to‘g‘ri xulq-atvor uchun maqtov va rag‘batlantirish, ularning ijobiy xatti-harakatlarini mustahkamlash uchun mukofotlash.

3. Ijobiy muhit yaratish: Toza va mehr-oqibatli muhitda tarbiya bolalarning axloqiy tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.

4. Ertaklar va hikoyatlar: Bolalar axloqiy fazilatlarni o‘rganishda ertak va hikoyatlar orqali taqdim etilgan xulqiy namunalardan foydalanadilar.

5. Muloqot qilish: Bolalar bilan muloqot qilish chog‘ida tushuntirish va nima uchun ayrim xatti-harakatlar yaxshi yoki yomon ekanligini izohlash.

6. Jamoatdagi faollik: Bolalarni guruh faoliyatlariga, xayriya tadbirlariga jalb qilish va ularning boshqalarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatish.

7. Mukofot va jazoli O‘qitish: To‘g‘ri va noto‘g‘ri xulq-atvor oqibatlarini tushuntirish, muvozanatli mukofot va jazo tizimi orqali farqlarini ko‘rsatish.

8. Fikrlarini ifoda etishlariga imkon berish: Bolalarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon berish va ularga quloq solish.

9. Atrofdagilarga e’tibor va hurmat: Bolalarga atrofdagi odamlarga, hayvonlarga va tabiatga ehtiyotkor va hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish bolalar uchun o‘zaro muloqot, o‘zini ifoda etish va jamiyatda ishtirok etish qobiliyatlarini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayonda tarbiyachilar va ota-onalar ushbu fazilatlarni o‘quvchilarga o‘zlarining har kuni amaliyotlari orqali o‘rgatishadi.

Maktabgacha ta’limning kelajak istiqbollari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tavsiflanishi mumkin:

**Ta’lim dasturlarining zamonaviylashtirilishi:** Mazmunan boyitilgan va yosh xususiyatlariga mos o‘quv dasturlari yaratish, ijtimoiy, emotsional va aqliy ko‘nikmalarni yanada samarali rivojlantirishga qaratiladi.

**Interaktiv o‘qitish usullari:** Bolalarning o‘z-o‘zini ifoda etish, muammo hal qilish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv va o‘yin-asosidagi faoliyatlarni kengaytirish.

**Texnologiya va ta’lim:** Raqamli vositalar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o‘quv jarayonini boyitish va bolalarning texnologik savodxonligini oshirish.

**Maktabgacha yoshdagi farzandlar uchun inkluziv ta’lim:** Har bir bola uchun, jumladan nogironligi bo‘lgan va turli ijtimoiy-ekonomik qatlamga mansub bolalar uchun ham ta’lim olish imkoniyatlari kengaytiriladi.

**Ota-onalar va jamoat bilan hamkorlik:** Bolalarning ta’lim va tarbiyasida ota-onalar va mahalliy hamjamiyatning ishtirokini yanada faollashtirish.

**Nutq va til rivojlantirish:** Nutq va kommunikatsiya ko'nikmalari ustida ishlash, ko'p tillilikni targ'ib qilish va ikkinchi tillarni mukammal o'rganish.

**Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash:** Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va ularni sog'lom turmush tarziga jalb qilishga ko'proq e'tibor berish.

**Kadrlar malakasini oshirish:** O'qituvchilar va boshqa xodimlarni muntazam ravishda malaka oshirish dasturlari orqali qayta o'qitish.

**Erta bolalikni boshqarish:** Bolalarning g'ayritabiiy xatti-harakatlari, ularning ruhiy va ijtimoiy muammolari bilan ishlashga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Xavfsiz va qulay muhit:** Bolalarning ta'lim muhitini yanada xavfsiz va qulay qilish, ularning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash.

Bu va boshqa ko'plab tashabbuslar bilan maktabgacha ta'lim tizimi zamon talablariga moslashib, bolalarning to'liq rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan holatda bo'ladi. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi kelajak avlodlarni tayyorlashda mustahkam poydevor qo'yishdan iborat bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo'stoni. - 470 b.
2. Содиқова Ш.А., Расулхўжаева М.А. Болаларни табиат билан таништириш методикаси. Ўқув қўлланма – Т.: “Фан ва технология” 2013
3. Qodirova F.R. - Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: "ISTIQLOL", 2006y. – o'quv qo'llanma.
4. Rasulxo'jaeva M.A. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma - T.: "Ilm-ZiyoZakovat" 2020.
5. G.Tulenova. X, Xo'jayev.P, Xo'jayeva. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". T.: Ilm ziyo. 2012
6. Xasanboyeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O'quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2012
7. Xasanboeva O. va boshq - Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma - T.: "Aloqachi", 2007 y. 28. Xasanova Sh. - Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi - T.: TDPU, 2020 y. – O'quv qo'llanma.

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA «MEN» - OBRAZI VA O'Z-O'ZIGA BAHO**

*O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi N.D.Nabiyeva  
NavDPI 2 kurs (kechki) talabasi G.I. Raxmonberdiyeva*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsini rivojlantirishda bolaning «Men» - obrazi va o'z-o'ziga baho berishi xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** men obrazi, bola shaxsi, o'z – o'ziga baho berish, o'z – o'zini anglash, o'z – o'zini tarbiyalash.

**Annotation:** this article presents ideas about the child's self-image and selfevaluation in the development of the child's personality of preschool age.

**Key words:** self-image, child personality, self-evaluation, self-realization, selfeducation.

«Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. Ushbu baho aslida shaxsga boshqalarning hayotiy munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi,

shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketisa, boshqasi ta’sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin. Bunday o‘smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o‘zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo‘lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya’ni o‘z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday sharoitda paydo bo‘ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchraganda yoki o‘zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o‘zgalarda deb biladi va shunga o‘zini ishontiradi ham masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo‘lmaganida» kabi bahonalar ko‘payadi. Ya’ni nimaiki bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog‘i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistik, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi referent guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo‘lishi (masalan, ota-ona, o‘qituvchi, ustoz, yaqin do‘stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo‘lishi O‘z-o‘ziga baho o‘ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatning boshqalar tomonidan sun‘iy tarzda bo‘rttirilishi, no‘rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish tufayli shakllanadi. O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki tazyiq ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho o‘zo‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi.

Bola va katta yoshdagi odam. Ontogenezda kattalar bilan muloqot bolalarda birdaniga paydo bo‘ladi, ancha keyin esa bolaning tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatiladi. Dastlab bola butunlay kattalarga bog‘liq bo‘ladi. Tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar ko‘p jihatdan kattalarning bola bilan o‘zaro munosabati xususiyatiga bog‘liq. Kattalarga ergashib bolalar o‘zini ismi bilan atay boshlaydilar. Ikkinchi yil oxiriga kelib o‘zini ismi bilan chaqirish «men» kishilik olmoshi bilan almashinadi. «Men» tizimi – erta bolalikda (L.I Bojovich) paydo bo‘luvchi markaziy hodisadir. Bola o‘zini kattalardan ajratishni o‘rganadi, o‘ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo‘la boshlaydi, ya’ni unda o‘zini anglashning boshlang‘ich shakli paydo bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga ta’lim – tarbiya berish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1989 yil.
2. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
3. Bolalar nutqini o‘stirish metodikasi. Toshkent, 1991 yil.
4. Borodich M. “Metodika razvitiya rechi detey” Moskva, 1981 yil.
5. Jo‘raqulov R. To‘xtayeva Sh. “Bog‘chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” Samarqand, 1991 yil.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

*O'zbekiston, Navbahor ko'p tarmoqli texnikum  
direktori A.S.Amonov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** inrefaol, usullar, ta'lim, tarbiya, mashg'ulot, qaliy hujum, kichik guruhlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы организации образовательного процесса с использованием интерактивных методов в школьных образовательных организациях.

**Ключевые слова:** актив, методы, обучение, воспитание, обучение, мозговая атака, малые группы.

**Abstract:** This article discusses the issues of organizing the educational process using interactive methods in school educational organizations.

**Key words:** asset, methods, training, education, training, hard attack, small groups.

Mustaqil davlat sifatida Respublikaning jahon mamlakatlari, xususan, rivojlangan davlatlar bilan integratsiyalashuviga erishish ta'lim tizimlarida faoliyat yuritayotgan subyektlarning oldida turgan asosiy vazifalar sanaladi. Mazkur vazifalarning hal etilishi yagona maqsad atrofida birlashish, shuningdek, bu yo'lda tashkil etiluvchi amaliy harakatlarning izchil, uzluksiz va tizimli bo'lishiga erishishni taqozo etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar birinchi galda maktabgacha ta'limdan boshlab amalga oshirilmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan qabul qilingan qaror va farmoyishlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim dasturlari va o'quv- tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish, maktabgacha ta'limga qamrab olinayotgan bolalarni maktab ta'limiga to'laqonli ravishda tayyorlab berish ishlarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tadimga qo'yiladigan bunday zamonaviy talablar tarbiyachilarni ushbu ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi, kognitiv, o'yinli ta'lim, izlanuvchanlik va o'zaro ta'sir elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanish muhitining zarurligini taqozo etadi.

Bolani shunday muhit va shunday munosabatlar tizimi bilan o'rab olish kerakki, bu bolaning eng xilma-xil mustaqil faoliyatini rag'batlantirsin va unda kerakli vaqtda eng samarali shakllantira oladigan ko'nikmalarni, shu jumladan asosiy qobiliyatlarni shakllantirsin. Tabiiyki, bunday muhitni yaratish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv va ta'lim jarayoniga interfaol xarakterga ega bo'lgan, bolaning mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan o'yinli texnologiyalarini joriy etish kerak.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, bolalarning intellektual rivojlanishiga tayanadi. O'yin orqali o'rganish ushbu kontseptsiyaga to'liq mos keladi. Interfaol texnika harakat orqali o'rganishga asoslangan: inson o'z qodlari bilan qilgan ishni yaxshiroq eslab qoladi va o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning asosiy sharti ham shu hisoblanadi.

Shuning uchun tarbiyachining vazifasi - bu faoliyatni maxsus tashkil etish, uning ichida hamkorlik muhitini, o'zaro ishonchni - bolalar bir- biri bilan, bolalar va kattalar bilan o'zaro harakatda bo'lish

muhitini yaratishdan iborat. Ushbu muammoni hal qilish uchun tarbiyachi interfaol texnologiyalardan foydalanishi zarur.

Zamonaviy bolalar bog'chasida interfaol texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalanish maktabgacha tarbiyachining kasbiy malakasini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda interfaol usullar- bu tarbiyalanuvchilar orasida hamda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasida o'zaro harakatni talab qiluvchi usullardir. Interfaol usullar bolaning yuqori faolligini, olingan ma'lumotlarni ijodiy qayta anglashini taqozo etadi. Bular: Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, rolli o'yinlar, ishchanlik o'yinlari, bahs-munozara va boshqa jarayonlarda namoyon bo'ladi. Endi yuqorida qayd etilgan har bir usulni alohida ko'rib chiqamiz.

Interaktiv treninglarni tashkil etish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

**Individual shakl**, har bir bola tomonidan vazifani mustaqil hal qilishni o'z ichiga oladi;

**Juftlashgan shakl**, masalalarni juftlikda yechishda foydalaniladi, guruhli yondashuvda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi;

Agar vazifa bir vaqtning o'zida barcha ishtirokchilar tomonidan bajarilsa, bu shakl jamoaviy yoki frontal deb ataladi;

**Kichik guruhlarda ishlash**- bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash 4-5 boladan iborat guruhlar tuziladi va har bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar birgalikda harakat qiladi.

Interfaol ta'limning eng qiyin shakli bolalar bilan **kichik guruhlarda ishlash** shaklidir. kichik guruhlarda ishlash shaklida ishtirokchilar guruhi umumiy vazifani oladilar, masalan, qandaydir vazifani birgalikda bajarish. Bu vazifalar asosan oy mavzusini qamrab olishi kerak. Qish mavzusida birgalikda rasm chizish, lego va kubiklardan Aeroport, avtoturargoh, kema porti, qurilish maydoni, bog'cha hovlisi, ertakdagi qasr loyihalarini birgalikda tayyorlash, turli konstruksiyalarini birgalikda bajarish, tangramlarni yig'ish va bolalar kundalik faoliyati doirasida bo'lishi mumkin. Guruh bo'lib ishlash muhitiga moslashgan har bir bola bir birining fikriga qo'shilishi, ba'zida yon berishi, muloqot jarayonida jamoaviy tartib intizomga rioya qilishi, yangi tajribalarni o'rtoqlaridan o'zlashtirib olishi mumkin. Shuningdek, bolalar kichik guruhlarga bo'linish, loyihada o'z versiyasini taklif etish tashabbus ko'rsatish, umumiy loyihani tashkil etuvchi eng yaxshi g'oyalarni o'yab topish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kichik guruhda ishlashning asosiy maqsadi va vazifalari:

- bolalarning tashabbuskorligini, mustaqilligini, kognitiv motivatsiyasini rivojlantirish;
- axborotni o'rganish va mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish;
- bolalar bilan ishlashning integratsiyalashgan mazmunini tashkil etish;
- bolalar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- bolaning jamoaga faol moslashishi va aniq maqsad sari harakat qilishni ta'minlash; bola uchun o'z muvaffaqiyatini, intellektual mukammalligini his qiladigan qulay ta'limiy sharoitlarini yaratishdan iborat.

Maktabgacha ta'limda inrefaol metodlar rolli o'yinlar asosida tashkil etiladi. Rolli o'yinning o'ziga xos xususiyati - bu muloqotni jonli va hayajonli qiladigan harakatlarning mavjudligidir. O'yinlarning maqsadi bilimlarni chuqurlashtirish emas, balki ko'nikmalar va munosabatlarni rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Rolga kirish usullari orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muammoli vaziyatlarda turli xil hatti-harakatlarni amalga oshirish va boshqalarni tushunishni rivojlantiradi. O'yin orqali ishtirokchilar o'zlarining haqiqiy hayotdagi harakatlarini yaxshiroq o'rganadilar, kerakli xulosaga keladilar. Bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning mazmunli tajribasini olish uchun sharoit yaratiladi. Interfaol o'yin nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biri va tarbiyachi bilan o'zaro munosabati, balki ijtimoiy yo'nalishdagi birgalikda tashkil etiladigan kognitiv faoliyat hamdir. Bunday o'yinlarda bolalar nafaqat yangi narsalarni o'rganadilar, balki o'zlarini va boshqalarni tushunishni ham o'rganadilar. Interaktiv o'yinlar uchun ko'plab variantlar mavjud, ularni o'ynash usuli ham turlicha. Ammo ular quyidagi ketma ketlikka asoslanishi muhim:

- Tarbiyachi tomonidan bir guruh bolalar uchun vazifalar va rollarni tanlash (tayyorgarlik bosqichi)
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni hal qilinishi kerak bo'lgan muammo bilan tanishtirish
- Bolalarga o'yin qoidalari haqida ma'lumot berish, o'yin davomida aniq ko'rsatmalar berib borish

O'yin davomida bolalar o'z maqsadiga erishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Agar ba'zi bosqichlar qiyinchilik tug'dirsa, tarbiyachi bolalarning harakatlarini tuzatadi.

O'yin yakunida natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tahlil e'tiborni hissiy jihatga qaratishdan iborat - maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ularini qayta ko'rib chiqish (ular nima yoqdi, nima qiyinchilik tug'dirdi, vaziyat qanday rivojlandi, ishtirokchilar qanday harakatlar qildi, natija qanday bo'ldi) asosida kamchiliklar birgalikga tuzatiladi.

O'yinli ta'lim juda jonli, hissiy jihatdan qulay psixologik muhitda, xayrixohlik, erkinlik, tenglik muhitida, o'tkazilishi zarur. O'yin texnologiyalari bolalarning erkin bo'lishiga yordam beradi, bolada o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy hayot sharoitlariga yaqin o'yin sharoitida harakat qilib, har qanday murakkablikdagi materialni osonroq o'rganadilar. Bolalar o'zlarini yangi vaziyatda sinab ko'rish orqali o'yindan zavq olishlari muhimdir.

**Rolli o'yinlar**-bolalarga biror muammoli vaziyat berildi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

**Ishchanlik o'yinlari**-bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo'lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o'ylash, to'g'ri maqsadni qo'yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Biz maktabgacha ta'limda interfaol usullarni qo'llaydigan pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Mashg'ulotlarni o'yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko'ngilochar tadbirlar shaklida tashkil eting;

- tarbiyalanuvchilarini mustaqil izlanishlarini ta'minlang;

- tarbiyalanuvchilarning faolligiga erishing;

- tarbiyachi sifatida yo'naltirib, yordam berib, boshqarib turing;

- interfaol usullar ishtirokidagi mashg'ulot tarkibining asosiy qismiga emotsional zo'riqishni bartaraf etuvchi o'yinlar kiriting.

Xulosa o'rnida Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: «Menga gapirsang esdan chiqaraman, menga ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o'zim ishlashimga imkoniyat ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi». Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga faqat so'zlab, ko'rsatib bermasdan, balki o'zlarini mustaqil bajarishiga o'rgatsak kelajakda barkamol, har tomonlama rivojlangan mustaqil vatanimizning mustaqil farzandlarini tarbiyalashdek muqaddas vazifani ado eta olgan bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" QONUN. T.: 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi T.: 2022.
5. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.



## **BOLALARNI TA'LIMNING KEYINGI JARAYONIGA TAYYORLASH - DAVR TALABI**

*O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
katta o'qituvchisi N.K.Musayeva  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi Kamoljonova Sevinch*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bolaning ongiga yoshligidanoq o'qishga, bilishga, o'rganishga bo'lgan muhabbatni singdirib borish, aqliy tayyorlikni shakllantirish va bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'z:** Bola, bilim, ko'nikma, malaka, aqliy salohiyat, xulq-atvori, topshiriq

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается важность привития в сознании ребенка любви к чтению, знаниям и обучению с раннего возраста, формирования умственной готовности и общего уровня мыслительной деятельности будущего школьника.

**Ключевые слова:** Ребенок, знания, умения, компетенции, умственный потенциал, поведение, задача.

**Abstract:** This article highlights the importance of inculcating the love of reading, knowledge, and learning in the child's mind from a young age, forming mental readiness and the general level of thinking activity of the future student.

**Key words:** Child, knowledge, skill, competence, mental potential, behavior, task

Dunyo tamadduni murakkab va sinovli davrlar, shovqin suronli yillarni sudrab asrlar oshib rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Inson hayotning murakkab so'qmoqlaridan yura bilishi, turli xil qiyinchiliklarni yengga olishi, chuqur bilim ko'nikma va malakaga ega bo'lishi uchun bolaligidan o'qitib, bilim bilan qurollantirish lozim. "Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy ma'naviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rganish vazifalari hali sifatli to'liq holda yechilgani yo'q", [1] - deb ta'kidlagan edilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Bolaning ongiga yoshligidanoq o'qishga, bilishga, o'rganishga bo'lgan muhabbatni singdirib borishi darkor. O'quv faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, bola unda faol ishtirok etsin, yangi bilimlarni mustaqil tarzda qidirish va "topish"ga undalsin, muammoli xarakterga ega bo'lgan savollarni yechsin. Bir xillikka ega bo'lgan materiallar va bir xil usullar bolalarni tez zeriktirib qo'yadi. Bola berilayotgan materiallarning kerakliligi va ahamiyatligini tushinishi kerak. Yangi berilayotgan material ilgari o'zlashtirilgani bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak. Bolaning barcha yutuqlarini ijobiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni rag'batlantiradi. Bolaning intellektual rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda aksariyat hollarda uning so'z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beramiz. Ota-ona, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boylıklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degani emas.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan - o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi.

Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish qobiliyatlarini; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar

o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir. Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda:

Birinchidan, bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar;

Ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

Uchinchidan, bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarish ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustivor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha, Ilmiy – uslubiy Risola. –T.: "Ma'naviyat" 2017 y. 195- b.
2. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T., 2008.
3. Sadatov Ch. X. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. –Termiz, 2008.
4. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. –М., 1960. – С. 70.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI**

*O'zbekiston, NavDPI maktabgacha ta'lim kafedrasida  
o'qituvchisi Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi Omonturdiyeva Munira*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarni shuningdek ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari haqida bayon qilingan. Rivojlanayotgan jamiyatda chet tillarini bilish muhim hisoblanadi. Bolalarga chet tillarini o'rgatishni qanchalik vaqtli boshlasa shuncha samarali buladi. Bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil metodlardan foydalaniladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'limda chet tili, metod, usul, belgi va rasm, ovoz, moslashtirish usuli, pedagogik mahorat, kuzatish.

**Аннотация:** в данной статье описаны современные методы обучения иностранным языкам и английскому языку детей дошкольного возраста в дошкольных образовательных

учреждениях. Знание иностранных языков важно в развивающемся обществе. Чем раньше дети начнут обучать иностранным языкам, тем эффективнее они будут. В связи с этим в организациях дошкольного образования используются различные методы.

**Ключевые слова:** иностранный язык в дошкольном образовании, метод, прием, знаки и картинки, звук, метод адаптации, педагогическое мастерство, наблюдение.

**Abstract:** this article describes modern methods of teaching foreign languages and English to preschool children in preschool educational institutions. Knowledge of foreign languages is important in a developing society. The sooner children start teaching foreign languages, the more effective they will be. In this regard, various methods are used in preschool education organizations.

**Key words:** foreign language in preschool education, method, method, signs and pictures, sound, adaptation method, pedagogical skill, observation.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bo'rmoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning samarali usullaridan ko'rib chiqamiz:

#### **Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.**

Kundalik so'z boyligini targ'ib qilishning usullaridan biri – Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shneyderning so'zlariga ko'ra:

"Bolalarga umumiy brendlar va belgilarga og'zaki yo'rliq qo'yishdir." U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yo'rdam berishini tushuntiradi. Yani bu bolalarni yangi tillarni tez va oson o'zlashtirishga yordam beradi.

#### **Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli.**

Ushbu metod uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harflar va shu harflar bilan boshlanadigan bir nechta kichik, ammo unchalik katta bo'lmagan narsalar kerak bo'ladi. Masalan, agar sizning harflaringiz M va K bo'lib, sizda mushuk va fil bo'lsa. Bolaga mushuk chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga undab, uni harfga yopishtiring. Bezatilgan harflar sinfda saqlanishi yoki ota-onalar bilan bo'lishish uchun uyga olib kelinishi mumkin. Shneyderning ta'kidlashicha, bu mashg'ulot talabalarning sevimli narsasidir, chunki bu ularga o'z bilimlarini o'rganishda amaliy yo'rdam beradi. Bundan tashqari, bu "shoh asar" ni keltirib chiqaradi

#### **Tabiat dunyosi bilan o'rganish usuli.**

Bolalar mashg'ulotlarni tabiat muhitida o'zlashtirishga juda qiziqishadi. Odatda, ularni hovli bog' orqali tabiat dunyosi to'g'risida ma'lumot berish ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Bu usul o'simlikni urug'dan yetilguncha o'sish jarayoni ketma-ketligini yangicha so'z(ingiliz tili) bilan ifodalashni o'rgatishdan iborat. Bu bolalar uchun ham qiziqarli va esda qolarli buladi. Sababi tabiat, tashqi muhitda bolalarga qiziqarli bulgan narsalar va o'rganishi ko'p bo'lgan so'zlar mavjud.

Maktabgacha ta'lim - yoshlarning ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yo'rdam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rganishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida o'tkazilishi, bo'lishi kerak. Bolalar chet tilni hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish o'rqali osonroq o'rganadilar. Agarda xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar o'rqali o'rgangan malumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan

ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bo'lishi kerak. Bolalar mashg'ulot davomida o'zlarini mashg'ulotning bir qismi sifatida tushunishadi va faoliyatlar jarayonida xuddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi.

Maktabgacha ta'limda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar o'rqali chet tili o'rgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his etishadi. Bolalar nafaqat yo'riqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili o'rqali o'z ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxs(ona tili ingliz tili bo'lgan)lar bilan muloqot qilishi foydali hisoblanadi.

Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bolalar imkon qadar ko'proq tilda o'zlari so'zlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil talim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan ta'lim barcha talim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'rganish turlari o'quvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Tayyorlov guruhi bolalarining iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq bo'ladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir. Chet tilini o'rgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar o'rqali bolalarning esida qolishiga yo'rdamlashish mumkin. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq o'rganishning asosiy sabablari hisoblanadi.

Bolalarga shunday vazifalar berish kerakki, toki ular o'rgangan bilimlarini mashg'ulot jarayonida amaga oshirish, qo'llashga majbur bo'lishsin. O'zaro muloqot qilish imkoniyatlari til ko'nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa bolalar tilning manosini amalda qo'llay olishsa, bu ularga tildan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Bola tomonidan ushbu jarayon uchun mano va muzokaralar o'tkazish imkoniyati muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Chet tili talimi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va ko'nikmalrni o'rganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak.

Agar biz chet tili talimida qo'llaniladigan metodik-didaktik qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni takidlab o'tishimiz talab etiladi: mashg'ulot jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda o'rgangan bilimlarni qo'llay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur. Bolalarning ko'pchiligi chet tillarni o'rganishga qiziqishadi. Ularning qishiqishlari, albatta, dars jarayonini tashkil etilishi va bolalarning bu dars jarayonida malum muvaffaqiyatga erisha olishi bilan bog'liqdir. Bu qiziqish yillar davomida birdek saqlanib qolishiga ishonish - bu noto'g'ri, shu sababdan, pedagoglar bu haqida qayg'urishlari, yani o'rganuvchilar darsda quvonchga to'lib, muvaffaqiyatlarga erishib qatnashishlarini taminlashi zarur. O'rganilayotgan mavzular ham, shu bilan birga savol-topshiriqlar ham o'rganuvchilar uchun ahamiyatli, qiziqarli va aktual

bo'lsagina, dasrning mazmuni hamda maqsadi o'rganuvchilarga tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Chet tili o'rganuvchilari chet tili ta'limida o'zga bir til, madaniyat bilan to'qnash keladilar. Shu sababdan, mashg'ulotlarda aynan o'sha chet tilga xos bo'lgan ishonchli materiallardan, o'sha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabiyyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bo'lib yetishlarida avvalambor, maktabgacha talimning o'rni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy talim tizimi bilan taminlash talab etiladi. Maktabgacha talim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, yani ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz bolalar ta'limiga ko'proq e'tibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning o'rganishlariga ko'maklashishimiz zarur. Chet tillarini o'rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bo'lib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo'lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalar

ta'limiga ertaroq e'tobor berish, o'qishga qiziqtirish lozim. Jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmaslik, o'rganishga qiynalgan bolalar bilan alohida shug'ullanish, turli xil qiziqarli o'yinlar bilan etiborlarini tortish, chet tillarini o'rgatish davomida muntazam ragbatlantirib borish ularni kelgusidagi talimlari uchun dastlabki qadam bo'ladi, desak mubolag'a bulmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar .**

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017.
2. A.S.Abulqosimovna -Scientific Impluse,2023.
3. Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna "Maktabgacha ta'limda steam texnologiyalari" O'quv qo'llanma Tamaddun toshkent - 2022
4. Ergasheva G, Jabborova D, Ergasheva X, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish metodikasi" O'quv qo'llanma Namangan.2021.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI**

*O'zbekiston, Navoiy shahar 19-DMTT direktori  
Ochilova Ruxsora Furqatovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining barkamol avlodni tarbiyalashdagi maqsad vazifalari, xususiyatlari, bolalarda kognitiv qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlashni, nutqni, tasavvurni va ijodkorlikni rivojlantirish masalalari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, kognitiv qobiliyat, intellektual qobiliyat, an'anaviy dasturlar, ijtimoiy kompetensiya, integratsiyalashgan yondashuv, ijtimoiy moslashish

**Аннотация:** В данной статье раскрыты цели, особенности и характеристики дошкольной образовательной организации в воспитании всесторонне развитого поколения, вопросы развития познавательных способностей детей, логического мышления, речи, воображения и творчества.

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, познавательные способности, интеллектуальные способности, традиционные программы, социальная компетентность, комплексный подход, социальная адаптация.

**Annotation:** This article describes the objectives, features and characteristics of the preschool educational organization in raising a well-rounded generation, the issues of developing children's cognitive abilities, logical thinking, speech, imagination and creativity.

**Key words:** preschool educational organization, cognitive ability, intellectual ability, traditional programs, social competence, integrated approach, social adjustment.

Yangi o'quv yili har doim maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim muhitiga o'zgartirish va yangilanishlar kiritish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim - bu bolaning rivojlanishidagi muhim bosqich. Bu yoshda bolalarga keyingi ta'limda foydali bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asoslari shakllanadi.

Maktabgacha ta'limda bolaning shaxsiyatini shakllantirish va har tomonlama ta'lim berish, ularning jismoniy, aqliy, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan.[4] Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

*Bolalarni maktab muhitiga tayyorlash va moslashtirish.* Maktabgacha ta'lim mustaqillik ko'nikmalarini, muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa bolaning maktabga va umuman hayotga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

Tarbiyachi yosh avlodni barkamol, xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va mas'uliyatli vazifani bajaradi.[5] Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga, ta'lim jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'z mahoratini doimo faollashtirib borishiga yordam beradi.

*Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish.* Maktabgacha ta'lim dasturi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlashni, nutqni, tasavvurni va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

*Sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish.* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya, sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, to'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

*Atrofimizdagi dunyoga qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish.* Maktabgacha ta'lim bolalarning dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi, ularning ekologik ongini va axloqiy qadriyatlarini rivojlantiradi.

*Ijodkorlikni rivojlantirish va o'zini namoyon qilish.* Maktabgacha ta'lim bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, tarixiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishga, musiqiylik va badiiy didni rivojlantirishga yordam beradi.

*Ijtimoiy va madaniy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish, bolalarda muloqot madaniyati va boshqalarga hurmatli munosabatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning muhim jihati yangi texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishi va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradigan zamonaviy interaktiv doska, planshet va boshqa qurilmalarni joriy etish rejalashtirilgan. Bu yanada qiziqarli va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratadi.

Bundan tashqari, o'quv yili uchun maktabgacha ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyasi bolalarda ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor berish bo'ladi.[2] Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish va maxsus treninglar bolalarga muloqot, hamkorlik va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu to'laqonli shaxsni shakllantirish va kelajakda muvaffaqiyatli moslashish uchun muhimdir.

Maktabgacha ta'limning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

*Individual yondashuv:* Tarbiyachilar har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga oladi, uning rivojlanishi va o'rganishi uchun qulay sharoit yaratadi.

*O'yin shakli:* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berishning asosiy usuli - o'yin. Bola o'yin orqali dunyoni o'rganadi, uning jismoniy, intellektual va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

*Nutqni rivojlantirish:* maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Bolalar o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalashni o'rganadilar, so'z boyligini boyitadilar va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

*Ijtimoiylashtirish:* maktabgacha ta'limda bolalar boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishni va jamoada moslashishni o'rganadilar.

*Ijodkorlikni rivojlantirish:* Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy salohiyati faol rivojlanmoqda. Bola san'atning turli turlari bilan tanishadi, mustaqil ravishda ijod qiladi, o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini ijodiy topshiriqlar orqali ifodalaydi.[1]

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim bolaning uyg'un rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, u murakkab xarakterga ega. Bu yoshdagi bolalar shaxs sifatida shakllanadi, asosiy bilimlarni oladi, mustaqillik va ijtimoiy moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limning barcha bu maqsad va vazifalari bolaning barkamol rivojlanishiga va ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli boshlashiga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan kompleks yondashuv va turli xil usul va yondashuvlar to'liq hayot va muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan asosiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.[3]

Zamonaviy jamiyatda maktabgacha ta'limning ahamiyati uning mavqei va mamlakat rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy jihatlaridagi ahamiyati bilan tasdiqlanadi. Har bir bolaning kelajagi, butun jamiyat taraqqiyoti maktabgacha ta'lim sifatiga bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Daminov M., Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. - T.: O'qituvchi, 1993.
2. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika. -T.:Fan va texnologiya, 2015.

3. <https://investim.guru/gaydy-i-sovety/novinki-doshkolnogo-obrazovaniya-na-2023-2024-uchebnyy-god-perspektivy-i-vozmozhnosti>
4. Qodirova F. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. -T.: Ma'rifat madadkor, 2014.
5. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.- T.: Ilm ziyo, 2006.

## **TASVIRIY FAOLIYAT ORKALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi katta o'qituvchisi D.Q.Ulug'berdiyeva  
NavDPI 2 kurs(kechki) talabasi G. Asadullayeva*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены виды изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях, их содержание, развитие умственного, нравственного, эстетического воспитания у детей в процессе изобразительной деятельности, качества воли - довести до конца начатое дело, ставить цель и стремиться к ее достижению, преодолевать трудности, демонстрируется понимание таких особенностей, как помощь ближнему.

**Ключевые слова:** Изобразительная деятельность, художественное творчество, рисование, эстетическая интуиция, произведения искусства.

Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta'lim-tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

### **NATIJA**

So'ngi yillarda respublikamizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz talimning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'grisidagi qonunining 8-moddasida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" deb belgilab qo'yilgan[3].

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

### **MUHOKAMA**

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish,

o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

"Maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda albatta bajaramiz"[1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsa-da, ularni bir yo'nalish, maqsad bo'yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o'ziga xos ko'rinishlardagi tasviri) birlashtiriladi. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari - bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo'linadi: - mashg'ulotning boshlanishi-topshiriqni tushuntirish; - mashg'ulotning borishi-topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi; -mashg'ulotning yakuni-bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rasm faoliyatini san'at markazlarida rejalashtiriladi[9].

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini engil, erkin bir tekisdagi xarakter qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakterlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, kattakichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coH 23.09.2020. 8-moddasi



4. "Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ESTETIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**O'zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
Katta o'qituvchisi Sharipova Nilufar Raufovna,  
Maktabgacha kechki ta'lim yonalishi 4-kurs talabasi  
Ochilova Bahora Ibodulla qizi**

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodga estetik tarbiya berish yo'llari, estetik tarbiya berish imkoniyatlari haqida fikr bayon qilingan

**Kalit so'z:** tarbiya. estetik, axloqiy tarbiya, g'oyaviy tarbiya siyosiy tarbiya, odob-axloqi

**Аннотация:** В статье изложено мнение о способах эстетического воспитания подрастающего поколения, о возможностях эстетического воспитания

**Ключевое слово:** воспитание. эстетическое, нравственное воспитание, идеологическое воспитание политическое воспитание, этика

**Annotation:** the article describes the ways of providing aesthetic education to the younger generation, the possibilities of providing aesthetic education

**Keyword:** upbringing. aesthetic, moral education, ideological education political education, etiquette

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi jahonning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishi—yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq bo'lib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sidqidildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflari, mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala—bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim, albatta, yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin.

Lekin ayni paytda, o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. "Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" [1], deya ta'kidlagan prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev.

Estetik tarbiya—insonning voqelikdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o'stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya'ni go'zallik qonuni bo'yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoitlarga bog'liq.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi-jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to'laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san'at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko'rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, turmush va texnika, sport va milliy urf-odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir. Estetik tarbiyani to'la amalga oshirmay turib axloqiy, g'oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning asosiy ma'nosi va vazifasi kishilardan dunyo go'zalligi to'g'risida his-tuyg'ular, tassavur va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsning har tomonlama va uyg'un rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda san'at asarlarida go'zallikni ko'ra bilish, uni to'g'ri tushinish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go'zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va san'atda bema'nilikka, xunuklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab san'atda o'zining ijodiy kamolotini ko'rsatishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo'lgan go'zallikni to'g'ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go'zallik uchun kurashga o'rgatishdan iborat. Ta'lim tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvurlariga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqorolarni har tomonlama rivojlanishiga, "rux va badan" hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi.

Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylik ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona ahloqiy xulq-atvor va fuqorolik xislat- fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Bugungi kunda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omili ortib bormoqda, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ezgu hislatlari, fazilatlarini, ongliligi, faolligi, ijodiy qobiliyatlari o'smoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston aholisining ko'pchiligining umumiy madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib boryapti.

Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyotining keng o'rin egallab borayotganligi, qonunchilikning yanada rivojlanib amal qilinayotganligi, fuqorolarning umumiy madaniyati, ayniqsa, estetik madaniyati darajasining yuksalib borishini taqozo etmoqda.

To'rtinchidan, hozirgi davr ilmiy texnika inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib beryapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruhiy holatining ham tubdan o'zgarishini, ijtimoiy ruhiy, ahloqiy estetik saviyasini oshirishni taqozo etmoqda.

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, "oynai jahon" kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda[3].

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinardi, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilardi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qaramaqarshi qo'yish ham xato bo'ladi. Shuni esda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning ahloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg'arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi.

Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog‘liqligi esa tabiatga beg‘araz, insoniy munosabatda bo‘lishida, jamiyat bilan tabiat o‘rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi[4].

Shunday qilib, estetik tarbiya—bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo‘lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo‘lgan inson shaxsini shakllantirishga mo‘ljallangan ta‘lim-tarbiya sohasidir.

San‘at estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a‘zolarini, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did-farosat va estetik talab-ehtiyojlari rivojlangan bo‘lishi zarur.

Bolalarni ma‘naviy tomondan tarbiyalashda musiqaning ham roli katta. Musiqa turmushimizga chuqur kirib kelgan, u har qadamda bizga hamroh. Oila musiqa vositasida bola tarbiyasida ko‘p narsalarga erishish mumkin.

Bog‘chada o‘tkaziladigan har bir tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari estetik tarbiya vositalaridan biri bo‘lib, bolalarni aqliy rivojlantirish, estetik va badiiy didni tarbiyalash ijodiy qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

Rasmlar, loy va plastinkadan turli buyumlar yasash qirqib yopishtirish va qurib-yasash mashg‘ulotlarini bog‘cha yoshidagi bolalarning eng sevimli faoliyatlaridan biri. Tasviriy faoliyat dasturiga bezakli rasmlar ishlash, loy va plastilin, qirqib yopishtirish bo‘yicha milliy badiiy an‘analar, naqsh kompozitsiyasini tuzish, o‘zbek xalk amaliy san‘ati asarlari bilan tanishtirish kiritilgan. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida sopol buyumlar, xalq o‘yinchoqlari, o‘simliklar, gullar, bog‘lar, mevalar, paxta kabi narsalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama—ham aqlan, ham jismonan barkamol, ahloqan yetuk, ma‘naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar:

1.Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

2.Sh.M.Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –T., 2016.

3.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T., 2018.

4.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. Maktabgacha ta‘limning me‘yoriy asoslari. –T.: Ma‘naviyat, 2013.

5.O.U.Hasanboeva va boshq. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. –T.: Ilm ziyo, 2006.

## **MAKTABGACHA TA‘LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA XORIJIY TAJIRIBALARDAN FOYDALANISH.(FINLANDIYA)**

**O‘zbekiton, NavDPI Ta‘lim va tarbiya  
nazariyasi va metodi I-kurs magistranti  
Mamadaliyeva Shoxsanam Olimjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yurtimizda maktabgacha ta‘lim tizimiga qaratilayotgan e‘tibor va ilg‘or xorijiy tajribalarning kirib kelishi, Finlandiya maktabgacha ta‘lim tizimidagi ta‘lim metodlarni o‘rganish natijasida ayrim mentalitetimizga uyg‘un bo‘lgan qarashlar va metodikalarni o‘rganib, zamonamiz maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga joriy etish haqidagi qarashlarni o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** Finlandiya, raqamli savodxonlik, xorijiy tajriba, inklyuziv ta‘lim, ko‘p savodxonlik.

**Abstract:** This article examines the attention paid to the preschool education system in our country and the introduction of advanced foreign experiences, as a result of the study of educational methods in the Finnish preschool education system, we study some of the views and methods that are compatible with our mentality. examines the views of the introduction to preschool educational organizations of our time

**Key words:** Finland, digital literacy, foreign experience, inclusive education, multi-literacy

**Аннотация:** В данной статье рассматривается внимание, уделяемое системе дошкольного образования в нашей стране и внедрение передового зарубежного опыта, в результате изучения методов обучения в финской системе дошкольного образования изучаются некоторые взгляды и методы, совместимые с наш менталитет. исследуются взгляды на внедрение в дошкольные образовательные организации современности.

**Ключевые слова:** Финляндия, цифровая грамотность, зарубежный опыт, инклюзивность, образование, многограмотность

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi" [5] degan jumllariga va rivojlangan davlatlar faqat va faqat ta'lim sohasiga qaratilayotgan ulkan e'tibori tufayligina bunday mav'qega ega bo'layotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu kungacha maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish uchun 10 dan ortiq farmon, qaror, konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi. Ko'plab xorijiy hamkorlik uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

Maktabgacha ta'lim samaradorligiga erishishda xorijiy tajribalar ustida qator izlanuvchilar ish olib bordi. B.E. Parmonov[1], I.G. Mamajonov[3], R. Mamatov, F. Norboyev[2], o'zlarining maqola va dissertatsiyalarida maktabgacha ta'lim sohasiga xorijiy davlatlar tajribalaridan qanday foydalanish mumkinligi va rivojlangan davlatlar Germaniya, Fransiya, Finlandiya kabi mamlakatlar ilg'or tajribalarini tahliliy o'rgandilar.

Maktabgacha ta'lim rivojlanishi uzluksiz ta'limning barcha sohalari rivojlanib borishiga asos bo'lib kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida o'rganishning boshlang'ich nuqtasi bolalarning oldingi tajribalari, ularning qiziqishlari va ko'nikmalaridir. O'rganilishi kerak bo'lgan yangi narsalar bolalarning rivojlanish qobiliyatlari, tajribalari va madaniy kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajribalar va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor ham ilg'or mamlakatlardagi shart-sharoitlardan kam emas. Finlandiya ta'limi hozirda jadal rivojlandi. Ilk maktabgacha ta'limiga yaratilgan muhit haqida gapiradigan bo'lsak, ta'limni o'rganishga yordam beruvchi, inklyuziv, sog'lom, to'siqlarsiz va xavfsiz qilib yaratilishiga alohida e'tibor berilishi ko'zga tashlanadi. Bolalarning rivojlanishi, o'rganishi va o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlaydigan joylar, jamoalar, amaliyotlar, asbob-uskunalar va materiallar Finlandiya ta'lim muhitida alohida e'tiborga olingan. O'quv muhiti bolalar bilan birgalikda rejalashtiriladi va ergonomika ya'ni ish, qonun va mehnat birikmasi, ta'lim muhitida qulaylik yaratish nazarda tutiladi. Bolalar butun his-tuyg'ulari va butun vujudi bilan dunyoni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishlari, ta'lim muhiti turli imkoniyatlar yaratishi, yoqimli mashg'ulotlar, ko'p qirrali va tez harakatlantiruvchi o'yinlar va sokin dam olish sharoitlari yaratilishi talab etiladi Finlandiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari ijtimoiy hayotdagi hamkorlik ya'ni kutubxona, muzeylar, madaniy me'ros obyektlari, konsertlar, teatr va vasiylarning- ota-onalarning ish joylariga jismoniy va virtual tashriflar buyurish orqali ham ta'lim muhitini boyitib boradilar. Inklyuzivlik va tenglik barcha faoliyatda ilgari suriladi va jamiyat a'zolari shaxs bilan bog'liq bo'lgan omillardan qat'iy nazar ularga teng munosabatda bo'lishi belgilanadi. Ammo tenglik bir xillikni anglatmaydi ya'ni tili, etnik kelib chiqishi, nuqtai nazari, nogironligi, jinsi va uning xilma hilligi bilan bog'liq munosabatlar, nutq, imo-ishoralalar, harakatlar va faoliyat usullari qanday ekanligi hisobga olinishi kerak bo'ladi. Bolalarni qo'llab-quvvatlash bir nechta shakllarda joriy etilgan bo'lib, bu bolaning nogironligi, kasalligi, rivojlanishda orqada qolganligi va boshqa kasalliklari bolaning hayotida, qobiliyatining rivojlanishida sezilari darajada o'zgartirib yuborishining oldini oladi.

Finlandiya ta'limi o'z ta'lim oluvchilariga maktabgacha ta'limdan boshlab katta ishonch bildiradi va bu bildirilgan ishonch bolalar tomonidan oqlanmay qolmaydi. Buning dalili sifatida ta'lim tizimida joriy etilgan "ko'p savodxonlik" tushunchasini olishimiz mumkin. Ko'p savodxonlik rasm savodxonligi, raqamli savodxonlik, media savodxonligi va asosiy savodxonlik kabi turli savodxonlik ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.[4] Bular orasidan raqamli savodxonlikka to'xtaladigan bo'lsak, Finlandiyada raqamlilik bola o'sadigan jamiyatning bir qismi va bola raqamli kompetensiyada o'zini va boshqalarni hurmat qilish, himoya qilishga, raqamli vositalar, ilovalar, muhitlar, hujjatlar, o'yinlar, o'zaro ta'sirlar, tadqiqotlar, harakat, badiiy tajribalar ishlab chiqarishda, bolaning ijodiy fikrlashida va boladagi hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirilishida foydalaniladi. Bunday mashg'ulotda tarbiyachi-pedagoglar bolalarni raqamli muhitdan ko'p qirrali, mas'uliyatli va xavfsiz foydalanishga yo'naltirib boradilar.

Finlandiya ta'lim tizimidan biz nimalarni olishimiz mumkin?

Eng avvalo pedagoglarning e'tiborli, mas'uliyatli va kamtarona ta'lim muhitini yaratishini, bolalarga nisbatan rag'batlantirish kuchliligini, bolaga bola nazarida emas shaxs nazarida qaralishi kerakligini, mashg'ulotlarda nazariy bilimdan ko'ra ko'proq amaliy bilimlar berib borilishini, raqamli savodxonlikni rivojlantirilishini olishimiz mumkin. Raqamli savodxonlikni oshirish uchun eng avvalo pedagoglar bunday bilimlarga ega bo'lishi kerakligini aytib o'tishimiz zarur. Pedagog bunday bilimlarga ega bo'lmay turib, qo'lidagi tarbiyalanuvchilariga ta'lim bera olmaydi.

Finlandiya pedagoglari har bir tarbiyalanuvchiga e'tibor bilan va do'stona munosabat bildirishi, ta'lim tizimida "kamroq yuklama ko'proq natija" prinsipi asosida faoliyat olib borishi e'tiborimni tortdi. Bolalar ustidan "xo'jayin" ko'rinishida emas, balki samimiyat bilan ularning oldilarida o'tirib, o'yinda ham mashg'ulotda ham birgalikda ishlashi, bolaning kichik yutug'i uchun katta rag'bat berishi tarbiyalanuvchilarning o'zlariga nisbatan ishonch hissini rivojlanishiga va hayotda o'z o'rnini tez egallashiga poydevor bo'lmoqda.

Bolalar o'zlarini qulay va xavfsiz his qilganlarida yaxshiroq o'rganadilar. Ijodiy hissiy tajribalar va o'zaro munosabatlar ta'lim olishga yordam beradi. Tengdoshlar guruhi va jamiyatga mansublik tajribasi bolaning o'rganishi va inklyuziyasi uchun markaziy o'rinni egallaydi. Bolalarni ta'lim olish jarayonida pedagoglarning ko'rsatmalari va yordamini olishlari kerak. Bolalarning qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar bilan shug'ullanishl ularni ko'proq o'rganishga undaydi. Har bir bola o'z faoliyatidan muvaffaqiyat va quvonch olishi, hamda tarbiyalanuvchi sifatida o'z tajribasiga ega bo'lishi kerak. Ilk bolalik davri ta'lim rejasining asoslarida pedagogik qarashlar bolani, bolalikni va ta'lim olish jarayonini tushunishga asoslanadi. Pedagogika bu - bolalarning rivojlanishi va bilim olishini amalga oshirish uchun tajribali xodimlar tomonidan professional ravishda boshqariladigan va amalga oshiriladigan ko'p tarmoqli, ayniqsa ta'lim va ilk bolalik ta'limi ilmiy bilimlarga asoslangan, rejalashtirilgan va maqsadga yo'naltiriladigan faoliyat bo'lib, bolalar bir vaqtning o'zida ko'plab ko'nikmalarni o'rganadilar va bilim oladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi ta'limda o'yinning bola uchun o'ziga xos qiymatini, shuningdek, uning ta'lim va bolalarning umumiy rivojlanishi va farovonligidagi pedagogik ahamiyatini tushunish kerak.

Bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lganligi bois yangi bilimlarni o'rganishni, o'rganilganlarni takrorlashni xohlashadi. O'rganish yaxlit va hamma joyda sodir bo'ladigan hodisadir. U bilim, ko'nikma, harakat, his-tuyg'u, hissiy idrok, tana tajribasi, til va tafakkurni birlashtiradi. O'rganish, masalan, bolalar o'z atrof- muhitini kuzatish va boshqalarning harakatlariga taqlid qilishda sodir bo'ladi. Shuningdek, bolalar o'ynash, harakat qilish, izlanish, turli mehnat vazifalarini bajarish, o'zlarini ifoda etish va san'atga asoslangan faoliyatda o'rganadilar. Maktabgacha yosh davridagi ta'lim xodimlar, bolalar va atrof-muhitning o'zaro ta'siri natijasida amalga oshiriladi. Bu erta ta'lim, o'qitish va g'amxo'rlikni bir butunlikda tashkil qilishga imkon beradi. Ushbu uch o'lchovni konseptual jihatdan alohida, ammo amaliy jarayon deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Butun maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida pedagogikaga alohida e'tibor berish pedagogik tajriba va bolalarning o'qishi va rivojlanishi ta'minlash bo'yicha xodimlarning umumiy tushunchasini talab qiladi.

Keng tajriba: harakatda ular bir-biriga bog'lanadi. Bu bolaning o'sishi, rivojlanishi va

o'rganishini rag'batlantirishga kompleks yondashuv imkonini beradi. Turli yoshdagi bolalar faoliyatida va ilk bolalik ta'limining turli shakllarida ta'lim, o'qitish va g'amxo'rlik turli yo'llar bilan ta'kidlanadi.

Ta'lim yordamida bolalar o'z fikrlarini shakllantirishga va mamlakatda hukmron bo'lgan fikrlash va harakat usullarini tanqidiy baholashga, shuningdek, axloqiy jihatdan barqaror harakat qilishga yo'naltiriladi. Ta'limning tarbiyaviy vazifasi — bolalarning o'z harakatlarining boshqa odamlarga va atrof-muhitga ta'sirini idrok etishni o'rganadigan tarzda bolalarning shaxsiyatini shakllantirishga ongli ravishda rahbarlik qilishdir. Bolalarning rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi, shunda ular harakat qilishni o'rganishadi va o'z qobiliyatlarini boshqalarning manfaati uchun ishlatishadi. Ta'lim bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlari, qiziqishlari, kuchli tomonlari va individual yordam ehtiyojlarini hisobga oladi. Bundan tashqari, o'qitish ta'lim muhiti keng kompetensiya pedagogik faoliyat va bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan maqsadlarga asoslanadi. G'amxo'rlik - bu asosiy jismoniy ehtiyojlar va hissiy g'amxo'rlik. Maqsad — bola o'zini qadrligi, tushunilgan his qilishi va boshqa odamlar bilan bog'langanligini his qilishidir. O'zaro va hurmat asosiga qurilgan muloqot, shuningdek, ijobiy yaqinlik yaxshi g'amxo'rlik qilish uchun asos bo'ladi. Ovqatlanish, kiyinish va yechinish, dam olish va gigiyena qoidalariga rioya qilish kabi kundalik takrorlanadigan vaziyatlar bola kun tartibining asosi va pedagogik faoliyatning bir qismidir. Maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi ta'limdagi g'amxo'rlik holatlari har doim bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiyaviy vaziyatlar bo'lib, ularda, masalan, o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalari, o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalari, vaqtni boshqarish va yaxshi odatlar o'rganiladi.

Ta'lim - bu madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va me'yorlar uzatiladigan, shakllantiriladigan va yangilanadigan faoliyat. Ta'lim maqsadining bir qismi madaniy meros, muhim qadriyatlar va an'analarni kelajak avlodga yetkazishdir.

O'qitishning boshlang'ich nuqtasi ilk maktabgacha yoshdagi bolalik ta'lim rejasining asoslarida belgilangan ta'lim konsepsiyasidir. O'qitishning maqsadi bolalarning o'qishini rivojlantirish va bolalarga o'zlarini, boshqa odamlar va atrof-dagi dunyo haqida ma'no yaratishga yordam berishdir. Maktabgacha yosh davridagi ta'limda bolalar mamlakat haqida yangi narsalarni o'rganishga va turli xil ta'lim usullaridan foydalanishga yo'naltiriladi. O'qitish bolalarning tabiiy qiziqishi va kashf qilish istagini qo'llab-quvvatlaydi va undan foydalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida bolalarning keng ko'lamlari kompetensiyalarini rivojlantirish uchun poydevor yaratiladi. Keng qamrovli kompetensiya bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, munosabatlar va irodalar yig'indisidan iborat. Kompetensiya bilim va ko'nikmalardan foydalanish, vaziyat talabiga ko'ra harakat qilish qobiliyatini ham anglatadi. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash va o'rganish qobiliyatlari — fikrlash va o'rganish madaniy kompetentlik, o'zaro ta'sirni ifodalash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va kundalik ko'nikmalar, ta'lim jarayonidagi ishtirok va bolalar tomonidan qabul qilingan qadriyatlar xodimlarning o'zaro ta'sirida shakllanishda davom etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.B. E Parmonov "Xorijiy tajribalar psixologik jihatlari"
- 2.F.Norboyev. "Maktabgacha ta'limda uch madaniyat tadqiqi". Xitoy tajribasi.
- 3.I.G' Mamajonov "Germaniya davlati ta'lim tizimi."
- 4.O. Qo'ysinov. "Finlandiyada maktabgacha ta'lim." Toshkent
- 5.Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi"

Internet saytlari.

<http://www.edunet.uz>

<http://www.istedod.uz>

# O'ZBEKISTONDA O'SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSINI HAMDA ATMOSFERANI TURLI TA'SIRLARDAN MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Xalilova Feruza-

BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası biologiya fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Inson tabiat jonzotlari orasida eng onglisi bo'lib, tabiatdagi barcha in'omlarning egasi hamdir. Inson tabiat ne'matlaridan uning qonunlarini buzmaganda foydalanishi, bizning bu masalaga qanchalik e'tibor bilan qarashimizga bevosita bog'liqdir. Inson hayot faoliyati davomida tabiat bilan munosabatda bo'ladi va o'zi bilib bilmagan holda unga ta'sir ko'rsatadi. Yer yuzida ko'plab o'simlik va hayvonot dunyosi vakillarining qirilib ketishiga yerlarning o'zlashtirilishi, o'rmonlarning kesilishi, yerlarning suv bosishi, yong'inlar, ovchilik, daryo ko'llarining qurib qolishi, chiqindilar bilan atrof muhitning ifloslanishi, turli yuqumli kasalliklar sababchi bo'lmoqda. Turlarning yo'qolib borishida antropogen omillarning ta'siri kattadir. O'zlashtirilgan yerlarda ayniqsa, sanoat rivojlangan yerlarga juda oz o'simlik va hayvonlar moslashadi. O'zbekiston hayvonot olamining turi juda ko'p va xilma xildir. Hududimizda 650 dan ortiq umurtqasiz hayvonlar bo'lib, shulardan 83 baliq turi, 3 ta amfibiya, 58 tur sudralib yuruvchilar, 424 turdan ziyod qushlar va 97 tur sutemizuvchilar yashaydi.

O'zbekistonda lola, shirach, kiyiko't kabi o'simliklar, jayron, silovsin, turna, echkiemar kabi hayvonlar borgan sayin insonlarning salbiy ta'siri natijasida yo'qolib bormoqda. O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari soni yildan yilga ko'paymoqda.

O'zbekistonda 2015 yilda chop etilgan Qizil kitobga 24 tur sutemizuvchilar, 15 tur qushlar, 16 tur sudralib yuruvchilar, 18 tur baliqlar kiritilgan. Umurtqasiz hayvonlarning 80 turi va o'simliklarning 163 turi kiritilgan.

O'zbekiston bioxilma-xilligiga xavf solayotgan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turlarning yashash uhitlarining va tabiiy ekosistemalarning buzilishi;
- iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turlar sonining kamayishi;
- turlarning genetic xilma-xilligi va tabiiy barqarorligining buzilishi yoki yo'qotilishi.

O'zbekistonda biologik xilma-xillikning saqlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi.

Inson tabiatdan o'z ehtiyojlari yo'lida foydalanar ekan uning salbiy oqibatlarini haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Tabiatga bo'lgan munosabat shu tariqa davom etaversa, o'simlik va hayvon turlari sonining kamayishiga, tabiatda "tabiiy" likning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

Tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilish qadimdan ma'lum. Qadimgi qo'lyozma bitiklarda ham suv, havo, tuproq, o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish qayd etilgan. Dunyoning hamma mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham tabiatni, uning suvi, tuprog'i, havosi o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish bo'yicha qonun va qoidalar bor. O'zbekistonda 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun qabul qilingan. Bu qonun vatanimiz tabiatini saqlashda uni boyitishda katta rol o'ynaydi. Tirik organizmlarni saqlash ularni kelajak avlodlarga qoldirish uchun turlarni ovlamaslik, ular yashaydigan joylarni muhofaza qilish, qo'riqxonalar va milliy bog'larni tashkil etish va mavjudlarining faoliyatini tubdan o'zgartirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero tabiatni saqlash uni asl holicha kelajak avlodlarga qoldirish har birimizning zimmamizdagi asosiy vazifadir.

Atmosfera – yerning gazsimon qatlami bo'lib, yer po'stiga fizik, kimyoviy va biologik ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera tirik organizmlarni kosmosdan tushadigan meteoroidlar, turli ultrabinafsha nurlari ta'siridan himoya qiladi. Shuningdek atmosfera quyosh issiqligini saqlaydi va nur tashish uchun o'tkazuvchanlik vasifasini bajaradi. Atmosfera tirik organizmlar uchun zarur kislorodni yetkazib berishda, moddalar almashinuvining gazsimon mahsulotini hosil qilishda, termoregulyatsiya jarayonlarida ya'ni yer yuzasidagi issiqlik va namlikni tartibga solib turishda katta ahamiyatga ega. Yerni o'rab turgan havo qatlamining 99% ni (78.09%) N<sub>2</sub>, (20.95%) O<sub>2</sub> gazlar egallaydi. Qolgan 1% ni esa Ar, CO<sub>2</sub>, Ne, H<sub>2</sub>, He, Kr, Ks, NH<sub>3</sub>, O<sub>3</sub> kabi gazlar tashkil etadi.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, to hozirga qadar tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'z ehtiyojlari yo'lida tabiatdan ayovsiz foydalanib kelmoqda. O'rmonlar sathini qisqarishiga, ko'pgina yovvoyi o'simlik turlarini yo'q bo'lib ketishiga, suv, tuproq va atmosferaning ifloslanishiga sababchi bo'lmoqda. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu ta'sir yanada ortdi. Keyingi vaqtlarda sanoat ishlab chiqarishi, elektr energiyasi iste'moli va motorli transportning har xil turlaridan foydalanishning oshib borishi atmosferaning musaffoligiga salbiy

ta'sir etmoqda. Bu esa bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi aholi salomatligining yomonlashuviga, o'simliklarning shikastlanishiga, tabiatda foydali hayvonlarning yildan – yilga kamayib ketishiga va boshqa shu kabi zararli ta'sirlarni yuzaga keltirmoqda. Atmosfera havosini tozaligini saqlab qolish va uni yaxshilash borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hududida aholi yashash joylari atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalardan muhofaza qilishga qaratilgan 1995-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida aholi yashash joylarida atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdorini qo'shimcha gigiyenik normativlari" to'g'risidagi, 1996-yil 27-dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi" qonunlari qabul qilindi.

Atmosferaga chiqadigan chiqindilarni tozalash chora – tadbirlari shartli ravishda texnologik, loyihalashga asoslangan va sanitariya – texnik guruhlarga bo'linadi. Texnologik chora – tadbirlar texnologik jarayonni almashtirish yo'li bilan zararli moddalarni atmosferaga chiqarib tashlashni kamaytirish yoki yo'qotishga qaratilgan. Masalan, ko'mir yoki mazut yoqib isitiladigan qozonlar gaz bilan isitilsa, atmosferaga chiqadigan zararli moddalar 70-90% ga kamayadi. Quruq qayta ishlashni ho'l qayta ishlash bilan almashtirish, chiqindisiz ishlab chiqarishni joriy qilish kabi usullardan foydalanish aholi turar joylari havosini toza bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtiruvchi chora-tadbirlar asosan shahar hududini shamol yo'nalishini hisobga olgan holda ishlab chiqarish va yashash hududlariga to'g'ri taqsimlashni, gazlar ta'siriga chidamli o'simliklar bilan aholi mavjud hududlarini ko'klamzorlashtirish va boshqa biq qancha tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ko'klamzorlashtirish maqsadida o'stirilgan o'simliklar kishiga nafaqat estetik zavq bag'ishlashda, balki havoni tozalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'simliklar ayrim gazlar uchun faqat mexanik to'siq emas balki kimyoviy filtr rolini ham o'taydi. Masalan: Yashil daraxtlarning atmosfera havosidan sulfid angidridni tutib qolishi va uni o'z to'qimalarida sulfatlar holida to'lashi bizga ma'lum. Ba'zi bir o'simliklar jumladan, archa, qarag'ay, terak, yong'oq va shu kabi boshqa o'simliklar o'zidan fitonsidlar ajratib chiqarish xususiyatiga ega. Ushbu moddalar esa ko'pchilik zararli mikroorganizmlarni holdan toydiradi va hatto nobud qiladi. Bu esa kishilar salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanitariya-texnik chora-tadbirlar sanoat korxonalarini va avtotransport vositalaridan ajralib chiqadigan zararli chiqindilarni tozalashga qaratilgan bo'lib, quruq mexanik chang ushlagichlar, filtrlar, elektrostatik filtrlar va ho'l usulda tozalash apparatlaridan foydalanishni talab etadi. Ushbu tozalash inshootlari mazkur sanoat korxonalaridan ajralib chiqayotgan zararli omillarni kamaytirish yoki butunlay yo'qotishga qaratilgan. Atmosferaga chiqadigan chiqindilarni tozalash chora – tadbirlarini amaliyotga to'liq qo'llash ko'zlangan maqsadga erishishda muhim sanaladi.

Atmosfera havosining musaffoligini asrash tabiatda moddalar almashinuvi muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, atmosferani saqlash har bir kishining burchidir.

## **OROL DENGIZI – GLOBAL EKOLOGIK FOJEA SIFATIDA**

### **Xamrokulova Nargiza – “Zarmed” Universiteti o'qituvchisi**

Hozirgi zamonning eng yirik global ahamiyatga ega ekologik fojeasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari va uning 70 millionlik xalqini tashvishlantirib kelayotgan Orol dengizi muammosining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar salbiy oqibatlarini mintaqaning barqaror rivoji, genofondi va kelajak avlodiga tog'ridan-tog'ri tahdid manbai bo'lib kelmoqda. Orolbo'yi muammosi bevosita Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston hamda bilvosita Tojikiston va Qirg'iziston hududlarini qamrab oladi.

Orolbo'yi hududi o'zining xilma-xil hayvonot va o'simlik dunyosiga ega bo'lib, ushbu havzada 38 turdagi baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo'lgan. Jayronlar 1 million boshgacha, flora 638 turdagi kamyob o'simliklarni tashkil etgan. Orol dengizi 1960 yilgacha eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan, hududi 68,9 ming kv. km, suv miqdori 1083 kub km, uzunligi 426 km, kengligi 284 km va eng chuqur joyi 68 metrni tashkil qilgan.

Orol dengizi mintaqa iqtisodining rivoji, sanoati, aholining ish bilan bandligi va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Avval ushbu dengiz baliq yetishtirish bo'yicha dunyodagi ilg'or maskanlaridan biri hisoblangan bo'lib, Orolbo'yi havzasidagi



yillik baliq ovlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Orol dengizi qirg'oqlarida yashovchi aholining 80 foizidan ko'prog'i baliq ovlash va baliq mahsulotlarini tayyorlash va yetkazish bilan band bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo deltalarining unumdor yerlari, hamda serhosil yaylovlari 100 mingdan ziyod odamlarning chorvachilik, parrandachilik bilan mashg'ul bo'lishini, hamda ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishlarini ta'minlagan. SHuningdek, Orol dengizini havzaning iqlimini tartibga solishdagi hamda butun mintaqada ob-havoning keskin o'zgarishini yumshatishdagi vazifasi aholi turmushi sharoitlariga, qishloq xo'jaligi va ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatardi. Qish faslida mintaqaga kirib keladigan ulkan havo oqimi iliq, yoz faslida esa Orol dengizi akvatoriyasida iqlim salqin holatda bo'lgan.

Orol dengizi muammosi XX asrning 60-yillarida mintaqadagi ikki yirik transchegaraviy daryolar Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan o'ylamasdan foydalanish natijasida paydo bo'ldi va ulkan tahdid manbaiga aylandi. Ushbu ikki daryodan Orol dengiziga har yili 56 kub. km suv quyilgan. Aholining sezilarli tarzda ko'payishi, urbanizatsiya, yerlarning shiddat bilan o'zlashtirilishi, ekologik oqibatlarini o'ylamasdan Orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng chiroyli havzaning qurishiga olib keldi. Bir avlod ko'z o'ngida butun bir dengiz qurib bo'ldi. Orolbo'yini jonsiz sahroga aylantirgan degradatsiya jarayoni davom etmoqda.

Orol dengizi fojeasi – eng katta global ekologik halokatlardan biri bo'lib, xususiyati va ko'lamiga ko'ra turli ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu bois Orol dengizi tanazzulining salbiy oqibatlarini bevosita boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, birinchi navbatda, O'zbekiston jahon hamjamiyatini tobora qurib borayotgan ushbu dengizni qutqarish, mintaqadagi ekologik ahvolni barqarorlashtirish va eng muhimi, bu yerda yashayotgan aholi hayotini yaxshilashga da'vat etib keladi.

Bugungi kunda Orol dengizining katta qismi Orolbo'yi mintaqasini shafqatsizlarcha qamrab olayotgan 5,5 million gektardan iborat qum-tuz sahrosiga aylangan. Olimlarning ta'kidlashicha, har yili atmosferaga qurib borayotgan dengiz tubidan 75 million tonnadan ziyod chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, 400 kilometrlik maydon bo'ylab tarqalmoqda. Orol dengizining G'arbdan SHarq tomonga esadigan kuchli havo oqimi yo'lida joylashgani va bu ayerozollarning atmosfera yuqori qatlamlariga ko'tarilishiga yordam berayotgani atrof-muhit ifloslanishi oqibatlarini yanada kuchaytirmoqda. Tuz oqimlari alomatlari butun yevropa va hatto SHimoliy muz okeanida ham kuzatilmogda. YAqin vaqtlargacha kattaligi bo'yicha dunyoda to'rtinchi ko'l bo'lgan Orol dengizi tabiiy zaxiralarga boyligi bilan mashhur edi. Orolbo'yi mintaqasi esa rivojlanayotgan va biologik jihatdan boy tabiiy muhit hisoblanardi. Orolning o'ziga xosligi va xilma-xilligi hech kimni befarq qoldirmasdi. Mahalliy aholining aytishicha, Orolbo'yi bir paytlar Qoraqum va Qizilqum sahrosi o'rtasida joylashgan najotbaxsh maskan bo'lgan. Suvning ifloslanishi, dengizning qaqragan tubidan katta miqdorda tuz va chang ko'tarilishi Orolbo'yi mintaqasi aholisi orasida turli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu yerdagi xavfli ekologik holat bolalarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizining halokatga uchrashi tabiatga ham katta zarar yetkazayotir. Mintaqada hayvonot olami genofondining deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni baliqlarning 11, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simlikning 11 turi yo'q bo'lib ketgan.

Suv resurslarining tanqisligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi, yerning ifloslanishi va yaroqsiz holga kelishi, bioxilma-xillikning keskin kamayib ketishi, aholi salomatligi va genofondining yomonlashuvi, iqlim o'zgarishlari, ehtimol, shu bilan bog'liq ravishda mintaqa asosiy daryolari oqimining katta qismi hosil bo'ladigan Pomir va Tyan-SHan muzliklari maydonining qisqarib borishi – bular Orol dengizining halokati natijasida vujudga kelayotgan muammolarning bir qismi, xolos.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ko'p yillardan buyon ushbu ekologik ofat oqibatlarini bartaraf etish yo'lida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. 1993-yilning yanvar oyida O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston hamkorligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining tashkil etilgani bu borada muhim voqea bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ushbu masalani ilk bor BMT Bosh assambleyasining 1993-yil 28-sentabrda bo'lib o'tgan 48-sessiyasida ko'tarib chiqqan va jahon hamjamiyati e'tiborini Orol dengizi muammosiga qaratgan edi. Bundan tashqari, Orol fojeasining halokatli oqibatlari kuchli ta'sir ko'rsatayotgan davlatlar vakillari Bosh assambleyaning 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida jahon hamjamiyatiga Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasini qutqarishda yordam so'rab murojaat qildi. Davlatimiz rahbari BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi shaf'eligida Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari bo'yicha kengashni tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi.

«Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari» va «Orol dengizi mintaqasida ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish» mavzusida bo'lib o'tgan bir qancha xalqaro konferensiyalar mintaqadagi ekologik ahvolni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Konferensiyalar doirasida ishlab chiqilgan Harakatlar rejasi Orol dengizi havzasi davlatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha 2011-2015-yillarga mo'ljallangan uchinchi dasturning asosini tashkil etdi. SHunday bo'lsada, Orol fojeasi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojealardan biri bo'lib qolmoqda. Orolni asosini dengiz sifatida saqlab qolish, ekologik inqirozni oldini olish demakdir. Lekin quruq saxrolar qurshovida qolib ketgan bu dengizni suv xavzasi sifatida saqlab qolish ancha mushkul.

Bugun Orolbo'yi mintaqasini qayta tiklash muammolarini yengillashtirish, aholi salomatligi va genofondini saqlash, ekotizimlarni qayta tiklash va himoya qilish, aholining munosib hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, Orol dengizi muammolarini bartaraf etish masalasi o'z ko'lami jihatidan mazkur mintaqa davlatlari iqtisodiy imkoniyatlaridan yuqori turadi. SHu bilan birgalikda, Orol dengizi qurishining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari keskinlashuvini, hamda Orolbo'yida yashovchi aholi yashash muhiti inqirozinining kuchayayotganligini hisobga olib, BMT va jahon hamjamiyatining jiddiy ko'magisiz ushbu global muammoni hal etish mumkin emasligi tobora aniq bo'lib bormoqda.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir.

## **ZAMONAVIY O'ZBEKISTON SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**O'zbekiston, Navoiy prezident maktabi ingliz tili  
o'qituvchisi Tashpulatova M.A.**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy ta'lim talab darajasiga ko'tarilgan davrda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy qobiliyatlarning rivojlanishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etish kabi ma'lumotlar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, innovatsiya, kasbiy kompetensiya, lingvistik, leksik, professional pedagog, chet tillarni o'rgatish, axborot texnologiyalari, texnik bilimlar, raqobatbardosh kadrlar.

**Аннотация:** В данной статье представлена такая информация, как развитие профессиональных навыков у будущих учителей английского языка в период, когда современное образование выходит на уровень востребованности, использование инновационных технологий, организация инновационного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** современное образование, инновации, профессиональная компетентность, лингвистическая, лексическая, профессиональный педагог, обучение иностранным языкам, информационные технологии, технические знания, конкурентоспособный персонал.

**Annotation:** this article presents such information as the development of professional abilities in future English teachers, the use of innovative technologies, the organization of an innovative educational process during the period when modern education is in demand.

**Keywords:** modern education, innovation, professional competence, linguistic, lexical, profession educator, teaching foreign languages, information technology, technical knowledge, competitive personnel.

Mamlakatimizda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z

tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari zamonaviy ta‘lim sharoitidagi bo‘lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk, kasbiy tayyorgarligi yuqori, innovatsion fikrlaydigan kadrlarni sifati va sonini oshirish masalasiga urg‘u berishni talab etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohada ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta‘minlash orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, ta‘limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik va texnik bilimlarni mustahkam integratsiyasini ta‘minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish asosiy maqsadlardan etib belgilangan. Jamiyatimizda ta‘lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar zahirida ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan davlatlar darajasidagi talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e‘tiborda. Bu esa o‘z-o‘zidan pedagoglardan kompetentsiyaviy yondashuvni talab etadi.

Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta‘limning an‘anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko‘nikma - malaka”ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma‘nolarini bildiradi) - sub‘yektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘zo‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan.

Shuningdek, pedagogik jarayonni boshqarayotgan pedagog, bizning holatimizda, chet tili o‘qituvchisining pedagogik mahorati, uning pedagogik qobiyaliyati va layoqati masalalarini o‘z mazmuniga qamrab oladi. Bunda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlashda quyidagi didaktik tamoyillarni o‘z ichiga qamrab olishi zarur:

- ingliz tili o‘qituvchisi shaxsiyati va uning ijobiy, progressiv va rag‘batlantiruvchi bo‘lib namoyon bo‘lishi;
- Ingliz tili o‘qituvchisidagi yuksak axloqiylik va ma‘naviyat;
- ingliz tili o‘qituvchisining milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglash tafakkuriga egaligi;
- chet tili o‘qituvchisining milliy manfaatlarni mutanosib anglashi; uning vatanparvarligi, millatparvarligi va uning yetakchilik qobiliyati;
- ingliz tili o‘qituvchisining milliy va umumbashariy qadriyatlarni to‘g‘ri anglashi, ularga sodiqligi;
- ingliz tili o‘qituvchisida ijobiy til amaliyoti tajribasi, bilim, malaka va ko‘nikmalarning mavjudligi;
- uning yuksak insoniy fazilatlariga egaligi, kamtarligi, to‘g‘ri so‘zligi, adolatparvarligi, kirishimlilik, o‘z faoliyatiga nisbatan qat‘iy qaray olishi va boshqalar.

Bo‘lajak tarjimon-pedagoglarda quyidagi kompetensiya ko‘rinishlarini rivojlantirish lozim:

**1. Kommunikativ kompetensiya** – o‘rganilayotgan chet tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidan iboratdir.

**2. Lingvistik kompetensiya** -til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qishvayozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

**3. Sociolingvistik kompetensiya**- so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sociolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

**4. Pragmatik kompetensiya** -o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib ketaolish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurskompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurskompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretasiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

**5. Nutqiy kompetensiya**- chet tilini bilish darajasida uning og'zaki nutq malaka va ko'nikmalarining to'la shakllangan bo'lishini anglatadi. Nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning amaliy natijasi, uning amaliy va ijodiy namoyon bo'lishi holati sanaladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirmay turib to'la holda chet tilini bilaman deb bo'lmaydi. Nutqiy kompetensiya aslida chet tilini bilganlik, uni anglaganlik, uni o'zlashtirilganligining bosh me'yori sanaladi. Nutq bo'lmasekan, demak til ham yo'q sanaladi. Binobarin, ta'lim berish jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish til o'qitishdagi bosh talablardan biriga teng keladi.

**6. Leksik kompetensiya**- harqanday til, shu jumladan ona tili va xorijiy tilning ma'lum bir og'zaki nutq, badiiy til va kundalik til leksik qatlami borligini ko'rsatib beruvchi omildir. Leksik kompetensiya xorijiy tilni bilish me'yorlaridan biri bo'lib, u mazkur til qatlamidagi ma'lum bir birliklar o'zlashtirilganligini ko'rsatadi. Agar oddiy muloqot uchun chet tili doirasida 500 dan ortiq leksik birlik faol o'zlashtirilishi yetarli bo'lsa, uning undan yuqori darajada, ya'ni ilmiy, badiiy, intellektual, tarixiy darajada o'zlashtirilishi uchun 5000 leksik birlik ham yetarli bo'lmayligi mumkin. Shubois, OTM darajasiga yetib kelgan talaba aslida zarur bo'lgan birlamchi leksik daraja, ya'ni 500 leksik birlikni qat'iy va a'lo darajada o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Ayna OTM tarkibida talabalar undan yuqori leksik qatlam, ya'ni intellektual, tarixiy, ilmiy, badiiytil leksik qatlamlari o'zlashtirish yo'lidan borishi taqozo etiladi. OTMsidagi chet tili bo'yicha leksik qatlam talabaning mutaxassislik doirasidagi leksik qatlamning faol o'zlashtirilishini talab etadi. Leksik qatlamni rivojlantirishning bosh usuli chet tilidagi ilmiy, ommabop, badiiy, mutaxassislikka oid til materailarni o'qish va o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

**7. Grammatik kompetensiya** - har qanday til qurilishida asosiy rol o'ynaydigan asos sanaladi. Grammatik kompetensiya til o'rganilishi boshlanishi bilan o'rganila boshlanadi. Binobarin, grammatik kompetensiya bilan til o'rganayotgan inson ja'mi 18 yil shug'ullanadi. Grammatik kompetensiya bir tomondan grammatik qonun qoidalarni yodlash, ularni anglash va ularning til amaliyotida adekvat va to'g'ri qo'llay olishda zarur bo'lsa, ikkinchi tarafdin grammatik kompetensiya til mohiyatini chuqur anglash va qabul qilish, til mohiyatini «o'ziniki» qilib olishda o'zini yorqin namoyon qiladi. Grammatik kompetensiyaning oddiy qoidalari maktab ta'limi davrida egallangan bo'lishiga qaramay, aynan OTM davrida ular o'zini erkin, anglangan va chet tili malakalarini amaliyotga faol qo'llangan tarzda namoyon qila boshlaydi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlarning kelgusida innovasion pedagogik faoliyatini tashkil qilishda pedagogik jarayon obyektining o'z mutaxassislik xususiyatlarini mukammal egallashi, uning xissiy-emosional, pedagogik va psixologik xususiyatlari va o'ziga xosligini anglashi, pedagogik uslub, shakl va vositalardan mutanosib tarzda foydalana olishi ijobiy samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. - Toshkent, 2017, 7 fevral.
2. Авганов С.С. Профессиональная подготовка будущего учителя иностранных языков на основе применения компьютерных технологий для общеобразовательных школ. - Душанбе: Университет, 2013. -168 с.
3. Алиев С. Н. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей иностранных языков. - Душанбе, 2009. - 374 с.
4. Ахмедова Г.У. Педагогические условия формирования общечеловеческих нравственных ценностей средствами иностранного языка. –Ташкент: Зиё, 2012. -124 с.
5. Балясникова Н. С. Оптимизация обучения лексике английского языка как второго иностранного студентов языковых вузов: английский язык при первом иностранном языке. - Санкт-Петербург, 2009. - 237 с.

## TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi katta o'qituvchisi D.Q.Ulug'berdiyeva  
NavDPI 4 kurs(sirtqi) talabasi K.A. Nazarova*

### ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashga zamonaviy, kasbiy kompetentli yondashuv, innovatsion kompetentlilik, pedagogik faoliyat va amaliy-yo'naltirilgan ta'lim asosidagi yondashuvlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, o'qituvchi, zamonaviy, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat, kompetensiya, kompetentli pedagog.

### Annotation

The article presents a modern, professionally competent approach to the training of future teachers, based on innovative competence, pedagogical activity and practice-oriented education.

**Key words:** Education system, teacher, modern, competent, professional, approach, activity, competence, competent educator.

Hozirgi kun o'qituvchisiga doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga to'g'ri kelmoqda, bu o'z navbatida uning kasbiy sifatlari takomillashtirilishini talab qiladi. Pedagogik nazariya va metodikalarning doimiy rivojlanishi, pedagogic amaliyotga o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish hozirgi kun o'qituvchisining ta'lim texnologiyalari sohasida qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligini ko'rsatmoqda [1-5].

Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'lim tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o'tilgan talablar yangi milliy ta'lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotiing mustahkamlanishiga olib keladi.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi [6-11].

### MUHOKAMA

Bugungi kunda kompetentli yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy faoliyat kometensiyalarining shakllanishini, balki bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari yuzaga chiqarilishini ham ko'zda tutadi. Oliy ta'lim standartida bo'lajak mutaxassisga mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, o'z kasbini erkin egallaganlik va faoliyatning turdosh yo'nalishlarida

yoʻnalishni topa olish imkoniyatlari haqida talablar qoʻyiladi - bularning barchasini kompetentli yondashuv sharoitlaridagina yuzaga chiqarish mumkin.

"Kompetensiya" tushunchasining taʼriflaridan kelib chiqib (bu tushuncha esa oʻz navbatida hamma tomonidan bir xilda talqin qilinavermaydi), koʻpchilik mualliflar uni mutaxassisning oʻzi olgan bilimlarini amaliyotda qoʻllay olishga tayyorligi, boshqalari esa muammolarni hal qila bilish qobiliyati tarzida taʼriflaydilar.

Lotinchadan tarjima qilinganda "kompetensiya" soʻzi kishi biron-bir masala doirasida yaxshi xabardor ekanligini bildiradigan, tajribaga ega ekanligini koʻrsatadigan tushunchani ifodalaydi. Oliy taʼlim boʻyicha DTS ga muvofiq kompetensiya - bu maʼlum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, mahorat va shaxsiy sifatlarni qoʻllash qobiliyatidir. Kompetentli yondashuv muammosiga murojaat qilish "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarining bir-biridan ajratilishini talab qiladi, chunki, ularning pedagogik adabiyotlarda [6]. Yetarlicha koʻp ishlatilishiga qaramasdan mazkur tushunchalarni hozirgi vaqtlargacha bir xil maʼnoda talqin qilish variantlari mavjud emas.

"Kompetentlilik" tushunchasi (lotincha *sompetentia*, *compete* - birgalikda erishaman, uddalayman, mos kelaman, toʻgʻri kelaman maʼnolaridagi soʻzidan hosil qilingan) lugʻatlarda bir xilda talqin qilinmaydi, balki "biron-bir narsa haqida fikr yuritishga imkon beruvchi bilimlarga egalik" va "xabardorlik, vakolatlilik", "obroʻga egalik, toʻla huquqlilik" kabi variantlarda qoʻllaniladi [2;3].

Kompetentli yondashuv gʻoyalari bir qancha xorijiy tadqiqotchi-olimlarning ishlarida koʻrib chiqilgan. Kompetentli yondashuv oliy taʼlim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning maqsadi sifatida kompetentlilikning belgilanishiga asoslanadi. Kompetentli yondashuv taʼlim oluvchilar tomonidan har xil hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga imkon beruvchi turli hildagi mahoratning oʻzlashtirilishini koʻzda tutadi.

#### NATIJA

Kompetentli yondashuv oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari modeli asosiga qoʻyiladi va oliy taʼlim boʻyicha DTS doirasida yuzaga chiqariladi. Bitiruvchi modeli uning kasbiy malakasini taʼlim natijalariga umum oʻquv fanlari talablari bilan birlashtiradi va buning natijasida boʻljak informatika oʻqituvchisining tayyorgarligi kompetentli yondashuv mantigʻida amalga oshirilishi hamda oliy taʼlim muassasasi bitiruvchisining kasbiy kompetentlili shakllanishiga olib kelinishi lozim.

Kasbiy kompetentlilik "oʻqituvchi tomonidan uning pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va oʻqituvchi shaxsini maʼlum bir qadriyatlar, gʻoyalar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida shakllanganligini belgilovchi bilim, mahorat va koʻnikmalarning zaruriy hajmini egallaganligi" sifatida talqin qilinadi [4].

Pedagogik faoliyatni yetarlicha yuqori darajada amalga oshira oladigan, oʻquvchilarning oʻqitilganligi va tarbiyalanganligida yaxshi natijalarga erishadigan hamda shaxs sifatida oʻzini yuzaga chiqara oladigan oʻqituvchi kasbiy kompetentli boʻlib hisoblanadi [12-18].

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv - bu hozirgi zamon kasbiy taʼlim tizimini mehnat bozorining talab-ehhtiyojlari bilan bir qatorga qoʻyishga intilishdir [30]. Mana shunday yondashuv oʻqituvchidan oʻquvchiga bilimlarning translyatsiya qilinishini emas, balki amaliy tajribalar, bilim, mahorat va koʻnikmalar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetentlilikni shakllantirishni koʻzda tutadi. Pedagog-xodimlar uchun eng muhim vazifa boʻlib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Абдушоҳид Абдурашидович Хасанов, & Шарофат Бахрдир Кизи Уроцова (2021). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАТИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА. *Scientific progress*, 2[1], 300-308.

[2] Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). ACCESS TO ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN THE EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).

[3] Khasanov A.A. Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. Education, Science and Innovation // Spiritual-Educational, Scientific and Methodological Journal 2017, №3, P. 38- 44. 4.

[4] Uroкова, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. ISJ Theoretical & Applied Science, 09(89), 34-37.

## TASVIRIY FAOLIYAT ORKALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi katta o'qituvchisi D.Q.Ulug'berdiyeva  
NavDPI 3 kurs talabasi N. Ziyodullayeva*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasviriy faoliyat tushunchasi tub negizi, tasviriy faoliyat turlari mazmun-mohiyati, bolalarning shaxs sifatida shakllanishlarida taniqli pedagog-psixologlarning fikrlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida badiiy-estetik madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishda tasviriy faoliyatning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy faoliyat, shaxs sifati, badiiy-estetik madaniyat, ma'naviyat, bolalar, rasm chizish, maktabgacha ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об основах понятия изобразительной деятельности, содержании видов изобразительной деятельности, взглядах известных педагогов-психологов на формирование детей как личности, роли изобразительной деятельности в воспитании художественно-эстетического культура и духовность дошкольников.

**Ключевые слова:** Изобразительное искусство, личность, художественно-эстетическая культура, духовность, дети, живопись, дошкольное образование.

Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarning voqelik haqidagi tasavurlarining kengayish va mustahkamlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Taniqli psixolog V.M.Teplov idrokning alohida xarakterini quyidagi tasvir bilan bog'liq holda ta'kidlab o'tadi: «tasviriy san'atda tasvir masalasi kuchli idrok qilishni talab etadi. Qurilgan narsaning tasvir masalasini yecha turib, bola har doim narsalarni yangicha tomondan anchagina tezroq, kuchliroq va aniqroq qurishni o'rganib boradi». Idrok etishning rivojlanishi tasviriy faoliyatdan kelib chiqib, ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, o'rab turgan voqelik bilan tanishish jarayo-nida bolaning bilish va estetik malakasi boyiydi, ikkinchidan, turli predmetlar haqidagi tasavvurlari aniqlashadi. Predmetlarning xususiyatlari va belgilarini idrok etish shu predmetlarning keyinchalik tasvirlay olishi bolalardan tekshirish vositalari orqali tanishishni talab qiladi. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida tekshiruv maqsadlari turlicha bo'ladi. Tarbiyachi turli faoliyat turlarida bolalar diqqatini predmetning shakliga, hajmiga, fazoda joylashishiga qaratadi, keyin rasm chizish mashg'ulotidan oldin predmetning konturi qismlarini alohida ajratib ko'rsatadi, agar berilgan predmet uchun xarakterli rang bo'lsa, uni ham ajratib ko'rsatadi. Loy mashg'ulotining hajmli massasi har tom ondan ko'riladi, uning qo'shilib ketgan va ajralib turgan qismlari ko'rib chiqiladi.

Qurish-yasash mashg'ulotlarida qismlarning proporsional munosobatlari, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Ko'zdan kechirish jarayonining o'zi 5 bosqichni o'z ichiga oladi:

— predmetni o'z holda idrok etish (tarbiyachi yorqin obrazli shaklda predmetning umumiy xarakteristikasini beradi);

— tahlil bilan birgalikda ko'zdan kechirish (oldin katta qismlar, keyin mayda qismlar ajratiladi, ularning shakllari aniqlanadi);

— predmetning qurilishini aniqlash va katta qismlarning o'zaro bog'liqligi;

— rangning ajratilishi;

— predmetni butun holda qaytadan ko'zdan kechirish;

Idrok etish jarayonining bosqichlariga bunday taqsimlanishi shartli va ular har doim idrok etishda ishtirok etmaydi. Bu bolalarning malakalariga va ular oldida turgan vazifalariga bog'liqdir. Predmetni qayta ko'zdan kechirish talab etilmaydi, kimdir faqat ko'rish orqali predmetni tahlil qilish yoki so'z orqali tasvirlab berish o'tiladi. Bir turdagi predmetlarni qismlarga ajratish va o'zaro bog'liq shakllarini topish qobiliyatini tarbiyalash uchun taqqoslashdan foydalanish muhimdir. Masalan, hamma daraxtlarning asosi vertikal holatda joylashgan, shoxlari asosiga nisbatan burchak ostida joylashgan; ko'pgina hayvonlarning tanasi oval shaklida. «Shaklni idrok etish ko'rish orqali hamda his etish yordamida o'tilishi kerak. Bolani ko'z bilan yoki qo'l harakati bilan konturni bir qismdan ikkinchi qismga o'tib, chizib chiqishga o'rgatish lozim. Kichik guruhlarda qo'l harakatlarini, albatta, kiritish kerak, katta guruhlar uchun esa konturni idrok qila olish yetarli, qolgani esa yordamchi organ bo'lib hisoblanadi» (L.A.Lublinskaya). Hajm (velichina)ni idrok etish kichik maktabgacha yoshdagi bolaga tushunarli, agar farq ancha katta bo'lsa (katta-kichkina). Hajmni idrok etish proporsional munosabatlarni o'z ichiga oladi va ko'rish ham da his etish kabi tekshirishlarni talab qiladi. Bunda qurish ko'rsatgichlari harakatli yo'lar bilan tekshirilib borilishi kerak — bir qismni boshqasidan farqlash orqali. Voqelikdagi munosabatlarni idrok etish tasviriy maqsadi bilan birgalikda juda qiyin masaladir. U katta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida o'tiladi va idrok etish jarayoni rasm chizish bilan birgalikda o'tilsa, oson o'zlashtiriladi. Shunday ishning qiziq tadqiqotini L.A.Rayeveva «Bolalar bog'chasining katta guruhlarida mazmunli rasm chizish» kitobida yozgan. Rangni idrok etish bolaga katta emotsional ta'sir etadi. Shuning uchun har doim uni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Bolalar predmetning hamma xususiyatlarini ko'rib chiqib bo'lganlaridan keyingina ularning diqqatini rangga qaratish kerak. Bolalar bilan tekshirishlarni o'tkazish metodikasi ko'pgina shartlar bilan bog'liq. Avvalo, bolalarning egallagan malakalari bilan egallab olmagan, notanish idrok etish usullari o'rtasida bog'iqlik bo'lishi lozim. Birinchi bor tanishuv har doim yuzaki bo'ladi. U o'ziga predmet va uni o'rab turgan muhit haqida umumiy tasavurlarini hosil qilishni kiritadi. Birinchi bor tanishuvda tor maqsadni qo'yish mumkin emas. Idrok etish keng boiishi, turli munosabat va bog'iqlikni kiritish kerak.

Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq qoladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muxim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi - bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofini kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish bolalarni ijodiy qobiliyatlarini va badiiy-estetik didini o'stirishda va har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada faoliyatni ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlaganishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatleri ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**



1. Комарова Т.С. Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию. М.: Просвещение, 1991.
2. Сакулина Н.П. Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. М.: Просвещение, 1993
3. O.Jamollidinova. «Katta bog'cha bolalarini xalq hunarmandchiligiga o'rgatish bo'yicha ish dasturi» T.: 1996.
4. Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: «Ilm ziyo». 2006
5. Hasanboyeva O.U. va boshq. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2010
6. M.Sh.Nurmatova, Sh.T.Hasanova "Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi" Toshkent-2012.

## TASVIRIY FAOLIYAT ORKALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi katta o'qituvchisi D.Q.Ulug'berdiyeva  
NavDPI 2 kurs(kechki) talabasi G. Asadullayeva*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены виды изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях, их содержание, развитие умственного, нравственного, эстетического воспитания у детей в процессе изобразительной деятельности, качества воли - довести до конца начатое дело, ставить цель и стремиться к ее достижению, преодолевать трудности, демонстрируется понимание таких особенностей, как помощь ближнему.

**Ключевые слова:** Изобразительная деятельность, художественное творчество, рисование, эстетическая интуиция, произведения искусства.

Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni ta'lim-tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

### NATIJA

So'ngi yillarda respublikamizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz talimning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 8-moddasida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" deb belgilab qo'yilgan[3].

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

#### MUHOKAMA

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

"Maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda albatta bajaramiz"[1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsa-da, ularni bir yo'nalish, maqsad bo'yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o'ziga xos ko'rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari - bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo'linadi: - mashg'ulotning boshlanishi-topshiriqni tushuntirish; - mashg'ulotning borishi-topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi; -mashg'ulotning yakuni-bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rasm faoliyatini san'at markazlarida rejalashtiriladi[9].

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini engil, erkin bir tekisdagi xarakter qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakterlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, kattakichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real

munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-сон 23.09.2020. 8-moddasi
4. "Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.

## **ZAMONAVIY IJTIMOYIY-MADANIY SHAROITLARD A BOLA SHAXSINING BARQAROR RIVOJLANISHI**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi katta o'qituvchisi  
D.Q.Ulug'berdiyeva  
NavDPI 3 kurs talabasi Z. Jabborova*

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda o'z o'rnini topishga bo'lgan dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiylashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolani ijtimoiylashtirish, pedagogtarbiyachi, metodik ishlar, ijtimoiy hayot.

**Annotation.** The article describes the scope of the work being carried out in the field of preparing the pupils of the preschool educational organization for social life, forming the initial skills to find their place in them, and socialization.

**Key words.** preschool education organization, child socialization, pedagogue, methodical work, social life.

